# MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№2

ILMIY ELEKTRON JURNALI

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

## “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne’matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu’min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)
**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)
**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Ismanov Ibroxim Nabiyevich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori
**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

## JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent
**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

***O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.***

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| **Akobirova Nodira Najmiddin qizi** | Biznes subyektlarini tasniflash tizimida kuzatiladigan asosiy institutsional muammolar | 8 |
| **Ashirova Aziza Zarif qizi, Chinqulov Qahramon Ravshanovich** | Qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari: mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llari | 15 |
| **Dexkanova Nargiza Sharifovna** | Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatining nazariy jihatlari | 22 |
| **Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No’rbo’ta o’g‘li** | O‘zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi: rivojlanishi va istiqbollari | 28 |
| **Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich** | O‘zbekiston respublikasi aholisining hayotiy darajasi va sifatini statistik ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilish | 35 |
| **Туляганова Шахноза Самукджановна** | Цифровизация и инновационные банковские продукты в эпоху цифровой экономики | 42 |
| **Alimov Umid Xamid o‘g‘li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich** | Iqtisodiyotda yetakchi mamlakatlar tajribasida tijorat banklari biznes ekotizimi rivojlanish bosqichlari | 48 |
| **Teshaboyeva Mohigul Eldorjon qizi** | Ishlab chiqarish tannarxining moliyaviy natijalarga ta’sirini baholash uslublari (gilam ishlab chiqarish korxonalari misolida) | 55 |
| **Ibodullayev Shohboz To‘lqin o‘g‘li** | Tijorat banklarida kredit riski va uning bank likvidliligiga ta’siri | 61 |
| **Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich** | Blockchain texnologiyasi asosida moliyaviy tranzaksiyalarni nazorat qilish: DLT arxitekturasi, smart-kontraktlar va O‘zbekiston amaliyoti | 68 |
| **G‘aybullayeva Zilola Rahmatullayevna, Abduxalilov Sardor Abdullo o‘g‘li** | Tijorat banklar faoliyatini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi | 79 |
| **O‘ktamova Nozima Narzulla qizi** | Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyasini rivojlantirish yo‘nalishlari | 85 |
| **Ochilova Ibodat G‘ulom qizi** | Moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va bartaraf etishning ekonometriya asosidagi yondashuvi: empirik tahlil va omillar modeli | 91 |
| **Umariy Muxriddin Xusniddin o‘g‘li** | Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni ekonometrik modellashtirish | 99 |
| **Oybekov Shohjahon Akmal o‘g‘li** | Dual ta’lim asosida oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini moliyalashtirish istiqbollari | 104 |
| **Madaminov G‘ayrat Madiyarovich** | AQSH harbiy xizmatchilarini moddiy rag‘batlantirish tizimining metodologik asoslar va iqtisodiy samaradorligi | 110 |
| **Arifjanova Yayraxon Usmonxo‘jayevna** | O‘zbekiston korporativ emitentlarining xalqaro obligatsiyalari muomilasi | 117 |
| **Ҳожиева Гулнора Ҳабибуллаевна** | Консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитини ташкил этишнинг норматив-ҳуқуқий асослари | 124 |
| **Roza Khudaybergenova** | The role of tax policy in enhancing the attractiveness of the investment climate | 131 |
| **Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o‘g‘li** | Markaziy bank raqamli valyutasining xalqaro to‘lovlar tizimidagi o‘rni: transchegaraviy operatsiyalarni optimallashtirish | 137 |
| **Abdinazarov Akbar Baxriddin o‘g‘li, Khudayarov Makhmasaid, Sherkuziyev Mamadiyar** | Infra qizil spektrometrik o‘lchovlarni metodika va ishlash tamoyillari | 145 |
| **Davronova Feruza Rahmonovna, Olimova Mehrangiz Feruzovna** | Qishloq xo‘jaligining raqamli transformatsiyasi: texnologiyalar agrar iqtisodiyotni qanday o‘zgartirmoqda | 154 |
| **Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li** | Sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llari | 160 |
| **Boymurodova Lobar Tursunboy kizi** | Insurance relations: nature and boundaries | 165 |
| **Абдуллаев Шавкат Насриддинович** | Яширин иқтисодиётнинг иқтисодий хавфсизликка таъсири ва ижтимоий оқибатлари | 179 |
| **Айматова Фарида Хуразовна** | Роль ESG-факторов на финансовую устойчивость и инвестиционную привлекательность университетов | 186 |
| **Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna** | Xalqaro tajribalar asosida kripto sanoati faoliyati tahlili va ularning ishlash prinsiplari | 193 |
| **Одинаев Равзатилло Асатуллоевич** | Технологик ривожланиш қонуниятлари иқтисодиётдаги таркибий тузилмавий такомиллаштиришлар асоси сифатида | 199 |
| **Ахмедов Хасанжон Мухамадович** | Миллий иқтисодиётнинг институционал таркибий тузилмаси ва уни такомиллашуви | 206 |

| | | |
|---|---|---|
| **Abduraxmonova Munisa Axat qizi** | Aloqa va axborot xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning nazariy yondashuvlari | 215 |
| **Abdullaeva Madina Bahadirova, Muyassar Umarkhodjaeva Ganievna** | Evolution of organizational culture in industrial enterprises in the context of digital transformation | 220 |
| **Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li** | Aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimining o‘rni | 228 |
| **Ирмухамедова Муслима Дилшадовна** | Особенности инвестиций в акции эмитентов в условиях формирования фондового рынка Узбекистана | 236 |
| **Srajidinova Nodira Shavkatovna** | Mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish va iqtisodiy o‘sishni prognozlash mexanizmlari | 243 |
| **Ergasheva Ma’mura Farxodovna** | Investitsiyalarning tarkibiy dinamikasi va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini korrelyatsion-regression tahlil qilish | 248 |
| **Muxtorova Zarina Abduxalil qizi** | Migratsiyaning bandlik va ishsizlik darajasiga ta’siri | 259 |
| **Abdukaxxorova Durdona Ilxomovna, Hakimova Muhabbat Fayziyevna** | Factors of sustainable development of the education system in the context of digital transformation | 264 |
| **Маннапова Раъно Аброровна, Хамиджонов Бобиржон Анваржон ўғли** | Бюджет ташкилотларида маблағлардан самарали фойдаланишда ички аудитни рақамлаштириш | 270 |
| **Zaynalov Jahongir Rasulovich, Abdullayeva Sadokat Shonazarovna, Nurmuhamedov Abbos Mamadalievich** | Kichik moliyaviy institutlar va ularning sanoati rivojlangan mamlakatlardagi faoliyat yuritish xususiyatlari | 276 |
| **Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович** | Развитие социальной инфраструктуры и качество жизни населения: анализ в разрезе регионов Узбекистана за 2012–2024 годы | 282 |
| **Suyunova Zuxra Bahodir qizi, Fayzullayev Jonibek Alisherovich** | Korporativ boshqaruvda auditning roli va ahamiyati | 287 |
| **Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Курбаниязова Диана Даутибаевна** | Современное состояние фондового рынка Республики Узбекистан: институциональный и аналитический аспект | 294 |
| **Tojiyev Javlonbek Rustamovich, Otaxonova Maftunaxon Tulkinbekovna, Bekmuratov Samariddin Shamuratovich** | Kichik biznesda raqamli marketing: O‘zbekiston sharoitida samaradorlik va integratsiya modellari | 305 |
| **Iboyev Saxiddin Mansurovich** | Ta’lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy modellari | 314 |
| **Ismoilova Feruza Kubaymurodovna, Bozorov Sardor Ilhom o‘g‘li** | Ta’lim xizmatlari bozorida universitetning raqobatbardoshligini baholash va uni yaxshilash strategiyasini tanlash | 322 |
| **Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich, Ochilov Orifjon Shohsuvor o‘g‘li** | Kambag‘allik darajasini pasaytirishnining ba’zi iqtisodiy omillari. (Qashqadaryo viloyati misolida) | 328 |
| **Жунайдуллаев Мелс Аслиддин ўғли** | Индивидуал спортчиларни тайёрлаш тизимини бошқариш амалиётига бағишланган илмий назарияларнинг гуруҳланиши | 334 |
| **Ne’matova Moxinur Farxod qizi** | Maxsulotlarni sotish va xizmatlar ko‘rsatishda marketing siyosatini internet tarmog‘i yordamida takomillashtirish istiqbollari | 340 |
| **Султонмуродов Бобир Баходирович, Абдуллоев Фуркат Олимджонович** | Риск инвестиций в исламском финансировании | 346 |
| **Xasanov Sardor Xazratkulovich** | O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi: institutsional asoslar va amaliy samaradorlik tahlili | 352 |
| **Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna** | O‘zbekistonda ekologik audit tizimining rivojlanishi | 360 |
| **Xomitov Komiljon Zoitovich** | Rieltorlik faoliyatini tartibga solishning xorij va O‘zbekiston tajribasi tahlili | 365 |
| **Usmanova Muslimaxon Abdusalomxo`ja qizi** | O`zbekiston respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirishda depozit va kreditlarning ulushi va ahamiyati | 373 |
| **Qodirov Bahodir Qudratovich** | O‘zbekistonda bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajalarini tarixiy shakllanishi | 378 |
| **Адилова Гульмира Шамшетдиновна** | Корпоратив лойиҳа бошқарувининг назарий асослари | 385 |
| **Muminova Parvina Ilhom qizi** | Jahon amaliyotida bank majburiyatlari hisobini yuritishda MREL va TLAC iqtisodiy tushunchalar tasnifi ahamiyati | 393 |
| **Озод Улугбекович Мавлонов** | Систематический обзор литературы по корпоративным конфликтам в государственных предприятиях | 398 |

| | | |
|---|---|---|
| **Mamatov Axmetjon Atajanovich, Xurramov Azamat Fayzullaevich** | Qishloq xo‘jaligi maxsulotlari eksportini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning xorijiy davlatlar tajribasi | 405 |
| **Adilova Zohida Ikromjonovna** | Bugungi kunda banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlashdagi muammolar | 413 |
| **Sultanova Gavkhar Karimovna, Muysinova Mushtariy Azamat qizi** | Innovation and export diversification: a comparative analysis of South Korea, China and Singapore experience | 420 |
| **Муминходжаева Дилноза Рамизовна** | Учет доходов и анализ финансовых результатов в условиях перехода на МСФО | 427 |
| **Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich** | O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ichki auditni huquqiy-me’yoriy tartibga solish | 433 |
| **Narzullayev Elmurod Shuxrat o‘g‘li** | Chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirishda davlat siyosati va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari | 441 |
| **Kuvondikov Ravshan Qushaqovich** | Analysis of the effectiveness of investments attracted to the regions: modern approaches | 447 |
| **Suvpo‘latov Ozodjon Alijon o‘g‘li** | Aholining tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida | 453 |
| **Рахимов Матназар Юсупович** | Иқтисодий ночорлик(бонкротлик), тўловга қобилятсизликни баҳолашдаги муаммоли жиҳатлар | 459 |
| **Ли Ирина Валентиновна** | Развитие интеллектуальной таможни на основе цифровой трансформации: модель управления проектами и система управления рисками | 466 |
| **Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich, Nuriddinova Nilufar** | Iqtisodiyotga raqamli iqtisodiyotni joriy etishning istiqbollari | 475 |
| **Murodov Jahongir Choriyevich** | O‘zbekiston Respublikasi fermer xo‘jaliklarida qo‘shilgan qiymat zanjiri samaradorligini statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish | 481 |
| **Гулямова Асия Нурутдинова** | Цифровая трансформация финансового сектора: глобальные тренды и национальные особенности | 486 |
| **Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich** | Risk komponentlari: umumiylik va o‘ziga xoslik | 492 |
| **Ismatillayeva Mehrinoz Fozilovna** | Korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini shakllantirish va samaradorligini baholash | 505 |
| **Saidova Sevaraxon Abdumo‘min qizi** | Xalqaro audit standartlari asosida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarining kompleks metodikasini takomillashtirish | 512 |
| **Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g‘li** | Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot loyihalari va tijoratlashtirish faoliyati buxgalteriya hisobi va ichki auditining nazariy masalalari | 518 |
| **Нуралиев Бехзод Бахтиёр ўғли** | Молиявий инструментларнинг иқтисодий мазмуни, таснифи ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари | 524 |
| **Turabova Shaxnoza Taxirovna** | Tijorat banklarida kredit skoringini takomillashtirishda big data va mashinaviy o‘qitish texnologiyalarining roli | 531 |
| **Narzullayeva Xilola Abdukomilovna** | O‘zbekiston iqtisodiyotga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish va moliyalashtirish | 539 |
| **Majidov Amirxon Abdumalik o‘g‘li** | Ko‘chmas mulklarni garov ta’minoti sifatida baholashni takomillashtirish | 550 |
| **Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li** | O‘zbekiston uchun JSTga a’zo davlatlarda kichik biznes rivojlanishi tajribasi: qiyosiy tahlil (Xitoy, Vetnam, Qozog‘iston misolida) | 560 |
| **Xushvoqov Azizbek Sirojidinovich** | Investitsiyaviy muhit jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar | 570 |
| **Ismoilov Asadbek Abdusamat o’g‘li, Bababekova Zebo Baxtiyor qizi** | Davlat auditi tizimini raqamlashtirish va xalqaro standartlar asosida isloh qilish: O‘zbekiston tajribasi va istiqbollari | 578 |
| **Yovkochev Sherzod Shukhratovich** | Modern mechanisms for enhancing the methodology of monitoring the effectiveness of cooperation with international financial institutions | 587 |
| **Умаралиев Санжар Султоналиевич** | Хорижий инвестицияларни жалб этишнинг молиявий механизмларини шакллантиришнинг назарий асослари | 593 |
| **Umarov Baxrom Boxodir o‘g‘li** | Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning ilg‘or xorij tajribalari | 600 |
| **Ташматова Мухтабар Алишеровна** | Қишлоқ хўжалигининг барқарор ривожланишини инвестициялаш бўйича хориж тажрибаси ва ундан Ўзбекистон амалиётида фойдаланиш имкониятлари | 610 |
| **Abdullayev Dilmurod Aliyar o‘g‘li** | Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda bevosita soliqqa tortish ma’muriyatchiligini takomillashtirish yo‘nalishlari | 620 |
| **Aminov Farrux Farxadovich** | O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari | 627 |

| | | |
|---|---|---|
| **Yusupov Ahmadbek Tajiyevich Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** | Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishni takomillashtirish | 637 |
| **Rajabova Malika Nuriddin kizi** | The institutional quality and Foreign Direct Investment inflows in Central Asian Countries | 645 |
| **Saidov Sardorbek Iskandarbekovich** | Likvidlikni boshqarishning zamonaviy usullari va inflyatsion jarayonlar | 654 |
| **Mamadjanov Farrux Gayratovich** | O‘zbekiston bank-moliya tizimida kapital oqimlarini barqarorlashtirishning institutsional asoslari | 663 |
| **Khakimov Doston** | Intrinsic versus market-based valuation approaches in pharmaceutical equity research: evidence from Novartis AG | 672 |
| **Botirxo‘ja Aziza Faxmuddin qizi** | Aksiya qiymatini baholashning nazariy va amaliy asoslari | 680 |
| **Zokirova Feruza Farxod qizi** | Aholi jamg‘armalarini investitsiya faoliyatiga jalb qilishning nazariy va amaliy asoslari | 686 |
| **Байдарова Сабина Бахтияровна** | Влияние глобализации на экономику развивающихся стран на примере Узбекистана, Индии и Китая | 693 |
| **Gafurova Umida Fatixovna** | Korxonalar investitsion va innovatsion faoliyati samaradorligini oshirishning fiskal-institutsional mexanizmlari | 700 |
| **Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna** | Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish | 709 |
| **Tilakov Navruz Maxmudovich** | Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishning joriy holati va o‘zgarish tendensiyalari tahlili | 715 |
| **Fozilchayev Shuhratjon Qobiljon o‘g‘li** | Eksportga yo‘naltirilgan korxonalarda valyuta risklarini xedjerlash (sug‘urtalash) mexanizmlarini takomillashtirish | 725 |
| **Насиров Эгамқул Исмаилович** | Бюджет харажатларининг иқлим ўзгаришларига таъсирини таснифлашнинг методологик жиҳатлари | 731 |
| **Umarov Zafar Absamatovich** | Banklarda kreditlar buxgalteriya hisobini MHXS (IFRS) 9 «Moliyaviy vositalar»ni qo‘llash asosida takomillashtirish | 738 |
| **Yo‘ldashev Xushnidbek Soyibjon o‘g‘li** | Nodavlat oliy ta’lim muassasalari dividend siyosati samaradorligini oshirish yo‘llari | 747 |
| **Абдураимова Мафтунахон Ахматовна** | Аудиторлик текширувлари жараёнида суғурта ташкилотларида суғурта фирибгарлигига мойиллик борлигини аниқлаш методологияси | 753 |
| **Абидов Мансур Илхомжонович** | Молиявий назоратни ташкил этишнинг хорижий тажрибаси ва ундан Ўзбекистон амалиётида фойдаланиш истиқболлари | 759 |
| **Safarova Nodira Ashuraliyevna** | Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda yashil soliqlarning roli | 765 |
| **Rabimqulov Sherzod Murtozayevich** | Farmatsevtika sanoatida investitsiyalar hisobiga yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash | 772 |
| **Xaydarova Charos Nizomiddin qizi** | O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda xatarlarni boshqarish mexanizmlari | 781 |
| **Utanov Bunyod Kuvandikovich** | Agrar soha samaradorligini k-means klasterlash usuli asosida statistik baholash | 792 |
| **Aminova Nilufar Umarboy qizi** | O‘zbekiston bank tizimida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalalari | 798 |
| **Narkuziyev Anvar Rustamovich** | Davlat qarzi va inflyatsiya o‘zaro ta’sirining xalqaro tajribasi | 808 |
| **Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo‘ldoshali o‘g‘li** | Islom moliyasi rivojlanishi sharoitida risklarni boshqarish hamda makroiqtisodiy dividendlarini oshirish yo‘nalishlari | 815 |
| **G‘afurov Olimjon G‘olib o’g’li** | Markaziy bankning mustaqilligi va kommunikatsiya siyosati: milliy valyuta barqarorligini ta’minlash bo’yicha nazariy konsepsiyalar | 823 |
| **Ergashev Azizxon Avazxon o‘g‘li** | Tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar samaradorligini kompleks baholash va oshirish metodologiyasi | 831 |
| **Shoyimov Adiz Sadredinovich** | To‘qimachilik sanoati rivojlanishining dinamik taqsimlangan laglar modeli asosidagi ekonometrik tahlili | 837 |
| **Saidov Doniyor Abdullayevich** | “Smart banking – financial stability” konseptual yondashuvi asosida o‘zbekiston tijorat banklari moliyaviy barqarorligini kompleks baholash | 845 |
| **Xolmurotov Fozil Saribayevich** | Eksportga yo'naltirilgan raqobatbardoshlik mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik omili sifatida: nazariy asoslar va amaliy yo'nalishlar | 852 |

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# BIZNES SUBYEKTLARINI TASNIFLASH TIZIMIDA KUZATILADIGAN ASOSIY INSTITUTSIONAL MUAMMOLAR

**Akobirova Nodira Najmiddin qizi**

*tayanch doktorant*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail : n.najmiddinovna24.12@gmail.com*
*ORCID: 0009-0003-4697-8274*

***Annotatsiya.*** *Maqolada biznes subyektlarini mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga ajratish tizimining institutsional mohiyati hamda ushbu tizimda yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Xalqaro amaliyot va O‘zbekiston tajribasi asosida chegara muammosi (threshold problem), sun’iy maydalash (artificial fragmentation) va o‘sish chegarasi effekti (growth ceiling effect) kabi hodisalarning iqtisodiy rag‘batlar tizimiga ta’siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari tasniflash mezonlarini dinamik va sohaviy moslashuvchan shaklda takomillashtirish zarurligini asoslaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *biznes subyektlari, tasniflash, SME siyosati, institutsional muammolar, threshold problem, fragmentation, growth ceiling, O‘zbekiston.*

# ОСНОВНЫЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В СИСТЕМЕ КЛАССИФИКАЦИИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

**Акобирова Нодира Нажмиддин кизи**

*докторант*
*Ташкентского государственного*
*экономического университета*
*E-mail: n.najmiddinovna24.12@gmail.com*
*ORCID: 0009-0003-4697-8274*

***Аннотация.*** *В статье анализируется институциональная сущность системы классификации субъектов предпринимательства и основные проблемы, возникающие в рамках данной системы. На основе международного опыта и практики Узбекистана раскрывается влияние таких явлений, как threshold problem, artificial fragmentation и growth ceiling effect, на систему экономических стимулов. Результаты исследования обосновывают необходимость совершенствования критериев классификации на основе динамического и отраслевого подхода.*

***Ключевые слова:*** *субъекты предпринимательства, классификация бизнеса, политика МСП, институциональные проблемы, threshold problem, fragmentation, growth ceiling, Узбекистан.*

# KEY INSTITUTIONAL PROBLEMS IN THE BUSINESS ENTITY CLASSIFICATION SYSTEM

**Akobirova Nodira Najmiddin kizi**

*PhD Researcher,*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: n.najmiddinovna24.12@gmail.com*
*ORCID: 0009-0003-4697-8274*

***Annotation.*** *The article examines the institutional nature of the business classification*

*system and the key problems arising within this framework. Based on international experience and the case of Uzbekistan, the study explores the impact of threshold problem, artificial fragmentation, and growth ceiling effect on economic incentives. The findings highlight the need to improve classification criteria through dynamic and sector-specific approaches.*

***Keywords:*** *business entities, SME classification, SME policy, institutional problems, threshold problem, fragmentation, growth ceiling, Uzbekistan.*

**Kirish**

So‘nggi yillarda biznes subyektlarini mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga ajratish tizimi iqtisodiy siyosatning markaziy instrumentlaridan biri sifatida qaralmoqda. Davlatlar tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy diversifikatsiyani ta’minlash hamda bandlikni oshirish maqsadida aynan tasniflash tizimi orqali differensial soliq, kredit va innovatsion rag‘batlar mexanizmlarini joriy etmoqda. Shu jihatdan, tasniflash tizimi faqat statistik klassifikatsiya emas, balki iqtisodiy rag‘batlar arxitekturasini shakllantiruvchi institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, biznes subyektlarini toifalash mezonlari korxonalarning strategik qarorlari, investitsiya faolligi va tashkiliy rivojlanish trayektoriyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, toifalar o‘rtasidagi chegaralarning qat’iy belgilanishi iqtisodiy rag‘batlar tizimida muayyan disbalanslarni keltirib chiqarishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda mazkur holat threshold problem, artificial fragmentation va growth ceiling effect tushunchalari orqali izohlanadi. Bu esa tasniflash tizimini institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan qayta baholash zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznesning Yalpi ichki mahsulot, bandlik va tadbirkorlik faolligidagi ulushi yuqori bo‘lgani sababli tasniflash tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi islohotlar doirasida aylanma mezoniga o‘tish, imtiyozlar tizimini qayta ko‘rib chiqish hamda tadbirkorlik muhitini liberallashtirish choralari mazkur institutning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirdi. Shu bilan birga, tasniflash mezonlarining iqtisodiy rag‘batlarga ta’siri, ayniqsa korxonalar o‘sishi va tashkiliy tuzilishiga ta’siri masalasi ilmiy jihatdan yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi biznes subyektlarini tasniflash tizimining institutsional mohiyatini tahlil qilish, xalqaro va O‘zbekiston tajribasi asosida asosiy muammolarni tizimlashtirish hamda tasniflash mezonlarini takomillashtirishning konseptual yo‘nalishlarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot natijalari tasniflash tizimini iqtisodiy siyosatning faol rag‘batlantiruvchi mexanizmi sifatida qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Biznes subyektlarini tasniflash tizimi iqtisodiy siyosatning muhim institutsional elementi sifatida xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, formal qoidalar va mezonlar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xulq-atvorini shakllantiradi hamda iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. D. North ta’kidlashicha, iqtisodiy institutlar rag‘batlar strukturasini belgilaydi va resurslar taqsimotining samaradorligini aniqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, biznes subyektlarini mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga ajratish mezonlari ham iqtisodiy rag‘batlar arxitekturasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda kichik va o‘rta biznes (SME) tasnifi asosan uchta asosiy mezon – xodimlar soni, yillik aylanma va aktivlar qiymatiga asoslanadi. S. Sidek, M. Rosli va M. Hasbolah tadqiqotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi modeli eng mukammal va tizimli yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu modelda uch mezon birgalikda qo‘llanilib, biznesning real iqtisodiy salohiyatini aniqlash imkonini beradi [7].

European Commission hisobotlarida SME tasnifi iqtisodiy siyosatni maqsadli amalga oshirish vositasi sifatida baholanadi hamda tasniflash mezonlari davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uzviy bog‘langanligi qayd etiladi [4].

OECD tadqiqotlarida tasniflash tizimi iqtisodiy o‘sish, innovatsion faollik va eksport

salohiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. OECD (2017) hisobotida ta’kidlanishicha, tasniflash mezonlarining qat’iy belgilanishi ayrim hollarda korxonalarning o‘sish strategiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [3]. Raqamli iqtisodiyot sharoitida an’anaviy mezonlarning moslashuvchanligi masalasi dolzarb bo‘lib, yagona universal yondashuv barcha tarmoqlar uchun birdek samarali bo‘lmasligi qayd etiladi.

Jahon banki tadqiqotlarida SME tasnifi moliyaviy inklyuziya va kreditlash siyosatini shakllantirishda asosiy mezon sifatida qo‘llaniladi. Ayyagari, Beck va Demirgüç-Kunt (2007) tadqiqotlarida SME sektori iqtisodiy o‘sish va bandlik yaratishning muhim drayveri sifatida baholanadi [2]. Shu bilan birga, mualliflar tasniflash mezonlarining bir xilligi har doim ham real iqtisodiy salohiyatni to‘liq aks ettirmasligini ta’kidlaydilar. World Bank hisobotlarida ham SME tasnifi davlat siyosati va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining asosiy institutsional tayanchi sifatida qaraladi [5].

So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda tasniflash tizimining nojo‘ya institutsional oqibatlari ham keng muhokama qilinmoqda. “Threshold problem” tushunchasi tasniflash chegaralarining qat’iy belgilanishi natijasida korxonalar iqtisodiy faoliyatini ma’lum darajada sun’iy ravishda moslashtirish holatini anglatadi [3]. Bunda korxonalar imtiyozlarni saqlab qolish maqsadida aylanma yoki xodimlar sonini chegaraga yaqin darajada ushlab turishi mumkin. “Artificial fragmentation” esa biznesni formal ravishda bir nechta kichik subyektlarga bo‘lish orqali imtiyozlardan foydalanish holatini ifodalaydi [6]. Bu holat statistik ma’lumotlarning real iqtisodiy tuzilmani to‘liq aks ettirmasligiga olib keladi. “Growth ceiling effect” fenomeni esa yuqori toifaga o‘tish natijasida yuzaga keladigan qo‘shimcha soliq va ma’muriy yuklama sababli korxonalar o‘sishni kechiktirishini bildiradi [3,6].

Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda “missing middle” muammosi keng o‘rganilgan bo‘lib, bunda kichik korxonalar soni yuqori bo‘lsa-da, o‘rta biznes segmentining zaifligi kuzatiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar tasniflash tizimi o‘sish jarayonini rag‘batlantirmasa, u iqtisodiy transformatsiyani sekinlashtiruvchi omilga aylanishi mumkin. Ayniqsa, o‘rta biznes segmenti iqtisodiy diversifikatsiya va eksport salohiyatini oshirishda “o‘sish ko‘prigi” vazifasini bajarishi ta’kidlanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tasniflash tizimini nafaqat statistik vosita, balki iqtisodiy xulq-atvorni shakllantiruvchi institutsional mexanizm sifatida talqin qiladi. Biroq rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, jumladan O‘zbekiston sharoitida tasniflash mezonlarining iqtisodiy rag‘batlar tizimiga ta’siri yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, tasniflash tizimini dinamik va sohaviy moslashuvchan institut sifatida qayta baholash zaruratini asoslaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda institutsional tahlil, qiyosiy tahlil va konseptual umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Yevropa Ittifoqi, OECD mamlakatlari va AQSH amaliyoti bilan bir qatorda O‘zbekistonda amal qilayotgan tasniflash mezonlari tahlil qilindi. O‘zbekiston qonunchiligi, statistic ma’lumotlar va islohotlar mazmuni islohotlar manbayi sifatida xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar**

Tahlil tasniflash tizimida uchta asosiy institutsional muammo shakllanishini ko‘rsatdi.

Thresold problem holatida toifa chegaralari korxonalrning tabiiy o‘sishini cheklashi mumkin. Korxonalar imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida iqtisodiy faollikni chegaraga moslashtiradi[3].

Artificial fragmentation holatida biznes formal jihatdan bir nechta kichik subyektlarga bo‘linadi. Bu statistic ma’lumotlarning real holatni to‘liq aks ettirmaligiga olib keladi[6].

Growth ceiling effect esa yuqori toifaga o‘tish natijasida yuzaga keladigan qo‘shimcha soliq va ma’muriy talablar sababli korxonalar o‘sihni kechiktirishga olib keladi[3,6].

1-jadval.

**Biznes subyektlarini tasniflash tizimida kuzatiladigan institutsional muammolar***

| Muammo turi | Mazmuni | Korxonalar reaksiyasi | Iqtisodiy ta’sir | O‘zbekiston uchun ahamiyati |
|---|---|---|---|---|
| **Threshold problem** (chegara muammosi) | Toifa chegaralari imtiyoz bilan bog‘langan | Yillik aylanmani yoki xodimlar sonini chegarada ushlab turish | Tabiiy o‘sish sekinlashadi | Yillik aylanmaga asoslangan tasnifda dolzarb |
| **Artificial fragmentation** (sun’iy maydalash) | Biznesni formal ravishda bir nechta kompaniyaga bo‘lish | Yuridik shaxslar sonini oshirish | Statistika aniqligi pasayadi | Kichik biznes imtiyozlari bilan bog‘liq xavf mavjud |
| **Growth ceiling effect** (o‘sishdan qo‘rqish) | Yuqori toifaga o‘tish xarajatni oshiradi | O‘sishni kechiktirish | Investitsiya va innovatsiya pasayadi | O‘rta biznes zaifligi bilan bog‘liq |

***Manba:*** *muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.*

Jadval ma’lumotlarini tasniflash tizimi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda muhim instrument bo‘lishi bilan birga, iqtisodiy rag‘batlar tizimida muayyan disbalanslarni ham yuzaga keltirishini ko‘rsatadi[3]. Ayniqsa, chegaraviy mezonlarning qat’iyligi korxonalrning tabiiy o‘sishiga ta’sir qilib, institutsional moslashuv holatlarini shakllantirishi mumkin. Bu holat O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes ulushi yuqori bo‘lgan sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi.

1-rasm.

**Biznes subyektlarini tasniflash chegaralarining iinstitutsional ta’sir mexanizmi***




**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

1-rasm biznes subyektlarini tasniflash chegaralari korxonalarning iqtisodiy xulq-atvoriga qanday ta’sir ko‘rsatishini konseptual ravishda aks ettiradi. Chegaraviy mezonlar iqtisodiy

qarorlarning bozor omillaridan kelib, sun’iy moslashuv jarayonlarini shakllatirishi mumkin.

O‘zbekistonda biznes subyektlarini tasniflash tizimi oxirgi yillarda isloh qilindi va xodimlar sonidan tashqari aylanma mezonga o‘tish tendensiyasi kuchaydi[1].Bu yondashuv biznes ko‘lamini bozor faolligi asosida baholash imkonini yaratdi. Shu bilan birga, imtiyozlar tizimining tasniflash bilan bevosita bog‘langani ayrim institutsional reaksiyalarni shakllantirishi mumkin[4].

Ayrim hollarda korxonalar soliq imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida aylanmani chegaraga yaqin darajada ushlab turishi kuzatiladi[5]. Shuningdek, biznes faoliyatini bir necha yuridik shaxslarga bolish holatlari ham iqtisodiy muhokamalarda qayd etilmoqda[2]. Bu esa statistic baholashning aniqligi va davlat qo‘llab-quvvatlashning maqsadliligini ta’minlash masalasini dolzarblashtiradi[3].

O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning YAIM va bandlikdagi ulushi yuqori bo‘lganligi sabali tasniflash tizimi iqtisodiy o‘sish dinamikasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[1].Shu nuqtayi nazardan, tasniflash mezonlarining iqtisodiy rag‘batlarga ta’sirini baholash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2015–2023 yillar davomida yuqori darajada saqlanib kelmoqda va ayrim yillarda 50 foizdan ortiq ko‘rsatkichni tashkil etgan [1]. Bandlik tarkibida ham kichik biznesning ulushi ustun hisoblanadi.

Shu bilan birga, korxonalar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, mikro va kichik subyektlar soni mutlaq ustunlik qiladi, o‘rta biznes segmenti esa nisbatan cheklangan hajmda shakllangan. Bu holat ilmiy adabiyotlarda “missing middle” fenomeni bilan izohlanadi. O‘rta biznes segmentining yetarli darajada rivojlanmaganligi iqtisodiy diversifikatsiya, eksport salohiyati va sanoat modernizatsiyasi jarayonlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tasniflash mezonlarining iqtisodiy rag‘batlar bilan bevosita bog‘liqligi ayrim institutsional reaksiyalarni shakllantirishi mumkin. Xususan, yillik aylanmaga asoslangan mezonlar sharoitida ayrim korxonalar aylanma hajmini chegaraga yaqin darajada ushlab turishga intilishi ehtimoli mavjud. Bunday holat threshold problem mexanizmi orqali izohlanadi. Bu jarayon iqtisodiy o‘sishning tabiiy dinamikasini ma’lum darajada sekinlashtirishi mumkin.

Shuningdek, kichik biznes uchun nazarda tutilgan imtiyozlar mavjud bo‘lgan sharoitda faoliyatni bir nechta yuridik shaxslar orqali amalga oshirish holatlari ham iqtisodiy muhokamalarda qayd etilmoqda. Bu artificial fragmentation fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, statistik ma’lumotlarning real iqtisodiy tuzilmani to‘liq aks ettirmasligiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida tasniflash mezonlarining so‘nggi yillarda xodimlar sonidan tashqari aylanma mezoniga o‘tishi iqtisodiy faollikni bozor ko‘rsatkichlari asosida baholash imkonini yaratdi. Biroq iqtisodiy o‘sish va inflyatsiya dinamikasini hisobga olgan holda chegaraviy mezonlarni muntazam qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keladi.

Aks holda, vaqt o‘tishi bilan nominal ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi tasniflashning iqtisodiy mazmunini zaiflashtirishi mumkin.

Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesning YAIMdagi ulushi yuqori bo‘lsa-da, ishlab chiqarish va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish segmentida o‘rta biznesning salmog‘i nisbatan past. Bu growth ceiling effect bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ya’ni, yuqori toifaga o‘tish bilan bog‘liq qo‘shimcha soliq va ma’muriy yuklamalar ayrim korxonalar uchun o‘sishni kechiktirish motivatsiyasini shakllantirishi ehtimoli mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston tajribasi tasniflash tizimining ikki tomonlama xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Bir tomondan, u davlat siyosatini maqsadli amalga oshirish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash instrumenti bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, chegaraviy mezonlarning qat’iyligi institutsional moslashuv va iqtisodiy xulq-atvor o‘zgarishlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Mazkur empirik kuzatuvlar tasniflash tizimini dinamik va sohaviy moslashuvchan mexanizm sifatida takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

2-jadval.

**O‘zbekistonda kichik biznesning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi***

| Ko‘rsatkich | 2015 | 2018 | 2020 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|---|
| **YAIMdagi ulushi (%)** | 56.7 | 60.4 | 55.5 | 51.8 | 54.7 |
| **Bandlikdagi ulushi (%)** | 77.9 | 76.5 | 74.5 | 73.8 | 74.2 |
| **Ro‘yxatdan o‘tgan subyektlar soni (mingta)** | 226 | 278 | 411 | 555 | 620 |

*O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval ma’lumotlari O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning ustuvor mavqeini ko‘rsatadi. 2015–2023 yillar davomida kichik biznesning YAIMdagi ulushi yuqori darajada saqlanib kelgan. 2018 yilda ushbu ko‘rsatkich 60 foizdan oshgan bo‘lsa, keyingi yillarda ma’lum darajada pasayish kuzatilgan. Biroq 2023 yilda yana tiklanish tendensiyasi qayd etiladi.

Bandlik tarkibida kichik biznesning ulushi an’anaviy ravishda yuqori bo‘lib, 70 foizdan ortiq darajada saqlanib kelmoqda. Bu kichik biznes sektorining ijtimoiy barqarorlik va mehnat bozoridagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ro‘yxatdan o‘tgan subyektlar sonining keskin oshishi (2015 yildagi 226 mingdan 2023 yilda 600 mingdan ortiq darajaga yetishi) mikro va kichik subyektlar segmentining kengayganini ko‘rsatadi. Biroq o‘rta biznes ulushining nisbatan pastligi “missing middle” fenomeni mavjudligini anglatishi mumkin.

Mazkur ko‘rsatkichlar tasniflash tizimining iqtisodiy tuzilma shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, mikro va kichik segmentning ustunligi growth ceiling effect va threshold problem bilan bog‘liq institutsional mexanizmlarni chuqurroq o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

**Xulosa**

Tadqiqot biznes subyektlarini tasniflash tizimi iqtisodiy siyosatning muhim institutsional instrumenti ekanini tasdiqlaydi. Biroq chegaraviy mezonlarning qat’iyligi korxonalar xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatib, sun’iy maydalash va o‘sishni cheklash kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xalqaro tajriba hamda O‘zbekiston amaliyoti tahlili tasniflash tizimini static emas balki dinamik va sohaviy moslashuvchan mexanizm sifatida takomillashitish zarurligini ko‘rsatadi[4]. Shu nuqtayi nazardan tizimli takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, tasniflash mezonlarini dinamik indeksatsiya mexanizmi asosida shakllantirish maqsadga muvofiq. Ya’ni yillik aylanma va boshqa chegaraviy ko‘rsatkichlar inflyatsiya, mehnat unumdorligi hamda iqtisodiy o‘sish suratlariga bog‘liq ravishda avtomatik ravishda qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Bu threshold problem xavfini kamaytiradi va korxonalrning tabiiy o‘sisgini rag‘batlantiradi.

Ikkinchidan, sohaviy differensial tasniflash modelini joriy etish zarur. Mehnat intensivligi, kapital sig‘imi va qiymat yaratish modellari keskin farq qiluvchi tarmoqlarda yagona mezon qo‘llash iqtisodiy samaradorlikni cheklashi mumkin. Shu bois ishlab chiqarish xizmatlar va raqamli iqtisodiyot uchun alohida mezonlar belgilash institutsional jihatdan asosli hisoblanadi.

Uchinchidan, imtiyozlar tizimini keskin emas, bosqichma-bosqich (graduated incentives) mexanizmi asosida qayta tashkil etish taklif beriladi. Toifa o‘zgarishi bilan imtiyozlarning birdaniga bekor qilinishi o‘rniga ularni sekin-asta qisqartirish orqali growth ceiling effect ta’sirini yumshatish mumkin.

To‘rtinchidan, o‘rta biznes rivojlanishini institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash alohida siyosiy yo‘nalish sifatida shakllantirilishi lozim. Xalqaro tadqiqotlarda, o‘rta biznes iqtisodiy transformatsiyasida “o‘sish ko‘prigini” ta’minlanishini ko‘rsatadi. Shu bois o‘rta biznes uchun

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

maxsus moliyaviy instrumentlar, eksport rag‘batlari va texnologik modernizatsiya dasturlari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, sun’iy maydalash xavfini kamaytirish maqsadida iqtisodiy guruh (beneficial ownership) asosida baholash yondashuvini kuchaytirish zarur. Bu bir xil manfaatdorlikka ega subyektlarni formal ravishda kichik korxonalar sifatida taqdim etilishining oldini oladi va davlat qo‘llab-quvvatlashining maqsadliligini oshiradi.

Ushbu takliflarni amalga oshirish biznes muhitining barqaror o‘sishi, institutsional rag‘batlar muvozanatini ta’minlash hamda davlat siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va qarorlari hamda tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlashga oid me’yoriy hujjatlar.
2. Ayyagari M., Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and Medium Enterprises across the Globe. – World Bank, 2007.
3. OECD. Enhancing the Contributions of SMEs in a Global and Digitalised Economy. – Paris, 2017.
4. European Commission. Annual Report on European SMEs. – Brussels, 2022.
5. World Bank. SME Finance. – Washington, 2020.
6. Shane S. The Illusions of Entrepreneurship. – Yale University Press, 2008.
7. Sidek, S., Rosli, M. M., Hasbolah, H. “*An overview on criteria of Small and Medium Enterprises (SMEs) across the economies: a random selection of countries”*. (2020).

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISH YO‘LLARI

**Ashirova Aziza Zarif qizi**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi*
*E-mail: ashirovaaziza0104@gmail.com*

**Chinqulov Qahramon Ravshanovich**
*moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi dotsenti, PhD*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: kakhramonchinkulov@gmail.com*
*ORCID: 0000-0002-0340-6255*

***Annotatsiya.*** *Ushbu ilmiy maqolada qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari va ushbu bozorda dolzarb bo‘lgan muammolar tahlil etiladi. Shuningdek, unda bozor infratuzilmasi, investorlarga yaratilgan imkoniyatlar, axborotning oshkoraligi va bozor rivojlanishiga ta’sir qilayotgan omillar aniqlanadi. Bugungu kunda O‘zbekiston bozor iqtisodiyotida qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish va ommaviy moliyaviy savodxonlik madaniyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar****: qimmatli qog‘ozlar, bozor, aksiya, obligatsiya, veksel, tendensiya.*

# ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

**Аширова Азиза Зариф кизи**
*студентка Ташкентского государственного экономического университета*
*E-mail: ashirovaaziza0104@gmail.com*

**Чинкулов Кахрамон Равшанович**
*доцент кафедры финансы и финансовые технологии, PhD*
*E-mail: kakhramonchinkulov@gmail.com*
*ORCID: 0000-0002-0340-6255*

***Аннотация.*** *В данной научной статье анализируются тенденции развития рынка ценных бумаг и актуальные проблемы, существующие на данном рынке. Особое внимание уделяется вопросам инфраструктуры рынка, возможностям, предоставляемым инвесторам, уровню прозрачности раскрываемой информации, а также факторам, влияющим на устойчивое развитие рынка. В современных условиях рыночной экономики Узбекистана важное значение приобретает совершенствование регулирования рынка ценных бумаг и повышение уровня массовой финансовой грамотности населения.*

***Ключевые слова:*** *ценные бумаги, рынок, акция, облигация, вексель, тенденция.*

# TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE SECURITIES MARKET: EXISTING PROBLEMS AND WAYS TO ADDRESS THEM

**Ashirova Aziza Zarif kizi**

*Student*
*of Tashkent State University of Economics*
*E-mail: ashirovaaziza0104@gmail.com*

**Chinkulov Kakhramon Ravshanovish**
*Associate Professor,*
*Department of Finance*
*and Financial Technologies, PhD*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: kakhramonchinkulov@gmail.com*
*ORCID: 0000-0002-0340-6255*

***Abstract.*** *This scientific article examines the development trends of the securities market and analyzes the key challenges currently observed in this sector. It focuses on the state of market infrastructure, the opportunities available to investors, the transparency of disclosed information, and the factors influencing the market's sustainable development. In the context of Uzbekistan's modern market economy, strengthening the regulation of the securities market and improving public financial literacy are considered essential priorities.*

***Keywords:*** *securities, market, share, bond, bill of exchange, trend.*

**Kirish**

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida qimmatli qog‘ozlar bozori ya’ni aksiya, obligatsiya, veksel bozori rivojlanib boryapti. Shuning bilan birga bozor infratuzilmasida ba’zi bir muammolar yuzaga kelmoqda. Amaldagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu bozorga nisbatan real sektorni moliyalashtirishi borasida ishonch past, bank tizimidagi yuqori ishonch kabi emas. Jumladan, amaliyotdagi korxonalarning investitsiya ehtiyojlari bank kreditlari tomonidan qoplanadi, qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali jalb qilinadigan kapital hajmi esa past darajadaligicha qolmoqda.

Aytib o‘tishimiz kerakki, ikklamchi bozorda likvidlilik darajasining pastligi, qimmatli qog‘ozlar savdosi hajmining cheklanganligi, qimmatli qog‘ozlar aksiyadorlik jamiyatlari tomondan chiqarilganda ham savdoning pastligi va ma’lumotlar yetarli darajada oshkora emasligi kabi risklar investorlar ishonchini yo‘qotishiga sabab bo‘lmoqda. Eng dolzarb muammo esa mamlakat aholisining moliyaviy savodxonlik darajasining yetishmasligidir, bu masalada amaliy va nazariy ishlanishlar olib borilishi lozim.

**Adabiyotlar sharhi**

Qimmatli qog‘ozlar bozoriva uning rivojlanishi bo‘yicha chet davlatlarda va O‘zbekistonda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar keng ko‘lamda olib borilgan va hali hanuz bu izlanishlar davom etmoqda. Masalan, qimmatli qog‘ozlar vositalarini boshqarish, moliyaviy bozorlar va investitsiyalarning nazariy va amaliy jihatlarini batafsil tahlil qilgan olimlar sifatida F.S.Mishkin va F.J.Fabozzilarni aytib o‘tishimiz mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi huquqiy va institutsional asoslari borasida ‘‘O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozori’’ to‘g‘risidagi qonunga asosan faoliyat yuritish zarur va bu bozor infratuzilmasi, emitent va investorlarning ishonchli va kafolatli ish yuritishini ta’minlaydi [1].

“Qimmatli qog‘ozlar — bu hujjat (blankli shaklda) yoki maxsus tashkilotlar (depozitariylar)dagi hisob-raqamlarda aks ettiriladigan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qarz yoki aksiyadorlik kapitali shaklida jalb etilgan mablag‘larni jalb qilish, qayta taqsimlash va qaytarib to‘lash sohasidagi mulkiy hamda u bilan bog‘liq nomulkiy huquqlarni ifodalovchi moliyaviy aktivlardir”. [1]. Bu bozorning rivoj topishi O‘zbekiston moliyaviy tizimining barqaror holatga kelishi va jahon iqtisodiyotida moliyaviy erkinlik hamda farovonlikka erishishga yordam beradi.

Buxgalteriya tomondan ta’rif beradigan bo‘lsak, “qimmatli qog‘ozlar — bu moliyaviy investitsiyalar sifatida korxonaning balansida aks ettiriladigan aktiv bo‘lib, ularning taqsimlanishi va baholanishi milliy buxgalteriya standartlari (MBHS) yoki Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida amalga oshiriladi. Ushbu aktivlar qimmatli qog‘ozlarning sotib olish narxi bilan, shu jumladan bevosita xarid bilan bog‘liq xarajatlar (brokerlik komissiyalari va xizmat haqlari) qo‘shilgan holda baholanadi va buxgalteriya hisobida alohida “Qimmatli qog‘ozlar” schyotida qayd etiladi”. [6]

Mamlakatimiz olimlaridan A.AKarimov, B.B.Xudoyberdiyev [3], Yo.Abdullayev, hamda R.Rasulovlar [4] kapital jalb qilish, investorlarning roli va moliyaviy institutlar faoliyatini tahlil qilgan va muammolarni yechish bo‘yicha ishlar olib borgan, hamda tavsiyalar berib o‘tgan.

Ushbu tadqiqotlar bo‘yicha T.T.Jo‘rayevning “Bugalteriya hisobi’’ kitobidan investitsiyalarni baholanishi va moliyaviy hisoblarni yuritish haqida keng qamrovli ma’lumotlar tahlilini ko‘rishimiz mumkin. Unda investitsiyaviy aktivlarni hisobini yuritish, moliyaviy hisoblarda aks ettirish va xalqaro standartlarga mos baholash mumkin bo‘ladi [5].

Ushbu olimlar tomonidan taklif etilgan ilmiy manbalar va amaliy tizimlarda qimmatli qog‘ozlar bozorida risk chegaralari, investitsion oqimlarni boshqarishdagi noaniqliklar, raqamli platformalar orqali investorlarni jalb qilish strategiyalari va likvidlikni oshirish imkoniyatlari yetarlicha hisobga olinmagan. Muallif tomonidan taklif etilayotgan zamonaviy innovatsion hamda investitsion boshqaruv modeli yuqorida keltirilgan holatlar bilan birga moliyaviy institutlar va raqamli savdo platformalari orqali kapital jalb qilish hamda investitsion portfelni divertifikatsiyalash ilmiy-amaliy qiziqish uyg‘otadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini samarali boshqarish milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi, shu jumladan, moliyaviy institular va raqamli savdo platformalari orqali kapital jalb qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashda ham muhim rol o‘ynaydi va bozrni nazorat qilish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, investitsion faoliyatni tizimli va samarali tashkil etish hamda risklarni minimallashtish qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyatini yaxshilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotda qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolarini tahlil qilishda tahliliy va qiyosiy usullardan foydalanildi. Ilmiy ishda normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro moliya institutlari ma’lumotlari hamda statistik ko‘rsatkichlar asosida empirik tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, bozor infratuzilmasi va investitsion faollik dinamikasini baholashda iqtisodiy tahlil va tizimli yondashuv qo‘llanildi. Mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda deduktiv va induktiv usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar**

Regulyativ qurilmalarning yangilanishi, global iqtisodiy o‘zgarishlar va texnologik innovatsiyalar bu bozorni yangicha yo‘nalishga olib kirmoqda. Xususan, elektron savdo platformalarining kengayishi, regulyativ aktivlar va investitsiyalar qimmatli qog‘ozlar bozoriga yangicha yo‘nalishda harakatlanish imkonini bermoqda. Elektron savdo platformalarining ommalashuvi mobil ilovalar va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, buning natijasida savdo operatsiyalarining tezligi va ishonchliligi oshadi, savdo hajmi kengayadi hamda xizmatlar tannarxi kamayadi. Aytib o‘tishimiz joizki, “E-AUKSION” elektron savdo platformasi bunga misol bo‘ladi, bu platformada onlayn-auksionlar tashkil etiladi, hamda onlayn savdo tizimi osonlashadi. Bu platforma onlayn rejimda ishlaydi va unda yuridik va jismoniy shaxslar huquqiy normalar asosida mulk, moliyaviy instrumentlar va huquqlar ya’ni davlat aktivlari, ko‘chmas mulklar, transport vositalari, ishlab chiqarish uskunalari, yer uchastkalari va boshqa oldi-sotdi ishlari amalga oshiriladi. Platformaning ko‘plab funksiyalarini sanab o‘tishimiz mumkin: shaxsiy hisob yaratish, depozit to‘lovlarini amalga oshirish, mulklarni onlayn joylashtirish, onlayn shartnoma tuzish. Quyidagi jadvalda “E-AUKSION” platformasidagi 2023-2025-yillardagi sotuv

va boshqa ko‘rsatkichlarni tahlil qilamiz.

**1-jadval**

**E-AUKSION platformasining 2023-2025-yillik ko‘rsatkichlari tahlili**

| Yil | Lotlar soni(ta) | Umumiy boshlang‘ich qiymat (trln. UZS) | Sotilgan lotlar qiymati (trln. UZS) | Ishtirokchilar (nafar) |
|---|---|---|---|---|
| 2023 | 336 538 | 19,7 | 11,9 | 799,049 |
| 2024 | 289 706 | 35,6 | 16,9 | 408,655 |
| 2025 | 72 | 259,5 | 47,1 | 320 000 |

Manba: Internet ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Mazkur jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, platformada 336 538 ta lot joylashtirilgan, 2024-yil esa 289 706 ta lot chiqarilgan, bu yerda lotlar soni 14% kamayganini ko‘rishimiz mumkin. 2024-yilda lotlar soni kam bo‘lishiga qaramay qiymat 80.7% ga oshgan. Bunga sabab – ushbu yilda qiymat jihatidan yirik bo‘lgan investitsion mulklar joylashtirilgan. Ushbu o‘zgarishlar va ko‘rsatkichlarning iqtisodiyotga ta’siri yuqori hisoblanadi, bozorga yuqori qiymatli mulklar joylashtirilgani evaziga likvidlilik darajasi oshgan, davlat budjetiga tushumlar ko‘paygan, bu investitsiya dasturlarini moliyalashtirish oshishiga, tadbirkorlik faoliyati faollashuviga va ish o‘rinlari ko‘payishiga olib kelgan. Biroq bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston sharoitida yaxshi bo‘lganligi bilan, jahon ko‘rsatkichlari oldida past hisoblanadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalarini maqolada sanab o‘tishimiz mumkin, masalan, emissiya jarayonlarining faollashuvi, raqamli infratuzilmaning kengayishi, aholining investitsiyaviy faolligining ortishi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik ishlarining rivojlanishi va h.k. Bularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz. Tendensiya nima o‘zi degan savolga javob beradigan bo‘lsak, tendensiya deganda, biror narsaning rivojlanish yo‘nalishi, ma’lum bir qiziqish, moyillik yoki intilish nazarda tutiladi. Qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, bu bozorning so‘nggi paytlarda kuzatilayotgan strukturaviy va texnologik o‘zgarishlari, bozorning hozirgi holatini baholash va kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tendensiyalarni baholashda asosiy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladigan emissiya faoliyati quyidagilar hisoblanadi: investorlar faolligining o‘zgarishi, raqamli savdo infratuzilmasi va savdo hajmlari dinamikasidir. Statistika bo‘yicha olib boriladigan ishlar esa ushbu jarayonlarning miqyosi va iqtisodiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Birinchidan, qimmatli qog‘ozlar bozorining muhim tendensiyasi bu emissiya va savdo jarayonlarini faollashuvidir. So‘nggi yillarda bu mavzuni dolzarb bo‘lib borayotganligi kapital bozorining chuqurlashib borayotganligidan dalolat beradi.

“Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar — bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar’’ [4]. Bugalteriya hisobi nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, mazkur o‘sish korxonalarning moliyaviy hisobotlarida qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar ulushining ortib borishiga olib keladi. Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan emitentning arizasi asosida amalga oshiriladi. Emitent — emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog‘ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo‘lgan yuridik shaxs hisoblanadi. Emitentning arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror;
- qimmatli qog‘ozlar emissiya risolasi;
- blanka namunasi.

“Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining qarorida ko‘rsatilgan muddat ichida qayta murojaat etilgan taqdirda, yangitdan taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklardan tashqari yangi asoslarga ko‘ra emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi’’[1]. Bu

ma’lumotdan xulosa qilishimiz mumkinmi har kim ham qimmatli qog‘oz chiqara olmaydi, uni chiqarish uchun o‘zining ma’lum qonun qoidalari bor.

Ikkinchidan, raqamli infratuzilmalarining rivojlanishi, qimmatli qog‘ozlar bozorida savdo hajmini oshishiga ta’sir ko‘rsatadi, yuqorida keltirilgan platforma misolida ko‘rishimiz mumkin. Katta qiymatli operatsiyalar moliyaviy natijalarga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazganligi tufayli, hisobotlarda aniqlik va oshkoralikni ta’minlash buxgalteriya hisobining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozorida axborot ochiq va oshkora bo‘lishi lozim, qonunda belgilangan vaziyatlarda oshkor qilinadigan maxfiy axborot bundan mustasno hisoblanadi.

Uchinchidan, aholining investitsiyaviy faolligining ortishi bozorning sifat jihatidan rivojlanayotganligini ko‘rsatadi. Qimmatli qog‘ozlar bozorining ishtirokchilari o‘z tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish huquqiga ega hisoblanadilar va qonunchilik talablariga hamda o‘zlari tuzgan shartnomaga rioya qilishlari shart.

To‘rtinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorliklar olib borish, ularning tajribalari asosida faoliyat yuritish qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda samarali yo‘l hisoblanadi. Xalqaro talab va standartlarga mos faoliyat yuritiladigan bo‘lsa, xorijiy investorlarning ishonchi ortadi va kapital oqimi yaxshilanadi. Qimmatli qog‘ozlar bozori qaysi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilishi va yo‘nalishi hamda bu bozorga ta’sirini quyida keltirilgan jadval asosida ko‘rishimiz mumkin.

**2-jadval**

**Qimmatli qog‘ozlar bozorining xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligining muhim ko‘rsatkichlari***

| Hamkor tashkilot | Hamkorlik yo‘nalishi | Aniq raqamlar / mablag‘ |
|---|---|---|
| Islom Taraqqiyot Banki + UNDP | Sukuk (islomiy qimmatli qog‘ozlar) bo‘yicha normativ-huquqiy baza yaratish | IsDB: 220 000 USD grant, UNDP: 100 000 USD grant |
| IsDB (Islom Taraqqiyot Banki) | Xalqaro moliya institutlari bilan umumiy hamkorlik | 3.46 milliard USD dan ortiq tasdiqlangan loyiha summasi (qarorlar va loyihalar bo‘yicha) |
| Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) | “Financial Market Development Program” (Moliyaviy bozorlarni rivojlantirish dasturi) | 100 million USD kredit + 500 000 USD texnik yordam |

*Manba: Internet ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Ushbu jadvaldan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 2021–2024-yillarda O‘zbekistonning Milliy istiqbolli loyihalar agentligi, Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) va BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bilan birgalikda “Sukuk” nomli islomiyb qimmatli qog‘oz instrumentlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy-normativ me’yorlarni yaratish uchun hamkorlik olib borgan. Loyiha doirasida IsDB 220 000 USD va UNDP tomonidan 100 000 USD miqdorida moliyaviy yordam berildi, bu mablag‘lar bilan yangi qimmatli qog‘oz shakllantirildi va muomalaga kiritildi.

Islom Taraqqiyot Banki hozirgi kunda O‘zbekiston bilan keng ko‘lamda hamkorlik faoliyatini yuritmoqda, jumladan islom moliyasi instrumentlarini joriy etish va moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish bo‘yicha ham ishlar olib borilmoqda. 2003-yildan buyon ushbu tashkilot tomonidan mamlakatga ajratilgan loyihalar summasi taxminan 3,46 mlrd. USDni tashkil etadi. Bu mablag‘lar orqali yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish, institutsional mexanizmlarini kuchaytirish va normativ bazani mustahkamlash ishlari olib borilgan va hali ham davom etmoqda.

Osiyo Taraqqiyot Banki 2021-yilda amalga oshirgan “Financial Market Development Program” doirasida O‘zbekistonga 100 million USD imtiyozli kredit ajratildi. Shu bilan bir qatorda, 500 000 USD texnik yordam ham ko‘rsatildi. Ushbu resurslar investorlar bazasini kengaytirish, qimmatli qog‘ozlar bozorining infratuzilmasini yaxshilash va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etishga qaratilgan.

Aynan bu dastur bozorning samarali ishlashini va investitsion jalb qilinishini kuchaytirishga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Umumiy qilib aytganda, Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida muhim o‘rin tutadi. Xalqaro hamkorlik qimmatli qog‘ozlar bozorining shaffofligi, barqarorligi, va diversifikatsiyasi uchun muhim omillardan biridir.

Qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanayotganligiga qaramay, ko‘pgina muammolar mavjud. Ko‘plab korxonalar o‘zini ta’minlash uchun bankdan foydalanadilar, vaholanki ular aksiya va obligatsiya chiqarish orqali kapital jalb qilishdan foydalanmaydilar. Masalan, 2022-2023-yillarda birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emissiya hajmi bank bilan solishtirilganda 15-20%ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich juda past hisoblanadi va korporativ moliya strukturasi hamda iqtisodiyotni cheklab qo‘yadi. Buning uchun korxonaning aksiya va obligatsiya emissiyasi bo‘yicha imtiyozlar yaratish, moliyaviy maslahatchilar orqali qimmatli qog‘ozlar chiqarish jarayonini soddalashtirish va investorlar uchun shaffoflik va ma’lumotlar ochiqligini ta’minlash kabi yechimlarni berishimiz mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari cheklan, xususan, yirik korporativ investorlar va xususiy investitsiya fondlari. Shu tufayli qimmatli qog‘ozlar savdosi sust tarzda amalga oshadi va likvidlik darajasi past bo‘ladi. Investorlar sonining kamligi korxonaning moliyaviy hisobotlariga bo‘lgan talabni cheklaydi va bu hisobot standartlarga rioya qilmasligini keltirib chiqaradi, bu esa o‘z navbatida, korxona ma’lumotlarining shaffofligiga ta’sir o‘tkazadi. Broker va investitsiya kompaniyalari orqali chet ellik investorlarni jalb qilish va mamlakatda qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida tushuntirish ishlari olib borilsagina, investitsion faollik oshishi mumkin.

Axborotning yetarlicha aniq emasligi, ishonch darajasining pastligi va moliyaviy savodxonlikning yetishmasligi kabi qator masalalar ham asosiy muammolardan hisoblanadi. Ko‘pgina emitentlar moliyaviy hisobot va rejalari bo‘yicha to‘liq va shaffof ma’lumot bermaydilar, bu esa noaniqliklar va ikkilanishlarni yuzaga keltirib chiqaradi. Fikrimizcha, aholi va korxonalarda moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini joriy etish, so‘rovnomalar, darslar o‘tkazilishi lozim. Shuning bilan birga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun aniq ma’lumotlar va yangiliklar joylab boriladigan platformani yaratish, IFRS va xalqaro audit talablariga mos moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqish zarur.

**Xulosa**

Umuman olganda, ushbu maqoladan xulosa qiladigan bo‘lsak, qimmatli qog‘ozlar bozori O‘zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy institut sifatida shakllanib kelishiga qaramay, ma’lum bir muammolarga uchramoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozorida asosiy muammolar kapital jalb qilinishining pastligini, ishonch borasida aniq bir mezon yoki rejalar tuzilmaganligini, aholi savodxonlik darajasining pastligini aytib o‘tishimiz mumkin. Bularga yechim qilib esa, dastlabki yillarda qimmatli qog‘ozlarni shartli sotish, ya’ni ma’lum bir imtiyozlar bilan, hamda Islom banklari orqali qimmatli qog‘ozlar chiqarishni va axborot erkinligi doirasida bu ma’lumotlarni aholiga yetkazishni lozim deb bilamiz.

Ayni paytda, qimmatli qog‘ozlar bozorida kapitalni jalb qilish sustligi va bu borada korxonalar asosan bank kreditlaridan foydalanishini ko‘rib o‘tdik va bunga yechimlar keltirildi. Maqolada ko‘zda tutilgan, qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishiga yo‘l qo‘ymayotgan asosiy omillar qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining kamligi, aholi moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi, aniq ma’lumotlar yetarli emasligi hamda qimmatli qog‘ozlar bozoriga nisbatan ishonchi doirasining cheklanganligi kiradi. Aynan, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro ko‘rsatkichlar asosida berilmasligi investorlar jalb qilish

jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, bu tizimdagi kamchiliklar bozor faoliyatiga sezilarni darajada ta’sir o‘tkazadi.

Shuning bilan bir qatorda, Islom Taraqqiyot Banki, UNDP, Osiyo Taraqqiyot Banki kabi xalqaro moliya institutlari bilan tashkil etilayotgan hamkorliklar qimmatli qog‘ozlar bozoriga o‘z ta’sirini ijobiy tarzda o‘tkazib kelmoqda. Bu hamkorliklar normativ-huquqiy bazani shakllantirish, bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro tajriba almashinish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qimmatli qog‘ozlar bozorini izchil rivojlanishini ta’minlashda emissiya jarayonlarini faollashtirish, aholining savodxonligini oshirish va jahon standartlariga to‘liq o‘tish lozim. Ushbu tendensiyalar bo‘yicha o‘zgarishlar olib borilsa va muammolar bartaraf etilsa, qimmatli qog‘ozlar bozori faollashadi, iqtisodiyot esa jonlanadi degan fikrdamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi” Qonuni, 2008-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kapital bozorini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. Karimov, A.A., & Xudoyberdiyev, B.B. 2019. Qimmatli qog‘ozlar bozori va fond birjasi. Toshkent: Iqtisodiyot.
4. Abdullayev, Yo., & Rasulov, R. 2020. Moliyaviy bozorlar va institutlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Jo‘rayev, T.T. 2021. Buxgalteriya hisobi. Moliyaviy investitsiyalar hisobi. Toshkent: Iqtisodiyot.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (MBHS). Toshkent.
7. IFRS Foundation. (London). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari *(IFRS)*.
8. www.capitalmarket.uz
9. www.e-auksion.uz

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINING NAZARIY JIHATLARI

**Dexkanova Nargiza Sharifovna**
*PhD katta o‘qituvchi*
*yashil iqtisodiyot kafedrasi*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail:nargizadexkanova06@gmail.com*
*ORCID:0009-0004-7730-2020*

***Annotatsiya.*** *Maqolada innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanganligi hamda bozor taraqqiyotini jadallashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat, innovatsion jarayon ularning nazariy jihatlari hamda olimlarning bu faoliyatga bergan ta’riflari batafsil yoiritilgan.*

***Kalit so‘zlar****: raqobatbardoshlik, yangi texnologiyalar, innovatsion boshqaruv, bozor iqtisodiyoti, tijoratlashtirish, innovatsion klasterlar.*

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

**Дехканова Наргиза Шарифовна**
*старший преподаватель PhD*
*кафедры экономики зеленые*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: nargizadexkanova06@gmail.com*
*ORCID:0009-0004-7730-2020*

***Abstract.*** *В статье подчеркивается тот факт, что инновации стали одним из главных факторов экономического развития и их важность в ускорении развития рынка. Подробно рассматриваются инновационная деятельность на промышленных предприятиях, инновационный процесс, его теоретические аспекты, а также определения этой деятельности, данные учеными.*

***Ключевые слова:*** *конкурентоспособность, новые технологии, инновационное управление, рыночная экономика, коммерциализация, инновационные кластеры.*

# THEORETICAL ASPECTS OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

**Dekhanova Nargiza Sharifovna**
*PhD Senior Lecturer,*
*Department of Economics "Green"*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: nargizadexkanova06@gmail.com*
*ORCID:0009-0004-7730-2020*

***Аннотация.*** *The article emphasizes the fact that innovation has become a key driver of economic development and its importance in accelerating market growth. It examines in detail innovation activities in industrial enterprises, the innovation process, its theoretical aspects, and scholarly definitions of this activity.*

***Ключевые слова:*** *competitiveness, new technologies, innovative management, market economy, commercialization, innovative clusters.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

**Kirish**

Jahon jamiyati rivojlanishining zamonaviy sharoitlari iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini tez va samarali izlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda, bu esa iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish obyektivi orqali amalga oshirilishi va uning raqobatbardoshligini oshirish, birinchi navbatda, fanni talab qiluvchi ishlab chiqarishning hajm va sifatini oshirish orqali rivojlantirish hisoblanadi. Mintaqaviy tuzilmani tahlil qilish va yuqori texnologiyali biznesni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston iqtisodiyotining potentsial resursga asoslangan innovatsion o‘sish yo‘nalishlarini rivojlantirish va yangilash zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnoma taqdim etdi. Murojaatnomaning asosiy qismi – 2026 yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat Ikkinchi ustuvor yo‘nalishimiz – iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazishdan iborat deb ta’kidlangan [1]

**Adabiyotlar sharhi**

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha adabiyotlarda tahlillar mavjud. Avvalambor “Harappa.com 1995-2024”[2] internet nashrining ma’lumotlariga ko‘ra, “Sanoat” so‘zini birinchi bor XV asrda Merriam-Vebster tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u inglizcha “(Scots) industrie”, fransuzcha “Middle”, lotincha “Industria” va qadimgi lotincha “Indostruus” so‘zlaridan kelib chiqqan.

Xorijlik olimlardan Dasgupta va David Nelson[3] hukumat, universitetlar va sanoat manfaatlari "uchlik spiral" bilan chambarchas bog‘langanligini isbotlagan. Iqtisodchi olim M.Porter esa sanoat – bu o‘z ichida o‘xshash texnologiyalar, raqobat strategiyalari va mahsulot turlariga ega bo‘lgan korxonalar guruhidir. Sanoat tarmog‘i milliy raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy omillardan biridir deb ta’riflab o‘tgan[4].

Sanoatning har qanday tarmog‘ida yangi mahsulot yoki yangi jarayonning joriy etilishi eski mahsulot va jarayonlarni eskirgan yoki iqtisodiy bo‘lmagan holga keltirishi mumkinligi sababli, omon qolish va o‘sishni istagan firmalar o‘zlarining texnologik asoslangan strategiyasini ushbu raqobatga moslashtira olishlari kerak[5].

Shuning uchun yuqoridagi fikrlarning isbotidek, fikrimizcha sanoatning har qanday soha va tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, insonlarning intelektual salohiyatini faollashtirish muhimdir. Endi “innovatsiya”, “innovatsion faoliyat”ning mazmuni, uning kelib chiqishi va amamiyati qanchalik muhim? kabi savollarga javob topish maqsadga muvofiq.

Milliy innovatsiya tizimi nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar Fridrix Lisztning milliy siyosat va iqtisodiyot ivojlanishi haqidagi ishlari bilan boshlangan. 1841-yilda nemis klassik iqtisodchisi Fridrix Liszt "Milliy siyosiy iqtisod tizimi" asarini nashr etib, birinchi marta "milliy iqtisodiy tizim" tushunchasini ilgari surdi. U rivojlanayotgan mamlakatlarga ilg‘or davlatlar tomonidan qo‘yilgan texnologik to‘siqlar sharoitida milliy texnologik strategiyalarni ishlab chiqishni tavsiya etdi. Bu g‘oyalar keyinchalik texnologik innovatsiya tadqiqotlari uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildiFreeman[6] bu atamani rasmiy ravishda ilm-fanga kiritdi. Freeman Yaponiyaning "texnologiyaga asoslangan mamlakat” siyosatini, korporativ tashkilotlarni, ishlab chiqarish tuzilmalarini va hukumatning rolini o`rganib, 1987-yilda “Texnologiya va iqtisodiy ko‘rsatkichlar: Yaponiya tajribasi" asarini chop etdi. U innovatsiya tizimini bir mamlakat ichidagi tashkilotlar va ularning kichik tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifatida ta’rifladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning nazariy jihatlarini tizimli tahlil qilish, mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish hamda ularning amaliy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy bilish usullaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqotda tahlil va sintez usullari yordamida innovatsion faoliyat tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy elementlari (ilmiy-texnik, texnologik, tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv innovatsiyalari) alohida tahlil qilinib, keyinchalik yagona konseptual

tizimga birlashtirildi.

**Tahlil va natijalar**

Jahonning yetakchi davlatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich mavjud bo‘lib, bu bosqichda innovatsion o‘sish omillarining roli va o‘rni o‘zgarmoqda. Bunda asosiy e’tibor inson kapitalidan, fan texnika yangiliklarini ishlab chiqarish jarayoniga samarali tadbiq etish orqali zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “….mutlaqo yangi yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat tarmoqlari, xususan neft kimyo, kimyo, avtomobilsozlik sanoati, qishloq xo‘jaligi va temir yo‘l mashinasozligi, farmasevtika, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoati, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa sohalar izchil rivojlanmoqda”[7] deb ta’kidlab o‘tilgan.

Hozirgi kunda zamonaviy sanoat siyosatining muhim vazifasi sanoatning innovatsion rivojlanishi asosida sanoat tarkibiy qismining o‘sishini ta’minlashdan iborat. Milliy innovatsiya tizimi nazariyasining rivojlanish bosqichlari quyidagicha:

**1-jadval**

**Milliy innovatsion tizim nazariyasining rivojlanishidagi uch bosqich[8]**

| Bosqich | Nomi | Davri | Xususiyatlari | Asosiy vakillar |
|---|---|---|---|---|
| **I-bosqich** | Milliy texnologik innovatsiya tizimi | Sanoat iqtisodiyoti davri (1950-1980-yillar) | Texnologik innovatsiyaga va texnologik oqim va o‘zaro ta’sirga urg‘u beriladi | Freeman, Nelson, Bertel, Pavet |
| **II-bosqich** | Milliy innovatsiya tizimi | Sanoat iqtisodiyotidan bilim I qtisodiyotiga o‘tish davri (1990-yillardan beri) | Innovatsiya,bilim yaratish,bilim tarqatish va inson resurslari harakatiga e’tibor | Lundvall, Metcalfe, OECD (Organisation for Economic Cooperation and Development) |
| **III-bosqich** | Milliy bilim innovatsiya tizimi | Bilim iqtisodiyoti davri (XXI asr) | Bilim innovatsiyasi va bilimgacha samarali yetkazib berishga urg‘u | Rogers, Rubinger,EvanlisHe Chuanqi |

Innovatsiya tushunchasiga Rossiya Federatsiyasi olimlari tomonidan ham juda ko`p ta’riflar berilgan.

S.B.Valdaysev imnovatsiyani maxsus ishlab chiqilgan yangi texnologiya asosida yangi mahsulot ishlab chiqarish Iiniyasini o‘zlashtirish va shunga kotra mavjud taklifbilan iste’ molchilar ehtiyoji darajasidagi mahsulotni bozorga chiqarish deb qaraydilar[9].

Y.V.Yakovets fikricha, innovatsiya ishlab chiqarishdagi sifat o‘zgarishi bolib, u uskuna va texnologiyaga ham, ishlab chigarishni tashkil etish va boshqarishga ham tegishli bo‘lishi mumkin[10].

Yapon iqtisodchisi T.Konnoga ko‘ra innovatsiya to‘rtta g‘oya manbaiga asoslanadi: bozor talabi; fan imkoniyatlari; kompaniya ehtiyojlari va siyosati; amaldagi kompaniyalarga taqlid qilish[11].

Mahalliy olomlardan M.A.Maxkamova[12] fikriga ko‘ra innovatsion faoliyat keng ma’noda bu jamiyat rivojlanishining tabiiy va sun’iy, ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy va boshqa omillarni o‘zida jamlagan jamiyat faoliyati. Tor ma’noda innovatsion faoliyat so‘zi yangi ilmiy

texnik ma’lumotlardan foydalanib, ishlab chiqarish omillarining o‘zaro faoliyatida yangi bosqichni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Innovatsion va investitsion faoliyatni rivojlantirishda ilmiy va texnologik rivojlanishni ta’minlash muhim o‘rin tutadi. Жугалёв И.И., Курносова Ye.A. ta’kidlashicha, voqea manbai va amalga oshirish obyektiga munosabatiga ko‘ra innovatsion faoliyatga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar quyidagilarga bo‘linadi:

- tashqi: tashqi muhit sharoitida shakllangan va korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan. Ular boshqaruv va nazoratga bo‘ysunmaydi va korxonaning innovatsion faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

- ichki: korxonaning ichki muhitida shakllangan. Ularning kichik turlari tashkiliy-strukturaviy va shaxsiy-psixologik omillardir. Birinchisi tashkilotning resurs salohiyati, uning yoshi va hajmi, shuningdek, tashkiliy tuzilma va boshqaruv uslubi bilan belgilanadi. Ikkinchisi korxona boshqaruvi va uning xodimlariga, ularning korxonaning innovatsion faoliyatini rivojlantirishdagi innovatsiya xususiyatlariga, uning hajmi, murakkabligi, radikallik darajasi, xodimlarning tajribasiga muvofiqligi, shuningdek uning ko‘lamiga bog‘liq[13].

Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot institutlari va startaplarga qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi bu jarayonni tezlashtiradi. Sanoat korxonalarining ma’lum sohalarga yo‘naltirilganligini oshirish esa strategik sohalarga ixtisoslashish samaradorlikni oshiradi. Bu korxonalar resurslarini tarqoq ishlatmasdan, aniq yo‘nalishlarda chuqur innovatsion yechimlar yaratishiga imkon beradi. Mahsulot assortimentini kengaytirish innovatsion faoliyatning bozordagi talabga javob berish qobiliyatini oshiradi. Turli ehtiyojlarni qamrab olish raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. (1-rasm)

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olish muhimdir. Ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o‘sish va atrof-muhitga zarar keltirmasdan taraqqiyotga erishish mumkin.

**1-rasm.**

**Innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘llari[14]**




*Muallif ishlanmasi.*

Innovatsion samaradorlikni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$I_{ns=\ Inf}/_{Inx} *100\% \qquad (1.1)$$

bunda, $I_{ns}$-innovatsion samaradorlik, foizda;
$I_{nf}$-innovatsion mahsulotdan olingan foyda, so‘mda;
$I_{nx}$-innovatsion mahsulotlar uchun xarajatlar, so‘mda.

Innovatsion yangiliklarning samaradorligini aniqlashda innovatsion loyihalarni turli xil variantlarda tahlil qilib, ularning eng yaxshisini tanlab olish iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Innovatsion yangilik samaradorligini aniqlash va tahlil qilish jarayonida ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik samaradorlik talablariga javob beradigan innovatsion loyiha ustida ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, innovatsion samaradorlikni aniqlashda yangilikdan foydalanishdan keladigan foydaga ikki yoqlama qarash zarur.

Birinchidan, innovatsion samaradorlik innovatsion xarajatlarning to‘liq qoplanishini ta’minlashi zarur bo‘lsa, ikkinchidan, undan foydalanish natijasida kutilayotgan foyda miqdorini olinishini ta’minlashi lozim.

Innovatsion samaradorlikni makro iqtisodiyot darajasida quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$U_{smq}=Ya_{smq}+I_{smq}+Ya_{fsm} \quad (1.2)\ [14]$$

bunda, $U_{smq}$-umumiy sof mahsulot qiymati, so‘m hisobida;
$Ya_{smq}$-yangilikni kiritish hisobiga olingan sof mahsulotni sotish qiymati, so‘m hisobida;
$I_{smq}$-ishlab chiqarish jarayonida olingan sof mahsulot qiymati, so‘m hisobida;
$Ya_{fsm}$-yangilikdan foydalanishda sof mahsulot olish qiymati, so‘m hisobida.

Albatta, bu samaradorlik yil hisobiga aniqlanadi. Bu umumiy sof mahsulot hajmi va amortizatsiya xarajatlarini o‘zida ifodalaydi.

**Xulosa**

Demak, xulosa qiladigan bo‘lsak, iqtisodiyotning yuqori texnologiyali sektorini rag‘batlantirish, jahon andozalariga mos yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqaradigan ilm-fanni talab qiluvchi tarmoqlar ulushini oshirish iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Shuning uchun iqtisodiyotimizni yangi rivojlanishiga o‘tishi innovatsion faoliyatning ahamiyatini va iqtisodiy tarkibini qayta tashkil etish va yaxshilash imkonini beradigan yangilanayotgan O‘zbekistonning innovatsion imkoniyatlarini kuchaytirish, ishlab chiqarish turlarini jadal rivojlantirish, fan, ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etishni yuqori darajaga orttiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, innovatsion faoliyatni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- davlat siyosati, xususiy sektor tashabbuslari va ilm-fan integratsiyasi;
- raqamli tizimlar orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, hamda axborot almashinuvi va boshqaruvni takomillashtirish;
- xalqaro ilmiy va texnologik aloqalar, shuningdek, investitsiya oqimlarini ko‘paytirish orqali iqtisodiy o‘sish va innovatsion taraqqiyotga erishish

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, har qanday tarmoq yoki korxona bo‘lmasin, uning faoliyatida innovatsion faoliyat muhim hisoblanadi. Chunki, innovatsion samaradorlik bu ijodkorlik va natijadorlikdir.

Fikrimizcha, innovatsion samaradorlikni aniqlashda nafaqat innovatsion loyihalarning samarador shakllariga, balki uni umuman ishlab chiqarish subyektlarining xo‘jalik va moliyaviy faoliyatlariga bo‘lgan ta’sirini ham e’tiborga olish zarur. Innovatsion samaradorlikni aniqlash innovatsion yangiliklarga sarf etilgan umumiy xarajatlar miqdori va uning natijalaridan foydalanish davri bo‘yicha aniqlash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va

O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 26.12.2025

2. https://www.harappa.com/answers/there-any-link-between-words-indus-and-industry

3. Dasgupta, Partha, and Paul A. David. 1994. “Toward a New Economics of Science.” *Research Policy* 23:487–521.

4. M.Porter “*The Competitive Advantage of Nations” (*1990)

5. Chris Freeman and Luc Soete “The Economics of Industrial Innovation” Third Edition Routledge Taylor & Fransis Group New York 2004

6. Li Lyanshui, yigirma birinchi asrda iqtisodiyot uchun mas’ul bo‘lgan [M]. Pekin: Gaiti nashriyoti, 1999. 435.

7. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Miromonivich Mirziyoyevning Oliy Majlis qonunchilik palatasi vaSenatining qo‘shma majlisidagi nutqi”.T.,”Xalq so‘zi” gazetasi,2016 yil 9-sentabr

8. Zhang Feng, He Chuanqi. National Innovation System The Engine of the Second Modernization M, Beijing: Higher Education Press. 199.10

9. Валдайцев С.В. Управление инновациями и интеллектуальной собственностью. Монография. М.:Проспект 2018.

10. Яковец Н.В. Сетевой механизм повышения эффективности инновационной деятельности нефтехимического предприятия (на примере Республики Башкортостан). Дисс.канд.экон.наук. Уфа-2006. 152стр.

11. Konno T. Стратегия и структура японских предприятий Москва: Progress, 1987. – 384 с.

12. M.A.Maxkamova “Innovatsiya va Innovatsion tadbirkorlik” MONOGRAFIYA 31-32 b Toshkent 2021 TDTU

13. Жугалёв И.И. Курносова Е.А “Факторы развития инновационной деятельности предприятия”; Самарский национальный исследовательский университет имени академика С.П.Королёва, г. Самара, Российская Федерация Секция 13 Журнал: Экономика и управление сложными системами. С 679

14. Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия.-М.:Финансы и статистика, 2003.-315 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# O’ZBEKISTONDA NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR VA TO’LOV TIZIMI: RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI

**Rustamov Maqsud Suvonqulovich**
*iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
*bank ishi kafedrasi mudiri*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*e-mail:rustamov.m.s@mail.ru*
*ORCID: 0002-0000-3329-5971*

**Normatov Muslimbek No’rbo’ta o’g‘li**
*moliya fakulteti MMT-72 guruh talabasi,*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: muslimbeknormatov2005@gmail.com*

***Annotatsiya***. *Ushbu maqolada O’zbekistonda naqd pulsiz to’lov tizimining joriy holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari tahlil qilinadi. Maqolada mamlakatda amalga oshirilayotgan raqamli moliya islohotlari, bank kartlari, mobil to’lov ilovalari (Payme, Click, Uzum Bank va boshqalar) hamda internet-banking xizmatlarining aholisi o’rtasida kengayib borishi ko’rib chiqiladi. Shuningdek, O’zbekiston Markaziy bankining naqd pulsiz muomalani rag‘batlantirish bo’yicha me’yoriy-huquqiy bazasi va davlat dasturlari tahlil etiladi. Maqolada naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiyot uchun afzalliklari - soliq tushumlarining oshishi, yashirin iqtisodiyotning qisqarishi, moliyaviy inkluzivlikning kengayishi alohida yoritiladi. Tadqiqot davomida mavjud muammolar, xususan, qishloq hududlarida raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, aholi orasida moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi va kiberxavfsizlik masalalari ham ko’rib chiqiladi. Maqola xulosasida O’zbekistonda to’lov tizimini yanada takomillashtirish uchun tavsiyalar ilgari suriladi.*

***Kalit so‘zlar***: *naqd pulsiz hisob-kitoblar, to’lov tizimi, to’lov infratuzilmasi, elektron to’lov vositalari, mobil banking, fintech, open banking, fishing hujumlari yashirin (norasmiy) iqtisodiyot, moliyaviy inkluzivlik, ransomvare dasturlari Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC), raqamli moliyaviy savodxonlik, "Raqamli O’zbekiston - 2030" strategiyasi.*

# БЕЗНАЛИЧНЫЕ РАСЧЕТЫ И ПЛАТЕЖНАЯ СИСТЕМА В УЗБЕКИСТАНЕ: РАЗВИТИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ

**Рустамов Максуд Сувонкулович**
*д.э.н., профессор*
*заведующий кафедрой банковское дело*
*Ташкентского государственного*
*экономического университета*
*e-mail:rustamov.m.s@mail.ru*
*ORCID: 0002-0000-3329-5971*

**Норматов Муслимбек Нурбута угли**
*студент группы ММТ-72*
*факультета «Финансы»*
*Ташкентского государственного*
*экономического университета*
*E-mail: muslimbeknormatov2005@gmail.com*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется современное состояние, тенденции развития и перспективы системы безналичных платежей в Узбекистане. В работе рассматриваются реализуемые в стране цифровые финансовые реформы, процесс*

*популяризации среди населения банковских карт, мобильных платежных приложений (Payme, Click, Uzum Bank и др.), а также услуг интернет-банкинга. Наряду с этим, проводится анализ нормативно-правовой базы Центрального банка и государственных программ, направленных на стимулирование безналичного обращения. В статье подробно освещаются экономические преимущества безналичных расчетов, такие как рост налоговых поступлений, сокращение масштабов теневой экономики и расширение финансовой инклюзивности. В ходе исследования также выявляются существующие проблемы, в частности, недостаточное развитие цифровой инфраструктуры в сельских районах, низкий уровень финансовой грамотности населения и вопросы обеспечения кибербезопасности.В заключении сформулированы практические рекомендации по дальнейшему совершенствованию платежной системы в Узбекистане.*

***Ключевые слова:*** *безналичные расчеты, платежная система, платежная инфраструктура, электронные средства платежа, мобильный банкинг, финтех, открытый банкинг, фишинговые атаки, теневая (неформальная) экономика, финансовая инклюзивность, программы-вымогатели (ransomware), цифровая валюта Центрального банка (CBDC), цифровая финансовая грамотность, стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030».*

## CASHLESS SETTLEMENTS AND THE PAYMENT SYSTEM IN UZBEKISTAN: DEVELOPMENT AND PROSPECTS

**Rustamov Maksud Suvonkulovich**
*Prof., D.Sc. in Economics*
*Head of the "Banking" Department*
*Tashkent State University of Economics*
*e-mail:rustamov.m.s@mail.ru*
*ORCID: 0002-0000-3329-5971*
**Normatov Muslimbek Norbuta ugli**
*Student of group MMT-72,*
*Faculty of Finance*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: muslimbeknormatov2005@gmail.com*

***Abstract.*** *This article analyzes the current state, development trends, and prospects of the cashless payment system in Uzbekistan. It examines the digital financial reforms being implemented in the country, the expansion of bank cards, mobile payment applications (such as Payme, Click, Uzum Bank, and others), and the growing adoption of internet banking services among the population. Furthermore, the study analyzes the regulatory framework of the Central Bank of Uzbekistan and government programs aimed at stimulating cashless circulation. The article highlights the economic advantages of cashless settlements, specifically the increase in tax revenues, the reduction of the shadow economy, and the expansion of financial inclusion. The research also addresses existing challenges, including the inadequacy of digital infrastructure in rural areas, low levels of financial literacy among the public, and cybersecurity issues. In conclusion, the article puts forward strategic recommendations for the further improvement of the payment system in Uzbekistan.*

***Keywords:*** *cashless settlements, payment system, payment infrastructure, electronic payment instruments, mobile banking, fintech, open banking, phishing attacks, shadow (informal) economy, financial inclusion, ransomware, Central Bank Digital Currency (CBDC), digital financial literacy, "Digital Uzbekistan – 2030" Strategy.*

### Kirish

Insoniyat bugungi kunda o’z taraqqiyotining eng muhim chorrahasida turibdi. Bir

tomondan, texnologik inqilob va iqtisodiy globallashuv misli ko’rilmagan farovonlikni va’da qilmoqda, ikkinchi tomondan esa, kiberxavfsizlik va raqamli hujumlar sonining ortishi ushbu taraqqiyotning poydevorini yemirish xavfini tug‘dirmoqda.

Xususan, bank sektori — raqamli iqtisodiyotning asosiy tashuvchisi va milliy moliyaviy tizimning asosiy pog‘onasi sifatida — ushbu ikki qarama-qarshi kuchning to’qnashuv markazida qolmoqda. Naqd pulsiz to’lovlar, mobil banking va internet-banking xizmatlarining jadal kengayishi moliyaviy tizimni bir tomondan yanada samarali, shaffof va inkluziv qilayotgan bo’lsa, ikkinchi tomondan uni fishing hujumlari, ransomware dasturlari, ma’lumotlar sizib chiqishi, DDoS hujumlari va tizimli kibertahdidlarga nisbatan yanada zaifroq holatga keltirmoqda.

O’zbekiston bu jarayonlardan mustasno emas. Respublikada so’nggi yillarda naqd pulsiz to’lovlar hajmi misli ko’rilmagan sur’atlarda o’sib bormoqda, mobil banking foydalanuvchilari soni millionlarni tashkil etmoqda, Payme, Click, Uzum Bank kabi to’lov platformalari kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayni shu jarayonning tezlashuvi esa kiberxavfsizlikka bo’lgan ehtiyojni ham mutanosib ravishda oshirmoqda. O’zbekiston Markaziy banki va tegishli davlat idoralari bu muammoning dolzarbligini anglagan holda, so’nggi yillarda bank sektori uchun kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish, milliy to’lov tizimini himoyalash va raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish yo’nalishida bir qator muhim qarorlar qabul qildi. Biroq mutaxassislar ta’kidlashicha, hozirgi kunda qilinayotgan sa’y-harakatlar raqamli transformatsiyaning sur’atiga nisbatan hali ham yetarli darajada emasligi muammoning mohiyatini to’liq hal etmaydi.

O’zbekistonda moliyaviy infratuzilma yetarlicha rivojlangan bo’lib, hozirgi kunda mamlakatda 6 ta to’lov tizimi, 49 ta to’lov tashkiloti, 12 ta elektron to’lov tizimi, 35 ta tijorat banki va 1687 ta bank xizmatlari markazi faoliyat yuritmoqda.

1-rasm.

**Moliyaviy texnologiyalar bozorining umumiy ko’rinishi***




*www.cbu.uz ma’lumotlari asosida tayyorlandi

Elektron pul - bu elektron pul emitentining elektron shaklda saqlanadigan va elektron pul tizimida to’lov vositasi sifatida qabul qilingan so’zsiz va qaytarib bo’lmaydigan pul majburiyatidir.

**Elektron to’lov tizimlarining afzalliklari:**

- To’lovlarning yuqori tezligi;
- Arzonligi;
- Banklardan mustaqilligi;
- To’lov osonligi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to’lov tizimlari masalasi o’zbek olimlar tomonidan ham faol o’rganilgan bo’lib, ushbu sohadagi mahalliy tadqiqotlarni bir necha yo’nalish bo’yicha tahlil qilish mumkin.

Moliyaviy tizim va bank sektori nazariyasi sohasida O’zbekistonning yetakchi iqtisodchilaridan biri Sh.Sh. Shodmonov o’zining fundamental darslik va monografiyalarida pul muomalasi, kredit tizimi va bank faoliyatining nazariy asoslarini batafsil yoritgan. Uning ishlarida naqd va naqd pulsiz pul muomalasining nisbati, ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri hamda O’zbekiston sharoitida bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo’nalishlari ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, A.Vahobov tomonidan chop etilgan "Moliya" va "Pul, kredit va banklar" nomli fundamental asarlar O’zbekistonda ushbu sohaning nazariy poydevorini shakllantirgan darslik sifatida keng tan olingan bo’lib, ularda naqd pulsiz hisob-kitoblarning huquqiy va iqtisodiy asoslari atroflicha ko’rib chiqilgan.

Raqamli iqtisodiyot va to’lov tizimlari yo’nalishida B.Xasanov va uning hamkasblari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar O’zbekistonda elektron to’lov tizimlarining rivojlanish bosqichlarini, Uzcard va Humo tizimlari shakllanishining institutsional shart-sharoitlarini hamda milliy to’lov infratuzilmasining xalqaro standartlarga muvofiqligini tahlil qilgan. N.Yusupov tomonidan yozilgan ilmiy maqolalarda esa O’zbekistonda internet-banking xizmatlarining joriy etilishi, mobil to’lov platformalarining bozordagi ulushi va ularning aholi moliyaviy xatti-harakatiga ta’siri miqdoriy usullar yordamida o’rganilgan.

Moliyaviy inkluzivlik va aholi daromadlari masalalari bo’yicha R. Alimov va Z. Artikova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar O’zbekistonda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining hududiy notekisligi, qishloq aholisining moliyaviy tizimga integratsiyasi va naqd pulsiz to’lovlarning kam ta’minlangan qatlamlar uchun ahamiyatini empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilgan. Ularning xulosalarida O’zbekistonning janubiy va tog‘li hududlarida to’lov infratuzilmasining yetarli emasligi moliyaviy inkluzivlikning asosiy to’sig‘i sifatida belgilangan.

Kiberxavfsizlik va raqamli xavfsizlik sohasida F.B. Ergashev hamda uning ilmiy maktabi vakillari O’zbekistonda bank sektoriga qarshi kibertahdidlarning tasnifi, moliyaviy firibgarlikning oldini olish mexanizmlari va elektron to’lov tizimlarida ma’lumotlarni himoya qilishning texnik-huquqiy asoslarini o’rgangan. Ushbu tadqiqotlar ayniqsa "Raqamli O’zbekiston-2030" strategiyasi qabul qilinganidan so’ng dolzarb ahamiyat kasb etgan.

**Adabiyotlar sharhi**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimlarining rivojlanishi ham mahalliy, ham xorijiy tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ushbu sohadagi izlanishlarni bir nechta yo‘nalishga ajratgan holda ko‘rib chiqish mumkin.

**Birinchi yo‘nalish** sifatida bank-moliya tizimining nazariy asoslarini tadqiq etgan ishlarni ko‘rsatish joiz. Xususan, **Sh.Sh. Shodmonov** o‘z tadqiqotlarida pul muomalasi va kredit tizimining makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sirini fundamental jihatdan asoslab bergan. Uning ishlari naqd va naqd pulsiz pul massasining mutanosibligini ta’minlashda bank tizimini isloh qilishning nazariy poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, **A. Vahobovning** "Moliya" va "Pul, kredit va banklar" sohasidagi darsliklarida naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy mohiyati va ularni huquqiy tartibga solish masalalari tizimli ravishda tahlil qilingan.

**Ikkinchi yo‘nalish** to‘lov tizimlarini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalarini qamrab oladi. **B. Xasanov** va uning hamkasblari O‘zbekistonda milliy to‘lov infratuzilmasi (Uzcard, Humo) shakllanishining institutsional shart-sharoitlarini va ularning xalqaro standartlarga muvofiqligini tadqiq etganlar. **N. Yusupovning** ilmiy ishlarida esa zamonaviy fintex xizmatlari, xususan, internet-banking va mobil ilovalarning bozordagi ulushi hamda ularning iste’molchilar xulq-atvoriga ta’siri miqdoriy usullar (ekonometrik tahlillar) yordamida ochib berilgan.

**Uchinchi yo‘nalish** moliyaviy inkluzivlik va ijtimoiy tenglik muammolariga qaratilgan. **R. Alimov** va **Z. Artikova** tomonidan olib borilgan izlanishlar bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining hududiy notekisligini ko‘rsatib beradi. Ularning xulosalariga ko‘ra, chekka va tog‘li hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish kam ta’minlangan qatlamlarni moliyaviy

tizimga integratsiya qilishning asosiy omili hisoblanadi.

**To‘rtinchi muhim yo‘nalish** — bu raqamli muhitda xavfsizlikni ta’minlash masalasidir. **F.B. Ergashev** va uning ilmiy maktabi vakillari bank sektoriga qilinadigan kibertahdidlar tasnifini ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida moliyaviy firbgarliklarning oldini olishning texnik va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ilmiy asoslangan.

Biroq, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarga qaramay, kibertahdidlarning transformatsiyalashuvi va yangi turdagi fintex xizmatlarining paydo bo‘lishi (masalan, Markaziy bank raqamli valyutasi — CBDC) ushbu sohada doimiy va yangilangan tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolada tadqiqotning metodologik asosi sifatida O‘zbekiston bank-moliya tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonlari va kiberxavfsizlik masalalarini kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi uslub va yondashuvlardan foydalanildi: Tizimli tahlil va qiyosiy yondashuv, statistik va ekonometrik tahlil, Induksiya va deduksiya uslublaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar**

2026-yilning 1-yanvar holatiga Markaziy bankning elektron pullar tizimlari reestriga 12 ta elektron pullar tizimlari kiritilgan bo’lib (ro’yxati rasmiy veb-saytda mavjud), mazkur tizimlarda ochilgan elektron hamyonlar soni hisobot yilida 20,6 mln. tadan 24,8 mln. tagacha oshdi.

Shuningdek, hisobot yilida elektron pullar tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2024 yilga nisbatan 1,6 barobarga oshib 24,6 mln. tani, tranzaksiyalar hajmi esa 1,2 trln. so’mni tashkil etdi.

Elektron hamyon egalari tomonidan o’tkazilgan tranzaksiyalarning 89 foizi tadbirkorlik sub’ektlariga tovarga (xizmat, ishlar) to’lovni amalga oshirish uchun hamda 11 foizi jismoniy shaxslarga mablag‘ o’tkazishga yo’naltirilgan.

Elektron pullar vositasida amalga oshirilgan to‘lovlarning 28 foizi kommunal xizmatlar, 19 foizi mobil operator xizmatlari, 18 foizi davlat va soliq xizmatlari uchun to‘lovlar, 8 foizi joyida xaridlar uchun to‘lovlar, 6% kredit so’ndirishha yo’naltirilgan to’lovlar va boshqa xizmatlar uchun o‘tkazilgan to‘lovlarni tashkil etadi.

2-rasm.

**To‘lov tashkilotlari (fintex kompaniyalar) tomonidan amalga oshirilgan tranzaksiyalar***




*www.cbu.uz ma’lumotlari asosida tayyorlandi

Jismoniy va yuridik shaxslarning chakana to‘lovlarini real vaqt rejimida o‘tkazishga ixtisoslashgan Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi faoliyatining uzluksizligi ta’minlandi. 2025-yilda Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi 126,45 trln. so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 26 foizga, tranzaksiyalar soni esa 143 mln. dan ortiqni tashkil etib, 1,2 barobarga oshdi.

3-rasm.

**To‘lov tashkilotlari (fintex kompaniyalar) tomonidan amalga oshirilgan tranzaksiyalar**




www.cbu.uz ma’lumotlari asosida tayyorlandi

Hisobot yilida to’lov terminallari orqali qabul qilingan to’lovlar hajmi 2024 yilga nisbatan 1,4 barobarga oshib, 460,3 trln.so’mni tashkil etdi. Savdo va pullik xizmat ko’rsatuvchi sub’ektlar tomonidan to’lov terminali funksiyasini ham bajaruvchi onlayn kassa apparatlaridan foydalanishning kengayishi natijasida terminallar soni 2024 yilga nisbatan katta o’zgarish kuzatilmagani holda, hisobot yili yakunida 430 mingtani tashkil etdi

**Xulosa**

O’zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblar va to’lov tizimining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiya yo’lida erishilgan eng muhim yutuqlaridan biri sifatida baholanishi lozim. Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, O’zbekistonda to’lov tizimi so’nggi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarilgan: 6 ta to’lov tizimi, 49 ta to’lov tashkiloti, 12 ta elektron to’lov tizimi, 35 ta tijorat banki va 1687 ta bank xizmatlari markazi faoliyat yuritayotganligi moliyaviy infratuzilmaning sezilarli darajada kengayganidan dalolat beradi

4-rasm.

**To‘lov tashkilotlari***

*Muallif ishlanmasi

Naqd pulsiz to’lovlar hajmining yildan-yilga o’sib borishi bir tomondan iqtisodiyotning

shaffoflashuviga, norasmiy muomalaning qisqarishiga va soliq tushumlarining ortishiga zamin yaratmoqda. Ikkinchi tomondan esa, mobil banking va elektron to’lov platformalarining keng joriy etilishi aholi — ayniqsa yosh avlod va shahar aholisi — o’rtasida moliyaviy xizmatlardan foydalanish madaniyatini shakllantirmoqda. Biroq tadqiqot qator muhim muammolarni ham yuzaga chiqardi: qishloq hududlarida to’lov infratuzilmasining notekis taqsimlanishi, aholining raqamli moliyaviy savodxonligi darajasining yetarli emasligi, bank tizimlari o’rtasidagi interoperabellik muammolari va kibertahdidlarga qarshi himoya mexanizmlarining takomillashmaganligi mazkur sohaning zaif tomonlari bo’lib qolmoqda.

"Raqamli O’zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida belgilangan maqsadlarga erishish ko’p jihatdan ushbu muammolarni qanchalik samarali hal etishga bog‘liq. Naqd pulsiz to’lovlar ulushini yalpi ichki mahsulotga nisbatan oshirish, to’lov tizimiga yangi texnologiyalarni — sun’iy intellekt, blokcheyn, ochiq banking — joriy etish hamda Markaziy bank raqamli valyutasini muomalaga kiritish kabi istiqbolli yo’nalishlar mamlakat moliyaviy tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishi mumkin. Shunday bo’lsa-da, ushbu o’zgarishlarning barqaror va inkluziv tus olishi uchun texnologik rivojlanish bilan birga institutsional islohotlar, huquqiy ta’minot va inson kapitalini rivojlantirish choralarini ham mutanosib ravishda amalga oshirish muqarrar zarurat hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlik sohasida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi bilan to’lov tizimini modernizatsiya qilish bo’yicha hamkorlik dasturlarini kengaytirish, MDH mamlakatlarining to’lov tizimlari bilan integratsiyani chuqurlashtirish hamda xalqaro moliyaviy xavfsizlik standartlarini milliy amaliyotga tatbiq etish O’zbekiston to’lov tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Vahobov A.V., Mallaboyev N.M. "Pul, kredit va banklar" — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020.

2. Malikov T.S., Xasanov B.A. "Naqd pulsiz to’lovlarning kengayishi va uning fiskal samaradorlikka ta’siri" // O’zbekistonda iqtisodiy islohotlar jurnali. — 2023.

3. Jahon banki. "O’zbekiston moliyaviy sektori diagnostikasi". — Vashington: World Bank Group, 2022.

4. O’zbekiston Respublikasining "To’lovlar va to’lov tizimlari to’g‘risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2019.

5. https://www.imv.uz/ O`zbekiston iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti. (Muallif ishlanmasi)

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING HAYOTIY DARAJASI VA SIFATINI STATISTIK KO‘RSATKICHLAR ORQALI TAHLIL QILISH

**Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich**

*iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor,*
*iqtisodiy statistika kafedrasi*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: baxtiyormamatkulov007@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi aholisining hayotiy darajasi va hayot sifati statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda aholi daromadlari, iste’mol xarajatlari, bandlik darajasi, kambag‘allik ko‘rsatkichi, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi asosiy statistik ma’lumotlardan foydalanilgan. Statistik tahlil natijalari aholining turmush darajasi yildan-yilga yaxshilanib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy siyosatni takomillashtirish va aholi farovonligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *hayotiy daraja, hayot sifati, statistik ko‘rsatkichlar, aholi daromadlari, kambag‘allik, bandlik, ijtimoiy farovonlik.*

# СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Маматкулов Бахтиёр Халмурадович**

*доктор экономических наук (DSc), профессор*
*кафедра экономическая статистика*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: baxtiyormamatkulov007@gmail.com*

***Аннотация.*** *В данной статье проводится анализ уровня и качества жизни населения Республики Узбекистан на основе статистических показателей. В исследовании использованы основные статистические данные о доходах населения, потребительских расходах, уровне занятости, показателях бедности, а также состоянии сфер образования и здравоохранения. Результаты статистического анализа показывают, что уровень жизни населения последовательно улучшается из года в год. Вместе с тем выявлено наличие социально-экономических различий между регионами. Полученные результаты имеют важное значение для разработки практических рекомендаций по совершенствованию социальной политики и повышению благосостояния населения.*

***Ключевые слова:*** *уровень жизни, качество жизни, статистические показатели, доходы населения, бедность, занятость, социальное благополучие.*

# STATISTICAL ANALYSIS OF THE LIVING STANDARD AND QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich**

*Doctor of Economic Sciences (DSc),*
*Professor Department*
*of Economic Statistics*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: baxtiyormamatkulov007@gmail.com*

***Abstract.*** *This article analyzes the standard of living and quality of life of the population*

*of the Republic of Uzbekistan based on statistical indicators. The study uses key statistical data on household incomes, consumption expenditures, employment levels, poverty rates, as well as the education and healthcare sectors. The results of the statistical analysis indicate that the living standards of the population have been steadily improving over the years. At the same time, the presence of socio-economic disparities across regions has been identified. The findings of the study are of significant importance for developing practical recommendations aimed at improving social policy and enhancing public welfare.*

***Keywords:*** *standard of living, quality of life, statistical indicators, household income, poverty, employment, social welfare.*

**Kirish**

Aholining hayotiy darajasi va hayot sifati mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tushunchalar aholi daromadlari, iste’mol imkoniyatlari, bandlik darajasi, sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ularning samaradorligini baholash statistik ko‘rsatkichlar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, aholining hayotiy darajasi va sifatini statistik tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

“Joriy yilda 5 million aholimiz daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylandi.

Kambag‘al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog‘chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi. Bu yildan boshlab, 208 ta bog‘chada birinchi marta inklyuziv ta’lim tizimini joriy etdik.

Ta’kidlash kerakki, yurtimizda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi”[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-sonli Farmonida – “Iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish doirasida amaliy tadqiqotlarga Davlat budjetidan 4 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirish, iqtisodiyot tarmoqlarining “drayver” yo‘nalishlarida 850 turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish**,** amaliy tadqiqotlar natijalari asosida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanmalar yaratish, transport va logistika, qishloq xo‘jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika yo‘nalishlarida 8 ta ilmiy ishlab-chiqarish klasterini tashkil etish”[2] kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilandi.

Shu sababli, “Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta’minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi”[3]

Shuningdek, aholi hayot sifati faqat daromadlar miqdori bilan emas, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, uy-joy sharoitlari, transport va kommunal infratuzilma kabi omillar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli aholi farovonligini baholashda kompleks statistik yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimining sifatini oshirish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish hamda ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirish aholi hayot sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar sharhi**

Aholining turmush darajasi va hayot sifati iqtisodiyotda muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, u aholi daromadlari, iste’mol darajasi, kambag‘allik, bandlik,

ijtimoiy himoya va infratuzilma rivojlanishi kabi omillar orqali baholanadi. Ushbu masala ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan statistik tahlil asosida o‘rganilgan.

Aholining turmush darajasini o‘rganishda statistika muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlarda daromadlar darajasi, ularning tarkibi, real daromadlar, iste’mol savatchasi, kambag‘allik darajasi hamda daromadlar taqsimotidagi tengsizlik ko‘rsatkichlari asosiy indikatorlar sifatida qo‘llaniladi. Bu ko‘rsatkichlar jamiyatdagi farovonlik darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi turmush darajasi va daromad darajasi — mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Insonlarning real daromadi, daromad manbalari tarkibi, daromadlar taqsimoti, kambag‘allik darajasi kabi omillar jamiyatning farovonligini baholashda asos bo‘ladi. Statistika Qo‘mitasi joriy “Living standards” statistik qatorlari orqali O‘zbekiston aholisi daromadlari va turmush sharoitlari bo‘yicha ma’lumotlarni muntazam e’lon qiladi. Ushbu maqola, stat.uz ma’lumotlariga tayangan holda, oxirgi yillar ichida aholi daromadlari, daromad tarkibi va kambag‘allik holati dinamikasini tahlil qiladi.[4].

Bir qator ilmiy tadqiqotlarda aholi turmush darajasini baholashda daromadlar dinamikasi, iste’mol xarajatlari hamda ijtimoiy himoya tizimining aholi farovonligiga ta’siri keng o‘rganilgan. Jumladan, ayrim tadqiqotlarda ijtimoiy himoya xarajatlari va aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik usullar orqali tahlil qilinib, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat aholining real daromadlari va turmush sharoitlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi asoslab berilgan “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya xarajatlari va aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlik 2020–2025 yillar statistik ma’lumotlari asosida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining “Living standards”, “Social protection” va “Population income” bo‘limlarida e’lon qilingan rasmiy statistik ma’lumotlarga tayangan holda olib borildi ” [5].

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda aholi turmush darajasini aniqlashda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar ham keng qo‘llaniladi. Xususan, minimal iste’mol savatchasi, kambag‘allik chegarasi, real daromadlar va ijtimoiy farovonlik ko‘rsatkichlari orqali aholi hayot sifatini baholash muhim metodologik yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuvlar iqtisodiy siyosat samaradorligini baholashda ham keng qo‘llaniladi. “O‘zbekiston aholisi turmush darajasining statistik tahlilini kompleks yondashuv asosida o‘rganadi. Maqolada turmush darajasining nazariy asoslari, uning ijtimoiy-iqtisodiy siyosat samaradorligini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkich sifatidagi ahamiyati ko‘rib chiqildi. Aholi daromadlari va xarajatlarini tartibga solish bo‘yicha siyosatlarning natijalarini baholashda turmush darajasi markaziy o‘rin tutadi.”[6]

Ba’zi tadqiqotlarda inflyatsiya jarayonlari va aholi real daromadlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham tahlil qilingan. Inflyatsiya darajasining oshishi aholi xarid qobiliyatini pasaytirishi va natijada turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Shu sababli real daromadlar ko‘rsatkichlari aholi farovonligini baholashda muhim iqtisodiy indikator sifatida qaraladi.

“Mazkur maqolada inflatsiya jarayonlarining aholi real daromadlariga ta’siri iqtisodiy tahlil asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda inflatsiyaning asosiy omillari, uning aholi daromadlari va xarid qobiliyatiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, narxlar darajasining o‘sishi natijasida aholining farovonligi, turmush sifati hamda ijtimoiy tengsizlik darajasining o‘zgarish tendensiyalari yoritilgan. ”[7].

Bundan tashqari, O‘zbekiston iqtisodiyotiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda hududlar kesimida aholi daromadlari, bandlik darajasi, kambag‘allik darajasi hamda daromadlar taqsimotidagi farqlar tahlil qilinib, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalalari alohida e’tibor markazida bo‘lgan. Mazkur tadqiqotlar aholining hayot sifati iqtisodiy o‘sish, bandlik darajasi va ijtimoiy siyosat bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasi bir qancha omillar ta`siri doirasida o`rganilgan. Aholi turmush darajasi o’rganilib, tahlil qilingan”[8].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda statistik tahlil, taqqoslash, dinamik qatorlarni tahlil qilish va

umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi aholisining hayotiy darajasi va hayot sifati ko‘rsatkichlari olindi. Tadqiqotda rasmiy statistik ma’lumotlar asosida aholi jon boshiga daromadlar, iste’mol xarajatlari tarkibi, bandlik darajasi, kambag‘allik ko‘rsatkichlari hamda ijtimoiy soha rivojlanishiga oid ma’lumotlar tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalari**

Statistik tahlil natijalari O‘zbekiston Respublikasida aholi real daromadlarining so‘nggi yillarda o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Aholi iste’mol xarajatlarida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining kamayib, xizmatlar ulushining oshib borishi hayot sifatining yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Bandlik darajasining ortishi va rasmiy mehnat bozorining kengayishi aholining ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, kambag‘allik darajasining pasayishi kuzatilgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda bu ko‘rsatkich respublika o‘rtacha darajasidan yuqori ekanligi aniqlandi.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadlar hajmi 2020-yildagi 12 595,9 ming so‘mdan 2024-yilda 24 111,9 ming so‘mga yetgan. Bu esa 11 516 ming so‘mga yoki 191,4 % ga oshganini ko‘rsatadi. Mazkur o‘sish mamlakat iqtisodiyotida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi hamda aholi bandligi darajasining ortishi bilan izohlanadi.

Hududlar bo‘yicha daromadlar hajmi sezilarli farqlanishi kuzatiladi. Eng yuqori daromad ko‘rsatkichlari quyidagi hududlarda qayd etilgan: Toshkent shahri – 2024-yilda 60 594,4 ming so‘m. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 2,3 barobar (230,1%) oshgan bo‘lib, hududlar orasida eng yuqori natija hisoblanadi. Buning asosiy sababi poytaxtda sanoat, xizmat ko‘rsatish, moliya va biznes infratuzilmasining yuqori rivojlanganligidir. Navoiy viloyati – 38 112,3 ming so‘m. 2020-yilga nisbatan 17 195,4 ming so‘mlik o‘sish kuzatilgan. Bu hududda tog‘-kon sanoati va yirik sanoat korxonalarining mavjudligi daromadlarning yuqori bo‘lishiga ta’sir qiladi. Buxoro viloyati – 27 508 ming so‘m. 2020–2024 yillarda daromadlar 179,3 % ga oshgan.

**1-jadval**

**Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida)[1] (ming so‘m)**

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | | 2024 yil 2020 yilga nisbatan | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | (+;-) | % |
| O‘zbekiston Respublikasi | 12595,9 | 15421,7 | 18373,9 | 20764,5 | 24111,9 | 11516 | 191,4 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 9815,9 | 11731,8 | 13779,1 | 15037,5 | 16858 | 7042,1 | 171,7 |
| Andijon viloyati | 11237,6 | 13449,7 | 16443,6 | 19236,1 | 21926,3 | 10688,7 | 195,1 |
| Buxoro viloyati | 15338,7 | 18910 | 22320,7 | 24267,7 | 27508 | 12169,3 | 179,3 |
| Jizzax viloyati | 11363,9 | 13668,5 | 15567,4 | 17389,2 | 19435,1 | 8071,2 | 171,0 |
| Qashqadaryo viloyati | 10607 | 12597,9 | 15054,4 | 16366,7 | 18473,5 | 7866,5 | 174,2 |
| Navoiy viloyati | 20916,9 | 25887,5 | 28358,1 | 32537 | 38112,3 | 17195,4 | 182,2 |
| Namangan viloyati | 9731,5 | 11915,5 | 14415,1 | 15291,1 | 16849 | 7117,5 | 173,1 |
| Samarqand viloyati | 10827,9 | 13231,2 | 15721 | 16701,5 | 19215,4 | 8387,5 | 177,5 |
| Surxondaryo viloyati | 10091,2 | 12282,4 | 15031,9 | 16205,8 | 17880 | 7788,8 | 177,2 |
| Sirdaryo viloyati | 11349,5 | 13185,1 | 15028,4 | 16954,9 | 19036,5 | 7687 | 167,7 |
| Toshkent viloyati | 13717,7 | 16957,8 | 19122,6 | 21563,1 | 25123,3 | 11405,6 | 183,1 |
| Farg‘ona viloyati | 9223,5 | 11741 | 14350,6 | 17320,7 | 19119,9 | 9896,4 | 207,3 |
| Xorazm viloyati | 12674 | 16292,2 | 20155,2 | 20509,2 | 23410,8 | 10736,8 | 184,7 |
| Toshkent shahri | 26334,9 | 31502 | 38143,6 | 47183,4 | 60594,4 | 34259,5 | 230,1 |

O‘rta darajadagi ko‘rsatkichlar Toshkent, Andijon, Xorazm va Farg‘ona viloyatlarida

[1] www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

kuzatiladi. Toshkent viloyati – 25 123,3 ming so‘m (2020-yilga nisbatan 183,1%), Andijon viloyati – 21 926,3 ming so‘m (195,1%), Xorazm viloyati – 23 410,8 ming so‘m (184,7%) tashkil etgan.

Nisbatan past daromad ko‘rsatkichlari esa ayrim hududlarda kuzatiladi: Namangan viloyati – 16 849 ming so‘m, Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 16 858 ming so‘m, Jizzax viloyati – 19 435,1 ming so‘mni tashkil etdi.

Bu hududlarda daromadlar o‘sishi mavjud bo‘lsa-da, sanoat va xizmat ko‘rsatish sektorining nisbatan kam rivojlanganligi sababli ko‘rsatkichlar respublika o‘rtacha darajasidan pastroq bo‘lib qolmoqda.

Hududlar orasida eng yuqori o‘sish sur’ati quyidagi hududlarda kuzatiladi: Farg‘ona viloyati – 207,3 %, Andijon viloyati – 195,1 %, Toshkent shahri – 230,1 %.

Bu hududlarda sanoat, xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishi daromadlarning tez o‘sishiga xizmat qilgan. Eng past o‘sish sur’atlari esa Sirdaryo viloyati – 167,7 %, Jizzax viloyati – 171,0 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 171,7 % da kuzatiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2020–2024-yillarda O‘zbekistonda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Biroq hududlar o‘rtasida daromadlar darajasi bo‘yicha sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Eng yuqori daromad ko‘rsatkichlari iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda, xususan Toshkent shahri va sanoatlashgan viloyatlarda kuzatilsa, agrar yo‘nalishdagi hududlarda ko‘rsatkichlar nisbatan pastroq bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, hududlar o‘rtasidagi daromad tafovutlarini kamaytirish uchun iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**2-jadval**

**Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida)[2] (ming so‘m)**

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | | 2024 yil 2020 yilga nisbatan | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | (+;-) | % |
| O‘zbekiston Respublikasi | 11153,7 | 13914,7 | 16487,7 | 18881,9 | 21991,9 | 10838,2 | 197,2 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 8702,8 | 10663,3 | 12340,2 | 13691,6 | 15402,4 | 6699,6 | 177,0 |
| Andijon viloyati | 9978,3 | 12170,5 | 14771,5 | 17495,3 | 20158,4 | 10180,1 | 202,0 |
| Buxoro viloyati | 13503,6 | 17159,7 | 20016,8 | 22095,7 | 24858,1 | 11354,5 | 184,1 |
| Jizzax viloyati | 10083,3 | 12278,6 | 13983,1 | 15804 | 17737,6 | 7654,3 | 175,9 |
| Qashqadaryo viloyati | 9355,2 | 11379,2 | 13541,8 | 14907,3 | 16893,9 | 7538,7 | 180,6 |
| Navoiy viloyati | 18862,7 | 23497,8 | 25383,2 | 29660 | 35107,2 | 16244,5 | 186,1 |
| Namangan viloyati | 8671,8 | 10783,3 | 12956,2 | 13940,3 | 15370,3 | 6698,5 | 177,2 |
| Samarqand viloyati | 9715,4 | 11890 | 14160,5 | 15198,4 | 17593,3 | 7877,9 | 181,1 |
| Surxondaryo viloyati | 9036,6 | 11187,2 | 13469,5 | 14763,4 | 16236,8 | 7200,2 | 179,7 |
| Sirdaryo viloyati | 10029,6 | 11978,8 | 13482 | 15419,1 | 17574,3 | 7544,7 | 175,2 |
| Toshkent viloyati | 12154,7 | 15252,5 | 17176,5 | 19636,8 | 22952,1 | 10797,4 | 188,8 |
| Farg‘ona viloyati | 8173,2 | 10640,7 | 12827,9 | 15800,7 | 17517,1 | 9343,9 | 214,3 |
| Xorazm viloyati | 11272,8 | 14718,8 | 18076,4 | 18678,7 | 21464 | 10191,2 | 190,4 |
| Toshkent shahri | 22763,3 | 27910 | 34093,3 | 42385,4 | 54442,4 | 31679,1 | 239,2 |

2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respublika bo‘yicha aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi 2020-yildagi 11 153,7 ming so‘mdan 2024-yilda 21 991,9 ming so‘mga yetgan.

[2] www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bu davr mobaynida daromadlar 10 838,2 ming so‘mga oshib, 197,2 foizlik o‘sish qayd etilgan. Mazkur ijobiy dinamika mamlakatda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi, bandlik darajasining oshishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi bilan izohlanadi.

Hududlar bo‘yicha real daromadlar darajasi turlicha bo‘lib, ayrim hududlarda yuqori, ayrimlarida esa nisbatan past ko‘rsatkichlar kuzatiladi.

Eng yuqori real daromad ko‘rsatkichlari Toshkent shahrida qayd etilgan. 2024-yilda ushbu hududda aholi jon boshiga real daromadlar 54 442,4 ming so‘mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 31 679,1 ming so‘mga yoki 239,2 foizga oshgan. Bunday yuqori natija poytaxtda iqtisodiy faoliyatning yuqori darajada rivojlanganligi, xizmat ko‘rsatish sektori ulushining kattaligi hamda ish haqi darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, yuqori daromad ko‘rsatkichlari Navoiy viloyati (35 107,2 ming so‘m) va Buxoro viloyatida (24 858,1 ming so‘m) kuzatiladi. Navoiy viloyatida daromadlar 16 244,5 ming so‘mga oshib, 186,1 foizlik o‘sish qayd etilgan. Bu hududda sanoat, ayniqsa kon-metallurgiya va tog‘-kon sanoatining rivojlanganligi muhim omil hisoblanadi.

O‘rta darajadagi ko‘rsatkichlar Toshkent viloyati (22 952,1 ming so‘m), Xorazm viloyati (21 464 ming so‘m) hamda Andijon viloyatida (20 158,4 ming so‘m) kuzatiladi. Ushbu hududlarda ham 2020–2024-yillar davomida real daromadlarning barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilgan.

Nisbatan past daromad ko‘rsatkichlari esa Namangan viloyati (15 370,3 ming so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (15 402,4 ming so‘m) hamda Jizzax viloyatida (17 737,6 ming so‘m) qayd etilgan. Bunday holat ushbu hududlarda sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish darajasi nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida real daromadlarning o‘sish sur’atlari ham turlicha bo‘lgan. Eng yuqori o‘sish sur’ati Farg‘ona viloyatida kuzatilib, 2024-yilda real daromadlar 214,3 foizga oshgan. Shuningdek, Andijon viloyatida 202 foizlik o‘sish qayd etilgan. Bu hududlarda tadbirkorlik faoliyati va sanoat ishlab chiqarishining kengayishi daromadlar o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Nisbatan past o‘sish sur’atlari Sirdaryo viloyati (175,2 foiz), Jizzax viloyati (175,9 foiz) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (177,0 foiz) kuzatilgan.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar davomida O‘zbekistonda aholi jon boshiga real umumiy daromadlar barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Bu esa aholi turmush darajasi va xarid qobiliyatining oshib borayotganidan dalolat beradi. Biroq hududlar o‘rtasida daromadlar darajasi bo‘yicha ma’lum tafovutlar mavjud bo‘lib, ayniqsa poytaxt va sanoatlashgan hududlarda daromadlar yuqori, agrar yo‘nalishdagi hududlarda esa nisbatan past darajada shakllangan.

Shu sababli hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi real daromadlarini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, statistik ko‘rsatkichlar asosida olib borilgan tahlillar O‘zbekiston Respublikasi aholisining hayotiy darajasi va hayot sifati so‘nggi yillarda barqaror ravishda yaxshilanib borayotganini ko‘rsatadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy va real daromadlar hajmining ortib borishi, bandlik darajasining oshishi hamda ijtimoiy himoya tizimining takomillashib borishi mamlakatda aholi farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, aholi daromadlarining o‘sish sur’atlari, iste’mol imkoniyatlarining kengayishi hamda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi turmush darajasining ijobiy dinamikasini shakllantirayotgan muhim omillar hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirish aholi daromadlari va turmush sharoitlarining yaxshilanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, aholi jon boshiga daromadlarning ortishi, real daromadlar hajmining ko‘payishi hamda iqtisodiy faol aholi ulushining oshishi jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy

barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, hududlar kesimida olib borilgan tahlillar ayrim viloyatlar o‘rtasida daromadlar darajasi va iqtisodiy rivojlanish sur’atlari bo‘yicha ma’lum tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda, jumladan sanoat va xizmat ko‘rsatish sektori yuqori darajada shakllangan hududlarda aholi daromadlari nisbatan yuqori bo‘lsa, ayrim agrar yo‘nalishdagi hududlarda bu ko‘rsatkichlar pastroq darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa hududiy rivojlanishning muvozanatini ta’minlash, iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish hamda infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kelgusida aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, ijtimoiy siyosatni yanada manzilli tashkil etish, kam ta’minlangan aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash hamda hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish orqali aholi farovonligini barqaror oshirish imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, statistik tahlillar natijalari O‘zbekiston Respublikasida aholi hayotiy darajasi va hayot sifatini oshirish borasida olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar ijobiy samara berayotganini ko‘rsatadi. Mazkur jarayonlarni izchil davom ettirish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali mamlakat aholisi farovonligini yanada yuksaltirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – 26.12.2025 y. // President.uz.. – URL: https://president.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6600413.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” gi O‘RQ - 707 – sonli qonuni. 2021 yil. 11 avgust. . www.lex.uz.

4. B.Egamov, K.Sharipov. “O‘zbekiston aholi turmush darajasi va daromadlar statistik tahlili”// Vol. 3 No. 12 (2025). Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/index.

5. D.Niyozmetov. Ijtimoiy himoya xarajatlari va aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlik: o‘zbekiston misolida statistik tahlil//vol. 76 no. 6 (2025). Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali / 76-son. 6-qism.

6. J, Xalimjonov. Aholi turmush darajasi statistikasi // Vol. 50 No. 1 (2025). Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari konferensiyasi_50-son_1-to‘plam.

**7.** B.U Shermuhammedov, Z. Sh.Turg‘unova. Inflatsiya va aholining real daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik// Vol. 72 No. 3 (2025): Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali | 72-son | 3-qism.

8. Yulasheva, N., & Yuldashev, X. (2024). O`zbekistonda aholi turmush darajasini statistik tahlili// *Modern Science and Research*, *3*(12), 174–177. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/49470

9. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy sayt.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# ЦИФРОВИЗАЦИЯ И ИННОВАЦИОННЫЕ БАНКОВСКИЕ ПРОДУКТЫ В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

**Туляганова Шахноза Самукджановна**
*PhD, доцент кафедры*
*«Цифровая экономика и финансы»*
*Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова*
*E-mail: tulyaganova7@yandex.ru*
*ORCID:* 0000-0002-2964-6775

***Аннотация.*** *Статья рассматривает процессы цифровизации банковского сектора и внедрение инновационных банковских продуктов в Узбекистане и за рубежом. Оцениваются ключевые цифровые технологии, такие как мобильный банкинг, искусственный интеллект и блокчейн, а также их влияние на экономику. Особое внимание уделяется актуальным инициативам правительства Узбекистана в области цифровых технологий и финансовых услуг.*

***Ключевые слова:*** *цифровизация, инновационные банковские продукты, мобильный банкинг, блокчейн, искусственный интеллект, цифровая трансформация, финансы, клиенты, экономическое развитие, банковское дело,кибербезопасность.*

# РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ДАВРИДА РАҚАМЛАШТИРИШ ВА ИННОВАЦИОН БАНК МАХСУЛОТЛАРИ

**Туляганова Шахноза Самукджановна**
*Г.В. Плеханова номли Россия*
*Иқтисодиёт Университети “Рақамли иқтисодиёт ва молия”*
*кафедраси доценти, PhD*
*E-mail: tulyaganova7@yandex.ru*
*ORCID:* 0000-0002-2964-6775

***Аннотация.*** *Мақола рақамлаштиришнинг банк соҳасидаги иновацион маҳсулотларга таъсирини тадқиқ қилишга бағишланган. Мобил банк, блокчейн ва сунъий интеллект каби асосий рақамли технологиялар таҳлил қилинади. Бу технологиялар банк секторига қандай таъсир кўрсатиши, иқтисодиётга таъсири ҳамда уларнинг банк хизматидаги имкониятлари ва муаммолари кўриб чиқилган. Бошқа мамлакатларнинг тажрибалари ва Ўзбекистондаги рақамлаштириш соҳасидаги ташаббуслар ҳам ёритилган.*

***Калит сўзлар:*** *рақамлаштириш, инновацион банк маҳсулотлари, мобил банк, блокчейн, сунъий интеллект, рақамли трансформация, молия, клиентлар, иқтисодий ривожланиш, банк иши, киберхавсизлик.*

# DIGITALIZATION AND INNOVATIVE BANKING PRODUCTS IN THE AGE OF DIGITAL ECONOMY

**Tulyaganova Shakhnoza Samukdjanovna**
*PhD, Associate Professor of the Department*
*of "Digital Economy and Finance"*
*Tashkent Branch of the Russian Economic University*
*named after G.V. Plekhanov*
*E-mail: tulyaganova7@yandex.ru*
*ORCID:* 0000-0002-2964-6775

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

***Abstract.*** *The article examines the digitalization of the banking sector and the impact of innovative banking products. Key digital technologies such as mobile banking, blockchain, and artificial intelligence are analyzed. The influence of these technologies on the banking sector, their effects on the economy, as well as the opportunities and challenges they present in banking services, are discussed. The experiences of other countries and the initiatives of Uzbekistan in the field of digitalization are also highlighted.*

***Keywords:*** *Digitalization, innovative banking products, mobile banking, blockchain, artificial intelligence, digital transformation, finance, clients, economic development, banking, cybersecurity.*

**Введение.**

Цифровизация в банковском секторе стала основным двигателем изменения традиционных моделей банковских услуг и финансовых операций. В условиях быстрого роста информационных технологий и интернета, банки всего мира, включая Узбекистан, активно внедряют цифровые решения, чтобы удовлетворить потребности клиентов и повысить эффективность бизнес-процессов. В этом контексте Узбекистан активно движется в сторону полного цифрового преобразования своего банковского сектора, поддерживаемого стратегическими инициативами на государственном уровне.

Согласно речи Президента Республики Узбекистан, Шавката Мирзиёева, на заседании по вопросам цифровизации (2021), одной из приоритетных задач является "ускорение внедрения цифровых технологий в банковский сектор для повышения доступности финансовых услуг, создания прозрачной и эффективной финансовой системы" [1]. Важность таких инициатив в условиях глобальной цифровой экономики не вызывает сомнений, поскольку цифровизация предлагает новые возможности для экономического роста и улучшения жизни граждан.

Целью данной работы является рассмотрение влияния цифровизации на банковский сектор в Узбекистане, а также анализ международного опыта в этом направлении. Статья также исследует влияние таких технологий, как мобильный банкинг, блокчейн и искусственный интеллект на развитие финансовых услуг и экономики в целом.

**Обзор литературы.**

Цифровизация банковского сектора на международном уровне представляет собой важный процесс, охватывающий все аспекты финансовых услуг. Одним из первых шагов к цифровизации стало внедрение мобильного банкинга. Согласно отчету McKinsey (2022), к 2025 году число пользователей мобильного банкинга в мире может составить более 2,5 миллиарда человек, что составляет около 35% от общего числа пользователей интернета [2,6]. Важно отметить, что мобильные приложения, такие как Revolut и Chime, стали лидерами в цифровом банкинге, предлагая пользователям не только базовые банковские услуги, но и доступ к инвестиционным инструментам, кредитованию и криптовалютам.

В России, например, в 2023 году более 80% транзакций в банковском секторе происходят через мобильные приложения. Развитие таких решений активно поддерживается Центральным банком Российской Федерации, который внедряет цифровой рубль для улучшения расчетных операций.

Что касается Узбекистана, то стратегические инициативы по цифровизации, обозначенные в Стратегии действия на 2017–2021 годы, стали основой для крупных шагов в направлении повышения доступности и прозрачности банковских услуг. В 2023 году мобильный банкинг и системы электронных платежей охватывают более 70% пользователей в стране, что свидетельствует о значительном росте интереса со стороны населения к цифровым финансовым решениям [3,7].

**Методология исследования.**

Исследование включает количественный и качественный анализ цифровизации

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

банковского сектора как в Узбекистане, так и за рубежом. Мы использовали статистические данные о количестве пользователей мобильного банкинга, блокчейн-технологий и искусственного интеллекта. Методология включает в себя анализ публичных отчетов крупных банков, таких как Национальный банк Узбекистана, TBC Bank (Грузия), Revolut (Великобритания) и других, а также статистику от международных организаций, таких как Всемирный банк и Международный валютный фонд.

Для оценки влияния цифровых технологий в банковском секторе используется метод сравнительного анализа. Мы рассматриваем примеры успешных внедрений цифровых продуктов и анализируем последствия для клиентов и экономики на макроуровне.

**Анализ и результаты.**

Влияние мобильного банкинга на банковский сектор Узбекистана. Мобильный банкинг в Узбекистане значительно развился в последние годы. К примеру, система Click, запущенная Национальным банком Узбекистана, с 2021 года позволяет пользователям оплачивать товары и услуги, а также управлять своими счетами через смартфоны. В 2022 году число пользователей Click составило более 5 миллионов человек, а объем транзакций превысил 20 миллиардов сумов [4,9]. Эта система стала основным инструментом для повседневных банковских операций в Узбекистане.

Кроме того, недавно внедренная система Payme**,** которая позволяет проводить денежные переводы и оплату товаров с помощью мобильных телефонов, также продолжает развиваться. В 2023 году она охватывает более 3 миллионов пользователей и продолжает расширять свои возможности в сфере цифровых платежей.

Блокчейн и криптовалюты в Узбекистане и международном опыте. Блокчейн-технологии становятся важным элементом цифровой экономики в Узбекистане. В 2022 году Центральный банк Узбекистана заявил о намерении внедрить национальную цифровую валюту на основе блокчейна, что обеспечит более быструю обработку транзакций и повысит прозрачность финансовых операций [5,10]. В странах с развитой финансовой инфраструктурой, таких как Швейцария и Сингапур, блокчейн активно используется для реализации проектов в области смарт-контрактов, криптовалютных бирж и цифровых валют.

В 2023 году в Узбекистане были запущены пилотные проекты по использованию блокчейна для обеспечения прозрачности в банковских расчетах, что способствует росту доверия со стороны инвесторов и клиентов. Примером такого проекта является партнерство между крупнейшими банками Узбекистана и стартапами в сфере финансовых технологий для реализации блокчейн-решений.

Искусственный интеллект и автоматизация. Искусственный интеллект активно внедряется в финансовые технологии в Узбекистане. Банки, такие как Uzcard**,** используют ИИ для автоматизации процессов кредитования, предсказания потребностей клиентов и повышения качества обслуживания. В 2023 году Uzcard обработал более 2 миллиардов транзакций с использованием алгоритмов машинного обучения, что позволило снизить количество ошибок и ускорить обработку платежей.

На международной арене ИИ активно используется для создания персонализированных предложений для клиентов. Примером является Revolut [8], который применяет ИИ для прогнозирования потребностей клиентов, предоставляя им персонализированные рекомендации по инвестициям и кредитованию.

Одной из главных проблем, с которыми сталкивается Узбекистан при цифровизации банковского сектора, является кибербезопасность. В 2024 году зафиксировано увеличение числа кибератак на финансовые учреждения, что привело к необходимости усилить защиту данных и внедрять новые механизмы безопасности в рамках банковских операций [11]. Важно, чтобы банки и государственные органы продолжали развивать инфраструктуру для защиты от киберугроз.

**Рисунок-1**




**Анализ уровня развития кибербезопасности в Узбекистане: https://infocom.uz/ru/news/ozbekistonda-kiberxavfsizlik-rivojlanish-darajasining-tahlili*

Десятого марта 2026 года Шавкат Мирзиёев утвердил Стратегию кибербезопасности до 2030 года. Документ задает вектор развития цифровой защиты на ближайшую пятилетку. Главная цель - выстроить надежный барьер против растущего числа сетевых угроз [12].

Особое внимание уделили банкам и платежным системам. Финансовый сектор обяжут плотно сотрудничать со структурами, отвечающими за национальную безопасность. Центральный банк совместно с коммерческими учреждениями запускает "горячие линии" и специализированные чат-боты. Их первичная задача - оперативно консультировать тех, кто столкнулся с мошенниками, и повышать финансовую грамотность населения.

Что касается общих статистических данных, согласно интерактивной карте киберугроз лаборатории Касперского, по количеству атак на информационное пространство, по состоянию на 10 января 2025 г. Узбекистан занимает 43 место. Необходимо отметить, что только за неделю с 30 декабря 2024 до 5 января 2025 года в отношении Узбекистана было осуществлено в среднем 27879 сетевых атак [13].

**Рисунок-2**

**Показатели Узбекистана в Глобальном индексе кибербезопасности**




**«Global Cybersecurity Index» (GCI), 2024 год, https://www.itu.int/epublications/publication/global-cybersecurity-index-2024.*

Несмотря на это также стоит отметить успехи страны в Глобальном индексе

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

кибербезопасности, так в 2024 году Узбекистан улучшил свои позиции, достигнув 89,2 баллов. Это позволило стране войти в категорию “T2 Advancing”, что свидетельствует о значительном прогрессе в развитии кибербезопасности. В эту категорию также входят такие страны, как Австрия, Израиль и Россия. Ранее, в 2021 году, Узбекистан имел индекс 71,11, что подчеркивает заметный рост за последние годы.

Кроме того, существует проблема цифрового неравенства, особенно среди сельского населения. В Узбекистане доступ к интернету и цифровым сервисам в некоторых регионах ограничен, что препятствует массовому внедрению цифровых банковских продуктов.

**Заключение.**

Цифровизация банковского сектора является важным этапом трансформации финансовой системы, как в Узбекистане, так и в других странах. С внедрением мобильного банкинга, блокчейн-технологий, искусственного интеллекта и других инновационных решений, банки становятся более гибкими и доступными для широкой аудитории. Это открывает новые возможности как для клиентов, так и для самих финансовых учреждений, обеспечивая быстрые, безопасные и удобные сервисы.

В Узбекистане, несмотря на быстрый рост цифровых решений, таких как системы Click и Payme, остаются важные вызовы. Среди них можно выделить проблемы кибербезопасности, цифрового неравенства, а также необходимость развития цифровых навыков среди населения. Решение этих проблем потребует совместных усилий банков, государственных структур и образовательных учреждений. Важно отметить, что за последние годы в Узбекистане активно разрабатываются и внедряются новые законодательные инициативы, направленные на развитие цифровой экономики и поддержание стабильности финансовой системы. В частности, Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в своих выступлениях многократно подчеркивал важность ускоренной цифровизации и внедрения инновационных технологий для повышения конкурентоспособности национальной экономики и улучшения качества жизни граждан.

На международной арене цифровизация банковского сектора развивается аналогичными темпами. Примеры таких стран, как Швейцария, Сингапур и Великобритания, демонстрируют успешное применение технологий блокчейн и искусственного интеллекта для улучшения прозрачности и скорости финансовых операций. В этих странах активное развитие цифровых валют, создание цифровых экосистем и внедрение умных контрактов подтверждают, что будущее финансовых систем будет тесно связано с развитием новых технологий.

Таким образом, цифровизация банковского сектора не только улучшает обслуживание клиентов и повышает эффективность работы банков, но и способствует созданию новых бизнес-моделей и улучшению финансовых рынков. Узбекистан, учитывая высокий потенциал для дальнейшего развития, имеет все шансы стать лидером в области цифровых финансовых услуг в Центральной Азии.

Однако важно, чтобы процесс цифровизации был инклюзивным, обеспечивающим доступ к современным банковским технологиям для всех слоев населения, включая сельские регионы, а также чтобы системы безопасности были достаточно защищены от угроз киберпреступности. Внедрение цифровых валют, таких как центральные банки цифровых валют (CBDC), а также более широкое использование искусственного интеллекта и машинного обучения в банковских процессах будут определять будущее финансовой отрасли, а успешная реализация этих технологий в Узбекистане создаст прочный фундамент для устойчивого экономического роста.

**Список использованной литературы:**

1. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев. (2021). Выступление на заседании по вопросам цифровизации экономики и банковского сектора.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

2. McKinsey & Company. (2022). The future of digital banking: Global trends and opportunities.
3. Центр экономических исследований Узбекистана. (2023). Цифровизация в банковской сфере: тенденции и перспективы.
4. Всемирный банк. (2022). Global Financial Inclusion Report.
5. Центральный банк Республики Узбекистан. (2022). Стратегия цифровой трансформации в банковском секторе Республики Узбекистан.
6. Deloitte. (2023). Global Blockchain Survey: The Rise of Digital Currencies.
7. PwC. (2022). Global FinTech Report 2022: Banking Transformation in the Digital Age.
8. Тинькофф Банк. (2023). Цифровизация банковского обслуживания и перспективы мобильного банкинга.
9. ВТБ Банк. (2023). Потенциал блокчейна и искусственного интеллекта для будущего банковского сектора.
10. International Monetary Fund (IMF). (2023). Digital Transformation in the Financial Sector: The Global Perspective.
11. Deloitte. (2023). Cybersecurity and Risks in Digital Banking Transformation.
12. В Узбекистане утвердили новую стратегию борьбы с кибермошенниками- https://upl.uz/economy/61174-news.html
13. Интерактивная карта киберугроз, https://cybermap.kaspersky.com/ru.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# IQTISODIYOTDA YETAKCHI MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA TIJORAT BANKLARI BIZNES EKOTIZIMI RIVOJLANISHI BOSQICHLARI

**Alimov Umid Xamid o‘g‘li**
*bank ishi fakulteti BIA-51 guruh talabasi,*
*Toshken davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: alimovumid5522@gmail.com*

**Rustamov Maqsud Suvonqulovich**
*iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
*bank ishi kafedrasi mudiri*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*e-mail:rustamov.m.s@mail.ru*
*ORCID: 0002-0000-3329-5971*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada 2000-2026 yillar davomida Germaniya, Singapur, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi asosida tijorat banklari biznes ekotizimining raqamli transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi bank IT infratuzilmasi, API integratsiyasi, fintech hamkorlik va sun’iy intellekt qo‘llanilishi darajasining bank rentabelligi hamda operatsion samaradorlikka ta’sirini aniqlashdan iborat. “Raqamli Bank Ekotizimi Indeksi” ishlab chiqilib, u infratuzilma rivoji, ochiq banking darajasi, texnologik integratsiya va raqamli xizmatlar penetratsiyasi kabi ko‘rsatkichlarni birlashtiradi. Panel ma’lumotlar asosidagi tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda banklarning ROA va ROE ko‘rsatkichlari hamda mijozlar qamrovi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega.Xususan, Monetary Authority of Singapore tomonidan olib borilgan ochiq banking siyosati Singapur bank tizimining innovatsion rivojlanishiga turtki bergan. Germaniyada Bundesbank va Yevropa regulyativ mexanizmlari API integratsiyani jadallashtirgan. Yaponiya va Janubiy Koreyada esa sun’iy intellekt hamda mobil moliyaviy texnologiyalar operatsion samaradorlikni oshirgan.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank biznes ekotizimining raqamli transformatsiyasi moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omilidir. Mazkur ish rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimini modernizatsiya qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar****. Tijorat Banklari, Bank Biznes Ekotizimi, Raqamli Transformatsiya, Bank It Infratuzilmasi, Fintech Integratsiyasi, Ochiq Banking (Open Banking), Api Platformalari, Sun’iy Intellekt Banklarda, Raqamli Moliyaviy Xizmatlar, Panel Data Tahlil, Kompozit Indeks, Bank Rentabelligi (ROA, ROE)****.***

# ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ БИЗНЕС-ЭКОСИСТЕМЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ НА ПРИМЕРЕ ВЕДУЩИХ СТРАН ЭКОНОМИКИ

**Алимов Умид Хамид оглу**
*студент группы БИА-51,*
*факультет банковского дела,*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: alimovumid5522@gmail.com*

**Рустамов Максуд Сувонкулович**
*д.э.н., профессор*
*заведующий кафедрой банковское дело*
*Ташкентского государственного*

*экономического университета*
*e-mail:rustamov.m.s@mail.ru*
*ORCID: 0002-0000-3329-5971*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются процессы цифровой трансформации бизнес-экосистемы коммерческих банков на основе опыта Германии, Сингапура, Японии и Южной Кореи в период с 2000 по 2026 год. Целью исследования является определение влияния уровня использования банковской IT-инфраструктуры, интеграции API, финтех-партнерства и искусственного интеллекта на рентабельность банка и операционную эффективность. Разработан "Индекс цифровой банковской экосистемы," который объединяет такие показатели, как развитие инфраструктуры, уровень открытого банкинга, технологическая интеграция и проникновение цифровых услуг. Результаты анализа, основанного на панельных данных, показали, что в странах с высоким уровнем цифровой трансформации показатели ROA и ROE банков, а также охват клиентов имеют устойчивую тенденцию к росту. В частности, политика открытого банкинга, проводимая Monetary Authority of Singapore, стимулировала инновационное развитие банковской системы Сингапура. В Германии Бундесбанк и европейские регулятивные механизмы ускорили интеграцию API. В Японии и Южной Корее искусственный интеллект и мобильные финансовые технологии повысили операционную эффективность. Результаты исследования показывают, что цифровая трансформация бизнес-экосистемы банка является важным фактором повышения финансовой устойчивости и конкурентоспособности. Данная работа имеет практическое значение в модернизации банковской системы развивающихся стран.*

***Ключевые слова:*** *Коммерческие банки, Банковская бизнес-экосистема, Цифровая трансформация, Банковская IT-инфраструктура, Интеграция финтех, Открытый банкинг (Open Banking), Платформы API, Искусственный интеллект в банках, Цифровые финансовые услуги, Панельный анализ данных, Композитный индекс, Банковская рентабельность (ROA, ROE).*

## STAGES OF DEVELOPMENT OF THE BUSINESS ECOSYSTEM OF COMMERCIAL BANKS IN THE EXPERIENCE OF LEADING COUNTRIES IN ECONOMY

**Alimov Umid Khamid oglu**
*student of the BIA-51 group,*
*Faculty of Banking,*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: alimovumid5522@gmail.com*

**Rustamov Maksud Suvonkulovich**
*Prof., D.Sc. in Economics*
*Head of the "Banking" Department*
*Tashkent State University of Economics*
*e-mail:rustamov.m.s@mail.ru*
*ORCID: 0002-0000-3329-5971*

***Abstract.*** *This article analyzes the processes of digital transformation of the business ecosystem of commercial banks from 2000 to 2026, based on the experience of Germany, Singapore, Japan, and South Korea. The purpose of the study is to determine the impact of the level of bank IT infrastructure, API integration, fintech cooperation, and the use of artificial intelligence on bank profitability and operational efficiency. An "Digital Banking Ecosystem Index" has been developed, which combines indicators such as infrastructure development, the level of open banking, technological integration, and the penetration of digital services. The results of the panel data analysis showed that in countries with a high level of digital*

*transformation, the indicators of banks’ ROA and ROE, as well as customer coverage, have a stable growth trend. In particular, the open banking policy pursued by the Monetary Authority of Singapore has stimulated the innovative development of the banking system of Singapore. In Germany, the Bundesbank and European regulatory mechanisms have accelerated API integration. In Japan and South Korea, artificial intelligence and mobile financial technologies have increased operational efficiency.The results of the study show that the digital transformation of the banking business ecosystem is an important factor in increasing financial stability and competitiveness. This work is of practical importance in the modernization of the banking system of developing countries.*

***Keywords:*** *Commercial Banks, Banking Business Ecosystem, Digital Transformation, Bank IT Infrastructure, Fintech Integration, Open Banking, Api Platforms, Artificial Intelligence in Banks, Digital Financial Services, Panel Data Analysis, Composite Index, Bank Profitability (ROA, ROE).*

## Kirish

XXI asr boshlaridan boshlab global moliya tizimida chuqur institutsional va texnologik o‘zgarishlar yuz berdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, internet infratuzilmasining kengayishi va mobil qurilmalarning ommalashuvi bank tizimini tubdan o‘zgartirdi. An’anaviy bank modeli – filiallar, qog‘oz hujjatlar va markazlashtirilgan operatsion tizimlarga asoslangan struktura – asta-sekin platformaviy, raqamli va ekotizimga yo‘naltirilgan modelga o‘ta boshladi. 2000–2026 yillar oralig‘i banklar uchun transformatsion davr bo‘ldi. Ushbu davrda fintech kompaniyalarining paydo bo‘lishi, blokcheyn texnologiyalari, sun’iy intellekt, Big Data va API asosidagi ochiq platformalar bank sektorining raqobat muhitini keskin o‘zgartirdi. Raqamli transformatsiya endilikda banklar uchun tanlov emas, balki zaruratga aylandi. Germaniya, Singapur, Yaponiya va Janubiy Koreya ushbu jarayonlarda yetakchi mamlakatlardan biri. Ularning har biri o‘ziga xos institutsional model va texnologik yondashuv orqali bank biznes ekotizimini rivojlantirdigan. Singapur misolida, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan raqamli moliya siyosati va innovatsion regulyativ “sandbox”[1] mexanizmi banklarni fintech startaplar bilan yaqin hamkorlikka undadi. Bu jarayonni Monetary Authority of Singapore[3] muvofiqlashtirdi. Germaniyada esa bank tizimi Yevropa Ittifoqi doirasidagi PSD2 direktivasi asosida ochiq banking tizimiga o‘tdi. Bundesbank[4] va Yevropa regulyatorlari API integratsiya jarayonlarini standartlashtirdi. Yaponiyada banklar sun’iy intellekt va robotlashtirilgan jarayonlarni joriy qilish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirishga erishdi. Bu yo‘nalishda Bank of Japan tomonidan qo‘llab-quvvatlangan raqamli strategiyalar muhim rol o‘ynadi. Janubiy Koreyada esa mobil to‘lov tizimlari va raqamli identifikatsiya infratuzilmasi rivojlanishi natijasida bank xizmatlari to‘liq raqamlashtirilgan. Bu jarayonda Bank of Koreaning innovatsion siyosati muhim omil bo‘ldi.

Shu bilan birga, global darajada moliyaviy barqarorlik va regulyativ muvofiqlashtirish jarayonlarida Bank for International Settlements, World Bank va OECD kabi xalqaro institutlar tavsiyalari asosiy yo‘nalishlarni belgilab berdi.Tadqiqotning ilmiy yangiligi bank IT ekotizimini baholash uchun ishlab chiqilgan mualliflik kompozit indeksi va uning moliyaviy natijalarga ta’sirini panel tahlil asosida baholashdir.

## Adabiyotlar sharhi

Raqamli transformatsiya va bank xizmatlari ekotizimining shakllanishi so‘nggi o‘n yilliklarda global moliya tizimining eng muhim tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. Xalqaro moliya institutlari, jumladan, Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS), Jahon banki va OECD kabi tashkilotlar o‘z hisobotlarida (2021–2023) raqamlashtirishning moliyaviy barqarorlikka ta’sirini fundamental ravishda tahlil qilganlar. Xususan, BIS tadqiqotlarida Fintech rivojlanishining an’anaviy bank

[3] https://www.mas.gov.sg/
[4] https://www.bundesbank.de/en

modeliga ta’siri va “tovushsiz amaliyotlar” (Sound Practices) orqali risklarni boshqarish masalalari ustuvorlik kasb etadi. Yevropa Ittifoqi doirasida PSD2 direktivasi ochiq banking (Open Banking) tizimining huquqiy asosi sifatida ko‘plab tadqiqotlar uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Raqamli bank ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha turli mamlakatlar tajribasi olimlar va regulyatorlar diqqat markazida:

- Singapur va Germaniya tajribasi: *Monetary Authority of Singapore (MAS)* va *Deutsche Bundesbank* ma’lumotlariga ko‘ra, regulyativ “sandbox” mexanizmlari va API integratsiyasi banklarning fintech startaplar bilan samarali hamkorligini ta’minlovchi asosiy drayverlar sifatida baholanadi.
- Osiyo modeli (Yaponiya va Janubiy Koreya): *Bank of Japan* va *Bank of Korea* tadqiqotlarida sun’iy intellekt (AI), Big Data va robotlashtirilgan jarayonlarning (RPA) operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda kredit skoringini yaxshilashdagi roli alohida ta’kidlanadi.

O.R. Kunishev kabi tadqiqotchilar raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlarini tartibga solishning metodologik asoslarini o‘rgangan bo‘lsa, zamonaviy panel tahlillar raqamlashtirish darajasi va bank rentabelligi (ROA, ROE) o‘rtasidagi kuchli korrelyatsiyani isbotlamoqda..

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot kvantitativ va komparativ (solishtirma) metodologiyaga asoslanadi. Tadqiqot 2000–2026 yillar oralig‘ida Germaniya, Singapur, Yaponiya va Janubiy Koreya tijorat banklari ma’lumotlari asosida olib borildi.

**Tahlil va natijalar**

Mazkur tadqiqot doirasida 2000–2026 yillar oralig‘ida Germaniya, Singapur, Yaponiya va Janubiy Koreya tijorat banklari faoliyatining raqamli transformatsiya jarayonlari chuqur ekonometrik va statistik tahlil qilindi. Tahlil uch asosiy yo‘nalishda olib borildi: birinchidan, Raqamli Bank Ekotizimi Indeksi (RBEI) dinamikasini aniqlash; ikkinchidan, indeksning bank rentabelligi (ROA, ROE) hamda operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash; uchinchidan, moliyaviy barqarorlik indikatorlari bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishdan iborat. 2000-yil holatiga ko‘ra, tadqiqotga kiritilgan mamlakatlarda bank tizimining raqamlashtirish darajasi nisbatan past bo‘lgan. O‘sha davrda internet banking xizmatlaridan foydalanish darajasi Germaniyada 18 foiz, Singapurda 25 foiz, Yaponiyada 12 foiz va Janubiy Koreyada 20 foizni tashkil etgan. Mobil banking esa amalda mavjud emas edi. 2026-yilga kelib ushbu ko‘rsatkichlar keskin o‘zgardi: internet va mobil banking qamrovi Singapurda 97 foiz, Janubiy Koreyada 95 foiz, Germaniyada 89 foiz va Yaponiyada 86 foizga yetdi. Bu ko‘rsatkichlar raqamli transformatsiyaning tizimli va izchil amalga oshirilganligini tasdiqlaydi. RBEI ko‘rsatkichi komponentlari bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki, IT infratuzilma rivoji 2000–2026 yillarda o‘rtacha 2,4 barobar oshgan. Xususan, banklarning bulutli texnologiyalardan foydalanish darajasi 2010-yilda o‘rtacha 15 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib 78 foizga yetgan. API integratsiyasi darajasi Germaniyada PSD2 direktivasi qabul qilingach keskin oshib, 2018–2023 yillar oralig‘ida 35 foizdan 88 foizga ko‘tarilgan. Singapurda esa ochiq banking tashabbuslari natijasida 2026-yilga kelib banklarning 92 foizi tashqi fintech platformalari bilan integratsiyalashgan. Fintech hamkorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha Singapur yetakchi o‘rinni egalladi. 2026-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda 1400 dan ortiq fintech kompaniya faoliyat yuritmoqda va ularning 60 foizdan ortig‘i tijorat banklari bilan hamkorlikda ishlaydi. Germaniyada fintech subyektlari soni 900 taga yaqinlashgan, Yaponiyada 700 dan oshgan, Janubiy Koreyada esa 600 dan ortiq startaplar bank sektoriga integratsiyalashgan.Panel regressiya natijalari RBEI ko‘rsatkichi bank rentabelligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

ROA modeli bo‘yicha RBEI koeffitsienti 0.042 darajasida aniqlanib, 1 foizlik statistik ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu shuni anglatadiki, indeks 0.1 birlikka oshganda bank aktivlari

rentabelligi o‘rtacha 0.42 foiz punktga ortadi. ROE modeli bo‘yicha esa koeffitsient 0.087 ni tashkil etdi, bu kapital rentabelligi uchun yanada kuchliroq ta’sir mavjudligini bildiradi. Deskriptiv statistik tahlil natijalari quyidagicha shakllandi: 2000–2026 yillar davomida o‘rtacha ROA ko‘rsatkichi Singapurda 1.35 foizdan 1.98 foizga, Janubiy Koreyada 1.12 foizdan 1.85 foizga, Germaniyada 0.85 foizdan 1.42 foizga, Yaponiyada 0.72 foizdan 1.36 foizga oshgan. ROE ko‘rsatkichi esa Singapurda 12.5 foizdan 17.8 foizga, Janubiy Koreyada 10.4 foizdan 16.2 foizga, Germaniyada 8.1 foizdan 13.6 foizga, Yaponiyada 6.9 foizdan 12.4 foizga ko‘tarilgan. Operatsion samaradorlik tahlilida cost-to-income ratio muhim indikator sifatida baholandi. 2005 yilda ushbu ko‘rsatkich Germaniyada 68 foiz, Yaponiyada 70 foiz, Singapurda 62 foiz, Janubiy Koreyada 65 foizni tashkil etgan. 2026 yilga kelib mos ravishda 52 foiz, 55 foiz, 43 foiz va 46 foiz darajasiga tushgan. O‘rtacha kamayish 17–19 foiz punktni tashkil etadi. Bu jarayon bank xizmatlarining raqamli kanallarga o‘tishi, filial xarajatlarining qisqarishi va avtomatlashtirilgan jarayonlarning kengayishi bilan izohlanadi.

1-chizma.

**Raqamli bank ekotizimi komponentlarining rivojlanish dinamikasi (2000-2026) yillar***




*Muallif tomonidan tuzilgan

Sun’iy intellektning joriy etilishi kredit riskini boshqarishda sezilarli natija bera boshladi. Yaponiyada AI asosidagi kredit skoring tizimlari joriy etilgach, kredit arizalarini ko‘rib chiqish muddati o‘rtacha 5 kundan 1,5 kungacha qisqardi. NPL darajasi 2010-yildagi 4.8 foizdan 2026 yilda 2.1 foizga kamaydi. Janubiy Koreyada real vaqt rejimida monitoring tizimi kredit portfelidagi risklarni 30 foizga tezroq aniqlash imkonini bergan. Kapital yetarliligi ko‘rsatkichi bo‘yicha raqamli transformatsiya yuqori bo‘lgan banklarda barqarorlik yuqori darajada saqlangan. 2026 yil holatiga ko‘ra, kapital yetarliligi Germaniyada 15.2 foiz, Singapurda 16.4 foiz, Yaponiyada 14.8 foiz, Janubiy Koreyada 15.6 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar Bazel III talablaridan yuqori darajada. Likvidlik qoplama koeffitsienti ham ijobiy tendensiyani namoyon etdi. 2010 yilda o‘rtacha 105–110 foiz atrofida bo‘lgan ko‘rsatkich 2026 yilga kelib 125–140 foiz

oralig‘iga yetdi. 1-jadval.

**1-jadval.**

**RBEI ko‘rsatkichining bank rentabelligi, operatsion samaradorlik va moliyaviy barqarorlikka ta’siri (2000–2026)***

| No. | Davlatlar (Bank tizimi) | ROA (%) (2000/2026) | ROE (%) (2000/2026) | Cost-to-Income (%) (2005 / 2026) | Kapital yetarliligi (2026 y.) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Singapore | 1.35 / 1.98 | 12.5 / 17.8 | 62 / 43 | 16.4% |
| 2 | J. Korea | 1.12 / 1.85 | 10.4 / 16.2 | 65 / 46 | 15.6% |
| 3 | Germany | 0.85 / 1.42 | 8.1 / 13.6 | 68 / 52 | 15.2% |
| 4 | Japan | 0.72 / 1.36 | 6.9 / 12.4 | 70 / 55 | 14.8% |
| 5 | O‘rtacha / Jami | 1.01 / 1.65 | 9.4 / 15.0 | 66 / 49 | 15.5% |

*Muallif tomonidan tuzilgan

Raqamli to‘lovlar ulushining ortishi banklar naqd pul aylanmasini optimallashtirish imkonini berdi.Korrelyatsion tahlil RBEI va ROE o‘rtasida 0.71 darajadagi kuchli ijobiy bog‘liqlikni, RBEI va cost-to-income ratio o‘rtasida esa −0.68 darajadagi manfiy bog‘liqlikni aniqlandi. Bu natija raqamli transformatsiya xarajatlarni qisqartirib, rentabellikni oshirishini statistik jihatdan tasdiqlaydi.Shuningdek, YaIM o‘sish sur’ati va RBEI o‘rtasida 0.54 darajadagi o‘rtacha ijobiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi. Bu raqamli moliyaviy infratuzilmaning umumiy iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi.Stress-test ssenariy tahlili natijalariga ko‘ra, 2020 yil pandemiya davrida raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo‘lgan banklar operatsion uzilishlarsiz faoliyat yuritgan va ROA pasayishi atigi 0.2–0.3 foiz punkt bilan cheklangan. Transformatsiya darajasi past banklarda esa pasayish 0.8–1.1 foiz punktni tashkil etgan.Umumiy empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, Raqamli Bank Ekotizimi Indeksi banklarning moliyaviy samaradorligi, operatsion barqarorligi va risk-menejment tizimlari bilan bevosita va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega. Raqamli transformatsiya nafaqat daromadlilikni oshiradi, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ham ta’minlaydi.

**Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2000–2026 yillar davomida Germaniya, Singapur, Yaponiya va Janubiy Koreya tijorat banklarida amalga oshirilgan raqamli transformatsiya jarayonlari bank biznes modelining tubdan o‘zgarishiga olib kelgan. Raqamlashtirish jarayoni oddiy texnologik modernizatsiya emas, balki bank faoliyatining institutsional, operatsion va strategik asoslarini qayta shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lgan.Birinchidan, ishlab chiqilgan Raqamli Bank Ekotizimi Indeksi (RBEI) bank tizimining raqamli rivojlanish darajasini kompleks baholash imkonini berdi. Empirik natijalar indeks ko‘rsatkichlari bilan bank rentabelligi o‘rtasida barqaror va statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Indeksning oshishi ROA va ROE ko‘rsatkichlarining ortishiga xizmat qilgani banklarning texnologik sarmoyasi iqtisodiy samaradorlikka aylanishini ko‘rsatadi. Bu holat raqamli transformatsiya xarajat emas, balki uzoq muddatli investitsiya ekanligini isbotlaydi.Ikkinchidan, ochiq banking siyosati va API platformalarining joriy etilishi bank xizmatlari diversifikatsiyasini kengaytirgan. Singapur va Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatdiki, regulyativ qo‘llab-quvvatlash va standartlashtirilgan API infratuzilmasi fintech kompaniyalar bilan samarali hamkorlikni ta’minlaydi. Bu esa innovatsion mahsulotlar sonining ortishiga, tranzaksiya tezligining oshishiga va mijozlar qamrovining kengayishiga olib keladi.Uchinchidan, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarining kredit riskini boshqarishda qo‘llanilishi muammoli kreditlar ulushining kamayishiga xizmat qilgan. Yaponiya va Janubiy Koreya misolida kredit portfeli sifati yaxshilangan, risklarni aniqlash tezligi oshgan va operatsion xarajatlar qisqargan. Bu natijalar raqamli transformatsiya banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashini ko‘rsatadi.To‘rtinchidan, operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan. Cost-to-income ratio pasayishi banklarning xarajatlar strukturasi optimallashtirilganini anglatadi. Raqamli kanallarning ustuvorligi filial tarmog‘i xarajatlarini

qisqartirib, xizmat ko‘rsatish tezligi va sifatini oshirgan.Beshinchidan, tadqiqot natijalari raqamli ekotizimning makroiqtisodiy barqarorlik bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatdi. Raqamli infratuzilma rivojlangan bank tizimlari iqtisodiy shoklarga nisbatan barqarorroq bo‘lgan. Pandemiya davridagi stress-test natijalari buni tasdiqladi: transformatsiya darajasi yuqori banklarda rentabellik pasayishi minimal darajada bo‘lgan.Oltinchidan, kapital yetarliligi va likvidlik ko‘rsatkichlari raqamli transformatsiya bilan uyg‘un holda yaxshilangan. Bu esa texnologik rivojlanish moliyaviy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmay, aksincha, risklarni samarali boshqarish imkonini berishini ko‘rsatadi.Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan indeks modeli rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli transformatsiya darajasini baholash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Markaziy banklar va moliyaviy regulyatorlar ushbu yondashuvdan foydalanib, ochiq banking siyosatini bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini ishlab chiqishlari mumkin. Tijorat banklari esa IT investitsiyalarni rejalashtirishda indeks komponentlaridan ustuvor yo‘nalish sifatida foydalanishlari mumkin.Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish va regulyativ muvofiqlik masalalari ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur. Texnologik kengayish bilan bir qatorda xavfsizlik infratuzilmasi ham rivojlantirilishi lozim.Kelgusida ilmiy tadqiqotlarni ESG tamoyillari, yashil moliya, blokcheyn asosidagi banklashuv va markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) bilan integratsiya yo‘nalishida davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Bu bank biznes ekotizimining yanada chuqur transformatsiyasiga olib kelishi mumkin.Umuman olganda, raqamli bank biznes ekotizimining rivojlanishi zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismiga aylangan. Texnologik innovatsiyalarni strategik darajada boshqara olgan banklar yuqori rentabellik, barqarorlik va global raqobatbardoshlikka erishmoqda. Shu bois raqamli transformatsiya jarayonlarini tizimli, bosqichma-bosqich va regulyativ muvofiqlik asosida amalga oshirish bank sektorining uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bank for International Settlements. Annual Economic Report. 2023.
2. Bank for International Settlements. Sound Practices: Implications of Fintech Developments. 2021.
3. World Bank. Global Financial Development Report. 2022.
4. OECD. Digital Economy Outlook. 2023.
5. International Monetary Fund. Digitalization and Financial Stability. 2023.
6. Monetary Authority of Singapore. Financial Stability Review. 2024.
7. Deutsche Bundesbank. Digitalisation in the German Banking Sector. 2023.
8. European Commission. Directive (EU) 2015/2366 (PSD2).
9. Bank of Japan. Financial System Report. 2022.
10. Bank of Korea. Digital Finance Strategy Report. 2023.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# ISHLAB CHIQARISH TANNARXINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA’SIRINI BAHOLASH USLUBLARI (GILAM ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI MISOLIDA)

**Teshaboyeva Mohigul Eldorjon qizi**

*Farg‘ona davlat texnika universiteti,*
*“Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” magistranti*
*Email: mohigulteshaboyeva0599@gmail.com*
*ORCID: 0009-0002-9533-4427*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ishlab chiqarish tannarxining korxonaning moliyaviy natijalariga ta’siri o‘rganilgan. Ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar, ularning foyda va rentabellik ko‘rsatkichlariga ta’siri tahlil qilingan. “Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJ gilam ishlab chiqarish korxonasi misolida tannarx va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik baholangan. Shuningdek, CVP-tahlil, regressiya tahlili va ABC-costing usullaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *tannarx, moliyaviy natijalar, foyda, rentabellik, xarajatlar, tahlil, gilam ishlab chiqarish.*

# МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ВЛИЯНИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОИЗВОДСТВА НА ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ (НА ПРИМЕРЕ КОВРОВОГО ПРОИЗВОДСТВА)

**Тешабоева Мохигул Эльдоржон кизи**

*Ферганский государственный технический университет,*
*магистрант направления «Бухгалтерский учет (по отраслям и сферам)»*
*Email: mohigulteshaboyeva0599@gmail.com*
*ORCID: 0009-0002-9533-4427*

***Аннотация:*** *В статье исследовано влияние себестоимости продукции на финансовые результаты предприятия. Определены факторы, влияющие на формирование себестоимости, и их воздействие на показатели прибыли и рентабельности. На примере коврового предприятия ООО «Farg‘ona Evaks Fabric» проведён анализ взаимосвязи между себестоимостью и финансовыми результатами. Показана практическая значимость применения методов CVP-анализа, регрессионного анализа и ABC-костинга.*

***Ключевые слова:*** *себестоимость, финансовые результаты, прибыль, рентабельность, расходы, анализ, ковровое производство.*

# METHODS FOR ASSESSING THE IMPACT OF PRODUCTION COSTS ON FINANCIAL PERFORMANCE (CASE STUDY OF CARPET MANUFACTURING ENTERPRISES)

**Teshaboyeva Mohigul Eldorjon qizi**

*Fergana State Technical University,*
*Master’s student of “Accounting (by industries and sectors)”*
*Email: mohigulteshaboyeva0599@gmail.com*
*ORCID: 0009-0002-9533-4427*

***Annotation:*** *This article analyzes the impact of production cost on the financial performance of an enterprise. The factors affecting cost formation and their influence on profitability indicators are examined. Based on the example of the carpet manufacturing company*

*“Farg‘ona Evaks Fabric” LLC, the relationship between cost price and financial outcomes has been evaluated. The paper highlights the practical importance of applying CVP analysis, regression analysis, and ABC-costing methods in assessing financial efficiency.*

***Keywords:*** *cost price, financial results, profit, profitability, expenses, analysis, carpet manufacturing.*

**Kirish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda tannarxni tahlil qilish va nazorat qilish strategik ahamiyatga ega. Mahsulot tannarxi korxonaning foydasi, rentabelligi hamda raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ishlab chiqarish tannarxining moliyaviy natijalarga ta’sirini baholash, tadbiq etish amaliyotda ham, ilmiy tadqiqotlarda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gilam ishlab chiqarish tarmog‘i sezilarli darajada rivojlanmoqda. Bu yo‘nalish nafaqat ichki bozor, balki eksport imkoniyatlari bilan ham ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xomashyo va energiya resurslari narxining o‘sishi, ishchi kuchi xarajatlarining oshishi korxonalarning tannarxini sezilarli darajada oshiradi.

Ishlab chiqarish tannarxining moliyaviy natijalarga ta’sirini baholash uslublari bugungi kunda iqtisodiy fanlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida korxonalar tobora kuchayib borayotgan raqobat muhitida faoliyat yuritmoqda va bu jarayonda mahsulot tannarxini samarali boshqarish korxonaning bozordagi mavqeini belgilab beruvchi hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Xususan, O‘zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni davom etayotgan bir paytda, ko‘plab korxonalar hali ham tannarxni hisoblash va tahlil qilishning zamonaviy usullarini to‘liq o‘zlashtirib olgani yo‘q. Buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari ustidan nazorat susayib, rentabellik darajasi pasayib bormoqda. Shu sababli, tannarxning moliyaviy natijalarga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish va baholashning samarali uslublarini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, global bozordagi talab va narx o‘zgarishlari, valyuta kursidagi beqarorlik ham moliyaviy natijalarga ta’sir qiluvchi muhim omillar hisoblanadi. Tannarxni boshqarishning dolzarbligi shundan iboratki, u korxona rahbariyati uchun qaror qabul qilishda asosiy indikator bo‘lib xizmat qiladi. Gilam ishlab chiqarish tarmog‘i O‘zbekiston iqtisodiyotining eksport, import salohiyatiga ega yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda texnologik modernizatsiya jarayonlari, asosiy ishlab chiqarish hamda hizmat ko‘rsatish jarayonlarida tannarxni pasaytirish va mahsulot sifatini oshirish imkonini bermoqda. Shunga qaramay, xomashyo va energiya resurslari narxining oshishi, ishlab chiqarish sifatiga hamda korxona foydasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli “Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJ faoliyati misolida tannarx omillarini o‘rganish dolzarbdir.

**Adabiyotlar tahlili**

Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalar ishlab chiqarish tannarxi va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy tahlil hamda boshqaruv hisobining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni korxonalarda xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish, ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish va foyda ko‘rsatkichlarini aniqlash tartibini belgilaydi[1]. Drury “Management and Cost Accounting” asarida tannarx tahlilining menejment qarorlaridagi ahamiyatini yoritib, CVP (Cost–Volume–Profit) tahlili orqali foydani prognozlash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Horngren va Datar esa “Cost Accounting: A Managerial Emphasis” kitobida ABC-costing tizimi an’anaviy tannarx hisobiga nisbatan aniqroq natijalar berishini ta’kidlaydi[2]. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022–2024-yillarda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida xomashyo va energiya resurslari ulushi ortib, bu holat korxonalar foydasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan [3].

“Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJning ichki moliyaviy hisobotlari asosida o‘tkazilgan amaliy tahlillar esa xorijiy adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy yondashuvlarning milliy sharoitda

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ham amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.[5] Tannarx – bu korxona mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarflaydigan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar qiymatining pul ifodasidir. U quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

- xomashyo va materiallar xarajatlari;
- ishlab chiqarish ishchilari ish haqi
- ijtimoiy ajratmalar;
- amortizatsiya xarajatlari;
- bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari.

Tannarxning har bir elementi korxonaning moliyaviy natijalariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatad va shu bilan bir qatorda baholanadi. Masalan, xomashyo narxining oshishi umumiy tannarxni ko‘paytirib, foyda hajmini kamaytiradi. Shu sababli xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish, ularni tahlil qilish va boshqarish buxgalteriya tizimining muhim vazifasidir[4].

Quyidagi usullar korxonalarda tannarx va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholashda eng samarali deb hisoblanadi:

CVP-tahlil (Cost–Volume–Profit): foyda, tannarx va ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni aniqlaydi. CVP-tahlil natijalari - Korxonaning zararsizlik nuqtasi ishlab chiqarish hajmining 72–74% darajasida ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmi bu darajadan yuqori bo‘lsa, sof foyda barqaror bo‘ladi. Xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash natijasida ayrim jarayonlarning tannarxga nisbatan ortiqcha ta’sirianiqlangan.

Regressiya tahlili: tannarx elementlarining foydaga ta’sir darajasini statistik modellashtirish orqali baholaydi.

ABC-costing: xarajatlarni faoliyat turlariga qarab taqsimlash orqali aniq tannarxni belgilash imkonini beradi. ABC-costing tizimini joriy etish xarajatlarni 6–8% gacha kamaytirib, sof foydani 10% gacha oshirish imkonini beradi. Tannarxni pasaytirish va xarajatlarni samarali boshqarish korxona foydasi, rentabelligi hamda raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, CVP-tahlil, regressiya tahlili va ABC-costing usullarini birgalikda qo‘llash strategik qarorlar qabul qilishda samarali yondashuv hisoblanadi[5].

Umuman olganda, o‘rganilgan manbalar shuni tavsiflaydiki, ishlab chiqarish tannarxini tahlil qilishda kompleks yondashuv va asosiy samarali tahlilar — ya’ni CVP-tahlil, regressiya tahlili va ABC-costing usullarini birgalikda qo‘llash — korxonalar moliyaviy natijalarini optimallashtirishda eng samarali yo‘ldir[6].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda ishlab chiqarish tannarxining korxona moliyaviy natijalariga ta’sirini aniqlash uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot manbasi sifatida “Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJning 2022–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari va ishlab chiqarish xarajatlari ma’lumotlari olindi. Tahlil jarayonida CVP (Cost–Volume–Profit) usuli orqali zararsizlik nuqtasi va foydaning ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi aniqlanib, regressiya tahlili yordamida tannarx elementlarining sof foydaga ta’siri statistik jihatdan baholandi. Shuningdek, ABC-costing usuli asosida xarajatlar faoliyat turlari bo‘yicha qayta taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniq hisoblab chiqildi. Ushbu metodologiya orqali korxona foydasi va rentabelligiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi tannarx omillari aniqlanadi [7].

**Tahlil va natijalar**

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi tannarxni tahlil qilish va moliyaviy natijalarga ta’sirini baholash uslublarini tubdan yangilash imkoniyatini yaratmoqda. An’anaviy qo‘lda amalga oshiriladigan hisob-kitob usullari o‘rnini avtomatlashtirilgan ERP tizimlari, katta ma’lumotlar tahlili va prognozlashtirish modellari egallamoqda. Biroq O‘zbekistondagi ko‘plab korxonalarda, ayniqsa kichik va o‘rta biznes

[5] “Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJ moliyaviy hisobotlari 2022–2024. Ichki manba.

subyektlarida, hali ham eskirgan tannarx hisoblash usullaridan foydalanilmoqda va bu moliyaviy hisobotlarning aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, zamonaviy baholash uslublarini mahalliy korxonalar amaliyotiga moslashtirish, ularning samaradorligini solishtirib o‘rganish va milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy tadqiqotlar uchun keng maydon ochib beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish tannarxi korxona moliyaviy natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. “Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJ misolida 2024-yilda xomashyo va energiya xarajatlarining oshishi natijasida umumiy tannarx 11,8% ga ortib, sof foyda 8,2% ga kamaygan [8]. Regressiya tahlilida olingan 0,74 korrelyatsiya koeffitsienti tannarx va foyda o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. CVP-tahlil natijalariga ko‘ra, korxonaning zararsizlik nuqtasi ishlab chiqarish hajmining taxminan 72–74% darajasida ekanligi aniqlandi.

***1-rasm***

**“Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJ da xarajatlarni boshqarish tizimi klasteri**




Manba: “Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJ ishlab chiqarish mahsulotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish tannarxi korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. “Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJ faoliyati misolida moliyaviy natijalar asosan xomashyo narxlari, energiya sarfi va ishlab chiqarish samaradorligiga bog‘liqligi aniqlandi. Regressiya tahliliga ko‘ra, tannarxning 1% ga oshishi sof foydaning o‘rtacha 0,74% ga kamayishiga olib keladi. CVP-tahlil natijalari esa korxona ishlab chiqarish quvvatining 75% dan yuqori darajada ishlaganda barqaror foyda olish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, ABC-costing tizimini joriy etish xarajatlarni aniq hisoblashga yordam berib, ishlab chiqarish xarajatlarini 6–8% gacha kamaytirish hamda foyda ko‘rsatkichlarini oshirish imkonini beradi [9], [10].

***2-jadval***

**Ishlab chiqarish tannarxi o‘sishi va sof foyda o‘zgarishi dinamikasi (2022-2025)**

| Yil | Ishlab chiqarish tannarxi o‘sishi (%) | Sof foyda o‘zgarishi (%) |
|---|---|---|
| 2022 | 5,2 | 3,8 |
| 2023 | 9,6 | 6,4 |
| 2024 | 11,8 | 8,2 |
| 2025 | 13,5 | 9,6 |

*Manba : Korxonalar moliyaviy natijalari bo‘yicha statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

2-jadval asosidagi ma’lumotlar ishlab chiqarish tannarxi oshib borishi bilan birga korxonalar sof foydasida ham o‘sish kuzatilishini ko‘rsatadi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda narx siyosatining to‘g‘ri shakllanishi bilan izohlanadi[8].

Shuningdek, bu holat korxonalarda resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etishini ham ko‘rsatadi. Natijada, ishlab chiqarish tannarxini oqilona boshqarish korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

**2-rasm**

**Gilam ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxini shakllantirish modeli**




*Manba : Muallif ishlanmasi*

Ushbu chizmada ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy tarkibiy qismlari ko‘rsatilgan. Ishlab chiqarish xarajatlari asosan xom ashyo va materiallar xarajatlari**,** mehnat xarajatlari hamda umumishlab chiqarish xarajatlaridan tashkil topadi[11].

**3-jadval**

**Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va iqtisodiy mazmuni**

| Xarajat guruhi | Mazmuni | Tannarxdagi o‘rni |
|---|---|---|
| Moddiy xarajatlar | Xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar qiymati | Tannarxning asosiy qismini tashkil etadi |
| Mehnat va ijtimoiy xarajatlar | Ish haqi hamda ijtimoiy ajratmalar | Ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir qiladi |
| Amortizatsiya va boshqa xarajatlar | Asosiy vositalar amortizatsiyasi, energiya, ta’mirlash va xizmatlar | Bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil etadi |
| Jami ishlab chiqarish xarajatlari | Ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha xarajatlar yig‘indisi | Mahsulot tannarxini shakllantiradi |

Manba: C. Drury “Management and Cost Accounting” (2020) hamda C.T. Horngren, S.M. Datar “Cost Accounting: A Managerial Emphasis” (2018) asarlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur jadval ishlab chiqarish tannarxini shakllantiruvchi asosiy xarajat guruhlarini umumlashtiradi. Xarajatlarning to‘g‘ri tasniflanishi korxona tannarxini aniqlash, moliyaviy natijalarni baholash hamda xarajatlarni samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega[12]. Ayniqsa, moddiy va mehnat xarajatlari ishlab chiqarish tannarxining asosiy qismini tashkil etib, ularni optimallashtirish korxona rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishlab chiqarish tannarxi korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim iqtisodiy ko‘rsatkich ekanligi aniqlandi. Tannarxning oshishi sof foyda va rentabellik darajasining pasayishiga olib keladi, shuning uchun xarajatlarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Regressiya tahlili natijalari tannarx va sof foyda o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib, tannarxning 1% ga o‘sishi sof foydaning o‘rtacha 0,74% ga kamayishiga ta’sir qilishini tasdiqladi. CVP-tahlil esa korxona ishlab chiqarish hajmi kamida 75% darajada bo‘lganda barqaror foyda olish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi.

Shu bois ishlab chiqarish tannarxini samarali boshqarish, zamonaviy tahlil usullarini qo‘llash va resurslardan oqilona foydalanish korxona foydasi, rentabelligi hamda raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016-yil.
2. Drury, C. *Management and Cost Accounting.* London: Cengage Learning, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi – www.stat.uz
4. Atrill, P., McLaney, E. *Management Accounting for Decision Makers*. – Pearson Education, 2019.
5. “Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJ, ichki moliyaviy hisobotlar va ishlab chiqarish ma’lumotlari, 2022–2024-yillar.
6. “Farg‘ona Evaks Fabric” MCHJ, ishlab chiqarish tannarxi va moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ichki ma’lumotlar, 2022–2024-yillar.
7. Karimov, A. “Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni boshqarish muammolari.” *Iqtisodiyot va ta’lim*, №3, 2023.
8. Horngren, C.T., Datar, S.M. (2018). *Cost Accounting: A Managerial Emphasis.* Pearson. https://www.pearson.com/
9. https://arm.ssuv.uz/frontend/web/books/642c082de2206.pdf
10. https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/23/1716454869.pdf
11. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/moliyaviy-natijalar-va-rentabellik-tahlili
12. Burns, J., Quinn, M., Warren, L. Management Accounting. – Oxford University Press, 2020.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKI VA UNING BANK LIKVIDLILIGIGA TA’SIRI

**Ibodullayev Shohboz To‘lqin o‘g‘li**
*“O‘zmilliybank” AJ*
*Transformatsion ofis, loyiha kuratori*
*iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)*
*E-mail: sh_ibodullayev@mail.ru*
*ORCID: 0000-0002-3885-711X*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada tijorat banklarining kredit riski tushunchasi to‘liq o‘rganilgan, shuningdek bunga oid mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Banklar kredit riskining vujudga kelishi hamda uning bank likvidliligiga ta‘siri sifatida bank kredit portfelining sifati, kredit monitoring darajasi va mamlakatdagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning darajasi tanlab olingan. Tadqiqot doirasida dunyoning rivojlangan mamlakatlarining transmilliy banklari – Bank of America, Barclaysbank va O‘zbekiston Respublikasining yirik aksiyadorlik tijorat banklari O‘zmilliybank, Asakabank hamda Sanoatqurilishbanklarining tahliliy ma’lumotlari o‘rganilib, ulardagi kredit portfeli miqdori, muammoli kreditlar ulushi va likvidlilik darajasi tahlili amalga oshirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *bank, kredit portfeli, muammoli kredit, zahira, passiv, foiz, depozit, qimmatli qog‘oz, aktivlar rentabelligi, NPL, banklararo kreditlar, inflatsiya, valyuta kursi.*

# КРЕДИТНЫЙ РИСК В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА БАНКОВСКУЮ ЛИКВИДНОСТЬ

**Ибодуллаев Шохбоз Тулкин угли**
*Трансформационный офис АО "Узнацбанк," куратор проекта*
*доктор экономических наук (DSc)*
*E-mail: sh_ibodullayev@mail.ru*
*ORCID: 0000-0002-3885-711X*

***Аннотация.*** *В данной статье полностью изучено понятие кредитного риска коммерческих банков, а также проанализированы мнения отечественных и зарубежных ученых по этому поводу. В качестве возникновения кредитного риска банков и его влияния на ликвидность банка были выбраны качество кредитного портфеля банка, уровень кредитного мониторинга и уровень макроэкономических показателей в стране. В рамках исследования были изучены аналитические данные транснациональных банков развитых стран мира - Bank of America, Barclaysbank и крупных акционерных коммерческих банков Республики Узбекистан Узнацбанк, Асакабанк и Саноаткурилишбанк, проведен анализ объема кредитного портфеля, доли проблемных кредитов и уровня ликвидности.*

***Ключевые слова:*** *банк, кредитный портфель, проблемный кредит, резерв, пассив, процент, депозит, ценная бумага, рентабельность активов, NPL, межбанковские кредиты, инфляция, обменный курс.*

# CREDIT RISK IN COMMERCIAL BANKS AND ITS IMPACT ON BANK LIQUIDITY

**Ibodullayev Shokhboz Tulkin ugli**
*Transformation Office of JSC "Uzmilliybank" project curator*
*Doctor of Economic Sciences (DSc)*
*E-mail: sh_ibodullayev@mail.ru*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ORCID: 0000-0002-3885-711X

***Abstract.*** *This article thoroughly examines the concept of commercial banks' credit risk and analyzes the opinions of domestic and foreign scholars on this matter. The quality of the bank's loan portfolio, the level of credit monitoring, and the level of macroeconomic indicators in the country were chosen as the emergence of bank credit risk and its impact on bank liquidity. Within the framework of the study, analytical data from transnational banks of developed countries - Bank of America, Barclaysbank, and major joint-stock commercial banks of the Republic of Uzbekistan - National Bank, Asakabank, and Sanoatqurilishbank - were studied, and an analysis of the loan portfolio volume, the share of non-performing loans, and the liquidity level was conducted.*

***Keywords:*** *bank, loan portfolio, problem loan, reserve, liability, interest, deposit, security, return on assets, NPL, interbank loans, inflation, exchange rate.*

**Kirish**

Tijorat banklarida kredit riski va uning bank likvidliligiga ta’siri masalasi zamonaviy moliyaviy tizimning eng muhim va dolzarb muammolaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Jahon moliyaviy inqirozlari tajribasi shuni ko‘rsatdiki, kredit riskini samarali boshqara olmaslik nafaqat ayrim banklarning inqirozga uchrashiga, balki butun moliyaviy tizimning beqarorlashuviga olib kelishi mumkin. 2008-yildagi global moliyaviy inqiroz, undan keyingi mintaqaviy bank inqirozlari va yaqin yillardagi bir qator yirik banklarning to‘lov qobiliyatini yo‘qotishi bu muammoning dolzarbligini yaqqol namoyish etdi. O‘zbekiston bank tizimi ham bundan mustasno emas — mamlakatda bozor islohotlarining chuqurlashuvi, kreditlash hajmining yildan-yilga ortib borishi va iqtisodiy muhitdagi tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida tijorat banklari kredit riski darajasining oshishi va uning likvidlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi xavfi kuchaymoqda. Shu sababli, kredit riski bilan likvidlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o‘sishining mo‘tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash vazifalari keltirib o‘tilgan. [1]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024- yil yakunlari bo‘yicha e‘lon qilgan hisobotiga ko‘ra tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi 21,2 trln.so‘mni yokida 4,0 foizli punktni tashkil etgan. [2]

Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklarining kredit riskini boshqarish va bu orqali banklarning likvidlilik ko‘rsatkichlarini yaxshilash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

**Adabiyotlar sharhi**

A. Burdina tomonidan banklarda kredit riskiga quyidagicha ta‘rif beradi: “Kredit riskini keng ma’noda baholaganda, u bank tomonidan turli operatsiyalar amalga oshirilishi jarayonida moliyaviy yo‘qotishlar yuzaga kelishi ehtimoli doimiy ravishda mavjud bo‘lgan holat sifatida namoyon bo‘ladi.

Ko‘pincha bunday yo‘qotishlar ayrim kontragentlar (asosan qarz oluvchilar) tomonidan o‘z majburiyatlarini bajarmasligi natijasida yuzaga keladi”.[3]

Darhaqiqat, tijorat banklarida kredit riski doimiy holat bo‘lib hisoblanishining asosiy sabablaridan biri O‘zbekiston Respublikasi banki tizimining aktivlari tarkibida kredit operatsiyalarining ulushi 68,9 foizni tashkil etadi. Biroq, A. Burdina tijorat banklarining kredit riski yuzaga kelishida ayrim kontragentlar tomonidan o‘z majburiyatlarini bajarmasligini sabab qilib ko‘rsatgan, lekin uning aynan qaysi segmentlar tomonidan amalga oshirilmayotganligi

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot aks ettirilmagan.

A.Berger, S. Choul, O.Guedhami va R.Romanning tijorat banki rahbariyatining davlat tomonidan qutqarish bo‘yicha beriladigan kafolatga ishonishi o‘ta yuqori darajadagi risklarni qabul qilinishiga olib kelishi mumkinligi xususidagi xulosasi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.[4]

Darhaqiqat, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikrlari O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Mamlakatimizda kapitalida davlat ulushi mavjud banklar tomonidan yuqori riskli va prundensial normativlarga zid bo‘lgan ba‘zi bir amaliyotlarning amalga oshirilishi banklar uchun likvidlilik riskini keltirib chiqarmoqda. Shuning bilan bir qatorda, davlat banklarining doimiy ravishda hukumat mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlanishi banklararo raqobat muhitiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

O.Lavrushenning xulosasiga ko‘ra, banklarda kredit riskini keltirib chiqaruvchi 2 omil mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

* Tashqi omillar
- mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi;
- Markaziy bankning pul-kredit siyosati:
- makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.
* Ichki omillar
- bankning kredit siyosati va monitoringining sifati;
- mukammal kredit diversifikatsiyasi;
- yangi kredit mahsulotlarini taklif qilish va targ‘ib qilish.[5]

Yuqoridagi iqtisodchi olimning fikri O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi uchun ham ahamiyatli bo‘lib banklarda kredit riskni minimallashtirishda ichki omillarga ko‘proq e‘tibor qaratish lozim. Banklarda yuzaga kelayotgan kredit riskining asosiy sabablari tahlil qilinganda banklarda kredit diversifikatsiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, garov ta‘minotini baholashdagi kamchiliklar va monitoring jarayonining sustligi kabi ichki omillar sabab bo‘lganligi aniqlandi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar T.Karaliyev, O.Sattarov, I.Sayfiddinovlarning xulosasiga ko‘ra, aktivlar sifati to‘rtta mezon asosida aniqlanadi: likvidlilik, xatarlilik, daromadlilik va diversifi katsiyalanganlik. Likvidli aktivlar deganda aktivlarni realizatsiya qilish yoki qarzdor tomonidan qarzlarini sundirilishi natijasida ularni pul ko‘rinishiga tez transformatsiyalanish qobiliyatiga tushuniladi. [6]

Yuqorida keltirib o‘tilgan iqtisodiy ta‘rifda aktivlar sifati va likvidli aktivlar to‘liq tushuntirilgan. Tijorat banklarining mijozlar oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida va yo‘qotishsiz amalga oshirish uchun uning likvidlilik darajasi Markaziy bank o‘rnatgan me‘yor darajasida bo‘lishi va kun yakunida jami aktivlar tarkibida yuqori likvidlik aktivlar salmog‘i 10 foizdan kam bo‘lmasligi lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotning tahlil usullari ilmiy metodologiyaga asoslanib, tijorat banklarining kredit riski va uni keltirib chiqaruvchi omillarni chuqur o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot ishida ekspert baholash, qiyosiy tahlil, taqqoslama solishtirish va statistik baholash hamda enduksiya usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar**

Dunyo iqtisodiyotida yuz bergan jahon moliyaviy inqirozidan so‘ng banklar amaliyotida yangi xulosalar va metodlar shakllandi. Unga muvofiq tijorat banklarida ayniqsa O‘zbeksiton Respublikasi tijorat banklarining aktivlari tarkibida kreditlar yuqori salmog‘ni egallaganligi bois kredit riskini doimiy nazorat qilib borishning zarurligi asoslandi. Xususan, kredit riski o‘z vaqtida nazorat qilinmasa bu bankning likvidliligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Qayd etish joizki, tijorat banklarining kredit portfelining sifati hamda undagi muammoli kreditlarning ulushi bank likvidliligi va raqobatbardoshliligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim

ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu ilmiy tadqiqotni yozish jarayonida xorijiy banklar va mahalliy banklarning ushbu ko‘rsatkichlarini solishtiramiz.

1-rasm.

**Sberbank (Rossiya), Halykbank (Qozog‘iston) va Kaspibankida (Qozog‘iston) kredit portfelining NPL darajasi, foizda[6]**




**Rasm muallif tomonidan Sberbank, Halykbank va Kaspibankning yillik hisobotlarining ma’lumotlari asosida tuzilgan.*

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki:

- Sberbankda muammoli kreditlar ulushi 2020 yilda eng yuqori ulushni namoyon qilgan, bu esa koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq hisoblanadi. Keyingi tahlil qilingan davrda muntazam o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan holda xalqaro yo‘l qo‘yilishi mumkin darajadan oshmagan. Bu esa, bankning likvidliligini ta’minlash nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;
- Halykbankning kredit portfelida NPL darajasi 2020 yilda yuqori darajada bo‘lgan, bu esa koronavirus pandemiyasida barcha sohalar faoliyati to‘xtatilganligi bilan izohlanadi. Ammo, keyingi tahlil qilingan davrda NPL darajasi xalqaro norma darajasidan ham past bo‘lgan. Bu esa, likvidlilik va aktivlar rentabelligi nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;
- Kaspibankda tahlil qilingan barcha davrlarda NPL darajasi yuqori salmog`ni egallagan. Xususan, 2020-2022 yillarda xalqaro ekspertlar tomonidan muammoli kreditlarni yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan darajasi 5 foizdan yuqorini tashkil etgan. Bu esa, bankning likvidliligini ta’minlash va aktivlar sifatini yaxshilash jihatidan salbiy holat hisoblanadi.

1-jadval.

**O‘zmilliybank, Asaka bank va Agrobank kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar darajasi, foizda[7]**

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| O‘zmilliybank | 3,2 | 4,7 | 3,3 | 3,5 | 3,4 |
| Asaka bank | 3,5 | 4,8 | 4,4 | 4,5 | 4,7 |
| Agrobank | 1,5 | 4,6 | 4,1 | 3,5 | 3,6 |

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki:

- O‘zmilliybankning kredit portfelida NPL darajasi 2020-2024-yillarda barqaror darajada saqlanib qolgani holda, 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 6,3 foizli punktga oshgan. Bu esa, tijorat bankining likvidliligini ta’minlash nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;
- Asakabankning kredit portfelida NPL darajasi 2020-2024-yillarda doimiy o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, bankda kredit portfelining sog‘lom emasligini va aktivlar rentabelligi past darajada ekanligini anglatadi;
- Agrobankning kredit portfelida NPL darajasi 2020-2024-yillarda umumiy holatda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda, 2024-yilda 2021 -yilga nisbatan 1.26 martaga

[6] Rasm muallif tomonidan Sberbank, Halykbank va Kaspibankning yillik hisobotlarining ma’lumotlari asosida tuzilgan.
[7] Jadval muallif tomonidan Markaziy bankning ma’lumotlari asosida tuzilgan.

kamaygan. Bu esa, bankning likvidliligini ta’minlash jihatidan ijobiy holat hisoblanadi.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, kredit portfelidagi NPL darajasi bankning likvidlilik ko‘rsatkichi bilan teskari proporsionallikni hosil qiladi. Lekin risklilik jihatidan qaraganda to‘g‘ri proporsional hisoblanadi.

**2- jadval**

**Bazel-II standartida tavsiya etilgan kredit riskini baholash bo‘yicha standartlashgan yondashuvda kredit riskini baholash tartibi[8].**

| Reyting | Riskka tortish koeffitsiyentlari (%) | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Davlat va Markaziy banklar | Kredit tashkilotlari | Kredit tashkilot (qisqa muddatli talablar) | Yuridik shaxs |
| AAA dan A gacha | 0 | 20 | 20 (20) | 20 |
| A+ dan A – gacha | 20 | 50 | 50 (20) | 50 |
| BBB + dan BBB – gacha | 50 | 100 | 50 (20) | 100 |
| BB + dan BB – gacha | 100 | 100 | 100 (50) | 100 |
| B + dan B – gacha | 100 | 100 | 100 (50) | 150 |
| B – dan past | 150 | 150 | 150 (150) | 150 |
| Reytingsiz | 100 | 100 | 50 (20) | 100 |

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, kredit oluvchining suveren kredit reytingi qanchalik yuqori bo‘lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo‘ladi. Masalan, suveren kredit reytingi “AAA” dan “AA” gacha bo‘lgan davlatlarning hukumatlariga va Markaziy banklariga berilgan kredit risk darajasi nolga teng, mazkur davlatlardagi kredit tashkilotlariga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 foizga, yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning risk darajasi ham 20 foizga teng.

2-jadval ma’lumotlaridan aniq ko‘rinadiki, suveren kredit reytingi “V-“ dan past bo‘lgan davlatlarning Hukumatlariga, Markaziy banklariga, kredit tashkilotlariga va yuridik shaxslariga berilgan kreditlarning risk darajasi 150 foizga teng.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, xalqaro reyting agentliklarining reyting bahosiga ega bo‘lmagan bank mijozlariga berilgan kreditlarning risk darajasi 100 foizga teng.

2-rasm.

**O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsenti, foizda[9]**




2-rasm ma’lumotlaridan ko‘ringayki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari

[8] Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Bas-II, 2006. http://www.bis.org.publications..

[9] Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

kreditlarining umumiy likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsenti tahlil qilingan davrda minimal talab 100 foizdan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu esa, mamlakat bank tizimining barqarorligini hamda xalqaro maydonda raqobatbardoshligini anglatadi.

**Xulosa**

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarining kredit riskining bank likvidliligiga ta’sirini tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- tijorat banklarida kredit riski doimiy holat bo‘lib hisoblanishining asosiy sabablaridan biri O‘zbekiston Respublikasi banki tizimining aktivlari tarkibida kredit operatsiyalarining ulushi 68,9 foizni tashkil etadi;

- mamlakatimizda kapitalida davlat ulushi mavjud banklar tomonidan yuqori riskli va prundensial normativlarga zid bo‘lgan ba‘zi bir amaliyotlarning amalga oshirilishi banklar uchun likvidlilik riskini keltirib chiqarmoqda. Shuning bilan bir qatorda, davlat banklarining doimiy ravishda hukumat mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlanishi banklararo raqobat muhitiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda;

- Sberbankda muammoli kreditlar ulushi 2020 yilda eng yuqori ulushni namoyon qilgan, bu esa koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq hisoblanadi;

- Kaspibankda tahlil qilingan barcha davrlarda NPL darajasi yuqori salmog`ni egallagan. Xususan, 2020-2022 yillarda xalqaro ekspertlar tomonidan muammoli kreditlarni yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan darajasi 5 foizdan yuqorini tashkil etgan. Bu esa, bankning likvidliligini ta’minlash va aktivlar sifatini yaxshilash jihatidan salbiy holat hisoblanadi;

- respublikamizning yirik tijorat banklarining kredit portfeli tahlili ko‘rsatdiki, O‘zmilliybankning kredit portfelida NPL darajasi 2020-2024-yillarda barqaror darajada saqlanib qolgani holda, 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 6,3 foizli punktga oshgan;

- O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsenti tahlil qilingan davrda minimal talab 100 foizdan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu esa, mamlakat bank tizimining barqarorligini hamda xalqaro maydonda raqobatbardoshligini anglatadi.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining kredit riskini minimallashtirish va bu orqali likvidlilik ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman:

1. Tijorat banklarining kredit portfelining o‘sish sur’ati bilan foizli daromadlarning o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash maqsadida birinchidan, kreditlarning diversifikatsiya darajasini xalqaro e’tirof etilgan bir sohaga 25 foiz darajada hamda muammoli kreditlarga yaratilgan zaxira miqdorini jami kredit portfelining 1 foizidan oshmagan miqdorda shakllantirish zarur.

2. Sof foizli marjaning me’yoriy darajasini ta’minlash maqsadida , birinchidan, sof foizli daromadlar bilan bank aktivlarining riskka tortilgan summasining o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash yo‘li bilan sof foydaning darajasini oshirish kerak; ikkinchidan, banklararo kreditlarning passivlar hajmidagi salmog‘ini pasaytirish va regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog‘ini oshirish asosida foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o‘rtasidagi barqaror nisbatni ta’minlash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobot – 2024. www.cbu.uz.

3. Burdina A.A. Bankovskoye delo / A.A. Burdina. - M.: MAYI, 2019. - 96 c.

4. Berger A. N., Ghoul S., Guedhami, O. and Roman, R. A. Internationalization and Bank Risk. Management Science, 2017. - № 63 (7). – R. 2283–2301.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

5. Lavrushin, O.I. Bankovskoe riski//Uchebniy posobiya. Moskva. – 2007. — P.31-33.
6. T. Karaliyev, O.Sattarov, I.Sayfiddinov Bank faoliyati tahlili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2016. – 136 b.
7. Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. http://www.bis.org.publications.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# BLOCKCHAIN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIYAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH: DLT ARXITEKTURASI, SMART-KONTRAKTLAR VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

**Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich**

*axborot tizimlari va texnologiyalari*
*kafedrasi katta o‘qituvchisi*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: sciencemaqola@gmail.com*
*ORCID: 0000-0002-5610-9107*

***Annotatsiya.****Ushbu maqolada blockchain texnologiyasining moliyaviy tranzaksiyalarni nazorat qilishdagi arxitekturaviy imkoniyatlari IMRAD metodologiyasi doirasida tahlil qilinadi. Distributed Ledger Technology (DLT), smart-kontraktlar va kriptografik audit izlarining moliyaviy nazorat tizimiga integratsiyasi nazariy va empirik jihatdan asoslantirilgan. Yettita konsensus algoritmi (PoW, PoS, PBFT, DPoS, PoA, Raft) moliyaviy sektor uchun qiyosiy baholangan. An’anaviy va blockchain asosidagi nazorat tizimlarining olti o‘lchamda qiyosiy tahlili o‘tkazildi. ISO 31000:2018 asosida yettita asosiy risk ($R_1$–$R_7$) baholandi. Estoniya, Dubay, Singapur, JPMorgan, Braziliya va O‘zbekiston misolida xalqaro tajriba sintezi amalga oshirildi. Samaradorlik tahlili shuni ko‘rsatadiki, blockchain asosidagi nazorat tizimi tranzaksiya narxini 40–60%, operatsiya vaqtini 60–70%, xatoliklar sonini 80–90% va audit jarayonini 50–60% qisqartirishi mumkin. O‘zbekiston uchun Hyperledger Fabric + PBFT/PoA konsensus asosidagi ruxsatli blockchain modeli tavsiya etiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *blockchain, distributed ledger technology (DLT), smart-kontrakt, konsensus algoritmi, kriptografik audit izi, moliyaviy nazorat, zero-knowledge proof, CBDC, Hyperledger Fabric, O‘zbekiston raqamli moliyasi.*

# КОНТРОЛЬ ФИНАНСОВЫХ ТРАНЗАКЦИЙ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН: АРХИТЕКТУРА DLT, СМАРТ-КОНТРАКТЫ И ПРАКТИКА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Тошниёзов Шерали Камолиддинович**

*старший преподаватель кафедры*
*информационные системы и технологии*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет,*
*E-mail: sciencemaqola@gmail.com*
*ORCID: 0000-0002-5610-9107*

***Аннотация.*** *В данной статье в рамках методологии IMRAD анализируются архитектурные возможности технологии блокчейн в сфере контроля финансовых транзакций. Теоретически и эмпирически обоснована интеграция технологии распределенного реестра (DLT), смарт-контрактов и криптографических аудиторских следов в систему финансового контроля. Проведена сравнительная оценка семи алгоритмов консенсуса (PoW, PoS, PBFT, DPoS, PoA, Raft) для финансового сектора. Осуществлен сравнительный анализ традиционных и основанных на блокчейне систем контроля по шести параметрам. На основе стандарта ISO 31000:2018 оценены семь ключевых рисков (R1-R7). Выполнен синтез международного опыта на примере Эстонии, Дубая, Сингапура, JPMorgan, Бразилии и Узбекистана. Анализ эффективности показывает, что система контроля на основе блокчейна может сократить стоимость транзакций на 40-60%, время операций - на 60-70%, количество ошибок - на 80-90% и длительность аудита - на 50-60%. Для Узбекистана рекомендуется модель разрешенного*

*блокчейна на базе Hyperledger Fabric с консенсусом PBFT/PoA.*

***Ключевые слова:*** *блокчейн, технология распределенного реестра (DLT), смарт-контракт, алгоритм консенсуса, криптографический аудиторский след, финансовый контроль, доказательство с нулевым разглашением, CBDC, Hyperledger Fabric, цифровые финансы Узбекистана.*

## MONITORING FINANCIAL TRANSACTIONS BASED ON BLOCKCHAIN TECHNOLOGY: DLT ARCHITECTURE, SMART CONTRACTS, AND THE PRACTICE IN UZBEKISTAN

**Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich**
*Senior Lecturer of the Department*
*of Information Systems and Technologies*
*Tashkent State*
*University of Economics*
*E-mail: sciencemaqola@gmail.com*
*ORCID: 0000-0002-5610-9107*

***Abstract.*** *This article analyzes the architectural capabilities of blockchain technology in monitoring financial transactions, utilizing the IMRAD methodology. It provides theoretical and empirical justification for integrating Distributed Ledger Technology (DLT), smart contracts, and cryptographic audit trails into financial monitoring systems. Seven consensus algorithms (PoW, PoS, PBFT, DPoS, PoA, Raft) are comparatively evaluated for their suitability in the financial sector. A comparative analysis of traditional and blockchain-based monitoring systems is conducted across six dimensions. Seven key risks (R1-R7) are assessed in accordance with ISO 31000:2018. A synthesis of international experience is presented, drawing on case studies from Estonia, Dubai, Singapore, JPMorgan, Brazil, and Uzbekistan. The efficiency analysis indicates that a blockchain-based monitoring system can reduce transaction costs by 40-60%, operational time by 60-70%, error rates by 80-90%, and audit process duration by 50-60%. For Uzbekistan, a permissioned blockchain model based on Hyperledger Fabric, utilizing a PBFT or PoA consensus algorithm, is recommended.*

***Keywords:*** *blockchain, distributed ledger technology (DLT), smart contract, consensus algorithm, cryptographic audit trail, financial monitoring, zero-knowledge proof, CBDC, Hyperledger Fabric, Uzbekistan digital finance.*

### Kirish

Zamonaviy raqamli iqtisodiyotda moliyaviy tranzaksiyalarning hajmi va murakkabligi misli ko‘rilmagan darajada o‘sib bormoqda: BIS (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, global to‘lov tizimlari orqali yiliga 2 kvadrillion dollardan ortiq qiymat aylanadi [1]. Biroq shu ulkan hajmning 2–5%i firibgarlik, xatolik va muvofiqlik muammolari bilan bog‘liq yo‘qotishlarga duchor bo‘lmoqda — bu yiliga $100 mlrd dan ortiq zarar demakdir [2].

An’anaviy markazlashgan moliyaviy nazorat tizimlari bir qator tizimli cheklovlarga ega: (1) yagona buzilish nuqtasi (single point of failure) tizimli risk hosil qiladi; (2) audit izi a posteriori — firibgarlik sodir bo‘lgandan so‘ng aniqlanadi; (3) vositachilar zanjirlari tranzaksiya narxini oshiradi; (4) qo‘lda jarayonlar xatolik ehtimolini 2–5% darajasida saqlaydi [3]. Nakamoto (2008) ning Bitcoin qog‘ozida taklif etilgan tarqalgan reyestr yondashuvi [4] ushbu muammolarga tizimli javob sifatida ilmiy jamoatchilik e’tiborini tortdi.

Biroq blockchain texnologiyasining moliyaviy nazoratdagi imkoniyatlari hali akademik adabiyotda O‘zbekiston kontekstida yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, konsensus algoritmlarining moliyaviy sektor uchun qiyosiy tahlili, ruxsatli blockchain (permissioned blockchain) arxitekturasining regulyator talablari bilan muvofiqligi va smart-kontraktlarning KYC/AML integratsiyasi masalasi metodologik bo‘shliq sifatida qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metodologiyadan foydalanildi: (1) tizimli adabiyotlar sharhi (systematic literature review) — 2015–2024 yillar oralig‘idagi 45 ta manba; (2) qiyosiy tahlil — yettita konsensus algoritmi va oltita nazorat tizimi; (3) Keys-stadi — 6 davlat/korporatsiya tajribasi; (4) miqdoriy baholash — samaradorlik ko‘rsatkichlari va ISO 31000 risk-matritsasi.

**Adabiyotlar sharhi**

Ushbu mavzu bo‘yicha bir qator olimlar tomonidan tadqiqodlar olib borilgan. Jumladan, K. Raximberdiyevning ta’kidlashicha, blockchain texnologiyasi bank tizimida kredit operatsiyalarining xavfsizligini ta’minlashda tub burilish yasaydi. Unga ko‘ra, an’anaviy markazlashgan ma’lumotlar bazalarida mavjud bo‘lgan zaifliklar — ma’lumotlarni o‘zgartirish, noqonuniy kirish va soxtalashtirish kabi xavflar — DLT asosida deyarli bartaraf etiladi. Olim blockchainning asosiy ustunligi sifatida uning o‘zgarmas (immutability) xususiyatini ko‘rsatadi, bu esa moliyaviy tranzaksiyalar tarixini ishonchli saqlash imkonini beradi. Shuningdek, u kreditlash jarayonida smart-kontraktlardan foydalanish orqali qarz berish, foiz hisoblash va qaytarish mexanizmlarini avtomatlashtirish mumkinligini asoslaydi[24].

B.T. Xidirov blockchain texnologiyasini raqamli iqtisodiyotning institutsional asoslaridan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, DLT arxitekturasi markazlashmagan boshqaruvni ta’minlab, moliyaviy tizimda ishonch muammosini texnologik yo‘l bilan hal qiladi. U ayniqsa banklar, sug‘urta kompaniyalari va davlat moliya institutlari o‘rtasidagi tranzaksiyalarda vositachilar sonining qisqarishini muhim ustunlik sifatida ko‘rsatadi. Xidirovning yondashuvida smart-kontraktlar shunchaki texnik vosita emas, balki yangi turdagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi institut sifatida qaraladi[25].

M.Yakubova smart-kontraktlarning huquqiy tabiati va ularning moliyaviy operatsiyalardagi rolini chuqur tahlil qiladi. Unga ko‘ra, smart-kontraktlar avtomatlashtirilgan ijro mexanizmi orqali inson omilini kamaytiradi, bu esa xatoliklar va korrupsiya xavfini pasaytiradi. Shu bilan birga, olima smart-kontraktlarning huquqiy maqomi hali ko‘plab mamlakatlarda to‘liq aniqlanmaganini ta’kidlaydi. Ayniqsa O‘zbekiston sharoitida ularning qonunchilik bazasini shakllantirish zarurligi qayd etiladi. Yakubova smart-kontraktlarni moliyaviy tranzaksiyalar monitoringida real vaqt rejimida nazorat vositasi sifatida baholaydi[26].

S. Haber blockchain texnologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlardan biri sifatida vaqt tamg‘alash (timestamping) mexanizmining ahamiyatini asoslab beradi. Uning fikricha, har bir tranzaksiya vaqt bo‘yicha ketma-ketlikda kriptografik bog‘lanish orqali mustahkamlanadi, bu esa ma’lumotlarni orqaga qaytib o‘zgartirishni deyarli imkonsiz qiladi. Haber ushbu mexanizmni moliyaviy tranzaksiyalarni audit qilish va nazorat qilishda muhim vosita sifatida ko‘rsatadi[27].

S. Grybniak DLT texnologiyasini moliyaviy tizimlarni modernizatsiya qilishning muhim vositasi sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, blockchain asosidagi tizimlar tranzaksiyalarni tezkor va xavfsiz amalga oshirish imkonini beradi, bu esa banklararo hisob-kitoblarda samaradorlikni oshiradi. Grybniak markazlashmagan tizimlar kelajak moliya tizimining asosi bo‘lishini ta’kidlaydi[28].

**Tahlil va natijalar**

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi moliyaviy tizimlarda yangi texnologik yechimlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, moliyaviy tranzaksiyalar hajmining keskin ortishi, ularning tezkorligi va murakkabligining oshishi an’anaviy nazorat mexanizmlarining samaradorligini pasaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, blockchain texnologiyasi va uning asosini tashkil etuvchi taqsimlangan reyestr (DLT) arxitekturasi moliyaviy operatsiyalarni shaffof, xavfsiz va o‘zgarmas tarzda yuritish imkonini beruvchi innovatsion yechim sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur texnologiya yordamida tranzaksiyalarni real vaqt rejimida kuzatish, ularning ishonchliligini ta’minlash hamda noqonuniy aralashuvlarning

oldini olish mumkin bo‘ladi. Bu esa moliyaviy tizimda ishonch darajasini oshirish, korrupsiya va firibgarlik xavfini kamaytirish kabi muhim vazifalarni hal etishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, smart-kontraktlar texnologiyasining rivojlanishi moliyaviy munosabatlarni avtomatlashtirish va inson omilini minimallashtirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, shartnomaviy majburiyatlarning avtomatik bajarilishi, to‘lovlarning belgilangan shartlar asosida amalga oshirilishi va nazorat qilinishi moliyaviy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish va investitsion muhit jozibadorligini oshirish jarayonlarida blockchain texnologiyalarini joriy etish alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu texnologiyalar davlat moliyasi, bank tizimi va biznes subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarda shaffoflikni ta’minlash, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va institutsional ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, blockchain asosida moliyaviy tranzaksiyalarni nazorat qilish mexanizmlarini ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb ilmiy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Risklarning ISO 31000 baholash matritsasi - Blockchain asosidagi moliyaviy nazorat tizimining joriy etilishidagi to‘siqlarni tizimli baholash uchun ISO 31000:2018 risk-matritsasi tuzildi. $R_1$–$R_7$ risklari ehtimollik × ta’sir ko‘rsatkichlari bilan baholandi:

**1-jadval.**

**Blockchain asosidagi moliyaviy nazorat tizimining risk-matritsasi (ISO 31000:2018)***

| № | Risk / Cheklov | Ehtimollik (1–5) | Ta’sir (1–5) | Ball | Kategoriya | Yengillashtirish chorasi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| $R_1$ | **Scalability (miqyoslanish): yuk ostida TPS pasayishi** | 4 | 5 | **20** | Texnik | Sharding (Ethereum 2.0); Layer-2 (Lightning, Polygon); PBFT ruxsatli blockchain |
| $R_2$ | **51% hujum: tarmoq kuchlarini monopollashtirish** | 2 | 5 | **10** | Xavfsizlik | Ruxsatli blockchain (permissioned); PBFT konsensus; tarmoq ishtirokchilari diversifikatsiyasi |
| $R_3$ | **Smart-kontrakt xatoligi va zaifliği** | 3 | 5 | **15** | Texnik | Formal verification; audit (OpenZeppelin, Certik); bug bounty dasturi |
| $R_4$ | **Regulyatorlik noaniqlik: huquqiy maqom** | 4 | 4 | **16** | Huquqiy | Sandbox rejim; principles-based tartibga solish; FATF VASP yo‘l-yo‘riqlari |
| $R_5$ | **Mavjud infra bilan integratsiya qiyinligi** | 4 | 4 | **16** | Operatsion | Middleware layer; ISO 20022 + blockchain gateway; bosqichma-bosqich migratsiya |
| $R_6$ | **Energiya sarfi (PoW konsensus)** | 3 | 3 | **9** | Ekologik | PoS / PBFT / PoA ga o‘tish; yashil energiya; carbon offset |
| $R_7$ | **Ma’lumot maxfiyligi: shaffoflik paradoksi** | 3 | 4 | **12** | Regulyatorlik | Zero-knowledge proof (ZKP); private channel; GDPR-mos arxitektura |

**Manba: muallif tomonidan ISO 31000:2018, NIST CSF, FATF (2022) asosida tuzilgan; ball = ehtimollik × ta’sir*

Risk-matritsasining asosiy xulosasi: Scalability ($R_1$, ball=20) va Smart-kontrakt zaifliği ($R_3$, ball=15) texnik ustuvor muammolar sifatida belgilanadi. Biroq moliyaviy sektor uchun Regulyatorlik noaniqlik ($R_4$, ball=16) va Mavjud infra integratsiyasi ($R_5$, ball=16) amalda eng ko‘p vaqt va resurs talab etuvchi to‘siqlardir. O‘zbekiston uchun tavsiya: PBFT/PoA ruxsatli blockchain $R_1$ (miqyoslanish) va $R_2$ (51% hujum) riskini bir vaqtda hal qiladi — shu sababli bu arxitektura tanlov birinchi ustuvorlik.

Blockchain ning asosiy kuchi — to‘liq shaffoflik — moliyaviy sektorda paradoks yaratadi: tijorat sirlarini va mijoz maxfiyligini (GDPR, PDP Act) saqlash bilan to‘liq ochiqlik bir-biriga zid. Bu «shaffoflik paradoksi» $R_7$ (ball=12) sifatida risk-matritsasida belgilandi.

Yechim — Zero-Knowledge Proof (ZKP) kriptografik protokoli: bir tomon ikkinchiga ma’lumotni oshkor qilmasdan, shu ma’lumot to‘g‘riligini isbotlay oladi. Moliyaviy nazoratda bu quyidagicha qo‘llaniladi: soliq organi AML/KYC muvofiqligini tekshiradi, biroq aniq tranzaksiya miqdori va tomonlarni bilmaydi. ZKP texnologiyasi zk-SNARKs va zk-STARKs ko‘rinishida allaqachon Ethereum, Zcash va ba’zi bank pilot loyihalarida qo‘llanilmoqda [8].

Xalqaro tajriba (5-jadval) va risk-matritsasi (6-jadval) sintezidan O‘zbekiston uchun quyidagi bosqichli yo‘l xaritasi taklif etiladi:




*1-diagramma. O‘zbekistonda joriy etish bosqichlari (asl fayldan)*

1-diagrammada ko‘rsatilganidek, joriy etish to‘rt bosqichda amalga oshiriladi: (1) 2025 I–II chorak: O‘zMB boshchiligida Hyperledger Fabric pilot — G2P subsidiya to‘lovlari uchun; (2) 2025 III–2026: pilot kengaytma — soliq to‘lovlari va davlat xaridlari; (3) 2026–2027: korporativ sektor onboarding — UZCARD + Humo + 30+ bank; (4) 2028–2030: to‘liq integratsiya — «Raqamli so‘m» CBDC + blockchain audit izi birlashtirish.

Blockchain tizimining to‘rtta asosiy komponenti moliyaviy nazorat kontekstida quyidagicha tavsiflanadi:




*1-rasm. Smart-kontraktning moliyaviy operatsiyada ishlash mexanizmi*[10]

Smart-kontraktning deterministik tabiati moliyaviy nazorat uchun uchta strategik afzallik beradi. Birinchi — bajarilish kafolati: inson omilisiz, belgilangan shart bajarilganda avtomatik ravishda ishga tushadi. Ikkinchi — auditlash qulayligi: har bir bajarilish blockchain ga yoziladi, tekshiruvchi istalgan vaqt qayta ko‘ra oladi. Uchinchi — KYC/AML real vaqt tekshiruvi: FATF Travel Rule talablari smart-kontrakt kodiga kiritiladi, muvofiq bo‘lmagan tranzaksiyalar avtomatik bloklanadi.

*2-rasm. Smart-kontrakt ichki tarkibi va moliyaviy nazorat modullari*[11]

An’anaviy markazlashgan ma’lumotlar bazasi va blockchain/DLT ning moliyaviy nazorat

[10] Muallif ishlanmasi.
[11] Muallif ishlanmasi.

uchun qiyosiy baholash CBDC gibrid model bilan kengaytirildi. 2-jadvalda yetti o‘lcham bo‘yicha qiyosiy tahlil keltirilgan:

2-jadval.

**An’anaviy MB, DLT/Blockchain va CBDC: yetti o‘lchamda qiyosiy tahlil***

| Ko‘rsatkich | An’anaviy markazlashgan MB | DLT / Blockchain | CBDC (gibrid) | Moliyaviy nazorat uchun implication |
|---|---|---|---|---|
| **Ma’lumot joylashuvi** | Markazlashgan server | **Tarqalgan (barcha node)** | Qatlamli (MB + tier-2) | DLT: bitta buzilish nuqtasi yo‘q; systemic risk minimal |
| **Himoya usuli** | Parol + server firewall | **Kriptografiya + konsensus (PoW/PoS/PBFT)** | MB kriptografik kalit | Blockchain: kriptografik audit izi; qayta yozib bo‘lmaydi |
| **O‘zgartirish imkoniyati** | Oson (admin huquqi) | **Juda qiyin (51% hujum kerak)** | Minimal (MB ruxsati) | Immutability: firibgarlik izlari doimiy saqlanadi |
| **Avtomatlashtirish** | Past (qo‘lda jarayon) | **Yuqori (smart-kontrakt)** | Dasturlangan (programmable money) | Smart-kontrakt: KYC/AML real vaqt tekshiruvi |
| **Tranzaksiya tezligi** | T+1/T+2 (banklar arasi) | **Variantga qarab 10 sek–2 daqiqa** | CBDC: real vaqt (<1 sek) | Xalqaro to‘lov: SWIFT $25 → DeFi $0.01 narx |
| **Audit izi** | Qisman (log fayllar) | **To‘liq, o‘zgarmas, kriptografik** | Dasturlanadigan audit | Sud isboti: blockchain audit izi yetarli hujjat |
| **Miqyoslanish** | Yuqori (yaxshi optimallashgan) | **Cheklangan (PoW: ~7 TPS; Visa: 24,000 TPS)** | Optimallashtirilgan | Scalability: Ethereum 2.0 sharding 100,000+ TPS maqsad |

**Manba: Nakamoto (2008), BIS CPMI (2023), Hyperledger Foundation (2022); muallif kengaytirgan*




*3-rasm. Markazlashmagan ma’lumotlar bazasining arxitekturaviy taqqosi*[12]

Moliyaviy tranzaksiyalarni nazorat qiluvchi blockchain tizimining unumdorligi va xavfsizligi ko‘p jihatdan tanlangan konsensus algoritmiga bog‘liq. 3-jadvalda yetti asosiy algoritm moliyaviy sektordagi foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan baholandi:

[12] Muallif ishlanmasi.

3-jadval.

**Konsensus algoritmlarining moliyaviy sektor uchun qiyosiy baholash matritsasi***

| Algoritm | To‘liq nomi | TPS (max) | Energiya sarfi | Dezentral. darajasi | Yakuniylik | Moliyaviy sektorda qo‘llanilish |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **PoW** | Proof of Work | 7 (Bitcoin) 30 (Litecoin) | Juda yuqori | Yuqori | Ehtimoliy | Bitcoin; kriptovalyuta birjalari |
| **PoS** | Proof of Stake | 1,000–10,000 | Past | O‘rtacha | Ehtimoliy | Ethereum 2.0; DeFi platformalar |
| **PBFT** | Practical Byzantine Fault Tolerance | 10,000–20,000 | Juda past | Past (ruxsatli) | Darhol (deterministic) | Hyperledger Fabric; JPM Coin; bank consortiumlari |
| **DPoS** | Delegated PoS | 1,000–10,000 | Past | O‘rtacha | Yarim deterministic | EOS; raqamli birjalar |
| **PoA** | Proof of Authority | 300–1,000 | Juda past | Juda past (ruxsatli) | Darhol | Quorum (JPMorgan); davlat CBDC tizimlari |
| **Raft/RAFT** | Distributed consensus (CFT) | 100,000+ | Minimal | Minimal (klaster) | Darhol | R3 Corda; korporativ DLT; O‘zbekiston uchun tavsiya |

**Manba: Hyperledger Foundation (2022), Ethereum Foundation (2023), Corda (R3); muallif baholashi*

2-jadvaldan olingan eng muhim xulosa: O‘zbekiston uchun tavsiya etilgan arxitektura PBFT yoki PoA konsensusiga asoslangan ruxsatli blockchain. Buning sababi: (1) darhol va deterministik yakuniylik; (2) juda past energiya sarfi; (3) O‘zMB tomonidan ishtirokchilar ro‘yxatini nazorat qilish imkoniyati; (4) 300–20,000 TPS diapazoni moliyaviy sektor ehtiyojlarini qondiradi. Hyperledger Fabric yoki R3 Corda ushbu talablarga eng mos keladigan ochiq manbali platformalar hisoblanadi.

Blockchain ning moliyaviy nazoratdagi eng kuchli tomoni — o‘zgarmas kriptografik audit izidir. Har bir tranzaksiya blokga yozilgandan so‘ng uni o‘chirish yoki o‘zgartirish uchun butun keyingi zanjirni qayta hisoblash kerak bo‘ladi, bu esa amalda imkonsizdir. 4-jadvalda namunaviy audit reyestri keltirilgan:

4-jadval.

**Blockchain asosidagi audit izi: namunaviy moliyaviy tranzaksiya reyestri***

| Blok № | TX ID | Vaqt (UTC) | Tur / Yo‘nalish | Miqdor (UZS) | Holat | Hash (SHA-256, qisqartma) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **#12841** | **TX001** | 2024-03-20 10:30:15 | G2P: subsidiya → fuqaro | **1,000,000** | ✅ **Tasdiqlandi** | 0x1a2b3c4d5e6f…a8b9 |
| **#12842** | **TX002** | 2024-03-20 10:35:22 | P2P: jismoniy shaxs to‘lov | **500,000** | ❌ **Rad etildi (AML filter)** | 0x6f7g8h9i0j1k…2l3m |
| **#12843** | **TX003** | 2024-03-20 10:40:30 | B2G: soliq to‘lovi | **2,000,000** | ⏳ **Kutilmoqda** | 0x1k2l3m4n5o6p…7q8r |
| **#12844** | **TX004** | 2024-03-20 11:05:10 | B2B: xalqaro o‘tkazma | **15,000,000** | ✅ **Tasdiqlandi** | 0x9s0t1u2v3w4x…5y6z |
| **#12845** | **TX005** | 2024-03-20 11:22:45 | Smart-kontrakt: sug‘urta to‘lov | **3,500,000** | ✅ **Avtomatik bajarildi** | 0x7a8b9c0d1e2f…3g4h |

**Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy format; SHA-256 xesh qisqartirilgan ko‘rinishda*




*4-rasm. Blockchain asosidagi audit izi va tranzaksiya tasdiqlash jarayoni*

4-rasm ko‘rsatadiki, har bir tranzaksiya (TX) uchun: (1) SHA-256 xesh hosil qilinadi; (2) avvalgi blok xeshi yangi blokka kiritiladi — shu tarzda zanjir hosil bo‘ladi; (3) konsensus mexanizmi tarmoq ishtirokchilari tomonidan tasdiqlanadi; (4) yozuv o‘zgarmas tarzda distributed reyestrga saqlanadi. Shu sababli moliyaviy tekshiruv chog‘ida auditor istalgan blokdan to‘lov zanjirini to‘liq tiklashi mumkin.

Blockchain asosidagi moliyaviy nazorat tizimining samaradorligi Deloitte (2022), Accenture (2023), PwC (2023) va McKinsey (2023) tadqiqotlari asosida miqdoriy baholandi. 5-jadvalda olti ko‘rsatkich bo‘yicha an’anaviy tizim bilan qiyoslash keltirilgan:

**5-jadval.**

**Blockchain asosidagi moliyaviy nazorat tizimining samaradorlik ko‘rsatkichlari***

| Ko‘rsatkich | An’anaviy tizim | Blockchain tizimi | O‘zgarish | Asosiy omil va metodologiya |
|---|---|---|---|---|
| **Tranzaksiya narxi** | $15–45 (xalqaro); $0.5–2 (ichki) | **$0.01–0.50 (DeFi); $0.10–1.0 (ruxsatli)** | **40–60%↓** | Vositachilar bartaraf etilishi; Deloitte (2022): bank xarajatlarini $15–20 mlrd/yil tejash |
| **Operatsiya vaqti** | T+1/T+2 (banklar arasi); 3–5 kun (xalqaro) | **10 sek–2 daqiqa (PoW); <1 sek (PBFT/PoA)** | **60–70%↓** | Smart-kontrakt avtomatik bajarish; SWIFT gpi vs blockchain pilot: 7 kun → 2 soat |
| **Xatoliklar soni** | Qo‘lda jarayon: 2–5% error rate | **Smart-kontrakt: <0.1%** | **80–90%↓** | Deterministic kod bajarish; inson omili 0; Accenture (2023) fintech audit tadqiqoti |
| **Audit tezligi** | Yillik audit: 4–6 oy; Hujjat: 2–3 hafta | **Real vaqt: doimiy; Hujjat: avtomatik** | **50–60%↓** | O‘zgarmas audit izi; PwC (2023): auditorlik xarajati 35% kamayishi prognozi |
| **Firibgarlik aniqlash** | Post-hoc (sodir bo‘lgach); 24–72 soat kechikish | **Real vaqt (<1 sek); AI + smart-kontrakt** | **85–95%↓** | Deterrent effekt: o‘zgarmas reyestr firibgarlikni qiyinlashtiradi; McKinsey (2023) |
| **Muvofiqlik (compliance)** | Qo‘lda reporting; KYC: 3–7 kun | **Avtomatik KYC/AML; Real vaqt reporting** | **70–80%↓** | FATF Travel Rule avtomatik bajarilishi; RegTech integratsiya |

**Manba: Deloitte (2022), Accenture (2023), PwC (2023), McKinsey (2023); muallif sintezi*

Jadvaldan olingan eng muhim miqdoriy xulosa: firibgarlik aniqlashda 85–95% yaxshilanish — bu blockchain ning deterrent (oldini oluvchi) effektidan kelib chiqadi. O‘zgarmas audit izi va real vaqt monitoring birlashganda firibgarlik uchun «iqtisodiy motivatsiya» keskin

pasayadi: firibgarlik izlari doimiy saqlanib, yuridik isbotga tayyor holda turadi.

Blockchain asosidagi moliyaviy nazorat tizimlarini real muammolarni yechishda qanday qo‘llanilganligi yetti davlat va korporatsiya tajribasi asosida sintez qilindi. 6-jadvalda O‘zbekiston uchun saboqlar alohida ustunda keltirilgan:

6-jadval.

**Blockchain asosidagi moliyaviy nazorat tizimlari: yetti davlat/korporatsiyaning qiyosiy keys-stadi***

| Davlat / Korporatsiya | Tizim nomi | Texnologiya | Joriy etilgan yil | Asosiy natija | O‘zbekiston uchun saboq |
|---|---|---|---|---|---|
| **Estoniya** | **X-Road + KSI Blockchain** | Guardtime KSI; ruxsatli blockchain | 2012 | 99.9% uptime; 0 ma’lumot buzilishi; 3,000+ xizmat integratsiya | Davlat registrlarini blockchain audit izi bilan himoya qilish modeli |
| **Dubay** | **Dubai Blockchain Strategy** | Hyperledger Fabric + Ethereum | 2016–2020 | 25.1 mln hujjat blockchain ga o‘tdi; yiliga 114M soat tejamkorlik | Hukumat hujjatlashtirish + moliyaviy litsenziyalashda blockchain |
| **Singapur** | **Project Ubin + MAS Sandbox** | JP Morgan Quorum + Corda | 2016–2020 | DvP hisob-kitob 60% tezroq; cross-border to‘lov pilot | MAS sandbox modeli + regulyator ishtirokidagi blockchain pilot |
| **JPMorgan** | **JPM Coin + Onyx** | Quorum (Ethereum fork) + PoA | 2019 | Kunlik $10 mlrd+ o‘tkazma; B2B to‘lov real vaqt | Korporativ konsortium blockchain: banklar + MB hamkorlik modeli |
| **Braziliya** | **DREX (wholesale CBDC)** | Hyperledger Besu + smart kontrakt | 2023 (pilot) | DvP avtomatik; tokenized asset hisob-kitob | CBDC + DLT integratsiyasida pioner; O‘zbekiston «Raqamli so‘m» uchun eng yaqin model |
| **Rossiya** | **SPFS + FinTech Sandbox** | Hyperledger Fabric; Masterchain | 2017–2020 | 350+ fintech pilot; blockchain kredit registr | MDH kontekstida blockchain joriy etish xavf va imkoniyatlari |
| **O‘zbekiston** | **«Raqamli so‘m» pilot (rejalashtirilgan)** | Tavsiya: Hyperledger Fabric + PoA | 2025 maqsad | CBDC + blockchain audit izi integratsiya; G2P to‘lov | PBFT/PoA konsensus + ruxsatli blockchain = O‘zMB nazoratida shaffoflik |

**Manba: Guardtime (2024), Dubai DIFC (2023), MAS Singapore (2023), JPMorgan Onyx (2023), BCB Brazil (2023); muallif sintezi*

Keys-stadi tahlilining eng muhim xulosasi: muvaffaqiyatli blockchain joriy etishning uchta umumiy omili bor. Birinchi — tartibga soluvchi (regulyator) ishtirokida pilot boshlash: Singapur MAS, Braziliya BCB, Dubay DIFC barchasi hukumat/MB homiyligida sinab ko‘rdi. Ikkinchi — ruxsatli blockchain tanlash: davlat va moliyaviy sektorga ochiq (permissionless) blockchain emas, nazorat qilinadigan ruxsatli model mos keladi. Uchinchi — bosqichma-bosqich integratsiya: yirik infratuzilmani bir vaqtda almashtirmasdan, pilot → pilot kengaytma → to‘liq migratsiya yo‘li samaraliroq.

**Xulosa**

Ushbu tadqiqot blockchain texnologiyasining moliyaviy tranzaksiyalarni nazorat qilishdagi imkoniyatlarini tizimli o‘rganib, quyidagi asosiy xulosalarga keldi:

1. DLT/Blockchain vs an’anaviy tizim qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ruxsatli blockchain (PBFT/PoA konsensus) moliyaviy nazorat uchun optimal tanlov: yagona buzilish nuqtasi yo‘q; audit izi o‘zgarmas; smart-kontrakt KYC/AML real vaqt tekshiradi. An’anaviy

tizimning saqlanib qolishi zarur joylari: yuqori TPS talab etuvchi retail to‘lovlar (Visa: 24,000 TPS vs blockchain: 300–20,000 TPS).

2. Samaradorlik ko‘rsatkichlari: blockchain joriy etish tranzaksiya narxini 40–60%, operatsiya vaqtini 60–70%, xatoliklar sonini 80–90%, audit tezligini 50–60% va firibgarlik darajasini 85–95% yaxshilashi mumkin. Eng katta samara audit va compliance sohasida ko‘zga tashlanadi.

3. Kriptografik audit izi moliyaviy nazoratni reaktiv (post-hoc) dan proaktiv (real-time) ga o‘tkazadi: har bir tranzaksiya zamon tamg‘ali, kriptografik imzoli, yuridik isbotga tayyor holda saqlanadi.

4. Risklar matritsasidan asosiy xulosa: Scalability ($R_1$, ball=20) va Regulyatorlik noaniqlik ($R_4$, ball=16) birinchi ustuvor hal etilishi kerak. O‘zbekiston uchun: PBFT ruxsatli blockchain $R_1$ ni texnik yechadi; sandbox regulyatorlik rejimi $R_4$ ni institutsional yechadi.

5. O‘zbekiston uchun «strategik to‘rtlik» tavsiya etiladi: Hyperledger Fabric + PBFT/PoA + Zero-Knowledge Proof (maxfiylik) + O‘zMB nazoratidagi ruxsatli arxitektura. Bu to‘rtta element birgalikda 2030 yilgacha «Raqamli so‘m» CBDC bilan to‘liq integratsiyalashgan blockchain nazorat tizimini shakllantirishga asos bo‘ladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki:**

• Hyperledger Fabric asosidagi ruxsatli blockchain pilotni 2025 yil I choragida G2P subsidiya to‘lovlari uchun boshlash — bu $R_1$ (scalability) va $R_2$ (xavfsizlik) riskini bir vaqtda hal qiladi.

• Blockchain uchun qonunchilik bazasini tayyorlash: smart-kontrakt yuridik maqomini, audit izi huquqiy kuchini «To‘lovlar» qonuniga kiritish — 2025 II chorak.

• ZKP (Zero-Knowledge Proof) texnologiyasini pilot doirasida sinash: AML/KYC tekshiruvini maxfiylik bilan birlashtirish — GDPR va milliy PDP Act muvofiqlik uchun.

**Iqtisodiyot va moliya vazirligi va davlat organlari:**

• Sandbox regulyatorlik rejimida blockchain fintech kompaniyalariga 24 oylik sinov maydoni berish — $R_4$ (regulyatorlik noaniqlik) riskini kamaytiradi.

• Davlat xaridlari tizimini blockchain audit izi bilan jihozlash: har bir shartnoma va to‘lov immutable reyestrda saqlansin — korrupsiyaga qarshi kurashda strategik vosita.

**Moliyaviy institutlar va texnologiya kompaniyalari:**

• Smart-kontrakt kodini joriy etishdan oldin formal verification va uchinchi tomon audit (OpenZeppelin standartiga mos) o‘tkaz — $R_3$ (smart-kontrakt zaifliği) ni minimallashtiradi.

• Mavjud CBS (Core Banking System) bilan blockchain integratsiyasi uchun ISO 20022 + API middleware qatlam qurilsin — bu $R_5$ (integratsiya qiyinligi) yechimi.

Hyperledger Fabric va R3 Corda bo‘yicha ichki mutaxassislar tayyorlash dasturlari 2025 yildan boshlansin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. BIS CPMI. Statistics on payment, clearing and settlement systems in the CPMI countries. — Basel: BIS, 2023. — 252 p.

2. PwC. Global Economic Crime and Fraud Survey 2023. — London: PwC, 2023. — 38 p.

3. Accenture. Banking on Blockchain: A Value Analysis for Investment Banks. — New York: Accenture, 2023. — 48 p.

4. Nakamoto, S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. — 2008. — 9 p. [bitcoin.org]

5. Buterin, V. Ethereum: A Next-Generation Smart Contract and Decentralized Application Platform. — 2014. — 36 p. [ethereum.org]

6. Hyperledger Foundation. Hyperledger Fabric Architecture Reference. — San Francisco: Linux Foundation, 2022. — 74 p.

7. Swan, M. Blockchain: Blueprint for a New Economy. — Sebastopol: O‘Reilly Media,

2015. — 152 p.

8. Ben-Sasson, E. et al. Scalable, transparent, and post-quantum secure computational integrity // IACR ePrint. — 2018. — №46. — 33 p.

9. Tapscott, D., Tapscott, A. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. — New York: Portfolio/Penguin, 2016. — 368 p.

10. Deloitte. Deloitte’s 2022 Global Blockchain Survey. — New York: Deloitte Insights, 2022. — 52 p.

11. McKinsey & Company. Blockchain beyond the hype: What is the strategic business value? — New York: McKinsey, 2023. — 44 p.

12. FATF. Guidance for a Risk-Based Approach: Virtual Assets and VASPs. — Paris: FATF, 2022. — 66 p.

13. ISO 31000:2018. Risk Management — Guidelines. — Geneva: ISO, 2018. — 16 p.

14. Guardtime. KSI Blockchain: Immutable audit infrastructure. — Tallinn: Guardtime AS, 2024. — 28 p.

15. Monetary Authority of Singapore. Project Ubin: Central Bank Digital Money using Distributed Ledger Technology. — Singapore: MAS, 2023. — 72 p.

16. J.P. Morgan. Onyx by J.P. Morgan: Blockchain Solutions for Institutional Finance. — New York: JPMorgan, 2023. — 32 p.

17. Banco Central do Brasil. DREX: Digital Real Pilot — Technical Report. — Brasília: BCB, 2023. — 56 p.

18. Dubai Financial Services Authority. Blockchain Strategy 2030: Progress Report. — Dubai: DFSA, 2023. — 44 p.

19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov tizimlari va to‘lov xizmatlari monitoring hisoboti 2023–2024. — Toshkent: O‘zMB, 2024. — 124 b.

20. Ethereum Foundation. Ethereum 2.0: Proof-of-Stake and Sharding. — 2023. [ethereum.org/upgrades]

21. R3. Corda Platform White Paper: Enterprise DLT Architecture. — New York: R3, 2022. — 42 p.

22. IEEE. Blockchain in Financial Services: Applications and Challenges // IEEE Transactions on Engineering Management. — 2023. — Vol. 70, №5.

23. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi. — Toshkent: O‘zMB, 2020.

24. Рахимбердиев К. Application of blockchain technologies in ensuring the security of lending transactions // Economics and Innovative Technologies. – 2023.

25. Хидиров Б.Т. Blockchain technology and the role of blockchain in Uzbekistan // GIIRJ. – 2022.

26. Якубова М. Smart Contracts and their Legal Recognition // Uzbek Journal of Law and Digital Policy. – 2024.

27. Haber S., Stornetta W.S. How to time-stamp a digital document // Journal of Cryptology. – 1991.

28. Грибняк С. Distributed Ledger Technology Research. – IEEE, 2023.

# TIJORAT BANKLAR FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI



**G‘aybullayeva Zilola Rahmatullayevna**
*“Moliya va kredit” kafedrasi O‘qituvchisi*
*O‘zbekiston Milliy Universiteti*
*E – mail: zilola_gaybullaeva@bk.ru*
*ORCID: 0009-0000-3137-8127*

**Abduxalilov Sardor Abdullo o‘g‘li**
*Moliya va moliyaviy texnologiyalar*
*yo‘nalishi 1 – bosqich talabasi*
*O‘zbekiston Milliy Universiteti*
*E – mail: sardorbej572@gmail.com*
*ORCID: 0009-0002-0293-5064*

***Annotatsiya.*** *Mazkur ilmiy maqolada tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tizimli tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida an’anaviy bank modelidan raqamli ekotizim modeliga o‘tish orqali operatsion xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar bilan aloqa kanallarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Olingan natijalar asosida banklarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va kiber-barqarorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish, iqtisodiy samaradorlik an’anaviy bank modeli, raqamli ekotizim, operatsion xarajatlarni optimallashtirish, kiber-barqarorlik, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt va blokcheyn, tranzaksion xarajatlar.*

# ECONOMIC EFFICIENCY OF DIGITALIZING COMMERCIAL BANKING OPERATIONS

**Zilola Rahmatullayevna Gaybullayeva**
*Lecturer, Department of Finance and Credit,*
*National University of Uzbekistan*
*E-mail: zilola_gaybullaeva@bk.ru*
*ORCID: 0009-0000-3137-8127*

**Sardor Abdullo ogli Abduxalilov**
*First-year Student, Finance and Financial Technologies,*
*National University of Uzbekistan*
*E-mail: sardorbej572@gmail.com*
*ORCID: 0009-0002-0293-5064*

***Abstract.*** *This scientific article provides a systematic study of modern trends in the digitalization of commercial banking and their subsequent impact on economic efficiency. The research analyzes the potential for optimizing operating costs and diversifying customer engagement channels through the transition from traditional banking models to digital ecosystems. Based on the findings, the author puts forward scientific and practical recommendations aimed at ensuring long-term institutional stability, reducing transaction costs, and enhancing cyber-resilience within the banking sector.*

***Keywords:*** *digitalization of commercial banking, economic efficiency, traditional banking model, digital ecosystem, operating cost optimization, cyber-resilience, digital economy, artificial intelligence and blockchain, transaction costs.*

# ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

**Гайбуллаева Зилола Рахматуллаевна**
*Преподаватель кафедры «Финансы и кредит»*
*Национальный университет Узбекистана*
*E-mail: zilola_gaybullaeva@bk.ru*
*ORCID: 0009-0000-3137-8127*
**Абдухалилов Сардор Абдулло угли**
*Студент 1-го курса направления «Финансы и финансовые технологии»*
*Национальный университет Узбекистана*
*E-mail: sardorbej572@gmail.com*
*ORCID: 0009-0002-0293-5064*

***Аннотация.*** *В данной научной статье системно исследованы современные тенденции цифровизации деятельности коммерческих банков и их влияние на экономическую эффективность. В ходе исследования проанализированы возможности оптимизации операционных расходов и диверсификации каналов взаимодействия с клиентами путем перехода от традиционной банковской модели к модели цифровой экосистемы. На основе полученных результатов выдвинуты научно-практические предложения по обеспечению долгосрочной устойчивости банков, снижению трансакционных издержек и повышению киберустойчивости.*

***Ключевые слова:*** *цифровизация деятельности коммерческих банков, экономическая эффективность, традиционная банковская модель, цифровая экосистема, оптимизация операционных расходов, киберустойчивость, цифровая экономика, искусственный интеллект и блокчейн, трансакционные издержки.*

**Kirish.**

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan ko‘plab davlatlarida moliya bozori yuqori transformatsiya jarayonini hali hanuz davom etyapti. Bunda, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi an’anaviy bank xizmat ko‘rsatish modellarini tubdan o‘zgartirib, ularni yuqori texnologik IT platformalarga aylantirmoqda. Sun’iy intellekt, blokcheyn va katta ma’lumotlar bilan ishlash texnologiyalari banklar uchun nafaqat raqobatbardoshlikni oshirish vositasi, balki barqaror rivojlanishning strategik omiliga aylandi.

Xususan, onlayn bank xizmatlari, mobil ilovalar va jarayonlarning avtomatlashtirilishi tufayli tijorat banklari raqobat bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda. An’anaviy modeldan ekotizim modeliga o‘tish orqali muassasalar tranzaksion xarajatlarni jiddiy kamaytirishga muvaffaq bo‘lmoqda.[1] Shunga qaramay, mahalliy banklar uchun innovatsiyalarga sarflangan investitsiyalarning sof foyda ko‘rsatkichiga ta’sirini tahlil qilish hali ham ilmiy bahslar markazida qolmoqda.

Tijorat banklar faoliyatini raqamlashtirish ayniqsa O‘zbekistonda yildan – yilga jadal rivojlanib boryapti. Ya’ni O‘zbekiston moliya bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish operatsion xarajatlarni jiddiy ravishda kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning asosiy omiliga aylandi. Eskicha uslublardan voz kechib, raqamli formatga o‘tish banklar uchun ham daromadlilikni oshirish, ham mijozlar ehtiyojiga tezkorlik bilan javob berish demakdir. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi davlat va tijorat banklar oldiga yangi transformatsiya vazifalarni qo‘ymoqda.[2] O‘zbekistonda tijorat banklarini raqamlashtirish jarayonlari shunchaki bozor talabi emas, balki davlat darajasidagi strategik vazifa hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli hamda PF-6079-sonli farmonlari bilan tasdiqlangan strategiyalar tijorat bank sektorida raqamli transformatsiyani amalga oshirish, masofaviy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va moliyaviy texnologiyalarni jadal rivojlantirish uchun huquqiy va iqtisodiy zamin yaratadi.[12] Raqamli transformatsiya sharoitida banklar nafaqat texnologik yangilanishni, balki biznes-modelni tubdan o‘zgartirishni amalga oshirishlari shart, aks holda fintex kompaniyalari bilan raqobatda bozor ulushini yo‘qotish xavfi ortadi. O‘zbekiston bank

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

tizimida raqamlashtirish jarayonlari tranzaksion xarajatlarni kamaytirish bilan birga, iqtisodiyotning real sektori shaffofligini ta’minlovchi strategik drayverga aylandi. Shu sababli, bank rentabelligiga raqamli texnologiyalar ko‘rsatayotgan real iqtisodiy samarani miqdoriy baholash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish orqali erishiladigan iqtisodiy samaradorlikni miqdoriy va sifat jihatdan baholash, shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida xarajatlarni optimallashtirish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat.

**Mavzuga oid dabiyotlar tahlili.**

Hozirgi kunda tijorat banklar faoliyatini raqamlashtirish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash ishlari jahon iqtisodiyoti va bank amaliyotida keng o‘rganilayotgan fundamental yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi nazariy qarashlar evolutsiyasini shartli ravishda uchta darajaga: global nazariy asoslar, mintaqaviy tajribalar va mahalliy tadqiqotlarga ajratgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tijorat banklarda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini tushunishda, eng avvalo, jahon olimlaridan Nobel mukofoti sovrindori Ronald Kouz tomonidan ilgari surilgan tranzaksion xarajatlar nazariyasiga to‘xtalib o‘tish joiz. Uning fikricha, tashkilot samaradorligi axborot almashinuvi va kelishuvlar xarajatini minimallashtirishga bog‘liq. Ya’ni Uning “firma barqarorligining asosi — bozor ichidagi tranzaksion xarajatlarni tashkilot ichida minimallashtirish qobiliyatidir” deb aytgan fikri tijorat bank operatsion xarajatalarini minimumlashtirish isboti bo‘la oladi. Zamonaviy sharoitda fintex eksperti Kris Skinner ushbu nazariyani boyitib, banklarni shunchaki moliya muassasasi emas, bank ma’lumotlari ekotizimi sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha raqamli bank – shunchaki an’anaviy modelga mobil ilova qo‘shish emas, balki an’anaviy modeldan raqamli bankning ekotizim modeliga o‘tish tendensiyasi deya ta’kidlaydi.[3] Chunki raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyasi – bu bankning ma’lumotlar bazasiga aylanishi ekanligini ta’kidlaydi. Bu esa mijozlar bazasini kengaytirish uchun asosdir.

Mintaqaviy tadqiqotlarda, jumladan MDH olimlarida ushbu nazariyalar amaliyot bilan bog‘lanadi. Masalan, German Gref tijorat bankni litsenziyaga ega bo‘lgan IT-kompaniya sifatida tavsiflab, raqamlashtirishni bankning yashab qolishi uchun yagona yo‘l deb hisoblaydi.[6] U banklarda operatsion xarajatlarni kamaytirishning eng samarali yo‘li — bu inson omilini kamaytirib, jarayonlarni to‘liq avtomatlashtirish ekanligini isbotlagan. Jumladan, bu fikrni iqtisodchi olima M.A. Abramovaning “Banklar faoliyatini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi faqat foyda bilan emas, balki bankning ekotizim ichida mijoz uchun yaratgan ‘vaqt tejami’ bilan o‘lchanishi lozim.” nazariyasi bilan isbotlanadi.[5] Bu kabi yondashuvlar tijorat banklar faoliyatini raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

5. Guo, F. J., & Ding, J. P. (2023). Study on the interaction relationship between RMB internationalization, exchange rate and cross-border capital flow. Contemporary Economic Science, 45(2), 1–12.
6. Wang, A. J., Liu, B. J., & Liu, H. J. (2022). Economic policy uncertainty and RMB internationalization. World Economic Research, 5, 136–137.
7. Wang, T. Y., & Li, J. P. (2022). Study on systemic financial risks in the process of RMB internationalization. Economic Issues, 6, 58–66.
8. Xu, Y., Tang, K., & Xie, D. X. (2023). RMB internationalization and its influencing factors. International Finance Research, 431(3), 61–73.
9. Yang, R. H., & Du, L. F. (2021). Risk measurement of capital account opening. International Finance Research, 10, 67–77.
10. Sha, W. B., & Qian, Y. Y. (2022). Study on the transmission mechanism of RMB internationalization to macro-financial risk. Economic System Reform, 2, 150–157.
11. Gao, H. Y., Tian, L. P., & Zhou, C. (2022). Research on the measurement of financial stability frontier and systemic financial risk index. Financial Regulation Research, 11, 1–18.
12. Shan, J. Q., & Wang, H. N. (2024). Financial risk spillover and macroeconomic policy

regulation. Journal of Central University of Finance & Economics, 4, 3–17.

13. Adrian, T., & Brunnermeier, M. K. (2008). Federal Reserve Bank of New York Staff Reports (Vol. 348).

14. Fan, X. Y., Wang, D. P., & Fang, Y. (2011). Measuring and supervising financial institutions’ marginal contribution to systemic risk in China. Nankai Economic Studies, 4, 3–20.

15. Illing, M., & Liu, Y. (2006). Measuring financial stress in a developed country: An application to Canada. Journal of Financial Stability, 2(3), 243–265.

16. Hakkio, C. S., & Keeton, W. R. (2009). Financial stress: What is it, how can it be measured, and why does it matter? Economic Review, 94(2), 5–50.

17. IMF. (2009). Global Financial Stability Report: Responding to the Financial Crisis and Measuring Systemic Risks. Working Paper.

18. Balakrishnan, R., Danninger, S., Elekdag, S., & Tytell, I. (2011). The transmission of financial stress from advanced to emerging economies. Emerging Markets Finance and Trade, 47(2), 40–68.

19. Oet, M. V., Gramlich, D., & Sarlin, P. (2016). Evaluating measures of adverse financial conditions. Journal of Financial Stability, 27, 234–249.

20. Deng, C., & Zhao, K. (2018). Financial stress and its impact on the business cycle in China. Journal of Finance and Economics, 44(7), 86–98.

21. Zhu, Z. C., & Jiang, B. (2024). Construction and application of China’s financial stress index. Finance & Economics of Xinjiang, 1, 21–33.

22. Li, J. M., Kang, M. L., & Li, Q. Y. (2024). Measurement and evaluation of regional financial risk in China. Economic Forum, 2, 98–109.

23. Wu, Y. Y., & Zhu, L. X. (2022). Empirical measurement of China’s financial stress. Reform of Economic System, 06, 144–151.

24. Ding, H., Chen, Y., & Bian, Z. C. (2020). Construction of China’s financial market stress index. Modern Finance and Economics, 40(8), 18–30.

25. Yang, G. Y., & Wang, Z. (2023). Systematic financial risk measurement. Wuhan Finance, 8, 33–40.

26. Chen, S. L., Li, J., Tan, L. M., & Yang, H. S. (2021). Time-varying measurement of systemic financial risk in China. The Journal of World Economy, 44(12), 28–54.

27. Li, M. B., & Liang, S. (2021). Monitoring systemic financial risks. Journal of Financial Research, 6, 21–38.

28. Fu, Q. (2022). System dynamics: Research oriented towards complex systems. China Social Science News, 2, 7–26.

29. Zhang, N., Liu, G., & Zhang, J. W. (2024). Simulation study of major social risk. The Theory and Practice of Finance and Economics, 45(1), 104–110.

30. Zhang, X., Zhang, M. Q., & Tang, Y. F. (2022). Dynamic interaction between local government debt risk and financial risk. Research on Economics and Management, 43(7), 3–15.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TAVSIFLOVCHI KO‘RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

**Umariy Muxriddin Xusniddin o‘g‘li**
*Oliy va amaliy matematika kafedrasi o‘qituvchisi,*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: mumariy@bk.ru*
*ORCID: 0009-0007-7276-1254*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda CAMELS tizimi ko‘rsatkichlaridan foydalanish, risklarni aniqlash va ularni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Ekonometrik modellashtirish vositalari orqali bank faoliyatining samaradorligi va moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Xorijiy tajribalar o‘rganilib, O‘zbekiston tijorat banklari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Bank, moliyaviy barqarorlik, CAMELS, risk, kapital, likvidlik, stress-test, bufer, ekonometrik modellashtirish.*

# «ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ, ХАРАКТЕРИЗУЮЩИХ ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ»

**Умарий Мухриддин Хусниддин угли**
*высшая и прикладная математика*
*преподаватель кафедры*
*Ташкентский государственный университет экономики*
*E-mail: mumariy@bk.ru*
*ORCID: 0009-0007-7276-1254*

***Аннотация.*** *В данной статье показатели системы CAMELS используются для оценки финансовой устойчивости коммерческих банков, при этом рассматриваются современные подходы к выявлению и управлению рисками. С помощью инструментов эконометрического моделирования анализируются эффективность банковской деятельности и факторы, влияющие на финансовую устойчивость. Изучается международный опыт и разрабатываются практические рекомендации для коммерческих банков Узбекистана.*

***Ключевые слова:*** *банк, финансовая устойчивость, CAMELS, риск, капитал, ликвидность, стресс-тест, буфер, эконометрическое моделирование.*

# “ECONOMETRIC MODELING OF INDICATORS HARACTERIZING THE FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS”

**Umariy Muxriddin Xusniddin ogli**
*Higher and applied mathematics*
*teacher of the department*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: mumariy@bk.ru*
*ORCID: 0009-0007-7276-1254*

***Abstract.*** *In this article, the CAMELS system indicators are used to assess the financial stability of commercial banks, while modern approaches to identifying and managing risks are examined. Through econometric modeling tools, the efficiency of banking activities and the factors*

*affecting financial stability are analyzed. International experiences are studied, and practical recommendations are developed for commercial banks in Uzbekistan.*

***Keywords:*** *Bank, financial stability, CAMELS, risk, capital, liquidity, stress test, buffer, econometric modeling.*

**Kirish**

Tijorat banklari har qanday milliy iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi. Ularning barqaror faoliyati iqtisodiy o‘sish, investitsiyalarni jalb etish va moliyaviy tizim ishonchliligini ta’minlashda asosiy omillardan biridir. So‘nggi yillarda global moliyaviy bozorlarning tezkor o‘zgarishi, geosiyosiy beqarorliklar va yangi texnologiyalarning kirib kelishi banklar oldiga yangi risklar va tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois bank barqarorligini baholash va uni mustahkamlash masalasi ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarbdir. Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda keng qo‘llaniladigan CAMELS tizimi ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy-matematik modellashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, risklarni kamaytirishning samarali usullari va xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston bank sektori uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasi nafaqat bank tizimi, balki butun iqtisodiyot barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Banklar moliyaviy vositachi sifatida iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtiradi, investitsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlaydi hamda pul-kredit siyosatining samarali amalga oshirilishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois bank tizimidagi har qanday beqarorlik butun iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. So‘nggi yillarda global moliyaviy bozorlarda yuz berayotgan o‘zgarishlar, xususan, moliyaviy inqirozlar, inflyatsion bosimlar va valyuta kurslarining keskin tebranishi banklar faoliyatida risklarni boshqarish masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Bunday sharoitda banklarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, ularning barqarorligini baholash va potensial xavflarni oldindan aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalarni hal etishda CAMELS tizimi eng samarali va xalqaro miqyosda tan olingan baholash usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim bank faoliyatini kompleks tarzda tahlil qilish, ya’ni kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, daromadlilik, likvidlik va bozor risklariga sezgirlik kabi asosiy ko‘rsatkichlarni baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, ularning moliyaviy barqarorlikka ta’sir darajasini ilmiy asosda baholash imkonini yaratadi. O‘zbekiston bank tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, xalqaro standartlarga moslashish, banklar faoliyatining shaffofligini oshirish va raqobat muhitini kuchaytirish ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini CAMELS tizimi asosida baholash va ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega[1]. Shunday qilib, mazkur maqola mavzusi bank tizimi barqarorligini ta’minlash, risklarni samarali boshqarish va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni ekonometrik modellashtirish mavzusida tadqiqotning tahlil usullari Ekonometrik modellashtirish usullari, xususan panel ma’lumotlar, logit/probit va VAR modellar bank faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda keng qo‘llaniladi. Mahalliy tadqiqotlarda esa O‘zbekiston bank tizimini mustahkamlash, aktivlar sifati va likvidlikni oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, CAMELS tizimini ekonometrik tahlil bilan uyg‘unlashtirgan tadqiqotlar yetarli darajada rivojlanmagan.

**Adabiyotlar sharhi**

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda

keng yoritilgan. Xorijiy tadqiqotlarda CAMELS tizimi banklarning moliyaviy holatini kompleks baholashning samarali vositasi sifatida e’tirof etiladi. Ushbu tizim orqali banklarning kapital yetarliligi, aktivlar sifati, daromadliligi va likvidligi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Risklarni boshqarish bo‘yicha ilmiy ishlarda stress-testlash, kapital va likvidlik buferlarini shakllantirish hamda diversifikatsiya muhim yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Basel standartlari banklar barqarorligini ta’minlashda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi[2].

Radjabov Sh.U. va Tursunova I.X. tijorat banklarining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib, kapital yetarliligi, likvidlik qoplash koeffitsiyenti, aktivlar rentabelligi va muammoli kreditlar bank barqarorligini belgilovchi asosiy indikatorlar ekanini ta’kidlaydi[3].

Bobur Normetov moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi indikatorlar sifatida rentabellik, likvidlik darajasi va kapital yetarliligini ajratib ko‘rsatadi hamda ularni bank barqarorligini oshirish strategiyalarida asosiy rol o‘ynaydi[4].

Muxammad Rasulov o‘z tadqiqotida tijorat banklari uchun aktivlar sifati, kapital hajmi, depozitlar va CAMELS tizimi bo‘yicha indikatorlar moliyaviy barqarorlikni baholashda qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatadi[5].

Gulmira Samandarova ning ilmiy yondashuvida banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda masofaviy xizmatlar, kredit va depozitlar dinamikasiga ham e’tibor qaratiladi, bu ko‘rsatkichlar barqarorlikni tahlil qilishda qimmatli axborot beradi[6].

**Tahlil va natijalar.**

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni ekonometriya orqali modellashtirish dolzarbdir, chunki global va mahalliy moliya bozoridagi beqarorlik, inflyatsiya va kredit risklarining ortishi banklarning barqarorligini aniq baholashni talab qiladi. Shuningdek, bu yondashuv banklar va regulyatorlarga moliyaviy risklarni oldindan prognoz qilish, kapital va likvidlikni samarali boshqarish hamda iqtisodiyotdagi ishonch va barqarorlikni oshirish imkonini beradi.

CAMELS (Capital adequacy, Asset quality, Management, Earnings, Liquidity, Sensitivity) tizimi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda xalqaro miqyosda qo‘llaniladigan eng ishonchli va samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu metodika dastlab AQSH bank nazorati tizimida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda banklarni kompleks baholash vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. [1] Mazkur tizim bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini qamrab olib, uning moliyaviy holatini chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. CAMELS tizimi orqali banklarning barqarorligi nafaqat joriy holatda, balki istiqbolda ham baholanadi, bu esa risklarni oldindan aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Tizim quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Kapital yetarliligi (C) – bank kapitalining risklarni qoplash darajasini ko‘rsatadi. Kapital yetarliligi yuqori bo‘lgan banklar iqtisodiy inqiroz va moliyaviy zarbalarga bardoshli bo‘ladi. Xalqaro amaliyotda bu ko‘rsatkich Basel standartlari asosida tartibga solinadi. [2]

Aktivlar sifati (A) – bank aktivlarining, ayniqsa kredit portfelining sifatini baholaydi. Muammoli kreditlar ulushi ortishi bankning moliyaviy holatini yomonlashtiradi va uning likvidligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Menejment samaradorligi (M) – bank boshqaruvining strategik qarorlar qabul qilish, risklarni boshqarish va resurslardan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Samarali menejment bank barqarorligining asosiy omillaridan biridir.

Daromadlilik (E) – bankning foyda olish salohiyatini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichlar ROA va ROE orqali aniqlanadi va bankning moliyaviy samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Likvidlik (L) – bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish imkoniyatini bildiradi. Likvidlik darajasi past bo‘lgan banklar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Bozor risklariga sezgirlik (S) – bankning tashqi iqtisodiy omillar, jumladan foiz stavkalari,

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

inflyatsiya va valyuta kurslariga sezgirligini ifodalaydi.

Zamonaviy bank tizimida risklarni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir. Global moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligi banklardan ilg‘or risk-menejment tizimlarini joriy etishni talab etmoqda.

Stress-testlash – bank faoliyatini turli iqtisodiy ssenariylar asosida baholash imkonini beradi. Ushbu usul orqali bankning inqiroz sharoitida qanday holatga tushishi oldindan aniqlanadi. [3]

Kapital va likvidlik buferlari – Basel III talablariga muvofiq banklar qo‘shimcha moliyaviy zaxiralar yaratishi lozim. Bu banklarni kutilmagan yo‘qotishlardan himoya qiladi. [2]

Diversifikatsiya – bank aktivlarini turli sohalarga taqsimlash orqali risklarni kamaytiradi. Bu usul bankning barqarorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ichki nazorat tizimi – bank ichida risklarni aniqlash va oldini olishga xizmat qiladi. Ichki audit va komplayens nazorati samarali boshqaruvning muhim elementlaridan hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda ekonometrik modellar keng qo‘llaniladi. Ushbu modellar statistik va matematik usullar asosida bank faoliyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Panel ma’lumotlar modeli – bir nechta banklar va vaqt kesimidagi ma’lumotlarni birgalikda tahlil qiladi. Bu usul orqali banklar o‘rtasidagi farqlar va vaqt bo‘yicha o‘zgarishlar aniqlanadi.

Logit va probit modellar – bankning moliyaviy inqirozga uchrash ehtimolini baholashda qo‘llaniladi. Ushbu modellar banklarni “barqaror” va “beqaror” toifalarga ajratish imkonini beradi.

VAR modeli (vektor autoregressiya) – makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va bank faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadi. Ushbu model iqtisodiy shoklarning bank tizimiga ta’sirini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. [8]

Xalqaro amaliyotda CAMELS tizimi bank nazoratining asosiy vositalaridan biri sifatida keng qo‘llaniladi. [1] AQSH da banklar faoliyati CAMELS reytingi asosida baholanadi va bu tizim banklarning moliyaviy holatini doimiy monitoring qilish imkonini beradi. Yevropa mamlakatlarida esa CAMELS tizimi Basel standartlari bilan uyg‘un holda qo‘llanilib, bank nazoratining samaradorligini oshiradi. [9] Xalqaro tashkilotlar, jumladan Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va Jahon banki bank tizimining barqarorligini baholashda ushbu yondashuvlardan keng foydalanadi. O‘zbekistonda ham bank tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashish va banklar faoliyatining shaffofligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi. Ichki omillarga bankning kapital tuzilmasi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi va daromadlilik darajasi kiradi. Tashqi omillar esa makroiqtisodiy muhit, davlatning pul-kredit siyosati, inflyatsiya darajasi va valyuta kurslaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. [10]

Ayniqsa, inflyatsiya darajasining oshishi banklar faoliyatiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: bir tomondan foiz daromadlari ortishi mumkin, boshqa tomondan esa kreditlarning qaytmaslik xavfi kuchayadi. Shu sababli banklar inflyatsion risklarni hisobga olgan holda o‘z kredit siyosatini shakllantirishi lozim. Shuningdek, valyuta kurslarining keskin tebranishi xorijiy valyutadagi majburiyatlarga ega banklar uchun katta risk tug‘diradi. Bu holat ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston bank tizimida so‘nggi yillarda statistik ma’lumotlar bazasi sezilarli darajada kengaydi. Bu esa ekonometrik modellar asosida chuqur tahlillar olib borish imkoniyatini yaratmoqda. Masalan, tijorat banklarining 2015–2024 yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida panel ma’lumotlar modeli tuzish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- kapital yetarliligi bank barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;
- muammoli kreditlar ulushi oshishi moliyaviy barqarorlikni pasaytiradi;
- likvidlik darajasi yuqori bo‘lgan banklar inqirozlarga nisbatan chidamliroq bo‘ladi.

Bundan tashqari, VAR modeli orqali makroiqtisodiy omillar (inflyatsiya, foiz stavkalari,

YAIM o‘sishi) va bank ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash mumkin. Ushbu yondashuv bank tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi. [11]

Tahlillar asosida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

• CAMELS tizimini barcha tijorat banklarida to‘liq joriy etish va muntazam monitoring olib borish;
• muammoli kreditlar ulushini kamaytirish bo‘yicha samarali kredit siyosatini yuritish;
• stress-testlash amaliyotini kengaytirish va uni muntazam ravishda o‘tkazish;
• kapital va likvidlik buferlarini kuchaytirish;
• zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish;
• bank xodimlarining malakasini oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish.

**Xulosa**

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash – iqtisodiyot barqarorligining asosiy garovidir. CAMELS tizimidan foydalanish va ekonometrik modellashtirish vositalarini qo‘llash bank faoliyatini samarali tahlil qilish va risklarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, stress-testlar o‘tkazish, kapital va likvidlik buferlarini shakllantirish, shuningdek boshqaruv tizimini takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekiston bank tizimida ham CAMELS tizimini keng joriy etish va ilmiy asoslangan ekonometrik modellashtirish amaliyotini kuchaytirish kelajakda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda asosiy omillardan biri bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC) – CAMELS Rating System
2. Basel Committee on Banking Supervision – Basel III Framework
3. Раджабов Ш.У., Турсунова И.Х. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tahlili // Intellectual Education Technological Solutions and Innovative Digital Tools. – 2023. – Т. 2, № 20.
4. Normetov B. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo‘llari // GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT. – 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.16315822.
5. Rasulov M. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash. – 2025. – GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 3(3).
6. Samandarova G. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi tahlili // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024.
7. Alisherova Sh.Y. O‘zbekiston tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda strategik boshqaruv // Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. – 2025.
8. International Monetary Fund (IMF) – Financial Stability
9. World Bank – Global Financial Development Report
10. European Central Bank – Banking Supervision
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# DUAL TA’LIM ASOSIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING MODDIY-TEXNIK BAZASINI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI

**Oybekov Shohjahon Akmal o‘g‘li**
*TDIU Mustaqil izlanuvchisi*
*TDIU Davlat xaridlari bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxasissi*
*e-mail:shohjahon1000@gmail.com*
*ORCID: 0009-0007-9620-2078*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari dual ta’lim tizimi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat budjeti, to‘lov-kontrakt mablag‘lari hamda boshqa moliyaviy manbalarning o‘rni o‘rganilib, dual ta’limning ushbu jarayondagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dual ta’lim tizimini rivojlantirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash e’tirof etiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *dual ta’lim, oliy ta’lim muassasalari, moliyalashtirish mexanizmlari, moddiy-texnik baza, moliyaviy mustaqillik, davlat-xususiy sheriklik, budjetdan tashqari mablag‘lar, moliyalashtirishni diversifikatsiyalash, xalqaro tajriba, ta’lim sifati.*

# ПЕРСПЕКТИВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ОСНОВЕ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Ойбеков Шохжахон Акмаль угли**
*Самостоятельный соискатель ТГЭУ*
*Главный специалист отдела по работе с государственными закупками ТГЭУ*
*e-mail:shohjahon1000@gmail.com*
*ORCID: 0009-0007-9620-2078*

***Аннотация.*** *В данной статье на основе системы дуального образования анализируются вопросы совершенствования механизмов финансирования материально-технической базы высших образовательных учреждений. В исследовании изучается роль государственного бюджета, внебюджетных средств (платных контрактов) и других финансовых источников, а также обосновывается значение дуального образования в этом процессе. Согласно результатам исследования, развитие системы дуального образования и диверсификация источников финансирования признаются ключевыми факторами обеспечения финансовой устойчивости высших образовательных учреждений.*

***Ключевые слова:*** *дуальное образование, высшие образовательные учреждения, механизмы финансирования, материально-техническая база, финансовая самостоятельность, государственно-частное партнерство, внебюджетные средства, диверсификация финансирования, международный опыт, качество образования.*

# PROSPECTS FOR FINANCING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON DUAL EDUCATION

**Oybekov Shokhjakhon Akmal ugli**
*Independent Researcher at TSUE*
*Chief Specialist of the Public Procurement Department at TSUE*

*e-mail:shohjahon1000@gmail.com*
*ORCID: 0009-0007-9620-2078*

***Abstract.*** *This article analyzes the issues of improving the financing mechanisms of the material and technical base of higher education institutions based on the dual education system. The study examines the role of the state budget, tuition fees, and other financial sources, providing a rationale for the significance of dual education in this process. According to the research results, developing the dual education system and diversifying financing sources are recognized as key factors in ensuring the financial stability of higher education institutions.*

***Keywords:*** *dual education, higher education institutions, financing mechanisms, material and technical base, financial independence, public-private partnership, extra-budgetary funds, diversification of financing, international experience, quality of education.*

**Kirish**.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda keng ko‘lamli islohotlar va moliyaviy mustaqillikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni oliy ta’lim muassasalarini o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va samarali moliyaviy mexanizmlarni joriy etish maqsadlari ko‘rsatib o‘tilgan [1]. Buning natijasida keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qarorlari bilan Oliy ta’lim muassasalariga Moliyaviy va akademik mustaqillik berila boshladi hamda bu o‘zgarishlar natijasida Oliy ta’lim muassasalari rivojlanishini yangi bosqichiga olib chiqdi [2] [3]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 14-sonli qarorida oliy ta’lim muassasalari o‘z nomidan korxona bilan dual ta’lim bo‘yicha shartnomalar tuzish hamda kontrakt to‘lovlari va qonun hujjatlarida man etilmagan boshqa manbalardan tushgan mablag‘larni moddiy-texnik bazani rivojlantirish hamda talabalarga korxonalardagi amaliyot bazalaridan va ularning moddiy-texnik bazasidan foydalanish huquqi berilgani esa Oliy ta’lim muassasalarini moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun turli xil moliyaviy rivojlanish instrumentlarini amalga oshirish imkonini bermoqda [4]. Ushbu o‘zgarishlar dual ta’lim orqali qo‘shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish va infratuzilmani yanada mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2017–2024 yillarda O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni deyarli uch barobarga oshib, yoshlarda oliy ta’limga qamrov 8% dan 48% ga yetdi [5]. Bu esa tizimda ko‘plab yangi talabalarning paydo bo‘lishi bilan birga, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari manbalarini kengaytirish, oliy ta’limni xususiy sektor bilan hamkorlikda moliyalashtirish (masalan, davlat-xususiy sheriklik, grantlar, bitiruvchilarning hissalari) bo‘yicha choralar ko‘rilmoqda. Xorijiy tajribalarga tayanib, oliy ta’limni investitsiyalar orqali, budjetdan tashqari jamg‘armalar va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish hamda korrupsiyadan holi va shaffof mexanizmlarni yaratish taklif etilmoqda [6]. Bu maqolada oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muammolari va yechimlari o‘rganiladi. Xususan, dual ta’lim asosida olingan ma’lumotlar, budjet ajratmalari, to‘lov-kontrakt mablag‘lari va boshqa manbalarni o‘z ichiga olgan murakkab moliyalashtirish tizimining xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar sharhi.**

Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda turli nazariy va amaliy yondashuvlar shakllangan. Xususan, D. Johnstone tomonidan ilgari surilgan “cost-sharing” konsepsiyasi oliy ta’lim xarajatlarini davlat, talabalar va xususiy sektor o‘rtasida taqsimlashning samarali mexanizmi sifatida asoslab berilgan.

Ushbu yondashuv moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda dual ta’lim tizimi oliy ta’limni moliyalashtirishda yangi instrument sifatida tadqiq etilmoqda. Germaniya tajribasi asosida shakllangan mazkur model ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlab, xarajatlarni qisman xususiy sektor zimmasiga yuklash imkonini beradi. BIBB (2020) ma’lumotlariga ko‘ra, dual ta’lim tizimi yuqori bandlik darajasiga erishishda samarali vosita hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlarida, jumladan Finlyandiyada, oliy ta’limni moliyalashtirish natijadorlikka asoslangan yondashuv orqali amalga oshiriladi. European Commission (2022) hisobotiga ko‘ra, moliyalashtirish hajmi bitiruvchilar soni, ilmiy natijalar va mehnat bozori ko‘rsatkichlariga bog‘liq holda belgilanadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Janubiy Koreya va AQSH tajribasida esa oliy ta’limni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik, grantlar va xususiy investitsiyalar muhim o‘rin tutadi. OECD (2021) tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, innovatsion iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi ko‘p manbali moliyalashtirishga bog‘liq.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotda kompleks yondashuv asosida bir qator metodlaridan foydalanildi. Xususan, adabiyotlarni tizimli tahlil qilish orqali oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini moliyalashtirishning nazariy asoslari o‘rganildi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usuli orqali O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda tegishli nizomlarning mazmun-mohiyati chuqur o‘rganildi va ularning amaliy ahamiyati baholandi. Ilmiy maqolalar, statistik ma’lumotlar va rasmiy hisobotlar asosida mavjud holatga baho berilib, tendensiyalar aniqlashtirildi.

**Tahlil va natijalar.**

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi uchun davlat budjetidan mablag‘lar doimiy ajratilib borilmoqda. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi budjetiga 2025-yil uchun ajratilgan mablag‘ 6,6 trln so‘mga yetkazilgan, bu 2024-yilgi 6,130 trln so‘m, budjet ajratmalari yil sayin o‘sib bormoqda [7]. Aksariyat davlat OTMlari o‘z daromad tuzilishida to‘lov-kontrakt asosidagi talabalar to‘lovlari ulushi yuqori ekanligi qayd etilgan [8]. Bu esa oliy ta’limni diversifikatsiya qilish va qo‘shimcha daromad manbalarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Dual ta’lim tizimini joriy etish huquqiy jihatdan kengaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 14-sonli qaror asosidagi Nizomi dual ta’lim uchun qo‘shimcha rag‘batlar yaratmoqda. Masalan, Nizomning 35-bandida keltirilganidek, oliy ta’lim tashkilotlari o‘z nomidan yuridik shaxslar bilan dual ta’lim shartnomalari tuzish va ushbu ta’lim shaklidan tushadigan kontrakt mablag‘larini hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalarni moddiy-texnik bazani rivojlantirishga yo‘naltirish huquqiga ega. 38-band esa dual ta’lim talabalariga korxonalardagi amaliyot bazalaridan, jumladan korxonaning moddiy-texnik bazasidan foydalanish huquqini kafolatlaydi. Natijada oliy ta’lim muassasalari uchun dual ta’lim orqali tushadigan mablag‘larni o‘zaro boshqarish va moddiy texnik bazani rivojlantirishga yo‘naltirish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta’limni moliyalashtirish tizimlari tobora diversifikatsiyalashib, davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan modellar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, dual ta’lim modeli ushbu jarayonda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu modelda talaba o‘qish jarayonida bir vaqtning o‘zida korxonalarda faoliyat yuritadi va natijada ta’lim xarajatlarining bir qismi xususiy sektor tomonidan qoplanadi. Bu yondashuv inson kapitali nazariyasi hamda xarajatlarni taqsimlash konsepsiyasiga asoslanib, oliy ta’lim tizimining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi [9]. Germaniya dual ta’lim modelining klassik namunasi hisoblanib, unda davlat, universitet va biznes o‘rtasida aniq funksional taqsimot mavjud [10]. Talabalar korxonalarda ish haqi asosida faoliyat yuritib, o‘qish bilan integratsiyalashgan

amaliy ko‘nikmalarni egallaydi, bu esa ularning mehnat bozoriga tez moslashuvini ta’minlaydi. Finlyandiyada esa moliyalashtirish asosan natijaga asoslangan davlat grantlari orqali amalga oshiriladi, bunda oliy ta’lim muassasalarining samaradorligi bitiruvchilar soni, ilmiy natijalar va bandlik ko‘rsatkichlari asosida baholanadi [11]. Janubiy Koreya va AQShda esa dual elementlar sanoat bilan integratsiya, grantlar, xususiy investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali amalga oshiriladi [12].

Mazkur mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limni moliyalashtirishda yagona model mavjud emas, balki har bir davlat o‘zining iqtisodiy va institutsional xususiyatlaridan kelib chiqib aralash tizimlardan foydalanadi.

**1-jadval**

***Xorij davlatlarini dual ta’lim asosida moliyalashtirish usullari****

| Davlat | Moliyalashtirish modeli | Natijalar samaradorligi |
|---|---|---|
| **Germaniya** | Dual model (davlat + korxona, ish haqi asosida) | Yuqori bandlik darajasi, amaliy ko‘nikmalar rivoji |
| **Finlyandiya** | Natijaga asoslangan davlat moliyalashtirish modeli | Ta’lim sifati yuqori, tizim samaradorligi kuchli |
| **Janubiy Koreya** | Industry-linked model (davlat + xususiy sektor + grantlar) | Innovatsiya va texnologik rivojlanish yuqori |
| **AQSh** | Bozor modeli (tuition, grantlar, PPP, xususiy sektor) | Moslashuvchan tizim, lekin talabalar qarzi yuqori |

***Manba:** Tadqiqotchi tomonidan xorij davlatlari tajribalarini o‘rgangan holda tayyorlandi.*

Jadvaldan ko‘rinadiki, Germaniya dual model orqali xarajatlarni samarali taqsimlagan, Finlyandiya esa natijaga asoslangan boshqaruv orqali sifatni oshirgan. Janubiy Koreyada sanoat integratsiyasi innovatsiyani kuchaytirgan bo‘lsa, AQShda moliyalashtirish manbalari xilma-xilligi tizimning moslashuvchanligini ta’minlagan. Bundan tashqari, talabalar turar joylarini qurishda ham davlat-xususiy sheriklik mexanizmi qo‘llanilmoqda – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrda “Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 563-sonli qaror orqali talabalar turar joylari xarajatlarining 50% ga qadar qismini davlat budjetidan qoplash belgilandi [13]. Bu kabi tashabbuslar oliy ta’lim infratuzilmasini mustahkamlashga katta hissa qo‘shishi kutilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur. Eng avvalo, davlat budjeti hisobidan beriladigan mablag‘lar samarali yo‘naltirilishi ta’lim sifatini, bitiruvchilar salohiyatini va kadr tayyorlash natijalarini hisobga oluvchi natijaviy moliyalashtirishga o‘tishga to‘g‘ri kelmoqda. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari o‘z budjetdan tashqari mablag‘larini kengaytirishi, kontrakt to‘lovlaridan tushgan xarajatlarni rivojlantirish fondlariga qayta investitsiya qilish mexanizmi joriy etilishi muhim. Rivojlantirish jamg‘armalari orqali qo‘shimcha mablag‘ jamlab, ularni laboratoriya jihozlari, kitoblar va transport kabi moddiy-texnik ehtiyojlarga sarflash amaliyoti kengaytirilishi kerak. Xorijiy tajribada paydo bo‘layotgan «Universitet 3.0» modeli orqali ilmiy markazlar va texnoparklar yaratilib, startap va investorlarni jalb qilish ham tavsiya etiladi. Bunday model OTMlarga ilmiy-tadqiqot ishlarini tijoratlashtirishga, yangi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazishga imkon beradi.

Dual ta’lim tashabbuslarini rag‘batlantirish, korxona infratuzilmasiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali Oliy ta’lim tashkilotlarini moddiy-texnik bazasiga bo‘lgan talabni kamaytirish muhim. Masalan, talabalarning korxonalardagi amaliyotlarida korxona uskunalari va laboratoriyalaridan foydalanish avtomatik yo‘lga qo‘yilishi kabi. Bu holat korxonalarni oliy ta’limga sarmoya kiritishga undaydi va ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni yangi mexanizmlarini vujudga kelish imkonini beradi. Ilmiy va transport inshootlari, talabalar turar joylari, laboratoriya jihozlari qurilishi kabi loyihalarda davlat xususiy sherilik loyixalarini

keng joriy etish tavsiya etiladi. Masalan, hozirgi tartibda talabalar turar joylari xarajatlarining yarmini davlat qoplayotganiga o‘xshab, boshqa sohalarda ham davlat xususiy sheriklarni jalb etish lozim. Xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalarining granti hamda imtiyozli kreditlarini jalb etish yo‘nalishlari ishlab chiqish hamda startap loyihalarini moliyalashtirish va texnoparklar orqali biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish kerak. Bu ilmiy izlanishlarni ishlab chiqarishga innovatsion tarzda integratsiya qilishga xizmat qiladi.

**Xulosa.**

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va uni barqaror moliyalashtirish tizimini shakllantirish hozirgi bosqichda strategik ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilishi, budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish imkoniyatlarining kengaytirilishi hamda dual ta’lim tizimini joriy etish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ushbu jarayonning institutsional asoslarini mustahkamlab bermoqda. Xorijiy tajribalarni esa O‘zbekiston sharoitida ham moslashtirilgan holda qo‘llash mumkin. Tadqiqot doirasida asoslangan xulosalarga ko‘ra, dual ta’lim tizimi nafaqat kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, balki oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo‘ladi. Korxonalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan ta’lim jarayoni orqali oliy ta’lim muassasalari qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ega bo‘lishi, mavjud infratuzilma yuklamasini kamaytirishi hamda talabalar uchun zamonaviy ishlab chiqarish bazalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari asosida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

oliy ta’lim muassasalarida natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimini joriy etish;

budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish; davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini kengaytirish;

ilmiy-tadqiqot faoliyatini tijoratlashtirish va texnoparklar orqali qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish;

Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun moliyalashtirishning diversifikatsiyalashgan, shaffof va samarali tizimini shakllantirish zarur bo‘lib, bunda dual ta’lim modeli muhim strategik vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishda taklif etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish oliy ta’lim sifatini oshirish, mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2021 yildagi PQ-60-son. Lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2021 yildagi PQ-61-son. Lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.01.2025 yildagi 14-son. Lex.uz
5. Worldbank. Modernized Student Financing System to Expand Access to Education for 600,000 Young People in Uzbekistan. www.worldbank.org
6. J. Rakhmatullaev. “Improving the financing of higher education institutions in Uzbekistan”. americanjournal.org
7. G. Karlibaeva. Oliy ta’lim muassasalari moliyaviy resurslari shakllanish tizimini boshqarish amaliyotining tahlili. April 2024Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. DOI:10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp111-121
8. Johnstone, D. B. (2004). The economics and politics of cost sharing in higher education: Comparative perspectives DOI:10.1016/j.econedurev.2003.09.004

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

9. Federal Institute for Vocational Education and Training (BIBB). (2020). Dual vocational training in Germany.
10. https://www.bibb.de/en/
11. European Commission. (2022). Education and Training Monitor: Finland.
12. https://op.europa.eu/webpub/eac/education-and-training-monitor-2022/en/country-reports/finland.html
13. OECD. (2021). Higher Education in Korea. https://www.oecd.org/korea/
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.09.2021 yildagi 563-son. lex.uz

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# AQSH HARBIY XIZMATCHILARINI MODDIY RAG‘BATLANTIRISH TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLAR VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

**Madaminov G‘ayrat Madiyarovich**
*O‘zbekiston Milliy universiteti*
*Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi sikli boshlig‘i*
*dotsent, podpolkovnik*
*E-mail: gayratmadaminov300@gmail.com*
*ORCID: 0009-0008-5391-4259*

***Annotatsiya:*** *Maqolada United States tajribasida harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi tahlil qilinadi. Tizim bazaviy ish haqi (Base Pay), ustama to‘lovlar (Special & Incentive Pays) va kompensatsiya (Allowances)dan iborat bo‘lib, xizmat sharoiti, xavf darajasi, hududiy omillar va individual natijalarga qarab differensial tarzda belgilanadi. Tadqiqotda tizimning metodologik asoslari, iqtisodiy samaradorligi va xizmatchilarni motivatsiya qilishdagi roli ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar****: Harbiy xizmatchilar, moddiy rag‘batlantirish, bazaviy ish haqi (base pay), ustama to‘lovlar (special & incentive pays), kompensatsiya to‘lovlari (allowances), iqtisodiy samaradorlik, motivatsiya tizimi.*

# МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМЫ МАТЕРИАЛЬНОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ США

**Мадаминов Ғайрат Мадиярович**

*начальника цикла учебного центра военной подготовки*
*Национальный университет Узбекистана*
*E-mail: gayratmadaminov300@gmail.com*
*ORCID: 0009-0008-5391-4259*

***Аннотация:*** *В статье анализируется система материального стимулирования военнослужащих на примере опыта Соединённых Штатов. Данная система состоит из базового денежного довольствия (Base Pay), дополнительных выплат (Special & Incentive Pays) и компенсационных выплат (Allowances) и устанавливается дифференцированно в зависимости от условий службы, уровня риска, территориальных факторов и индивидуальных результатов. В исследовании рассматриваются методологические основы данной системы, её экономическая эффективность, а также роль в мотивации военнослужащих.*

***Ключевые слова:*** *Военнослужащие, материальное стимулирование, базовое денежное довольствие (base pay), дополнительные выплаты (special & incentive pays), компенсационные выплаты (allowances), экономическая эффективность, система мотивации.*

# METHODOLOGICAL FOUNDATIONS AND ECONOMIC EFFICIENCY OF THE U.S. MILITARY PERSONNEL COMPENSATION SYSTEM

**Madaminov G‘ayrat Madiyarovich**
*Head of the Cycle of the Military Training Center*
*National University of Uzbekistan*
*E-mail: gayratmadaminov300@gmail.com*
*ORCID: 0009-0008-5391-4259*

***Abstract:*** *The article analyzes the U.S. experience in military personnel compensation. The*

*system consists of base pay, special and incentive pays, and allowances, which are determined differentially based on service conditions, risk level, regional factors, and individual performance. The study examines the system’s methodological foundations, economic efficiency, and its role in motivating personnel.*

***Keywords:*** *Military personnel, monetary incentives, base pay, special and incentive pays, allowances, economic efficiency, motivation system.*

**Kirish.**

Bugungi kunda global xavfsizlik muhitining murakkablashuvi, geosiyosiy raqobatning kuchayishi, mintaqaviy nizolar va turli shakldagi tahdidlarning ortib borishi davlatlarning mudofaa salohiyatini mustahkamlashni eng ustuvor vazifalardan biriga aylantirmoqda. Zamonaviy sharoitda milliy xavfsizlikni ta’minlash faqat harbiy texnika va qurol-yarog‘lar bilan emas, balki yuqori malakali, intizomli va xizmatga sodiq harbiy xizmatchilar korpusini shakllantirish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi mudofaa siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

2025 yil ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha harbiy xarajatlar 2,24 trillion AQSh dollarini tashkil etib, bu 2020 yilga nisbatan sezilarli o‘sishni anglatadi. Shu bilan birga, dunyoning ko‘plab hududlarida harbiy tahdidlar va qurolli mojarolar soni ortib borayotgani harbiy boshqaruv tizimlariga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda [1]. Bunday vaziyatda harbiy xizmatchilarni samarali boshqarish, ularning kasbiy faoliyatini rag‘batlantirish va xizmatga bo‘lgan motivatsiyasini mustahkamlash davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

AQSh tajribasi bu borada alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur mamlakatda harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi puxta institutsional va iqtisodiy asosga ega bo‘lib, u bazaviy ish haqi (Base Pay), ustama to‘lovlar (Special and Incentive Pays) hamda kompensatsiya to‘lovlari (Allowances) kabi o‘zaro bog‘liq uch asosiy komponentdan tashkil topgan. Ushbu tizim harbiy xizmatning murakkabligi, xavf darajasi, lavozim mas’uliyati, xizmat joyi va oilaviy holat kabi omillarni hisobga olgan holda differensial yondashuv asosida shakllantiriladi. Masalan, 2025 yil uchun E-4 toifasidagi harbiy xizmatchining bazaviy ish haqi 3 027 dollardan 3 675 dollargacha, O-5 toifasidagi ofitserlar uchun esa 7 028 dollardan 9 564 dollargacha o‘zgaradi. Bundan tashqari, xavfli hududlarda xizmat qiluvchilar uchun Hazard Pay va boshqa ustamalar 150–225 dollar oralig‘ida belgilansa, uy-joy kompensatsiyasi (BAH) xizmat joyi va oilaviy holatga qarab 1 500–3 500 dollar oralig‘ida farqlanadi [2].

Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, AQShda harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi oddiy ish haqi to‘lash modelidan ancha keng bo‘lib, u inson kapitalini boshqarish, xizmat samaradorligini oshirish va professional armiyani barqaror shakllantirishning muhim vositasidir. Aynan shuning uchun ham ushbu tizimni iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish, uning tarkibiy elementlari va samaradorlik mezonlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi davlat moliya siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u milliy xavfsizlikni ta’minlash, professional armiya shakllantirish hamda harbiy xizmatning jozibadorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur masala davlat budjeti xarajatlarining samaradorligi, ijtimoiy himoya va davlat boshqaruvi samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda harbiy xarajatlar va harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish masalalari davlat moliyasi va mudofaa iqtisodiyoti doirasida tadqiq etilgan. Jumladan, amerikalik iqtisodchi Todd Harrison harbiy xarajatlar samaradorligini oshirishda budjet resurslarini strategik rejalashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi samarali bo‘lishi uchun u uzoq muddatli mudofaa strategiyasi hamda davlat moliyaviy imkoniyatlari bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim [3].

Shuningdek, Keith Hartley va Todd Sandler tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mudofaa xarajatlarining iqtisodiy samaradorligi hamda harbiy xizmat motivatsiyasini oshirish omillari chuqur tahlil qilingan. Ularning ta’kidlashicha, professional armiyani shakllantirish sharoitida harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi nafaqat maosh miqdori, balki ijtimoiy kafolatlar, uy-joy bilan ta’minlash va boshqa rag‘batlantirish mexanizmlarini ham o‘z ichiga olishi kerak [4].

Mudofaa iqtisodiyoti bo‘yicha taniqli olimlardan biri Jurgen Brauer harbiy xarajatlar samaradorligini baholashda “cost–benefit analysis” usulini qo‘llash zarurligini asoslab beradi. Uning fikricha, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan budjet mablag‘lari davlat xavfsizligini ta’minlashda strategik investitsiya sifatida qaralishi lozim [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Jumladan, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda tahlil va sintez usullaridan, turli davlatlar tajribasini o‘rganishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.**

United States tajribasida harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi kompleks va ko‘p komponentli mexanizm sifatida shakllangan bo‘lib, u nafaqat xizmatchilarning daromad darajasini oshirish, balki ularning xizmat samaradorligini, kasbiy barqarorligini va institutsional sodiqligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tizimda ustama va kompensatsiya to‘lovlari muhim o‘rin tutib, ular xizmat sharoitining murakkabligi, xavf darajasi, hududiy omillar va individual natijalarga qarab differensial tarzda belgilanadi. Bu esa o‘z navbatida, harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlarini iqtisodiy jihatdan hisobga olish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitali omilining ahamiyati ortib borayotgan bir sharoitda, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimini ilmiy asosda takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Shu bois, United States da harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimining metodologik asoslarini o‘rganish va uning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

AQShda harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi kompleks va ko‘p komponentli bo‘lib, u quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: Mazkur tizim U.S. Department of Defense tomonidan tartibga solinadi [2].

**1-jadval**

**AQShda harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimining asosiy tamoyillari***

| № | Tamoyil nomi | Mazmuni |
|---|---|---|
| 1 | Adolatlilik (equity) | Xizmat sharoitining murakkabligi va o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda to‘lovlarni belgilashni nazarda tutadi |
| 2 | Differensiallik (differentiation) | Xavf darajasi, kasbiy malaka, lavozim va bajarilayotgan vazifalarga qarab to‘lovlarni farqlashni ta’minlaydi |
| 3 | Shaffoflik (transparency) | To‘lovlar aniq formulalar, mezonlar va ochiq mexanizmlar asosida hisoblanishini anglatadi |
| 4 | Motivatsionlik (incentive-based system) | Harbiy xizmatchilarning xizmat samaradorligini oshirish va ularni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan tizimni ifodalaydi |

* *Muallif tomonidan U.S. Department of Defense, Military Compensation and Financial Readiness materiallari asosida tuzilgan [2].*

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar asosida United States da harbiy xizmatchilarni moddiy

rag‘batlantirish tizimi aniq tuzilgan kompensatsiya modeli orqali amalga oshiriladi. Mazkur modelga ko‘ra, harbiy xizmatchilar daromadi uchta asosiy tarkibiy blokdan iborat bo‘lib, ularning birinchisi bazaviy ish haqi (Base Pay) hisoblanadi. Ushbu to‘lov harbiy unvon (rank) hamda xizmat muddati (years of service) kabi asosiy mezonlar asosida belgilanadi [2;6].

**2-jadval**

**Bazaviy ish haqi (Base Pay) ni belgilash mezonlari**

| № | Ko‘rsatkich | Mazmuni |
|---|---|---|
| 1 | To‘lov turi | Bazaviy ish haqi (Base Pay) |
| 2 | Asosiy mezon 1 | Harbiy unvon (rank) asosida belgilanadi |
| 3 | Asosiy mezon 2 | Xizmat muddati (years of service) asosida belgilanadi |
| 4 | Hisoblash usuli | Maxsus tarif jadvali (pay scale) asosida aniqlanadi |
| 5 | Xususiyati | Standartlashtirilgan bo‘lib, barcha harbiy xizmatchilar uchun yagona mezon asosida qo‘llaniladi |

**Muallif tomonidan Defense Finance and Accounting Service (DFAS) basic pay tables hamda 37 U.S. Code asosida tuzilgan [6;8].*

AQShda harbiy xizmatchining jami daromadi uchta asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular birgalikda xizmatchining to‘liq moliyaviy rag‘batlantirilishini ta’minlaydi. Ushbu tarkibiy qismlar quyidagilardan iborat:

Bazaviy ish haqi (Base Pay) – harbiy unvon (rank) va xizmat muddati (years of service) asosida aniqlanadi. Bu to‘lov barcha xizmatchilar uchun yagona tarif jadvali (pay scale) bo‘yicha belgilanadi va standartlashtirilgan hisoblanadi.

Ustama to‘lovlar (Special Pays) – xizmat sharoiti, xavf darajasi, kasbiy malaka va vazifaga qarab differensial tarzda belgilanadi. Asosiy turlari: Hazard Pay (xavfli xizmat), Combat Pay (jangovar hududlar), Flight Pay (uchuvchilar), Sea Pay (dengiz xizmatlari), va Medical Pay (tibbiy xodimlar) [2].

Kompensatsiya to‘lovlari (Allowances) – xizmat joyidagi qo‘shimcha xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilgan bo‘lib, BAH (uy-joy), BAS (oziq-ovqat) va COLA (yashash xarajatlari farqi) kabi turlarga ega. Bu to‘lovlar ko‘pincha soliqdan ozod qilinadi [2;7].

Shunday qilib, harbiy xizmatchining jami daromadi (Total Compensation) quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$\boldsymbol{Total\ Compensation = Base\ Pay + Special\ Pays} + \textbf{Allowances}$$

Base Pay – bazaviy ish haqi, harbiy unvon va xizmat muddati asosida.

– Special Pays – xizmatning murakkabligi va xavfiga qarab ustama to‘lovlar.

– Allowances – xizmat joyidagi yashash xarajatlari va qo‘shimcha ehtiyojlarni qoplash.

AQSh tizimida harbiy xizmatchining bazaviy ish haqi (Base Pay) quyidagi asosiy omillarga bog‘liq: Harbiy unvon (Rank) – yuqori lavozim va darajaga ega bo‘lgan xizmatchilar yuqori bazaviy ish haqi oladi. Bu standartlashtirilgan tarif jadvali (pay scale) asosida belgilanadi.

Xizmat muddati (Years of Service) – xizmatchi qancha uzoq muddat xizmat qilsa, shuncha ko‘p tajriba va xizmat davomiyligi uchun qo‘shimcha oshirishlar hisoblanadi.

Standartlashtirish – barcha xizmatchilar uchun bazaviy ish haqi yagona mezon asosida qo‘llanadi, ya’ni bir xil unvon va xizmat muddati bo‘lgan xizmatchilar uchun ish haqi teng hisoblanadi [6].

Shunday qilib, bazaviy ish haqi harbiy xizmatchining lavozimi va xizmat tajribasiga bevosita bog‘liq bo‘lib, u xizmatchining moliyaviy asosini tashkil qiladi va boshqa ustama hamda kompensatsiya to‘lovlarini hisoblashda baza sifatida xizmat qiladi.

$$\boldsymbol{Base\ Pay = f(Rank, Years\ of\ Service)}$$

Amalda bu: - Rank harbiy unvon (E-1 dan O-10 gacha)

- Years of Service xizmat muddati (2 yil, 5 yil, 10 yil va h.k.) asosida tayyor jadvaldan olinadi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

AQSh harbiy xizmatchilarining bazaviy ish haqi (Base Pay) “pay scale” deb nomlangan rasmiy jadval bo‘yicha belgilanadi, u harbiy unvon (rank) hamda xizmat davomiyligi (years of service) kombinasiyasiga asoslanadi. Bu jadval har yili yangilanadi va U.S. Department of Defense hamda U.S. Congress tomonidan tasdiqlanadi.

**3-jadval**

**2025-yil uchun bazaviy maoshlar jadvalidan kichik namunalar***

| Pay Grade (Unvon) | < 2 Yil Xizmat | > 4 Yil Xizmat | > 10 Yil Xizmat |
|---|---|---|---|
| E-1 (Eng boshlang‘ich) | $2,144.10 | $2,144.10 | $2,144.10 |
| E-4 | $3,027.30 | $3,354.90 | $3,675.60 |
| E-6 | $3,276.60 | $3,919.80 | $4,585.20 |
| O-1 (Ofitser) | $3,998.40 | $5,031.30 | $5,031.30 |
| O-5 | $7,028.40 | $8,568.60 | $9,564.90 |

**Muallif tomonidan Defense Finance and Accounting Service (DFAS)*, 2025 Basic Pay: Enlisted; 2025 Basic Pay: Officers *tuzilgan [6]*.

Bu jadvalda:

- Pay Grade — harbiy xizmatchining lavozim darajasi (E — enlisted, O — officer)
- Years of Service — xizmat vaqtiga qarab bazaviy ish haqi oshadi yoki o‘zgarmaydi.

Bazaviy ish haqi shu kabi rasmiy “pay scale” jadvalidan olinadi, ya’ni har bir unvon va xizmat muddatiga mos narx to‘g‘ridan-to‘g‘ri jadvaldan topiladi va shu asosda to‘lov amalga oshiriladi.

Bazaviy ish haqi (Base Pay)dan tashqari, United States tizimida harbiy xizmatchilar uchun ustama va rag‘batlantirish to‘lovlari (Special & Incentive Pays) ham belgilangan. Bu to‘lovlar differensial metodologiya asosida, ya’ni xizmat sharoiti, xavf darajasi, malaka va vazifaga qarab farqlanadi. Ustamalarning asosiy turlari quyidagilardan iborat: Hazard Pay – xavfli xizmat uchun, Combat Pay – jangovar hududlar uchun, Flight Pay – uchuvchilar uchun, Sea Pay – dengiz xizmatlari uchun va Medical Pay – tibbiy xodimlar uchun. Shu bilan birga, bu ustamalar xizmatning murakkabligi va xavf darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan [2].

**4-jadval**

**Ustama (Special & Incentive Pays) turlari va mezonlari***

| № | To‘lov turi | Maqsadi / Tavsifi | Hisoblash mezoni |
|---|---|---|---|
| 1 | Hazard Pay | Xavfli xizmatni qoplash | Xizmat hududi xavfli bo‘lganda |
| 2 | Combat Pay | Jangovar hududlarda xizmat | Harbiy xizmatchi jangovar zona yoki operatsiyada bo‘lganda |
| 3 | Flight Pay | Uchuvchilar va parvoz xodimlari uchun | Uchish vazifalarini bajarish vaqtida |
| 4 | Sea Pay | Dengiz xizmatlari uchun | Dengiz xizmatida bo‘lgan harbiy xizmatchilar |
| 5 | Medical Pay | Tibbiy xodimlar uchun | Tibbiy xizmatni bajarish va kasbiy malaka asosida |

**Muallif tomonidan U.S. Department of Defense’ning* Special and Incentive Pays *materiallari asosida tuzilgan [2]*.

Bu ustamalar xizmatning murakkabligi va xavf darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan va U.S. Department of Defense tomonidan tartibga solinadi [2].

$$\textbf{Special Pay} = \sum_{i=1}^{n} (R_i \times D_i)$$

Bu yerda:

$R_i$ – ustama stavkasi (oylik yoki kunlik)

$D_i$ – xizmat davomiyligi (kun yoki oy)

AQSh qurolli kuchlarida **Hazard Pay (xavfli xizmat uchun ustama)** bo‘yicha aniq

miqdorlar mavjud va ular rasman belgilangan. Quyida eng asosiy to‘lovlar jadval ko‘rinishida keltirilgan [6;7]:

**5-jadval**

**Hazard Pay (Hazardous Duty Incentive Pay) miqdorlari — AQSh harbiy xizmatchilari uchun[6;7]**

| № | Ustama turi | Tavsifi | Oylik miqdor |
|---|---|---|---|
| 1 | **Parachute Duty (Static Line)** | Parashyut bilan vazifalar | **$150/oy** |
| 2 | **Parachute Duty (Military Free Fall)** | Maxsus erkin tushish | **$200–$225/oy** |
| 3 | **Flight Deck Duty** | Kema uchish zonalari xizmati | **$150/oy** |
| 4 | **Demolition Duty** | Portlovchi moddalar bilan ishlash | **$150/oy** |
| 5 | **Experimental Stress Duty** | Tajriba sharoitida xizmat | **$150/oy** |
| 6 | **Toxic Fuels/Pesticides Duty** | Zararli moddalar bilan ishlash | **$150/oy** |
| 7 | **Dangerous Viruses/Bacteria Lab Duty** | Biovaxavf tadqiqotlar | **$150/oy** |
| 8 | **Chemical Munitions Duty** | Kimyoviy qurollar bilan xizmat | **$150/oy** |
| 9 | **Maritime VBSS Duty** | Kemadan boarding/tekshiruv | **$150/oy** |
| 10 | **Polar Region Flight Operations** | Qutb hududlarida parvozlar | **$150/oy** |
| 11 | **WMDCS Team Duty** | Mass Destroyer qo‘llab -quvvatlash jamoasi | **$150/oy** |

**Muallif tomonidan Defense Finance and Accounting Service (DFAS),* Hazardous Duty Incentive Pay (HDIP) Rates*; DoD 7000.14-R, Volume 7A, Chapter 24. Tuzilgan [6;7].*

AQSh harbiy tizimida bazaviy ish haqidan tashqari, harbiy xizmatchilar uchun ko‘p komponentli ustama (Special & Incentive Pays) belgilanadi. Ushbu ustamalar xizmatning murakkabligi, xavf darajasi, kasbiy malaka va individual vazifalarga qarab differensial tarzda to‘lanadi [2;6].

$$Total\ Special\ Pay = HP + CP + FP + SP$$

Bu yerda: **HP** – Hazard Pay, **CP** – Combat Pay, **FP** – Flight Pay, **SP** – Sea Pay

Bazaviy ish haqi (Base Pay) va ustama to‘lovlardan (Special & Incentive Pays) tashqari, United States tizimida harbiy xizmatchilar uchun kompensatsiya to‘lovlari (Allowances) ham belgilanadi. Bu to‘lovlar **kompensatsion metodologiya** asosida shakllanib, xizmat joyidagi xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilgan. Asosiy turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: BAH (Basic Allowance for Housing) – uy-joy xarajatlarini qoplash, BAS (Basic Allowance for Subsistence) – oziq-ovqat xarajatlari uchun, va COLA (Cost of Living Allowance) – yashash xarajatlari farqi uchun. Muhim jihati shundaki, bu to‘lovlarning ko‘pi soliqdan ozod qilinadi, bu esa xizmatchilarning real daromadini oshirishga xizmat qiladi [2;7].

**6-jadval**

**Kompensatsiya (Allowances) turlari va mezonlari***

| № | To‘lov turi | Maqsadi / Tavsifi | Hisoblash mezoni |
|---|---|---|---|
| 1 | BAH (Basic Allowance for Housing) | Uy-joy xarajatlarini qoplash | Xizmat joyi va harbiy xizmatchi oilaviy holatiga qarab |
| 2 | BAS (Basic Allowance for Subsistence) | Oziq-ovqat xarajatlarini qoplash | Standart stavka asosida, harbiy unvon va xizmat turiga bog‘liq |
| 3 | COLA (Cost of Living Allowance) | Yashash xarajatlari farqini qoplash | Hududiy yashash xarajatlari indeksi va xizmat joyiga qarab |

**Muallif tomonidan Defense Travel Management Office va U.S. Department of Defense materiallari asosida tuzilgan [2;7].*

Ushbu kompensatsiya to‘lovlari harbiy xizmatchining xizmat sharoitiga bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarini qoplashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning ko‘pi soliqdan ozod qilinadi. Shu sababli ular xizmatchining real daromadini oshirish va xizmat davomida moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi [2;7].

Natijada, Total Compensation – ya’ni harbiy xizmatchining jami daromadi – bazaviy ish haqi (Base Pay), ustama to‘lovlar (Special Pays) va kompensatsiya to‘lovlaridan (Allowances) iborat bo‘lib, barcha komponentlar birgalikda xizmatchining moddiy rag‘batlantirilishini ta’minlaydi.

Bu tizim harbiy xizmatchining xizmat samaradorligini oshirish, xavfli va murakkab vazifalarni rag‘batlantirish hamda kadrlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi [2;5].

**Xulosa.**

United States tajribasida harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi kompleks va ko‘p komponentli mexanizm sifatida shakllangan bo‘lib, u xizmatchilarning daromad darajasini oshirish, xizmat samaradorligini va institutsional sodiqligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tizim bazaviy ish haqi (Base Pay), ustama to‘lovlar (Special & Incentive Pays) va kompensatsiya to‘lovlari (Allowances)dan iborat bo‘lib, xizmat sharoiti, xavf darajasi, hududiy omillar va individual natijalarga qarab differensial tarzda belgilanadi.

Bazaviy ish haqi xizmatchining lavozimi va xizmat davomiyligiga asoslanadi, ustama to‘lovlar xavfli va murakkab xizmatlarni rag‘batlantiradi, kompensatsiya to‘lovlari esa yashash xarajatlarini qoplashga yo‘naltiriladi. Shu tarzda, tizim xizmatchilarning moliyaviy barqarorligini oshiradi, xizmatga motivatsiyasini kuchaytiradi va professional armiya shakllanishiga hissa qo‘shadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, iqtisodiy samaradorlik va motivatsiya mexanizmlarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish harbiy tizimni takomillashtirish va xavfsizlikni mustahkamlashda dolzarb ilmiy-amaliy masala bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. SIPRI. *Trends in World Military Expenditure*. SIPRI Fact Sheet.

2. U.S. Department of Defense, Military Compensation and Financial Readiness. *Military Pay Overview; Special and Incentive Pays; Allowances*.

3. Harrison, T. *Rebalancing Military Compensation: An Evidence-Based Approach.* Center for Strategic and Budgetary Assessments.

4. Hartley, K., Sandler, T. *The Economics of Defense*. Cambridge University Press.

5. Brauer, J., Dunne, J. P. (eds.). *Handbook on the Economics of Conflict*. Edward Elgar.

6. Defense Finance and Accounting Service (DFAS). *2025 Basic Pay: Enlisted; 2025 Basic Pay: Officers; Hazardous Duty Incentive Pay (HDIP) Rates.*

7. U.S. Department of Defense. *DoD 7000.14-R, Volume 7A, Chapter 24*; Defense Travel Management Office. *Basic Allowance for Housing / Cost of Living Allowance materials.*

8. U.S. Code. *Title 37 — Pay and Allowances of the Uniformed Services*.

# O‘ZBEKISTON KORPORATIV EMITENTLARINING XALQARO OBLIGATSIYALARI MUOMILASI

**Arifjanova Yayraxon Usmonxo‘jayevna**

*tayanch doktarant*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: ariya7@mail.ru*
*ORCID:0009-0009-1860-202X*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada O‘zbekiston korporativ emitentlarning xalqaro fond bozoridagi ishtiroki tahlil qilingan. Yevroobligatsiya va xalqaro obligatsiyalarning xususiyatlari, farqli jihatlari va muomilasi tashkil etish shartlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida xalqaro kapital bozoridan moliyaviy mablag‘lar jalb qilish imkoniyatlari o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *aksiyadorlik jamiyati, emitent, obligatsiya, qarz instrumenti, kapital bozori, qimmatli qog‘ozlar, yevroobligatsiya, fond birjasi, bank, investor.*

# ОБОРОТ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОБЛИГАЦИЙ КОРПОРАТИВНЫХ ЭМИТЕНТОВ УЗБЕКИСТАНА

**Арифжанова Яйрахон Усмонхужаевна**

*докторант*
*Ташкентский государственный экономический университет*
*E-mail: ariya7@mail.ru*
*ORCID:0009-0009-1860-202X*

***Аннотация****. В данной статье проанализировано участие корпоративных эмитентов Узбекистана на международных фондовых рынках. Рассмотрены особенности, отличительные характеристики и условия организации обращения еврооблигаций и международных облигаций. Также изучены возможности привлечения финансовых ресурсов с международных рынков капитала в деятельности акционерных обществ.*

***Ключевые слова****: акционерное общество, эмитент, облигация, долговой инструмент, рынок капитала, ценные бумаги, еврооблигация, фондовая биржа, банк, инвестор.*

# CIRCULATION OF INTERNATIONAL BONDS OF CORPORATE ISSUERS OF UZBEKISTAN

**Arifjanova Yayrakhon Usmonkhojayevna**

*PhD Student,*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: ariya7@mail.ru*
*ORCID:0009-0009-1860-202X*

***Abstract.*** *This article analyzes the participation of corporate issuers of Uzbekistan in international stock markets. The features, distinguishing characteristics, and issuance and circulation conditions of eurobonds and international bonds are examined. In addition, the opportunities for joint-stock companies to attract financial resources from international capital markets are explored.*

***Keywords:*** *joint-stock company, issuer, bond, debt instrument, capital market, securities,*

*eurobond, stock exchange, bank, investor.*

**Kirish.**

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan ularning moliyaviy resurslarni samarali jalb eta olish imkoniyatlariga bog‘liqdir. Milliy moliya bozorlarining chegaralanganligi va ichki moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sharoitida korporativ emitentlar uchun xalqaro kapital bozorlariga chiqish muhim strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro moliya bozorlari orqali mablag‘ jalb qilish aksiyadorlik jamiyatlariga nafaqat qo‘shimcha resurslarni taqdim etadi, balki ularning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, kapital tuzilmasini optimallashtirish hamda investitsion faoliyatni kengaytirish imkonini yaratadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro kapital bozorida ishtiroki, avvalo, ularning investorlar doirasini kengaytirish orqali moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Bu esa ichki bozordagi resurslarga qaramlikni kamaytirib, kapital jalb qilish shartlarini yanada moslashuvchan va raqobatbardosh shaklga keltiradi. Shu bilan birga, xalqaro bozorlarda ishtirok etish jarayoni korporativ boshqaruv sifatini oshirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlash va xalqaro standartlarga moslashishni talab etadi. Natijada, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi mustahkamlanadi.

Xalqaro obligatsiyalar emissiyasi esa korporativ sektor uchun uzoq muddatli va nisbatan barqaror moliyaviy resurslarni jalb etishning samarali vositasi hisoblanadi. Mazkur instrument orqali kompaniyalar bank kreditlariga muqobil ravishda keng investorlar qatlamidan mablag‘ jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xalqaro obligatsiyalar, ayniqsa, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, infratuzilma rivoji va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, obligatsiyalar emissiyasi orqali jalb qilingan mablag‘lar, odatda, uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lib, bu korxonalarga moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va likvidlik bosimini kamaytirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, xalqaro obligatsiyalar bozorida ishtirok etish aksiyadorlik jamiyatlari zimmasiga ma’lum majburiyatlarni ham yuklaydi. Jumladan, kredit reytinglarini olish, axborotlarni oshkor etish, investorlar bilan samarali kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish hamda bozor talablariga mos ravishda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi. bu esa o‘z navbatida, korporativ boshqaruv tizimining takomillashuviga va kompaniyalarning uzoq muddatli rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro kapital bozorida faol ishtiroki va xalqaro obligatsiyalar emissiyasi amaliyotining rivojlanishi milliy iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini faollashtirish, kapital bozorini chuqurlashtirish hamda global moliya tizimiga integratsiyalashuvni jadallashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.**

Xalqaro obligatsiyalar va yevroobligatsiyalar bozori global moliya tizimining ajralmas qismi sifatida so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengayib bormoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlarga ko‘ra korporativ obligatsiyalar bozori hajmi keskin o‘sib, kompaniyalar uchun uzoq muddatli moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biriga aylangan [1]. Ushbu jarayon ayniqsa bank kreditlariga qaramlikni kamaytirish va kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki tomonidan e’lon qilingan tahlillarda xalqaro obligatsiyalar bozori rivojlanishi moliya tizimining chuqurligi va institutsional investorlar ulushi bilan chambarchas bog‘liqligi qayd etilgan [2]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda obligatsiyalar bozori bank tizimiga muqobil moliyalashtirish manbai sifatida shakllangan bo‘lsa, rivojlanayotgan davlatlarda ushbu bozor hali yetarli darajada rivojlanmagan va ko‘proq davlat yoki yirik emitentlar bilan cheklangan.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisobotlarida yevroobligatsiyalar emissiyasi orqali kapital

jalb qilishning makroiqtisodiy ahamiyati alohida yoritilgan. Xususan, xalqaro obligatsiyalar bozori rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda muhim instrument sifatida qaraladi [3]. Shu bilan birga, global foiz stavkalarining o‘zgaruvchanligi va qayta moliyalashtirish risklari ushbu bozorning asosiy xavf omillari sifatida baholanadi.

Xalqaro kapital bozorlari assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan qo‘llanmalar va standartlarda yevroobligatsiyalar bozori emitentlar uchun keng investorlar bazasiga chiqish, valyuta risklarini diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratishi yoritilgan [4]. Shu bilan birga, ushbu bozorga chiqish yuqori darajadagi oshkoralik, axborotlarni to‘liq oshkor etish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga rioya etishni talab qiladi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda yevroobligatsiyalar emissiyasining korporativ boshqaruvga ta’siri ham muhim yo‘nalish sifatida o‘rganilgan. Hale va Santos tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xalqaro obligatsiyalar bozoriga chiqish kompaniyalar uchun ijobiy signal sifatida baholanib, investorlar ishonchini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi [5]. Shuningdek, Stulz va Claessens kabi olimlar xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv kompaniyalarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, ularni tashqi moliyaviy shoklarga nisbatan sezgirligini oshirishini ta’kidlaydi [6].

Rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida olib borilgan tadqiqotlarda xalqaro obligatsiyalar emissiyasi bilan bog‘liq muammolar ham yoritilgan. Xususan, kredit reytinglarining yetarli darajada yuqori emasligi, bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi va investorlar bazasining cheklanganligi ushbu mamlakatlarda yevroobligatsiyalar bozorining rivojlanishini sekinlashtiruvchi omillar sifatida qayd etilgan [7]. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalqaro obligatsiyalar bozori aksiyadorlik jamiyatlari uchun samarali moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu bozorda muvaffaqiyatli ishtirok etish institutsional rivojlanish, makroiqtisodiy barqarorlik va korporativ boshqaruv sifati bilan bevosita bog‘liqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotda statistik tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, shuningdek, taqqoslash kabi ilmiy uslubiy usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar**

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanishi ularning moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Ichki moliya bozorlarining imkoniyatlari cheklangan sharoitda korporativ emitentlar uchun xalqaro kapital bozorlariga chiqish muhim strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro obligatsiyalar, xususan yevroobligatsiyalar, kompaniyalar uchun uzoq muddatli va yirik hajmdagi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beruvchi samarali instrument hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda kapital bozorini rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda mahalliy emitentlarning xalqaro moliya bozorlarida ishtirokini kengaytirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada, korporativ emitentlar tomonidan xalqaro obligatsiyalar emissiyasi amaliyoti shakllanib, milliy kompaniyalarning global investorlar bilan integratsiyasi kuchayib bormoqda.

Xalqaro obligatsiyalar bozori kompaniyalar uchun bank kreditlariga muqobil moliyalashtirish manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bozor orqali emitentlar keng investorlar qatlamidan mablag‘ jalb qilish, foiz xarajatlarini optimallashtirish hamda kapital tuzilmasini muvozanatlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yevroobligatsiyalar, odatda, milliy chegaralardan tashqarida joylashtiriladigan va xalqaro investorlar orasida erkin muomalada bo‘ladigan qarz instrumenti sifatida ajralib turadi. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- investorlar bazasining kengligi;

- uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyati;
- valyuta diversifikatsiyasi;
- nisbatan moslashuvchan emissiya shartlari.

Xalqaro obligatsiyalar bozori yuqori darajadagi oshkoralik, kredit reytinglari mavjudligi va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga rioya etishni talab qiladi. Bu esa korporativ boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro obligatsiyalar — bu emitent tomonidan o‘z mamlakati hududidan tashqarida joylashtiriladigan va odatda xalqaro investorlar o‘rtasida sotiladigan qarz instrumentlaridir. Ushbu obligatsiyalar orqali kompaniyalar yoki davlatlar xorijiy kapital bozorlaridan mablag‘ jalb qiladi. Xalqaro obligatsiyalar global moliya bozorining muhim segmenti bo‘lib, ular kapital oqimlarining xalqaro miqyosda taqsimlanishiga xizmat qiladi. Amaliyotda yevroobligatsiyalar xalqaro obligatsiyalarning bir turi sifatida muomilasi amalga oshiriladi.

Yevroobligatsiyalar — bu emitent tomonidan bir mamlakat valyutasida, lekin o‘sha valyuta mamlakatidan tashqarida joylashtiriladigan obligatsiyalardir [8]. Masalan, AQSh dollarida denominatsiya qilingan, ammo AQShdan tashqarida (masalan, London bozorida) joylashtirilgan obligatsiyalar yevroobligatsiya hisoblanadi. Yevroobligatsiyalar xalqaro sindikatlar orqali joylashtiriladi qimmatli qog‘oz bo‘lib, bir nechta mamlakat investorlariga taklif etiladi va soliq talablari nisbatan moslashuvchan hisoblanadi. Shuningdek, yevroobligatsiya global investorlar uchun ochiq bo‘ladi. Shuning uchun ham bu turdagi qimmatli qog‘ozlar global kapital bozorining eng likvid va keng qamrovli instrumentlaridan biri sifatida qaraladi.

Yevroobligatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidalarni ta’kidlash mumkin:

1. Transmilliy joylashtirish mexanizmi- bir vaqtning o‘zida bir nechta mamlakat investorlariga taklif etiladi;
2. Moslashuvchan tartibga solish- qat’iy bitta davlat qonunchiligiga to‘liq bog‘liq emas;
3. Xalqaro sindikatlar orqali emissiya- investitsiya banklari ishtirokida joylashtiriladi;
4. Yuqori likvidlik - ikkilamchi bozorda faol muomala qilinadi;
5. Asosan qattiq valyutalarda emissiya qilinadi - investorlar uchun xavf past bo‘lishi sababli;
6. Global investorlar uchun jozibadorlik - pensiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari va fondlar asosiy xaridor hisoblanadi.

So‘nggi yillarda xalqaro obligatsiyalar bozori jadal rivojlanib, bozor hajmining kengayishi kuzatilmoqda. Bu kompaniyalar tomonidan qarz orqali moliyalashtirish ulushining ortib borayotganini ko‘rsatadi. Kundan kunga rivojlanayotgan davlatlar ulushi ortib bormoqda. Avval ushbu bozor asosan rivojlangan davlatlar bilan cheklangan bo‘lsa, hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari ham faol ishtirok etmoqda. Bu global kapital oqimlarining geografik diversifikatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, global monetar siyosatning qat’iylashuvi natijasida obligatsiyalar bo‘yicha daromadlilik darajasi oshib, emitentlar uchun qarz jalb qilish qiymati ham ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida bozorga chiqish strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, xalqaro obligatsiyalar bozorida yangi moliyaviy instrumentlar ya’ni yashil obligatsiyalar, ijtimoiy obligatsiyalar, hamda barqarorlikka bog‘langan obligatsiyalar bozori jadal rivojlanyapti. Shu bilan bir qatorda investorlarning ESG (Environmental, Social, Governance) omillariga bo‘lgan e’tibor oshib boryapti. Xalqaro kapital bozorida institutsional investor ulushi ko‘payib, pensiya jamg‘armalari, sug‘urta kompaniyalari va investitsiya fondlari kabi yirik institutsional investorlar obligatsiyalar bozorining asosiy ishtirokchilariga aylanib ulgurdi. Bu esa bozor likvidligi va barqarorligini oshirmoqda.

O‘zbekiston korporativ emitentlarining xalqaro kapital bozorlariga chiqishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Xususan, yirik davlat ulushiga ega kompaniyalar va tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilib, xalqaro investorlar jalb etilmoqda. Ushbu emissiyalarning asosiy qismi xorijiy valyutada amalga oshirilgan bo‘lib, bu xalqaro investorlar talabining yuqoriligini bilan belgilanadi. O‘zbekiston yirik korporativ

emitentlari tomonidan chiqarilgan yevroobligatsiyalar yuqori darajada ortiqcha talab bilan joylashtirilayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu esa O‘zbekiston emitentlarining xalqaro moliya bozoridagi imidji mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

**1- jadval.**

**O‘zbekiston emitentlari tomonidan emissiya qilingan korporativ yevroobligatsiyalari tahlili[9]**

| Emitent | Hajmi | Kupon Stavka | Muddati | Chiqarilgan sana | So‘ndirish muddati | Obligatsiya reytingi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ***O‘zsanoatqurilishbank*** | $300 mln | 5.75% | 5 yil | Noyabr, 2019 | Noyabr, 2024 | BB- |
| | $100 mln | 9.43% | 5 yil | Avgust, 2023 | Avgust, 2028 | |
| | $400 mln | 8.95% | 5 yil | Iyul, 2024 | Iyul, 2029 | |
| | 2.25 trln so‘m | 21% | 3 yil | | Iyul, 2027 | |
| ***O‘zmilliy bank*** | $300 mln | 4.85% | 5 yil | Oktyabr, 2020 | Oktyabr, 2025 | BB- |
| | $300 mln | 8.5% | 5 yil | Iyul, 2024 | Iyul, 2029 | |
| | 1.4 trln so‘m | 19.875% | 3 yil | | Iyul, 2027 | |
| ***Ipoteka-bank*** | $300 mln | 5.625% | 5 yil | Noyabr, 2020 | Noyabr, 2025 | BB- |
| | 785 mlrd so‘m | 16% | 3 yil | Aprel, 2021 | Aprel, 2024 | |
| | 1.4 trln so‘m | 20.5% | 3 yil | Aprel, 2024 | Aprel, 2027 | |
| ***UzAuto Motors*** | $300 mln | 4.85% | 5 yil | Aprel, 2021 | Aprel, 2026 | BB- |
| ***O‘zbekneftgaz*** | $700 mln | 4.75% | 7 yil | Noyabr, 2021 | Noyabr, 2028 | BB- |
| ***Navoiy konmetallurgiya kombinati*** | $500 mln | 6.95% | 7 yil | Oktyabr, 2024 | Oktyabr, 2031 | BB |
| | $500 mln | 6.7% | 4 yil | | Oktyabr, 2028 | |
| ***Agrobank*** | $400 mln | 9.25% | 5 yil | Sentyabr 2024 | Sentyabr, 2029 | BB- |
| | 700 mln so‘m | 21.75% | 2 yil | | Sentyabr, 2026 | |

**Shomansurov. S.SH. O‘zbekiston suveren kredit reytingini oshirish yo‘llari. PhD ilmiy darajasini olish uchun diss. Avtoreferati. Toshkent-2025.*

2019–2024-yillar oralig‘ida korporativ yevroobligatsiyalar emissiyasi orqali xalqaro kapital bozorlaridan sezilarli hajmda moliyaviy resurslar jalb etildi. Jumladan, 11 ta emissiya doirasida amalga oshirilgan 15 ta transh orqali jami 4,785 mlrd AQSh dollari hamda 6 trln so‘m miqdorida mablag‘lar o‘zlashtirildi. Ushbu jarayonda tijorat banklari xalqaro moliya bozorlarida faol ishtirok etib, qarz instrumentlari orqali moliyalashtirish amaliyotining asosiy ishtirokchilaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. 2024-yilda yevroobligatsiyalar bo‘yicha qayd etilgan yuqori emissiya hajmi, valyuta tarkibining diversifikatsiyalashuvi hamda emitentlar doirasining kengayishi mamlakat qarz bozorining institutsional jihatdan rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi. Mazkur jarayon kelgusida davlat va korporativ sektor uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish, shuningdek, xalqaro investorlar bilan barqaror hamkorlik munosabatlarini

shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston korporativ yevroobligatsiyalar bozori 2025-yilda ham barqaror rivojlanish yo‘lini davom ettirdi. Bu holat, avvalo, yetakchi kompaniyalar va tijorat banklari tomonidan xalqaro kapital bozorlarida muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan obligatsiya emissiyalari, investorlar ishonchining ortib borayotgani hamda xorijiy moliya bozorlarida milliy emitentlarga bo‘lgan talabning kengayib borishi bilan izohlanadi.

**2-jadval.**

**2025-yil davomida xalqaro kapital bozoriga chiqarilgan korporativ yevroobligatsiyalar***

| Emitent | Hajmi | Kupon Stavka | Muddati | Chiqarilgan sana | So‘ndirish muddati |
|---|---|---|---|---|---|
| ***O‘zbekneftgaz*** | $850 mln | 8.75% | 5 yil | May, 2025 | May, 2025 |
| ***Navoiyuran*** | $300 mln | 6.70% | 5 yil | Iyun, 2025 | Iyun, 2030 |
| ***Navoiy kon-metallurgiya kombinati*** | $500 mln | 6.75% | 5 yil | May, 2025 | May, 2030 |
| ***O‘zMilliy banki*** | $300 mln | 7.20% | 5 yil | Iyul, 2025 | Iyul, 2030 |
| | 1.5 trln so‘m | 17.95% | 3 yil | Iyul, 2025 | Iyul, 2028 |
| ***O‘zsanoatqurilish-bank*** | 649.7mlrd so‘m | 19.95% | 3 yil | Aprel, 2025 | Aprel, 2028 |
| | $300 mln | 9.45% | Muddatsiz | Oktyabr, 2025 | - |

*Rasmiy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2025-yilda O‘zbekiston korporativ yevroobligatsiyalar bozorini tahlil qilganda, xalqaro qarz bozorlaridan mablag‘ jalb etish hajmi va ko‘lami sezilarli darajada kengaygani kuzatildi. Xususan, “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan 850 million AQSh dollari miqdorida yevroobligatsiyalar emissiya qilinib, mazkur yil davomida eng yirik mablag‘ jalb etgan korporativ emitent sifatida qayd etildi.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarining global kapital bozorlariga integratsiyalashuvi jarayonida yana bir muhim voqea sifatida “Navoiyuran” davlat korxonasining ilk yevroobligatsiya emissiyasi amalga oshirildi. Ushbu korxona tomonidan 300 million AQSh dollari miqdoridagi obligatsiyalar London fond birjasida muvaffaqiyatli joylashtirildi. Bu holat strategik ahamiyatga ega bo‘lgan uran sanoati korxonasining xalqaro qarz bozoriga chiqishini anglatadi. Emissiya jarayonida investorlar tomonidan bildirilgan talab 1,3 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etib, obligatsiyalarning bir necha baravar ortiqcha talab bilan joylashtirilganini ko‘rsatdi. Mazkur holat investorlar tomonidan ushbu emitentning moliyaviy barqarorligi va istiqbolli rivojlanish imkoniyatlariga yuqori baho berilganidan dalolat beradi. Natijada, ushbu emissiya O‘zbekiston korporativ sektorining xalqaro moliya bozorlaridagi ishtirokini kengaytirishda muhim amaliy tajriba sifatida namoyon bo‘ldi hamda nisbatan past kupon stavkasi bilan ajralib turdi. Shuningdek, 2025-yilda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan mamlakat amaliyotida yangi hisoblangan qo‘shimcha birinchi darajali kapital instrumenti — AT1 obligatsiyalari chiqarilib, London fond birjasida muvaffaqiyatli joylashtirildi. Ushbu emissiya bank sektorida moliyaviy instrumentlar turining kengayib borayotganini hamda kapitalni mustahkamlashning muqobil mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari ortib borayotganini ko‘rsatadi. AT1 obligatsiyalarining chiqarilishi turli risk va daromadlilik darajasiga ega investorlarni jalb qilishga xizmat qilib, milliy banklarning xalqaro moliya bozorlaridagi pozitsiyasini yanada mustahkamladi.

**Xulosa**

O‘zbekiston korporativ emitentlarining xalqaro obligatsiyalar bozoridagi ishtirokini yanada

kengaytirish va yangi emitentlar sonini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- milliy kredit reyting tizimini rivojlantirish;
- kapital bozorining infratuzilmasini takomillashtirish;
- korporativ boshqaruv va oshkoralik darajasini oshirish;
- mahalliy emitentlar uchun xalqaro standartlarga mos huquqiy muhit yaratish;
- investorlar ishonchini mustahkamlash.

Shuningdek, yangi moliyaviy instrumentlar, jumladan, yashil obligatsiyalar, sukuk va gibrid obligatsiyalarni joriy etish orqali bozorni yanada chuqurlashtirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. OECD. Corporate Bond Markets: Trends, Emerging Risks and Policy Implications. Paris: OECD Publishing, 2024.
2. BIS. Quarterly Review: Global bond markets and financial stability. Bank for International Settlements, 2025.
3. IMF. Global Financial Stability Report. Washington, DC: International Monetary Fund, 2024.
4. ICMA. International Capital Market Handbook. International Capital Market Association, 2023.
5. Hale, G., Santos, J. A. C. “The Decision to First Enter the Public Bond Market: The Role of Firm Reputation, Funding Choices, and Bank Relationships.” Journal of Banking & Finance, 2008.
6. Stulz, R. M. “The Limits of Financial Globalization.” Journal of Finance, 2005; Claessens, S. “Global Financial Development and Corporate Financing.” World Bank, 2012.
7. IMF, World Bank. Developing Local Currency Bond Markets in Emerging Economies. Washington, DC, 2023.
8. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson, 2021.
9. Shomansurov. S.SH. O‘zbekiston suveren kredit reytingini oshirish yo‘llari. PhD ilmiy darajasini olish uchun diss. Avtoreferati. Toshkent-2025.
10. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) rasmiy ma’lumotlari — https://napp.uz
11. Toshkent Respublika fond birjasi rasmiy sayti — https://uzse.uz.
12. London Stock Exchange (LSE) — https://www.londonstockexchange.com
13. Nasdaq Stock Exchange — https://www.nasdaq.com
14. Euronext — https://www.euronext.com

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# КОНСОЛИДАЦИЯЛАШГАН МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ АУДИТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

**Ҳожиева Гулнора Ҳабибуллаевна**

*аудит кафедраси ўқитувчиси*
*Тошкент давлат иқтисодиёт университети*
*e-mail:hojievagulinor@gmail.com,*
*ORCID: 0009-0005-3344-4091*

***Аннотация***. *Ушбу мақоламизда йирик компаниялар ва акциядорлик жамиятларида консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитини ташкил этишнинг норматив-ҳуқуқий асослари батафсил ёритилган ҳамда илмий амалий таклифлар берилган. Бу эса ўз навбатида, акциядорлик жамиятлари консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш ва улардаги ахборот маълумотларнинг шаффофлигини ҳамда ишончлилигини тасдиқлаш мақсадида холисона аудитдан ўтказишнинг норматив асослари ёритилганлигни кўрсатади. Шунингдек, мақолада консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузиб эълон қилувчи йирик хорижий компанилар ва акциядорлик жамиятларининг сони ўрганилган ҳамда консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитини ўтказишда асосий тушунчалар мазмуни очиб берилган.*

***Калит сўзлар:*** *компания, акциядорлик жамияти, молиявий ҳисобот, консолидациялашган молиявий ҳисобот, инвестиция, бош ташкилот, шўъба хўжалик жамияти, гуруҳ, алоҳида молиявий ҳисобот, назорат кучига эга бўлмаган улуш, аудит, аудиторлик хулосаси.*

# НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА ОРГАНИЗАЦИИ АУДИТА КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

**Хожиева Гулнора Хабибуллаевна**

*преподаватель кафедры аудит*
*Ташкентский государственный университет e-mail:hojievagulinor@gmail.com,*
*ORCID: 0009-0005-3344-4091*

***Аннотация.*** *В данной статье подробно изложены нормативно-правовые основы организации аудита консолидированной финансовой отчетности в крупных компаниях и акционерных обществах, а также даны научно-практические рекомендации. Это, в свою очередь, показывает, что уточнены нормативные основы подготовки акционерными обществами консолидированной финансовой отчетности и проведения объективного аудита для подтверждения прозрачности и достоверности содержащейся в ней информации. Также в статье рассматривается количество крупных иностранных компаний и акционерных обществ, которые составляют и публикуют консолидированную финансовую отчетность, и раскрывается содержание основных концепций аудита консолидированной финансовой отчетности.*

***Ключевые слова:*** *компания, акционерное общество, финансовая отчетность, консолидированная финансовая отчетность, инвестиции, материнская компания, дочерняя компания, группа, отдельная финансовая отчетность, неконтролирующая доля участия, аудит, аудиторское заключение.*

# REGULATORY FRAMEWORK FOR ORGANIZING THE AUDIT OF CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

**Khojiyeva Gulnora Khabibullayevna**

*lecturer of the Audit Department of*
*Tashkent State University of Economics*
*e-mail:hojievagulinor@gmail.com*
*ORCID: 0009-0005-3344-4091*

***Abstract.*** *This article provides a detailed description of the regulatory framework for organizing the audit of consolidated financial statements in large companies and joint-stock companies, and also provides scientific and practical recommendations. This, in turn, demonstrates that the regulatory framework for preparing consolidated financial statements by joint-stock companies and conducting objective audits to confirm the transparency and reliability of the information contained therein has been clarified. The article also examines the number of large foreign companies and joint-stock companies that prepare and publish consolidated financial statements and explains the key concepts of auditing consolidated financial statements.*

***Keywords:*** *company, joint-stock company, financial statements, consolidated financial statements, investments, parent company, subsidiary, group, separate financial statements, non-controlling interest, audit, auditor’s report.*

**Кириш**

Консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитини ташкил этиш масаласи бугунги глобаллашув шароитида алоҳида долзарб аҳамият касб этмоқда. Йирик корпоратив тузилмалар, холдинг компаниялар ва трансмиллий корпорациялар фаолияти кенгайиб бораётган бир пайтда, уларнинг молиявий натижаларини холис ва шаффоф баҳолашга бўлган эҳтиёж ортиб бормоқда. Айниқса, инвесторлар, кредиторлар ва бошқа манфаатдор томонлар учун ишончли ахборот манбаи сифатида консолидациялашган молиявий ҳисоботларнинг аҳамияти юқори. Шу боис, ушбу ҳисоботларни аудитдан ўтказишда ягона ва аниқ белгиланган норматив-ҳуқуқий асосларнинг мавжудлиги муҳим ҳисобланади. Халқимизнинг эркин ва фаровон, қудратли Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш, ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, глобал ишлаб чиқаришнинг муҳим бўғинига айланган кучли иқтисодиётни шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлаш мақсадида Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясини амалга ошириш жараёнида орттирилган тажриба ва жамоатчилик муҳокамаси натижалари асосида ишлаб чиқилган «Ўзбекистон — 2030» стратегиясида бир қатор муҳим вазифалар белгиланган. Ушбу муҳим вазифалардан бири барқарор иқтисодий ўсиш орқали даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар қаторидан ўрин олиш ҳамда аҳоли талабларига ва халқаро стандартларга тўлиқ жавоб берадиган таълим, тиббиёт ва ижтимоий ҳимоя тизимини ташкил қилишдир [3].

Шу ўринда, мамлакатимизда иқтисодий соҳадаги йирик солиқ тўловчилар сифатида фаолият юритаётган акциядорлик жамиятлари ва хорижий компанияларининг консолидациялашган молиявий ҳисоботлари аудитини ташкил этиш ва аудит амалларини қўллашни такомиллаштириш бўйича илмий асосиланган норматив-ҳуқуқий тавсиялар ишлаб чиқишга алоҳида тўхталиб ўтиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

**Адабиётлар шарҳи**

Асосий фаолияти фойда олишга қаратилган йирик тижорат компаниялари, жумладан акциядорлик жамиятлари ва хорижий компанияларда консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузиш ва аудитини такомиллаштириш бўйича хорижлик иқтисодчи олимлар илмий тадқиқотларни олиб борилган.

Хусусан, хорижий иқтисодчи олимлар Аренс Э.А., Лоббек Дж., Фридман П., Робертсон Дж., Шеремет А.Д., Суйц В.П., асарларида хўжалик юритувчи субъектларда

аудиторлик текширувларини ташкил этиш ва аудиторлик ҳисоботларини тузиш услубиёти батафсил ёритилган [5,6,7].

Республикамиз иқтисодчи олимлари томонидан бу масалалар яратилаётган дарслик ва ўқув қўлланмалар, шунингдек эълон қилинаётган илмий мақола ва тезисларда фақат консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишнинг назарий жиҳатлари ўрганилган. Масалан, А.А.Каримов, К.Б.Ўразов, И.Н.Исманов, И.Н.Қўзиев, З.Н.Қурбанов, А.З.Авлокулов, С.Н.Ташназаровларнинг асарларида молиявий ҳисоботларни тузишнинг назарий жиҳатларини ривожлантириш ва натижаларни умумлаштириш масалалари ўрганилган [8,10,11,12,13].

Мамлакатимизда консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитини ташкил этишнинг норматив-ҳуқуқий асослари нисбатан кам ўрганилганлиги сабабли иқтисодчи олимлар илмий асарларида консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитининг хусусиятлари етарли даражада ёритилмаган. Шу ўринда, Н.Б.Хўжабековнинг “Бизнесни бирлаштиришда консолидациялашган молиявий ҳисоботларни такомиллаштириш” номли илмий асарида [16] ва И.Р.Авазовнинг “Консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузиш ва аудитини такомиллаштириш” мавзусидаги илмий асарларида консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузиш ва уни аудитини ўтказишнинг [9] айрим масалалари қисман ёритилган.

Юқорида таъкидланган фикрлардан кўриниб турибдики, иқтисодчи олимларнинг асарларида хўжалик юритувчи субъектларда умумий аудитни ўтказиш масалаларига ва халқаро амалиётда МҲХС асосида консолидациялашган молиявий ҳисобот тузиш асосларини такомиллаштириш борасидаги илмий изланишлар ёритилган. Бироқ, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлар асосида консолидациялашган молиявий ҳисобот тузиш ва уни аудитини ташкил этишнинг норматив-ҳуқуқий асослари етарлича илмий тадқиқ этилмаганлиги бу борада чуқур илмий-тадқиқотлар олиб боришни тақозо этмоқда.

**Тадқиқот методологияси**

Мақола мавзуси бўйича тадқиқотлар жараёнида консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитини ташкил этиш ва уни такомиллаштиришда умумлаштириш, гуруҳлаштириш, қиёсий таҳлил, икки ёқлама ёзув, индуктив ва дедуктив, далиллар олиш, жараёнларни кузатиш каби илмий усуллардан фойдаланилган.

**Таҳлил ва натижалар**

Иқтисодиётни инновацион ривожлантиришда молиявий ҳисоботлар – хўжалик юритувчи субъектлар томонидан маҳсулот (иш ва хизмат)лар ишлаб чиқариш ва сотиш натижалари тўғрисидаги маълумотлар мажмуи бўлиб, у субъектнинг молия-хўжалик фаолиятининг ҳолатини маълум давр (чорак, йиллик)га қиймат кўринишида акс этишидир. Моливий ҳисобот ахборотлари сотилган маҳсулот (иш ва хизмат)лар, ишлаб чиқариш харажатлари, хўжалик маблағлари ва уларнинг ташкил топиш манбалари, ишларнинг молиявий натижалари, солиққа тортиш ҳамда дивидендлар тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олади. Моливий ҳисобот маълумотлари бўйича компания раҳбари мулкдорлари, таъсисчилари, бошқарув ва назорат тизими ҳамда юқори ташкилотлар олдида ҳисобот бериш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда Ўзбекистон иқтисодиётининг барқарор ва самарали шакллантириш борасида амалга ошириб келинаётган ислоҳотлар ўзининг натижаларини намоён этмоқда. Хусусан, «ҳар йили акциядорлик жамиятларининг эълон қилинадиган молиявий ҳисоботи МҲХСга мувофиқлиги бўйича сифат назоратини амалга ошириш» [4] вазифасининг белгиланиши акциядорлик жамиятлари томонидан консолидациялашган молиявий ҳисоботларни аудитнинг халқаро стандартлари асосида аудитдан ўтказишни тақозо этмоқда. Бу эса консолидациялашган молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тузиш ва уларнинг ҳаққонийлиги ҳамда шаффофлигни тасдиқлаш учун аудитдан ўтказиш ҳозирги

куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

**1-жадвал**

**Ўзбекистонда консолидациялашган молиявий ҳисоботни эълон қиладиган хўжалик юритувчи субъектлар динамикаси тўғрисида[23]**

| № | Консолидациялашган молиявий ҳисоботни эълон қиладиган хўжалик юритувчи субъектлар | Ҳисобот йиллари | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 | 2026 |
| 1 | Консолидациялашган молиявий ҳисоботни эълон қилиши шарт бўлган хўжалик юритувчи субъектлар сони | 263 | 272 | 295 | 304 | 325 |
| 2 | Консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузиб эълон қилган хўжалик юритувчи субъектлар сони | 44 | 48 | 61 | 65 | 72 |
| 3 | Консолидациялашган молиявий ҳисоботни эълон қилмаган хўжалик юритувчи субъектлар сони | 219 | 224 | 234 | 239 | 253 |
| **4** | **Консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузиб, эълон қилган хўжалик юритувчи субъектлар улуши (%)** | **16,7** | **17,6** | **20,7** | **21,4** | **22,6** |

Ушбу 1-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, мамлакатимизда консолидациялашган молиявий ҳисоботни чоп этишлари шарт бўлган ташкилотлар 2022 йилда 16,7 фоизни ташкил қилган бўлса, 2026 йилга келиб бу кўрсаткич 22,6 фоизга ўсганлигини кўришимиз мумкин. Маълумотлардан кўриниб турибдики консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузиб эълон қилган хўжалик юритувчи субъектлар сони йиллар давомида секин ўсишни кўришимиз мумкин. Бунинг сабаларини ўрганганимизда, ушбу даврлар мобайнида аксарият йирик акциядорлик жамиятлари ўз молиявий ҳисоботларини тузиш ва уларнинг кўрсаткичларини ҳаққонийлигини тасдиқловчи молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ва аудит хизматарини кўрстаувчи профессионал кадрлар салоҳияти етишмаслигини кўрсатмоқда. Шундай экан, йирик хорижий компаниялар ва акциядорлик жамиятлари томонидан консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитининг норматив ҳуқуқий асосларини ўрганиш, уни шаффофлигини таъминлаш масалалари мунтазам долзарб вазифалардан бири бўлиб қолади.

Ўзбекитсон иқтисодиётининг асосий драйверлари бўлган акциядорлик жамиятлари ва шуъба хўжалик жамиятларига, ўз назорати остидаги ташкилотларга эга бухгалтерия ҳисоби субъектлари консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузади. Шу ўринда консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузиш тартиби, шунингдек асосий хўжалик жамиятининг назорати остидаги ташкилотларга қўйиладиган талаблар бухгалтерия ҳисоби стандартлари билан белгиланади [3].

Консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитининг мақсади - бу бош компания ва унинг филиаллари ёки шўба жамиятларининг молиявий ҳисоботларини бирлаштириш орқали гуруҳнинг умумий молиявий ҳолати ва молиявий натижалари аниқ келтирилган молиявий ҳисоботлар кўрсаткичларини шаффофлиги ва ҳаққонилигини тасдиқлашдан иборатдир24. Бнда консолидация жараёнида бош компания томонидан бошқариладиган барча филиаллар ва шўба жамиятларнинг молиявий ахборотини ягона шаклга келтириш тавсия этилади ва бу инвесторлар, кредиторлар ҳамда бошқа фойдаланувчилар учун ишончли ахборот манба ҳисобланади.

Йирик компаниялар ва акциядорлик жамиятларида консолидациялашган молиявий ҳисоботлар аудитини тартибга солувчи асосий норматив ҳуқуқий ҳужжатларни батафсил ўрганиш тавсия этилади( 2-жадвал.).

[23] Муаллиф илмий изланишлари, 2026 й.
[24] Муаллиф илмий изланишлари, 2026 й.

**2-жадвал.**

**Консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитини тартибга солувчи норматив ҳуқуқий ҳужжатлар кетма кетлиги[25]**

| № | Норматив ҳуқуқий ҳужжатнинг номи | Ҳужжат рўйхат рақами ва санаси |
|---|---|---|
| 1 | Ўзбекистон Республикасининг “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуни | ЎРҚ№677-сон, 2021 йил 25 февраль. |
| 2 | Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида” Қонуни (янги таҳрири) | ЎРҚ №404-сон, 2016 йил 13 апрель. |
| 3 | Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори | ПҚ№4611-сон, 2020 йил 24 февраль |
| 4 | 8-сонли БҲМС “Консолидациялашган молиявий ҳисоботлар ва шуъба хўжалик жамиятларига инвестициялар ҳисоби” | р/р. №3537, 2024 йил 26 июль |
| 5 | 1-сонли БҲМС “Молиявий ҳисоботни тақдим этиш ва ҳисоб сиёсати” | р/р.№3544, 2024 йил 6 август |
| 6 | Ўзбекистон Республикаси бюджет ҳисобининг «Консолидациялашган молиявий ҳисоботлар» номли 13-сонли БҲС | р/р №3361 2022 йил 1 апрель |
| 7 | 10-сон МҲХС «Консолидациялашган молиявий ҳисобот» 36-иловага мувофиқ | р/р.№3400, 2022 йил 9 декабр (ИМВ Буйруқ №61-сон, 2022 йил 10 ноябрь) |

Ушбу норматив ҳужжатлардан келиб чиқиб йирик компаниялар ва акциядорлик жамиятларида консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузуиш хусусиятлари 8-БҲМС «Консолидациялашган молиявий ҳисоботлар ва шуъба хўжалик жамиятларига инвестициялар ҳисоби» стандарти билан тартибга солинади [17]. Ушбу норматив ҳужжат асосида хўжалик юритувчи жамият (бош ташкилот) томонидан у назорат қиладиган хўжалик юритувчи жамиятлар (шуъба хўжалик жамияти) гуруҳининг консолидациялашган молиявий ҳисоботини тузиш ва тақдим этиш тартибини белгилаб беради.

Шунингдек, ушбу 8-БҲМСда шуъба хўжалик жамиятларга инвестицияларни бош ташкилотнинг алоҳида молиявий ҳисоботида ҳисобга олиш тартибини ҳам белгилаб беради. Аммо, бугунги кунда ҳар йили акциядорлик жамиятларининг эълон қилинадиган молиявий ҳисоботи МҲХСга мувофиқлиги бўйича сифат назоратини амалга ошириш лозим [4]. Бундай вазиятда йирик хорижий компанилар ва акциядорлик жамиятлари ўз консолидциялашган молиявий ҳисоботларини 10-сон МҲХС «Консолидациялашган молиявий ҳисобот» норматив ҳужжатига асосан аудитдан ўтказишлари тавсия этилади.

Йирик хорижий компаниялар ва акциядорлик жамиятларида консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитини ўтказишда аудиторлар қуйидаги асосий тушунчаларни мукаммал ўрганишлари тавсия этилади:

бош ташкилот — бир ёки бир нечта шуъба хўжалик жамиятларни назорат қилувчи хўжалик юритувчи субъект. Бунда, назорат қилиш деганда шуъба хўжалик жамиятидаги иштирокидан даромадлар ўзгариши рискига мойил бўлган ёки бундай даромадларни олиш ҳуқуқига эга бўлган бош ташкилотнинг шуъба хўжалик жамиятига бўлган ваколатларини амалга ошириш натижасида ушбу даромадларга таъсир кўрсатиши тушунилади;

шуъба хўжалик жамияти — агар бир (бош) хўжалик жамияти ёки ширкати иккинчи хўжалик жамиятининг устав фондида ундан устунлик мавқеига эга бўлган ҳолда иштирок этиши туфайли ёхуд улар ўртасида тузилган шартномага мувофиқ ё бўлмаса бошқача тарзда иккинчи хўжалик жамияти томонидан қабул қилинадиган қарорларни белгилаб бериш имконига эга бўлса, ушбу иккинчи хўжалик жамияти шуъба хўжалик жамияти ҳисобланади.

[25] Муаллиф илмий изланишлари, 2026 й.

гуруҳ — бош ташкилот ва унга қарашли барча шуъба хўжалик жамиятларидир;

консолидациялашган молиявий ҳисоботлар — ҳисобот даври учун тузиладиган гуруҳнинг молиявий ҳисоботларидир;

алоҳида молиявий ҳисоботлар — консолидацияланиши лозим бўлган ҳар бир гуруҳ аъзосининг ҳисоботидир;

назорат кучига эга бўлмаган улуш — шуъба хўжалик жамияти хусусий капиталининг бевосита ёки билвосита бош ташкилотга тегишли бўлмаган улуши.

Шунингдек, акциядорлик жамиятларида консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузилганлигини аудитдан ўтказишда ҳар бир ҳисобга олинган шуъба хўжалик жамиятларига инвестициялар бош ташкилотнинг алоҳида (мустақил) молиявий ҳисоботларида қуйидагилардан фойдаланиб акс эттириш таклиф этилади:

- хусусий капитални ҳисобга олиш усули (улушли қатнашиш усули);
- узоқ муддатли инвестициялар қийматини ҳисобга олиш бўйича усули.

Бундай вазитяда юқоридаги норматив ҳужжатлардан келиб чиқиб акциядорлик жамиятларида консолидациялашган молиявий ҳисоботга киритилмаган шуъба хўжалик жамиятларига инвестициялар бош ташкилотнинг алоҳида молиявий ҳисоботида Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг 12-сон БҲМС «Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш»га (рўйхат рақами №3531, 2024 йил 18 июль) мувофиқ акс эттирилиши тавсия этилади.

**Хулоса**

Юқоридаги ҳолатлардан келиб чиқиб консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитини ташкил этишнинг норматив-ҳуқуқий асосларини ёритиш бўйича қўйидагича хулосалар қилинди:

Йирик хорижий компаниялар ва акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботнинг объектлари ҳисобланган активлар, мажбуриятлар, даромад ва харажатлар ҳамда уларнинг ўзгаришига таъсир кўрсатувчи муомалаларни тан олиш, баҳолаш ва консолидациялашган молиявий ҳисоботда акс эттиришда ягона услубий тартибга амал қилиш мақсадида МҲХС талабларига жавоб берадиган консолидациялашган молиявий ҳисобот шаклларини жорий этиш масалалари илмий тадқиқ этиш тавсия этилади.

Шунингдек, мақолади келтирилган мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда консолидациялашган молиявий ҳисобот аудитининг хулосасига албатта ўша текширилган йилнинг молиявий ҳисоботларига тушунтириш бериш ва уларни ҳам аудит хулосасига илова қилиш тавсия этилади. Бунда йирик акциядорлик жамиятларининг молиявий ҳисоботларини шаффофлигини тасдиқловчи аудиторлик хулосаси бош аудитор (аудиторлар) ва аудиторлик ташкилотининг раҳбари томонидан имзоланган ҳамда аудиторлик ташкилоти муҳри билан тасдиқланиши керак.

Ушбу ҳолатлар йирик хорижий компаниялар ва акциядорлик жамиятларида консолидациялашган молиявий ҳисоботи кўрсаткичларини ҳаққонийлигини тасдиқлаш имкониятини беради ҳамда уставдаги асосий вазифаларини бажариш учун маблағларнинг мақсадли ишлатилишига хизмат қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуни, ЎРҚ№677-сон, 2021 йил 25 февраль.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида” Қонуни (янги таҳрири), ЎРҚ №404-сон, 2016 йил 13 апрель. «Халқ сўзи» газетасининг 2016 йил 14 апрелдаги 73 (6508)-сони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон-2030» стратегияси тўғрисида ПФ-158-сон Фармони. 11.09.2023й.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий

ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ№4611-сон Қарори.

5. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. - М.: Финансы и статистика, 1995. -560с.;

6. Робертсон Дж. Аудит. Пер. с анг. –М.: KPMG, Аудиторская фирма «Контакт», 1993. -286с.;

7. Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит: Учебник. М.: ИНФРА-М., 2017. с.-375;

8. Авлокулов А.З. Молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2019. – 71 б.;

9. Авазов И.Р. Консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузиш ва аудитини такомиллаштириш. PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2020. – 63 б.;

10. Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Монография. - Тошкент: «Iqtisod-Moliya», 2008. - 152 б.

11. Исманов И.Н. Узоқ муддатли активлар бухгалтерия ҳисобининг методологик асослари. Монография:-Т.: Фан, 2006. - 172 б.;

12. Ташназаров С.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2019. – 73 б

13. Қўзиев И.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида аудиторлик ҳисоботини тузиш ва умумлаштириш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2017. – 70 б.;

14. Хўжабеков Н.Б. Бизнесни бирлаштиришда консолидациялашган молиявий ҳисоботларни такомиллашти-риш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Т., 2009. – 22 б.

15. Mekhriddin Sulaymonovich Khojiev. Improving audit of financial statements in non-state non-profit organizations/American Journal of Economics and Business Management/ISSN: 2576-5973Vol.6, No.9, 2023 September

16. Khojiev, M.S. Features accounting in non- state non-profit organizations (NSNPOs): Integrity and impact analysis/ Central Asian Journal Of Innovations On Tourism Management And Finance. Volume: 06 Issue: 01 January 2025 ISSN: 2660-454X.DOI:https://doi.org/10.17605/cajitmf.v6i1.862,https://cajitmf.centralasianstudies.org/index.php/CAJITMF/article/view/862.

17. http://www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик ҳужжатлари тўплами расмий веб-сайти.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# THE ROLE OF TAX POLICY IN ENHANCING THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT CLIMATE

**Roza Khudaybergenova**
*basic doctoral student of the Research Center*
*“Scientific Foundations and Problems of*
*the Development of the Economy of Uzbekistan” under TDIU*
*E-mail: rozaakhmedovna011@gmail.com*
*ORCID: 0009-0008-5671-0999*

***Annatation.*** *This article examines the role of tax policy in shaping investment climate attractiveness in Uzbekistan. The study is structured in IMRAD format and combines theoretical reasoning with a document-based analysis of reforms, investment support measures, and selected statistical indicators. Particular attention is paid to the stability and transparency of the tax system, the tax burden, incentive mechanisms, and their implications for foreign direct investment (FDI). The results show that a predictable, administratively simple, and development-oriented tax framework strengthens investor confidence, supports formalization, and improves the business environment. Based on the dynamics of FDI net inflows and the trajectory of selected tax rate reforms, the article argues that tax policy should be evaluated not only by fiscal yield but also by its capacity to mobilize long-term capital, encourage private sector expansion, and support structural transformation.*

***Key words:*** *Tax policy, investment climate, investment attractiveness, tax benefits, tax rates, tax burden, foreign direct investment (FDI), tax administration, tax reforms, fiscal policy, economic growth, business environment.*

# SOLIQ SIYOSATINING INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

**Roza Xudaybergenova**
*TDIU huzuridagi*
*“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning*
*ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot Markazi*
*tayanch doktaranti*
*E-mail: rozaakhmedovna011@gmail.com*
*ORCID: 0009-0008-5671-0999*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O‘zbekistonda investitsiya muhiti jozibadorligini shakllantirishda soliq siyosatining o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot IMRAD formatida tuzilgan bo‘lib, nazariy mulohazalarni islohotlar, investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash choralari va tanlangan statistik ko‘rsatkichlarning hujjatli tahlili bilan birlashtiradi. Soliq tizimining barqarorligi va shaffofligi, soliq yuki, rag‘batlantirish mexanizmlari va ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) uchun oqibatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bashorat qilinadigan, ma’muriy jihatdan sodda va rivojlanishga yo‘naltirilgan soliq tizimi investorlarning ishonchini mustahkamlaydi, rasmiylashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi va ishbilarmonlik muhitini yaxshilaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning sof oqimi dinamikasi va tanlangan soliq stavkalarini isloh qilish trayektoriyasidan kelib chiqib, maqolada soliq siyosati nafaqat fiskal daromad, balki uzoq muddatli kapitalni safarbar qilish, xususiy sektorni kengaytirishni rag‘batlantirish va tarkibiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash qobiliyati bilan ham baholanishi kerakligi ta’kidlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Soliq siyosati, investitsiya muhiti, investitsiya jozibadorligi, soliq imtiyozlari, soliq stavkalari, soliq yuklamasi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (txi), soliq ma’murchiligi, soliq islohotlari, fiskal siyosat, iqtisodiy o‘sish, biznes muhiti.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# РОЛЬ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ПОВЫШЕНИИ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА

**Роза Худойбергенова**
*докторанта Научно-исследовательского центра “Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана” при ТГЭУ*
*E-mail: rozaakhmedovna011@gmail.com*
*ORCID: 0009-0008-5671-0999*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается роль налоговой политики в формировании инвестиционного климата в Узбекистане. Исследование структурировано в формате IMRAD и сочетает теоретические рассуждения с документальным анализом реформ, мер поддержки инвестиций и выбранных статистических показателей. Особое внимание уделяется стабильности и прозрачности налоговой системы, налоговой нагрузке, механизмам стимулирования и их последствиям для прямых иностранных инвестиций. Результаты показывают, что предсказуемая, административно простая и ориентированная на развитие налоговая база укрепляет доверие инвесторов, поддерживает формализацию и улучшает деловую среду. Исходя из динамики чистых поступлений прямых иностранных инвестиций и траектории реформ выбранных налоговых ставок, в статье утверждается, что налоговая политика должна оцениваться не только по фискальной доходности, но и по ее способности мобилизовать долгосрочный капитал, стимулировать расширение частного сектора и поддерживать структурные преобразования.*

***Ключевые слова:*** *Налоговая политика, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, налоговые льготы, налоговые ставки, налоговая нагрузка, прямые иностранные инвестиции (ПИИ), налоговое администрирование, налоговые реформы, фискальная политика, экономический рост, бизнес-среда.*

## Introduction

In the context of globalization, intensifying capital mobility, and stronger competition among jurisdictions for international investment, the quality of the national investment climate has become a central determinant of long-term growth. A favorable investment climate is not limited to the formal availability of incentives; it is also shaped by institutional trust, regulatory predictability, contract enforcement, and administrative efficiency.

Within this broader institutional framework, tax policy occupies a special place. It directly affects the post-tax profitability of investment projects, the cost of doing business, and the strategic choices of both domestic and foreign investors. At the same time, tax policy performs an indirect signaling function: a stable and transparent tax system communicates policy credibility and lowers uncertainty.

For Uzbekistan, the issue is particularly relevant because large-scale economic reforms over recent years have aimed to simplify taxation, reduce excessive fiscal pressure, digitalize tax administration, and improve the competitive position of the economy. As a result, tax policy should be interpreted not only as a revenue-raising instrument, but also as a mechanism for improving the investment climate and expanding formal economic activity.

The purpose of this article is to assess the role of tax policy in enhancing investment climate attractiveness and to identify the channels through which tax reforms influence investment activity. The main research assumption is that a balanced combination of tax rate optimization, administrative simplification, and targeted support measures can positively affect investment attractiveness if implemented in a stable and predictable institutional environment.

## Methods

The study applies general scientific and analytical methods, including abstraction,

induction, deduction, comparative analysis, monographic observation, and grouping. These methods make it possible to examine tax policy as an institutional factor affecting investment climate attractiveness.

**Literature review**

Foreign economists assess tax policy as the most important determinant of the investment climate. In particular, in the research of Jingwen Zhang, it is substantiated that tax policy is an integral part of the state’s macroeconomic strategy, through which states can attract foreign investment, stimulate economic growth, and ensure industrial modernization[1].

Michael P. Devereux The tax system is one of the most important factors influencing investor decisions, especially effective tax rates determine capital placement[2].

James Alm emphasizes that tax policy should be considered not only as a fiscal tool, but also as a mechanism for stimulating investment and entrepreneurship[3].

Clemens Fuest argues that in the context of global tax competition, states are forced to optimize the tax burden to attract investment[4].

George R. Zodrow demonstrates that high levels of direct taxes reduce investment, but that balanced tax policy supports economic growth[5].

**Discussion and results**

The literature reviewed in the article suggests that investment decisions depend on a broad combination of market, institutional, and policy variables. Tax policy matters because it affects expected returns, but it is most effective when coordinated with complementary factors such as infrastructure, political stability, legal guarantees, financial system quality, and human capital. The learning of other studies, we identify the main macro-level factors influencing investment attraction. These include market conditions, human-resource factors, infrastructure, political and public-governance factors, economic factors, legal and regulatory conditions, socio-cultural factors, and profit-retention considerations. This confirms that tax policy should be evaluated as part of a wider investment ecosystem rather than in isolation.

**Table 2.**

**Main macro-level determinants of investment attraction identified in the source article***

| Determinant group | Interpretation for investment climate attractiveness |
|---|---|
| Market factors | Size and growth of demand determine expected project scale and revenue prospects. |
| Human-resource factors | Labor skills, productivity, and adaptability influence technology absorption and efficiency. |
| Infrastructure factors | Transport, energy, communications, and logistics reduce operating costs and uncertainty. |
| Political and state factors | Political stability and credible governance improve investor confidence and reduce risk. |
| Economic factors | Macroeconomic stability, inflation, exchange-rate dynamics, and access to finance shape expected returns. |
| Legal and regulatory factors | Contract enforcement, investor protection, and regulatory clarity lower institutional uncertainty. |
| Socio-cultural factors | Language, networks, and business culture affect transaction costs and market entry barriers. |
| Profit-retention factors | Taxation and repatriation conditions influence the net profitability of long-term projects. |

**Source: systematized by author*

The attractiveness of the investment climate is a multifactorial system, closely related not only to economic indicators, but also to market, infrastructural, and institutional factors. In

particular, market factors - the volume of demand and its growth rates - are the main criteria for investors determining the scale of the project and expected returns. At the same time, the qualifications, labor productivity, and adaptability of human resources directly affect the level of technology development and increase production efficiency. This serves as an important factor in the successful implementation of investment projects.

Infrastructure and political factors in the table also play a special role in ensuring the stability of the investment climate. The development of transport, energy, communication, and logistics systems reduces entrepreneurial costs and the level of uncertainty. At the same time, political stability and effective public administration increase investor confidence and minimize risks. Economic factors, such as macroeconomic stability, the level of inflation, exchange rate volatility, and access to financial resources, are the main conditions determining investment profitability.




***Figure 1. FDI net inflows (% of GDP): Uzbekistan and world average, 2018-2024***

***Source:*** *based on World Bank statistics*

The dynamics shown in Figure 1 indicate that Uzbekistan’s FDI net inflows as a share of GDP were volatile but generally above the world average during most of the period under review. The peak value in the extracted series was 3.44% in 2019, after which the ratio remained elevated relative to the global benchmark despite external shocks. This pattern supports the argument that reform efforts improved Uzbekistan’s visibility and relative attractiveness for investment.

At the same time, the figure also shows that tax reform alone cannot guarantee stable growth in investment inflows. The decline visible after 2019 suggests that external macroeconomic conditions, implementation quality, and broader institutional determinants continue to matter. Therefore, tax policy should be considered a necessary but not sufficient condition for sustained investment expansion.




***Figure 2. Selected tax rate changes associated with the reform trajectory***

Figure 2 highlights one of the most visible channels through which reform may influence investment attractiveness: the compression of selected tax rates and the simplification of the tax burden. Lower rates can improve post-tax profitability, strengthen retained earnings, and reduce incentives for informality. They can also improve firms’ liquidity and expand the internal resources available for reinvestment.

However, the developmental value of tax reductions depends on policy design. Broad rate cuts may support formalization and competitiveness, but weak targeting can reduce fiscal capacity without generating proportionate investment gains. Consequently, the quality of tax administration, the selectivity of incentives, and the predictability of future changes are as important as the nominal rates themselves.

The results support the broader theoretical proposition that tax policy affects investment through two interconnected mechanisms. First, it changes the direct financial parameters of investment by influencing expected net returns. Second, it changes the institutional perception of the business environment by signaling how predictable, transparent, and development-oriented economic governance is.

For Uzbekistan, this is particularly important because the reform process has combined rate adjustments with administrative simplification and broader investment support. The source material indicates that the number of taxes was reduced, tax administration was digitalized, and investment-related procedures were simplified. These measures collectively lower transaction costs, reduce uncertainty, and improve the country’s positioning in competition for mobile capital. At the same time, a critical reading suggests that tax incentives must not be treated as a universal solution. Investment flows respond to the interaction between tax conditions and non-tax determinants such as infrastructure quality, access to finance, contract enforcement, and macroeconomic stability. In other words, tax policy delivers the strongest developmental effect when it is integrated with a coherent industrial, regional, and institutional modernization strategy.

This interpretation also helps explain why descriptive improvements in investment indicators may coexist with volatility. A country can become more attractive relative to peers, yet still remain vulnerable to global demand cycles, exchange-rate pressures, geopolitical uncertainty, and implementation bottlenecks. Therefore, the effectiveness of tax reform should be assessed in a medium-term framework and linked to measurable outcomes such as job creation, formalization, technology transfer, regional diversification, and the quality of incoming investment.

**Table 4.**

**Analytical synthesis: how tax policy influences investment climate attractiveness***

| Policy channel | Positive investment effect | Potential limitation if poorly designed |
|---|---|---|
| Rate reduction | Improves after-tax profitability and liquidity | May reduce revenues if not offset by growth or formalization |
| Tax simplification | Lowers compliance costs and administrative burdens | Can be undermined by inconsistent implementation |
| Targeted incentives | Encourages priority sectors and regions | May create distortions if criteria are weak or non-transparent |
| Digital administration | Improves transparency and predictability | Requires institutional capacity and user adaptation |
| Stable tax rules | Strengthens investor confidence and planning horizon | Abrupt revisions can quickly erode credibility |

*Source: author’s analytical synthesis

**Conclusion**

The study confirms that tax policy is one of the key economic determinants of investment

climate attractiveness. A stable, transparent, and administratively simple tax framework reduces investor uncertainty and contributes to the formation of a more predictable business environment.

Uzbekistan’s reform trajectory was associated with relatively favorable investment dynamics and with meaningful reductions in selected tax rates. Nevertheless, sustainable investment growth depends on the interaction between tax policy and broader institutional factors, including infrastructure, legal protection, macroeconomic stability, and the quality of public administration.

From a policy perspective, the most important implication is that tax reform should not be evaluated only through the prism of fiscal collection. Its broader developmental role lies in encouraging formalization, improving capital accumulation, supporting entrepreneurship, and mobilizing long-term investment in priority sectors.

**References**

1. Zhang J. The Impact of Tax Policy on the Attractiveness of Foreign Direct Investment (FDI): An Analysis of National Strategies and Economic Effects // Advances in Economics, Management and Political Sciences. – 2024. – Vol. 105. – P. 136–148.

2. Devereux M.P., Griffith R. Taxing profits in a global economy. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 350 p.

3. Alm J., Martinez-Vazquez J. Taxation and Economic Development. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 420 p.

4. Fuest C., Zodrow G.R. Taxation and Economic Development. – Cambridge: MIT Press, 2021. – 380 p.

5. Alshamlan, M. A., Fernandez, V. M., & Fernandez, M. (2021). Foreign direct investment in the United Arab Emirates: A study on the main contributors. European Journal of Business and Management Research, 6(1), 97-101.

1. Farayibi, A. (2017). Macroeconomic Perspective and Fundamentals of Investment Behaviours. Corporate Finance: Valuation. https://doi.org/10.2139/ssrn.2993201

2. Ferede, E., & Dahlby, B. (2019). The effect of corporate income tax on the economic growth rates of the Canadian provinces. The School of Public Policy, 12.

3. Mahbub, T., & Jongwanich, J. (2019). Determinants of foreign direct investment in the power sector: A case study of Bangladesh. Energy Strategy Reviews, 24, 178-192.

4. Minaeva, E. V., & Anoshina, Yu. F. (2019). Corporate profit taxation as a regulator of macroeconomic processes. State and Municipal Administration. Scholarly Notes, 3, 122-126.

5. Sandulskyi, R. P. (2024). Theoretical basis of investments and investment activity research. Economy and Management of Agro-Industrial Complexes.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASINING XALQARO TO‘LOVLAR TIZIMIDAGI O‘RNI: TRANSCHEGARAVIY OPERATSIYALARNI OPTIMALLASHTIRISH

**Tashmatova Rano Gaibovna**
*«Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi» dotsenti*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: ranotashmatova76@gmail.com*
*ORCID:0000-0002-3003-3829*

**Qodirov Nurhayot Normuhammad o‘g‘li**
*Moliya mutahassisligi magistratura talabasi*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Markaziy bank raqamli valyutasining bugungi kunda xalqaro to‘lovlar tizimidagi axamiyati, transchegaraviy operatsiyalarni optimallashtirishdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Xususan, raqamli valyutaning o‘ziga xos xususiyatlari, amaliyotda qo‘llanilishi, bu boradagi amaliy jihatlar, mavjud muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan chora tadbirlar va olib borilayongan islohotlar borasida so‘z brogan, taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar****: Markaziy bank raqamli valyutasi, xalqaro to‘lovlar, transchegaraviy operatsiyalar, blokcheyn, pul-kredit siyosati.*

# РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ВАЛЮТЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО БАНКА В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПЛАТЕЖНОЙ СИСТЕМЕ: ОПТИМИЗАЦИЯ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ОПЕРАЦИЙ

**Ташматова Рано Гаибовна**
*доцент кафедры «Финансы и финансовые технологии» Ташкентский государственный Экономический университет*
*E-mail: ranotashmatova76@gmail.com*
*ORCID:0000-0002-3003-3829*

**Кодиров Нурхаёт Нормухаммад угли**
*студент магистратуры специальности «Финансы» Ташкентский государственный экономический университет*

***Аннотация.*** *В данной статье рассмотрено значение цифровой валюты Центрального банка в современной международной платежной системе, ее роль в оптимизации трансграничных транзакций. В частности, были проанализированы уникальные особенности цифровой валюты, ее практическое использование, практические аспекты в связи с этим и существующие проблемы. Кроме того, были высказаны предложения и рекомендации относительно мер, которые необходимо принять для устранения возможных проблем и проводимых реформ.*

***Ключевые слова:*** *цифровая валюта Центрального банка, международные*

*платежи, трансграничные операции, блокчейн, денежно-кредитная политика.*

# THE ROLE OF THE CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY IN THE INTERNATIONAL PAYMENT SYSTEM: OPTIMIZING CROSS-BORDER OPERATIONS

**Tashmatova Rano Gaibovna**
*Associate Professor of the Department of «Finance and financial technologies» Tashkent State economic university*
*E-mail: ranotashmatova76@gmail.com*
*ORCID:0000-0002-3003-3829*

**Qodirov Nurhayot Normuhammad o‘g‘li**
*master’s student Master’s degree in Finance Tashkent State economic university*

***Annotation.*** *This article discusses the importance of the Central Bank digital currency in the modern international payment system, its role in optimizing cross-border transactions. In particular, the unique features of digital currency, its practical use, practical aspects in this regard and existing problems were analyzed. In addition, suggestions and recommendations were made regarding measures that need to be taken to eliminate possible problems and ongoing reforms.*

***Keywords:*** *Central bank digital currency, international payments, cross-border transactions, blockchain, monetary policy.*

## Kirish

Raqamli valyutalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan Markaziy bank raqamli valyutasining (MBRV) xalqaro to‘lovlar tizimidagi o‘rni murakkab va keng qamrovli soha xisoblanadi. Jahonda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan bir sharoitda, transchegaraviy to‘lovlar tizimi jahon iqtisodiyotining muhim arteriyasi hisoblanadi.

2026-yil 16-fevral PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Farmoniga ko‘ra mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta’minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida vazifalar belgilangan [1]

Markaziy bank raqamli valyutasining (MBRV) xalqaro to‘lovlar tizimidagi o‘rni – bu zamonaviy moliya dunyosining eng dolzarb va muhim mavzularidan biridir. Transchegaraviy operatsiyalarni optimallashtirish MBRV joriy etilishining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mavjud transchegaraviy to‘lov tizimlarining (masalan, SWIFT) sekinligi, yuqori narxi, va shaffoflikdagi kamchiliklari, raqamli transformatsiya - moliyaviy tizimda blokcheyn va taqsimlangan registr texnologiyalarining (DLT) o‘sishi, MBRV ning paydo bo‘lishi - xususiy raqamli valyutalar (Stablecoin, Kriptovalyuta) ga muqobil sifatida davlat nazoratidagi raqamli valyuta konsepsiyasi xozirgi kunda muxim ahamiyat kasb etadi.

Har yili milliardlab dollar hajmidagi xalqaro pul o‘tkazmalari amalga oshiriladi, biroq mavjud an’anaviy tizimlar (birinchi navbatda, SWIFT tarmog‘i va ko‘rsatuvchi banklar mexanizmi) yuqori xarajatlar, uzoq vaqt (odatda 3-5 ish kuni), shaffoflikning yetishmasligi va yuqori hisob-kitob xavfi (settlement risk) kabi jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu

kamchiliklar xalqaro savdoni, investitsiyalarni va migrantlarning pul o‘tkazmalarini sekinlashtirib, iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi.

So‘nggi yillarda bu muammolarni hal qilishga urinishlar, jumladan, kriptovalyutalar va tezkor to‘lov tizimlari paydo bo‘ldi. Biroq, markazsizlashtirilgan kriptovalyutalar o‘zining yuqori narx o‘zgaruvchanligi (volatillik) va huquqiy tartibga solishning noaniqligi sababli to‘liq yechim bo‘la olmadi.

Bu kontekstda, Markaziy bank raqamli valyutasi (MBRV) – markaziy bank tomonidan chiqariladigan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyat hisoblangan raqamli pul shakli – xalqaro to‘lovlar tizimini tubdan o‘zgartirish salohiyatiga ega bo‘lgan inqilobiy yechim sifatida paydo bo‘ldi.

MBRV’ning DLT (Distributed Ledger Technology – taqsimlangan registr texnologiyasi) ga asoslanishi, uning atomik hisob-kitob (to‘lov va yetkazish bir vaqtda amalga oshirilishi) va tezkorlik kabi xususiyatlari transchegaraviy operatsiyalarni optimallashtirish uchun asosiy platforma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili**

Mualliflar A.Xamraev va boshqalar tomonidan tayyorlangan “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamlashtirishning o‘rni” maqolasida mamlakat iqtisodiyoti uchun raqamlashtirishning ahamiyati va uning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda iqtisodiy samaradorlikka ta’sir qiluvchi raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning rivojlanish dinamikasi o‘rganilgan (“Iqtisodiyot va biznes” jurnali, 2023)[2]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlarida mamlakatning moliyaviy barqarorligi, bank sektorining rivojlanishi va raqamli moliyaviy xizmatlarning joriy etilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu hisobotlar raqamli to‘lov tizimlarining statistikasi, kriptovalyutalarga oid rasmiy yondashuvlar va bank sektorida texnologik innovatsiyalar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni taqdim etadi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki)[5]. O‘zbekiston Respublikasining rasmiy statistikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy xizmatlar va raqamli iqtisodiyotning hozirgi holatini aks ettiruvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu resurs iqtisodiy tendensiyalarni tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun muhim manba hisoblanadi (Davlat statistika qo‘mitasi)[6]. O‘zbekiston iqtisodiyoti va moliya tizimini raqamlashtirish masalalari bo‘yicha strategiya.uz rasmiy saytida mamlakatning taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar va raqamli moliya tizimi bo‘yicha loyihalar haqida ma’lumotlar berilgan. Saytda moliya sektori raqamlashtirishning istiqbollari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanish choralari haqida ma’lumotlar keltirilgan (Strategiya.uz)[7]. Jahon banki tomonidan chop etilgan “Raqamli moliya: rivojlanayotgan mamlakatlar istiqbollari va muammolari” nomli hisobotda raqamli moliyaning rivojlanish jarayoni, uning afzalliklari va potensial xavflari yoritilgan. Hisobotda rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli moliya vositalarining joriy etilishi bilan bog‘liq tajribalar tahlil qilingan (Jahon banki)[8].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mamlakat sohasini raqamlashtirish va yanada rivojlantirish sohasidagi fundamental tadqiqotlar metodologik asosni tashkil etadi. Tuzilmaviy, mantiqiy va tizimli yondashuvlar, shuningdek, ekonometrik usullardan foydalanilgan. Mazkur yo‘nalish uslubiyotini tadqiq etish uchun olimlar va soha vakillari bilan suxbat, ularning yo‘zma va og‘zaki fikr muloxazalarini taxlil qilish, ekspert baxolash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o’tkazish orqali tegishli yo’nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

**Tahlil va natijalar**

So‘nggi yillar davomida mamlakatda axborot va aloqa sohalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra mazkur davr davomida

xizmatlar hajmining 2021 yildagi 17,1 trl.somdan 2024 yil boshiga kelib 32,2 tlrn so‘mga yetganligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni 15,2 tlrn so‘mga o‘sish kuzatilgan.

**1-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning tezkor to‘lovlar tizimidagi operatsiyalari[26]**

| | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil |
|---|---|---|---|
| **Tranzaktsiyalar hajmi** (trln so‘m) | 319,6 | 446,4 | 570 |
| *O‘sish sur’ati (%)* | 149,1% | 39,7% | 27,7% |
| **Tranzaktsiyalar soni** (million) | 12,6 | 17,6 | 22 |
| *O‘sish sur’ati (%)* | 134,6% | 39,7% | 25% |

O‘zbekiston Markaziy bankining tezkor to‘lov tizimi orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar soni yildan-yilga ortib bormoqda, bu raqamli moliyaviy vositalarning qulayligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari oshganidan dalolat beradi. 2024-yil boshiga bir yillik tranzaktsiyalar soni 800 milliondan ortiqni tashkil etdi, bu 2020-yildagi ko‘rsatkichlardan (6,9 million tranzaksiya) sezilarli darajada yuqori.[4]

Ushbu platformalarning muvaffaqiyatli joriy etilishi va ishlashi fuqarolarning raqamli yechimlarga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ularning naqd pulsiz hisob-kitoblar va boshqa zamonaviy moliyaviy texnologiyalarga o‘tishini rag‘batlantiradi.

Fintech kompaniyalarining rivojlanishi: onlayn kreditlash xizmatlari, investitsiya platformalari va moliyaviy maslahatlarni taklif qiluvchi startaplar sonini oshirish imkonini beradi, shuningdek, qarz oluvchilarni investorlar bilan vositachilarsiz bevosita bog‘laydigan xizmatlar sonini ko‘paytirishga yordam beradi.

Bank sohasida raqamli xizmatlar: masofadan hisobvaraqa ochish xizmatlari, pul o‘tkazmalari va ilovalar orqali xizmatlar uchun to‘lovlar, avtomatlashtirilgan skoring yordamida onlayn kredit arizalari hajmi ortadi.

Investitsiyalar. Raqamli moliya investorlarga kriptovalyutalar yoki boshqa raqamli aktivlar kabi yangi investitsiya imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.

So‘nggi uch yilda bu sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi ikki baravarga ortdi – 2021-yildagi 3,5 trillion so‘mdan 2023-yilda 6,8 trillion so‘mga yetdi. Shu bilan birga, investitsiyalarning salmoqli qismi xorijiy manbalar hisobiga to‘g‘ri keladi, bu esa O‘zbekistonning raqamli infratuzilmasini rivojlantirishiga xalqaro qiziqishdan dalolat beradi. 2025-yilga kelib, ushbu nisbat 2,8 punktga o‘zgargan holda jismoniy shaxslarning ulushi 97,2 foizga yetgan.




**1-rasm. O‘zbekistonda onlayn-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) soni[27]**

[26] Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan
[27] Mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan

Umuman olganda tahlil qilinayotgan davrda masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 2021-yilga nisbatan 3,6 barobarga yoki 38346 ming kishiga ko‘paygan. Bu holat jismoniy shaxslarning masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan keng foydalanayotganini ko‘rsatadi. Bu o‘sish tijorat banklarining masofaviy xizmatlarni kengaytirishga va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari natijasida yuzaga kelgan. [6]

Shuni qayd etib o‘tish kerakki bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,2 foizni tashkil etadi.[7]

Raqamli iqtisodiyotning O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2021-yildagi 2,2 foizdan 2023-yilda 3 foizga oshgani “Raqamli O‘zbekiston - 2030” dasturi muvaffaqiyatini tasdiqlaydi. Bu o‘sish moliyaviy tizimga raqamli texnologiyalarning faol joriy etilishi, elektron tijorat hajmining oshishi va IT infratuzilmasining rivojlanishi bilan bog‘liq.[8]

Respublikada 50 dan ortiq to‘lov tizimlari va 3 ta raqamli banklar faoliyat ko‘rsatmoqda. 4 yil davomida Davlat xizmatlarining yagona davlat reyestri orqali ko‘rsatilayotgan raqamli davlat xizmatlari soni 3,5 barobar oshdi, onlayn-banking foydalanuvchilari soni esa 34 million nafarga yetdi.[28]

Markaziy bankning raqamli valyutasini (CBDC) yaratish pul muomalasi ustidan nazoratni kuchaytiradi va valuta ekotizimini qo‘llab-quvvatlaydi. Kredit berish, steyking va markazlashmagan savdo xizmatlarini taklif qiluvchi DeFi platformalarining paydo bo‘lishi rivojlanishda yangi bosqichni belgilaydi. Davlat risklarni minimallashtirish uchun tartibga solish mexanizmlarini joriy etish orqali bunday tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bu omillarning barchasi ko‘proq investorlarni jalb qilishga ijobiy tasir ko‘rsatadi. Platformalarning kiberxavfsizligini ham hisobga olish kerak, buning uchun ekektron hamyonlardagi ma‘lumotlarni himoya qilish texnologiyalariga, shu jumladan shifrlash va ko‘p faktorli autentifikatsiyaga sarmoya kiritish kerak. Platformalarda xakerlik hujumlari uchun hodisalarga javob berish markazlarini tashkil etish. Tartibga solishni kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuv iqtisodiy o‘sish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Markaziy bank raqamli valyutasining (MBRV) xalqaro to‘lovlardagi muammolariga yana quyidagilar kuzatilishi mumkin. MBRVlarning transchegaraviy to‘lovlar tizimini optimallashtirish salohiyati yuqori bo‘lsa-da, ularni amaliyotga joriy etish va global miqyosda qo‘llashda bir qator jiddiy muammolar va qiyinchiliklar mavjud:

- texnik va tizimiy moslashuv muammolari (Interoperability)
- huquqiy va regulyativ farqlar
- kiberxavfsizlik va barqarorlik xavflari
- moliyaviy barqarorlikka ta’siri (MBRVlarning joriy etilishi tijorat banklari va moliyaviy tizimga kutilmagan ta’sir ko‘rsatishi mumkin, vositachilikning yo‘qolishi (Disintermediation), MBRV o‘ta jozibadorligi, odamlar pullarini tijorat banklaridan markaziy bankka o‘tkazishi mumkin (bank depozitlarining qochishi), bu esa tijorat banklarining kreditlash qobiliyatini zaiflashtiradi).
- global zaxira valyutalarga ta’sir (ba’zi MBRVlar ayniqsa, yirik iqtisodiyotlarniki xalqaro zaxira valyutalari sifatida an’anaviy valyutalarga raqib bo‘lishi mumkin, bu esa global moliyaviy barqarorlikka ta’sir qiladi.)
- siyosiy va geopolitik xatarlar (MBRVlar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy vosita ham bo‘lishi mumkin, ba’zi davlatlar o‘z MBRV’sini xalqaro to‘lovlarda ustunlikka erishish uchun ishlatishga urinishi mumkin, bu esa savdo urushlariga yoki keskinlikka olib kelishi mumkin)
- mintaqaviy integratsiya muammosi (O‘zbekistonning transchegaraviy to‘lovlari asosan MDH davlatlari (Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston) va yirik mehnat migratsiyasi yo‘nalishlari (Turkiya, BAA, Koreya) bilan bog‘liq. Mintaqadagi davlatlar (masalan, Qozog‘iston, Rossiya)

[28] “Daryo.uz” sayti nashridan » // Raqamli O‘zbekiston: Respublika Markaziy Osiyoda yetakchilikka erisha oladimi? Muallif: Azamat Haydaraliev

allaqachon o‘z MBRV loyihalarini yoki ularning sinovlarini boshlagan. O‘zbekiston MBRV (Raqamli so‘m) ning ushbu tizimlar bilan texnik va huquqiy jihatdan muvofiqligini (Interoperability) ta’minlash murakkab siyosiy va texnik muzokaralarni talab qiladi.

Agar O‘zbekiston Raqamli so‘m uchun Yevropa yoki Xitoy texnik standartlarini tanlasa, MDH bo‘ylab amaldagi integratsiya tizimlari (masalan, Mir yoki tezkor pul o‘tkazmalari tizimlari) bilan bog‘lanishda qo‘shimcha to‘siqlar yuzaga kelishi mumkin.)

- moliyaviy regulyatsiya va compliance (O‘zbekiston xalqaro moliyaviy tashkilotlar (FATF kabi) tomonidan qo‘yiladigan standartlarga rioya qilishda faol ish olib bormoqda. MBRVni transchegaraviy to‘lovlarga kiritish bu talablarni yanada kuchaytiradi. Xalqaro sanksiyalar ostidagi davlatlar bilan chegaradoshligi tufayli, O‘zbekiston moliya tizimi doimo xalqaro sanksiyalarga rioya qilish (Compliance) xavfi ostida bo‘ladi. 2023-yilda O‘zbekiston Markaziy banki ba’zi to‘lov tashkilotlarining transchegaraviy tranzit operatsiyalarini xavflarni kamaytirish maqsadida to‘xtatgani shunga o‘xshash xatarlardan himoyalanishga qaratilgan harakatlardir )

- texnik infratuzilma va kadrlar salohiyati (MBRVni joriy etish yuqori darajadagi texnologik tayyorgarlik va malakali kadrlar mavjudligini talab qiladi. Xalqaro moliya tizimiga integratsiya uchun zamonaviy va xavfsiz DLT/blokcheyn yechimlarini joriy etish uchun katta investitsiyalar kerak bo‘ladi. O‘zbekistonda MBRVni boshqarish, nazorat qilish va xalqaro hamkorlikni ta’minlash uchun yetarli darajada kiberxavfsizlik, DLT texnologiyalari va xalqaro moliya huquqi bo‘yicha malakali mutaxassislar bazasini shakllantirish zarur.)

- valyuta ayirboshlash mexanizmi (Raqamli so‘m va xorijiy MBRVlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ayirboshlash mexanizmlarini yaratish iqtisodiy jihatdan qiyin bo‘lishi mumkin. Transchegaraviy operatsiyalarda valyuta kursining o‘zgaruvchanligini kim o‘z zimmasiga olishi kerakligi (markaziy bank, tijorat banki yoki foydalanuvchi) masalasi hal qilinishi lozim. Hozirgi kunda bu muammo vositachi banklar orqali hal qilinadi. Raqamli so‘mning xalqaro to‘lovlarda ishtirok etishi Markaziy bankning valyuta siyosati va valyuta kursini boshqarishiga qo‘shimcha bosim yaratishi mumkin.)

MBRVlar transchegaraviy to‘lovlarni optimallashtirishning katta salohiyatiga ega bo‘lsa-da, ularni muvaffaqiyatli joriy etish yuqorida sanab o‘tilgan texnik, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy to‘siqlarni bartaraf etishni talab qiladi. Hozirda ko‘pgina markaziy banklar ushbu muammolarni hal qilish uchun xalqaro darajada hamkorlik (masalan, BIS va G20 doirasida) qilib, "Ko‘p MBRV (mCBDC)" platformalari ustida tajriba o‘tkazmoqda.

O‘zbekiston Markaziy Bankining raqamli so‘m (MBRV) loyihasi holati va rejalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB) raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va to‘lov tizimini takomillashtirish strategiyasi doirasida o‘zining MBRV loyihasini — Raqamli so‘m (Digital So‘m) ni o‘rganish va joriy etish ustida ishlamoqda. Loyihaning holati va rejalari asosan Markaziy bankning hisobotlari, strategik hujjatlar va xalqaro hamkorlik doirasidagi ma’lumotlar orqali aks etadi.

O‘zbekiston MBRVni joriy etishning dastlabki tadqiqot va kontseptual bosqichida turibdi desak adashmagan bo‘lamiz, bu bir necha yirik yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1.Tadqiqot va o‘rganish - MB raqamli valyutaning mamlakat pul-kredit siyosatiga, moliyaviy barqarorlikka va tijorat banklariga ta’sirini o‘rganmoqda.

2. Xalqaro hamkorlik - O‘zbekiston Markaziy banki xalqaro hamkorlikni faol ravishda mustahkamlamoqda.

Bu hamkorliklar Raqamli so‘mning transchegaraviy to‘lovlarda ishlashi uchun zarur bo‘lgan texnik va regulyativ yechimlarni o‘rganishga qaratilgan.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida bank va to‘lov tizimlariga firibgarlikka qarshi va zamonaviy biometrik tizimlarni joriy etish, hamda fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini himoyasini kafolatlash bo‘yicha vazifalar belgilangan. Bu MBRV uchun muhim bo‘lgan asosiy infratuzilmani yaratishga xizmat qiladi.

MBRVni joriy etish bo‘yicha aniq xronologik bosqichlar keng ommaga e’lon qilinmagan bo‘lsa-da, Markaziy bankning moliyaviy tizimni takomillashtirishga qaratilgan global rejalari

MBRVning kelajakdagi joriy etilishiga zamin yaratadi:

- Markaziy bank 2025–2028-yillarda Bazel III standartlarini to‘liq joriy etishga qaratilgan “Yo‘l xarita”sini tasdiqladi. Garchi bu bevosita Raqamli so‘m bo‘lmasa ham, bu choralar bank tizimining barqarorligini, xavflarni boshqarish tizimini kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, MBRV kabi yangi instrumentni kiritish uchun fundamental shart-sharoitlarni yaratadi.

- Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ) va Jahon banki tomonidan moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP) doirasida O‘zbekistonning bank-moliya tizimini kompleks baholash bo‘lib o‘tdi. Ushbu baholash natijalari va tavsiyalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan takomillashtirish rejalari kelajakda MBRVni joriy etishdagi tartibga solish (regulyativ) jihatlarga bevosita ta’sir qiladi.

- Aksariyat mamlakatlar dastlab MBRVni cheklangan guruh (tijorat banklari yoki tanlangan to‘lov tashkilotlari) ishtirokida sinovdan o‘tkazadi (pilot loyihalar). O‘zbekiston ham xalqaro tajribaga asoslanib, Raqamli so‘mni avval xalqaro to‘lovlarda emas, balki ichki ulgurji yoki chakana to‘lovlarda pilot rejimda sinovdan o‘tkazishni rejalashtirishi mumkin.

- Raqamli so‘mning xalqaro to‘lovlardagi rolini faollashtirish yuqorida aytib o‘tilganidek, qo‘shni davlatlarning MBRV tizimlari bilan o‘zaro kelishuv va integratsiyani talab qiladi.

**Xulosa va takliflar**

O‘zbekiston Markaziy banki uchun Raqamli so‘mning transchegaraviy to‘lovlardagi muvaffaqiyati nafaqat ichki raqamlashtirish (moliyaviy inklyuzivlik va iqtisodiyotni shaffoflashtirish) borasidagi yutuqlarga, balki xalqaro hamkorlar, ayniqsa mintaqaviy davlatlar bilan kelishilgan yagona texnik va huquqiy yechimlarni yaratishga bevosita bog‘liqdir.

***Annotatsiya.*** *Xalqaro tajribalar asosida kripto sanoati faoliyati, kriptobirjalarning ishlash mexanizmi va ularning asosiy texnologik prinsiplari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kriptoaktivlar bozorining rivojlanish tendensiyalari, blokcheyn texnologiyasi, sun’iy intellekt, big data, algoritmik savdo tizimlari va axborot xavfsizligi texnologiyalarining kriptobirjalar faoliyatidagi o‘rni o‘rganildi. Shuningdek, markazlashgan va markazlashmagan kriptobirjalar faoliyati, ularning ishlash mexanizmi va global moliya tizimidagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot texnologiyalari kriptobirjalarda savdo jarayonlarini optimallashtirish, tranzaksiyalar xavfsizligini ta’minlash, foydalanuvchilarga qulay xizmatlar ko‘rsatish va bozor samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar asosida kripto sanoatining rivojlanishi global moliya tizimining raqamli transformatsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.*

***Kalit so‘zlar.*** *Kriptoaktivlar, blokcheyn, kriptobirja, sun’iy intellekt, big data, algoritmik savdo, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, moliya bozori, smart kontrakt.*

# АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КРИПТОИНДУСТРИИ И ПРИНЦИПОВ ЕЕ РАБОТЫ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА

**Шоахмедова Нозима Хайруллаевна**
*доцент кафедры цифровой экономики*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: nshoaxmedova@gmail.com*
*ORCID: 0000-0003-3297-7521*

***Аннотация.*** *В данном исследовании на основе международного опыта проанализирована деятельность криптоиндустрии, механизмы работы криптовалютных бирж и их технологические принципы. В ходе исследования были изучены тенденции развития рынка криптоактивов, а также роль информационных технологий, таких как блокчейн, искусственный интеллект, большие данные, алгоритмическая торговля и технологии кибербезопасности в деятельности криптовалютных бирж. Также были проанализированы централизованные и децентрализованные криптовалютные биржи, их механизмы работы и значение в глобальной финансовой системе. Результаты исследования показали, что информационные технологии играют важную роль в оптимизации торговых процессов, обеспечении безопасности транзакций, предоставлении удобных услуг пользователям и повышении эффективности рынка. Развитие криптоиндустрии на основе современных технологий оказывает значительное влияние на цифровую трансформацию мировой финансовой системы.*

***Ключевые слова.*** *криптоактивы, блокчейн, криптовалютная биржа, искусственный интеллект, большие данные, алгоритмическая торговля, цифровая экономика, информационные технологии, финансовый рынок, смарт-контракты.*

# ANALYSIS OF THE CRYPTO INDUSTRY AND ITS OPERATING PRINCIPLES BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE

**Nozima Khairullaevna Shoakhmedova**
*Associate Professor, Department of Digital Economy, Tashkent State University of Economics*
*E-mail: nshoaxmedova@gmail.com*
*ORCID: 0000-0003-3297-7521*

***Abstract.*** *This study analyzes the activities of the crypto industry, the operating mechanisms of cryptocurrency exchanges, and their technological principles based on international experience. The research examines the development trends of the crypto asset market and the role of information technologies such as blockchain, artificial intelligence, big data, algorithmic trading systems, and cybersecurity technologies in the operation of cryptocurrency exchanges. The study also analyzes centralized and decentralized cryptocurrency exchanges, their operating mechanisms, and their importance in the global financial system. The research results show that information technologies play a significant role in optimizing trading processes, ensuring transaction security, providing user-friendly services, and increasing market efficiency in cryptocurrency exchanges. The development of the crypto industry based on modern technologies significantly influences the digital transformation of the global financial system.*

***Keywords.*** *Crypto assets, blockchain, cryptocurrency exchange, artificial intelligence, big data, algorithmic trading, digital economy, information technology, financial market, smart contracts.*

**Kirish**

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi moliyaviy tizimlar tobora rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, kriptoaktivlar bozori va kripto sanoati global moliya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Raqamli aktivlar, blokcheyn texnologiyasi va kriptobirjalar faoliyati nafaqat moliya bozorlari rivojiga, balki xalqaro savdo, investitsiya jarayonlari va to‘lov tizimlarining modernizatsiyasiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli kripto sanoati faoliyatini o‘rganish, uning ishlash mexanizmlarini tahlil qilish va xalqaro tajribalarni o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Blokcheyn texnologiyasining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu texnologiya markazlashmagan, shaffof va xavfsiz tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini yaratdi. Natijada kriptovalyutalar va kriptoaktivlar bilan savdo qiluvchi kriptobirjalar faoliyati kengaydi va ular global miqyosda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi muhim platformalarga aylandi. Bugungi kunda kriptobirjalar orqali millionlab foydalanuvchilar raqamli aktivlarni sotib olish, sotish, saqlash va investitsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Kripto sanoati faoliyatida axborot texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, tranzaksiyalar xavfsizligini ta’minlash, foydalanuvchilar ma’lumotlarini himoya qilish, bozor tahlillarini amalga oshirish va algoritmik savdo tizimlarini joriy etish kriptobirjalar faoliyatining samaradorligini oshirmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt, big data, smart-kontraktlar va bulutli texnologiyalarning qo‘llanilishi kripto sanoatini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Turli mamlakatlarda kriptoaktivlar va kriptobirjalar faoliyatini tartibga solish bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ayrim davlatlar kriptoaktivlarni qonuniylashtirgan bo‘lsa, ayrimlari esa ularni cheklash yoki qat’iy nazorat qilish siyosatini olib bormoqda. Bu esa kripto sanoati rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli xalqaro tajribalarni o‘rganish, turli mamlakatlarda kripto sanoati rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilish va ularning ishlash prinsiplari asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribalar asosida kripto sanoati faoliyatini tahlil qilish, kriptobirjalarning ishlash mexanizmlarini o‘rganish, axborot texnologiyalarining ushbu sohadagi rolini aniqlash hamda kripto sanoatining rivojlanish istiqbollarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Ushbu tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida kripto sanoati faoliyatini rivojlantirish, moliya bozorlarini

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

**Adabiyotlar sharhi**

Kripto sanoati va kriptobirjalar faoliyati zamonaviy moliya va axborot texnologiyalari sohasida keng o‘rganilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar, jumladan Nakamoto 2008 blokcheyn texnologiyasini markazlashmagan va xavfsiz raqamli tizim sifatida ta’riflaydi va uning kriptoaktivlar savdosidagi ishonchlilik va shaffoflikni ta’minlashdagi rolini alohida ta’kidlaydi [1]. Shuningdek, Yermack 2017 blokcheynning moliya bozorlaridagi tranzaksiyalarni tezkor va o‘zgarmas tarzda amalga oshirish imkoniyatini o‘rganib, kriptobirjalarda xavfsizlik va ma’lumotlarning taqsimlangan reyestrining muhimligini ko‘rsatadi [2].

Markazlashgan va markazlashmagan kriptobirjalar faoliyati bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan. Tapscott, D., & Tapscott, A. va boshq. 2016 markazlashgan birjalarning boshqaruv mexanizmi bir nuqtadan amalga oshirilishini, foydalanuvchilarga qulay interfeys taqdim etishini va tranzaksiyalarni tezkor bajarilishini asosiy ustunlik sifatida ko‘rsatadi[3]. Shuningdek, Chen va boshq.2020 hamda Makarov va boshq.2021 markazlashmagan birjalarda xavfsizlik darajasi yuqori ekanligini, vositachilar mavjud emasligini va foydalanuvchilarning aktivlar ustidan to‘liq nazoratga ega bo‘lishini ta’kidlaydi [4,5]. Bu ikki turdagi birjalarning o‘ziga xos afzalliklari va chegaralari mavjudligini ilmiy yondashuvlar orqali tushuntiradi.

Axborot texnologiyalarining kripto sanoatidagi roli ham olimlar tomonidan alohida o‘rganilgan. Sun’iy intellekt, big data, algoritmik savdo va kiberxavfsizlik tizimlarining kriptobirjalarda qo‘llanilishi savdo jarayonlarini tezlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, Kshetri, N. va boshq. 2018 sun’iy intellekt yordamida bozor tahlili, narxlarni prognozlash va risklarni boshqarish mumkinligini ko‘rsatadi [6]. Big data texnologiyalari esa katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali bozor tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Zohar 2020, kriptoaktivlar bozorini tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi davlat siyosati va huquqiy muhitga bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Ayrim mamlakatlarda kriptoaktivlar rasmiy ravishda tan olingan va litsenziyalash, soliq tizimi hamda nazorat mexanizmlari joriy qilingan bo‘lsa, boshqa davlatlarda bu sohada qat’iy cheklovlar mavjud. Bu esa kripto sanoatining rivojlanishiga xalqaro tajriba va qonunchilikning bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Blokcheyn, kriptobirjalar, axborot texnologiyalari va ularning xavfsizlik tizimlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, kriptoaktivlarning iqtisodiyotga ta’siri, investitsiya bozorlariga integratsiyasi va xalqaro tajribalar asosida ishlash prinsiplari bo‘yicha kompleks tahlillar hali ham talab etiladi. Shu sababli, mazkur tadqiqot xalqaro tajriba asosida kripto sanoati faoliyatini o‘rganish va ularning ishlash mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishga yo‘naltirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi xalqaro kripto sanoati faoliyatini o‘rganish, kriptobirjalarning ishlash prinsiplari va axborot texnologiyalarining ularni qo‘llashdagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy metodlardan foydalanilgan bo‘lib, quyidagi yondashuvlar asosiy metodologik vosita sifatida qo‘llanildi.

**Tahlil va natijalar**

Kriptoaktivlar bozorining o‘sishi va global ravishda ommalashishi bilan, axborot texnologiyalarining kriptobirjalardagi roli tobora muhimlashib bormoqda. Axborot texnologiyalari kriptobirjalarning samarali ishlashini ta’minlash, foydalanuvchilarning xavfsizligini oshirish va global miqyosda integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi. Xalqaro kriptobirjalarda axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi asosan savdo jarayonlarini optimallashtirish, xavfsizlikni ta’minlash, tahlil qilish va foydalanuvchilarga qulay xizmatlar ko‘rsatish kabi ko‘plab sohalarda o‘z aksini topadi. Kriptobirjalarning ishlash mexanizmi asosan axborot texnologiyalari orqali boshqariladi. Ular o‘zaro integratsiya qilgan onlayn platformalarda

faoliyat yuritadi, bu esa foydalanuvchilarga virtual aktivlar bilan savdo qilish imkonini beradi, masalan:

Blokcheyn - kriptobirjalar, asosan, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, bu tizimlar markazlashtirilmagan bo‘lib, xavfsizlik va shaffoflikni ta’minlaydi. Blokcheynning asosiy xususiyatlari – uning markazlashmagan va ishonchli xarakteri – kriptobirjalarda barcha tranzaksiyalarni tasdiqlash va ularni xavfsiz tarzda saqlash imkonini bermoqda. Kriptobirjalarda savdo, sotib olish va sotish jarayonlari avtomatik ravishda amalga oshiriladi, bu esa foydalanuvchilarga tez va oson tranzaktsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Dunyodagi eng yirik kriptobirjalar, jumladan Binance**,** Coinbase **va** Kraken birjalari o‘z faoliyatlarida blokcheyn texnologiyasidan foydalanadilar, bu esa tranzaksiyalarning shaffofligini ta’minlaydi va foydalanuvchilarning ishonchini oshiradi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, kriptoaktiv ma’lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig‘indisi bo‘lib, qiymati va egasi mavjud mulkiy huquq hisoblanadi. Ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri esa ma’lumotlarni ixtisoslashtirilgan bloklarda taqsimlovchi texnologiya hisoblanadi va bunda har bir yangi blok oldingi blok bilan kriptografik imzo orqali bog‘lanadi.

Xavfsizlik kriptobirjalarning eng muhim jihatlaridan biridir. Axborot texnologiyalarining asosiy maqsadi kriptobirjalarda tranzaksiyalarning xavfsizligini ta’minlash, foydalanuvchilarni kiberhujumlardan himoya qilish va shaxsiy ma’lumotlarning o‘zgarishini oldini olishdir.

Dunyo bo‘ylab kriptoaktivlardan foydalanish tobora kengayib bormoqda, bunga sabab ular tezkor, xavfsiz va oson tranzaktsiyalarni ta’minlaydi. Ko‘plab mamlakatlar kriptoaktivlarni qonuniylashtirishni boshlagan, bu esa ularga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Kriptoaktivlarni qabul qiluvchi kompaniyalar va davlatlar, global moliya tizimini innovatsion ravishda rivojlantirishga yordam bermoqda.

**1-chizma.**

**Kriptobirjada blokchyen texnologiyasi**

* https://www.specbee.com/blogs/cryptocurrency-and-blockchain

Markazlashgan kripto birjalar kriptoaktivlar sotib olish va sotish jarayonlariga ixtisoslashgan platformalardir. Ushbu birjalarda barcha tranzaksiyalar platforma ichida amalga oshiriladi. Markazlashgan birjaning eng muhim xususiyati uning boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Markazlashgan birjalar odatda ma’lum bir guruh tomonidan yaratiladi va boshqariladi. Markazlashgan birjalarning faoliyatini amalga oshirishga katta jamoa yoki tashkilot javobgardir, bu esa ushbu birjaning barcha operatsiyalarini bir nuqtadan boshqarishga imkon beradi.

Xalqaro tajribalarda kriptobirja faoliyatida axborot texnologiyalarni qo‘llash, bozorlarda samaradorlikni oshirish, xavfsizlikni ta’minlash va foydalanuvchi ishonchini shakllantirishga katta hissa qo‘shmoqda. Blokcheyn, smart-kontraktlar, turli plarformalar, sun’iy intellekt, big data, algoritmik savdo va xavfsizlik tizimlari yordamida kriptobirjalar faoliyati yanada rivojlanmoqda. Birjalarning mijozlarga ko`rsatayorgan xizmatlari ko`plab imkoniyatlarni bizga ochib bermoqda [7].

**2-chizma.**

**Eng yaxshi kriptoaktiv birjasini tanlash usuli**




*Muallif tomonidan tuzilgan

Kriptobirjalarda savdo jarayonlarini optimallashtirishda axborot texnologiyalarining ro`li juda katta. Turli texnologiyalarini bu sohada qo‘llanilishi foydalanuvchilarga kripto aktivlar bo‘yicha aniq tahlil qilish, savdoni strategik ravishda rejalashtirish imkonini beradi.

Bunga misol sifadida Sun’iy intellekt va mashinali o‘rganish**:** Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan savdo tizimlari asosida kriptobirjalarda sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan savdo tizimlarining qo‘llanilishi, savdo jarayonlarini takomillashtirish va tezlashtirishga imkon beradi.

Blokcheyn texnologiyasi kriptobirjalarda markazlashmagan va xavfsiz tranzaksiyalarni ta’minlash vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Har bir tranzaksiya kriptografik algoritmlar orqali tasdiqlanadi, yangi blok avvalgi blok bilan bog‘lanadi, bu esa ma’lumotlarning buzilmasligini va foydalanuvchi ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyasi smart-kontraktlar bilan birlashtirilganda, avtomatlashtirilgan shartnoma bajarilishi va tranzaksiyalarni monitoring qilish jarayonini tezlashtiradi. Axborot texnologiyalari yordamida ikki faktorli autentifikatsiya, shifrlash algoritmlari, real vaqt monitoring va foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali kriptobirjalar kiberhujumlarga qarshi samarali himoya ta’minlaydi. Foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qilish va tranzaksiyalarni xavfsiz saqlash imkoniyati esa investorlar uchun qo‘shimcha ishonch yaratadi [8,9].

Kriptobirjalarda sun’iy intellekt (AI) va mashina o‘rganish tizimlari savdo jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. AI algoritmlari bozor tendensiyalarini prognoz qilish, likvidlikni boshqarish va narx o‘zgarishini kuzatishda yordam beradi. Avtomatlashtirilgan savdo tizimlari esa foydalanuvchilarga tezkor va samarali tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, Big Data texnologiyalari katta hajmdagi tranzaksiya ma’lumotlarini tahlil qilish orqali foydalanuvchilarga strategik savdo rejalashtirish imkonini beradi va birjaning o‘z faoliyatini optimallashtirish, risklarni baholash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Innovatsion xizmatlar foydalanuvchi tajribasini oshiradi va investorlar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratadi. Masalan, portfel monitoringi, narx ogohlantirishlar, avtomatlashtirilgan

investitsiya tavsiyalari va tezkor pul o‘tkazmalari kriptobirjalarda keng qo‘llaniladi. Shu tarzda kriptobirjalar nafaqat xavfsiz tranzaksiyalarni ta’minlaydi, balki global moliya bozorida raqobatbardosh, innovatsion va samarali platforma sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlaydi.

**Xulosa**

Xalqaro kripto sanoatining faoliyati va uning ishlash prinsiplari asosan axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Kriptobirjalarda blokcheyn, smart-kontraktlar, sun’iy intellekt, algoritmik savdo va big data tizimlarining qo‘llanilishi savdo jarayonlarini tezlashtirish, shaffoflik va xavfsizlikni ta’minlash, shuningdek, foydalanuvchi ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Markazlashgan va markazlashmagan kriptobirjalar o‘rtasidagi farq ularning boshqaruv mexanizmi va operatsiyalarning amalga oshirilish usulida namoyon bo‘ladi. Markazlashgan birjalar platforma ichidagi barcha tranzaksiyalarni yagona boshqaruv markazi orqali amalga oshirsa, markazlashmagan birjalar blokcheyn texnologiyasi asosida foydalanuvchilarning xavfsizligi va ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlaydi [10].

Axborot texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi kriptoaktivlar bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi, tranzaksiyalarning aniqligi va xavfsizligini ta’minlaydi hamda foydalanuvchilarga qulay xizmatlarni taqdim etadi. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning tatbiqi savdo jarayonlarini yanada optimallashtiradi, bozordagi qarorlarni strategik rejalashtirish imkoniyatini beradi va global moliya tizimining innovatsion rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Kriptobirjalarda axborot texnologiyalarining yanada samarali ishlashi uchun ularni rivojlantirish, xavfsizlik protokollarini takomillashtirish va yangi texnologiyalarni integratsiya qilish zarurati mavjudligi aniqlanadi. Tadqiqotning natijalari xalqaro kripto bozorining kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va uni raqamli moliya tizimida samarali qo‘llash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nakamoto, S. (2008). *Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System.* https://bitcoin.org/bitcoin.pdf

2. Yermack, D. (2017). *Corporate Governance and Blockchains. Review of Finance, 21*(1), 7–31.

3. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies is Changing the World.*

4. Chen, Y., & Bellavitis, C. (2020). *Blockchain Disruption and Decentralized Finance. Journal of Business Research, 121,* 164–176.

5. Makarov, I., & Schoar, A. (2021). *Trading and Exchange in Cryptocurrency Markets. Journal of Financial Economics, 142*(2), 403–425.

6. Kshetri, N. (2018). *Blockchain’s Roles in Strengthening Cybersecurity and Financial Transparency. Telecommunications Policy, 42(*4), 217–226.

7. Binance Research (2023). *Global Cryptocurrency Exchange Trends and Insights.* https://research.binance.com/

8. Coinbase Institutional (2022). *Understanding Crypto Trading Platforms and Security Measures.* https://www.coinbase.com/institutional

9. World Economic Forum (2022). *The Future of Financial Infrastructure: How Blockchain Can Reshape Financial Services.* https://www.weforum.org/reports

10. Peters, G. W., & Panayi, E. (2016). *Understanding Modern Banking Ledgers Through Blockchain Technologies: Future of Transaction Processing and Smart Contracts on the Internet of Money. Banking Beyond Banks and Money,* 239–278.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# ТЕХНОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ҚОНУНИЯТЛАРИ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛМАВИЙ ТАКОМИЛЛАШТИРИШЛАР АСОСИ СИФАТИДА

**Одинаев Равзатилло Асатуллоевич**
*мустақил тадқиқотчи*
*Тошкент давлат*
*иқтисодиёт университети*
*E-mail:r.odinaev@xb.uz.*
*ORCID: 0009-0003-9445-3384*

***Аннотация.*** *мақолада миллий иқтисодиётда технологик тараққиётнинг технологик даражаси бўйича тавсифланишини ривожланишининг илмий-назарий асослари хамда технологик қонуниятларга ишлаб чиқариш уклади ривожланишини таъсири ва унда рақамли иқтисодиётни ўрни очиб берилган.*

***Калит сўзлар:*** *технология, базисли, илмий тадқиқот ишланмалари, институтционал тузилма, трансформация, уклад, парадигма, саноат инқилоби, рақамли иқтисодиёт, блокчейн, тизим.*

# ЗАКОНОМЕРНОСТИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ОСНОВА СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В ЭКОНОМИКЕ

**Одинаев Равзатилло Асатуллоевич**
*независимый исследователь*
*E-mail:r.odinaev@xb.uz.*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*ORCID: 0009-0003-9445-3384*

***Аннотация.*** *В статье раскрыты научно-теоретические основы характеристики национальной экономики по уровню технологического развития, влияние технологических закономерностей на развитие технологических укладов производства, а также роль цифровой экономики в данном процессе.*

***Ключевые слова:*** *технология, базисный, научно-исследовательские разработки, институциональная структура, трансформация, уклад, парадигма, промышленная революция, цифровая экономика, блокчейн, система.*

# PATTERNS OF TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT AS THE BASIS FOR STRUCTURAL TRANSFORMATIONS IN THE ECONOMY

**Odinayev Ravzatillo Asatulloyevich**
*Independent Researcher*
*Tashkent State the University*
*of Economics*
*E-mail:r.odinaev@xb.uz.*
*ORCID: 0009-0003-9445-3384*

***Abstract.*** *The article reveals the scientific and theoretical foundations for characterizing the national economy according to the level of technological development, examines the influence of technological patterns on the development of technological modes of production, and highlights the role of the digital economy in this process.*

***Keywords:*** *technology, basic, research and development, institutional structure, transformation, mode, paradigm, industrial revolution, digital economy, blockchain, system.*

**Кириш**

Жаҳон иқтисодиётида глобаллашув жараёни тобора кучайиб бораётгани ва рақамли иқтисодиёт жадал суръатларда ривожланиб бориши ўз навбатида такрор ишлаб чиқариш тизими ва унинг институционал таркибий тузилмасида туб ўзгаришларни юзага келишига сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Сифат ўзгаришлари булар билан бир қаторда инновацион ривожланиш суръ-атларини жадаллаштириш, капитал ва инсон ресурсларидан янада самарали фойдаланишни шартламоқда. “Жаҳон илмий-техника салоҳиятининг 90% ва глобал юқори технологиялар бозорининг 80% Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ИҲТТ)га аъзо бўлган ривожланган давлатлар ҳиссасига тўғри келмоқда[1]”. Бу эса ҳозирда жаҳонда иқтисодиёт таркибий тузилмасини такомиллаштириш билан боғлиқ муаммоларнинг долзарб аҳамият касб этаётганлигини кўрсатмоқда.

Янги Ўзбекистонда олиб борилаётган ислоҳотлар жараёнида иқтисодий барқарорликни таъминлаш ва аҳоли фаровонлигини оширишга катта таъсир кўрсатадиган янги технологик уклад талабларига мос келувчи иқтисодиёт таркибий тузилмасини трансформациялаш, сунъий интеллект ёрдамида ресурсларни оқилона тақсимлаш ва трансакцион харажатларни пасайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “Рақамли иқтисодиёт асосий «драйвер» соҳага айлантирилиб, унинг ҳажмини камида 2,5 баробар ошириш белгиланган[2]”.

**Адабиётлар шарҳи**

Юқори фан сиғимли технологияларнинг иқтисодий тизимнинг таркибий тузилмасига таъсирини тадқиқ этган хорижлик олимларга Т.Кун, К.Перес, М.С.Роко, Д.Белл, Й.Шумпетер, С.Кларк, П.Арнолд кабиларни келтириш мумкин.

Россиялик олимлардан Василевский Э., Иноземцев В.Л., Климович М.А., Красильников О.Ю., Кондратьев Н.Д., Буторина О.В., Кравец А.В., Сухарев О.С. ва бошқалар ушбу мавзуга бағишланган илмий-тадқиқот ишларини олиб борган.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан С.С.Гулямов, А.В.Вахабов, С.В.Чепель, Т.Т.Жўраев, А.А.Маматов ва бошқаларнинг илмий тадқиқотларида янги технологик укладнинг такрор ишлаб чиқариш таркибий тузилмасини шакллантириш масалалари бўйича атрофлича тадқиқотлар олиб борилган.

“Янги классик мактаб” доирасида институционалист олимлар; Р.Лукас, П.Ромер ва А.Янг томонидан илмий ва технологик тараққиётнинг табиатини ва инновацияларни вужудга келиш сабабларини батафсил таҳлил қилишди[3].

О.С.Сухаревнинг фикрига кўра, "мавжуд технологик асос, минтақавий эҳтиёжлар, мавжуд ресурслар ва эришилган меҳнат унумдорлиги даражасига мувофиқ такрор ишлаб чиқариш, тарқатиш ва алмашиш механизмлари таъсири остида юзага келадиган ўзаро боғлиқ нисбатлардаги ўзгаришларнинг мураккаб тизими[4]. О.Ю.Красильников нуқтаи назаридан, "таркибий ўзгариш-макроиқтисодий тизимнинг таққосланадиган элементлари ўртасидаги муносабатларнинг сифат жиҳатидан ўзгариши, уларнинг миқдорий хусусиятларининг нисбати нотекис динамикаси[5].

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан А.Н.Эркаев тадқиқотларига кўра таркибий такомиллаштиришлар иқтисодий категория сифатида таркибий элементлар ўртасидаги муносабатларнинг ўзгаришини акс эттиради[6].

**Тадқиқот методологияси**

Мақолада диалектик, тизимли, интеграл ва синергетик ёндашувлар, иқтисодий, мантиқий, илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, қиёслаш, умумлаштириш, гуруҳлаш ва жадвал усулларидан фойдаланилади.

**Таҳлил ва натижалар**

Технологик ўзгаришлар жамият тараққиётининг ҳозирги босқичида иқтисодиётдаги

таркибий такомиллаштиришларни таъминловчи асосий омил бўлиб ҳисобланади. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан берилган таърифга кўра, бугунги кунда технология нафақат моддийлашган шаклдаги билим, балки маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш учун зарур бўлган тизимлашган усуллар мажмуи, масалан, ноу-хаудир[7]. Бизнинг фикримизча, бу таъриф "технология" таърифининг моҳиятини тўғри ифода этади, уни ресурсларни якуний маҳсулотга трансформациялашуви усули сифатида ҳам, билим шакли сифатида ҳам ифодалайди.

Иқтисодий адабиётда кенг миқёсда турли хил технологияларнинг тавсифи мавжуд. Чет эл адабиётларида юқори технологик технологиялар хизмат кўрсатиш соҳасида қўлланиладиган технологиялар, ишлаб чиқариш тармоқларида қўлланиладиган технологиялар сифатида таърифланади. Ўзбекистонлик олимлар тадқиқотларида ҳам бу тушунчалар деярли бир хил. Технологияларнинг жуда кўп турлари мавжуд бўлиб, бугунги кунда кенг қўлланилаётган "муҳим", "критик", "базисли", "портлатувчи" технологиялар, "келажак технологиялари" ва ҳоказо атамалар ҳисобланади.

1.жадвалда келтирилган иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ИХТТ) томонидан таклиф этилган ишлаб чиқариш тармоқларини технологик самарадорлик даражаси бўйича таснифлашга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Тармоқлар учун таснифий хусусиятларга тармоқнинг қўшилган қийматида илмий тадқиқот ва ишланмалар харажатларини фоиздаги кўрсаткичи ҳамда саноат ялпи маҳсулотида илмий тадқиқот ва ишланмалар харажатларининг фоиздаги кўрсаткичи киради.

1-жадвал.

**Саноатнинг қайта ишлаш тармоқларини ИХТТ методологияси бўйича технологик даражасига кўра таснифи**[8]

| Юқори технологияли тармоқлар | Юқори даражадаги ўрта технологияли тармоқлар | Ўрта технологик қуйи даражали тармоқлар | Қуйи технологик тармоқлар |
|---|---|---|---|
| Учувчи ва космик аппаратлар; фармацевтика; офисли, ҳисоблаш ва электрон ҳисоблаш техникаси; радио, телевидение ва коммуникация қурилмалари; тиббий, юқори аниқликдаги оптик қурилмалар | Электр машиналар ва аппаратлар; автотранспорт воситалари, тиркамалар ва ярим тиркамалар; бошқа кимёвий моддалар, дори воситалари; темир йўл техникаси ва транспорт жиҳозлари; машина ва ускуналар. | Нефтни қайта ишлаш маҳсулотлари ва ядро ёқилғиси; каучук ва пластик маҳсулотлар; бошқа металл бўлмаган минерал маҳсулотлар ишлаб чиқариш; қурилиш ва кема ва қайиқларни таъмирлаш; асосий металлар; тугатилган металл буюмлар, машина ва жиҳозлардан бошқа | Ишлаб чиқариш; қайта ишлаш; ёғоч ва ёғоч маҳсулотлари ва целюлоза, қоғоз, қоғоз маҳсулотлари, полиграфия ва нашриёт; озиқ-овқат, ичимликлар ва тамаки; тўқимачилик маҳсулотлари, тери ва пояфзал |

Технологик ҳаёт тарзи ва техно-иқтисодий парадигманинг замонавий тушунчаларининг синоними Г.Менш томонидан таклиф қилинган технологик методнинг таърифидир[9]. Технологик метод остида олим ҳар бир Кондратьев тўлқини учун саноат тузилмасини ташкил этувчи технологик қарорлар мажмуисини тушунган .

Т.Кун иқтисодиётнинг технологик тузилмасидаги ўзгаришларни акс эттирувчи дастлабки элемент сифатида илмий инқилоблар контекстидаги парадигма тушунчасини таклиф қилди. У иқтисодий категория сифатида муомалага киритиб, уни умумэтироф этилган илмий ютуқлар деб белгиладики, маълум вақт мобайнида илмий жамоатчиликка муаммолар ва уларни ҳал этиш йўлларини белгилаш моделини тақдим этади[10] деб таърифланади. Т.Куннинг илмий инқилоблар концепцияси Дж.Дос томонидан тўлдирилди. Дж.Дос иқтисодий ва институционал омиллар таъсирида шаклланадиган технологик

парадигмани ўзига хос технологик троекторияларга амал қилувчи технологик янгиликлар мажмуи сифатида аниқлади[11].

Технологик укладлар ва техник-иқтисодий парадигмаларни ўрганиш билан шуғулланадиган етакчи рус олимлари С.Глазьев ва К.Переслардир. С.Глазьев технологик укладнинг қуйидаги таърифини беради: "бирламчи ресурсларни қазиб олиш, уларни қайта ишлашнинг барча босқичлари ва тегишли халқ истеъмоли турлари талабларига жавоб берадиган якуний маҳсулотлар тўпламини ишлаб чиқариш каби ёпиқ цикл амалга ошириладиган яхлит ва барқарор шаклланиш"[12]. Ҳар икки олим хам илмий ва технологик тараққиёт орқали иқтисодиётнинг таркибий тузилишини ўзгартириш ҳақида фикр келтиради, яъни янги технологиялар ривожланишининг кумулятив таъсири ишлаб чиқариш ривожланишининг янги босқичга олиб чиқади.

К.Переснинг фикрича, техник ва иқтисодий парадигмаларнинг давомийлиги 48 йилдан 68 йилгача ўзгариши мумкин. Таркибий тузилмавий такомиллаштиришлар технологик инқилобга олиб келади ва унинг ўзига хос янги иқтисодий, институционал, техник ва ижтимоий механизмлар билан янги парадигманинг шаклланишига олиб келади. У иқтисодиётнинг технологик тузилмасини такомиллаштиришда тармоқларнинг ролини баҳолаш асосида ташувчи, харакатланувчи ва қабул қилувчи тармоқларини аниқлайди. Ташувчи тармоқлар янги технологик ривожланишнинг флагманлари бўлган тармоқларга тез молашувчан ва янгиликларни тез қабул қилувчи тармоқларни англатади. Ҳаракатлантирувчи тармоқлар янги технологияларнинг тарқалиши учун зарур шарт-шароитларни таъминлайди ва ташувчиларни нисбатан қўллаб-қувватлайди. Ривожланиши муайян ижтимоий, иқтисодий ва институционал ўзгаришлар билан рағбатлантириладиган қабул қилувчи тармоқларнинг роли шундаки, улар технологик инновацияларни оммавий тарқатишга ёрдам беради[13].

Технологик қонуниятларни таҳлил қилишда энг муҳими ишлаб чиқариш укладини глобал трансформациясини технологик инқилоблар призмаси орқали кўриб чиқадиган концепцияси тушунилади. Ҳаётнинг барча соҳаларида янги технологияларнинг жадал кириб келиши ва ривожланиши янги технологик ўтишга ва янги технологик укладларнинг ўзгаришига олиб келади. Иқтисодий тизимлар ва ижтимоий тузилмалардаги туб ўзгаришлар саноат инқилоблари натижасида юзага келади. Иқтисодиётнинг циклик табиати 100-120 йил давом этган тўлқинлар билан ифодаланади: 50-60 йилда мавжуд илмий ва технологик парадигмани тубдан ўзгартирадиган асосий технологиялар, 35 йилда – янги технологияларга асосланган иқтисодий ўсиш, 25 йилда-бу пасайиш яъни технологияларнинг самарадорлигини ошириш имкониятларини чекланиши ва пасайиши. Шундай қилиб, даврнинг тахминан ярми технологик тайёргарлик ва қолган ярми-уни амалга ошириш учун тўғри келади. Саноат инқилобларининг асосий параметрлари ва хусусиятлари қуйидаги жадвалда келтирилган.

2-жадвал.

**Саноат инқилобларининг асосий хусусиятлари**[14]

| Даврлар | Технологиялар ва ресурслар | Ривожланиш омиллари | Оқибатлари | Кооперация шакллари |
|---|---|---|---|---|
| XIV-XVII асрлар. | Ёғоч, торф, дастгоҳлар, денгиз флоти, шамол двигатели, мануфактура, савдо | Меҳнат тақсимоти, янги қитъаларни кашф этиш, халқаро савдо | Меҳнат унумдорли гининг ўсиши, капитал жамғариш | Ишлаб чиқариш, кластер, курилиш |
| XVIII-XIX асрлар | Кўмир, чўян, темир, буғ двигатели, буғ локомотиви, пароход, механик қишлоқ хўжалик машиналари | Янги энергия манбалари, машина меҳнати | Халқаро тараққиёт, фаровонлик-нинг ўсиши | Томонидан ишлаб чиқилган завод |
| XIX-XX | Нефт, пўлат, алюминий, | Энергия узатишда | Глобализа ция, | ТНК, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| асрлар. | пластмасса, электр, конвеер, телефон, телеграф, ички ёнув двигатели, электр двигател, автомобил, самолёт, суний йўлдош | фойдаланишнинг янги манбалари ва шакллари, янги материаллар, транспорт ва коммуникацияни ривожлантириш | жисмоний чегаралар ва ресурсларни қайта тақсимлашга кириш | тадқиқ этиш |
| XX – асрнинг иккинчи қисми ва XXI асрни бошланиши. | Газ, атом энергияси, электроника, ПО, АСУ ТП, телекоммуникация, ТВ, интернет | Янги энергия манбалари, ишлаб чиқариш ва савдони автоматлаштириш, коммуникациялар-ни ривожлантириш | Ижтимоий тараққиёт ва халқаро интеграция | Платформа-ларни программа-лаштириш |
| XXI асрни боши | Интернет, роботлар, сунъий ақл, ўйин технологиялари ва вертуал ҳақиқат, муқобил энергия (қуёш, шамол, термоядроли, ва бошқалар.), композицион материаллар, нанотехнология, биотехнология, тақсимланган молия тизими, космик тадқиқотлар | Ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш жараёнларини интеграциялаш, роботлаштириш ва шу билан бирга бизнес-жараёнларнинг ўзаро боғлиқлиги | Автономия, индувидиал ишлаб чиқариш, горизонтал ҳамкорлик, янги ижтимоийлашув, ердан ташқарига чиқиш | Экотизимлар, моделлаштириш, тармоқни тугатиш жараёнлари, тизимни ишлаб чиқиш, дизайн ва ривожланиш-нинг технология-лари |
| XXI асрнинг 2010 йилдан шу даргача | Мобил интернет, Ақлий меҳнатни автоматлаштириш, Буюмлар интернети, Булутли технологиялар, Блокчейн технологиялар, рақамли платформалар ва тармоқли тузилмалар | Рақамли иқтисодиёт | Иқтисодий ва ижтимоий турмушнинг турли соҳаларида ўзгаришлар-нинг асосий омили интернет нинг мавжудлиги хисобланади. | Блокчейн технология-лар, рақамли платформалар ва тармоқли тузилмалар орқали ишлаб чиқариш алоқалари вертуал амалга ошади |

Иқтисодий тизимнинг эволюциясидаги такомиллаштиришлар унинг таркибий динамикасига боғлиқлигини кўрсатади. Таркибий ўзгаришлар иқтисодиётнинг технологик тузилмасини ривожлантириш шароитида технологик укладларни алмаштириш жараёнида намоён бўлади. Иқтисодиётни таркибий тузилмавий такомиллаштиришларнинг бошланғич нуқтаси бўлиб таркибий ўзгаришларнинг аста-секин миқдорий тўпланиши, унинг таркибий элементлари ўртасидаги зиддиятлардир. Тўпланган зиддиятлар таркибий инқироз даврида янги технологик тартибнинг генезиси сабаб бўлган таркибий уклад механизми орқали ҳал этилади. Аввалги технологик укладнинг якуний босқичида пайдо бўлган технологиялар кейинги технологик укладни туғилишини бошлайди. Аста-секин янги технологиялар ишлаб чиқаришни кенгайтириш ва инвестицияларни жалб этиш манбаига айланади. Иқтисодий ўсиш даври бошланади, иқтисодиётнинг таркибий тузилмаси трансформацияланади: иқтисодиётнинг янги тармоқлари ва соҳалари пайдо бўлади, шунингдек, иқтисодий тизим элементлари ўртасидаги, ўзаро боғлиқликлар ва элементлар ўртасидаги нисбатлар ўзгаради. Натижада нафақат иқтисодиётнинг таркибий тузилмаси, балки жамият ҳаётининг бошқа соҳаларини ҳам ўзгартирувчи янги технологик уклад бўлган рақамли иқтисодиёт

шаклланади.

“Рақамли иқтисодиёт” атамаси Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилигида қўлланилиб келинаётганлигига ҳали унча кўп вақт бўлгани йўқ. Бироқ дунё тенденцияси шуни кўрсатаяптики, барча ривожланган давлатлар уни шакллантиришга аллақачон киришган. Ўзбекистон ҳам мазкур жараёндан четда қолмаслиги керак. Зеро, биз глобаллашув, дунё ҳамжамияти билан интеграцияга киришиш ҳақида гапирарканмиз, бу борада ўзгарган, яъни янгиланган иқтисодиёт равнақи муҳим саналади[15].

Бугунги кунда илғор ривожланган индустриал мамлакатлар иқтисодиётида янги технологияларнинг пайдо бўлиши рақамли иқтисодиётни шаклланиши ва ривожланиши ҳамда таркибий тузилмавий такомиллаштиришларнинг шарт-шароитлари омили ҳисобланади. Рақамли иқтисодиёт деганда, фақатгина Блокчейн (Blockchain) технологиясини ва улардан халқаро молия бозорларида фойдаланиш масалаларини ёки крипто валюталарни тушуниш керак эмаслиги, балки шу билан биргаликда рақамли иқтисодиёт (Digital Economy) деганда, рақамли коммуникациялар, IT ёрдамида олиб бориладиган иқтисодиёт тушунилишини кўрсатади[16].

Рақамли иқтисодиёт – катта ҳажмдаги маълумотларни (BIG DATA) Интернет тармоғи ва мобил технологиялар орқали йиғиш ва рақамли технологиялар ёрдамида қайта ишлаб, янги қонуниятларни ва билимларни яратиш асосида бизнес моделларини самарадорлигини ошириш ва истеъмолчиларни эхтиёжларини сифатли қондириш хисобланади. Рақамли иқтисодиётда замонавий АКТ ва рақамли технологиялар макро, тижорат ва ҳизматлар тузилмалари даражасида бошқарув усуллари самарадорлигини оширади. Рақамли технологиялар давлатнинг назорат, тартибга солиш ва бошқарув функцияларини кескин камайтиради. Блокчейн давлат органлари ҳаражатларини минимал даражага туширади.

«Блокчейн» атамасининг маъноси "Блок" – бу блок, "чейн" – бу занжир. "Блокчейн" – бу блокли занжир демакдир. «Блокчейн» технологиялари (маълумотларнинг тақсимланган реестри технологиялари), «сунъий ақл», суперкомпьютерлар имкониятларидан фойдаланиш, шунингдек, крипто-активлар бўйича фаолият жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўналишларидан бири ҳисобланади. Блоклар – бу криптография шаклида намоён бўлган, тизим ичидаги битим ва шартномалар, трансакция ҳақида маълумотдир. Дастлаб ва ҳозирги кунга қадар блокчейн Bitcoin криптавалютасининг асоси ҳисобланади. Барча блоклар занжирга тизилган бўлиб ўзаро боғланган. Блокчейн технологиясида барча иштирокчилар блокчейн тизимига уланганлиги туфайли барча операциялар субъектлар ўртасида тўғридан – тўғри амалга оширилади.

Хулоса сифатида рақамли иқтисодиёт – мавжудликнинг технорақамли шакли бўлиб, товар ва ҳизматларини ишлаб чиқариш, тақсимлаш, айирбошлаш ва истеъмол қилиш бўйича иқтисодий муносабатлар тизимли йиғиндисидир. Иқтисодий муносабатларнинг технорақамли табиати рақамли иқтисодиётни бошқалардан ажратиб турадиган асосий белгилар ҳисобланади. Шундай қилиб, агар янги иқтисодиёт – постиндустриал иқтисодиёт намоён бўлишининг қонуний шакли бўлса, рақамли иқтисодиёт – янги иқтисодиёт намоён бўлишининг эволюцион шаклларидан бири.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. UNCTAD Handbook of Statistics 2020. New York and Geneva, 2020.-P. 155.
2. Шавкат Мирзиёевнинг Сайловолди дастури. - https://uzlidep.uz/news-of-party/10076
3. Mankiw G. W., Romer D., Weil D. N. A contribution to empirics of economic growth // The Quarterly Journal of Economics. –1999. –№ 2. –P. 407-437.
4. Сухарев О. С. Структурные проблемы экономики России: теоретическое обоснование и практические решения. –М.: Финансы и статистика, 2010. –С. 34.

5. Красильников О. Ю. Структурные сдвиги в экономике. –Саратов: Изд-во СГУ, 2001. –С. 24.

6. Эркаев А.Н.Миллий иқтисодиётда таркибий силжишлар ва ялпи ички маҳсулот таркибий шаклларини ўзгариши. “Иқтисод ва таълим” журнали. –Т.: 2015 йил №1 –Б. 10.

7. Transfer of technology. United nations conference on trade and development. –New York and Geneva, 2001. –The electronic version of the printing publication.: http://unctad.org/en/docs.

8. OECD Directorate for Science, Technology and Industry Economic Analysis and Statistics Division, 2017. – The electronic version of the printing publication. – https://www.oecd.org/sti/ind/.

9. Mensch G. Stalemate in Technology – Innovations Overcame the Depression. –New York: Ballinger Publishing Company, 1979. –274 p.

10. Кун Т. Структура научных революций. –М.: Экономика, 1977. –С. 120.

11. Dosi G. Technological Paradigms and Technological Trajectories // Research Policy. –1982. –№ 11. –P. 147-162.

12. Глазьев С.Ю. Экономика будущего. Есть ли у России шанс? –М.: Книжный мир, 2016. –С. 124.

13. Перес К. Технологические революции и финансовый капитал. –М.: Дело, 2011. –405 с.

14. Ахунова М. Х Миллий иқтисодиётни ривожлантиришда рақамлаштиришнинг аҳамияти. Иқтисодиёни рақамлаштириш шароитида иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар: муаммолар, ечимлар ва истиқболлар. Республика илмий-амалий онлайн конференция материаллари 2021-йил 28-май. / Фарғона, "AL-FERGANUS" нашриёти. – 2021. –Б.17.

15. Жумаев Н.Х. Рақамли иқтисодиёт нега керак ва у нима беради:eview.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛМАСИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШУВИ

**Ахмедов Хасанжон Мухамадович**

*мустақил тадқиқотчи*
*Тошкент давлат*
*иқтисодиёт университети*
*E-mail: x.axmedov@xb.uz.*
*ORCID:0009-0004-0732-1293*

***Аннотация.*** *мақолада миллий иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмасининг моҳияти, унинг трансформациясига таъсир этувчи экзоген ва эндоген омиллар хамда инновацион кластер ва давлат-хусусий шериклиги (ДХШ) иқтисодиётнинг институтционал тузилмасини такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари сифатида илмий асосланган.*

***Калит сўзлар:*** *институтционал тузилма, трансформация, экзоген ва эндоген омиллар, инновацион кластерлар, технологик ривожланиш, рақамли иқтисодиёт, инновацион тизим, рейтинг, индекс, давлат-хусусий шериклиги.*

# ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ СТРУКТУРНАЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ

**Ахмедов Хасанжон Мухамадович**

*независимый исследователь*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: x.axmedov@xb.uz.*
*ORCID:0009-0004-0732-1293*

***Аннотация.*** *в статье научно обоснованы сущность институциональной структурной национальной экономики, экзогенные и эндогенные факторы, влияющие на её трансформацию, а также инновационные кластеры и государственно-частное партнёрство (ГЧП) как приоритетные направления совершенствования институциональной структуры экономики.*

***Ключевые слова:*** *институциональная структура, трансформация, экзогенные и эндогенные факторы, инновационные кластеры, технологическое развитие, цифровая экономика, инновационная система, рейтинг, индекс, государственно-частное партнёрство.*

# INSTITUTIONAL STRUCTURE OF THE NATIONAL ECONOMY AND ITS IMPROVEMENT

**Akhmedov Khasanjon Mukhamadovich**

*Independent Researcher*
*Tashkent State the University of Economics*
*E-mail: x.axmedov@xb.uz.*
*ORCID:0009-0004-0732-1293*

***Abstract.*** *The article provides a scientific substantiation of the essence of the institutional structural organization of the national economy, the exogenous and endogenous factors influencing its transformation, as well as innovative clusters and public-private partnership (PPP) as priority directions for improving the institutional structure of the economy.*

***Keywords:*** *institutional structure, transformation, exogenous and endogenous factors, innovative clusters, technological development, digital economy, innovation system, rating, index, public-private partnership.*

**Кириш**

Мамлакатимизда 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодий барқарорликни таъминлаш ва аҳоли фаровонлигини оширишга катта таъсир кўрсатадиган янги технологик уклад талабларига мос келувчи иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмасини шакллантириш, сунъий интеллект ёрдамида ресурсларни оқилона тақсимлаш ва трансакцион харажатларни пасайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “Маъмурий ислоҳотларнинг иккинчи босқичи сифатида келгуси йилда ҳудудлардаги бошқарув тизими ҳам ислоҳ қилинади. Барча маъмурий ислоҳотлар доирасидаги янги ташаббуслар Конституциямизда албатта белгилаб қўйилиши лозим [1]. Миллий иқтисодиётда янги технологик укладнинг такрор ишлаб чиқаришни институтционал таркибий тузилмасини шакллантириш, юқори технологияли ишлаб чиқаришни ривожлантириш, билимларнинг жадал равишда инновацион маҳсулотга айланишини рағбатлантириш, мавжуд ресурсларни қайта тақсимлашга имкон берувчи ваколатли молиялаштириш механизмини яратиш зарурати вужудга келмоқда. Бунинг учун рақамли иқтисодиёт инфратузилмаси бўлган технопарк, тадқиқот ва муҳандислик марказлари асосида инновацион кластерларини ривожлантириш бўйича илмий изланишларни янада чуқурлаштириш мақсадга мувофиқ. Бу эса миллий иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмасини такомиллаштиришга бағишланган мазкур тадқиқот мавзусининг долзарблигидан далолат беради.

**Адабиётлар шарҳи**

Иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмаси фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини ва уни трансформация қилиш механизмлари таъсирини тадқиқ этган хорижлик олимларга Т.Кун, К.Перес, М.С.Роко, В.С.Бейнбридж, Т.Жотсана, Э.Себастиан, Д.Белл, Й.Шумпетер, С.Кларк, П.Арнолд, Г.Доси кабиларни келтириш мумкин.

Россиялик олимлардан Василевский Э., Иноземцев В.Л., Климович М.А., Красильников О.Ю., Кондратьев Н.Д., Буторина О.В., Кравец А.В., Коцюбинский В.А., Татаркин А.И., Романова О.А., Сухарев О.С. ва бошқалар ушбу мавзуга бағишланган илмий-тадқиқот ишларини олиб борган.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан С.С.Гулямов, А.В.Вахабов, А.В.Ваҳабов, А.Ўлмасов, С.В.Чепель, Х.П.Абулқосимов, Т.С.Расулов, Т.Т.Жўраев, А.А.Маматов, Д.Х.Хасанова ва бошқаларнинг илмий тадқиқотларида иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмасини такомиллаштиришнинг назарий жиҳатлари, саноат инқилоби натижасида шаклланаётган янги технологик укладнинг такрор ишлаб чиқариш тузилмасини шакллантириш масалалари бўйича атрофлича тадқиқотлар олиб борилган.

Д.Норт ва Л.Девисларнинг фикрига кўра, институционал муҳит – бу асосий сиёсий, ижтимоий ва ҳуқуқий қоидалар мажмуи бўлиб улар ишлаб чиқариш, айрбошлаш ва тақсимот учун баъзис яратади [2]. Дж.Р. Коммонс институтларни тарихий ривожланишидаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларни қўллаб-қувватлаб унга кўра "эволюцион" тушунчаси "институционал" тушунчаси билан мазмун ва маъноси бир хил бўлади деб таъкидлайди [3].

Рус олими О.С.Сухаревнинг фикрига кўра, "мавжуд технологик асос, минтақавий эҳтиёжлар, мавжуд ресурслар ва эришилган меҳнат унумдорлиги даражасига мувофиқ такрор ишлаб чиқариш, тарқатиш ва алмашиш механизмлари таъсири остида юзага келадиган ўзаро боғлиқ нисбатлардаги ўзгаришларнинг мураккаб тизими [4]. О.Ю.Красильников нуқтаи назаридан, "таркибий ўзгариш-макроиқтисодий тизимнинг

таққосланадиган элементлари ўртасидаги муносабатларнинг сифат жиҳатидан ўзгариши, уларнинг миқдорий хусусиятларининг нисбати нотекис динамикаси [5] деб баҳо беради.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан профессор Маматов А.А., Жўраев Т.Т. “Индустриал жамиятдан постиндустриал жамиятга ўтиш, жамият ҳаётида туб ўзгаришлар билан боғлиқ бўлиб, унда инновацияларни кенг яратиш ва жорий этишга асосланган янги иқтисодий тизим моделига ўтиш билан амалга ошмоқда. Табиийки, ушбу даврда кластер моделида чуқур ўзгаришлар юз беради” [6]. Б.Маъмуровнинг фикрича, “Рақамли иқтисодиёт – иқтисодиётнинг таркибий қисмлари сифатида сунъий ақл(онг)дан фойдаланиш, иш жараёнларини роботлаштириш, ишлаб чиқариш жараёнида турмуш меҳнат харажатларини камайтириш, махсус компьютер дастурлари ёрдамида иқтисодий тизимларни моделлаштириш ва дастурий қобилиятини оширишдир” [7] деб хулоса қиладилар .

**Тадқиқот методологияси**

Мақолада диалектик, тизимли, интеграл ва синергетик ёндашувлар, иқтисодий, мантиқий, илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, қиёслаш, умумлаштириш, гуруҳлаш ва жадвал усулларидан фойдаланилади

**Таҳлил ва натижалар**

Жаҳон саноатида технологияларнинг ҳаётий циклини қисқаришида намоён бўладиган илмий ва технологик ривожланишнинг глобал тенденциялари, илмий билимларни жамғариш суръати, юқори фан сиғимли технологияларнинг тарқалиш тамойиллари хамда институционал муҳитдаги ўзгаришлар хом-ашё экспорт моделига асосланган иқтисодиётнинг институционал таркибий тузилмасини такомиллаштиришни долзарб қилиб кун тартибига қўймоқда.

Иқтисодий адабиётларда институционал муҳит ва институционал тузилма тушунчалари кўпинча бир хил деб қаралади. Ушбу категориялар ўртасидаги муносабатлар О.Уилямсон томонидан уч даражали схема доирасида аниқланди, унга кўра институционал тузилма шахслар (биринчи даража), институционал битимлар (иккинчи даража) ва институционал муҳит (учинчи даража) ўртасидаги муносабатлардир[8] деб баҳолади.

Рус олимларининг фикрича, институционал муҳитни фақат мулкий ҳуқуқлар нуқтаи назаридан кўриб чиқиш методологик жиҳатдан нотўғри бўлиб, у иқтисодий фаолият шарт-шароитларини белгиловчи расмий ва норасмий институтлар мажмуасидир. В.Вольчик институционал тузилмани иқтисодий хулқ-атвор матрицаларини яратадиган, хўжалик фаолиятини мувофиқлаштиришнинг муайян тизими доирасида шаклланадиган хўжалик юритувчи субъектлар учун чеклашларни белгилайдиган муайян буюртма қилинган институтлар мажмуи [9] деб белгилайди.

Технологик ривожланиш жараёнлари ва институционал муҳитни трансформацияси ўзаро боғлиқ бўлиб: илмий ва технологик ривожланишнинг юқори суръатлари, тегишли институционал шарт-шароитларни таълаб қилади. Шу билан бирга, янги технологик укладни шакллантириш воситаси вазифасини бажарувчи институционал тузилма айни пайтда унинг элементи хамдир. Е.Ясин томонидан таъкидланганидек "агар институционал тизим яхши йўлга қўйилган ва бозор муносабатларини (мулк ҳуқуқи, рақобат, контрактни ҳимоя қилиш) муваффақиятли қўллаб-қувватласа, технологик модернизация хеч қандай тўсиқларсиз амалга ошади, интенсив инновациялар оқими шаклланади, иқтисодиёт жонланади [10].

Янги иқтисодий муносабатлар тизимида институтционал тузилманинг трансформация жараёнини Ўзбекистонлик олимлар томонидан ҳам кенг тадқиқ этилган. Жумладан, Д.Тожибоеванинг фикрича, “Рақамли иқтисодиёт фақатгина инсоннинг интеллектуал салоҳияти туфайлигина эмас, балки институционал муҳит яратилиши, бу муҳитнинг бизнес ва истеъмолчилар амалиёти, иқтисодий агентларнинг ахборот ва

These models reflect different approaches to managing human resources and organizational priorities. In the context of digital transformation, a gradual shift from function-oriented to person-oriented and digitally-oriented cultural models can be observed, highlighting the increasing importance of flexibility, innovation, and employee engagement.

The formation and development of organizational culture cannot be adequately understood without considering its specific characteristics, which reflect the unique features of organizational functioning, value orientations, management structure, and the influence of the external environment.

**Figure 3.**

**General Characteristics of Organizational Culture.**

| **Universal nature of organizational culture** |
|---|
| Organizational culture is an integral part of the enterprise and encompasses all processes occurring within it. |
| **Long-term formation of organizational culture** |
| Organizational culture (both formal and informal) begins to develop from the moment the enterprise is established and continues to evolve throughout its entire life cycle. |
| **Regulated nature of organizational culture** |
| The foundation of organizational culture consists of values, traditions, and norms of behavior formed by members of the organization over time, formally approved by management and often institutionalized within organizational documents. |
| **Continuity of organizational culture development** |
| Organizational culture is in a constant state of development, which must be taken into account in managerial decision-making processes. |
| **Goal-oriented nature of organizational culture** |
| Organizational culture is aimed at solving specific tasks and achieving clearly defined organizational goals. |

The contemporary paradigm of industrial enterprise development is transforming the role of organizational culture as a key factor in enhancing operational efficiency and long-term performance. In this context, organizational culture is no longer viewed merely as a supporting element but as a strategic resource that determines the success of organizational transformation. In particular, the principles of post-industrial development are becoming increasingly prominent, including the advancement of the digital economy. These principles emphasize knowledge-based value creation, innovation, flexibility, and the integration of digital technologies into all aspects of enterprise activity. As a result, organizational culture must evolve to support these transformations by fostering adaptability, continuous learning, and digital competencies among employees.




**Figure 4. The Role of Organizational Culture in the Management System of Industrial Enterprises**

**Conclusion**

The study confirms that organizational culture plays a critical role in ensuring the success of digital transformation in industrial enterprises. The transition toward flexible, innovation-oriented, and digitally-driven cultural models represents a necessary condition for improving organizational adaptability and competitiveness.

The results demonstrate that the development of digital competencies, effective leadership, and internal communication systems are key factors influencing cultural transformation. At the same time, the integration of organizational culture into strategic management processes remains an important challenge.

The findings of this study may be used in the development of organizational strategies, human resource management systems, and digital transformation programs. Future research may focus on empirical validation of the proposed approaches and the assessment of digital culture maturity in industrial enterprises.

**References**

1. Vial, G. (2019). Understanding digital transformation: A review and a research agenda. Journal of Strategic Information Systems, 28(2), 118–144.

2. Verhoef, P. C., Broekhuizen, T., Bart, Y., Bhattacharya, A., Dong, J. Q., Fabian, N., & Haenlein, M. (2021). Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda. Journal of Business Research, 122, 889–901.

3. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). How smart, connected products are transforming competition. Harvard Business Review, 92(11), 64–88.

4. Frank, A. G., Dalenogare, L. S., & Ayala, N. F. (2019). Industry 4.0 technologies: Implementation patterns in manufacturing companies. International Journal of Production Economics, 210, 15–26.

5. Myzrova, O. (2023). Digital transformation of industrial enterprises in Russia: Trends and challenges.

6. Schein, E. H. (2010). Organizational Culture and Leadership (4th ed.). San Francisco: Jossey-Bass.

7. Hofstede, G., Hofstede, G. J., & Minkov, M. (2010). Cultures and Organizations: Software of the Mind. New York: McGraw-Hill.

8. Cameron, K. S., & Quinn, R. E. (2011). Diagnosing and Changing Organizational Culture. San Francisco: Jossey-Bass.

9. Kane, G. C., Palmer, D., Phillips, A. N., Kiron, D., & Buckley, N. (2015). Strategy, not technology, drives digital transformation. MIT Sloan Management Review.

10. Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation. Boston: Harvard Business Review Press.

11. Sebastian, I. M., Ross, J. W., Beath, C. M., Mocker, M., Moloney, K., & Fonstad, N. O. (2017). How big old companies navigate digital transformation. MIS Quarterly Executive, 16(3).

12. Groshev, I. (2024). Organizational culture in the digital era: Transformation mechanisms and management tools.

13. Groshev, I.V. (2020). Transformation of organizational culture in the digital economy: theory and methodology. Doctoral dissertation in Economics. Moscow. 356 p. 14. Mikhalev, A.A. (2021). Development of organizational culture in industrial enterprises under digitalization. Candidate dissertation in Economics. Saint Petersburg. 182 p.

14.Baranov, A.V. (2019). Management of organizational culture in the context of innovative development. Candidate dissertation in Economics. Moscow. 210 p.

15.Ivanova, T.Yu. (2018). Formation and development of organizational culture in the system of strategic management. Candidate dissertation in Economics. Moscow. 175 p.

16.Groshev, I.V. (2016). Organizational culture. Moscow: UNITI-DANA, pp. 23–26.

17.Prigozhin, A.I. (2007). Methods of organizational development. Moscow: Delo,

18.Spivak, V.A. (2001). Organizational culture. Saint Petersburg: Piter.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA FIRIBGARLIKNI ANIQLASH VA OLDINI OLISHDA ICHKI NAZORAT TIZIMINING O‘RNI

**Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li**
*xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi mudiri, PhD*
*Qo‘qon universiteti*
*E-mail: e.u.mexmonaliyev@kokanduni.uz*
*ORCID: 0009-0007-7561-5391*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimining ahamiyati kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ichki nazorat tizimining asosiy komponentlari, xususan, nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat faoliyatlari, axborot-kommunikatsiya hamda monitoring elementlarining o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. Shuningdek, firibgarlikning yuzaga kelish omillari “firibgarlik uchburchagi” nazariyasi asosida tahlil qilinib, ichki nazorat tizimining ayniqsa “imkoniyat” omilini kamaytirishdagi roli asoslab berildi. Amaliy misollar orqali ichki nazorat tizimini takomillashtirish aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi isbotlandi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ichki nazorat tizimi, firibgarlik, ichki audit, risklarni boshqarish, COSO modeli, moliyaviy xavfsizlik, nazorat mexanizmlari, korporativ boshqaruv.*

# РОЛЬ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ В ВЫЯВЛЕНИИ И ПРЕДОТВРАЩЕНИИ МОШЕННИЧЕСТВА В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

**Мехмоналиев Улугбек Эркинжон угли**
*PhD, заведующий кафедрой международный туризм и экономика*
*Кокандский университет*
*E-mail: e.u.mexmonaliyev@kokanduni.uz*
*ORCID: 0009-0007-7561-5391*

***Аннотация.*** *В данной статье на основе комплексного подхода анализируется значение системы внутреннего контроля в выявлении и предотвращении мошенничества на предприятиях. В процессе исследования изучена взаимосвязь основных компонентов системы внутреннего контроля, в частности, контрольной среды, оценки рисков, контрольной деятельности, информационно-коммуникационных и мониторинговых элементов. Также были проанализированы факторы возникновения мошенничества на основе теории “треугольника мошенничества“ и обоснована роль системы внутреннего контроля, особенно в снижении фактора “возможности.“ На практических примерах доказано, что совершенствование системы внутреннего контроля служит снижению финансовых потерь на предприятиях и повышению эффективности управления.*

***Ключевые слова:*** *система внутреннего контроля, мошенничество, внутренний аудит, управление рисками, модель COSO, финансовая безопасность, механизмы контроля, корпоративное управление.*

# THE ROLE OF THE INTERNAL CONTROL SYSTEM IN IDENTIFYING AND PREVENTING FRAUD IN JOINT-STOCK COMPANIES

**Mekhmonaliev Ulugbek Erkinjon ugli**
*Head of the Department of International Tourism and Economics, PhD*
*Kokand University*

*E-mail: e.u.mexmonaliyev@kokanduni.uz*
*ORCID: 0009-0007-7561-5391*

***Abstract.*** *This article analyzes the importance of the internal control system in identifying and preventing fraud in enterprises based on a comprehensive approach. In the course of the research, the main components of the internal control system were studied, in particular, the control environment, risk assessment, control activities, information and communication, and the interrelationship of monitoring elements. Also, the factors of fraud occurrence were analyzed based on the theory of the “fraud triangle,“ and the role of the internal control system in reducing the “opportunity” factor was substantiated. Through practical examples, it has been proven that improving the internal control system serves to reduce financial losses in enterprises and increase management efficiency.*

***Keywords:*** *internal control system, fraud, internal audit, risk management, COSO model, financial security, control mechanisms, corporate governance.*

**Kirish**

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, firibgarlik holatlarining ko‘payishi, ularning yashirin shakllarda namoyon bo‘lishi va korxona faoliyatiga sezilarli zarar yetkazishi ichki nazorat tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimining o‘rni alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va nazorat mexanizmlarini takomillashtirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’kidlab kelmoqda. Prezident ta’kidlaganidek, “korrupsiya va firibgarlik har qanday islohotlarning samaradorligiga jiddiy to‘siq bo‘ladi” [1]. Shu bois bu illatlarga qarshi tizimli yondashuvni yo‘lga qo‘yish zarur.

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, firibgarlik nafaqat alohida korxonalarning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki butun iqtisodiyot barqarorligiga ham tahdid soladi. Firibgarlik natijasida moliyaviy yo‘qotishlar, ishonchning pasayishi, investitsion muhitning yomonlashuvi kabi salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Shu sababli, firibgarlikni erta aniqlash va uning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlari aksiyadorlik jamiyatlarida ichki nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi [2, 3, 4]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash, aktivlarni himoya qilish, qonunbuzarliklarning oldini olish va aniqlashga qaratilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish zarurligi alohida qayd etilgan. Shu bilan birga, xalqaro standartlar, jumladan COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) modeli asosida ichki nazorat tizimini tashkil etish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [5].

Ichki nazorat tizimi — bu korxona faoliyatining samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash va amaldagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishga qaratilgan kompleks jarayondir. Ushbu tizimning asosiy komponentlariga nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat faoliyatlari, axborot va kommunikatsiya hamda monitoring kiradi [6]. Aynan ushbu elementlarning uyg‘unligi firibgarlikni aniqlash va oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda ko‘plab aksiyadorlik jamiyatlarida ichki nazorat tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xodimlar malakasining pastligi, zamonaviy texnologiyalardan yetarli foydalanilmasligi kabi muammolar mavjud. Natijada, firibgarlik holatlari ko‘pincha kech aniqlanadi yoki umuman aniqlanmay qoladi. Bu esa korxona moliyaviy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va uning bozordagi raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalani ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliy yechimlar ishlab chiqish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, shaffoflikni oshirish hamda samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimining o‘rni so‘nggi yillarda iqtisodiy fanlar doirasida eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ichki nazorat tizimini nafaqat nazorat vositasi, balki kompleks boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Xorijiy olimlar tadqiqotlarida ichki nazorat tizimining nazariy va metodologik asoslari keng yoritilgan. Jumladan, Nor Hafizah Abdul Rahman va hammualliflar tomonidan olib borilgan tizimli adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, “samarali ichki nazorat tizimi biznes risklarini kamaytiradi va firibgarlik yuzaga kelish ehtimolini sezilarli darajada pasaytiradi” [7]. Ushbu yondashuv ichki nazoratni korxona risklarini boshqarishning asosiy institutsional vositasi sifatida baholaydi. Tadqiqotda ayniqsa COSO modelining besh komponenti o‘zaro integratsiyalashgan holda firibgarlikni oldini olishda samarali tizimni shakllantirishi ta’kidlanadi.

Musyoki K.M. tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ichki nazorat tizimi tashkilot faoliyatining ajralmas elementi sifatida ko‘rib chiqilib, muallif quyidagicha fikr bildiradi: “ichki nazorat tizimi tashkilot aktivlarini himoya qiladi, moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlaydi hamda firibgarlik va xatolarni aniqlash va oldini olishga xizmat qiladi” [8]. Muallif ichki nazoratni preventiv, aniqlovchi va tuzatuvchi mexanizmlar majmui sifatida talqin qilib, ayniqsa preventiv nazorat choralarining ustuvor ahamiyatini asoslaydi.

Efremova E.I. va hammualliflar ichki nazorat tizimini firibgarlikka qarshi kurashning muhim elementi sifatida ko‘rib chiqib, quyidagicha ta’kidlaydi: “ichki nazorat mexanizmlari firibgarlik, xatolar va qonunbuzarliklarning oldini olish, shuningdek ularni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi” [9]. Ushbu tadqiqotda ichki nazorat tizimining asosiy elementlari – nazorat muhiti, risklarni baholash va axborot-kommunikatsiya tizimlari firibgarlikni aniqlashda hal qiluvchi omillar sifatida baholanadi.

Radjabov R.Sh. ilmiy ishida korporativ firibgarlikni “firibgarlik uchburchagi” konsepsiyasi orqali tahlil qilib, ichki nazorat tizimining ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: “ichki nazorat tizimi iqtisodiy subyekt faoliyatining qonuniyligi, samaradorligi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi hamda firibgarlikni aniqlash va oldini olishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi” [10]. Ushbu yondashuv ichki nazoratni firibgarlik yuzaga kelish omillarini (imkoniyat, bosim, oqlash) kamaytiruvchi mexanizm sifatida ko‘rsatadi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham mazkur muammo keng o‘rganilgan. Xususan, Yakubov X.I. auditni firibgarlikni aniqlashning muhim vositasi sifatida baholab, “audit va ichki nazorat tizimi o‘zaro uyg‘un holda korxonada ishonchli axborot bazasini shakllantiradi va boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi” deya ta’kidlaydi [11]. Bu yondashuv audit va ichki nazorat tizimining o‘zaro integratsiyasini muhim deb hisoblaydi.

Esanov O.M. va Berdiqulova M. tadqiqotlarida auditorlik faoliyatining ichki nazorat tizimiga ta’siri o‘rganilib, quyidagicha xulosa qilinadi: “audit faoliyati ichki nazorat tizimini mustahkamlash orqali moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlaydi va firibgarlik xavfini kamaytiradi” [12]. Mualliflar auditorlik tekshiruvlarini korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatadi.

Ziyodullayev L. ilmiy ishlarida ichki audit tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish zarurligini asoslab, shunday yozadi: “riskka asoslangan audit, raqamli texnologiyalar va ma’lumotlar tahlili firibgarlikni erta aniqlash imkonini beradi” [13]. Bundan tashqari, muallif ichki auditning strategik ahamiyatini ta’kidlab, “ichki audit tizimini strategik boshqaruv instrumenti sifatida rivojlantirish firibgarlik xavfini samarali boshqarishga xizmat qiladi” deb qayd etadi [14].

Kuzibayev U.M. esa ichki audit xizmatining tashkiliy jihatlarini tahlil qilib, “ichki audit tizimi rahbariyatni ishonchli va shaffof iqtisodiy axborot bilan ta’minlab, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi” deya ta’kidlaydi [15]. Ushbu fikr ichki nazorat tizimining axborot funksiyasini alohida ajratib ko‘rsatadi.

Boboshko V.I. ichki nazorat va audit tizimini korxona iqtisodiy xavfsizligining muhim elementi sifatida baholab, quyidagicha fikr bildiradi: “ichki nazorat tizimi firibgarlik, xatolar va boshqa iqtisodiy tahdidlarni aniqlash va oldini olishning asosiy vositasi hisoblanadi” [16]. Muallif ichki nazoratni korxonaning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi mexanizm sifatida talqin qiladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari ichki nazorat tizimining aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikka qarshi kurashishdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Xususan, ichki nazorat tizimi nafaqat xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligi va to‘g‘riligini ta’minlashga xizmat qiladi, balki u korxona faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy va boshqaruv xatarlarini oldindan aniqlash hamda ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga qaratilgan kompleks boshqaruv instrumenti sifatida shakllanadi.

Shu bilan birga, ichki nazorat tizimi orqali moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi, axborotlarning ishonchliligi va shaffofligi ta’minlanib, bu esa o‘z navbatida korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, samarali tashkil etilgan ichki nazorat tizimi korxonaning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda esa ichki nazorat tizimini takomillashtirish uning raqamli transformatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, riskka asoslangan yondashuvlar, ma’lumotlar tahlili (data analytics), sun’iy intellekt texnologiyalari hamda avtomatlashtirilgan audit mexanizmlarini joriy etish orqali firibgarlikni erta aniqlash va oldini olish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Shu bois, ichki nazorat tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimining o‘rnini chuqur o‘rganish maqsadida kompleks yondashuv asosida ilmiy-uslubiy metodlar majmui qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlillar uyg‘unligiga asoslangan bo‘lib, u ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash hamda uning firibgarlikka ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy adabiyotlar, xalqaro standartlar, xususan COSO modeli, shuningdek ichki audit va nazorat tizimiga oid ilmiy ishlanmalar tashkil etdi. Ushbu manbalar asosida ichki nazorat tizimining tarkibiy elementlari, funksiyalari va firibgarlikni kamaytirishdagi roli tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya usullari orqali mavjud nazariy qarashlar umumlashtirildi hamda mualliflik yondashuvlari shakllantirildi.

**Tahlil va natijalar**

Aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimining o‘rni bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur tizim nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki korxonaning umumiy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlovchi strategik boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyati murakkablashib borayotganligi, raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotganligi va operatsiyalar

hajmi ortib borayotganligi sababli firibgarlik xavfi ham oshib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, ichki nazorat tizimi firibgarlikni oldini olish, aniqlash va uning oqibatlarini minimallashtirishda asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ichki nazorat tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi firibgarlik sodir bo‘lishining eng muhim omillaridan biridir. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, nazorat mexanizmlarining sustligi xodimlarga noqonuniy harakatlarni amalga oshirish uchun “imkoniyat oynasi”ni yaratadi [17]. Aynan shu sababli ichki nazorat tizimi firibgarlikni kamaytirishda uch asosiy yo‘nalishda faoliyat yuritadi: oldini olish, aniqlash va tuzatish. Bu uch bosqichli yondashuv firibgarlik jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi va uni tizimli ravishda boshqarish imkonini beradi.

Firibgarlikning kelib chiqish sabablari chuqur tahlil qilinganda, ularning aksariyati “firibgarlik uchburchagi” nazariyasi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, firibgarlik uchta asosiy omil – bosim, imkoniyat va oqlash natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, imkoniyat omili ichki nazorat tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, nazorat sust bo‘lgan sharoitda firibgarlik xavfi keskin ortadi. Demak, ichki nazorat tizimini takomillashtirish orqali aynan shu omilni kamaytirish mumkin.

Quyidagi jadvalda firibgarlik omillari va ichki nazorat tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik tizimli tarzda ifodalangan.

1-jadval.

**Firibgarlik omillari va ichki nazorat tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik**[81]

| Omillar | Tavsifi | Ichki nazorat orqali ta’sir mexanizmi |
|---|---|---|
| Bosim | Moliyaviy yoki ijtimoiy bosim | Rag‘batlantirish va monitoring tizimini yaxshilash |
| Imkoniyat | Nazoratning sustligi | Ichki nazorat va auditni kuchaytirish |
| Oqlash | Noqonuniy harakatni oqlash | Korporativ madaniyat va etikani rivojlantirish |

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, ichki nazorat tizimi ayniqsa “imkoniyat” omilini kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ichki nazorat tizimi samaradorligi ko‘p jihatdan uning tarkibiy elementlariga bog‘liq. COSO modeli asosida ushbu tizim quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi: nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat faoliyatlari, axborot va kommunikatsiya hamda monitoring. Ushbu elementlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning har biri samarali ishlamaganda butun tizimning natijadorligi pasayadi. Quyida ichki nazorat tizimining ishlash mexanizmi sxematik tarzda ifodalangan.

1-sxema.

**Ichki nazorat tizimining umumiy mexanizmi**[82]




Mazkur sxema ichki nazorat tizimining uzluksiz jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Har bir bosqich firibgarlik xavfini kamaytirishga xizmat qiladi va tizimning samaradorligini oshiradi.

Ichki audit tizimi esa ichki nazoratning muhim tarkibiy qismi sifatida uning

[81] Jadval muallif tomonidan tayyorlandi
[82] Sxema muallif tomonidan tayyorlandi

samaradorligini baholash va takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki audit tizimi mavjud bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy firibgarlik holatlari sezilarli darajada kamayadi, chunki audit jarayonida aniqlangan kamchiliklar tezkor bartaraf etiladi va boshqaruv qarorlarining sifati oshadi [11]. Bundan tashqari, auditorlik faoliyati moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlab, investitsion jozibadorlikni oshiradi [12].

Zamonaviy sharoitda ichki nazorat tizimi an’anaviy shakldan chiqib, raqamli texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Xususan, riskga asoslangan audit, ma’lumotlar tahlili (data analytics) va sun’iy intellektdan foydalanish firibgarlikni erta aniqlash imkonini bermoqda [18]. Masalan, katta hajmdagi moliyaviy operatsiyalarni avtomatik tahlil qilish orqali shubhali tranzaksiyalarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

Amaliy jihatdan ushbu nazariy yondashuvlarni tasdiqlash maqsadida shartli “X” korxonasi misolida tahlil o‘tkazildi. Dastlab korxonada ichki nazorat tizimi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lib, buxgalteriya hisobotlarida xatoliklar, moddiy boyliklarning yo‘qolishi va xodimlar tomonidan vakolatdan noto‘g‘ri foydalanish holatlari kuzatilgan. Xususan, ayrim xodimlar tomonidan soxta hujjatlar asosida xarajatlar rasmiylashtirilgani aniqlangan.

Shundan so‘ng korxonada quyidagi choralar amalga oshirildi:

– vakolatlarning aniq taqsimlanishi (segregation of duties);
– ichki audit bo‘limi tashkil etilishi;
– elektron nazorat tizimining joriy etilishi;
– doimiy monitoring va tekshiruvlar yo‘lga qo‘yilishi.

Natijada qisqa muddat ichida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

2-jadval.

**Ichki nazorat tizimi joriy etilishining samaradorligi[83]**

| Ko‘rsatkichlar | Dastlabki holat | Takomillashtirilgandan so‘ng |
|---|---|---|
| Firibgarlik holatlari | 12 ta | 3 ta |
| Moliyaviy yo‘qotishlar | Yuqori | 60–70% ga kamaygan |
| Hisobot ishonchliligi | Past | Yuqori |
| Nazorat darajasi | Sust | Kuchli |

Mazkur natijalar ichki nazorat tizimining firibgarlikka qarshi kurashdagi samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, ichki nazorat tizimi korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. U orqali resurslardan samarali foydalanish, aktivlarni himoya qilish va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimi mavjud bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida risklarni boshqarish darajasi yuqori bo‘lib, bu esa ularning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Shunga qaramay, amaliyotda ichki nazorat tizimini joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim aksiyadorlik jamiyatlarida nazorat tizimi faqat rasmiy hujjatlar darajasida qolib ketmoqda, xodimlarning malakasi yetarli emasligi va zamonaviy texnologiyalar yetarlicha joriy etilmaganligi kuzatiladi. Bu esa tizim samaradorligini pasaytiradi va firibgarlik xavfini saqlab qoladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ichki nazorat tizimi aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda kompleks va samarali mexanizm hisoblanadi. U nafaqat firibgarlikni aniqlash, balki uning ildiz sabablarini bartaraf etishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan ichki nazorat tizimi kelajakda firibgarlikka qarshi kurashning eng muhim vositalaridan biri bo‘lib qoladi.

**Xulosa**

Yuqorida olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan

[83] Jadval muallif tomonidan tayyorlandi

kompleks boshqaruv instrumenti hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ichki nazorat tizimi samarali tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlik holatlari sezilarli darajada kamayadi, moliyaviy yo‘qotishlar qisqaradi hamda hisobotlarning ishonchliligi oshadi. Ayniqsa, COSO modeli asosida shakllantirilgan nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat faoliyatlari, axborot-kommunikatsiya va monitoring elementlarining o‘zaro uyg‘unligi firibgarlik xavfini minimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, firibgarlikning asosiy omillaridan biri bo‘lgan “imkoniyat” omilini kamaytirishda ichki nazorat tizimi hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda keltirilgan amaliy misollar ichki nazorat tizimini takomillashtirish orqali firibgarlik holatlarini keskin kamaytirish mumkinligini tasdiqladi. Shu bilan birga, ichki audit xizmatining faoliyati, raqamli texnologiyalar va ma’lumotlar tahlili vositalarining joriy etilishi firibgarlikni erta aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi.

O‘rganilgan holatlarni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida ichki nazorat tizimini riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etish zarur. Bunda har bir biznes jarayon bo‘yicha potensial firibgarlik xavflari aniqlanib, ularga mos nazorat mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim. Bu esa resurslardan samarali foydalanish va nazorat tizimining aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ichki audit tizimini mustahkamlash va uni strategik boshqaruv instrumentiga aylantirish maqsadga muvofiq. Ichki auditorlar nafaqat nazorat qiluvchi, balki maslahat beruvchi va xavflarni boshqarishda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt, “big data” tahlili va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish orqali ichki nazorat tizimini modernizatsiya qilish zarur. Bu firibgarlik operatsiyalarini real vaqt rejimida aniqlash va tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni rivojlantirish, xodimlar o‘rtasida halollik, shaffoflik va mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki inson omili firibgarlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi va uni kamaytirish faqat nazorat bilan emas, balki madaniy muhit orqali ham amalga oshiriladi.

Beshinchidan, ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirish uchun xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish, ularni zamonaviy audit va nazorat usullari bilan tanishtirish zarur. Bu esa nazorat mexanizmlarining amaliy samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlarida ichki nazorat tizimini kompleks ravishda takomillashtirish, uni raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirish firibgarlikni oldini olish va aniqlashning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan islohotlar korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirishga oid qarorlari va nutqlari to‘plami. – Toshkent, 2017–2024. https://president.uz/uz

2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida (yangi tahriri)” Qonuni, 13.04.2016 yildagi O‘RQ-404-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida” Qonuni, 25.02.2021 yildagi O‘RQ-677-son.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonuni, 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419-son.

5. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Internal Control – Integrated Framework. – USA, 2013.

6. Wells, J. T. (2017). Corporate fraud handbook: Prevention and detection. John Wiley & Sons.
7. Abdul Rahman, N. H., Hamzah, N., Jamaluddin, A., & Aziz, K. A. (2019). Establishing an effective internal control system for fraud prevention: a structured literature review. Asia-Pacific Management Accounting Journal (APMAJ), 14(4), 1-30.
8. Musyoki, K. M. (2023). Internal control systems and their role in financial fraud prevention in Kenya. African Journal of Commercial Studies, 3(3), 173-180.
9. Efremova, E. I., Zatsarinnaya, E. I., & Soloshenko, A. A. (2023). Internal control system as a fraud management element in the company. In E3S Web of Conferences (Vol. 449, p. 04007). EDP Sciences.
10. Раджабов, Р. Ш. (2022). Роль внутреннего контроля в профилактике и выявлении корпоративного мошенничества. Экономика: вчера, сегодня, завтра, 12(3-1), 502-509.
11. Izatullayevich, Y. X. (2024). Audit moliyaviy firibgarlikni aniqlash vositasi. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(06), 151-157.
12. Esanov, O. M., & Berdiqulova, M. (2025). Auditorlik tekshiruvining moliyaviy barqarorlikka ta’siri. Shokh Articles Library, 1(1).
13. Lazizjon, Z. (2025). Budjet tashkilotlarida firibgarlik xavfini aniqlashda ichki audit tizimining zamonaviy yondashuvlari. shokh library, 1(11).
14. Mexmonaliyev, U. (2026). Sun’iy intellekt–korxonalarda ichki nazorat tizimini shakllantirish vositasi sifatida. finance, money and credit, 3(2), 222-230.
15. Maxsitaliyevich, K. U. (2024). Korxonada ichki audit xizmatini yaratish va undan oqilona foydalanish masalalari. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(08), 265-271.
16. Бобошко, В. И. (2020). Роль внутреннего контроля и внутреннего аудита в обеспечении экономической безопасности хозяйствующего субъекта. Вестник Московского университета МВД России, (8), 262-268.
17. Rahman, N. H. A., Jamaluddin, A., Hamzah, N., & Aziz, K. A. (2019). Establishing an effective internal control system for fraud prevention: a structured literature review. Asia-Pacific Management Accounting Journal, 14(3), 21-47.
18. Qudbiyev, N. T., Ulug‘Bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). Tadbirkorlik subyektlarida ichki nazoratning samarali tizimi sifatida ichki auditning o‘rni va ahamiyati. Scientific progress, 3(1), 449-457.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В АКЦИИ ЭМИТЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНДОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА

**Ирмухамедова Муслима Дилшадовна**
*самостоятельный соискатель*
*Ташкентский международный университет*
*ORCID: 0009-0009-8883-7422*

***Аннотация.*** *В работе проанализировано текущее состояние фондового рынка Республики Узбекистан и уровень доверия к инвестициям в корпоративный сектор. Выявлены основные барьеры: низкая информированность, слабая ликвидность и ограниченные инструменты оценки инвестиционной привлекательности. Отмечено, что несмотря на развитие инфраструктуры, формирование зрелой инвестиционной среды требует времени и совместных усилий государства и бизнеса. Сделан вывод, что наибольшего успеха добьются инвесторы, применяющие современные методы анализа и учитывающие особенности местной экономики. Рекомендуется повышать финансовую грамотность, использовать комплексный анализ и диверсифицировать портфель для снижения рисков и получения выгоды от роста рынка.*

***Ключевые слова:*** *фондовый рынок, корпоративные акции, инвестиционная активность, методы инвестиционного анализа, ликвидность рынка, финансовая грамотность, защита инвестиций.*

# ЎЗБЕКИСТОН ФОНД БОЗОРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ЭМИТЕНТЛАР АКЦИЯЛАРИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Ирмухамедова Муслима Дилшодовна**
*мустақил изланувчи*
*Тошкент халқаро университети*
*ORCID: 0009-0009-8883-7422*

***Аннотация.*** *Мақолада Ўзбекистон Республикаси фонд бозорининг жорий ҳолати ва корпоратив секторга инвестицияларга бўлган ишонч даражаси таҳлил қилинган. Асосий тўсиқлар сифатида паст хабардорлик даражаси, бозор ликвидлигининг етарли эмаслиги ва инвестиция жозибадорлигини баҳолаш воситаларининг чекланганлиги аниқланди. Қайд этилганидек, инфратузилма ривожланишига қарамасдан, етук инвестицион муҳитни шакллантириш вақт, давлат ҳамда бизнеснинг биргаликдаги саъй-ҳаракатларини талаб қилади. Хулоса қилинишича, замонавий таҳлил усулларини қўллайдиган ва маҳаллий иқтисодиёт хусусиятларини инобатга оладиган инвесторлар энг юқори натижаларга эришадилар. Тавсия этиладики, молиявий саводхонликни ошириш, комплекс таҳлилдан фойдаланиш ва портфельни диверсификация қилиш орқали рискларни камайтириш ҳамда бозор ўсишидан самарали фойдаланиш мумкин.*

***Калит сўзлар:*** *фонд бозори, корпоратив акциялар, инвестиция фаоллиги, инвестицион таҳлил усуллари, бозор ликвидлиги, молиявий саводхонлик, инвестицияларни ҳимоя қилиш.*

# FEATURES OF INVESTMENTS IN ISSUERS’ SHARES IN THE CONTEXT OF THE DEVELOPMENT OF THE STOCK MARKET IN UZBEKISTAN

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

**Irmukhamedova Muslima Dilshodovna**
*Independent Researcher*
*Tashkent International University*
*ORCID: 0009-0009-8883-7422*

***Abstract.*** *The paper analyzes the current state of the stock market of the Republic of Uzbekistan and the level of trust in investments in the corporate sector. The main barriers identified include low awareness, limited liquidity, and insufficient tools for assessing investment attractiveness. It is noted that despite ongoing infrastructure development, the formation of a mature investment environment requires time and coordinated efforts from both the government and businesses. The study concludes that investors who apply modern analytical methods and take into account the specific features of the local economy are likely to achieve the greatest success. It is recommended to improve financial literacy, use comprehensive analytical approaches, and diversify investment portfolios in order to reduce risks and benefit from the market's gradual growth.*

***Keywords:*** *stock market, corporate shares, investment activity, investment analysis methods, market liquidity, financial literacy, investment protection.*

## Введение

Формирование национального фондового рынка – это процесс создания инфраструктуры для купли-продажи ценных бумаг, регулирующий свободные средства инвесторов для экономического роста страны. Данная сфера предусматривает законодательное регулирование, развитие биржевой инфраструктуры, цифровизацию торговых сделок, привлечение свободных средств населения и защиту прав инвесторов, что критично для независимости финансовой системы.

Подчеркнем, что формирование национального фондового рынка является важным этапом развития рыночной экономики. В Узбекистане, где активные процессы либерализации и приватизации начались относительно недавно, рынок акций находится на начальной стадии становления. Это создает специфические условия и ограничения, которые инвесторы должны учитывать при принятии решений об инвестировании в акции эмитентов.

## Обзор литературы

Проблемы становления и развития национального фондового рынка изучались зарубежными и отечественными исследователями в различных контекстах роста экономики. Учеными подчеркивалось, что характерным особенностям формирующегося фондового рынка, типичным для стран с переходной экономикой, относятся:

- низкая ликвидность – ограниченный объем сделок с акциями предприятий и значительные спреды между ценами покупки и продажи [2];
- ограниченное число эмитентов – в основном это приватизированные предприятия, банки и страховые компании [3, 4];
- узкий круг участников – ключевыми инвесторами выступают юридические и физические лица, заинтересованные в управлении конкретным эмитентом, а также квазигосударственные и государственные структуры, владеющие контрольными или блокирующими пакетами акций [5];
- повышенная волатильность – даже незначительные события способны вызвать значительные колебания цен на акции отдельных эмитентов [6];
- информационная непрозрачность – неразвитая инфраструктура раскрытия информации, нерегулярная и недостаточно стандартизированная финансовая и корпоративная отчетность [3].

Во этих исследованиях особо подчеркивается, что финансовая и корпоративная отчетность узбекских компаний часто носит формальный характер. Эмитенты публикуют

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

обязательные документы без пояснительных записок, прогнозов, комментариев менеджмента или аналитических материалов, что затрудняет формирование реалистичных ожиданий инвесторов и снижает уровень доверия к акциям.

В настоящее время узбекский фондовый рынок демонстрирует все ключевые признаки, характерные для этапа становления. При этом можно выделить ряд специфических черт [7, 8]:

- Преобладание государственных предприятий среди эмитентов - основной пул акций формируется за счет долей, реализуемых в рамках программы приватизации. Это ограничивает диверсификацию рынка и усиливает зависимость его динамики от государственных решений. В 2025–2028 годах планируется продажа государственных пакетов акций 29 крупных предприятий на IPO/SPO как на внутреннем, так и на внешнем рынках, причем эта инициатива охватывает такие ключевые сектора экономики как энергетика, транспорт, металлургия, страхование и банковская сфера.
- Ограниченная адаптация к международным стандартам отчетности - большинство эмитентов продолжает публиковать отчетность по национальным стандартам (НСБУ). Обязательный переход на международные стандарты финансовой отчетности (МСФО, IFRS) начался лишь в 2021 году, и значительная часть компаний пока остается вне системы глобально сопоставимой отчетности. Это снижает надежность анализа и делает оценку бизнеса менее прозрачной.
- Формальный характер раскрытия информации – хотя крупнейшие предприятия и банки внедряют МСФО (IFRS), их отчетность часто представлена в неудобном для анализа формате, не сопровождается пояснительными материалами и не интегрирована в цифровую инфраструктуру. В результате инвесторы лишены равного и оперативного доступа к машиночитаемым данным по крупнейшим эмитентам, что снижает эффективность принятия инвестиционных решений.
- Активная роль государства в развитии рынка. Правительство продолжает играть ключевую роль в инфраструктурном и институциональном развитии фондового рынка. В 2020–2025 годах приняты решения о снижении доли государства в экономике, созданы новые институты (например, Национальное агентство перспективных проектов, 2023 г.), модернизирована биржевая инфраструктура с использованием южнокорейских технологий, создан национальный инвестиционный фонд (НИФ, NIF) [1]. Эти меры направлены на повышение привлекательности рынка и стимулирование участия частных инвесторов.

**Методология исследования**

В настоящем исследовании анализ фондового рынка Республики Узбекистан проводится с учетом институциональных, информационных и регуляторных особенностей. Для оценки инвестиционной среды использовались качественные методы анализа открытых источников, нормативной базы, корпоративной отчетности эмитентов, а также сопоставление с международными стандартами раскрытия информации.

**Анализ и результаты**

Важной особенностью узбекского рынка акций является значительный, но слабо реализованный потенциал участия населения. Интерес граждан имеет исторические корни: в период массовой приватизации трудовые коллективы получили доли в предприятиях, прежде всего в промышленности, энергетике и транспорте. Однако отсутствовали механизмы управления этими долями, понимание роли акционеров и доступ к вторичному рынку. Многие граждане утратили контроль над акциями из-за недостатка информации, давления со стороны менеджмента или формальных процедур передачи прав.

В 1990-е годы активно создавались приватизационные инвестиционные фонды (ПИФы), которым передавались права на покупку крупных пакетов акций по номиналу, а

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

их собственные акции продавались населению. Низкая прозрачность и неэффективное управление ПИФами привели к формированию недоверия к коллективным инвестиционным инструментам и фондовому рынку в целом.

Для возобновления массового интереса к акциям в настоящее время реализуется инициатива «Народные IPO», предполагающая продажу акций крупных госпредприятий физическим лицам по доступной фиксированной цене. Программа направлена на:

- расширение участия граждан в национальных активах;
- перераспределение доходов успешных компаний в пользу населения;
- демонстрацию открытости и «народности» реформ;
- повышение уровня легитимности проводимой приватизации;
- укрепление социальной и политической стабильности через вовлечение населения страны в рыночные процессы.

Ещё одним важным фактором дальнейшего развития фондового рынка является создание и деятельность Национального инвестиционного фонда Республики Узбекистан (UzNIF), в управление которому переданы пакеты акций крупных государственных корпораций в нефтегазовом, энергетическом и банковском секторах. Планируется, что до конца 2026 года акции фонда будут размещены как на Ташкентской фондовой бирже, так и на ведущих международных площадках, включая Лондонскую фондовую биржу.

UzNIF рассматривается как ключевой инструмент содействия развитию национального рынка акций, рыночной трансформации бывших государственных предприятий, улучшения корпоративного управления и повышения их инвестиционной привлекательности. В текущем портфеле фонда сосредоточены доли 18 крупнейших государственных компаний, структура активов которых отражает основные сектора экономики страны и обеспечивает инвесторам возможность диверсифицированного доступа к экономике Узбекистана.

Для институциональных инвесторов UzNIF открывает путь к вложениям в широкий спектр предприятий корпоративного сектора, представляющих стратегически важные отрасли экономики. Управление фондом передано международной инвестиционной компании Franklin Templeton Asset Management, обладающей значительным опытом работы с активами на развивающихся рынках и доказавшей эффективность своих стратегий.

В представленной ниже таблице (Табл.1) приведено сравнение целей и задач UzNIF и программы «Народные IPO» в контексте инвестиционного процесса и привлечения капитала в экономику Республики Узбекистан.

Таблица 1.

**Сравнительная таблица по целям и задачам UzNIF и народных IPO на фондовом рынке Узбекистана**

| Критерий | UzNIF (Национальный инвестиционный фонд) | Народные IPO |
|---|---|---|
| **Юридический статус** | Акционерное общество, 100 % принадлежит государству | Акционерные общества, размещающие акции на бирже |
| **Цель** | Привлечение иностранных портфельных инвесторов | Привлечение широкого круга местных граждан |
| **Фокус** | Международные рынки капитала (Лондон, GCC, Азия) | Узбекская биржа (TSE), через онлайн-торги |
| **Управляющая компания** | Franklin Templeton (международный управляющий) | Самостоятельные структуры эмитентов |

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

| | | |
|---|---|---|
| **Механизм инвестирования** | Через частное размещение, институциональные сделки, в будущем — IPO | Открытое публичное размещение через IPO |
| **Доступность для граждан Узбекистана** | Пока отсутствует или не заявлена | Прямой доступ через брокеров, TSE.uz, платформа IPO.tse.uz |
| **Льготы для населения** | Не предусмотрены (на 2025 г.) | Освобождение от НДФЛ, упрощённая идентификация, малые лоты |
| **Минимальный порог участия** | Высокий (миллионы USD; институциональные сделки) | Низкий — от 100 тыс. сум |
| **Контроль над компаниями** | UzNIF владеет существенными долями (20–40 %) в госкомпаниях | Продаются миноритарные доли (5–10 %) |
| **Ожидаемый эффект** | Повышение капитализации и прозрачности крупных госкорпораций | Повышение финансовой вовлечённости населения |
| **Уровень регулирования и стандартов** | МСФО, ESG, OECD, международная юрисдикция | МСФО или НСБУ, требования NAPP, биржевые регламенты |
| **Публичность информации** | Отчётность под контролем Franklin Templeton, международный аудит | Публикации на TSE.uz, сайты компаний, регламент раскрытия информации |

Кроме того, правительство Республики Узбекистан проводит масштабные инфраструктурные реформы рынка капитала. Регуляторные функции были переданы Национальному агентству перспективных проектов (НАПП), сосредоточившему в одном органе управление криптовалютами, рынком капитала и страховым сектором. Важным шагом стала передача под контроль Центрального банка Республики Узбекистан ГУП «Центральный депозитарий ценных бумаг» с расширением его функций: помимо хранения акций на него возложены обязанности по клирингу расчетов и автоматизации выплат дивидендов.

Существенное внимание уделяется также созданию налоговых льгот для операций с ценными бумагами, формированию социальных стимулов, обеспечению защиты инвестиций и привлечению иностранных участников на узбекский фондовый рынок [9].

Однако, несмотря на масштабные институциональные усилия государства по развитию фондового рынка Узбекистана – создание специализированных финансовых институтов, реализацию программы «Народное IPO» и запуск инвестиционных платформ – процесс привлечения инвесторов по-прежнему сталкивается с рядом устойчивых барьеров. Эти ограничения имеют комплексный характер (Табл. 2) и включают как институциональные, так и поведенческие факторы.

Анализ показывает, что уровень доверия к инвестициям в акции корпоративного сектора по-прежнему остается низким, что усугубляется недостаточной инструментальной подготовкой инвесторов. Это проявляется в ограниченной активности как со стороны населения, так и профессиональных участников рынка. К ключевым причинам относятся слабая информированность, низкая ликвидность и отсутствие доступных, адаптированных к местным условиям методов оценки инвестиционной привлекательности.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Таблица 2.

**Основные факторы, влияющие на ограниченную привлекательность фондового рынка Узбекистана для инвесторов и населения[7, 8]**

***Manba:** muallif tomonidan tadqiqot jarayonida tuzilgan.*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sanoat loyihalari eng yuqori rentabellikka ega, xizmat ko‘rsatish va kichik biznes loyihalari esa qaytish muddatlari uzunroq va rentabellik pastroq.

Empirik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, real korxona va loyiha ma’lumotlarida investitsiya samaradorligi turlicha. Masalan, tekstil sanoatidagi loyihalar yuqori NPV va IRR ko‘rsatkichlariga ega bo‘lsa, kichik savdo va xizmat ko‘rsatish loyihalarida PB ko‘rsatkichlari uzoqroq bo‘ladi. Bu O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida sektoral yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalarni tahlil qilish jarayonida aniqlanishicha:

Investitsiya samaradorligini oshirish uchun loyihalarni tanlashda NPV va IRR ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor berish lozim.

PB va DPB indikatorlari yordamida loyihaning qaytish muddatini optimallash-tirish va risklarni kamaytirish mumkin.

Real korxona ma’lumotlariga asoslangan empirik tahlil nazariy hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi.

Resurslarni yuqori rentabellik beradigan sanoat va texnologik loyihalarga yo‘naltirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki:

Investitsiya faoliyati iqtisodiy o‘sish va texnologik modernizatsiya uchun asosiy vositadir.

Loyihalarni baholashda raqamli metodlar yordamida risklarni kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonini aniqlash mumkin.

Sektoral yondashuv orqali iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va barqaror o‘sishni ta’minlash mumkin.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari o‘rtasida muayyan farqlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, ishlab chiqarish sohasidagi loyihalar yuqori NPV va IRR ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, bu ularning iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. Bunday loyihalarda boshlang‘ich sarmoya hajmi nisbatan katta bo‘lishiga qaramay, naqd pul oqimlarining barqarorligi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi tufayli investitsiya tezroq qoplanadi. Shu bilan birga, RI ko‘rsatkichining yuqori darajada bo‘lishi loyihaning rentabellik darajasi yuqori ekanini anglatadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi loyihalarda esa NPV va IRR ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish sektoriga nisbatan biroz pastroq bo‘lsa-da, ularning qaytish muddati (PB) nisbatan maqbul darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat xizmat ko‘rsatish sohasida investitsiya loyihalarining nisbatan barqaror, ammo daromadlilik darajasi jihatidan o‘rtacha ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, diskontlangan qaytish muddati (DPB) ko‘rsatkichining PB dan biroz yuqori bo‘lishi vaqt qiymati omilining investitsiya samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kichik biznes loyihalarida esa investitsiya samaradorligi nisbatan pastroq bo‘lishi kuzatildi. Bunda NPV va IRR ko‘rsatkichlarining pastroq darajada bo‘lishi, shuningdek PB va DPB muddatlarining uzoqroq davom etishi kichik biznes loyihalarining iqtisodiy xavf darajasi yuqoriroq ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli, bunday loyihalarni moliyalashtirish jarayonida risklarni boshqarish mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya loyihalarini baholashda faqat bitta ko‘rsatkichga tayanish yetarli emas. NPV, IRR, PB va DPB indikatorlari o‘zaro kompleks ravishda qo‘llanilganda loyihaning iqtisodiy samaradorligi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish mumkin. Ayniqsa, NPV va IRR ko‘rsatkichlari loyihaning rentabelligini aniqlashda muhim rol o‘ynasa, PB va DPB ko‘rsatkichlari esa investitsiyaning qanchalik tez qoplanishini baholashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, investitsiya samaradorligini oshirish uchun investitsiya resurslarini iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlariga yo‘naltirish muhim hisoblanadi. Xususan, sanoat, texnologiya va innovatsion loyihalar yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashi mumkin. Shu bilan birga, investitsiya loyihalarini tanlash jarayonida iqtisodiy, moliyaviy va institutsional omillarni ham hisobga olish zarur.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda zamonaviy moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Matematik modellar, statistik tahlil va empirik yondashuvlarning uyg‘unligi investitsiya qarorlarini yanada asosli qabul qilishga imkon beradi. Shu tariqa, tadqiqot natijalari investitsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

**Xulosa**

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning tarkibiy dinamikasi va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri korrelyatsion-regression tahlil usullari asosida o‘rganildi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi:

Birinchidan, statistik va ekonometrik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, 2016–2025-yillar davomida O‘zbekistonda investitsiyalar hajmi bilan yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishi o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsion bog‘liqlik mavjud. Korrelyatsiya koeffitsienti 0,85-0,92 oralig‘ida bo‘lib, bu investitsiya faoliyati iqtisodiy o‘sishning asosiy determinanti ekanligini tasdiqlaydi. Regression model natijalariga ko‘ra, investitsiyalar hajmining 1% ga oshishi YaIM o‘sishiga o‘rtacha 0,4-0,6% ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, investitsiyalarning sektorlar kesimidagi tahlili shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqarish va sanoat yo‘nalishidagi loyihalar eng yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega (NPV=120

mln so‘m, RI=120%, IRR=15%). Xizmat ko‘rsatish va kichik biznes loyihalarida esa rentabellik ko‘rsatkichlari nisbatan pastroq (RI=103–105%, IRR=11–12%) va qaytish muddatlari uzunroq (PB=5–6 yil) bo‘lib, bu investitsiya resurslarini taqsimlashda sektoral yondashuvning muhimligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ICOR (Incremental Capital Output Ratio) koeffitsienti tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida kapital samaradorligi so‘nggi yillarda yaxshilanib bormoqda: 2016-yilda 1 foizlik YaIM o‘sishi uchun 4,2 birlik investitsiya talab qilingan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,1 birlikkacha pasaydi. Bu investitsiya siyosatining samaradorligi ortayotganidan dalolat beradi.

To‘rtinchidan, empirik tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, investitsiya loyihalarini baholashda NPV, IRR, PB va DPB ko‘rsatkichlarini kompleks qo‘llash qaror qabul qilish jarayonini aniqroq va ishonchliroq qiladi. Ayniqsa, diskontlangan ko‘rsatkichlardan (DPB) foydalanish vaqt qiymati va inflyatsiya ta’sirini hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalar va empirik tahlil natijalariga asoslanib, investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy o‘sishni barqaror ta’minlash maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Investitsiya siyosatini differatsiylashtirish. Yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sanoat, texnologik va innovatsion loyihalarga investitsiya oqimini yo‘naltirishni rag‘batlantirish.

Loyihalarni kompleks baholash tizimini joriy etish. Barcha investitsiya loyihalarini NPV, IRR, PB va DPB ko‘rsatkichlari asosida majburiy baholash tartibini takomillashtirish.

Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali xususiy investitsiyalarni jalb qilish shart-sharoitlarini yaxshilash.

Hududiy muvozanatni ta’minlash. Investitsiya resurslarini hududlar kesimida samarali taqsimlash orqali iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni kamaytirish.

Inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish. Ta’lim, salomatlik va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga uzoq muddatli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda, ushbu yo‘nalishlarga moliyalashtirishni kuchaytirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Ushbu ishda birinchi marta O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun 2016–2025-yillar davomida investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion-regression model orqali kompleks baholandi. Natijalar investitsiya siyosatini shakllantirishda, davlat dasturlarini ishlab chiqishda hamda xususiy investorlar uchun loyiha tanlash jarayonida metodologik asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot natijalari investitsiya samaradorligiga institutsional omillar, moliyaviy bozorlar rivojlanishi hamda tashqi iqtisodiy shart-sharoitlarning ta’sirini o‘rganish, shuningdek, mintaqaviy kesimda investitsiya dinamikasini tahlil qilish bo‘yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Investitsiya jarayonlarining sifat jihatdan takomillashuvi, ularning tarmoqlar va hududlar kesimida samarali taqsimlanishi hamda zamonaviy baholash usullaridan foydalanish mamlakatning o‘rta va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W.Strahan and T.Cadell, 1776. – 568 p.

2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817. – 464 p.

3. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 472 p.

4. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, No.1. – P. 65–94.

5. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No.5. – P. S71–S102.
6. Barro R.J., Sala-i-Martin X. Economic Growth. – 2nd ed. – New York: McGraw-Hill, 2004. – 694 p.
7. Gujarati D.N., Porter D.C. Basic Econometrics. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2009. – 1002 p.
8. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. – 12th ed. – Boston: Pearson Education, 2015. – 861 p.
9. World Bank. Global Investment Competitiveness Report 2019/2020. – Washington, DC: World Bank, 2020. – 214 p.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947-son Farmoni. – Toshkent, 2017.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
12. Abdukarimov R.I. Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish: nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2020. – B. 15-23.
13. Abdukarimov A. Iqtisodiy rivojlanishda investitsiyalarning roli. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2020. – B. 60-65.
14. Tursunov M. Moliyaviy modellashtirish va investitsiya tahlili metodlari. – Toshkent: Moliya universiteti nashriyoti, 2019. – B. 32-45.

# MIGRATSIYANING BANDLIK VA ISHSIZLIK DARAJASIGA TA’SIRI

**Muxtorova Zarina Abduxalil qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,*
*Makroiqtisodiy siyosat va*
*prognozlashtirish kafedrasi*
*magistranti*
*e-mail:zmuxtorova95@gmail.com,*
*ORCID: 0009-0009-2759-1983*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lgan migratsiya oqimlarining mehnat bozoriga, xususan, aholining bandlik darajasi va ishsizlik ko‘rsatkichlariga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda migratsiyaning ham ijobiy jihati sifatida ishchi kuchi yetishmovchiligini qoplash va malaka almashinuvi ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, mahalliy mehnat bozoridagi raqobatning ortishi salbiy jihati hisoblangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ishsizlik, migratsiya, mehnat bozori, inson kapitali, “aql oqimi”, bandlik darajasi, ishchi kuchi, remitentsiya, makroiqtisodiy barqarorlik, YaMM, mehnat taklifi, migratsiya oqimi.*

# IMPACT OF MIGRATION ON EMPLOYMENT AND UNEMPLOYMENT RATES

**Mukhtorova Zarina Abdukhalil kizi**

*Tashkent State*
*University of Economics,*
*Master’s student,*
*Department of Macroeconomic*
*Policy and Forecasting*
*e-mail:zmuxtorova95@gmail.com,*
*ORCID: 0009-0009-2759-1983*

***Abstract:*** *This article analyzes the impact of migration flows, which are an integral part of modern economic processes, on the labor market, in particular, on the employment rate and unemployment rates of the population. The study considers the compensation of labor shortages and the exchange of skills as a positive aspect of migration, while the increase in competition in the local labor market is considered a negative aspect.*

***Keywords:*** *unemployment, migration, labor market, human capital, brain drain, employment rate, labor force, remittances, macroeconomic stability, GNP(Gross National Product), labor supply, migration flow.*

# ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИИ НА УРОВЕНЬ ЗАНЯТОСТИ И БЕЗРАБОТНОСТИ

**Мухторова Зарина Абдухалил кизи**

*Ташкентский государственный*
*экономический университет,*
*магистрантка,*
*кафедра макроэкономической*
*политики и прогнозирования*
*e-mail:zmuxtorova95@gmail.com*
*ORCID: 0009-0009-2759-1983*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется влияние миграционных потоков, являющихся неотъемлемой частью современных экономических процессов, на рынок*

*труда, в частности, на уровень занятости и безработицы населения. В исследовании в качестве положительных аспектов миграции рассматриваются компенсация нехватки рабочей силы и обмен навыками, а в качестве отрицательного аспекта – усиление конкуренции на местном рынке труда.*

***Ключевые слова:*** *безработица, миграция, рынок труда, человеческий капитал, утечка мозгов, уровен занятости, рабочая сила, ремиттенсы, макроэкономическая стабильность, ВНП (Валовой Национальный Продукт), предложение труда, миграционный паток.*

**Kirish**

Mehnat migratsiyasi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi va mehnat bozoridagi nomutanosibliklarni muvofiqlashtiruvchi strategik omilga aylandi. Ishchi kuchining hududlararo harakati bandlik darajasini oshirish va ishsizlikni jilovlashda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda migrantlar oqimini samarali boshqarish orqali milliy mehnat bozoridagi bosimni pasaytirish masalasi har qanday davlat uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Migratsiya va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy nazariyada keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, zamonaviy texnologik o‘zgarishlar va tarkibiy ishsizlik sharoitida ushbu jarayonlarni qayta baholash zarurati mavjud. Ayniqsa, "aql oqimi" va qayta bandlik (reintegratsiya) masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar ko‘lamini kengaytirish talab etiladi. Migratsiya jarayonlari bugungi global iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, u bevosita bandlik va ishsizlik darajalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarda ishchi kuchi ortiqchaligini kamaytirish, ichki mehnat bozoridagi bosimni yumshatish hamda aholi daromadlarini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, migratsiya oqimlari natijasida ayrim hududlarda malakali kadrlar yetishmovchiligi yuzaga kelishi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur holat migratsiyaning bandlikka ta’sirini chuqur o‘rganishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Bundan tashqari, migratsiya jarayonlari ishsizlik darajasining shakllanishiga ham murakkab va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, tashqi migratsiya orqali ishchi kuchining bir qismi xorijga yo‘naltirilishi ichki bozorda ishsizlik darajasini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan esa, qaytib kelayotgan migrantlar sonining ortishi yoki ichki migratsiya oqimlarining kuchayishi ayrim hududlarda ish o‘rinlari yetishmovchiligini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar va kam malakali ishchi kuchi o‘rtasida ishsizlik darajasining yuqoriligi migratsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu masalaning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, migratsiyaning bandlik va ishsizlik darajalariga ta’sirini kompleks tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda samarali davlat siyosatini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, migratsiya oqimlarini tartibga solish va qaytgan migrantlarni iqtisodiyotga samarali integratsiya qilish orqali bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, bu yo‘nalishda xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish mumkin. Maqolada migratsiyaning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan inson kapitaliga ta’siri asoslab berildi va migrantlar mablag‘larining yangi ish o‘rinlari yaratishdagi investitsion samaradorligi ochib berildi.

**Adabiyotlar sharhi**

Migratsiya jarayonlarining mehnat bozoriga ta’siri zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning markazida turibdi. Xususan, OECD (2025) hisobotlarida qayd etilishicha, rivojlangan mamlakatlarda migrantlarning bandlik darajasi rekord darajaga yetishi ishchi kuchi tanqisligini qoplashda asosiy drayver bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu borada A.Borjas (2026) o‘zining so‘nggi izlanishlarida migratsiyaning mahalliy ish haqi va bandlikka ta’sirini tahlil qilib, malakali kadrlar oqimi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishini, biroq past malakali sektorlarda raqobatni kuchaytirishini asoslab berdi.

O‘zbekiston sharoitida bu jarayon o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, J.Sharipov va R.Nuriddinov (2025) ta’kidlaganidek, 2 milliondan ortiq fuqarolarning tashqi mehnat migratsiyasidagi ishtiroki ichki mehnat bozoridagi kuchli ijtimoiy bosimni yumshatishga va ishsizlik darajasini sun’iy ravishda pasaytirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, MDPI Sustainability (2023) tadqiqotlari migratsiyaning “aql oqimi” (brain drain) kabi salbiy oqibatlari intellektual ishsizlikni keltirib chiqarishi mumkinligidan ogohlantiradi.

Biroq, migratsiyaning ijobiy multiplikativ samaradorligini ham inobatga olish joiz. O‘zbekiston Markaziy Banki (2026) va IOM (2023) ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, migrantlar tomonidan yo‘naltirilgan remitentsiyalar iste’mol talabini oshirish orqali xizmat ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xorijdan qaytib kelgan migrantlarning (reintegratsiya) o‘z tajribasi va sarmoyasi bilan kichik biznesga kirib kelishi bandlikning sifat jihatdan yaxshilanishiga zamin yaratmoqda. Shunday qilib, migratsiya nafaqat ishsizlarni chetga yo‘naltirish, balki inson kapitalini boyitish orqali ichki bozorda yangi bandlik shakllarini yaratish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

**Metodologiya**

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Migratsiya oqimlarining bandlik darajasiga ta’sirini baholashda OECD (2025) va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan tavsiya etilgan mehnat bozori indikatorlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida A.Borjas (2026) modeliga tayanib, ishchi kuchi taklifining o‘zgarishi va uning ishsizlik ko‘rsatkichlari bilan korrelyatsiyasi ekonometrik usullar yordamida o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston Markaziy Banki (2026) va IOM (2023) statistik ma’lumotlari asosida remitentsiyalarning (pul o‘tkazmalari) iste’mol sektoridagi bandlikka multiplikativ ta’siri induktiv tahlil qilindi. Olingan natijalarning ishonchliligi mantiqiy umumlashtirish va statistik guruhlash metodlari orqali ta’minlanib, migratsiya siyosatini optimallashtirish bo‘yicha prognozlar shakllantirildi.

**Tahlil va natijalar**

Migratsiya jarayonlarining mehnat bozoriga ta’siri faqatgina ishchi kuchi oqimi bilan cheklanib qolmay, mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga ham bevosita daxldordir. OECD (2025) va Markaziy Bank (2026) ma’lumotlariga ko‘ra, migratsiya natijasida shakllanadigan remitentsiyalar (pul o‘tkazmalari) milliy yalpi ichki mahsulotning (YIM) salmoqli qismini tashkil etib, bilvosita bandlikni rag‘batlantiruvchi asosiy drayverga aylandi. Ekonometrik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xorijdan kirib kelayotgan mablag‘larning har 10% ga ortishi mahalliy xizmat ko‘rsatish va chakana savdo sohalarida bandlik darajasini o‘rtacha 1,2–1,5% ga oshirish imkonini beradi. Bu jarayon A. Borjas (2026) modelida ko‘rsatilganidek, iste’mol talabining kengayishi orqali yangi ish o‘rinlari yaratilishining multiplikativ samarasi hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan statistik guruhlash natijalari migratsiyaning “ishsizlikni eksport qilish” xususiyatini ham ochib berdi. Xususan, 2021-2025 yillar oralig‘ida mehnat resurslari haddan tashqari ko‘p bo‘lgan agrar hududlardan aholining tashqi migratsiyaga chiqishi qishloq joylardagi yashirin ishsizlik bosimini 4,2% ga kamaytirishga xizmat qildi. Bu borada IOM (2023) va MDPI (2023) tadqiqotlari bilan hamohang ravishda shuni ta’kidlash lozimki, migratsiya nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, balki inson kapitalining sifatini ham o‘zgartiradi. Xorijiy mehnat bozorida orttirilgan tajriba va yangi texnologik ko‘nikmalar (skill-transfer) qaytib kelgan migrantlarning (reintegratsiya) ichki bozorda yuqori maoshli ish o‘rinlarini egallashiga yoki xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil etishiga zamin yaratmoqda.

Biroq, tahlillar “aql oqimi” (brain drain) hodisasi yuqori texnologiyali sektorlarda bandlik o‘sishini sekinlashtirayotganini ham ko‘rsatmoqda. Intellektual migratsiyaning kuchayishi natijasida muhandislik va IT sohalarida kadrlar tanqisligi yuzaga kelib, bu o‘z navbatida ushbu sohalarda tarkibiy ishsizlikning (structural unemployment) saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shunga qaramay, xorijdan qaytgan har 100 nafar migrantning kamida 12 nafari kichik biznes

subyektlarini tashkil etishi natijasida hududiy bandlik tarkibi diversifikatsiya qilinmoqda. Xulosa qilib aytganda, migratsiya ishsizlik darajasini pasaytirishning qisqa muddatli yechimi bo‘lish bilan birga, uzoq muddatda inson kapitalini boyitish va investitsiyalar oqimi orqali barqaror bandlik tizimini shakllantirishning strategik mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

J.Borjasning mehnat taklifi modeliga ko‘ra, migratsiya oqimi iqtisodiyotga tashqi “taklif shoki” (supply shock) sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu model doirasida migratsiyaning bandlikka ta’siri ikki yo‘nalishda: o‘rinbosarlik (substitution) va to‘ldiruvchanlik (complementarity) effektlari orqali tahlil qilindi.

Nazariy jihatdan, migrantlar va mahalliy ishchilar bir xil malaka guruhiga (skill-cell) mansub bo‘lsa, mehnat taklifining ortishi ushbu segmentda raqobatni kuchaytirib, ish haqining pasayishiga olib kelishi mumkin. Biroq, empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, milliy mehnat bozorida “to‘ldiruvchanlik effekti” ustuvorlik qilmoqda, ya’ni migrantlar mahalliy aholi bo‘shatgan quyi segmentlarni to‘ldirishi yoki xorijdan yangi ko‘nikmalar (skill-transfer) bilan qaytishi natijasida inson kapitali sifati yaxshilanmoqda.Borjas modeli yordamida aniqlangan “migratsiya surplus” (migration surplus) hodisasi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va investitsion faollikni oshirish orqali bilvosita yangi ish o‘rinlari yaratilishini (multiplikativ effekt) ta’minlaydi. Shunday qilib, model migratsiyani nafaqat ishsizlikni kamaytirish vositasi, balki mehnat unumdorligini oshiruvchi va bozor segmentatsiyasini muvofiqlashtiruvchi strategik drayver sifatida tavsiflaydi.

Matematik ifodasi:

$$\triangle W/W = e^* \triangle M/L$$

△ W/W - ish haqining o‘zgarishi;
△ M/L- migratsiya oqimining ishchi kuchidagi ulushi;
e - mehnat taklifining elastiklik koeffitsiyenti.

Pul o‘tkazmalari (remitentsiyalar) migratsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, milliy iqtisodiyotda iste’mol talabini rag‘batlantirish orqali bilvosita bandlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Markaziy Banki (2026) va Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yildan buyon pul o‘tkazmalari hajmi barqaror o‘sish dinamikasini namoyish etmoqda. Xususan, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 8,1 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga kelib rekord darajadagi 18,3 mlrd dollarga yetdi va mamlakat YIMning qariyb 18-20 foizini tashkil qildi. 2025-yilning birinchi yarim yilligida esa pul o‘tkazmalari oqimi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 25 foizga o‘sib, 8,4 mlrd dollardan oshdi.

Ushbu moliyaviy oqimlarning bandlikka ta’siri multiplikativ effekt orqali namoyon bo‘ladi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pul o‘tkazmalarining har 1 mlrd dollarga ortishi xizmat ko‘rsatish, chakana savdo va uy-joy qurilishi sohalarida qariyb 10-12 mingta yangi bilvosita ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Bu jarayon J.Borjas (2026) modelidagi “kapitalning mehnatga nisbatan moslashuvchanligi” g‘oyasini tasdiqlaydi: migrantlar yuborgan mablag‘lar nafaqat oilalar farovonligini oshiradi, balki kichik tadbirkorlik uchun investitsion manba bo‘lib xizmat qiladi. IOM (2023) hisobotlariga ko‘ra, pul o‘tkazmalarining qariyb 15-18 foizi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalariga qayta investitsiya qilinmoqda, bu esa hududiy ishsizlik darajasini pasaytirishning barqaror mexanizmidir.

**Xulosa**

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, migratsiya jarayonlari zamonaviy mehnat bozorida ishsizlik darajasini pasaytirish va bandlik tarkibini optimallashtirishning strategik mexanizmi bo‘lib xizmat qilmoqda. J.Borjas modeli asosida o‘tkazilgan tahlillar migratsiyaning nafaqat “ishchi kuchi eksporti”, balki inson kapitalini boyitish va investitsiyalar oqimini ta’minlashdagi rolini tasdiqladi. Xususan, 2021–2025 yillardagi statistik ma’lumotlar pul o‘tkazmalarining (remitentsiyalarning) YIMdagi ulushi 18-20% gacha yetganini va bu mablag‘lar xizmat ko‘rsatish hamda qurilish sohalarida multiplikativ bandlik effektini yaratayotganini

ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, migratsiya siyosatining samaradorligini oshirish va uning bandlikka ijobiy ta’sirini barqarorlashtirish uchun migratsiya geografiyasini diversifikatsiya qilish, reintegratsiya mexanizmlarini kuchaytirish, kasbiy tayyorgarlikni standartlashtirish taklif etiladi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, migratsiya - ishsizlik muammosini hal qilishning vaqtincha yechimi emas, balki to‘g‘ri boshqarilgan taqdirda, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholi bandligini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beruvchi kuchli iqtisodiy drayverdir.

**Foydalanilgan adabiyotlatr ro‘yxati**

1. Borjas, G. J. (2026). The Economic Impact of Immigration: Labor Supply, Wages, and Employment Dynamics (4th ed.). Harvard University Press.
2. International Labour Organization (ILO). (2024). World Employment and Social Outlook: Trends 2024. Geneva: ILO Publications.
3. International Organization for Migration (IOM). (2023). Migration in Uzbekistan: 2023 Country Report. Tashkent: IOM Mission in Uzbekistan.
4. MDPI. (2023). The Effects of Migration on Unemployment: New Evidence from Asian Countries. Sustainability, 15(14), 11385. [https://doi.org/10.3390/su151411385]
5. OECD. (2025). International Migration Outlook 2025. Paris: OECD Publishing. [https://doi.org/10.1787/ae26c893-en]
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2026). To‘lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiya va tashqi qarz: 2025-yil yakunlari bo‘yicha tahliliy sharh. Toshkent: MB nashrlari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. (2025). Mehnat bozori ko‘rsatkichlari va aholi bandligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari: Statistik to‘plam. Toshkent.
8. Sharipov, J., & Nuriddinov, R. (2025). O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi va uning bandlik tarkibiga ta’siri. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ilmiy maqolalar to‘plami.
9. The World Bank. (2025). Migration and Development Brief 40: Remittances and Labor Markets in Central Asia. Washington, DC: World Bank.
10. World Economic Forum. (2024). The Future of Jobs Report 2024. Cologny/Geneva: WEF.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

**Abdukaxxorova Durdona Ilxomovna**

*3RD course student of*
*Tashkent state university of Economics*
*E-mail: abduqaxxorovadurdona64@gmail.com*
*ORCID:0009-0009-4800-3220*

**Research Supervisor:**
**Hakimova Muhabbat Fayziyevna**

*Professor*
*Tashkent State University of Economics*

***Abstract.*** *Digital transformation has become one of the most decisive forces shaping the contemporary education system. It affects not only the technological tools used in teaching and learning, but also governance models, pedagogical approaches, assessment mechanisms, institutional resilience, and the long-term sustainability of education systems. This article examines the key factors that ensure the sustainable development of education in the context of digital transformation. The study is based on a qualitative methodology that combines literature analysis, comparative analysis, and policy document review. The findings show that sustainable digital transformation in education depends on several interconnected factors: strategic governance, digital infrastructure, teacher digital competence, inclusive access, data-informed management, and learner-centred digital pedagogy. The article argues that digital transformation should not be understood as the simple introduction of technologies into classrooms, but as a systemic restructuring of educational processes to improve quality, equity, flexibility, and resilience. The paper concludes that sustainable development in education can be achieved only when digitalization is aligned with pedagogical goals, institutional capacity, and social inclusion principles. [OECD 2023, 4; OECD 2025, 4; Huang et al. 2024, 279].*

***Keywords****: digital transformation; sustainable education; digital pedagogy; educational resilience; teacher competence; educational innovation; inclusive learning.*

# ФАКТОРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

**Абдукаххорова Дурдона Илхомовна**

*студент 3-го курса*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: abduqaxxorovadurdona64@gmail.com*
*ORCID:0009-0009-4800-3220*

**научный руководитель:**
**Хакимова Мухаббат Файзиевна**

*профессор*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*

***Аннотация.*** *Цифровая трансформация стала одной из самых решающих сил, формирующих современную систему образования. Она влияет не только на технологические инструменты, используемые в преподавании и обучении, но и на модели управления, педагогические подходы, механизмы оценки, институциональную устойчивость и долгосрочную стабильность образовательных систем. В данной статье рассматриваются ключевые факторы, обеспечивающие устойчивое развитие образования*

*в условиях цифровой трансформации. Исследование основано на качественной методологии, сочетающей анализ литературы, сравнительный анализ и обзор директивных документов. Результаты показывают, что устойчивая цифровая трансформация в образовании зависит от нескольких взаимосвязанных факторов: стратегического управления, цифровой инфраструктуры, цифровой компетентности учителей, инклюзивного доступа, управления на основе данных и личностно-ориентированной цифровой педагогики. В статье утверждается, что цифровую трансформацию следует понимать не как простое внедрение технологий в учебные классы, а как системную реструктуризацию образовательных процессов для повышения качества, справедливости, гибкости и жизнестойкости. В работе делается вывод о том, что устойчивое развитие в образовании может быть достигнуто только тогда, когда цифровизация согласована с педагогическими целями, институциональным потенциалом и принципами социальной инклюзии.*

***Ключевые слова:*** *цифровая трансформация; устойчивое образование; цифровая педагогика; устойчивость образования; компетентность учителя; инновации в образовании; инклюзивное обучение.*

## RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAYOTIDA TA’LIM TIZIMINING BARQARAR RIVOJLANISH OMILLARI

**Abduqaxxorova Durdona Ilxomovna**
*3-kurs talabasi*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: abduqaxxorovadurdona64@gmail.com*
*ORCID:0009-0009-4800-3220*
**Ilmiy rahbar:**
**Hakimova Muhabbat Fayziyevna**
*professori*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

***Annotatsiya.*** *Raqamli transformatsiya zamonaviy ta’lim tizimini shakllantiruvchi eng hal qiluvchi kuchlardan biriga aylandi. U nafaqat o‘qitish va o‘rganishda qo‘llaniladigan texnologik vositalarga, balki boshqaruv modellari, pedagogik yondashuvlar, baholash mexanizmlari, institutlarning moslashuvchanligi va ta’lim tizimlarining uzoq muddatli barqarorligiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ta’limning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy omillar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil va siyosiy hujjatlar sharhini birlashtirgan sifat metodologiyasiga asoslangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’limdagi barqaror raqamli transformatsiya bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha omillarga bog‘liq: strategik boshqaruv, raqamli infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyasi, inklyuziv foydalanish imkoniyati, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv va talabaga yo‘naltirilgan raqamli pedagogika. Maqolada raqamli transformatsiyani shunchaki sinf xonalariga texnologiyalarni joriy etish deb emas, balki sifat, tenglik, moslashuvchanlik va barqarorlikni oshirish uchun ta’lim jarayonlarini tizimli qayta qurish deb tushunish kerakligi ta’kidlanadi. Maqola yakunida ta’limdagi barqaror rivojlanishga faqat raqamlashtirish pedagogik maqsadlar, institutsional salohiyat va ijtimoiy inklyuzivlik tamoyillari bilan uyg‘unlashgandagina erishish mumkin degan xulosaga kelinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *raqamli transformatsiya; barqaror ta’lim; raqamli pedagogika; ta’limdagi barqarorlik; o‘qituvchi kompetentsiyasi; ta’limdagi innovatsiyalar; inklyuziv ta’lim.*

### Introduction

In the twenty-first century, digital transformation has become a structural condition for the modernization of education systems. It is no longer limited to the use of computers, online

platforms, or digital devices in classrooms. Rather, it implies a deeper reorganization of educational processes, institutional management, and learning environments. The OECD distinguishes between a digital transition and a true digital transformation, emphasizing that transformation involves a fundamental change in educational processes, teaching methodologies, and student support systems, rather than merely replicating traditional practices with digital tools [OECD 2023, 4].

The relevance of this issue has increased because education systems are expected to be not only technologically advanced but also sustainable, equitable, and resilient. The World Bank notes that the global education sector is simultaneously facing a learning crisis and a rapid technological shift, which means that digital investment must be connected to real educational impact rather than symbolic modernization. In this context, sustainable development in education refers to the capacity of institutions to maintain quality learning, adapt to change, reduce inequality, and prepare learners for dynamic social and labour-market conditions [World Bank 2025, 1; Leal Filho et al. 2023, 2].

This article aims to identify and analyze the major factors that determine the sustainable development of the education system under conditions of digital transformation. The central argument is that sustainability in digital education is achieved not through technology alone, but through the balanced interaction of governance, infrastructure, pedagogy, teacher readiness, inclusion, and evaluation systems. Therefore, the paper focuses on the following research question: what factors most strongly influence the sustainable development of education systems in the age of digital transformation? [Abad-Segura et al. 2020, 2107; OECD 2025, 11].

**Literature Review**

The academic and policy literature shows that digital transformation in education has evolved from a technical issue into a strategic and systemic one. Abad-Segura et al. argue that digital transformation in higher education must be understood through the logic of sustainable management, where technological change is integrated with economic, social, and environmental dimensions. Their bibliometric review also demonstrates the rapid growth of research interest in digital transformation and sustainability, especially in recent years, indicating that the topic has become central to contemporary educational debate [Abad-Segura et al. 2020, 2107].

Another important strand of the literature emphasizes that digital transformation can improve access, flexibility, and institutional resilience, but only when supported by adequate digital resources and stakeholder skills. Leal Filho et al. note that effective digital transformation requires digital assets, data capacity, institutional agility, and stakeholder skills. In other words, sustainability is not produced by technology itself; it is produced by the system’s ability to organize technology meaningfully and strategically [Leal Filho et al. 2023, 2].

Recent pedagogical research has further shown that one of the main weaknesses of many digital reforms is the absence of a coherent pedagogical framework. Huang et al. argue that the lack of an overarching digital pedagogy is a threat to quality education in the digital era. They propose the DP4SET framework, which links digital competence, quality digital resources, suitable learning environments, and collaboration between human teachers and trustworthy artificial intelligence. This view is important because it shifts attention from devices and platforms to the educational design of digital transformation [Huang et al. 2024, 279–280].

Policy-oriented literature also underlines that successful digital transformation depends on national and institutional coordination. According to the OECD policy survey, digital education strategies must cover governance, pedagogy, curriculum, assessment, funding, infrastructure, capacity building, and monitoring. This multidimensional approach suggests that sustainable development in education cannot be reduced to a single intervention such as purchasing equipment or launching online courses. Instead, it requires a coherent ecosystem approach [OECD 2025, 4–5].

Finally, more recent case-based studies show that digital transformation contributes to sustainability when it strengthens resilience under difficult conditions. Al-Shaer et al., studying higher education in a conflict-affected region, found that digital tools improved educational access, administrative efficiency, and continuity of learning, yet their long-term success still depended on policy reform, capacity building, and international cooperation. This confirms that sustainability in digital education is ultimately institutional and human, not merely technological [Al-Shaer et al. 2025, 1–2].

**Methodology**

This article applies a qualitative research methodology based on literature review, comparative analysis, and document analysis. The main sources include international policy reports and peer-reviewed academic studies on digital transformation, sustainable education, digital pedagogy, and educational governance. The rationale for this methodology is that the research question concerns conceptual and systemic factors rather than a single local case or experimental intervention. Therefore, an analytical synthesis of authoritative sources is appropriate for identifying recurring determinants of sustainable educational development [OECD 2023, 4; OECD 2025, 4].

The analysis proceeded in three stages. First, key concepts such as digital transformation, sustainability, inclusion, resilience, and digital pedagogy were reviewed. Second, converging themes across the selected sources were compared in order to identify the most frequently emphasized determinants of sustainable development. Third, these determinants were interpreted as an integrated framework for education systems. The study does not claim statistical generalization; rather, it offers an evidence-based conceptual interpretation that may serve as a basis for future empirical research [World Bank 2025, 1; Huang et al. 2024, 279].

**Discussion and Results**

The analysis shows that the first and most important factor of sustainable development in the context of digital transformation is strategic governance. Sustainable digitalization requires a clear institutional vision, policy coordination, and continuity of implementation. When digital education is guided by fragmented initiatives, short-term projects, or isolated technological purchases, the system becomes unstable and inefficient. OECD evidence indicates that effective digital transformation must be embedded in central strategies, accountability instruments, and cross-domain coordination involving pedagogy, regulation, funding, and assessment [OECD 2025, 11–12].

The second major factor is digital infrastructure and equitable access. A sustainable education system must ensure reliable internet connectivity, interoperable platforms, device availability, and secure data environments. However, infrastructure should be treated not as an end in itself, but as a necessary condition for quality and inclusion. The World Bank stresses that digital investments are often expensive and consume significant public resources, which makes it essential to connect them with evidence, affordability, and educational outcomes. This means that infrastructure planning must include issues of access, maintenance, and long-term usability [World Bank 2025, 1; OECD 2023, 4].

The third factor is teacher digital competence and professional adaptation. No digital reform can be sustainable if teachers are not able to redesign learning, assessment, and interaction in ways appropriate for digital environments. The literature repeatedly shows that teachers must move from being information transmitters to becoming learning designers, facilitators, and mentors. OECD and Huang et al. both indicate that digital competence is not only technical skill but also pedagogical judgment, resource selection, and the capacity to work productively with digital and AI-supported environments [OECD 2025, 28; Huang et al. 2024, 279–280].

The fourth factor is learner-centred digital pedagogy. One of the recurring findings across

the sources is that educational quality declines when institutions merely transfer conventional teaching into digital formats. Sustainable development becomes possible only when digital transformation changes the logic of teaching and learning: personalisation increases, feedback becomes more continuous, learning becomes more flexible, and students gain greater agency. Huang et al. emphasize that quality digital transformation depends on deep learning, evidence-based practice, and the productive combination of teacher expertise with trustworthy AI. Thus, pedagogy is the core mediating mechanism between technology and sustainability [Huang et al. 2024, 279–280; OECD 2023, 4].

The fifth factor is inclusion and resilience. Sustainable development in education cannot be achieved if digital transformation widens inequality between urban and rural learners, rich and poor students, or digitally skilled and digitally excluded groups. At the same time, resilience has emerged as a crucial dimension: digital systems should allow education to continue during crises, disruptions, or institutional shocks. The Palestine case examined by Al-Shaer et al. shows that digital transformation can preserve continuity of learning and strengthen administrative efficiency, but only if institutions also invest in capacity building, partnerships, and supportive policy reform [Al-Shaer et al. 2025, 1–2].

The sixth factor is monitoring, evaluation, and data-informed management. Sustainable systems learn from evidence. Digital transformation generates new possibilities for student information systems, dashboards, analytics, and performance monitoring, yet the OECD notes that many systems still lack interoperability, real-time usability, or integrated feedback structures. Therefore, the long-term sustainability of digital education depends on whether institutions can transform data into actionable knowledge for improving teaching, student support, and policy decisions [OECD 2023, 4; OECD 2025, 36–38].

Overall, the results of this review suggest that the sustainable development of education systems in the digital age rests on a six-factor model: strategic governance, infrastructure and access, teacher competence, learner-centred pedagogy, inclusion and resilience, and monitoring and evaluation. These factors are interdependent. Weakness in one dimension reduces the effectiveness of the others. For example, strong infrastructure without pedagogy produces low-quality learning; teacher competence without institutional strategy leads to isolated innovation; and digital access without inclusion policies can deepen inequality. Sustainable digital transformation is therefore systemic by nature [Abad-Segura et al. 2020, 2107; Leal Filho et al. 2023, 2; OECD 2025, 4].

**Conclusion**

Digital transformation has fundamentally changed the conditions under which education systems operate. Yet this article has shown that sustainability in education does not arise automatically from the presence of technology. Instead, it depends on whether digital change is strategically governed, pedagogically grounded, socially inclusive, and institutionally supported. The reviewed literature confirms that sustainable development in the education system is shaped by a combination of strategic coordination, digital infrastructure, teacher competence, learner-centred pedagogy, resilience, and evidence-based evaluation [OECD 2023, 4; Huang et al. 2024, 279; Al-Shaer et al. 2025, 1].

Based on these findings, several recommendations can be proposed. First, educational institutions should adopt comprehensive digital transformation strategies linked to quality, equity, and long-term development goals. Second, digital investment should prioritize not only hardware and software, but also teacher training and pedagogical redesign. Third, governments and universities should ensure inclusive access for disadvantaged learners in order to prevent digital inequality. Fourth, monitoring systems should be strengthened so that digital tools produce actionable evidence for educational improvement. Finally, future reforms should treat digital pedagogy as the intellectual centre of transformation, because sustainable education depends not on technology itself, but on how meaningfully it is used to improve learning and institutional

resilience [OECD 2025, 4–5; World Bank 2025, 1; Leal Filho et al. 2023, 2].

**References:**

Abad-Segura, E., González-Zamar, M.-D., Infante-Moro, J. C., and Ruipérez García, G. 2020. “Sustainable Management of Digital Transformation in Higher Education: Global Research Trends.” Sustainability, 12(5): 2107.

Al-Shaer, N. E. M., et al. 2025. “Digital Transformation in Higher Education for Achieving Sustainable Development Goals in Conflict Zones: A Case Study of An-Najah National University.” Frontiers in Human Dynamics, 7: 1585538.

Huang, R., Adarkwah, M. A., Liu, M., Hu, Y., Zhuang, R., and Chang, T. 2024. “Digital Pedagogy for Sustainable Education Transformation: Enhancing Learner-Centred Learning in the Digital Era.” Frontiers of Digital Education, 1: 279–294.

Leal Filho, W., et al. 2023. “Digital Transformation and Sustainable Development in Higher Education in a Post-Pandemic World.” Environment, Development and Sustainability.

OECD. 2023. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing.

OECD. 2025. Policies for the Digital Transformation of School Education: Evidence from the Policy Survey on School Education in the Digital Age. Paris: OECD.

World Bank. 2025. Digital Pathways for Education: Enabling Greater Impact for All. Washington, DC: World Bank.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА МАБЛАҒЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШДА ИЧКИ АУДИТНИ РАҚАМЛАШТИРИШ

**Маннапова Раъно Абдуровна**
*бюджет ҳисоби ва ғазначилик кафедраси доценти, PhD*
*Тошкент давлат иқтисодиёт университети*
*ORCID: 0000-0003-4577-8847*
*E-mail: r.mannapova@tsue.uz*

**Хамиджонов Бобиржон Анваржон ўғли**
*2-kurs, DMNA-15 гуруҳ магистранти*
*Тошкент давлат иқтисодиёт университети*

***Аннотация.*** *Бюджет ташкилотларида маблағлардан самарали фойдаланишда ички аудитни рақамлаштириш - бу аудит жараёнларини замонавий ахборот технологиялари орқали автоматлаштириш ва такомиллаштиришни англатади. Рақамлаштириш орқали молиявий операциялар доимий мониторинг қилинади, маълумотлар аниқ ва тезкор таҳлил қилинади ҳамда инсон омили билан боғлиқ хатолар камаяди, шунингдек, рақамли аудит тизими шаффофликни оширади, маблағларнинг мақсадли сарфланишини таъминлайди ва назорат самарадорлигини кучайтиради. Натижада бюджет маблағларидан оқилона фойдаланиш ва молиявий интизомни мустаҳкамлашга эришилади.*

***Калит сўзлар:*** *ички аудит, рақамлаштириш, бюджет ташкилотлари, молиявий назорат, ахборот технологиялари, мониторинг, электрон аудит, автоматлаштириш, шаффофлик, молиявий таҳлил, коррупциянинг олдини олиш.*

# ЦИФРОВИЗАЦИЯ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРЕДСТВ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

**Маннапова Раъно Абдуровна**
*PhD., доцент кафедры бюджетный учет и казначейство*
*Ташкентский государственный экономический университет*
*ORCID: 0000-0003-4577-8847*
*E-mail: r.mannapova@tsue.uz,*

**Хамиджонов Бобиржон Анваржонович**
*студент 2-го курса магистратуры группы ДМНА-15*
*Ташкентский государственный экономический университет*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari tomonidan raqamli marketing xizmatlaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi raqamlashtirish sharoitida cheklangan resurslarga ega kichik korxonalar uchun raqamli kanallar orqali mijozlarni jalb qilish, konversiya darajasini oshirish hamda faoliyat barqarorligini ta’minlashning muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi. Adabiyotlar tahlili va amaliy keyslar asosida raqamli marketing samaradorligini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar, kichik biznes faoliyatida uchraydigan tipik muammolar, raqamli yetuklik modellari hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalari tizimli va strategik yondashuv mavjud bo‘lgan sharoitda raqamli marketing mijozlarni jalb qilish xarajatlarini optimallashtirish, konversiya darajasini oshirish va biznes barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *kichik biznes, raqamli marketing, raqamli xizmatlar, samaradorlik, CPC, CPL, CAC, LTV, ROMI, O‘zbekiston.*

# DIGITAL MARKETING IN SMALL BUSINESS: EFFICIENCY AND INTEGRATION MODELS IN UZBEKISTAN

**Tojiyev Javlonbek Rustamovich**
*Independent Researcher*
*Tashkent State University of Economics*
*ORCID: 0009-0003-4678-2423*
**Otaxonova Maftunaxon Tulkinbekovna**
*Graduate School*
*of Business and Entrepreneurship*
*2nd year master’s student*
**Bekmuratov Samariddin Shamuratovich**
*Graduate School*
*of Business and Entrepreneurship*
*2nd year master’s student*

***Abstract.*** *This article analyzes the effectiveness of digital marketing services used by small business entities in Uzbekistan. The relevance of the study is determined by the growing importance of attracting customers through digital channels, increasing conversion rates, and ensuring business sustainability for small enterprises operating under conditions of limited resources and ongoing digitalization. Based on a comprehensive review of academic literature and practical case studies, the research identifies key performance indicators of digital marketing effectiveness, common challenges faced by small businesses, digital maturity models, and the main factors contributing to improved marketing performance. The findings demonstrate that the application*

*of a systematic and integrated approach to digital marketing leads to optimized customer acquisition costs, higher conversion rates, and enhanced overall business sustainability.*

***Keywords:*** *small business, digital marketing, digital services, effectiveness, CPC, CPL, CAC, LTV, ROMI, Uzbekistan.*

## ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: МОДЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ИНТЕГРАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Тоджиев Джавлонбек Рустамович**
*независимый исследователь*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*ORCID:0009-0003-4678-2423*
**Отахонова Мафтунахон Тулкинбековна**
*высшая школа*
*бизнеса и предпринимательства*
*студент 2-го курса магистратуры*
**Бекмуратов Самариддин Шамуратович**
*высшая школа*
*бизнеса и предпринимательства*
*студент 2-го курса магистратуры*

***Аннотация.*** *Данная статья посвящена анализу эффективности использования услуг цифрового маркетинга субъектами малого бизнеса в Республике Узбекистан. Актуальность исследования обусловлена тем, что в условиях цифровизации для малых предприятий с ограниченными ресурсами особую значимость приобретает привлечение клиентов через цифровые каналы, повышение уровня конверсии и обеспечение устойчивости хозяйственной деятельности. На основе анализа научной литературы и практических кейсов определены ключевые показатели эффективности цифрового маркетинга, характерные особенности функционирования малого бизнеса, модели цифровой зрелости, а также факторы, способствующие повышению результативности маркетинговых решений. Результаты исследования свидетельствуют о том, что при применении системного и комплексного подхода цифровой маркетинг способствует снижению стоимости привлечения клиентов, росту конверсии и укреплению устойчивости бизнеса.*

***Ключевые слова:*** *малый бизнес, цифровой маркетинг, цифровые услуги, эффективность, CPC, CPL, CAC, LTV, ROMI, Узбекистан.*

### Kirish

Kichik biznes milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash, bandlikni kengaytirish hamda tarmoqlar moslashuvchanligini kuchaytirishda muhim drayverlardan biri hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar (OECD, World Bank, UNDP) tadqiqotlarida ta’kidlanishicha [1], kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiy diversifikatsiya, raqobatbardoshlik va innovatsion faollikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida ham mazkur sektorning ahamiyati yuqori bo‘lib, Statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik va o‘rta biznes yalpi ichki mahsulotning qariyb 56 foizini shakllantiradi hamda mamlakatdagi umumiy bandlikning 78 foizini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda kechayotgan raqamlashuv jarayonlari kichik korxonalar oldiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda boshqaruv va moslashuvni talab etuvchi vazifalarni ham qo‘ymoqda. Internet auditoriyasining keskin o‘sishi 2021–yilda 17,5 mln nafardan 2025–yilda 26 mln nafardan ortiq darajaga yetgani hamda raqamli reklama bozorining yillik 30–45 foiz atrofida o‘sib borayotgani marketing faoliyatini raqamli muhitga strategik asosda ko‘chirish

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

zaruratini kuchaytirmoqda. Bu jarayon reklama budjetlarining raqamli segmentga yo‘naltirilishi, raqamli kanallar samaradorligini tizimli baholash va optimallashtirishga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab kichik korxonalar raqamli marketing instrumentlaridan foydalanishni boshlagan bo‘lsa-da, ularning to‘liq samaradorligiga erishish jarayoni hali rivojlanish bosqichida qolmoqda [3,4]. IT Park Uzbekistan, USAID va UNDP tomonidan o‘tkazilgan qo‘shma tadqiqotlar quyidagi jihatlarni aniqlagan:

- tadbirkorlarning 62 foizi reklama samaradorligini (ROMI) hisoblash usullaridan to‘liq xabardor emas;
- 47 foiz korxonalar CRM tizimlaridan analitik boshqaruv instrumenti sifatida yetarli darajada foydalanmaydi;
- 55 foiz hollarda mijoz murojaatlarining kelib chiqish kanallari tizimli ravishda qayd etilmaydi.

Mazkur holat raqamli transformatsiyada asosiy masala texnologiyalarning mavjudligida emas, balki korxonalarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, bilimlarni chuqurlashtirish, raqamli yetuklik darajasini oshirish hamda tizimli boshqaruv yondashuvlarini joriy etish zarurati bilan izohlanadi.

O‘zbekistonda raqamli marketing bozori jadal rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, kichik biznes subyektlarida boshqaruv va analitik ko‘nikmalarni rivojlantirish ushbu jarayon bilan uyg‘un holda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar raqamli agentliklar xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borayotganini ko‘rsatadi, biroq kichik korxonalarda raqamli instrumentlardan foydalanish ko‘pincha fragmentar xarakterga ega bo‘lib, strategik integratsiya imkoniyatlari to‘liq ishga solinmayotganini qayd etadi.

Shu sharoitda kichik korxonalar faoliyatida raqamli marketing xizmatlari samaradorligini aniq baholash, samaradorlikni oshiruvchi va cheklovchi omillarni aniqlash, shuningdek, asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda kichik korxonalar faoliyati natijalariga raqamli marketing xizmatlarining ta’sirini ilmiy tahlil qilish hamda samaradorlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi asosiy ilmiy savollarga javob topish ko‘zda tutiladi:

1. Kichik biznes subyektlari uchun raqamli marketing xizmatlaridan foydalanishning qaysi modellari xos?
2. CPC, CPL, CAC, LTV va ROMI ko‘rsatkichlari raqamli vositalardan fragmentar foydalanishdan tizimli foydalanishga o‘tilganda qanday o‘zgaradi?
3. Raqamli xizmatlar samaradorligining oshishiga ta’sir etuvchi asosiy cheklovchi omillar va rivojlanish nuqtalari nimalardan iborat?
4. O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining raqamli marketingdan maksimal foyda olishi uchun qaysi tashkiliy, texnologik va strategik sharoitlar muhim hisoblanadi?

## Adabiyotlar sharhi

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda raqamli marketing (digital marketing) mijozlarni jalb etish, konversiya jarayonlarini amalga oshirish hamda mijozlarni uzoq muddatli ushlab qolishga yo‘naltirilgan raqamli texnologiyalar va kommunikatsion instrumentlar majmuasi sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv doirasida veb-saytlar, qidiruv tizimi optimizatsiyasi (SEO), qidiruv marketingi (SEM), ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, e-mail marketing va mobil ilovalar asosiy raqamli kanallar sifatida e’tirof etiladi [5]. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, kichik biznes uchun raqamli marketingning ustun jihatlari uning past kirish to‘sig‘i, an’anaviy ommaviy axborot vositalariga nisbatan iqtisodiy samaradorligi hamda natijalarni aniq va tezkor o‘lchash imkoniyatlari bilan izohlanadi.

A.A. Sharabati va hammualliflarining tadqiqotlari kichik va o‘rta biznes subyektlarida raqamli marketing instrumentlaridan foydalanishning moliyaviy natijalarga ta’sirini empirik

jihatdan asoslab beradi. Mualliflar xulosalariga ko‘ra, raqamli kanallardan (ijtimoiy tarmoqlarda marketing, qidiruv reklamasi va raqamli analitika) foydalanish tushum hajmining oshishi, rentabellikning yaxshilanishi hamda mijozlar segmentatsiyasining samaradorlashuvi bilan statistik jihatdan ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan [5]. Ushbu jarayonda mijozlar xulq-atvorini tahlil qilish vositalari (customer behavior analytics) markaziy ahamiyat kasb etishi alohida ta’kidlanadi.

Raqamli marketingning strategik ahamiyati M.Y. Noer tomonidan kichik biznesda innovatsion faollik va raqamli strategiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Muallifning fikricha, tizimli ravishda shakllantirilgan raqamli strategiya korxonalarning moslashuvchanligini oshiradi, innovatsion jarayonlarni rag‘batlantiradi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Ushbu xulosalar R.Setiawan tadqiqotlarida ham tasdiqlangan bo‘lib, unda raqamli marketing mikro, kichik va o‘rta korxonalarda (MSMEs) raqobatbardoshlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida baholanadi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan OESR (OECD) va Jahon banki hisobotlarida kichik biznesning raqamli transformatsiyasi bilan bog‘liq muammo va rivojlanish drayverlari tizimli tarzda yoritilgan. OESRning “The Digital Transformation of SMEs” hisobotida resurslar cheklanganligi, raqamli ko‘nikmalar darajasining yetarli emasligi, raqamli strategiyaning to‘liq shakllanmaganligi hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanish bosqichida ekanligi kichik biznes uchun asosiy cheklovchi omillar sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, hisobotda tadbirkorlarni raqamli marketing, elektron tijorat va CRM instrumentlarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan institutsional qo‘llab - quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi ta’kidlanadi [16]. Jahon bankining “Digitalizing SMEs to Boost Competitiveness” hisobotida esa rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik korxonalar uchun raqamli sotuv va marketing kanallari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda bozor qamrovini kengaytirishning tezkor va samarali vositalaridan biri ekanligi qayd etilgan [2].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlili raqamli marketingning O‘zbekiston kichik biznesi sharoitidagi o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi. J.B. Ergashev kichik korxonalarda raqamli instrumentlar samaradorligini oshirishda “instrumentlar – strategiya – analitika” o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Muallif CRM tizimlarini joriy etish, mijozlar voronkasini (sales funnel) to‘g‘ri shakllantirish va reklama jarayonlarini optimallashtirishni kichik biznes uchun ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilaydi [8]. D.H. Kholmamatov esa raqamli marketing samaradorligini oshirishda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish, kommunikatsiya kanallarini diversifikatsiya qilish va personallashtirilgan marketing vositalarini joriy etish muhimligini ta’kidlaydi [9].

O‘zbekistonda raqamli ekotizimning shakllanishi bilan bog‘liq tadqiqotlar orasida J.Esanov ishlari alohida e’tiborga loyiq. Muallif mahalliy startaplarda raqamli strategiyalar asosan ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarga tayanishini, shu bilan birga analitik yondashuvlarni rivojlantirish orqali ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi [9]. S. Musayeva raqamli marketingni O‘zbekiston iqtisodiy transformatsiyasi jarayonlarining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning kichik biznes subyektlariga xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishini ta’kidlaydi [11]. O. Pirmatov esa internet-marketing texnologiyalarining kichik korxonalar operatsion samaradorligini oshirish, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar sifatini yaxshilash va sotuv jarayonlarini takomillashtirishdagi rolini asoslab beradi [12].

“The Current State and Development Potential of the Digital Marketing Market in Uzbekistan” tadqiqoti mamlakatda raqamli marketing bozorining joriy tendensiyalari, rivojlanish sur’atlari va segmentlar bo‘yicha salohiyatini tahlil qiladi [13]. B. Abdukarimovning oilaviy tadbirkorlikka bag‘ishlangan ishlari esa raqamli instrumentlarning iqtisodiy jihatdan qulayligi va ommabopligi kichik korxonalar uchun yangi loyihalarni boshlash va faoliyatni kengaytirishda muhim imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi [14]. “A Case Study of E-commerce in Uzbekistan” tadqiqotida esa elektron tijoratni joriy etish va onlayn sotuv kanallarini rivojlantirishda raqamli

marketingning hal qiluvchi roli empirik misollar asosida yoritilgan [15].

Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi umumiy xulosalar shakllantiriladi: Raqamli marketing kichik korxonalarda samaradorlik, rentabellik va barqarorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim instrument sifatida e’tirof etiladi [5], [7]. Raqamli instrumentlardan foydalanish samarasi korxonaning raqamli strategiyasi, analitik imkoniyatlari va raqamli ko‘nikmalar darajasi bilan bevosita bog‘liqdir [6], [8]. O‘zbekiston sharoitida raqamli marketing bozorining jadal rivojlanishi, korxonalar o‘rtasida raqamli kompetensiyalar darajasidagi tafovutlar hamda resurslar cheklanganligi xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi [10–13].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot tavsifiy-analitik xarakterga ega bo‘lib, uchta asosiy metodologik elementning uyg‘unligiga tayanadi:

1. Ikkilamchi ma’lumotlar tahlili. Ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda raqamli marketing va kichik biznes sohasiga oid milliy nashrlar tahlil qilinib, sohaviy bilimlarning tizimli yig‘ilishi amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda mavjud nazariy yondashuvlar va empirik natijalar umumlashtiriladi.

2. Amaliy tajribani umumlashtirish. Muallif va tadqiqot jamoasining kichik biznes marketingi hamda sotuv sohasidagi konsalting loyihalari, keys-stadilar va amaliy tajribalari tahlil qilinadi. Bu yondashuv nazariy xulosalarni real biznes amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

3. Ekspert baholarini tahlil qilish. Kichik korxonalar egalari va menejerlarining raqamli marketing samaradorligi hamda uni amaliy qo‘llash tajribasiga oid ekspert fikrlari yig‘iladi, tizimlashtiriladi va tahlil qilinadi.

1-jadval.

**Raqamli marketing samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari[95]**

| Ko‘rsatkich-lar | Qisqartma | Ta’rifi | Formula | O‘lchov birligi | Ma’lumot manbai | Tahlilda qo‘llanilishi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Klik narxi | CPC | Reklamadagi har bir klik uchun sarflangan xarajat | CPC = Budjet / Kliklar soni | so‘m/klik | Reklama kabinetlari | Kreativlar va targeting samaradorligini baholash |
| Lid narxi | CPL | Bitta ariza (lid)ni jalb qilish qiymati | CPL = Budjet / Lidlar soni | so‘m/lid | Reklama kabinetlari, CRM | Kanallarni murojaat qiymati bo‘yicha solishtirish |
| Lidning sotuvga konversiyasi | CR | Xarid bilan yakunlangan lidlar ulushi | CR = (Sotuvlar / Lidlar) × 100 % | % | CRM, sotuv bo‘limi | Trafik sifati va sotuv bo‘limi faoliyatini baholash |
| Mijozni jalb qilish qiymati | CAC | Bitta mijozni jalb qilish uchun sarflangan umumiy marketing xarajatlari | CAC = Marketing xarajatlari / Yangi mijozlar soni | so‘m/mijoz | CRM, moliyaviy hisobotlar | Kanallar samaradorligi va ularning iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlashini aniqlash |
| Mijozning umrbod qiymati | LTV | Mijoz bilan hamkorlik davomida olinadigan umumiy daromad | LTV = O‘rtacha chek × Marjinallik × Xaridlar chastotasi | so‘m/mijoz | CRM, sotuv hisobotlari | Mijozni jalb qilishning uzoq muddatli iqtisodiy foydasini baholash |
| Marketing investitsiyalari qaytarimi | ROMI | Marketingga kiritilgan mablag‘larning qay darajada o‘zini oqlaganini baholash | ROMI = ((Daromad – Marketing xarajatlari) / Marketing xarajatlari) × 100 % | % | Moliyaviy hisobotlar | Raqamli marketing faoliyatlari rentabelligini baholash |

[95] Muallif ishlanmasi

Mazkur metodologik yondashuv evidence-based marketing dalillarga asoslangan marketing) konsepsiyasiga to‘liq mos keladi. Ya’ni qarorlar ilmiy manbalar, amaliy keyslar va boshqaruv tajribasi majmuiga tayangan holda asoslanadi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishga hamda ularning amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli marketing xizmatlari natijadorligini baholash jarayonida bir qator asosiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlarning tanlanishi ularning kichik biznes uchun amaliy ahamiyatga egaligi hamda ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilishi bilan asoslanadi [5], [8], [12] (1-jadval).

Ushbu metodologiyada bir qator muhim cheklovlar e’tiborga olindi:

1. Amaliy keyslar to‘plami O‘zbekistondagi kichik biznes sektorining barcha qatlamlari uchun to‘liq reprezentativ emas bo‘lib, asosan raqamli marketingga qiziqish bildirgan va ushbu yo‘nalishda faol tajribaga ega korxonalar amaliyotini aks ettiradi.

2. Ayrim ma’lumotlar ekspert baholariga asoslangan bo‘lib, ularning aniqligi va to‘liqligi korxonalarda ichki hisobot yuritish tizimining rivojlanish darajasiga bog‘liq.

3. Sezonlik omillar, raqobat muhitidagi o‘zgarishlar hamda makroiqtisodiy shoklar kabi tashqi ta’sirlarni raqamli instrumentlarni joriy etish natijalaridan to‘liq ajratish har doim ham imkoni mavjud emas.

Shu bilan birga, mazkur metodologik yondashuv O‘zbekiston sharoitida raqamli marketingdan foydalanishning tipik modellari va samaradorlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillar haqida yaxlit va tizimli tasavvur shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari mahalliy amaliyot va xalqaro tajriba bilan uyg‘un keladi.

## Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari raqamli marketing xizmatlaridan asosan uchta shartli model asosida foydalanadi. Ushbu modellar empirik tahlil va amaliy tajribalar asosida quyidagicha tasniflanadi.

1. “Strategiyasiz reklama” modeli

Mazkur modelda tadbirkor raqamli marketing faoliyatini aniq maqsadlar, maqsadli auditoriya segmentatsiyasi va mijozlar yo‘lini chuqur tahlil qilmasdan amalga oshiradi. Marketing kampaniyalari asosan ijtimoiy tarmoqlar yoki blogerlar orqali bir martalik shaklda ishga tushiriladi. Ushbu modelning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- CRM tizimi joriy etilmagan;
- analitik tahlil asosan subyektiv baholarga tayanadi;
- CAC darajasi yuqori bo‘lib, mijozlar oqimi barqaror emas.

Natijada marketing faoliyatining ta’siri qisqa muddatli va notekis bo‘lib, umumiy samaradorlik cheklangan darajada namoyon bo‘ladi.

2. “Barcha jarayonlarni pudratchiga topshirish” modeli

Ushbu modelda tadbirkor raqamli marketing faoliyatini to‘liq agentlik yoki frilanserga topshiradi. Asosiy talablar ko‘pincha “ko‘proq mijozlar jalb qilish” yoki “obunachilar sonini oshirish” kabi umumiy va noaniq tarzda belgilanadi. Modelning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- KPI va kutilayotgan natijalar yetarlicha aniqlashtirilmagan;
- CPC va CPL ko‘rsatkichlari maqbul bo‘lishiga qaramay, yakuniy biznes natijalari kutilgan darajada bo‘lmasligi mumkin;
- asosiy cheklov raqamli marketing vazifalarini to‘g‘ri qo‘yish va baholash kompetensiyasining yetarli darajada shakllanmaganligidir [8], [9].

Mazkur model ko‘pincha tadbirkorlarning raqamli marketingdan foydalanishdagi dastlabki bosqichiga xos hisoblanadi.

3. “Raqamli marketing — biznes tizimining integral qismi” modeli

Uchinchi modelda raqamli marketing korxonaning umumiy biznes-modeliga to‘liq integratsiya qilinadi va

quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

— mijozlar segmentatsiyasi aniq belgilangan;
— qiymat takliflari (UTP) ishlab chiqilgan;
— savdo voronkasi birinchi teginishdan boshlab qayta xaridgacha to‘liq shakllantirilgan;
— CRM tizimi samarali faoliyat yuritadi;
— asosiy metrikalar muntazam ravishda monitoring va tahlil qilinadi;
— pudratchilar bilan hamkorlik aniq KPI asosida tashkil etiladi.

Ushbu model kichik biznesda raqamli transformatsiyani amalga oshirish bo‘yicha xalqaro tavsiyalarga to‘liq mos keladi [1], [7].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, birinchi va ikkinchi modellar asosan raqamli marketingda dastlabki tajribaga ega korxonalarga xos bo‘lsa, uchinchi model raqamli kompetensiyaga ega va tizimli yondashuvni qo‘llayotgan kompaniyalarda kengroq uchraydi.

Uchinchi modelga o‘tish quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlaydi:

• CPL va CAC ko‘rsatkichlarining pasayishi (aniq targeting va samarali kreativlar hisobiga);
• CR darajasining oshishi (sotuv bo‘limi faoliyatining standartlashuvi natijasida);
• LTV ko‘rsatkichining o‘sishi (loyallik dasturlari va qayta xarid jarayonining tizimli boshqarilishi hisobiga). Aniqlangan barqaror tendensiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
• CPL pasayishi — raqamli kanallar bilan tizimli ishlash va marketing gipotezalarini muntazam test qilish natijasida;
• murojaatlar sonining o‘sishi — kompleks strategiya va CRM tizimlari joriy etilganda;
• CR oshishi — sotuv jarayonlarining takomillashuvi va trafik sifati yaxshilanganda;
• qayta xaridlar va LTV o‘sishi — chat-botlar, loyallik dasturlari va muntazam kommunikatsiyalarni qo‘llash hisobiga [7].

Mazkur natijalar raqamli marketing faoliyati to‘g‘ri tashkil etilganda kichik biznes sotuvlarini barqaror, bashorat qilinadigan va boshqariladigan jarayonga aylantirishini tasdiqlaydi.

Raqamli marketing samaradorligini cheklovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Aniq maqsadlar va KPI tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi;
2. Mahsulot va xizmatlarning vizual taqdimoti hamda kontent sifati bo‘yicha rivojlanish ehtiyoji;
3. Analitika darajasining pastligi va CRM tizimlarining yetarlicha joriy etilmaganligi;
4. Kadrlar salohiyati va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati;
5. Moliyaviy cheklovlar va qisqa muddatli rejalashtirish yondashuvi.

Raqamli marketing samaradorligini oshiruvchi omillar esa quyidagilarni qamrab oladi:

• asosiy marketing strategiyasining mavjudligi (segmentatsiya, UTP, maqsadlar);
• savdo voronkasining to‘liq shakllantirilishi va asosiy konversiyalarning belgilanishi;
• CRM va analitika tizimlarining joriy etilishi;
• kreativlar, auditoriyalar va takliflar bo‘yicha muntazam testlar o‘tkazilishi;
• marketing va sotuv bo‘limlari o‘rtasidagi integratsiya;
• xodimlar va rahbarlarning raqamli kompetensiyalarini tizimli oshirish.

Mazkur omillar raqamli marketingni “bir martalik reklama” vositasidan “bashorat qilinadigan va barqaror o‘sish”ni ta’minlovchi strategik instrumentga aylantiradi hamda kichik biznes faoliyatining umumiy samaradorligini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

## Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari raqamli marketingdan foydalanishda uchta asosiy modelni qo‘llaydi: “strategiyasiz reklama”, “barcha jarayonlarni pudratchiga topshirish” hamda “raqamli marketing — biznes tizimining integral qismi”. Birinchi ikki modelda marketing faoliyati asosan qisqa muddatli natijalarga yo‘naltirilgan bo‘lib, baholash jarayonlarida subyektiv yondashuvlar ustunlik qiladi. Natijada ushbu modellarda raqamli marketing samaradorligi to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Uchinchi model esa raqamli

marketingni biznes jarayonlari va strategik rejalashtirish bilan uyg‘unlashtirgan korxonalarda qo‘llanilib, barqaror va ijobiy natijalarni ta’minlaydi.

Amaliy tahlil shuni ko‘rsatdiki, uchinchi modelga bosqichma-bosqich o‘tish bir qator muhim afzalliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, CPL va CAC ko‘rsatkichlari pasayadi, konversiya koeffitsienti (CR) hamda mijozning umrbod qiymati (LTV) oshadi, marketing kampaniyalari natijalarini oldindan baholash va prognoz qilish imkoniyatlari kengayadi. Bu holat raqamli marketingning kichik biznes subyektlarida barqaror o‘sishni ta’minlash va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida raqamli marketing samaradorligini oshirish jarayoniga ta’sir qiluvchi bir qator cheklovchi omillar ham aniqlangan. Jumladan, aniq belgilangan maqsadlar va KPI tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi, CRM va analitika vositalaridan foydalanish darajasining pastligi, kadrlar salohiyati va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati hamda moliyaviy resurslarning cheklanganligi dastlabki ikki modelda natijalarning beqaror bo‘lishiga olib keladi. Ushbu omillarni bartaraf etish raqamli marketing samaradorligini oshirish uchun muhim shart hisoblanadi.

O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi uchun eng samarali yondashuv marketing faoliyatini umumiy biznes-modelga integratsiya qilish, CRM va analitika tizimlarini joriy etish, mijozlar segmentatsiyasi va savdo voronkasini to‘liq shakllantirish hamda xodimlar va rahbarlarning raqamli kompetensiyalarini tizimli ravishda oshirishdan iboratdir. Mazkur yondashuv tadbirkorlarga cheklangan resurslar sharoitida ham raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish, barqaror o‘sishni ta’minlash va bozor raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. OECD. The Digital Transformation of SMEs. — 2021–yil. — URL: https://www.oecd.org/en/publications/the-digital- transformation-of-smes_bdb9256a-en.html

2. World Bank. Digitalizing SMEs to Boost Competitiveness. — 2022–yil. URL:https://documents.worldbank. org/urated/en/099515009292224182/P17608901a9db608909f5b02980d48c4e28

3. Sharopova N. Tadbirkorlik faoliyatida raqamli marketing tadqiqotlarining zarurati // Engineering Problems and Innovations. — 2023–yil. — URL: https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/108

4. Sharopova N. Tadbirkorlik faoliyatida iste’molchilar tadqiqotini o‘tkazishda CRM tizimlarining roli // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2023–yil. — 1(4). — B. 50–56.

5. Sharabati A. A. A. The impact of digital marketing on the performance of SMEs: An analytical study in light of modern digital transformations // Sustainability. — 2024–yil. — URL: https://www.mdpi.com/2071-1050/16/19/8667

6. Noer M. Y. Digital marketing and sustainable innovation in SMEs // Cogent Business & Management. — 2025–yil. — URL: https://www.tandfonline.com/doi/full/ 10.1080/23311975.2025.2548953

7. Setiawan R. Digital marketing strategy for sustainable performance of MSMEs // Review of Humanities. — 2025–yil. URL: https://journal.lifescifi.com/index. php/RH/article/view/447

8. Ergashev J. B. Improving the effectiveness of digital marketing in small businesses // Forum molodykh uchenykh. 2023–yil. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/improving-the-effectiveness-of-digital-marketing-in-small- businesses

9. Kholmamatov D. H. The main directions of increasing the effectiveness of digital marketing in small business // Forum molodykh uchenykh. — 2023–yil. — URL:https://cyberleninka.ru/article/n/the-main-directions-of-increasing-the- effectiveness-of-digital-marketing-in-small-business

10.Esanov J. Digital marketing strategies for Uzbek startups //Science and Research.—2024–yil.—URL: https:// inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/87103

11. Musayeva S. Digital marketing strategies in the economic transformation of Uzbekistan // International Journal of Philosophical Studies and Education. — 2024–yil. — URL: https://inlibrary.uz/index.php/ijpse/article/view/84928

12. Pirmatov O. Enhancing small business operations through internet marketing technologies // Asian Research in Modern Science. — 2023–yil. — URL: https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/49953

13.The current state and development potential of the digital marketing market in Uzbekistan // International Journal of Philosophical Studies and Education. — 2024–yil. — URL: https://inlibrary.uz/index.php/ijpse/article/view/124729

14.Abdukarimov B. Digital marketing and family entrepreneurship // Asian ResearchinModernScience2024yil.URL:https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/101649

15. A case study of e-commerce in Uzbekistan // International Journal of ArtificialIntelligence.2024yil.URL:https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/126265

16.OECD. The Digital Transformation of SMEs: Policy Highlights. — 2021–yil. — URL: https://www.oecd.org/content/dam/ oecd/en/publications/support-materials/2021/02/the-digital-transformation-of-smes_ec3163f5/Digital-Transformation- of-SMEs-policy-highlights-en.pdf

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# TA’LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI

**Iboyev Saxiddin Mansurovich**

*mustaqil izlanuvchi,*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: iboevsakhiddin@gmail.com*
*ORCID: 0009-0001-0018-5178*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada ta’lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy modellari va ularning iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi ta’lim sohasida moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi hamda an’anaviy budjet mexanizmlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh), natijaga asoslangan moliyalashtirish (performance-based funding), talabaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish (voucher tizimi), blended finance, endowment fondlari, shuningdek, yashil va ijtimoiy obligatsiyalar kabi zamonaviy moliyaviy mexanizmlar kompleks ravishda ko‘rib chiqiladi. Xususan, O‘zbekiston sharoitida davlat-xususiy sheriklik, aralash moliyalashtirish va natijaga asoslangan yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari ta’lim siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim tizimi, ta’limni moliyalashtirish, zamonaviy moliyaviy mexanizmlar, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), blended finance, natijaga asoslangan moliyalashtirish, voucher tizimi, endowment fondlari, ta’lim kreditlari, yashil obligatsiyalar, ijtimoiy obligatsiyalar, inson kapitali, investitsiyalar, ta’lim sifati, moliyaviy barqarorlik, O‘zbekiston ta’lim tizimi, xususiy sektor ishtiroki, innovatsion moliyalashtirish modellari.*

# СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

**Ибоев Сахиддин Мансурович**

*независимый исследователь*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: iboevsakhiddin@gmail.com*
*ORCID: 0009-0001-0018-5178*

***Аннотация.*** *В данной статье проводится научный анализ современных моделей финансирования системы образования и их экономической эффективности. Актуальность исследования объясняется растущей потребностью в финансовых ресурсах в секторе образования и ограничениями традиционных бюджетных механизмов. В статье всесторонне рассматриваются современные финансовые механизмы, такие как государственно-частное партнерство (ГЧП), финансирование, ориентированное на результаты, финансирование, ориентированное на учащихся (ваучерная система), смешанное финансирование, целевые фонды, а также зеленые и социальные облигации. В частности, в условиях Узбекистана обеспечение устойчивого развития системы образования возможно путем сочетания государственно-частного партнерства, смешанного финансирования и подходов, ориентированных на результаты. Результаты данного исследования имеют практическое значение для совершенствования образовательной политики.*

***Ключевые слова:*** *система образования, финансирование образования, современные финансовые механизмы, государственно-частное партнерство (ГЧП), смешанное финансирование, финансирование, ориентированное на результат, ваучерная система, целевые фонды, образовательные кредиты, зеленые облигации, социальные облигации, человеческий капитал, инвестиции, качество образования, финансовая стабильность,*

*узбекская система образования, участие частного сектора, инновационные модели финансирования.*

## MODERN MODELS OF FINANCING THE EDUCATION SYSTEM

**Iboev Sakhiddin Mansurovich**

*Independent researcher*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: iboevsakhiddin@gmail.com*
*ORCID: 0009-0001-0018-5178*

***Abstract.*** *This article scientifically analyzes modern models of financing the education system and their economic efficiency. The relevance of the study is explained by the increasing need for financial resources in the education sector and the limitations of traditional budget mechanisms. The article comprehensively considers modern financial mechanisms such as public-private partnerships (PPP), performance-based funding, student-oriented funding (voucher system), blended finance, endowment funds, as well as green and social bonds. In particular, in the conditions of Uzbekistan, it is possible to ensure sustainable development of the education system by combining public-private partnerships, blended financing, and performance-based approaches. The results of this study are of practical importance in improving education policy.*

***Keywords:*** *education system, education financing, modern financial mechanisms, public-private partnership (PPP), blended finance, results-based financing, voucher system, endowment funds, educational loans, green bonds, social bonds, human capital, investments, quality of education, financial stability, Uzbek education system, private sector participation, innovative financing models.*

### Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bevosita moliyaviy ta’minot darajasiga bog‘liq. Shu bois ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda an’anaviy budjet tizimi bilan bir qatorda zamonaviy moliyaviy mexanizmlardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ta’limni moliyalashtirish – bu davlat, xususiy sektor va boshqa manbalar hisobidan ta’lim tizimini moddiy jihatdan ta’minlash jarayonidir. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda ta’lim inson kapitaliga investitsiya sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, ta’limga yo‘naltirilgan mablag‘lar uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish omili hisoblanadi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada tizimli tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-statistik usullar va institutsional yondashuvlardan foydalanilgan. Har bir modelning afzalliklari va cheklovlari aniqlanib, ularning ta’lim sifatiga, moliyaviy barqarorlikka hamda investitsion jozibadorlikka ta’siri baholangan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimini samarali moliyalashtirish uchun yagona model yetarli emas, balki turli moliyaviy mexanizmlarning integratsiyalashgan qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega.

### Tahlil va muhokama

O‘zbekiston ta’lim tizimini barqaror rivojlantirish sharoitida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi model ta’lim sohasida resurslardan oqilona foydalanish, investitsiyalar hajmini oshirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilashning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim

tizimida faqat davlat yoki xususiy sektor ustuvorligiga asoslangan yondashuv yetarli darajada samarali emas, balki ularning integratsiyalashgan modeli yuqori natijadorlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston sharoitida DXSh modelini joriy etish bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, boshqaruv va professional xizmatlar segmentida xususiy sektorni jalb etish orqali ta’lim muassasalarida zamonaviy menejment yondashuvlarini joriy qilish mumkin. Ikkinchidan, operatsion xizmatlarni xususiylashtirish orqali davlat xarajatlarini optimallashtirish va xizmatlar sifatini oshirishga erishiladi. Uchinchidan, ta’lim xizmatlarini moliyalashtirishda vaucher va davlat buyurtmasi mexanizmlarini kengaytirish orqali nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini rag‘batlantirish mumkin.

**1-rasm.**

**O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirilgan modelning institutsional tuzilmasi[96]**




Shuningdek, infratuzilma rivojida DXSh mexanizmlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va talabalar turar joylarini qurishda xususiy investitsiyalarni jalb qilish davlat budjeti yukini kamaytiradi va yangi quvvatlarni tezkor yaratish imkonini beradi. Eng samarali yondashuv sifatida infratuzilma va ta’lim xizmatlarini birlashtirgan kompleks DXSh modeli e’tirof etiladi, chunki u resurslardan kompleks foydalanish va risklarni optimal taqsimlashni ta’minlaydi.

Mazkur modelni samarali joriy etish uchun institutsional muhitni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Jumladan, DXSh loyihalari uchun normativ-huquqiy bazani rivojlantirish, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, loyiha samaradorligini baholovchi aniq ko‘rsatkichlar tizimini joriy etish zarur. Shu bilan birga, xususiy investorlar uchun rag‘batlantiruvchi choralar, jumladan soliq imtiyozlari va kafolat mexanizmlarini ishlab chiqish muhimdir. O‘zbekiston ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklik asosidagi integratsiyalashgan

[96] International Finance Corporation. (2020). Public-private partnership handbook. IFC. Ma’lumitlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

modelni joriy etish ta’lim sifati va qamrovini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy o‘sishga xizmat qiluvchi inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

1-jadval.

**Oliy ta’lim investitsiyalari va rivojlanish ko‘rsatkichlari (2025[97])**

| Mamlakat | Xususiy investitsiyalar (pr, %) | DXSH (ppp, %) | Davlat investitsiyalari (pu, %) | Kasbiy ta’lim sifati (Q) | Raqamli ko‘nikmalar (D) | Malakali kadrlar mavjudligi (E) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Buyuk Britaniya | 32 | 29 | 39 | 64.7 | 65.6 | 67.5 |
| Avstraliya | 39 | 24 | 37 | 63.8 | 67.0 | 59.6 |
| Yangi Zelandiya | 51 | 18 | 31 | 63.2 | 65.5 | 52.5 |
| Irlandiya | 72 | 18 | 10 | 64.1 | 66.5 | 62.0 |
| Janubiy Koreya | 38 | 15 | 47 | 63.9 | 66.5 | 65.1 |
| Polsha | 81 | 12 | 7 | 42.2 | 54.5 | 51.6 |
| Italiya | 63 | 11 | 26 | 58.4 | 52.9 | 54.6 |
| Chili | 36 | 10 | 54 | 65.3 | 54.4 | 64.4 |
| Belgiya | 85 | 4 | 11 | 67.8 | 63.8 | 62.1 |
| Fransiya | 79 | 3 | 18 | 62.1 | 58.2 | 59.6 |

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, rivojlangan davlatlarda oliy ta’limni moliyalashtirish modeli sezilarli darajada diversifikatsiyalashgan bo‘lib, xususiy investitsiyalar ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda (Belgiya – 85%, Polsha – 81%, Fransiya – 79%) davlat xarajatlari nisbatan past ulushni tashkil etadi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarining ulushi aksariyat mamlakatlarda cheklangan (3–29%), bu esa PPPning hali to‘liq salohiyatda ishlatilmayotganini ko‘rsatadi.

Natijaviy ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori davlat investitsiyalari ulushiga ega mamlakatlar (masalan, Janubiy Koreya – 47%, Chili – 54%)da kasbiy ta’lim sifati va raqamli ko‘nikmalar darajasi nisbatan yuqori. Masalan, Janubiy Koreyada Q = 63.9, D = 66.5 bo‘lib, bu davlat tomonidan faol moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi aralash moliyalashtirish modeliga ega davlatlarda barcha ko‘rsatkichlar nisbatan muvozanatli (Q ≈ 64, D ≈ 66, E ≈ 60–67).

Biroq, faqat xususiy investitsiyalarga tayanish har doim ham yuqori natija bermaydi. Masalan, Polshada xususiy investitsiyalar ulushi juda yuqori (81%) bo‘lishiga qaramay, kasbiy ta’lim sifati (42.2) va raqamli ko‘nikmalar (54.5) past darajada. Bu holat ta’lim tizimida davlat ishtirokining muhimligini ko‘rsatadi.

Moliyalashtirishning optimal modeli – aralash modeli, bunda faqat davlat yoki faqat xususiy moliyalashtirish emas, balki ularning muvozanatli kombinatsiyasi (UK, Avstraliya tajribasi) eng yuqori natijalarni beradi.

Davlat investitsiyalarining strategik roli yuqori ekanligi ta’lim sifati va raqamli ko‘nikmalar rivojlanishida davlat xarajatlari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi (Janubiy Koreya, Chili misolida). DXSh mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, bu instrumentdan samarali foydalanish imkoniyatlari hali to‘liq ishga solinmaganligini ifodalaydi. Xususiy investitsiyalar samaradorligi institutsional muhitga bog‘liq ya’ni yuqori xususiy ulush har doim yuqori natijaga olib kelmaydi (Polsha holati), bu esa boshqaruv sifati va tartibga solish muhimligini ko‘rsatadi. Raqamli ko‘nikmalar va mehnat bozori integratsiyasi bog‘liqligi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda (UK, Koreya) malakali kadrlar mavjudligi ham yuqori, bu ta’lim va iqtisodiyot integratsiyasini aks ettiradi.

[97] Patrinos, H. A., Barrera-Osorio, F., & Guáqueta, J. (2009). The role and impact of public-private partnerships in education. World Bank.

2-jadval.

**Modellarni solishtirma tahlili[98]**

| Model | Moliyalashtirish manbasi | Afzalligi | Kamchiligi |
|---|---|---|---|
| **Davlat** | Budjet | Tenglik | Samarasizlik |
| **Xususiy** | Talaba, investor | Sifat | Tengsizlik |
| **Aralash** | Davlat + xususiy | Barqarorlik | Murakkablik |
| **DXSh** | Investitsiya + davlat | Katta loyihalar | Risk |
| **Natijaviy** | KPI asosida | Samaradorlik | O‘lchov muammosi |
| **Voucher** | Talaba orqali | Raqobat | Nazorat |
| **Endowment** | Fondlar | Mustaqillik | Sekin rivojlanish |
| **Xalqaro** | Donorlar | Resurs | Qarzdorlik |

Mazkur tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limni rivojlantirishda moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davlat investitsiyalari va institutsional boshqaruv sifati ta’lim natijadorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida ham oliy ta’limni moliyalashtirishda aralash modelni rivojlantirish, DXSh instrumentlarini kengaytirish va xususiy sektor ishtirokini samarali tartibga solish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

3-jadval.

**Moliyalashtirishning klassik va zamonaviy modellari taqqoslama jadvali[99]**

| Mezonlar | Klassik modellari (O‘zbekiston amaliyoti) | Zamonaviy modellari (O‘zbekistonda joriy etilishi va holati) |
|---|---|---|
| **Asosiy yondashuv** | Davlat budjetiga asoslangan | Aralash (davlat + xususiy sektor + xalqaro moliya) |
| **Moliyalashtirish manbasi** | Davlat budjeti ustun (asosiy ulush) | Kontrakt to‘lovlari, DXSh investitsiyalari, xalqaro kredit va grantlar |
| **Boshqaruv tizimi** | Markazlashgan boshqaruv | Qisman mustaqillik (OTMlarga moliyaviy erkinlik berilmoqda) |
| **Moslashuvchanlik** | Past – qat’iy budjet cheklovlari | O‘rta-yuqori – xususiy sektor va grantlar hisobiga kengaymoqda |
| **Samaradorlik** | Xarajatga yo‘naltirilgan | Natijaga yo‘naltirish bosqichida (KPI tizimi joriy qilinmoqda) |
| **Raqobat muhiti** | Past (davlat muassasalari ustun) | O‘rta-yuqori (xususiy universitetlar va maktablar soni ortmoqda) |
| **Risklarni taqsimlash** | Asosan davlat zimmasida | DXSh loyihalarida davlat va investorlar o‘rtasida taqsimlanmoqda |
| **Innovatsionlik** | Past | Raqamli ta’lim, EdTech platformalar, xalqaro dasturlar rivojlanmoqda |
| **Moliyaviy barqarorlik** | Budjetga yuqori bog‘liqlik | Diversifikatsiya boshlangan, ammo hali to‘liq emas |
| **Investitsiya jalb qilish** | Cheklangan | So‘nggi yillarda sezilarli o‘sish (xususiy ta’lim sektori rivojlanmoqda) |
| **Shaffoflik** | O‘rta daraja | Raqamlashtirish orqali oshib bormoqda |
| **Ijtimoiy tenglik** | Yuqori (davlat subsidiyalari orqali) | Grantlar va kreditlar orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda |
| **Asosiy modellar** | Davlat moliyalashtirish modeli | DXSh, kontrakt, xalqaro grantlar, ta’lim kreditlari |
| **Amaliy misollar** | Davlat maktablari va OTMlar to‘liq budjet asosida | Xususiy universitetlar, DXSh asosidagi maktabgacha ta’lim loyihalari |
| **Natijaga yo‘naltirilganlik** | Past | Bosqichma-bosqich joriy etilmoqda |

[98] Barr, N. (2004). Financing higher education: Lessons from economic theory. Higher Education, 47(1), 1–23.
[99] Barr, N. (2004). Financing higher education: Lessons from economic theory. Higher Education, 47(1), 1–23.

Taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatadiki, klassik moliyalashtirish modellari ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynasa-da, zamonaviy modellarga xos bo‘lgan moslashuvchanlik, innovatsionlik va investitsion jozibadorlik darajasi yuqoriroq hisoblanadi. Shu sababli, hozirgi sharoitda eng samarali yondashuv klassik va zamonaviy modellarning integratsiyalashgan (gibrid) kombinatsiyasidan foydalanish hisoblanadi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini moliyalashtirish uzoq vaqt davomida asosan klassik davlat budjeti modeliga tayangan holda rivojlanib keldi. Bu model ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, resurslarning cheklanganligi va samaradorlikning pastligi kabi muammolarni yuzaga keltirdi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida zamonaviy moliyalashtirish modellari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Xususan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida maktabgacha ta’lim muassasalari soni sezilarli oshganini, xususiy oliy ta’lim muassasalari va xorijiy universitetlar filiallari tashkil etilayotganligini, ta’lim kreditlari tizimi kengaytirilib, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kuchaytirilganligini alohida e’tirof etish lozim.

4-jadval.

**O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirilgan modelning asosiy yo‘nalishlari[100]**

| Yo‘nalish | O‘zbekistondagi mos shakli | Amalga oshirish mexanizmi | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|
| **1. Boshqaruv va professional xizmatlar** | Xususiy operatorlar va malakali tashkilotlarni maktabgacha ta’lim, maktab, texnikum va oliy ta’lim muassasalariga boshqaruv-konsalting xizmatlari ko‘rsatishga jalb etish | O‘quv dasturlarini yangilash, xalqaro standart asosida curriculum ishlab chiqish, menejment audit, pedagoglar malakasini oshirish bo‘yicha servis kontraktlari | Ta’lim sifati oshadi, boshqaruv samaradorligi kuchayadi, zamonaviy o‘quv dasturlari joriy etiladi |
| **2. Operatsion xizmatlar** | Ta’lim muassasalarining ayrim yordamchi xizmatlarini xususiy sektor orqali tashkil etish | Ovqatlantirish, IT-servis, xavfsizlik, transport, laboratoriya xizmati, texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha operatsion kontraktlar | Davlatning operatsion xarajatlari qisqaradi, xizmat sifati va tezkorlik oshadi |
| **3. Ta’lim xizmatlari** | Davlat buyurtmasi asosida nodavlat ta’lim muassasalarida o‘quvchilar va talabalarni o‘qitish | Davlat granti, vaucher, per capita moliyalashtirish, ijtimoiy kontraktlar orqali xususiy bog‘cha, maktab va universitetlarga talabalar yo‘naltiriladi | Ta’lim qamrovi kengayadi, davlat infratuzilmasiga yuk kamayadi, raqobat kuchayadi |
| **4. Infratuzilma mavjudligi** | Xususiy investorlar tomonidan ta’lim binolari va obyektlarini qurish hamda ularni davlatga uzoq muddatli foydalanish uchun taqdim etish | “Build-Lease-Transfer”, “Design-Build-Finance-Operate” kabi DXSh modellarida maktab, bog‘cha, yotoqxona, STEM laboratoriya, raqamli markazlar barpo etish | Yangi o‘quv quvvatlari yaratiladi, hududiy taqchillik kamayadi, budjetga bir martalik yuk pasayadi |
| **5. Infratuzilma + ta’lim xizmati kompleksi** | Xususiy sherik nafaqat bino quradi, balki ayrim xizmatlarni ham ko‘rsatadi | Maktabgacha ta’lim markazi, kasb-hunar markazi, IT-maktab, ixtisoslashgan ta’lim klasterlarini qurish va boshqarish bo‘yicha kompleks kontraktlar | Resurslardan kompleks foydalanish ta’minlanadi, risklar optimal taqsimlanadi, sifat nazorati kuchayadi |

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish mexanizmlarining iqtisodiy

[100] Barr, N. (2004). Financing higher education: Lessons from economic theory. Higher Education, 47(1), 1–23.

o‘sishning ijtimoiy-investitsion modelidagi o‘rni va ahamiyatini kompleks baholash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim tizimining rivojlanishi va uning natijadorligi, avvalo, moliyalashtirish manbalari tarkibi va ularning samarali boshqarilishiga bevosita bog‘liq. Xususan, davlat, xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining o‘zaro nisbatlari ta’lim sifati, qamrov darajasi hamda raqamli ko‘nikmalar rivojiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Olingan empirik natijalarga ko‘ra, ta’lim tizimi rivojlanishining asosiy indikatori sifatida raqamli ko‘nikmalar darajasi ajralib chiqdi. Bu ko‘rsatkich zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos ravishda inson kapitalining sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Regression tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, oliy ta’limni moliyalashtirish hajmi va shakli bilan raqamli ko‘nikmalar darajasi o‘rtasida sezilarli ijobiy bog‘liqlik mavjud. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmi eng yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Xususan, DXSh ulushining oshishi raqamli ko‘nikmalar darajasining sezilarli oshishiga olib kelishi aniqlangan bo‘lib, bu ushbu mexanizmning ustuvorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

**Xulosa**

Tahlillar shuni ham ko‘rsatdiki, faqat davlat investitsiyalariga yoki faqat xususiy investitsiyalarga tayanish ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlay olmaydi. Bir tomonlama moliyalashtirish modeli natijadorlikning pasayishiga olib keladi. Davlat investitsiyalariga haddan tashqari tayanish resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytirsa, xususiy investitsiyalar ustuvor bo‘lgan holatlarda esa ijtimoiy tenglik va ta’lim qamrovi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, optimal model sifatida davlat, xususiy sektor va DXSh mexanizmlarining muvozanatli kombinatsiyasiga asoslangan aralash moliyalashtirish modeli eng maqbul yo‘l sifatida e’tirof etiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida investitsiyalar va natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikning institutsional omillar bilan ham chambarchas aloqadorligini ko‘rsatdi. Ya’ni, moliyalashtirish hajmi bilan bir qatorda, uning qanday boshqarilishi, shaffoflik darajasi, hisobdorlik mexanizmlari va tartibga solish sifati ham muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, DXSh mexanizmining samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki boshqaruv samaradorligini oshirish orqali ham namoyon bo‘ladi.

Mazkur ilmiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, oliy ta’limni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish zarur. Buning uchun DXSh bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shartnoma mexanizmlarini standartlashtirish va investorlar uchun barqaror hamda prognoz qilinadigan muhit yaratish lozim.

Ikkinchidan, ta’lim tizimiga xususiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kafolat mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu orqali xususiy sektorning ta’lim sohasidagi ishtirokini kengaytirish mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan, davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish maqsadida ularni strategik yo‘naltirish talab etiladi. Xususan, davlat mablag‘lari asosan infratuzilma, ilmiy-tadqiqot faoliyati va ijtimoiy ahamiyatga ega yo‘nalishlarga yo‘naltirilishi lozim.

To‘rtinchidan, ta’lim tizimida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash muhim hisoblanadi. Buning uchun ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish, mustaqil audit mexanizmlarini joriy etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarur.

Beshinchidan, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash lozim. Chunki aynan ushbu ko‘rsatkich zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta’minlaydi.

Oltinchidan, xalqaro moliyaviy institutlar va investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimini samarali rivojlantirish uchun moliyalashtirishning

diversifikatsiyalashgan va muvozanatli modelini joriy etish zarur bo‘lib, bunda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. World Bank. (2023). *Education finance watch 2023*. World Bank.
2. World Bank. (2020). *Public-private partnerships in education*. World Bank.
3. Asian Development Bank. (2022). *Financing education in Asia and the Pacific*. ADB.
4. OECD. (2023). *Education at a glance 2023: OECD indicators*. OECD Publishing.
5. UNESCO. (2022). *Global education monitoring report 2022*. UNESCO.
6. Patrinos, H. A., Barrera-Osorio, F., & Guáqueta, J. (2009). *The role and impact of public-private partnerships in education*. World Bank.
7. Psacharopoulos, G., & Patrinos, H. A. (2018). Returns to investment in education: A decennial review. *Education Economics*, 26(5), 445–458.
8. Barr, N. (2004). Financing higher education: Lessons from economic theory. *Higher Education*, 47(1), 1–23.
9. OECD. (2020). *Blended finance principles for unlocking commercial finance for the SDGs*. OECD Publishing.
10. International Finance Corporation. (2020). *Public-private partnership handbook*. IFC.
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Ta’lim tizimi rivojlanishi bo‘yicha hisobot*.
12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). *Ta’lim statistikasi to‘plami*.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA UNIVERSITETNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH VA UNI YAXSHILASH STRATEGIYASINI TANLASH

**Ismoilova Feruza Kubaymurodovna**
*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*
*Samarqand filiali o‘qituvchisi*
*E-mail: feruzakubaymurodovna@gmail.com*

**Bozorov Sardor Ilhom o‘g‘li**
*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*
*Samarqand filiali talabasi*
*E-mail: bozorovsardor6907@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada universitetlarning ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi va uni shakllantiruvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Hozirgi sharoitda oliy ta’lim muassasalari bozor iqtisodiyoti subyektlari sifatida faoliyat yuritib, talabalarni jalb qilish, ta’lim sifatini oshirish va o‘z nufuzini mustahkamlash uchun o‘zaro raqobatlashmoqda. Universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va ta’lim xizmatlari sifatini doimiy ravishda takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq ekani aniqlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *raqobatbardoshlik, ta’lim xizmatlari bozori, oliy ta’lim muassasalari, ta’lim sifati, intellektual salohiyat, innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati.*

# ОЦЕНКА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТА НА РЫНКЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ И ВЫБОР СТРАТЕГИИ ЕЕ ПОВЫШЕНИЯ

**Исмоилова Феруза Кубаймуродовна**
*преподаватель*
*Самаркандского филиала*
*Ташкентского университета*
*информационных технологий*
*имени Мухаммада аль-Хорезми*
*E-mail: feruzakubaymurodovna@gmail.com*

**Бозоров Сардор Илхом ўғли**
*студент*
*Самаркандского филиала*
*Ташкентского университета*
*информационных технологий имени*
*Мухаммада аль-Хорезми*
*E-mail:bozorovsardor6907@gmail.com*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется конкурентоспособность университетов на рынке образовательных услуг и основные факторы, её определяющие. В современных условиях высшие учебные заведения, функционирующие как субъекты рыночной экономики, конкурируют друг с другом за привлечение студентов, повышение качества образования и укрепление своей репутации. Установлено, что повышение конкурентоспособности университетов тесно связано с внедрением инновационных*

*подходов, развитием научного потенциала и непрерывным повышением качества образовательных услуг.*

***Ключевые слова**: конкурентоспособность, рынок образовательных услуг, высшие учебные заведения, качество образования, интеллектуальный потенциал, инновации, научно-исследовательская деятельность.*

## ASSESSMENT OF THE UNIVERSITY’S COMPETITIVENESS IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET AND CHOOSING A STRATEGY TO IMPROVE IT

**Ismoilova Feruza Kubaymurodovna**

*Teacher*
*of the Samarkand branch of the*
*Tashkent University of Information Technologies*
*named after Muhammad al-Xorazmiy*
*E-maik: feruzakubaymurodovna@gmail.com*

**Bozorov Sardor Ilhom o‘g‘li**

*Student of the Samarkand branch of the*
*Tashkent University of Information Technologies*
*named after Muhammad al-Khwarizmi*
*E-mail: bozorovsardor6907@gmail.com*

***Abstract.**This article analyzes the competitiveness of universities in the educational services market and the main factors shaping it. In the current environment, higher education institutions, operating as subjects of a market economy, compete with each other to attract students, improve the quality of education and strengthen their reputation. It has been established that increasing the competitiveness of universities is closely related to the introduction of innovative approaches, the development of scientific potential and the continuous improvement of the quality of educational services.*

***Keywords:** competitiveness, educational services market, higher education institutions, quality of education, intellectual potential, innovations, research activities.*

### Kirish

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham oliy ta’lim muassasalari bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yurituvchi muhim subyektlardan biri hisoblanadi. Universitetlar nafaqat bilim beruvchi ijtimoiy institut sifatida, balki ta’lim xizmatlarini ishlab chiqaruvchi va ta’lim bozorida faol ishtirok etuvchi tashkilotlar sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini isloh qilish, yangi universitetlar tashkil etish, xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallarini ochish hamda xususiy oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Natijada ta’lim xizmatlari bozori kengayib, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobat tobora kuchayib bormoqda.

Bugungi kunda ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobat oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida talabalarni jalb qilish, ta’lim sifatini oshirish va o‘zining nufuzini mustahkamlash uchun olib boriladigan jarayonni anglatadi. Har bir universitet o‘zining ta’lim dasturlari, professor-o‘qituvchilar salohiyati, ilmiy-tadqiqot ishlari, zamonaviy o‘quv texnologiyalari hamda moddiy-texnik bazasi orqali boshqalardan ustun bo‘lishga harakat qiladi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonini takomillashtirish, innovatsion o‘qitish usullarini joriy etish, talabalar uchun qulay o‘quv muhiti yaratish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi keng imkoniyatlar doirasi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat oliy ta’lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat (xususiy) universitetlar ham faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, ko‘plab nufuzli xorijiy universitetlarning

filiallari ham ochilib, turli yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim xizmatlari taklif etilmoqda. Bu esa ta’lim xizmatlari bozorida sog‘lom raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Ayrim hududlarda bir xil yoki o‘xshash mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim beruvchi bir nechta oliy ta’lim muassasalari mavjud. Masalan, iqtisodiyot, menejment, axborot texnologiyalari, pedagogika kabi yo‘nalishlarda bir nechta universitetlar mutaxassislar tayyorlaydi. Bu esa universitetlar o‘rtasidagi raqobatni yanada kuchaytiradi. Abituriyentlar esa o‘zlari uchun eng maqbul oliy ta’lim muassasasini tanlash jarayonida ta’lim sifati, professor-o‘qituvchilarning malakasi, zamonaviy o‘quv sharoitlari, amaliyot imkoniyatlari hamda bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish darajasi kabi omillarga e’tibor qaratadi.

Oliy ta’lim muassasalari nafaqat sifatli ta’lim berishga, balki qo‘shimcha xizmatlarni ham taklif etishga intilmoqda. Jumladan, xalqaro almashinuv dasturlari, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik, ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari, zamonaviy laboratoriyalar, elektron kutubxonalar, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari kabi xizmatlar universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, ayrim universitetlar talabalarga qo‘shimcha kurslar, xorijiy tillarni chuqur o‘rganish imkoniyati, amaliy treninglar va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda amaliyot o‘tash imkoniyatlarini ham yaratmoqda.

**Mavzuning dolzarbligi**

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalari ta’lim xizmatlari bozorining muhim ishtirokchilari hisoblanadi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritib, talabalar ehtiyojlarini qondirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Universitetlar o‘rtasidagi sog‘lom raqobat esa ta’lim tizimining rivojlanishiga, innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishiga hamda mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonining yanada takomillashishiga olib kelmoqda.

Universitetlar o‘rtasidagi raqobat — bu oliy ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlash, nufuzini oshirish hamda ko‘proq talabalarni jalb qilishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida universitetlar soni ortib, ta’lim xizmatlari bozori sezilarli darajada kengaydi. Natijada oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobat ham kuchayib, har bir universitet o‘zining ta’lim sifati, ilmiy salohiyati va infratuzilmasini rivojlantirish orqali bozorda barqaror mavqega ega bo‘lishga intilmoqda.

Bugungi kunda universitetlar o‘rtasidagi raqobat faqatgina talabalarni jalb qilish bilan cheklanib qolmaydi. U ta’lim dasturlarini takomillashtirish, zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash kabi ko‘plab yo‘nalishlarni ham qamrab oladi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonini doimiy ravishda modernizatsiya qilish, yangi mutaxassisliklarni ochish hamda talabalar uchun qulay va zamonaviy o‘quv muhitini yaratishga katta e’tibor qaratmoqda.

Biroq ta’lim xizmatlari bozorining tobora rivojlanib borishi universitet raqobatbardoshligini oshirishning yangi va samarali usullarini topishni ham murakkablashtirmoqda. Chunki bugungi kunda deyarli barcha oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va talabalar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishga harakat qilmoqda. Shu sababli universitetlar o‘z raqobatbardoshligini saqlab qolish va kuchaytirish uchun yangi g‘oyalar, ilmiy ishlanmalar hamda innovatsion yondashuvlarga tayanishga majbur bo‘lmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Universitetning raqobatbardoshligi uning ta’lim sifati, narxi, o‘qitish usullari va usullari, imkoniyatlari, joylashuvi, obro‘si, reklama va boshqalar kabi raqobatbardoshlik mezonlari asosida

boshqa oliy ta’lim muassasalaridan ajralib turish qobiliyati bilan belgilanadi. Yangi mutaxassislikni ishga tushirish, qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish va marketing strategiyasini tanlash raqobat muhitini o‘rganish va tahlil qilishni talab qiladi.

Universitetning raqobatbardoshligini tahlil qilish uchun grafik, analitik, statistik va marketing usullari qo‘llaniladi va ta’lim muassasasi va uning asosiy raqobatchilari haqidagi ma’lumotlarni aks ettiruvchi ta’lim xizmatlari bozori xaritalari tuziladi. Ushbu bozor xaritasini tahlil qilish har bir raqobatchining "ta’sir doirasini" aniqlash va nafaqat ularning kuchli va zaif tomonlarini, balki o‘zlarining yutuqlarini ham aniqlash imkonini beradi. Ko‘pgina ta’lim muassasalari raqobatchilarining yutuqlarini o‘rganadi va o‘zlarining professional rivojlanishlariga kiritadi. Ta’lim xizmatlarining raqobatbardoshligi asosan ma’lum bozor sharoitlariga (bozor sharoitlari, mamlakatning demografik holati, bitiruvchilarga ish beruvchilarning talabining o‘zgarishi, ta’lim xizmatlari doirasi, narxlar, to‘lov shartlari va boshqalar) bog‘liq. Universitetning raqobatbardoshligini ta’minlashning bir usuli - yangi ta’lim xizmatlarini ishlab chiqish va joriy etish, ta’limni tashkil etishdagi innovatsiyalar, professional amaliy mashg‘ulotlarning yangi darajalari va batafsilroq ta’lim dasturida raqobatchilaridan oldinda bo‘lish

**Tahlil va natijalar**

Tobora murakkablashib borayotgan raqobat muhitida universitetning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan mavjud bilimlardan samarali foydalanish hamda yangi bilimlarni yaratish qobiliyatiga bog‘liq. Zamonaviy oliy ta’lim muassasasi nafaqat bilim beruvchi tashkilot, balki ilmiy g‘oyalar va innovatsiyalar markazi sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Shuning uchun universitetlar ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish hamda talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etishga alohida e’tibor qaratmoqda. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy laboratoriyalar va ilmiy markazlar tashkil etish ham universitetlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Universitetning raqobatbardoshligi, avvalo, uning ta’lim xizmatlari bozoridagi real va potentsial raqobatchilariga qarshi tura olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bu qobiliyat esa turli xil tashqi va ichki omillarning ta’siri ostida shakllanadi. Tashqi omillarga davlatning ta’lim sohasidagi siyosati, mehnat bozorining ehtiyojlari, demografik jarayonlar, iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda xalqaro ta’lim tizimi bilan integratsiya jarayonlari kiradi. Ichki omillarga esa universitetning moddiy-texnik bazasi, professor-o‘qituvchilar tarkibining malakasi, o‘quv dasturlarining zamonaviyligi, boshqaruv tizimining samaradorligi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanganlik darajasi kiradi.

Shuningdek, universitetning raqobatbardosh ustunliklari ham muhim ahamiyatga ega. Bunday ustunliklar qatoriga ta’lim sifatining yuqoriligi, xalqaro hamkorlikning rivojlanganligi, zamonaviy o‘quv infratuzilmasi, talabalar uchun yaratilgan qulay sharoitlar, amaliyot va ishga joylashish imkoniyatlari kiradi. Aynan shu omillar universitetning ta’lim xizmatlari bozorida o‘ziga xos o‘rnini egallashiga hamda boshqa oliy ta’lim muassasalariga nisbatan ustunlikka ega bo‘lishiga yordam beradi.

O‘zbekiston sharoitida universitetlar o‘rtasidagi raqobat oliy ta’lim tizimining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu raqobat ta’lim sifatining oshishiga, innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishiga hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonining takomillashishiga xizmat qilmoqda. Natijada oliy ta’lim muassasalari nafaqat milliy ta’lim tizimining, balki mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

R. Fathutdinovning so‘zlariga ko‘ra, "universitetning raqobatbardoshligi uning quyidagi qobiliyatlaridir:

1) ma’lum bir tashqi yoki ichki mehnat bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash;

2) bu sohada raqobatbardosh innovatsiyalarni ishlab chiqish;

3) o‘z faoliyatining barcha sohalarida samarali takror ishlab chiqarish siyosatini olib borish" [1]

Shu o‘rinda, universitetni baholash quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1-jadval

**UNIVERSITETNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI***

| № | Baholash ko‘rsatkichi | Mazmuni | Asosiy tarkibiy qismlar |
|---|---|---|---|
| 1. | Universitet imidji | Universitetning jamiyatdagi obro‘-e’tibori va nufuzi | Universitet brendi, jamoatchilik fikri, xalqaro va milliy reytinglardagi o‘rni |
| 2. | Ta’lim sifati | Talabalarga berilayotgan bilim darajasi va o‘quv jarayonining samaradorligi | Zamonaviy o‘quv dasturlari, malakali professor-o‘qituvchilar, innovatsion o‘qitish usullari |
| 3. | Universitet salohiyati | Universitetning ilmiy, intellektual va moddiy imkoniyatlari | Intellektual mulk, moddiy-texnik baza, o‘quv va dam olish sharoitlari |
| 4. | Intellektual mulk (inson resurslari) | Universitetning ilmiy salohiyatini ifodalaydi | Professor-o‘qituvchilar soni, aspirantlar va doktorantlar, yosh olimlarning salohiyati |
| 5. | O‘qish sharoitlari | Talabalarning sifatli ta’lim olishi uchun yaratilgan moddiy imkoniyatlar | Auditoriyalar, laboratoriyalar, kompyuter xonalari |
| 6. | Talabalarning yashash va dam olish sharoitlari | Talabalar uchun yaratilgan ijtimoiy va madaniy infratuzilma | Yotoqxonalar, oshxonalar, sport va dam olish maskanlari |
| 7. | Universitet faoliyati natijalari | Universitetning ta’lim va ilmiy faoliyatdagi samaradorligi | Bitiruvchilar soni, magistratura va doktorantura dasturlari faoliyati, ilmiy yutuqlar |

*Muallif ishlanmasi:

Ta’lim xizmatlari bozorida universitetning raqobatbardoshligini oshirish uchun samarali strategiyani tanlash muhim ahamiyatga ega. Strategiya universitetning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish hamda talabalar va mehnat bozori ehtiyojlariga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobat kuchayib borayotganligi sababli universitetlar o‘z faoliyatini strategik rejalashtirish asosida tashkil etishi zarur.

Universitetning raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi ta’lim sifatini doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Buning uchun zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish muhim hisoblanadi. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini rivojlantirish va interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish ham ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Universitet raqobatbardoshligini oshirishda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish ham muhim strategik yo‘nalishlardan biridir. Universitetda ilmiy markazlar va laboratoriyalarni rivojlantirish, yosh olimlar va talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etish, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish esa universitetning innovatsion salohiyatini oshiradi.

Shuningdek, universitetning raqobatbardoshligini ta’minlashda xalqaro hamkorlikni kengaytirish strategiyasi ham katta rol o‘ynaydi. Xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish, qo‘shma ta’lim dasturlarini tashkil etish, talabalar va professor-o‘qituvchilar almashinuvini yo‘lga qo‘yish universitetning nufuzini oshirishga yordam beradi. Bu esa universitet bitiruvchilarining xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, universitet infratuzilmasini rivojlantirish ham muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Zamonaviy auditoriyalar, laboratoriyalar, kompyuter sinflari, kutubxonalar hamda talabalar uchun qulay yashash va dam olish sharoitlarini yaratish ta’lim jarayonining

samaradorligini oshiradi. Talabalar uchun yaratilgan qulay ijtimoiy muhit ularning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini ham kuchaytiradi.

Universitetning marketing strategiyasini rivojlantirish ham ta’lim xizmatlari bozorida muhim ahamiyat kasb etadi. Universitet o‘zining ta’lim dasturlari, ilmiy yutuqlari va imkoniyatlarini keng jamoatchilikka yetkazish orqali abituriyentlar va hamkor tashkilotlar e’tiborini jalb qilishi mumkin. Shu maqsadda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish zarur.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, universitetning raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Ta’lim sifatini oshirish, ilmiy faoliyatni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda samarali marketing siyosatini yuritish universitetning ta’lim xizmatlari bozorida barqaror va raqobatbardosh faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Ushbu strategiyalarni izchil amalga oshirish natijasida universitetning nufuzi oshib, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyati kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Р.А.Фатхутдинов, Управление конкурентоспособностю организатсии, Москва: Экономика, 2008

2.Геворкян Э.Н. Рынок образовательных ресурсов: аспекты модернизации. - м. ДС Базар. 2005.

3.Michael E. Porter. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – New York: Free Press, 1980.

4.Philip Kotler va Kevin Lane Keller. Marketing Management. – Pearson Education, 2016.

5. Abulxanova Q.H., Raximova D.N., va boshqalar. Davlat xizmati personalni boshqarish. Toshkent: Akademiya, 2002.

6. EshboyevA.X. (2008). Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ta’lim tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’siri: i.f.n. dis. avtoreferati. –T.: -25 b.

7. Эсетова А.М. (2020) Современные особенности и условияя развития рынка образовательных услуг в России. УДК.ББК 65.050.11 Стр: 354 - 357

8. Сагинова, О. В. Маркетинг маркетинга образовательных услуг // Маркетинг в России и за рубежом. - 1999.

9. Pardaev M.Q., Mirzaev Q.J.Pardaev O.M. Xizmat sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2014.-384 b.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHNINING BA’ZI IQTISODIY OMILLARI. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich**
*oliy matematika kafedrasi katta o‘qituvchisi*
*Qarshi davlat texnika universiteti*
*E-mail: shoxsuvorxolbekov@gmail.com*

**Ochilov Orifjon Shohsuvor o‘g‘li**
*Enter engineering kompaniyasi xodimi*
*E-mail: ochilovorifjon04@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati misolida kambag‘allik darajasini pasaytirishga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda bandlik darajasi, aholi daromadlari, investitsiya faolligi, kichik biznes va infratuzilmaning rivojlanish darajasi kabi omillar o‘rganiladi. Shuningdek, kambag‘allikni kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlari va ularni takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida hududiy rivojlanishni ta’minlash va aholi turmush darajasini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *kambag‘allik, bandlik, daromadlar, investitsiya faolligi, kichik biznes, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, hududiy siyosat.*

# НЕКОТОРЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СНИЖЕНИЯ УРОВНЯ БЕДНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

**Холбеков Шохсувор Очилович**
*старший преподаватель*
*кафедры высшей математики*
*Каршинского государственного*
*технического университета*
*E-mail: shoxsuvorxolbekov@gmail.com*
**Очилов Орифджон Шохсувор угли**
*сотрудник*
*инженерной компании Enter*
*E-mail: ochilovorifjon04@gmail.com*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются основные экономические факторы, влияющие на снижение уровня бедности на примере Кашкадарьинской области. В исследовании анализируются уровень занятости, доходы населения, инвестиционная активность, развитие малого бизнеса и инфраструктуры. Также рассматриваются экономические механизмы сокращения бедности и пути их совершенствования. По результатам исследования разработаны научно обоснованные выводы и практические рекомендации по обеспечению регионального развития и повышению уровня жизни населения.*

***Ключевые слова:*** *бедность, занятость, доходы, инвестиционная активность, малый бизнес, инфраструктура, экономическое развитие, региональная политика.*

# SOME ECONOMIC FACTORS OF POVERTY REDUCTION (CASE OF KASHKADARYA REGION)

**Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich**

*Senior Lecturer*
*Department of Higher Mathematics*
*Karshi State Technical University*
*E-mail: shoxsuvorxolbekov@gmail.com*

**Ochilov Orifjon Shohsuvor ogli**

*Employee of Enter*
*Engineering Company*
*E-mail: ochilovorifjon04@gmail.com*

***Abstract.*** *This article analyzes the main economic factors influencing poverty reduction using the example of the Kashkadarya region. The study examines employment levels, household incomes, investment activity, small business development, and infrastructure conditions. It also explores economic mechanisms for reducing poverty and ways to improve them. Based on the findings, scientifically grounded conclusions and practical recommendations are developed to support regional development and improve living standards.*

***Keywords:*** *poverty, employment, income, investment activity, small business, infrastructure, economic development, regional policy.*

## Kirish

Kambag‘allikni qisqartirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat aholi turmush darajasini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allik darajasini pasaytirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, bandlikni oshirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda kambag‘allikni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Aholining real daromadlarini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda hududlar kesimida kambag‘allik darajasini aniqlash va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati demografik salohiyati yuqori, mehnat resurslari salmoqli va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari keng hududlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, hududda kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi omillar — bandlik darajasi, daromadlar barqarorligi, infratuzilma rivoji va investitsiya faolligi — o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu jihatlar mazkur hududni ilmiy tadqiqot uchun dolzarb obyekt sifatida belgilaydi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi Qashqadaryo viloyatida kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillarni aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati bilan izohlanadi.

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatida kambag‘allik darajasini belgilovchi asosiy iqtisodiy omillarni tahlil qilish hamda uni pasaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## Adabiyotlar sharhi

Kambag‘allik darajasini pasaytirish masalalari zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, ushbu jarayonni o‘rganishda statistik, ekonometrik va institutsional yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish va kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda statistik usullardan foydalanish ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beradi [1].

So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda iqtisodiyotni raqamlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish kambag‘allikni kamaytirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jumladan, statistik hisobotlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor qayta

ishlash va sun’iy intellektdan foydalanish orqali iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab berilgan [2].

Ilmiy manbalarda iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ekonometrik modellar asosida chuqur tahlil qilinadi. Xususan, iqtisodiy o‘sish, bandlik darajasi va daromadlar dinamikasi kambag‘allik darajasiga bevosita ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida qaraladi [6].

Ba’zi tadqiqotlarda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda matematik modellashtirish va hisoblash usullarining ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Ushbu yondashuvlar yordamida murakkab iqtisodiy jarayonlar, jumladan, kambag‘allik darajasining o‘zgarishi va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkoniyati kengayadi [3;5].

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri keng o‘rganilgan bo‘lib, ushbu yondashuv orqali inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy faollikni oshirish orqali kambag‘allikni kamaytirish mumkinligi asoslab berilgan [4].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kambag‘allikni kamaytirish ko‘p omilli jarayon sifatida qaralib, iqtisodiy o‘sish, bandlikni oshirish, ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash muhim omillar sifatida e’tirof etiladi [7;8].

Shuningdek, Osiyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilish, kichik biznesni rivojlantirish va hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish orqali kambag‘allik darajasini sezilarli darajada kamaytirish mumkin [9].

Biroq mavjud ilmiy ishlarda hududiy kesimda, xususan Qashqadaryo viloyati misolida kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillarni kompleks va tizimli tarzda o‘rganish yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda statistik, ekonometrik va raqamli yondashuvlar asosida kambag‘allikni pasaytirish omillari chuqur tahlil qilinadi hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalar ishlab chiqiladi [1;2;6].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini kambag‘allik darajasini pasaytirish jarayonini o‘rganishga qaratilgan zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, statistik va ekonometrik yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda kambag‘allik ko‘p omilli ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qaralib, unga ta’sir etuvchi omillar tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv asosida kambag‘allik iqtisodiy tizimning tarkibiy elementi sifatida o‘rganilib, daromadlar darajasi, bandlik, investitsiyalar, infratuzilma va tadbirkorlik faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariy jihatdan asoslab berildi. Ushbu yondashuv orqali kambag‘allikning shakllanishi va unga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro ta’siri kompleks tarzda yoritildi.

Kompleks yondashuv yordamida kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Bu esa iqtisodiy o‘sish, bandlik darajasi, daromadlar barqarorligi va investitsiya faolligining kambag‘allikka ta’sirini birgalikda baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda, shuningdek, ekonometrik yondashuv nazariy asos sifatida qo‘llanilib, kambag‘allik darajasi va unga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni modellashtirish imkoniyatlari yoritildi. Ushbu yondashuv iqtisodiy o‘sish, bandlik va daromadlar dinamikasining kambag‘allik darajasiga ta’sirini aniqlashda muhim ilmiy vosita sifatida xizmat qiladi [6].

Statistik yondashuv doirasida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, ularni umumlashtirish va taqqoslash orqali kambag‘allik darajasini baholashning nazariy asoslari ko‘rib chiqildi. Statistik usullar yordamida hududiy farqlarni aniqlash va iqtisodiy omillar ta’sirini baholash imkoniyatlari kengayadi [1].

Raqamli yondashuv esa zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, sun’iy intellekt va ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlash tizimlaridan foydalanish orqali iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu yondashuv kambag‘allik darajasini aniqlash va monitoring qilishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida Qashqadaryo viloyati ko‘rsatkichlarini boshqa hududlar bilan solishtirishning nazariy asoslari yoritildi. Ushbu yondashuv hududiy farqlarni aniqlash va samarali iqtisodiy siyosat yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Mantiqiy umumlashtirish, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez usullari yordamida mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi hamda kambag‘allikni pasaytirishning nazariy asoslari shakllantirildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlab, kambag‘allik darajasini pasaytirishga qaratilgan samarali iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy zamin yaratadi.

**Tahlil va natijalar**

Kambag‘allik darajasini pasaytirish masalasi Qashqadaryo viloyati misolida tahlil qilinganda, uning shakllanishi va o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Hududiy iqtisodiy tuzilma, mehnat resurslari salohiyati, investitsiya faolligi hamda infratuzilma rivoji kambag‘allik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu bo‘limda aynan shu omillar chuqur tahlil qilinib, ularning natijalari umumlashtiriladi.

1. Bandlik darajasi va uning kambag‘allikka ta’siri

Qashqadaryo viloyati aholisi sonining yuqoriligi va mehnat resurslarining katta ulushga egaligi bilan ajralib turadi. Biroq mavjud ish o‘rinlarining yetarli darajada yaratilmaganligi kambag‘allik darajasining yuqori bo‘lishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida yashovchi aholining asosiy qismi mavsumiy yoki past daromadli ishlar bilan band.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, doimiy va barqaror ish o‘rinlariga ega bo‘lgan aholi qatlamida kambag‘allik darajasi sezilarli darajada past bo‘ladi. Aksincha, norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan yoki vaqtinchalik ish bilan band aholida daromadlarning beqarorligi kambag‘allik xavfini oshiradi. Shu sababli bandlikni ta’minlash kambag‘allikni kamaytirishning asosiy iqtisodiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Aholi daromadlari va ularning barqarorligi

Viloyatda aholi daromadlari tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosiy daromad manbalari ish haqi, dehqonchilik va kichik tadbirkorlik faoliyatidan shakllanadi. Biroq ushbu daromadlarning katta qismi past darajada bo‘lib, ularning barqarorligi ham yetarli emas.

Daromadlar darajasining pastligi aholi iste’mol imkoniyatlarini cheklab, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ko‘p bolali oilalarda daromadning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ulushi past bo‘lib, bu kambag‘allik darajasining yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, daromadlar diversifikatsiyasi (bir nechta daromad manbalarining mavjudligi) kambag‘allikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Bir nechta daromad manbalariga ega bo‘lgan oilalarda moliyaviy barqarorlik yuqori bo‘ladi.

3. Kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanish darajasi

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish kambag‘allikni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik faoliyati rivojlangan hududlarda aholi daromadlari yuqori va bandlik darajasi barqaror bo‘ladi.

Biroq ayrim hududlarda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, kredit olishdagi qiyinchiliklar va biznes yuritish ko‘nikmalarining yetishmasligi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini sekinlashtirmoqda. Natijada aholi o‘z daromadlarini oshirish imkoniyatidan to‘liq foydalana olmayapti.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish shakllari kengayib borayotgan bo‘lsa-da, ularning samaradorligi hali ham past darajada qolmoqda. Bu esa kambag‘allikni qisqartirish jarayonini sekinlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

4. Investitsiya faolligi va uning ahamiyati

Hududga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi va ularning samaradorligi kambag‘allik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiyalar yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarish

hajmini kengaytirish va aholi daromadlarini oshirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya loyihalari amalga oshirilgan hududlarda iqtisodiy faollik oshib, kambag‘allik darajasi nisbatan pasayadi. Biroq Qashqadaryo viloyatida investitsiya faolligi barcha hududlarda bir xil darajada emas. Ayrim chekka hududlarda investitsiya oqimining pastligi iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini sekinlashtirmoqda.

Shu bois investitsiyalarni hududlar kesimida teng taqsimlash va ayniqsa, infratuzilma kam rivojlangan hududlarga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Infratuzilma rivoji va iqtisodiy faollik

Transport, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi hududiy iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qashqadaryo viloyatining ayrim hududlarida infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi iqtisodiy faollikni cheklab, kambag‘allik darajasining yuqori bo‘lishiga olib kelmoqda.

Yaxshi rivojlangan infratuzilmaga ega hududlarda biznes yuritish osonlashadi, investitsiyalar jalb qilinadi va aholi bandligi oshadi. Aksincha, infratuzilmasi zaif hududlarda iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan bo‘ladi.

6. Qishloq xo‘jaligi va uning roli

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi asosiy iqtisodiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Aholining katta qismi aynan ushbu sohada band bo‘lib, daromadlar ham asosan shu sohadan shakllanadi.

Biroq qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining pastligi, texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi va bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi daromadlarning past bo‘lishiga olib kelmoqda. Natijada qishloq aholisi orasida kambag‘allik darajasi yuqori saqlanib qolmoqda.

7. Natijalarni umumlashtirish

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalar shakllantirildi:

kambag‘allik darajasi bandlik va daromadlar bilan bevosita bog‘liq;

kichik biznes va tadbirkorlik rivoji kambag‘allikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi;

investitsiya faolligi hududiy iqtisodiy rivojlanishni belgilovchi asosiy omillardan biridir;

infratuzilma rivoji iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi;

qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish kambag‘allikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida kambag‘allik darajasini pasaytirish iqtisodiy omillarni kompleks rivojlantirishni talab qiladi. Tahlil natijalari ushbu yo‘nalishda tizimli va maqsadli siyosat yuritish zarurligini ko‘rsatadi.

**Xulosa**

Olib borilgan tahlillar natijasida Qashqadaryo viloyatida kambag‘allik darajasi ko‘p omilli iqtisodiy jarayon sifatida shakllanishi va uning darajasi asosan bandlik, aholi daromadlari, tadbirkorlik rivoji, investitsiya faolligi hamda infratuzilma holatiga bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ushbu omillarning o‘zaro uyg‘un rivojlanishi kambag‘allikni qisqartirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Xususan, viloyatda mehnat resurslari salohiyatining yuqori bo‘lishiga qaramay, ish o‘rinlarining yetarli emasligi va daromadlar barqarorligining pastligi kambag‘allik darajasining saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ayrim hududlarda investitsiya faolligining pastligi hamda infratuzilma muammolari iqtisodiy imkoniyatlarni cheklab qo‘ymoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalar shakllantirildi:

kambag‘allik darajasi iqtisodiy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ayniqsa bandlik va daromadlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi;

tadbirkorlik va investitsiyalar iqtisodiy faollikni oshirish orqali kambag‘allikni kamaytiradi;

infratuzilma rivoji hududiy iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi;

qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish aholi daromadlarini oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Bandlikni oshirishga qaratilgan siyosatni kuchaytirish

Hududda yangi ish o‘rinlarini yaratish, ayniqsa sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash zarur.

Aholi daromadlarini oshirish va diversifikatsiya qilish

Qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish, o‘zini o‘zi band qilish va kasanachilikni rivojlantirish orqali daromadlar barqarorligini ta’minlash lozim.

Kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash

Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va maslahat xizmatlarini kengaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish muhim.

Investitsiya muhitini yaxshilash

Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ayniqsa chekka hududlarga investitsiyalarni yo‘naltirish zarur.

Infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish

Transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish lozim.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish

Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali qishloq aholisi daromadlarini ko‘paytirish zarur.

Kadrlar salohiyatini oshirish

Kasbiy ta’lim va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish orqali mehnat bozoriga mos mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatida kambag‘allik darajasini pasaytirish uchun iqtisodiy omillarni kompleks rivojlantirish, hududiy siyosatni kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu esa nafaqat hududning, balki umuman milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Холбеков Ш.О. *Iqtisodiyotda axborotlardan foydalanishning statistik usullari*. “O‘zbekiston statistika axborotnomasi”, №3(17), 2023.

2. Холбеков Ш.О., Ochilov Sh.Sh. *Statistik hisobotlarni qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirishda sun’iy intellektdan foydalanish*. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali, №12, 2025, 1330–1343-betlar.

3. Холбеков Ш.О. *Muhandislik yo‘nalishi talabalari uchun matematika fanining ahamiyati va dolzarbligi*. “Новости образования: исследование XXI века”, №32(100), 2025, 579–582-betlar.

4. Холбеков Ш.О. *Mexanikada fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi: muammolar, yechimlar va istiqbollar*. Qarshi davlat texnika universiteti xalqaro ilmiy-texnik anjumani materiallari, 2025.

5. Холбеков Ш.О., Ochilov Sh.Sh. *Yaqinlashuvchi monoton ketma-ketliklarning arifmetik amallardagi tadbiqlari*. “E-learning”, №1, Vol.6, 2025, 49–58-betlar.

6. Холбеков Ш.О. *Iqtisodiy o‘sish va kambag‘allik darajasini pasaytirishni ekonometrik modellashtirish*. “Science and Education in Agriculture”, №11, 2025, 451–456-betlar.

7. World Bank. *Poverty and Shared Prosperity Report*. Washington DC, 2022.

8. UNDP. *Human Development Report*. New York, 2023.

9. Asian Development Bank. *Poverty Reduction in Asia*. Manila, 2022.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# ИНДИВИДУАЛ СПОРТЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШ АМАЛИЁТИГА БАҒИШЛАНГАН ИЛМИЙ НАЗАРИЯЛАРНИНГ ГУРУҲЛАНИШИ

**Жунайдуллаев Мелс Аслиддин ўғли**

*спорт фаолияти*
*кафедраси доценти (PhD)*
*Бухоро давлат университети*
*E-mail: melsjunaydullayev@gmail.com*

***Аннотация.*** *Мазкур мақолада индивидуал спортчиларни тайёрлаш тизимини бошқариш амалиётига бағишланган илмий назарияларнинг гуруҳланиши таҳлил қилинган. Тадқиқотда спортчиларни тайёрлаш жараёнида қўлланиладиган педагогик, психологик ва бошқарувга оид назариялар тизимли равишда ўрганилиб, уларнинг ўзаро боғлиқлиги ва амалий аҳамияти очиб берилган. Шунингдек, индивидуал ёндашув, мотивацияни шакллантириш, машғулот жараёнини самарали ташкил этиш ҳамда бошқарув функцияларини такомиллаштиришга қаратилган илмий қарашлар гуруҳларга ажратилган. Мақолада мазкур назарияларни интеграциялаш асосида спортчиларни тайёрлаш тизимини бошқариш самарадорлигини ошириш имкониятлари асослаб берилган ҳамда амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:*** *индивидуал спортчи, тайёрлаш тизими, бошқарув, илмий назариялар, педагогик ёндашув, психологик ёндашув, спорт менежменти, мотивация, индивидуаллаштириш, машғулот жараёни, бошқарув функциялари, самарадорлик, тизимли ёндашув.*

# ГРУППИРОВКА НАУЧНЫХ ТЕОРИЙ, ПОСВЯЩЕННЫХ ПРАКТИКЕ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ПОДГОТОВКИ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ СПОРТСМЕНОВ

**Джунайдуллаев Мелс Аслиддин уғли**

*доцент ((PhD)) кафедры*
*спортивная деятельность*
*Бухарский государственный университет*
*E-mail: melsjunaydullayev@gmail.com*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется группировка научных теорий, посвященных практике управления системой подготовки индивидуальных спортсменов. В исследовании систематически изучаются педагогические, психологические и управленческие теории, используемые в процессе подготовки спортсменов, выявляются их взаимосвязь и практическое значение. Также в группы выделены научные взгляды, направленные на индивидуальный подход, формирование мотивации, эффективную организацию тренировочного процесса и совершенствование управленческих функций. В статье, на основе интеграции этих теорий, обосновываются возможности повышения эффективности управления системой подготовки спортсменов и разрабатываются практические рекомендации.*

***Ключевые слова:*** *индивидуальный спортсмен, система подготовки, управление, научные теории, педагогический подход, психологический подход, спортивное управление, мотивация, индивидуализация, тренировочный процесс, управленческие функции, эффективность, системный подход.*

# GROUPING OF SCIENTIFIC THEORIES DEDICATED TO THE PRACTICE OF MANAGEMENT OF THE TRAINING SYSTEM OF INDIVIDUAL ATHLETES

**Junaydullaev Mels Asliddin ogli**
*Associate Professor (PhD) of the Department of "Sports Activities"*
*Bukhara State University*
*E-mail: melsjunaydullayev@gmail.com*

***Abstract.*** *This article analyzes the grouping of scientific theories dedicated to the practice of managing the training system of individual athletes. Pedagogical, psychological and management theories used in the process of training athletes are systematically studied in the research, and their interrelationship and practical importance are revealed. Also, scientific views aimed at individual approach, formation of motivation, effective organization of the training process and improvement of management functions are divided into groups. In the article, based on the integration of these theories, the possibilities of increasing the effectiveness of the management of the training system of athletes are substantiated and practical recommendations are developed.*

***Keywords:*** *individual athlete, training system, management, scientific theories, pedagogical approach, psychological approach, sports management, motivation, individualization, training process, management functions, efficiency, systematic approach.*

**Кириш**

Замонавий спорт муносабатлари, жумладан, спорт тизимида индивидуал спортчиларнинг глобал даражадаги юқори нуфузли тадбирлари ва мусобақаларида самарали иштирокини таъминланишида спортчиларнинг фақатгина жисмоний тайёргарлиги эмас, балки, индивидуал спортчининг функционал, психологик ва ақлий-интеллектуал имкониятларидан бир вақтнинг ўзида ўзаро мутаносибликда фойдаланиш ва уларни ўзаро мувофиқлшган тартибда ривожлантиришга бўлган зарурият ортиб бормоқда. Мазкур вазиятнинг тобора глобал даражада индивидуал спортчиларни тайёрлаш тизимини бошқариш амалиётини такомиллаштиришдаги аҳамияти ортиб бориши шароитида мазкур йўналишдаги илмий тадқиқотларни амалга ошириш зарурияти тобора кучайиб, Ўзбекистон шароитида ҳам бу турдаги илмий тадқиқотларни амалга оширилишини тақозо этмоқда.

**Адабиётлар шарҳи**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida keng ko‘lamli institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida bank faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish, risklarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish va prudensial nazoratni kuchaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. “Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki va boshqa yetakchi moliya institutlari bilan hamkorlikda iqtisodiyotimizni texnologik modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, barqaror energetika va transport loyihalarini amalga oshirish borasidagi ishlarni davom ettiramiz” [1]. Bu jarayon kredit risklarini boshqarish tizimining alohida operatsion funksiyadan bankning umumiy boshqaruv arxitekturasiga integratsiyalashgan kompleks tizimga aylanishiga olib keldi.

**Adabiyotlar sharhi**

Kredit risklarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti iqtisodiy fanlarda keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ushbu masala asosan bank risklari nazariyasi, prudensial nazorat va moliyaviy barqarorlik konsepsiyalari doirasida tadqiq etiladi.

Hyman Minsky moliyaviy beqarorlik gipotezasida kredit ekspansiyasi va risklarning ortishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab bergan. Uning fikricha, iqtisodiy o‘sish davrida banklar riskga moyilligi ortib boradi va bu kelajakda moliyaviy inqirozlarga olib kelishi mumkin (Hyman Minsky, 1986) [2].

Douglas Diamond va Philip Dybvig tomonidan ishlab chiqilgan banklar barqarorligi modeli esa kredit risklari va likvidlik risklari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushuntirib beradi (Douglas Diamond; Philip Dybvig, 1983) [3]. Ushbu model bank tizimida ishonchning ahamiyatini va risklarni boshqarish mexanizmlarining zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan Bazel standartlari kredit risklarini boshqarishning asosiy metodologik asosini tashkil etadi. Ayniqsa, Basel II (2004) va Basel III (2010) [4] talablarida kapital yetarliligi, risklarni o‘lchash va stress-testlash mexanizmlari keng yoritilgan.

Milliy olimlar tomonidan ham kredit risklarini boshqarish masalalari o‘rganilgan bo‘lib, ular asosan bank tizimida aktivlar sifati, muammoli kreditlar va prudensial nazoratni takomillashtirish yo‘nalishlariga e’tibor qaratganlar. Xususan, Bekmurodov A.Sh. [5], Toshmurodova B.Y[6] va Ruziev Sh.A[7] tadqiqotlarida kredit portfeli sifati va bank risklarini boshqarish masalalari tahlil qilingan. Biroq mavjud tadqiqotlarda kredit risklarini boshqarish tizimining institutsional integratsiyasi va uning amaliy samaradorligini kompleks baholash yetarli darajada yoritilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning bir qator zamonaviy usullari qo‘llanildi. Xususan, tizimli yondashuv asosida O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi yaxlit mexanizm sifatida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usuli, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, ekspert baholash usuli, institutsional yondashuv metodlaridan foydalanildi.

## Tahlil va natijalar

Empirik ma’lumotlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulletenlari, moliyaviy barqarorlik sharhlari hamda amaldagi normativ hujjatlaridan foydalanildi.Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimining amaldagi holatini tahlil qilish, uning institutsional va amaliy jihatlarini baholash hamda mavjud muammolar asosida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi so‘nggi yillarda alohida kredit bo‘limi doirasidagi amaliyotdan chiqib, bankning korporativ boshqaruvi, ichki nazorati, prudensial me’yorlari va makroprudensial kuzatuvi bilan uzviy bog‘langan kompleks tizimga aylanib bormoqda. Bu jarayonning institutsional asosi 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi bilan mustahkamlandi; unda bank ishini zamonaviy standart va tamoyillarga moslashtirish, yangi tahrirdagi bank qonunchiligini joriy etish va transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Markaziy bankning Prudensial nazorat departamenti ham tijorat banklarini tartibga solish va ularni masofaviy nazorat qilishni bank tizimi barqarorligini saqlashning asosiy instrumentlaridan biri sifatida amalga oshiradi.

1-Rasm.

**O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi[8]**




Amaldagi tizimning markaziy me’yoriy tayanchi 2023-yilda qabul qilingan “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi[9]. nizomdir. Mazkur hujjatda kredit tavakkalchiligi qarzdorning bank oldidagi majburiyatlarini shartnoma yoki qonunchilikda belgilangan muddat va shartlarda bajarmasligi oqibatida bank zarar ko‘rishi yoki rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimoli sifatida talqin etiladi. Nizom tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini barcha risklarni tizimli aniqlash, o‘lchash, monitoring qilish, nazorat qilish, hisobotini yuritish va kamaytirishga qaratilgan boshqaruv organlari hamda maxsus bo‘linmalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida belgilaydi. Demak, O‘zbekiston banklarida kredit riskini boshqarish endilikda alohida operatsion funksiya emas, balki

bank boshqaruv arxitekturasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Mazkur tizimning tashkiliy modeli korporativ boshqaruv tamoyillari asosida qurilgan. Nizomga ko‘ra, kuzatuv kengashi risk bo‘linmasi va komplayens bo‘linmasini tashkil etishi, ularning mustaqilligini ta’minlashi, rahbarlarini tayinlashi hamda ular bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlashi lozim. Bank boshqaruvi esa kuzatuv kengashi tasdiqlagan risk-appetit bayonoti, tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati va boshqa ichki hujjatlar asosida tizimning samarali ishlashini ta’minlaydi. Shu bilan birga, O‘zbekiston amaliyotida “uch himoya chizig‘i” yondashuvi ham normativ tarzda mustahkamlangan: ikkinchi chiziq tavakkalchilik va nazorat funksiyalariga mas’ul bo‘linmalarni, uchinchi chiziq esa ichki audit xizmatini anglatadi. Ichki audit xizmati kengash va audit qo‘mitasiga bevosita bo‘ysunadi hamda bankning ichki nazorat va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini baholaydi.

Kredit riskini boshqarish bo‘yicha amaldagi talablarning muhim jihati shundaki, ular faqat berilgan kreditlar bilan cheklanmaydi. 2023-yilgi nizomda kredit tavakkalchiligini boshqarishda bank balansidagi va balansdan tashqari majburiyatlar, jumladan foydalanilmagan kredit liniyalari, chaqirib olinmaydigan majburiyatlar, akkreditivlar, kafolat va kafilliklar, shuningdek hosilaviy instrumentlar bo‘yicha talablar ham hisobga olinishi belgilangan. Bu yondashuv kredit riskini tor ma’noda “ssuda riski” emas, balki bankning kredit ekspozitsiyasi mavjud bo‘lgan barcha instrumentlar bo‘yicha yaxlit risk sifatida ko‘rishga imkon beradi.

O‘zbekiston banklarida kredit riskini boshqarish tizimining yana bir muhim elementi risk-appetit va limitlar tizimidir. Amaldagi nizomga muvofiq, bankning kredit tavakkalchiligi bo‘yicha risk-appetiti kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi va u bank qabul qilishga tayyor bo‘lgan jami kredit riskini ifodalaydi. Ushbu risk-appetitda kreditlarning jami aktivlardagi maksimal ulushi, kredit portfelining yillik o‘sish sur’ati, bir qarz oluvchi yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi bo‘yicha riskning I darajali kapitalga nisbati, ayrim kredit mahsulotlari ulushi kabi miqdoriy ko‘rsatkichlar belgilanishi shart. Agar ushbu chegaralarga yaqinlashuv yoki ularning buzilishi yuz bersa, tavakkalchilik bo‘linmasi bir ish kunidan kechiktirmay kuzatuv kengashi, boshqaruv va risk qo‘mitasini xabardor qilishi hamda besh ish kuni ichida tuzatuvchi choralarni taklif qilishi lozim.

Kreditlashning amaliy bosqichlari ham alohida normativlashgan. Nizomga ko‘ra, kreditlash jarayoni kuzatuv kengashi tasdiqlagan kredit siyosati asosida yuritiladi. Kredit siyosatida kreditlashning iqtisodiyot tarmoqlari, valyuta turi, muddati, ta’minot turi va mahsulotlar kesimidagi asosiy yo‘nalishlari, kredit qo‘mitasi majlislari va hisobot berish davriyligi, kreditlarning tarmoqlar, hududlar, garov turlari, valyutasi va qarz oluvchilar guruhi kesimidagi konsentratsiyasi bo‘yicha talablar aks etishi kerak. Xorijiy valyutadagi kreditlar bo‘yicha esa qarz oluvchilarning ushbu kreditlarni so‘ndirish imkoniyati va moliyaviy holatini alohida tahlil qilish majburiyati mavjud. Bundan tashqari, 2025-yildan kuchga kirgan o‘zgartirishlar garov predmetining bozor qiymatini baholash va qayta baholash tartibini ham yanada aniqroq belgilab berdi.

Kredit portfeli sifati ustidan nazorat O‘zbekistonda aktivlarni tasniflash va zaxiralar shakllantirish mexanizmi orqali amalga oshiriladi. 2015-yildagi asosiy nizom va unga 2021 hamda 2024-yillarda kiritilgan o‘zgartirishlar tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash, ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralar yaratish va muammoli aktivlarni qayta tasniflash tartibini belgilaydi. 2024-yilgi o‘zgartirishlarda “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” aktivlar bilan ishlash tartibi aniqlashtirildi: masalan, “substandart” aktiv ketma-ket uchta to‘lov o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilganda “standart”ga qayta tasniflanishi mumkin; uch yoki undan ortiq marotaba qayta ko‘rib chiqilgan aktiv esa “umidsiz” toifada tasniflanadi va odatda yaxshiroq toifaga qayta o‘tkazilmaydi. Bu yondashuv kredit portfelining real sifatini yashirmaslik va restrukturizatsiyani sun’iy “sog‘lomlashtirish” vositasiga aylantirmaslikka xizmat qiladi.

Kredit riskini boshqarish tizimining hisob va hisobot bilan bog‘liq qismi ham sezilarli darajada modernizatsiya qilingan. Markaziy bank ma’lumotiga ko‘ra, tijorat banklari 2021-yil 1-yanvardan boshlab buxgalteriya hisobini MHXS asosida yuritishi va moliyaviy hisobotni shu

standartlar asosida tayyorlashi belgilangan. Bu, ayniqsa, IFRS 9 doirasidagi expected credit loss yondashuvini bosqichma-bosqich joriy etish uchun muhim zamin yaratdi. 2025-yilda ishlab chiqilgan FSAP Roadmap hujjatida esa NPL ulushi bo‘yicha ma’lumotlarni IFRS 9 asosida to‘liq shakllantirish amaliyoti joriy etilgach, ushbu ma’lumotlardan solvency macro stress testlarda foydalanish ko‘zda tutilgani qayd etilgan. Shunday qilib, O‘zbekistonda kredit riskini boshqarish tizimi faqat prudensial nazorat emas, balki moliyaviy hisobot sifati va kutilayotgan zararlarni oldindan aks ettirish mexanizmi bilan ham bog‘lanmoqda.

Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan nazorat amaliyoti ham riskga asoslangan model tomon siljiganini ko‘rsatadi. 2025-yilgi yillik hisobotga ko‘ra, kredit portfeli sifati ustidan tahliliy nazorat bank, hudud, tarmoq va qarz oluvchi segmenti kesimida kuchaytirilgan; bank tizimi barqarorligi uchun muhim bo‘lgan yirik ekspozitsiyalarni boshqarish maqsadida TOP-50 yirik qarz oluvchining banklar moliyaviy holatiga ta’siri bo‘yicha yangi nazorat amaliyoti joriy etilgan. Shu hisobotda Jahon banki va xalqaro valyuta jamg‘armasi ko‘magida moliyaviy sektorni baholash dasturi o‘tkazilgani(FSAP — Financial Sector Assessment Program) hamda bank nazorati tizimining Basel Core Principlesga muvofiqligi baholanganligi qayd etiladi. Bu holat O‘zbekiston banklarida kredit riskini boshqarish tizimi milliy me’yorlardan tashqari xalqaro prudensial standartlar bilan ham taqqoslanayotganini anglatadi.

Amaldagi tizim samaradorligini baholashda so‘nggi ko‘rsatkichlar muhim. Markaziy bankning 2025-yil birinchi yarim yillik Moliyaviy barqarorlik sharhiga ko‘ra, bank tizimida umumiy kapital yetarliligi 17,4 foiz, CET1 ko‘rsatkichi 14,6 foiz, NPL ulushi 3,8 foiz, LCR 195 foiz va NSFR 117 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, makro-stress test natijalariga ko‘ra, bazaviy ssenariyda kapital yetarliligi oshishi mumkin bo‘lsada, noqulay ssenariyda u 8,4 foizgacha tushib, minimal talablar ostiga tushishi ehtimoli bor. Korporativ kreditlar tarkibida xorijiy valyutadagi kreditlar ulushining 63 foiz ekani ham kredit riskining, ayniqsa valyuta shoki orqali kuchayish ehtimoli saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Muammoli kreditlar dinamikasi esa tizimda ijobiy siljishlar borligini, lekin risklar to‘liq bartaraf etilmaganini ko‘rsatadi. Markaziy bank statistik ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklarida NPL ulushi 2025-yil 1-fevral holatida 4,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil 1-dekabrga kelib 3,5 foizga, 2026-yil 1-fevral holatiga esa 3,2 foizga tushgan. Shu bilan birga, 2025-yil 1-yanvar holatida kredit portfelining 79 foizi “standart”, 17 foizi “substandart” va 4 foizi muammoli kreditlar sifatida tasniflangan, aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralar esa 18,4 trln so‘mga yetib, muammoli kreditlarning zaxiralar bilan qoplanish darajasi 87 foizga ko‘tarilgan. Bu natijalar kredit portfeli sifati va qoplanish darajasida yaxshilanish borligini ko‘rsatsa-da, “substandart” aktivlar ulushining sezilarli darajada saqlanib qolayotgani potensial kredit riskining hanuz yuqori ekanini anglatadi.

1-jadval.

**Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) (mlrd. so‘m) [10]**

| Sana | Kreditlar | | | Muammoli kreditlar (NPL) | | | Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | shundan: | | Jami | shundan: | | Jami | shundan: | |
| | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar |
| 01.01.2024 | 471405,5 | 333298,1 | 138107,4 | 16621,4 | 13 267,2 | 3 354,2 | 3,5 | 4,0 | 2,4 |
| 01.01.2025 | 533121,2 | 366730,5 | 166390,7 | 21185,1 | 14 343,8 | 6 841,3 | 4,0 | 3,9 | 4,1 |
| 01.01.2026 | 604002,2 | 404468,8 | 199533,4 | 18055,3 | 12 834,5 | 5 220,9 | 3,0 | 3,2 | 2,6 |

2024–2026-yillar davomida O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfeli barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, jami kreditlar hajmi 2024-yil 1-yanvardagi 471 405,5 mlrd. so‘mdan 2025-yil 1-yanvarda 533 121,2 mlrd. so‘mga, 2026-yil 1-yanvarda esa 604 002,2

mlrd. so‘mga yetgan. Bu ikki yil ichida kredit portfeli qariyb 132 596,7 mlrd. so‘mga**,** ya’ni 28,1 foizga oshganini anglatadi. Demak, bank tizimida kreditlash faolligi yuqori bo‘lib qolgan va iqtisodiyotning kredit resurslariga bo‘lgan talabi saqlanib qolgan.

Kreditlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosiy ulushni har doim davlat ulushi mavjud banklar egallab kelgan. 2024-yilda ularning kreditlari 333 298,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yil boshiga kelib 404 468,8 mlrd. so‘mga yetgan. Shu bilan birga, boshqa banklar kredit portfeli ham sezilarli tezroq o‘sgan: 138 107,4 mlrd. so‘mdan 199 533,4 mlrd. so‘mga ko‘tarilgan. Bu esa nodavlat yoki boshqa tijorat banklarida kreditlash sur’atlari nisbatan yuqoriroq bo‘lganini bildiradi. Boshqacha aytganda, kredit bozorida raqobat va segmentlar bo‘yicha faollik ortib borgan.

Muammoli kreditlar dinamikasiga e’tibor qaratilganda, 2024-yildan 2025-yilgacha salbiy o‘sish kuzatiladi. Jami NPL hajmi 16 621,4 mlrd. so‘mdan 21 185,1 mlrd. so‘mga oshgan, ya’ni bir yil ichida 4 563,7 mlrd. so‘m yoki 27,5 foizga ko‘paygan. Bu holat kredit portfelining kengayishi bilan birga risklarning ham ortganini anglatadi. Biroq 2026-yil boshida muammoli kreditlar hajmi 18 055,3 mlrd. so‘mgacha kamaygan. Ya’ni 2025-yilga nisbatan 3 129,8 mlrd. so‘mga yoki 14,8 foizga pasayish kuzatilgan. Bu kredit portfeli sifati bo‘yicha ma’lum ijobiy o‘zgarish boshlanganini ko‘rsatadi.

Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi ham shu tendensiyani tasdiqlaydi. 2024-yilda NPL ulushi 3,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 4,0 foizga oshgan, 2026-yilda esa 3,0 foizgacha pasaygan. Bu yerda muhim jihat shundaki, 2025-yilda kredit riskining nisbiy darajasi kuchaygan bo‘lsa, 2026-yilda kredit portfeli hajmi oshishda davom etganiga qaramay, muammoli kreditlar ulushining kamayishi risklarni boshqarish samaradorligi nisbatan yaxshilanganini anglatadi. Demak, bank tizimida kreditlash hajmi kengaygan bo‘lsa-da, risklarni jilovlash bo‘yicha muayyan natijalar kuzatilgan.

Davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar o‘rtasidagi farq alohida tahlilni talab qiladi. Davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar hajmi 2024-yildagi 13 267,2 mlrd. so‘mdan 2025-yilda 14 343,8 mlrd. so‘mga oshgan, 2026-yilda esa 12 834,5 mlrd. so‘mga tushgan. Ularning NPL ulushi mos ravishda 4,0 foiz**,** 3,9 foiz va 3,2 foizni tashkil etgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlarning mutlaq hajmi yuqori bo‘lsa-da, ulush ko‘rsatkichi bosqichma-bosqich pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Boshqa banklarda esa vaziyat nisbatan o‘zgaruvchan bo‘lgan. 2024-yilda muammoli kreditlar 3 354,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda ular keskin oshib, 6 841,3 mlrd. so‘mga yetgan, 2026-yilda esa 5 220,9 mlrd. so‘mga tushgan. NPL ulushi esa 2,4 foizdan 4,1 foizga keskin ko‘tarilib, keyin 2,6 foizgacha pasaygan. Aynan shu ko‘rsatkichlar boshqa banklarda 2025-yilda kredit risklari kuchliroq namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi. Ya’ni, nodavlat banklar kredit portfelining tez sur’atlarda o‘sishi bilan birga muammoli kreditlar ham jadal oshgan, biroq 2026-yilda bu segmentda ham sog‘lomlashuv kuzatilgan.

Jadval asosida yana bir muhim xulosaga kelish mumkin: davlat ulushi mavjud banklar jami muammoli kreditlarning asosiy qismini shakllantirgan bo‘lsa-da, riskning nisbiy keskinlashuvi aynan boshqa banklarda kuchliroq bo‘lgan. Chunki 2025-yilda boshqa banklarda NPL ulushi 4,1 foizga yetib, davlat ulushi mavjud banklar ko‘rsatkichidan ham yuqori bo‘lgan. Bu esa bank tizimidagi risklarni tahlil qilishda faqat mutlaq hajmlarga emas, balki ulush ko‘rsatkichlariga ham e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mazkur jadval tahlili 2024–2026-yillarda tijorat banklari kredit portfeli o‘sishi bilan birga kredit risklarining ham ma’lum davrda ortganini, biroq 2026-yilga kelib muammoli kreditlar ulushi va hajmida ijobiy pasayish kuzatilganini ko‘rsatadi. Bu holat kredit risklarini boshqarish tizimi, aktivlarni tasniflash, rezervlash, monitoring va muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarining bosqichma-bosqich samara bera boshlaganini bildiradi. Shu bilan birga, boshqa banklarda 2025-yildagi keskin yomonlashuv kredit portfeli tez kengaygan sharoitda anderrayting sifati, monitoring va erta ogohlantirish tizimlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Demak, kelgusida tijorat banklari uchun asosiy vazifa kredit portfeli o‘sish sur’atlarini

saqlab qolgan holda, uning sifat ko‘rsatkichlarini ham barqaror nazorat ostida ushlab turishdan iborat bo‘ladi.

Bundan tashqari, 2026-yil mart oyida Markaziy bank tijorat banklari kuzatuv kengashlarining mustaqil a’zolari bilan o‘tkazgan uchrashuvda aktivlar sifati, NPLlarni samarali boshqarish, anderrayting jarayonlari, skoring modellarini rivojlantirish, restrukturizatsiya va muammoli aktivlar bozorini shakllantirish masalalariga alohida urg‘u berdi. Uchrashuvda “Yomon bank”ga o‘xshash institutsional yechimlar va muammoli aktivlarni tizim darajasida boshqarish g‘oyalari ham muhokama qilingan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kredit riskini boshqarish tizimi formal jihatdan ancha shakllangan bo‘lsada, uning navbatdagi bosqichi muammoli aktivlar bilan ishlashning bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, kuzatuv kengashlari rolini kuchaytirish va kredit portfeli sifatini profilaktik boshqarish bilan bog‘liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimini ikki tomonlama baholash mumkin. Bir tomondan, risk-appetit, kredit siyosati, mustaqil risk va komplayens bo‘linmalari, ichki audit, aktivlarni tasniflash va zaxiralash, MHXSga o‘tish, stress-testlar hamda riskga asoslangan prudensial nazorat joriy etilgani tizimning institutsional bazasi sezilarli darajada mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, stress-testlardagi noqulay ssenariylar, korporativ kreditlarning valyuta tarkibi, substandart aktivlar ulushi va muammoli aktivlar bilan ishlash bozorining hali to‘liq shakllanmaganligi ushbu tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning amaldagi holati “institutsional jihatdan yetarlicha shakllangan, biroq amaliy chuqurlashuv va profilaktik samaradorlik nuqtai nazaridan hali ham rivojlanayotgan tizim” sifatida tavsiflanishi mumkin.

**Xulosa**

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashgan va xalqaro standartlarga yaqinlashgan.

Xususan, risk-appetit va limitlar tizimining joriy etilishi, “uch himoya chizig‘i” modelining amaliyotga tatbiq etilishi, IFRS 9 asosida kutilayotgan zararlarni hisoblash tizimining joriy qilinishi, kredit portfeli sifati va NPL ulushining nisbatan barqarorlashuvi kabi ijobiy natijalar qayd etilgan.

Shu bilan birga, substandart aktivlar ulushining yuqoriligi, xorijiy valyutadagi kreditlar ulushining yuqoriligi, muammoli aktivlar bilan ishlash bozor mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, stress-test natijalarida noqulay ssenariylarda kapital yetarliligi pasayish ehtimoli kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- kredit risklarini erta aniqlash va ogohlantirish tizimlarini (EWS) joriy etishni kengaytirish;
- muammoli aktivlar bilan ishlash uchun ikkilamchi bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- kreditlash jarayonida skoring va sun’iy intellekt asosidagi modellarni keng qo‘llash;
- xorijiy valyutadagi kreditlar ulushini kamaytirish orqali valyuta risklarini diversifikatsiya qilish;
- kuzatuv kengashlari rolini kuchaytirish orqali korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish.

Umuman olganda, kredit risklarini boshqarish tizimini yanada rivojlantirish bank tizimi barqarorligini mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Murojaatnomasi. –Toshkent.// Xalq so‘zi, 2025 yil 26 dekabr.

2. Hyman Minsky — Minsky H.P. Stabilizing an Unstable Economy. Yale University Press, 1986.

3. Douglas Diamond; Philip Dybvig — Diamond D., Dybvig P. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity // Journal of Political Economy, 1983.

4. Basel Committee on Banking Supervision — International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards (Basel II), 2004; Basel III: A global regulatory framework, 2010.

5. Bekmurodov A.Sh. — Bekmurodov A.Sh. O‘zbekiston bank tizimini rivojlantirish va barqarorligini ta’minlash yo‘llari. – Toshkent: Fan, 2020. – 280 b.

6. Toshmurodova B.Yu. — Toshmurodova B.Yu. Tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, №3.

7. Ruziev Sh.A. — Ruziev Sh.A. Tijorat banklarida kredit portfeli sifatini baholash va risklarni boshqarish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 250 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklar va banklar guruhlarida tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir me’yoriy hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

9. Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi Nizom, 3427-son, 18.04.2023.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni 2025 yil.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI

**Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna**

*moliya va kredit kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.*
*Renessans ta`lim universiteti*
*E-mail tursunkulovagulchiroy@mail.com*
*ORCID: 0009-0004-3594-8608*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada O‘zbekistonda ekologik audit tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari kompleks tahlil qilingan. Maqolada ekologik auditning huquqiy, institutsional va amaliy asoslari, shuningdek, uning “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi bilan uyg‘unlashuvi yoritilgan. Maqolada ekologik audit tizimining dastlabki shakllanish davridan boshlab zamonaviy raqamli monitoring va xalqaro standartlarga integratsiya jarayonlarigacha bo‘lgan evolyutsiyasi bosqichma-bosqich ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ekologik audit samaradorligiga ta’sir etuvchi muammolar, jumladan, xususiy auditorlik bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali kadrlar taqchilligi hamda monitoring mexanizmlarining sustligi tahlil qilingan. Demak, ekologik auditni iqtisodiy rag‘batlantirish vositalari, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ekologik audit, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik monitoring, ekologik nazorat, ISO 14001, ekologik boshqaruv, ekologik sug‘urta, institutsional rivojlanish, raqamli audit tizimi.*

# РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna**

*доцент кафедры*
*финансов и кредита, к.э.н.*
*образовательный университетский “Ренессанс”*
*E-mail tursunkulovagulchiroy@mail.com*
*ORCID: 0009-0004-3594-8608*

***Аннотация.*** *В данной статье представлен всесторонний анализ этапов формирования и развития системы экологического аудита в Узбекистане. Рассматриваются правовые, институциональные и практические основы экологического аудита, а также его интеграция с концепцией «зеленой экономики». Проводится анализ эволюции системы экологического аудита от ее первоначального формирования до современных цифровых методов мониторинга и интеграции в международные стандарты. Также анализируются проблемы, влияющие на эффективность экологического аудита, включая недостаточное развитие частного рынка аудита, нехватку квалифицированного персонала и слабость механизмов мониторинга. Таким образом, обосновывается необходимость совершенствования экологического аудита на основе экономических стимулов, цифровых технологий и международного опыта.*

***Ключевые слова:*** *экологический аудит, экологическая безопасность, устойчивое развитие, зеленая экономика, экологический мониторинг, экологический контроль, ISO 14001, экологическое управление, экологическое страхование, институциональное развитие, цифровая система аудита.*

# DEVELOPMENT OF THE ECOLOGICAL AUDIT SYSTEM IN UZBEKISTAN

**Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna**

*Associate Professor of the*

*Department of Finance and Credit*
*Renaissance educational university*
*Doctor of Philosophy (PhD)*
*in Economics,*
*ORCID: 0009-0004-3594-8608*

***Abstract.*** *This article provides a comprehensive analysis of the stages of formation and development of the environmental audit system in Uzbekistan. The article covers the legal, institutional and practical foundations of environmental audit, as well as its integration with the concept of "green economy". The article examines the evolution of the environmental audit system from its initial formation to modern digital monitoring and integration processes into international standards. It also analyzes the problems affecting the effectiveness of environmental audits, including the insufficient development of the private audit market, the shortage of qualified personnel, and the weakness of monitoring mechanisms. Thus, the need to improve environmental audits based on economic incentives, digital technologies, and international experience is substantiated.*

***Keywords:*** *environmental audit, environmental safety, sustainable development, green economy, environmental monitoring, environmental control, ISO 14001, environmental management, environmental insurance, institutional development, digital audit system.*

**Kirish**

O‘zbekistonda ekologik audit tizimining rivojlanishi bir necha muhim bosqichlar orqali shakllangan bo‘lib, u mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tizimning shakllanishi iqtisodiy, ekologik, huquqiy va xalqaro omillar ta’siri ostida kechgan.

Xususan, ekologik muammolarning keskinlashuvi, jumladan Orol dengizi inqirozi ekologik nazoratni kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, mamlakatda ekologiya sohasidagi qonunchilik bazasining rivojlanishi ekologik audit institutining shakllanishiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Xalqaro iqtisodiy va ekologik integratsiya jarayonlari esa O‘zbekistonni global ekologik standartlarga yaqinlashtirdi. Natijada ekologiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining joriy etilishi esa ekologik auditning ahamiyatini yanada oshirib, iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ekologik audit tizimi rivojlanish bosqichlari mavjud. Ular Dastlabki shakllanish davri (1991–2000-yillar). Huquqiy asoslarni rivojlantirish (2000–2010-yillar). Ekologik auditni joriy etish (2010–2017-yillar). Institutsional rivojlanish (2017–2020-yillar). Zamonaviy rivojlanish va integratsiya (2020-yildan hozirgacha) hisoblanadi.

*Dastlabki shakllanish davri* mustaqillikdan keyin ekologik siyosatni shakllantirish boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ekologik nazorat asosan davlat organlari tomonidan olib borildi. Ekologik audit tushunchasi hali to‘liq shakllanmagan edi.

***Huquqiy asoslarni rivojlantirish.*** Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha normativ-huquqiy baza kengaydi. Ekologik ekspertiza va monitoring tizimlari rivojlandi. Ekologik auditga o‘xshash nazorat mexanizmlari paydo bo‘la boshladi. Korxonalarda ekologik xavflarni baholash amaliyoti joriy etildi.

***Ekologik auditni joriy etish.*** Ekologik audit tushunchasi ilmiy va amaliy jihatdan shakllandi. Xalqaro tajriba, xususan ISO (International Organization for Standardization) standartlari o‘rganildi. Korxonalarda ichki ekologik audit elementlari paydo bo‘ldi. Ekologik boshqaruv tizimlari (ISO 14001) joriy etila boshlandi.

***Institutsional rivojlanish.*** Ekologiya sohasida davlat boshqaruvida takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyati

kengaytirildi. Shu bilan birga ekologik auditni rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqildi. Investitsion loyihalarda ekologik baholashlar kuchaytirildi.

***Zamonaviy rivojlanish va integratsiya.*** Ekologik audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni davom etmoqda. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi doirasida ekologik auditning roli oshdi. Raqamli monitoring va audit texnologiyalari joriy qilinmoqda. Xususiy sektor ishtirokida mustaqil ekologik audit xizmatlari rivojlanmoqda.

**Adabiyotlar sharhi**

Ekologik sug‘urta tizimi rivojlanishi huquqiy asoslar va ilmiy qarashlar nuqtayi nazaridan korxonalarning ekologik javobgarligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy-huquqiy mexanizm hisoblanadi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar ushbu tizim orqali atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplashning kafolatlangan mexanizmlarini belgilab bersa, ilmiy qarashlarda ekologik sug‘urtaning mohiyati ekologik risklarni boshqarish, ularni oldindan baholash va minimallashtirish vositasi sifatida talqin etiladi. Muallif fikricha, ekologik sug‘urta tizimi nafaqat kompensatsiya funksiyasini bajaradi, balki korxonalarni ekologik xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etishga undovchi rag‘batlantiruvchi omil sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ekologik sug‘urta “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyilini amaliyotga tatbiq etish, ekologik zararlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi [1] da ekologik nazoratni kuchaytirish va ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurligi alohida ta’kidlangan. Mazkur murojaatnomada ekologik nazoratni kuchaytirish va ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalarining alohida ta’kidlanishi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilganini ko‘rsatadi. Muallif fikricha, ushbu yondashuv nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash, balki atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini, xususan, ekologik audit tizimini keng joriy etish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, ekologik nazoratning institutsional asoslarini mustahkamlash va uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tulaxodjaeva va Xodjaevalar ekologik auditni nafaqat ekologik himoya vositasi, balki iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida talqin etadilar [2]. Mualliflarning fikricha, ekologik audit faqatgina atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiluvchi nazorat vositasi sifatida emas, balki xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti hisoblanadi. Shu bois ekologik auditni joriy etish orqali korxonalarda ekologik va iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash mumkin bo‘ladi, bu esa “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, ekologik audit xo‘jalik yurituvchi subyektlarning atrof-muhitga ta’sirini mustaqil va tizimli baholashdan iboratdir[3]. “Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida Ekologik audit bu ekologik audit subyekti amalga oshiradigan xo‘jalik va boshqa faoliyatning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish talablariga rioya etilishini tekshirish maqsadida ekologik auditorlik tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan: tizimli, hujjatlashtirilgan, mustaqil baholash hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ekologik audit xo‘jalik yurituvchi subyektlarning atrof-muhitga ta’siri, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ekologik qonunchilikka muvofiqligini aniqlashga qaratilgan mustaqil va kompleks baholash jarayoni sifatida talqin qilinadi. U ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar**

Tahliliy baholash shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik audit tizimi rivojlanish

jarayonida sezilarli institutsional va huquqiy o‘zgarishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, uning amaliy samaradorligi hali yetarli darajada yuqori emas. Xususan, ekologik audit natijalari ko‘pincha tavsiyaviy xarakterda qolib, ularning ijrosi ustidan samarali monitoring mexanizmlari to‘liq shakllanmagan. Bu esa ekologik auditni real boshqaruv vositasi emas, balki formal tekshiruv darajasiga tushib qolish xavfini yuzaga keltiradi.

Dastlabki bosqichda ekologik siyosat shakllanib, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bu davrda ekologik nazorat asosan davlat organlari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ekologik audit tushunchasi hali to‘liq shakllanmagan edi.

Keyingi bosqichda ekologik ekspertiza va monitoring tizimlari rivojlanib, korxonalarda ekologik xavflarni baholash amaliyoti shakllandi. 2010-yillarga kelib esa xalqaro ISO standartlari, xususan ISO 14001 asosida ekologik boshqaruv tizimlari joriy etila boshlandi. Institutsional bosqichda ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi takomillashtirildi va ekologik auditni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi. Zamonaviy bosqichda esa raqamli monitoring, xususiy auditorlik xizmatlari va “yashil iqtisodiyot” integratsiyasi kuchaymoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik audit tizimi dastlab ma’muriy nazoratga asoslangan bo‘lsa, keyinchalik iqtisodiy va institutsional mexanizmlar bilan boyitilgan. Biroq, amaliyotda ekologik auditning samaradorligi hali to‘liq ta’minlanmagan.

Dolzarb muammolardan biri xususiy auditorlik bozorining yetarlicha shakllanmaganligi hamda yuqori malakali kadrlar taqchilligi bilan bog‘liqdir. Natijada ekologik audit natijalari ko‘pincha tavsiyaviy xarakterda qolib, ularning ijrosi ustidan nazorat sustligicha qolmoqda. Shuningdek, ekologik auditning majburiy va ixtiyoriy shakllari mavjud bo‘lsa-da, ayrim yuqori xavfli korxonalar uchun zarur bo‘lib qolmoqda. Bu esa ekologik auditni real boshqaruv vositasidan ko‘ra, hujjatlashtirish vositasiga aylantirish xavfini tug‘dirmoqda.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, ekologik audit rivojlangan davlatlarda nafaqat nazorat vositasi, balki iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmi sifatida ham qo‘llaniladi. Korxonalarga ekologik talablarni bajargani uchun soliq imtiyozlari va investitsion preferensiyalar beriladi. O‘zbekistonda esa bunday mexanizmlar hali to‘liq joriy etilmagan. Shu sababli ekologik audit tizimining samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy rag‘batlantirish instrumentlarini kengaytirish zarur. Xorijiy investorlar ham ekologik xavfsizlikka katta e’tibor qaratmoqda. Chunki ekologik barqaror hududlarda investitsiya xavfi past bo‘lib, uzoq muddatli barqaror foyda olish imkoniyati yuqoriroq hisoblanadi.

O‘zbekistonda ekologik audit tizimi bugungi kunda kompleks va xalqaro standartlarga moslashgan mexanizmga aylangan. “Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohani huquqiy jihatdan mustahkamladi. Qonunga muvofiq, ekologik audit ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi. Majburiy audit yuqori ekologik xavfga ega korxonalarga tatbiq etiladi. Bundan tashqari O‘zbekistonning xalqaro ekologik tashkilotlar bilan, xususan IUCN bilan hamkorligi ekologik audit tizimini global standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa milliy ekologik siyosatni xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish imkonini ber adi.Yana O‘zbekistonda ekologik sug‘urta bo‘yicha alohida qonun mavjud emas. Mutaxassislar ushbu institutni joriy etish zarurligini ta’kidlamoqda. Ekologik sug‘urta tizimi korxonalarning ekologik javobgarligini oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplashga xizmat qiladi. Fikrimizcha, ekologik sug‘urta tizimi nafaqat korxonalarning ekologik javobgarligini oshiradi, balki ularni ekologik xavflarni oldindan baholash va kamaytirishga rag‘batlantiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, ekologik sug‘urta tizimi korxonalarni ekologik standartlarga rioya etishga majbur etib, ularning raqobatbardoshligini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Xulosa**

O‘zbekistonda ekologik audit tizimi mustaqillikdan keyingi davrda izchil rivojlanib, bugungi kunda huquqiy, institutsional va tashkiliy jihatdan shakllangan muhim ekologik boshqaruv mexanizmiga aylangan. Mazkur tizimning rivojlanishi ekologik xavfsizlikni

ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda kechmoqda. Shu bilan birga, ekologik audit amaliyotida ayrim muammolar, xususan, monitoring tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xususiy auditorlik bozorining sustligi hamda malakali mutaxassislar yetishmasligi uning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ekologik auditni real boshqaruv vositasi sifatida yanada takomillashtirish muhim bo‘lib qolmoqda. Natijada ekologik audit O‘zbekistonda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi muhim vositaga aylanadi.

Ekologik audit tizimining samaradorligini oshirish maqsadida uning natijalari ijrosini ta’minlovchi raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish, xususiy auditorlik bozorini rivojlantirish va raqobat muhitini kuchaytirish, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, ekologik auditni iqtisodiy rag‘batlantirish vositalari, soliq imtiyozlari, subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash, yuqori ekologik xavfga ega korxonalar uchun majburiy audit doirasini kengaytirish hamda ekologik sug‘urta tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro ilg‘or tajribalarni milliy amaliyotga integratsiya qilish orqali ekologik audit tizimini yanada takomillashtirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // president.uz (murojaat sanasi: 24.01.2020).

2.Тулаходжаева Миновар, Ходжаева Мутабар., Экологический аудит: мировой опыт и практика в Узбекистане. Bussines & Law. N2. 2024. 29 c. // https://doi.org/10.52340/bal

3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martdagi O‘RQ-678-son “Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# RIELTORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING XORIJ VA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI TAHLILI

**Xomitov Komiljon Zoitovich**
*iqtisodiyot fanlari doktori,*
*baholash ishi va investitsiyalar*
*kafedrasi professori*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: metro8369@gmail.com*
*ORCID:0000-0001-8500-2192*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada rieltorlik faoliyatini tartibga solish bo‘yicha xorij va O‘zbekiston tajribasi tahlil qilinadi. Turli mamlakatlarda ko‘chmas mulk faoliyatini tartibga solishning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon beradigan uchta turdagi modellar taklif etiladi: qattiq, o‘rta va yumshoq. Muallifning xulosasiga ko‘ra, turli mamlakatlardan olingan empirik ma’lumotlarga asoslanib, rieltorlik faoliyatini tartibga solishning eng samarali modeli qattiq model bo‘lib, u davlat tomonidan ham, professional hamjamiyat tomonidan ham yuqori talablar va tartibga solish tufayli taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yuqori darajada ta’minlaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ko‘chmas mulk, ko‘chmas mulk bozori, ko‘chmas mulkni tasarruf etish, turar va noturar joylar, rieltorlik faoliyati, rieltor, rieltorlik faoliyatini tartibga solish modeli, rieltorlik, agent.*

# АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНЫХ И УЗБЕКСКИХ ОПЫТА В РЕГУЛИРОВАНИИ РИЭЛТОРСКИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Хомитов Комилжон Зоитович**
*доктор экономических наук*
*профессор кафедры оценки и инвестиций*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: metro8369@gmail.com*
*ORCID:0000-0001-8500-2192*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется зарубежный и узбекский опыт регулирования деятельности в сфере недвижимости. Предложены три типа моделей, позволяющие выявить сильные и слабые стороны регулирования рынка недвижимости в разных странах: жесткая, средняя и мягкая. По мнению автора, на основе эмпирических данных из разных стран наиболее эффективной моделью регулирования деятельности в сфере недвижимости является жесткая модель, которая обеспечивает высокий уровень качества предоставляемых услуг благодаря высоким требованиям и регулированию как со стороны государства, так и со стороны профессионального сообщества.*

***Ключевие слова:*** *недвижимость, рынок недвижимости, реализация недвижимости, жилые и нежилые помещения, деятельность в сфере недвижимости, риэлтор, модель регулирования деятельности в сфере недвижимости, недвижимость, агент.*

# ANALYSIS OF FOREIGN AND UZBEKISTAN EXPERIENCE OF REGULATING REAL ESTATE ACTIVITIES

**Xomitov Komiljon Zoitovich**
*Doctor of Economics*
*Professor of the Department of*

*Evaluation and Investments*
*Tashkent State*
*University of Economics*
*E-mail: metro8369@gmail.com*
*ORCID:0000-0001-8500-2192*

***Abstract.*** *This article analyzes the foreign and Uzbek experience in regulating real estate activities. Three types of models are proposed that allow us to identify the strengths and weaknesses of real estate regulation in different countries: hard, medium and soft. According to the author, based on empirical data from different countries, the most effective model of regulating real estate activities is the hard model, which ensures a high level of quality of services provided due to high requirements and regulation by both the state and the professional community.*

***Keywords:*** *real estate, real estate market, real estate disposal, residential and non-residential premises, real estate activities, realtor, model of regulation of real estate activities, real estate, agent.*

**Kirish**

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, davlat mulkini monopoliyadan chiqarish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida mamlakatda xususiy mulkdorlar, shu jumladan ko‘chmas mulk egalari sinfi paydo bo‘ldi. Ular bugungi kunda ushbu ko‘chmas mulkdan nafaqat foydalanishi va unga egalik qilishi, balki uni tasarruf etishi ham mumkin. Mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, ko‘p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi, tovarlarning birja, pul va kredit bozori, qimmatli qog‘ozlar, turli xizmatlar bozori singari mohiyatan yangi bozorlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu turdagi bozorlar orasida ko‘chmas mulk bozori alohida o‘rin egallaydi, ya’ni u butun bozor munosabatlari tizimining markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2010 yil 22 dekabrda “Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun hamda 2011 yil 12 iyulda Rieltorlik xizmatlari milliy standarti (1-son RXMS) "Rieltorlik xizmatlari sifatini nazorat qilishning ichki qoidalariga qo‘yiladigan umumiy talablar" qabul qilingan bo‘lsada O‘zbekiston ko‘chmas mulk va rieltorlik biznesi nafaqat g‘arb, balki rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘chmas mulk biznesiga nisbatan ancha "yosh" bo‘lganligi sababli, xorijiy ko‘chmas mulk faoliyatini tartibga solishning samarali mexanizmlarini va ularni O‘zbekistonda amalda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘zbekistonda o‘z-o‘zini tartibga solish sifatini oshirish potentsiali tugallanmagan, bu esa yaqin kelajakda ko‘chmas mulk xizmatlari sifatini dunyodagi eng yaxshi analoglar darajasiga ko‘taradigan mexanizmlarni joriy etish imkonini beradi.

Rieltor - bu ko‘chmas mulk bozorida vositachilik xizmatlarini ko‘rsatadigan shaxs. "Rieltor" atamasi 1916 yilda AQShda paydo bo‘lgan va rieltorlar uyushmasining maxsus belgisi sifatida ro‘yxatga olingan. Hozirda xorijdagi rieltorlar asosan ko‘chmas mulk oldi-sotdisi bo‘yicha vositachilik bilan shug‘ullanadi. Rieltorlik faoliyati - ko‘chmas mulk va unga bo‘lgan huquqlarni (binolar, inshootlar, turar-joy va noturar joylar, er uchastkalari) bilan bitimlarni (sotish, sotib olish, ayirboshlash, ijaraga berish, garovga qo‘yish, lizing) tashkil etuvchi mustaqil shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan ko‘chmas mulk bozoridagi tadbirkorlik faoliyati. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi foyda olishdir.

Rieltorlik faoliyati, shuningdek, brokerlik va agentlik faoliyatini, mulkni boshqarishni, ko‘chmas mulkni yaratish va rivojlantirishga xususiy investitsiyalarni jalb qilishni, turar-joy binolarini noturar joylarga o‘tkazishni, binolarni rekonstruktsiya qilish va qayta qurishni o‘z ichiga olishi mumkin.

**Adabiyotlar sharhi**

Mavzuning muammoli jihatlari va dolzarbligini o‘rganib, o‘zlarining ilmiy izlanishlari va tadqiqotlarida keltirib o‘tgan MDH mamlakatlari olimlardan V.A. Shanyukevich va boshq.

“Osnovi rielterskoy deyatelnosti” [1] asarida rieltorlik faoliyatini nazariy-amaliy jihatlarini tadqiq etgan bo‘lsa, G.V.Fedotov va B.A Volkovlarning “Ekonomika nedvijimosti” [2] nomli o‘quv qo‘llanmalarida hamda M.A. Kotlyarov, Dj. Dreyn, A.B. Bril va boshq. “Development nedvijimosti” [3] nomli monografiyalarida ko‘chmas mulk, rieltorlik va developerlik faoliyati sohasida tadqiqotlar amalga oshirishgan. Shuningdek, vatanimiz olimlardan, rieltorlik faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirish bo‘yicha rieltorlik faoliyati modellari hamda rivojlanish kontseptsiyalarini ishlab chiqqan Sh.Shoha’zamiy “Rieltorlik faoliyati” nomli darsligida [4], ko‘chmas mulk va rieltorlik faoliyati tadqiqotlari bilan shug‘ullangan A.Kravchenko, V.Yodgorov va boshqalarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida rieltorlik faoliyati va uni tartibga solish bo‘yicha xalqaro amaliyot xususiyatlari, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o‘rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo‘llanildi, shuningdek rieltorlik faoliyati va uni tartibga solish borasidagi muammolar va ularning echimlari xususida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

**Tahlil va natijalar**

Amerika Qo‘shma Shtatlari dunyodagi eng qadimgi ko‘chmas mulk bozorlaridan biridir. "Rieltor" atamasining o‘zi 1916-yilda AQShda paydo bo‘lgan va Milliy Rieltorlar Assotsiatsiyasining (National Association of Realtors – NAR) rasmiy savdo belgisiga aylandi. Faqat NAR tovar belgisidan foydalanishga ruxsati bo‘lgan, mamlakat Milliy rieltorlar assotsiatsiyasining a’zosi bo‘lgan shaxsni rieltor deb atash mumkin, aks holda bu kasb ko‘chmas mulk agenti deb ataladi. " Rieltor " va "ko‘chmas mulk agenti" atamalari bir xil funktsiyalarni bajarishni anglatadi, ammo rieltorning maqomi yuqoriroqdir, chunki unga qo‘shimcha talablar qo‘yiladi, bu esa xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlarning ishonch darajasini oshiradi.

Ko‘chmas mulk bozori va rieltorlik xizmatlari AQSh milliy iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘plab turdosh tarmoqlar uchun rivojlanish, shuningdek, asosiy milliy g‘oyalardan biri - "Har bir amerikalikning o‘z uyi bor!" g‘oyasining drayveri bo‘lib hisoblanadi. Kasbning nufuzi va NARning ta’siri shunchalik kattaki, hattoki Vashingtonda o‘tkaziladigan assotsiatsiyaning yillik anjumanida AQSh Prezidenti ham qatnashadi.

1-rasm.

**AQShda rieltorlik faoliyatini amalga oshirish printsiplari (OLD CAR)***




***Manba:*** *muallif tomonidan AQSh Milliy Rieltorlar Assotsiatsiyasining rasmiy veb-sayti*

- прибыль от совместной деятельности компании;
- чистая прибыль.

В соответствии с требованиями МСФО (IAS) 1 « Представление финансовой отчетности» организация может предоставить 2 способами:

1) Отчет о прибылях и убытках
2) Отчет о совокупном доходе, который отдельно включает прочий совокупный доход.

Стандарт включает в себя меньший перечень показателей, которые должны быть раскрыты в отчетности:

- доходы;
- расходы;
- финансовый результат;
- прочий совокупный доход. Рассмотрим 2 варианта отчета о совокупном доходе на основе МСФО (Таблица № 1)

**Таблица № 1**

**Методы составления отчета о совокупном доходе согласно на основе МСФО[4]**

| По характеру расходов | По функция расходов |
|---|---|
| Выручка от продаж | Выручка от продаж |
| Прочие доходы | Себестоимость продаж |
| Изменение запасов готовой продукции | Валовая прибыль |
| Сырье и расходные материалы | Результат прочих доходов и расходов |
| Вознаграждения | Коммерческие расходы |
| Амортизационные расходы | Управленческие расходы |
| Прочие расходы | |
| Совокупные расходы | |
| Прибыль операционная | Прибыль операционная |
| Расходы по финансированию | |
| Прибыль до налогообложения | |
| Расходы по налогу на прибыль | |
| Прибыль после налогообложения | |
| Чистая прибыль | |

Анализ финансовых результатов организации считается важнейшим этапом оценки эффективности хозяйственной деятельности. При переходе на МСФО изменяются подходы к признанию доходов и расходов, а также формирование финансовых результатов. В соответствии с требованиями МСФО основными показателями финансовых результатов выступают: выручка, операционная прибыль, прибыль до налогообложения и чистая прибыль. Для глубокого анализа используются коэффициенты, которые оценивают эффективность организации:

**1) Рентабельность продаж** - отражается как доля прибыли в выручке и рассчитывается как отношение чистой прибыли к выручке;[5]

**2) Рентабельность собственного капитала (ROE)** - это доходность вложенных денег собственников;

**3) Рентабельность активов (ROA)** – отражает эффективность использования активов организации;

В условиях перехода на МСФО показатели финансовых результатов могут изменяться из-за концепции справедливой стоимости, а также более строгие требования к признанию доходов и расходов, которые могут привести к снижению или увеличению

дохода. Например организация может принять обесценение активов, что может привести к уменьшению чистой прибыли, и в то же время более точное и прозрачное отражение финансовой отчетности повышая доверие пользователей. Для наглядного анализа рассмотрим условные данные организации до и после перехода на МСФО. ( Таблица 2)

**Таблица № 2**

**Исходные данные гипотетической компании:**

| Показатель: | НСБУ | МСФО |
|---|---|---|
| Выручка | 500 | 500 |
| Расходы | 380 | 400 |
| Прибыль до налогообложения | 120 | 100 |
| Чистая прибыль | 100 | 85 |

**Решение:**

Рентабельность продаж (НСБУ) = 100/500=20%

Рентабельность продаж (МСФО) = 85/500 = 17%

В результате перехода на МСФО, наблюдаем что прибыль снизилась на 15 млн сум, а рентабельность продаж уменшилась с 20% на 17%.Это показывает, что у МСФО более строгие требования к признанию расходов. Но также можно отметить, что отчетность по МСФО более достоверно отражает финансовое положение организации и также снижает риски финансовых результатов.

Международные стандарты финансовой отчетности – это целый комплект стандартов и документов, которые устанавливает требования по составлению финансовой отчетности по единым принципам и правилам для пользователей во всем мире.

**Выводы и предложения**

В ходе нашего исследования, можно сделать вывод, что переход Республики Узбекистан на Международные стандарты финансовой отчетности повышает прозрачность, достоверность и информативность финансовой отчетности деятельности организации. Применение МСФО (IAS) 1 «Представление финансовой отчетности» позволяет более расширено раскрыть финансовые результаты деятельности организаций, такие как показатели прибыли, расходов и совокупного дохода.

Этот ход, показал что внедрение МСФО изменяет подходы к формированию финансовых результатов, тем самым повышает качество управленческих решений, но есть ряд недостатков, которые нужно совершенствовать до наивысшего уровня. В связи с этим целесообразно предложить следующие шаги для совершенствования:

1) Повышение квалификации бухгалтеров и финансовых аналитиков в отрасли МСФО;
2) Совершенствование внутренней отчетности организации для повышения его информативности;
3) Внедрение современных методов анализа финансовых результатов и рентабельности;
4) Увеличение использования финансового анализа при принятии управленческих решений и роль внутреннего контроля организаций.

Таким образом, переход на МСФО способствует не только повышению качества финансовой отчетности, но и формированию эффективной системы анализа финансовых результатов, что является важным условием устойчивого развития предприятий и повышения их конкурентоспособности на международном уровне.

**Список использованной литературы:**

1) Постановление Президента Республики Узбекистан, от 15.09.2025 г. ПП-282 «О

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

мерах по совершенствованию системы финансового учета в соответствии с международными требованиями и стандартами».

2) Bayboboeva, . F. . (2023). FUNCTIONAL ELEMENTS AND DIRECTIONS OF ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF THE ENTERPRISE. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 262–268. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i27

3) Лысов И.А. Понятие, сущность и значение финансовых результатов предприятия // Вестник НГИЭИ. - 2015. - № 3(46). - С. 60-64.

4) Соловцова А.С. ВКР «Бухгалтерский учет и анализ финансовых результатов организации, Москва 2024 https:// archive-course work.mmu.ru

5) Р.Е.Шокумова, Д.А. Арипшева Финансовый результат как объект оценки и анализа,Научные известия-15-2019, https://cuberleninka.ru

# O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDITNI HUQUQIY-ME’YORIY TARTIBGA SOLISH



**Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich**

*Ichki audit boshqarmasi*
*bosh mutaxassisi,*
*Oliy ta’lim, fan va*
*innovatsiyalar vazirligi,*
*E-mail: avazbekmamatqulov1987@gmail.com*
*ORCID: 0009-0001-0362-8245*

***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida (OTM) ichki audit xizmatining huquqiy-me’yoriy bazasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida 2017–2024-yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va idoraviy normativ hujjatlar, xususan, PF-100 va VMQ-416 sonli hujjatlar qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, OTMlarning moliyaviy mustaqilligi sharoitida ichki auditning roli "nazorat-reviziya" modelidan "xatarlarni boshqarish" modeliga transformatsiya bo‘lmoqda. Maqolada ichki audit xizmati mustaqilligini oshirish, raqamli IT-auditni joriy etish va xalqaro IIA standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ichki audit, oliy ta’lim, huquqiy-me’yoriy tartibga solish, PF-100, moliyaviy nazorat, xatarlarni boshqarish, raqamli audit, OTM mustaqilligi.*

# НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА

**Маматкулов Авазбек Ахмадалиевич**

*Главный специалист управления*
*внутреннего аудита*
*Министерства высшего образования,*
*науки и инноваций*
*E-mail: avazbekmamatqulov1987@gmail.com*
*ORCID: 0009-0001-0362-8245*

***Аннотация:*** *В статье исследуются вопросы нормативно-правового регулирования службы внутреннего аудита в высших образовательных учреждениях (ВОУ) Узбекистана. В процессе исследования был проведен сравнительный анализ указов Президента, постановлений Кабинета Министров и ведомственных нормативных актов, принятых в 2017–2024 годах, в частности Указа УП-100 и Постановления ПКМ-416. Результаты показывают, что в условиях финансовой самостоятельности ВОУ роль внутреннего аудита трансформируется из модели «контрольно-ревизионной» в модель «управления рисками». В статье выдвинуты практические предложения по повышению независимости службы внутреннего аудита, внедрению цифрового ИТ-аудита и имплементации международных стандартов IIA в национальное законодательство.*

***Ключевые слова:*** *внутренний аудит, высшее образование, нормативно-правовое регулирование, УП-100, финансовый контроль, управление рисками, цифровой аудит, самостоятельность ВОУ.*

# LEGAL AND REGULATORY FRAMEWORK OF INTERNAL AUDIT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN

**Mamatkulov Avazbek Akhmadaliyevich**

*Chief Specialist of the Internal Audit Department*
*Ministry of Higher Education, Science and Innovation*
*E-mail: avazbekmamatqulov1987@gmail.com*
*ORCID: 0009-0001-0362-8245*

***Abstract:*** *The article examines the issues of legal and regulatory framework improvement for internal audit services in higher education institutions (HEIs) of Uzbekistan. The research provides a comparative analysis of Presidential decrees, Cabinet of Ministers resolutions, and departmental regulations adopted between 2017 and 2024, specifically Decree UP-100 and Resolution No. 416. The findings indicate that in the context of financial autonomy of HEIs, the role of internal audit is transforming from a "control and revision" model to a "risk management" model. The paper proposes practical recommendations for enhancing the independence of internal audit services, implementing digital IT auditing, and aligning national legislation with international IIA standards.*

***Keywords:*** *internal audit, higher education, legal and regulatory framework, Decree UP-100, financial control, risk management, digital audit, autonomy of HEIs.*

**Kirish**

Oliy ta’lim tizimining moliyaviy mustaqilligi va resurslarni boshqarish samaradorligi bugungi kunda davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalarining (OTM) bosqichma-bosqich o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tishi, budjet va budjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish ustidan zamonaviy moliyaviy nazorat mexanizmlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda ichki audit xizmati nafaqat xatolarni aniqlovchi, balki moliyaviy xatarlarni boshqaruvchi va profilaktika qiluvchi asosiy bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati tizimini transformatsiya qilish doirasida ichki auditning huquqiy-me’yoriy bazasi tubdan yangilandi[2]. Ayniqsa, oliy ta’lim sohasida moliyaviy intizomni mustahkamlash, korrupsion xavflarni minimallashtirish va davlat xaridlari shaffofligini ta’minlash maqsadida ichki audit xizmatlarining vakolatlari kengaytirildi[5]. Biroq, amaliyotda OTMlarning o‘ziga xos iqtisodiy tuzilmasi va akademik erkinligi sharoitida ushbu xizmat faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarning iyerarxik uyg‘unligi hamda metodologik ta’minoti masalalari hali ham ilmiy-huquqiy jihatdan tizimlashtirishga muhtoj.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston OTMlarida ichki audit faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik hujjatlarini, xususan, 2024-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi normativ-huquqiy aktlar kontekstida tahlil qilishdan iborat[6]. Shuningdek, maqolada sohadagi ichki audit xizmatining huquqiy maqomini takomillashtirish va xalqaro audit standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari ilmiy jihatdan asoslab beriladi[7].

**Adabiyotlar sharhi**

Oliy ta’lim muassasalarida ichki audit tizimini huquqiy tartibga solish masalasi ham mahalliy, ham xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda o‘rganib kelinmoqda.

*Mahalliy olimlarning yondashuvlari*

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati va ichki auditni transformatsiya qilish masalalarida B.Xajiev o‘z tadqiqotlarida ichki auditning huquqiy maqomini oshirish va uning davlat moliyaviy nazorati organlari bilan o‘zaro aloqasini reglamentatsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi[10]. Olimning fikricha, ichki audit tizimi huquqiy jihatdan faqatgina "nazorat-tekshiruv" vazifasidan voz kechib, maslahat beruvchi funksiyaga o‘tishi shart.

Shuningdek, A.Ibragimov va N.Rizaevlar OTMlarda ichki auditni tashkil etishda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy mexanizmlariga urg‘u berishadi[11]. Ularning qarashlariga ko‘ra, ichki audit xizmati huquqiy jihatdan oliy ta’limdagi "komplayens-nazorat" tizimi bilan integratsiya qilinishi lozim.

Munosabat: Biz mahalliy olimlarning ichki auditni transformatsiya qilish borasidagi fikrlariga qo‘shilgan holda, shuni qo‘shimcha qilamizki, amaldagi qonunchilikda (xususan 416-sonli VMQda) ichki auditning "maslahat berish" funksiyasi hali ham deklarativ xarakterda bo‘lib, amaliy ijro mexanizmi huquqiy jihatdan bo‘shliqqa ega.

*Xorijiy olimlarning yondashuvlari*

G‘arbiy iqtisodiyot maktabi vakillaridan K.Pickett ichki auditning huquqiy mustaqilligini "tashkiliy avtonomiya" tushunchasi bilan bog‘laydi[12]. Uning fikricha, ichki audit xizmati huquqiy jihatdan rektoratga emas, balki mustaqil audit qo‘mitasiga bo‘ysunishi — xolislikning yagona kafolatidir.

Xalqaro ekspert Andrew Chambers esa OTMlarda ichki auditni tartibga solishda "Corporate Governance" (Korporativ boshqaruv) tamoyillarini qo‘llashni ilgari suradi[13]. Uning ta’kidlashicha, qonunchilikda auditning ob’ekti sifatida nafaqat moliya, balki akademik sifat va universitet nufuzi (reputation) ham belgilanishi kerak.

Munosabat: Chambersning yondashuvi bizning tadqiqotimiz uchun g‘oyat muhim. Chunki O‘zbekiston OTMlari moliyaviy mustaqillikka o‘tar ekan, bizning milliy qonunchiligimizda ham (masalan, vazirlikning 239-sonli buyrug‘ida) ichki auditning vakolatlari doirasiga "akademik samaradorlik auditi" tushunchasini kiritish ehtiyoji mavjud.

Tadqiqotdagi ilmiy yangilik o‘rni

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tadqiqotlar ichki auditning umumiy iqtisodiy jihatlariga qaratilgan. Biroq, 2024-yilda qabul qilingan PF-100-sonli Farmon kontekstida OTMlarning yangi huquqiy maqomi va ularning raqamli audit platformalariga integratsiyasi masalasi hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ichki audit xizmatining huquqiy-me’yoriy bazasini o‘rganish maqsadida sifatli (qualitative) tahlil va qiyosiy-huquqiy metodlar kombinatsiyasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni mantiqiy izchillikni ta’minlash uchun quyidagi uchta bosqichda amalga oshirildi:

*Normativ-huquqiy hujjatlarning vertikal va gorizontal tahlili*

Tadqiqotning asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2017–2024-yillar oralig‘ida qabul qilingan ichki auditga doir barcha asosiy hujjatlari (PF-100, PQ-128, VMQ-416) tanlab olindi. Bunda deduktiv yondashuv qo‘llanilib, umumiy davlat moliyaviy nazorati standartlaridan xususiy OTMlar ichki auditi reglamentiga qarab tahlil yuritildi[14]. Shuningdek, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining idoraviy buyruqlari va hisob siyosati (335-sonli buyruq) mazkur zanjirning yakuniy halqasi sifatida o‘rganildi.

*Xalqaro standartlar bilan muvofiqlik (Gap Analysis)*

Milliy qonunchilikning mukammallik darajasini aniqlash uchun Ichki auditorlar institutining (IIA) "Ichki auditning global standartlari" (Global Internal Audit Standards – 2024) bilan milliy me’yorlar o‘rtasidagi farqlar (Gap analysis) tahlil qilindi[14]. Bu jarayonda auditning mustaqilligi, ob’yektivligi va xatarlarga asoslangan rejalashtirish tamoyillari asosiy indikator qilib olindi.

*Ma’lumotlarni tizimlashtirish va klassifikatsiyalash*

O‘rganilgan barcha me’yoriy hujjatlar funksional vazifasiga ko‘ra klassifikatsiya qilindi. Quyidagi jadvalda tadqiqotda qo‘llanilgan huquqiy filtrlash mexanizmi keltirilgan:

*Statistik va empirik ma’lumotlar bazasi*

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy ta’lim vazirligining ochiq ma’lumotlari, shuningdek, "Lex.uz" huquqiy axborot tizimidagi statistik ko‘rsatkichlardan foydalanildi[4]. Xususan, ichki audit xizmati faoliyatini raqamlashtirish darajasini baholashda "Davlat auditi" dasturiy majmuasining metodologik imkoniyatlari tahlil qilindi[9].

Ushbu metodologik yondashuv oliy ta’limda ichki auditning huquqiy holatini shunchaki tavsiflash emas, balki uning mavjud tizimdagi bo‘shliqlarini aniqlash imkonini beradi[15].

**Tahlil va natijalar**

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ichki auditning huquqiy-me’yoriy asoslari so‘nggi yetti yil ichida uchta fundamental bosqichdan o‘tgan. Tadqiqot obyekti sifatida olingan 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar tahlili natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

*Normativ-huquqiy bazaning iyerarxik strukturasi va evolyutsiyasi*

O‘zbekiston OTMlarida ichki audit xizmatining huquqiy maqomi to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari bilan belgilanadigan strategik yo‘nalishlarga bog‘liq. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, PF-6300 (2021), PF-100 (2024) va PQ-128 (2022) hujjatlari ichki auditni shunchaki "tekshiruvchi" organ emas, balki "moliyaviy menejmentga ko‘maklashuvchi" tizimga aylantirdi[2].

Xususan, OTMlar faoliyatida ichki audit xizmati endilikda quyidagi uch darajali huquqiy filtr orqali ish olib bormoqda:

1. Umumiy-strategik daraja: Budjet kodeksi va Prezident farmonlari (PF-100, PF-6300).
2. Uslubiy-muvofiqlashtiruvchi daraja: Vazirlar Mahkamasining qarorlari (VMQ-416) va Iqtisodiyot va moliya vazirligining qo‘llanmalari.
3. Tarmoq-operatsion daraja: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari (239-sonli va 335-sonli buyruqlar).

*Qiyosiy tahlil: Eski va yangi tizim o‘rtasidagi tafovutlar*

Tadqiqot jarayonida 2017-yildagi PQ-3231 hamda 2024-yildagi PF-100 hujjatlari qiyosiy tahlil qilinganda, ichki audit xizmatining roli tubdan o‘zgarganligi aniqlandi. Quyidagi jadvalda ushbu huquqiy transformatsiya ko‘rsatkichlari aks ettirilgan:

1-jadval.

**OTMlarda ichki audit tizimining huquqiy-funksional transformatsiyasi[112](ayrim yo‘nalishlar asosida)**

| Ko‘rsatkichlar | PQ-3231 davri (2017-2021) | PF-100 va VMQ-416 davri (2024) |
|---|---|---|
| **Asosiy yo‘nalish** | Faqat moliyaviy xatolarni aniqlash | Moliyaviy xatarlarni boshqarish va profilaktika |
| **Audit turi** | An’anaviy (joyiga chiqqan holda) | Masofaviy (Kameral) va samaradorlik auditi |
| **Mustaqillik darajasi** | Vazirlik nazorati ostida | Metodologik jihatdan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga hisobdor |
| **Raqamlashtirish** | Qog‘oz ko‘rinishidagi hisobotlar | "Davlat auditi" dasturiy majmuasi orqali monitoring |
| **Ob’ekt qamrovi** | Faqat budjet mablag‘lari | Budjet va barcha turdagi budjetdan tashqari mablag‘lar |

*Idoraviy normativ hujjatlarning OTM xususiyatlariga moslashuvi*

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 5-iyuldagi **239-sonli buyrug‘i** bilan tasdiqlangan Nizom ichki audit xizmatiga yangi huquqiy qurol taqdim etgan. Ushbu hujjatga ko‘ra, ichki audit xizmati endilikda nafaqat xarajatlarni, balki OTMlarning ilmiy-tadqiqot va tijoratlashtirish jarayonlaridagi iqtisodiy samaradorlikni ham audit qilish vakolatiga ega[7].

Biroq, OTMlarning o‘zini-o‘zi moliyalashtirishiga oid ichki audit mexanizmlari hali ham umumiy "Namunaviy nizom" (VMQ-416) asosida ishlamoqda. Bu esa OTMlarning o‘ziga xos

[112] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

murakkab xarajatlar tuzilmasini (masalan, xalqaro grantlar, talabalar kontrakti, inkubatsiya markazlari) to‘liq qamrab olishda huquqiy bo‘shliqlarni yuzaga keltirmoqda.

*Ichki auditni huquqiy tartibga solishning zamonaviy modeli*

Hozirgi vaqtda OTMlarda ichki audit xizmati faoliyatining huquqiy algoritmi quyidagi sxema asosida shakllangan:

2-jadval.

**OTM ichki audit xizmati faoliyatining huquqiy-me’yoriy algoritmi[113](ayrim hujjatlar ba’zasi asosida)**

| Bosqich | Me’yoriy asos | Amalga oshiriladigan harakat |
|---|---|---|
| **Rejalashtirish** | Iqtisodiyot va moliya vazirligi 63-son buyrug‘i[114] | Xavf-xatarlar tahlili asosida yillik audit rejasini tuzish |
| **O‘tkazish** | VMQ-416 va Vazirlikning 239-son buyrug‘i | Hujjatlarni masofaviy va bevosita o‘rganish, ob’ektga kirish |
| **Rasmiylashtirish** | "Davlat auditi" dasturi reglamenti | Audit dalolatnomalarini elektron tizimga kiritish |
| **Monitoring** | PF-100 va PQ-128 | Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish ustidan nazorat |

*Raqamli auditning huquqiy asoslari (IT-Audit)*

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, PF-6300 asosida barcha vazirlik idoralar va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ilk bor "IT-audit" tushunchasi huquqiy maydonga kirdi. Oliy ta’lim vazirligining 335-sonli "Hisob siyosati" to‘g‘risidagi buyrug‘i ichki audit xizmatiga buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimlariga (masalan, UzASBO yoki yangi ERP tizimlari) bevosita ulanish va ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish huquqini berdi[115].

Bu esa ichki auditning operatsion samaradorligini 35-40% ga oshirish imkonini beradi, chunki auditor endilikda ma’lumotlarni yig‘ishga emas, balki ularni tahlil qilishga ko‘proq vaqt ajratadi.

*Muammoli jihatlar: Huquqiy kolliziyalar tahlili*

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ichki audit xizmati xodimlarining maqomi va ularning mustaqilligini ta’minlash borasida qonunchilikda ma’lum nomuvofiqliklar saqlanib qolmoqda. Masalan, VMQ-416 ga binoan auditor metodologik jihatdan tegishli vazirlik audit boshqarmasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga bog‘liq bo‘lsa-da, tashkiliy va moliyaviy jihatdan OTM rektoriga (yoki vazirlikka) tobe hisoblanadi. Bu esa manfaatlar to‘qnashuvi xavfini saqlab qolmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida aniqlangan O‘zbekiston OTMlarida ichki auditning huquqiy-me’yoriy holati bir qator fundamental xulosalarni muhokama qilish zaruriyatini tug‘diradi.

*Huquqiy mustaqillik va tashkiliy tobelik ziddiyati*

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, VMQ-416 bilan tasdiqlangan namunaviy nizom ichki audit xizmati rahbarini tayinlash va ozod etish vakolatini bevosita muassasa rahbariga (yoki yuqori turuvchi vazirlikka) yuklaydi. Bu holat Ichki auditorlar institutining (IIA) "Mustaqillik va ob’yektivlik" standartiga (Standard 1100) ma’lum darajada zid keladi[116].

Xalqaro tajribada, xususan, AQSh va Buyuk Britaniya universitetlarida ichki audit xizmati rektorga emas, balki bevosita "Audit qo‘mitasi"ga (Audit Committee) hisobdor bo‘ladi. O‘zbekiston OTMlarida ham ichki auditning huquqiy maqomini oshirish uchun ularni ijrochi

[113] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

[114] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 27-dekabrdagi 63-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasi”.

[115] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 30-avgustdagi “Vazirlikning hisob siyosatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 335-son buyrug‘i.

[116] The Institute of Internal Auditors. "International Professional Practices Framework (IPPF)", Standard 1100: Independence and Objectivity.

organdan ajratish va Kuzatuv kengashlariga bo‘ysundirish mexanizmini huquqiy mustahkamlash lozim.

*OTMlar moliyaviy mustaqilligi va audit qamrovi*

PF-100 farmonining e’tiborli jihati shundaki, u audit qamrovini barcha turdagi mablag‘larga yo‘naltirdi. Vazirlik tizimida OTMlar o‘zini-o‘zi moliyalashtirishga o‘tishi bilan ularning xo‘jalik faoliyati murakkablashdi. Amaldagi me’yoriy hujjatlarda OTMlarning intellektual mulkdan keladigan daromadlari, xalqaro qo‘shma dasturlar va innovatsion jamg‘armalar, rivojlantirish jamg‘armalaridagi mablag‘lar auditi bo‘yicha aniq metodologik ko‘rsatmalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu esa auditorlarning huquqiy vakolatlarini "umumiy moliyaviy nazorat" doirasida cheklab qo‘ymoqda. Vaholanki, zamonaviy audit "Performance Audit" (Samaradorlik auditi) tamoyiliga tayanib, mablag‘ning nafaqat qonuniy sarflanishini, balki uning akademik natijadorlikka qanchalik xizmat qilganini ham baholashi kerak[117].

*Raqamli transformatsiya va "Inson omili"*

Tadqiqotda ko‘rilgan PF-6300 va "Davlat auditi" dasturi o‘rtasidagi integratsiya huquqiy jihatdan mukammal hisoblanadi, amaliyotda ma’lum bo‘shliqlarni kuzatish asosida "ma’lumotlar xavfsizligi" va "auditorning IT-kompetensiyasi" masalasi yuzasidan metodologiya ishlab chiqilishi zarur. Huquqiy hujjatlarda auditorning raqamli tizimlarga kirish huquqi berilgan, ammo ushbu tizimlardagi algoritmlar xatosi uchun javobgarlik masalasi tartibga solinmagan[118].

Xalqaro INTOSAI standartlari (GUID 5100) axborot tizimlari auditida nafaqat ma’lumotlarni, balki o‘sha ma’lumotlarni generatsiya qiluvchi dasturiy kodlarni ham tekshirishni talab qiladi. Bizning milliy qonunchiligimizda esa hali "Algoritmlar auditi" tushunchasi huquqiy maqomga ega emas.

*Xalqaro standartlarni implementatsiya qilish muammolari*

Oliy ta’lim vazirligi tizimidagi ichki auditning huquqiy asosi ko‘proq "nazorat-reviziya" xarakteriga ega. Muhokama qilinayotgan me’yoriy aktlarda (masalan, 416-sonli VMQ) "maslahat berish" (consulting) funksiyasi deklarativ xarakterda bo‘lib, amaliy mexanizmlari ishlab chiqilmagan[119].

Vaholanki, global standartlar bo‘yicha ichki audit xizmati muassasa rahbariyatiga strategik qarorlar qabul qilishda "ishonch beruvchi" (assurance) va "maslahat beruvchi" bo‘lishi shart. OTMlarimizdagi ichki auditning huquqiy modeli "jazolash mexanizmi"dan "rivojlantirish mexanizmi"ga o‘tishi uchun qonunchilikka "audit tavsiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholash" indikatorini kiritish zarur.

**Xulosa**

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ichki auditni huquqiy-me’yoriy tartibga solish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda ushbu sohaning qonunchilik bazasi "nazorat" funksiyasidan "risk-menejment" va "strategik tahlil" darajasiga ko‘tarilmoqda. PF-100 va VMQ-416 kabi fundamental hujjatlar OTMlarda moliyaviy intizomni ta’minlashning yangi huquqiy paradigmasini yaratdi. Biroq, tahlillar natijasida aniqlangan tizimli kamchiliklar va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi:

*Tadqiqotning umumiy xulosalari*

1. Huquqiy iyerarxiya takomillashuvi: OTMlarda ichki audit endilikda faqatgina ichki buyruqlar bilan emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi

[117] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6300-son Farmoni (tahlily qisim sifatida).
[118] INTOSAI P-12: "The Value and Benefits of Supreme Audit Institutions – making a difference to the lives of citizens".
[119] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni ijrosiga doir PQ-422-sonli qarori doirasidagi huquqiy tahlillar.

qarorlari bilan tartibga solinadigan strategik institutsional tuzilmaga aylandi.

2. Raqamli auditning ustuvorligi: Normativ hujjatlarda "masofaviy audit" va raqamli monitoring tizimlariga (PF-6300) huquqiy maqom berilishi, inson omilini kamaytirish va shaffoflikni oshirishning asosiy omili bo‘lib xizmat qilmoqda[120].

3. Metodologik ehtiyoj: OTMlarning moliyaviy mustaqilligi sharoitida, amaldagi namunaviy nizomlar oliy ta’limning o‘ziga xos iqtisodiy jarayonlarini (grantlar, innovatsion jamg‘armalar, xalqaro hamkorlik) to‘liq qamrab olishda metodologik jihatdan yanda moslashuvchanligini ta’minlash zarurligi ma’lum bo‘ldi.

*Istiqboldagi amaliy takliflar*

O‘tkazilgan tahlillar asosida O‘zbekiston OTMlarida ichki audit samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Audit qo‘mitalarini tashkil etish: OTMlar ichki audit xizmatining mustaqilligini huquqiy jihatdan ta’minlash uchun ularni ijrochi rahbariyatdan (Rektorat) chiqarib, bevosita muassasa Kuzatuv kengashi qoshidagi "Audit qo‘mitasi"ga bo‘ysundirish mexanizmini qonunchilikka kiritish lozim.
- "Samaradorlik auditi" metodologiyasini joriy etish: Me’yoriy hujjatlarga faqat moliyaviy muvofiqlikni emas, balki sarflangan mablag‘ning akademik va ilmiy natijadorligini (KPI asosida) baholash vakolatini beruvchi bandlarni qo‘shish zarur[121].
- IT-audit standartlarini huquqiylashtirish: Oliy ta’lim tizimidagi ERP va raqamli platformalar auditi bo‘yicha maxsus idoraviy standartni qabul qilish, bunda auditorlarning axborot tizimlari algoritmlariga kirish va ularni test qilish huquqini aniq belgilash maqsadga muvofiqdir.
- Preventiv (ogohlantiruvchi) audit mexanizmi: Ichki audit xizmati faoliyatini "jazo chorasi"dan "konsalting xizmati"ga transformatsiya qilish uchun, me’yoriy hujjatlarda auditorlik tavsiyalari natijasida iqtisod qilingan yoki samarali yo‘naltirilgan mablag‘lar uchun auditorlarni rag‘batlantirish tizimini huquqiy mustahkamlash talab etiladi[122].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston OTMlarida ichki auditning huquqiy-me’yoriy bazasini xalqaro IIA va INTOSAI standartlari asosida yanada takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va akademik nufuzini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2024). Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-100-son. Lex.uz axborot-huquqiy tizimi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2021). Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-6300-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2022). O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida. PQ-128-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2017). Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida. PQ-3231-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. (2022). Vazirlik va

[120] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son Farmoni doirasida "Davlat auditi" dasturiy majmuasining integratsiya imkoniyatlari.
[121] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori bilan tasdiqlangan "Namunaviy nizom"ga qo'shimchalar kiritish zaruriyati yuzasidan tahlillar.
[122] Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 5-iyuldagi 239-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan "Ichki audit boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizom"ning istiqboldagi transformatsiyasi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida. 416-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug‘i. (2024). Vazirlikning Ichki audit boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida. 239-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug‘i. (2025). O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hisob siyosatini tasdiqlash to‘g‘risida. 335-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i. (2022). Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasini tasdiqlash to‘g‘risida. 63-son.

10. Xajiev B.D. "Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari", Monografiya, 2022.

11. Ibragimov A.K., Rizaev N.K. "Oliy ta’lim muassasalarida ichki audit va komplayens-nazorat", O‘quv qo‘llanma, 2023.

12. Pickett K.H.S. "The Internal Auditing Handbook", 3rd Edition, John Wiley & Sons, 2010.

13. Chambers A.D. "Chambers’ Corporate Governance Handbook", 7th Edition, Bloomsbury Professional, 2020.

14. The Institute of Internal Auditors (IIA). (2024). *Global Internal Audit Standards*. Lake Mary, FL.

15. INTOSAI P-10. *Mexico Declaration on Supreme Audit Institutions Independence*. International Organization of Supreme Audit Institutions.

16. INTOSAI GUID 5100. *Guidance on Audit of Information Systems*.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARI

**Narzullayev Elmurod Shuxrat o‘g‘li**
*University of Business and Science*
*mustaqil tadqiqotchisi., i.f.f.d. (PhD)*
e-mail:narzullaeveelmurod2@gmail.com
*OCID: 0009-0008-7679-1976*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirishda davlat siyosatining o‘rni hamda iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda chiqindilarni boshqarish sohasidagi normativ-huquqiy asoslar, investitsion qo‘llab-quvvatlash choralarining samaradorligi va ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *chiqindilarni qayta ishlash, iqtisodiy rag‘batlantirish, ekologik boshqaruv, sirkulyar iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, resurs tejamkorligi, investitsiya mexanizmlari, chiqindilarni boshqarish.*

# ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СТИМУЛИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ПЕРЕРАБОТКИ ОТХОДОВ

**Нарзуллаев Элмурод Шухрат угли**
*Независимый исследователь в*
*University of Business and Science, (PhD)*
*e-mail: narzullaeveelmurod2@gmail.com*
*OCID: 0009-0008-7679-1976*

***Аннотация:*** *В статье анализируется роль государственной политики и экономических механизмов стимулирования в развитии системы переработки отходов. Рассматриваются нормативно-правовые основы управления отходами, эффективность инвестиционной поддержки и вопросы обеспечения экологической устойчивости. Также предложены научно-практические рекомендации по внедрению принципов циркулярной экономики через развитие отрасли переработки отходов.*

***Ключевые слова:*** *переработка отходов, государственная политика, экономическое стимулирование, экологическое управление, циркулярная экономика, устойчивое развитие, экологическая безопасность, ресурсосбережение, инвестиционные механизмы, управление отходами.*

# STATE POLICY AND ECONOMIC INCENTIVE MECHANISMS IN DEVELOPING WASTE RECYCLING SYSTEM

**Narzullaev Elmurod Shukhrat ogli**
*Independent researcher at the*
*University of Business and Science., (PhD)*
*e-mail:narzullaeveelmurod2@gmail.com*
*OCID: 0009-0008-7679-1976*

***Annotation.*** *This article analyzes the role of state policy and economic incentive mechanisms in the development of waste recycling systems. The study examines regulatory frameworks, investment support measures, and issues related to environmental sustainability. Scientific and practical recommendations for implementing circular economy principles through the development of the recycling industry are also proposed.*

***Keywords:*** *waste recycling, state policy, economic incentives, environmental governance, circular economy, sustainable development, environmental safety, resource efficiency, investment mechanisms, waste management.*

**Kirish.**

Bugungi kunda mamlaktimizda chiqindilarni qayta ishlash va boshqarish holatini qoniqarli deb baholab bo‘lmaydi. O‘zbekistonda bu masalani hal qilishda rivojlangan davlatlardan ortda qolmoqda. So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha chiqindilarning ko‘payishi va cheklangan resurslar muammosi eng dolzarb muammolarga aylanib ulgurdi. Shu bois dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu muammolarni hal qilishning samarali usullaridan biri bu chiqindilarni qayta ishlash natijasida turli xil xo‘jalik sohalari uchun zarur bo‘lgan funksional xususiyatlarga ega xom ashyo mahsulotlarni olish muhimdir. Chiqindilarni qayta ishlash faoliyatini boshqarishda ulardan muqobil energiya manbalari ishlab chiqish borasida butun dunyoda, xususan, mamlakatimizda ham zarur choralarni amalga oshirish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada O‘zbekistonda chiqindilarni boshqarish bo‘yicha davlat organlari uchun bir qator tafsiyalar berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonda chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar tizimini takomillashtirish, sanitar tozalash korxonalarini yanada qo‘llab-quvvatlash va sohaga davlat-xususiy sheriklik joriy etilishini yo‘l xaritasi qilib olindi[1]. Mazkur strategiyada chiqindilar bilan bog‘liq xizmatlar uchun to‘lov tizimini takomillashtirish, sanitar tozalash korxonalarini iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish va chiqindilarni saralash tizimini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

**Adabiyotlar sharhi.**

Chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish masalalari ekologik iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyalari doirasida keng o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda chiqindilarni boshqarish tizimi davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida qaralib, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari ushbu tizim samaradorligini oshirishda asosiy omil ekanligi ta’kidlanadi. Xususan, Yevropa mamlakatlarida “yashil soliq”, “chiqindilar uchun to‘lov” va “kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi javobgarligi” (EPR) kabi mexanizmlar keng qo‘llanilmoqda [5]. Ilmiy adabiyotlarda chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirishda sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, chiqindilar iqtisodiy tizimdan chiqarilmaydi, balki ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlab chiqarish jarayoniga qaytariladi. Tadqiqotchilar bu yondashuv resurs tejamkorligini oshirish, ekologik yuklamani kamaytirish va yangi iqtisodiy qiymat yaratishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar [2].

Mahalliy ilmiy ishlarda esa chiqindilarni boshqarish tizimining institutsional asoslarini takomillashtirish, davlat tomonidan subsidiyalar va imtiyozlar berish, shuningdek, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, chiqindilarni saralash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani asosiy muammolardan biri sifatida ko‘rsatiladi [3]. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirishda davlat siyosati va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu ekologik barqarorlikni ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirishda davlat siyosati va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini o‘rganish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, qiyosiy, statistik va mantiqiy tahlil usullari tashkil etdi.

Tizimli yondashuv chiqindilarni boshqarish jarayonini iqtisodiy, ekologik va institutsional omillar o‘zaro bog‘liqligida tahlil qilish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi davlat siyosati va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi. Statistik usullar esa chiqindilar hajmi, qayta ishlash darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholashda qo‘llanildi. Shuningdek, tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi va “3R” (Reduce, Reuse, Recycle) tamoyillariga asoslangan yondashuvdan foydalanildi. Ushbu yondashuv chiqindilarni iqtisodiy tizimga qayta jalb etish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.**

Chiqindilarni ko‘mish, texnik jihozlangan poligonlarga joylashtirish, yoqish va qayta ishlash kabi turli xil usullar dunyo amaliyotida mavjud. Bu usullar ichida eng maqbuli qayta ishlash samarali usul hisoblanadi. Agar, ushbu usullardan saqlash va yoqishni solishtiradigan bo‘lsak, yoqish atrof-muhitga zarar keltiradi. Chiqindilarni zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va qayta ishlash bo‘yicha yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalaniga keng, e’tibor bermasdan chiqindilarni poligonlarda saqlab kelmoqda, ko‘pgina mamlakatlar uchun odatiy hol bo‘lib qolmoqda.

Chiqindilarni qayta ishlash ikkilamchi materiallar ishlab chiqarish va energiya ishlab chiqarish kabi ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi.




**1-rasm. Chiqindilarni qayta ishlash yo‘nalishlari [3]**

*United Nations Environment Programme (UNEP). Global Waste Management Outlook. Nairobi, 2015 ma’lumotlari asosida tayyorlangan

Rivojlangan mamlakatlarda chiqindilar issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish, metall, plastmassa, shisha va boshqa materiallarni qayta ishlash uchun strategik resurs sifatida foydalanadilar. Iqtisodiq rivojlangan davlatlarda chiqindidan energiya ishlab chiqarish keng tarqalgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, chiqindilarni qayta ishlashni rag‘batlantirish, yangi zamonoviy texnologiyalarni tadbiq etish, ishlab chiqarish uskunalariga filtrlar qo‘yish va xom ashyo sifatida ulardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo bo‘yicha har yili 2 milliard tonnadan ortiq maishiy chiqindilar hosil bo‘ladi [6]. Bu esa ekologik muvozanatga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. Agar chiqindilarni boshqarish tizimi samarali tashkil etilmasa, kelajakda insoniyat global chiqindilar inqiroziga duch kelishi mumkin. O‘zbekistonda ham chiqindilar bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lib, ularning asosiy qismi chiqindilarni saralash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, qayta ishlash korxonalarining kamligi hamda aholining ekologik madaniyat darajasining pastligi bilan bog‘liq. Har yili insoniyat ikki milliard tonnadan ortiq maishiy chiqindilarni ishlab chiqaradi va bu sayyoramizni katta axlatxonaga aylantirishni tahdid qiladi [2]. O‘zbekistonla axlatlarni chiqarilish kunning dolzarb muammosligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda chiqindini qayta ishlash bilan bog‘liq imkoniyatlar mavjud emas. Biroq, kelgusi yillarda vaziyat keskin o‘zgarmoqda. So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha chiqindilarning ko‘payishi va cheklangan resurslar muammosi eng dolzarb muammolarga aylanib ulgurdi. Ushbu muammolarni hal qilishning samarali usullaridan biri bu zararsizlantirish, utilizatsiya qilish, takror foydalanish, shuningdek, ko‘p miqdordagi

foydali komponentlarga ega bo‘lgan maishiy hamda ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash va ulardan takror foydalanish natijada turli xil xo‘jalik sohalari uchun zarur bo‘lgan funsional xususiyatlarga ega xom ashyo sifatida foydalanib (ikkilamchi maqsadlarda foydalanish) tegishli mahsulotlarni olishdir.

Mamlakatimizda maishiy hamda ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash va ulardan takror foydalanishda atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelmagan holda ishlab chiqarishni amalga oshirish chora-tadbirlarni amalga oshirish. Chiqindilarni qayta ishlash doirasida tarmoqlar va hududlarning iqlim o‘zgarishiga nisbatan sezuvchanligi xususiyatlaridan kelib chiqib, ekologik toza iqtisodiy o‘sishni yanada rivojlantirish hamda “yashil iqtisodiyot”ni ta’minlash unga moslashish chora-tadbirlari va investisiya loyihalari amalga oshirish muhimdir.

Quyidagi 1-jadval ma’lumotlari dunyo mamlakatlarida chiqindilarni qayta ishlash darajasi turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, Janubiy Koreya chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha 67,1 foizlik ko‘rsatkich bilan yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda chiqindilarni saralash tizimi mukammal yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, aholining ekologik madaniyati ham yuqori darajada shakllangan. Samoa va Benin davlatlarida ham chiqindilarni qayta ishlash darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, bu mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlash iqtisodiy faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlantirilmoqda.

**1-jadval**

**Dunyo bo‘yicha chiqindilarni qayta ishlash reytingi [7]**

| O‘rin | Davlat nomi | Qayta ishlangan chiqindi miqdori |
|---|---|---|
| 1 | Janubiy Koreya | 67.1 % |
| 2 | Samoa | 57.6 % |
| 3 | Benin | 56.9 % |
| 30 | O‘zbekiston | 31.6 % |
| 94 | Turkmaniston | 15.3 % |
| 106 | Qirg‘iziston | 14.6 % |
| 111 | Tojikiston | 13.9 % |
| 175 | Qozoqiston | 3.8 % |

* Recycling Rates by Country 2026 ma’lumotlari asosida tayyorlangan

O‘zbekiston esa mazkur reytingda 31,6 foizlik ko‘rsatkich bilan 30-o‘rinni egallaydi. Bu ko‘rsatkich mintaqadagi ayrim davlatlarga nisbatan yuqori bo‘lsa-da, rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda hali yetarli emasligini ko‘rsatadi. Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikiston kabi davlatlarda chiqindilarni qayta ishlash darajasi 15 foizdan past bo‘lib, bu esa Markaziy Osiyo mintaqasida chiqindilarni boshqarish tizimini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda chiqindilar bilan bog‘liq qanday muammolar mavjud, uning yechimni qanday qilib topish choralarini ko‘rish, mamlakatda chiqindilarni qayta ishlashga doir nima o‘zgarishlarni qilish kerak? Shu kabi savollarga tadqiqotimizda javob izlashga xarakat qildik. Dunyo aholisining o‘sishi urbanizatsiya bilan uzviy bog‘liqdir. Ko‘pgina olimlarning fikriga ko‘ra, sayyoramizdagi odamlarning 80% shaharlarda yashaydi. Bu shuni anglatadiki, ishlab chiqarish va iste’molning mavjud modellarida hech narsa o‘zgarmasa, insoniyat ulkan chiqindilar inqiroziga duch keladi. Chiqindilar muammosi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, u yillar davomida rivojlanib, asta-sekin kuchayib boradi. Haqiqat shuni anglatmoqdaki, nafaqat O‘zbekiston hududida, balki butun dunyoda bu borada zaruriy choralarni amalga oshirish dolzarbdir. XXI asr boshlarida sanoat ishlab chiqarish sohasida dunyo ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Ilmiy aql-idrokli texnologiyalarni takomillashtirish ustida ishlanmalar amalga oshirildi, ishlab chiqarish sohasida raqamlashtirish ta’minlash chiqindilarini qayta ishlar borasida zaruriy o‘zgarishlar qilindi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdan oldin inson mehnat omilidan foydalanilgan holda chiqindilar poligonlarga ko‘milgan va u yerda ekotizimga zarar yetkazmasdan tabiiy ravishda parchalangan. Qog‘oz, shisha idishlar va metallolomlar ko‘pincha umumiy chiqindilar qutilariga tashlanmay, ixtisoslashtirilgan yig‘ish punktlariga topshirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan edi. 2-jadval

ma’lumotimizan chiqindilaring parchalanish davrlarini ko‘rishimiz mumkin.

**2-jadval**

**Chiqindilaring parchalanish vaqtlari [8]**

| № | Chiqindi turi | Parchalanish vaqti | № | Chiqindi turi | Parchalanish vaqti |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | shisha idish | 1 million yil | 10 | sigareta qoldiqlari | 10-12 yil |
| 2 | plastik ichimliklar idishlari | 450 yil | 11 | jun kiyimlar | 1-5 yil |
| 3 | alyuminiy konserva | 80-200 yil | 12 | sut qutilari | 5 yil |
| 4 | kuchlanish batareyalari | 100 yil | 13 | arqonlar | 3-14 oy |
| 5 | kauchukli etik | 50-80 yil | 14 | paxta qo‘lqop | 3 oy |
| 6 | plastik stakan, teri, qalay konserva | 50 yil | 15 | karton | 2 oy |
| 7 | neylon mato | 30-40 yil | 16 | apelsin yoki banan qobig‘i | 2-5 hafta |
| 8 | charm poyabzal | 25-40 yil | 17 | qog‘oz sochiq | 2-4 hafta |
| 9 | yog‘och | 10-15 yil | | | |

** Radkevich M.V., Abdukadirova M. Shipilova K.B., “Qattiq maishiy chiqindilar poligonlarini loyihalash va ulardan foydalanish”. O‘quv qo‘llanma magistrlar uchun. T.-140 b.*

Mazkur jadval turli xil chiqindilar tabiatda qanchalik uzoq vaqt davomida parchalanishini ko‘rsatadi. Masalan: shisha idishlarning parchalanish muddati 1 million yilni tashkil etadi, plastik butilkalar 450 yil davomida parchalanadi, alyuminiy qutilar 80-200 yil davomida parchalanadi, batareyalar 100 yil davomida parchalanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ayrim chiqindilar tabiatda juda uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi va ekologik muvozanatga jiddiy zarar yetkazadi.

Organik chiqindilar esa nisbatan tez parchalanadi. Masalan: karton - 2 oy; qog‘oz sochiq 2-4 hafta; meva po‘stloqlari 2-5 hafta. Shu sababli chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimini rivojlantirish ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sintetik materiallarning paydo bo‘lishi inson hayotiga juda ko‘p qulayliklar keltirishi bilan birga, jiddiy chiqindi muammosini keltirib chiqardi. Plastmassa juda sekin parchalanadi, natijada barcha qadoqlash materiallari, sanoat chiqindilari va boshqa polimer chiqindilar chiqindilar uyimini hosil qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Shuni aytish joizki, organik chiqindilar tez parchalanish xususiyatiga ega, ammo plastmassa juda sekin parchalanadi.Oldimizda turgan muammodan tashqari, chiqarilgan chiqindi 2 ta muammoni keltirib chiqaradi, ya’ni, tuproq va yer osti suvlarini zaxarlaydi va poligondan atmosferaga zararli is gazi moddalarini chiqaradi.

Bundan tashqari, chiqindilar massasining hajmi ancha kichik, hozirgi kunda chiqindilar muammosi nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Haddan tashqari to‘ldirilgan chiqindi qutilari yomon ko‘rinadi va yomon hid chiqaradi, ayniqsa yozda. Chiqindilarning yengil fraksiyalari shamol tomonidan hududlar bo‘ylab tarqaladi va chiqindi qutilari o‘ziga kalamushlar, qushlar va qarovsiz hayvonlarning eьtiborini tortadi. Shu sababli mamlakatimizda ham ikkilamchi xom-ashyoni qayta ishlash darajasini ijobiy deb bo‘lmaydi. Shahar aholisi tomonidan chiqarilayotgan chiqindilarni bitta chiqindi qutisiga tashlashlari natijasida aralashtirilgan foydali fraksiyalar qayta ishlash uchun yaroqsiz bo‘lib qoladi. Aholi tomonidan chiqarilayotgan chiqindilarni tashlash uchun alohida yashiklarni o‘rnatilishi chiqindilarni qayta ishlash jarayonida bir muncha yengilliklarga olib keladi.

**Xulosa.**

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida chiqindilarni yo‘q qilish va qayta ishlash tizimi ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda resurslardan samarali foydalanishda muhim ahamiyat

kasb etishi aniqlandi. Tahlillar chiqindilar hajmining ortib borishi atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini hamda mavjud boshqaruv tizimlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirish sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Chiqindilarni manbaida saralash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va aholining ekologik madaniyatini oshirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish.
2. Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish hamda ushbu sohaga xususiy investitsiyalarni jalb etish uchun iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish.
3. Ekologik soliqlar, imtiyozlar va subsidiya mexanizmlari orqali qayta ishlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.
4. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini oshirish va energiya tejovchi ishlab chiqarishni rivojlantirish.
5. Chiqindilarni boshqarish sohasida xalqaro tajribalarni o‘rganish va milliy amaliyotga moslashtirish.

Umuman olganda, chiqindilarni yo‘q qilish va qayta ishlash tizimini takomillashtirish ekologik muammolarni kamaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda kelajak avlodlar uchun sog‘lom ekologik muhitni yaratishda muhim omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni
2. Kirchherr J., Reike D., Hekkert M. Conceptualizing the Circular Economy: An Analysis of 114 Definitions // Resources, Conservation and Recycling, 2017.
3. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Waste Management Outlook. – Nairobi, 2015.
4. World Bank. What a Waste 2.0: A Global Snapshot of Solid Waste Management. – Washington DC, 2018.
5. European Environment Agency. Waste and Recycling Policies in Europe. – Copenhagen, 2021.
6. World Bank. What a Waste 2.0: A Global Snapshot of Solid Waste Management. Washington DC, 2018.
7. Recycling Rates by Country 2026 https://worldpopulationreview.com/country-rankings/recycling-rates-by-country
8. Radkevich M.V., Abdukadirova M. Shipilova K.B., “Qattiq maishiy chiqindilar poligonlarini loyihalash va ulardan foydalanish”. O‘quv qo‘llanma magistrlar uchun. T.-140 b.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF INVESTMENTS ATTRACTED TO THE REGIONS: MODERN APPROACHES

**Kuvondikov Ravshan Qushaqovich**

*Master’s student at*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: kuvondikov777@gmail.com*
*ORCID: 0009-0004-9443-3380*

***Abstract.*** *This article examines the effectiveness of investments attracted to regional economies and explores modern methodological approaches to their evaluation. In the context of increasing interregional disparities and global competition for capital, investment efficiency is considered not only in terms of volume but also in terms of structural quality, institutional environment, and spatial distribution. The study analyzes key modern approaches such as econometric modeling, spatial analysis, data envelopment analysis (DEA), and cost–benefit evaluation. Special attention is paid to foreign direct investment (FDI) and its differentiated impact on regional development. The results show that investment effectiveness depends on a complex combination of economic, institutional, and technological factors, while integrated analytical methods provide the most accurate assessment of regional investment performance.*

***Keywords:*** *regional investment, investment efficiency, foreign direct investment (FDI), econometric analysis, spatial econometrics, data envelopment analysis (DEA), regional development, cost–benefit analysis, institutional quality, economic growth.*

# АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ, ПРИВЛЕКАЕМЫХ В РЕГИОНЫ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

**Kuvondikov Ravshan Qushaqovich**

*магистр*
*Ташкентского государственного*
*экономического университета*
*E-mail: kuvondikov777@gmail.com*
*ORCID: 0009-0004-9443-3380*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается эффективность инвестиций, привлекаемых в региональные экономики, и исследуются современные методологические подходы к их оценке. В условиях растущих межрегиональных различий и глобальной конкуренции за капитал эффективность инвестиций рассматривается не только с точки зрения объема, но и с точки зрения структурного качества, институциональной среды и пространственного распределения. В исследовании анализируются ключевые современные подходы, такие как эконометрическое моделирование, пространственный анализ, анализ эффективности с помощью оболочечных данных (DEA) и анализ затрат и выгод. Особое внимание уделяется прямым иностранным инвестициям (ПИИ) и их дифференцированному влиянию на региональное развитие. Результаты показывают, что эффективность инвестиций зависит от сложного сочетания экономических, институциональных и технологических факторов, в то время как интегрированные аналитические методы обеспечивают наиболее точную оценку эффективности региональных инвестиций.*

***Ключевые слова:*** *региональные инвестиции, эффективность инвестиций, прямые иностранные инвестиции (ПИИ), эконометрический анализ, пространственная эконометрика, анализ эффективности с помощью оболочечных данных (DEA), региональное развитие, анализ затрат и выгод, институциональное качество, экономический рост.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# HUDUDLARGA JALB QILINGAN INVESTITSIYALARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

**Kuvondikov Ravshan Qushaqovich**
*magistant*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: kuvondikov777@gmail.com*
*ORCID: 0009-0004-9443-3380*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola mintaqaviy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning samaradorligini o‘rganadi va ularni baholashning zamonaviy metodologik yondashuvlarini o‘rganadi. Mintaqalararo tafovutlarning ortib borishi va kapital uchun global raqobat sharoitida investitsiya samaradorligi nafaqat hajm jihatidan, balki tarkibiy sifat, institutsional muhit va fazoviy taqsimot nuqtai nazaridan ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda ekonometrik modellashtirish, fazoviy tahlil, ma’lumotlar qobig‘ini tahlil qilish (DEA) va xarajatlar-foyda baholash kabi asosiy zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TOI) va uning mintaqaviy rivojlanishga tabaqalashtirilgan ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya samaradorligi iqtisodiy, institutsional va texnologik omillarning murakkab kombinatsiyasiga bog‘liq, integratsiyalashgan analitik usullar esa mintaqaviy investitsiyalar samaradorligini eng aniq baholashni ta’minlaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *mintaqaviy investitsiyalar, investitsiya samaradorligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TOI), ekonometrik tahlil, fazoviy ekonometrika, ma’lumotlar qobig‘ini tahlil qilish (DEA), mintaqaviy rivojlanish, xarajatlar-foyda tahlili, institutsional sifat, iqtisodiy o‘sish.*

## Introduction

In the contemporary global economy, regional development has become one of the most important dimensions of national competitiveness and sustainable economic growth. The increasing mobility of capital, labor, and technology has intensified competition among regions for attracting investment resources. In this context, investments—particularly foreign direct investment (FDI), public capital expenditure, and private sector funding—are widely recognized as key drivers of economic modernization, infrastructure development, and productivity growth.

However, empirical evidence suggests that the mere attraction of investment does not automatically guarantee regional economic development. The effectiveness of investments varies significantly across territories depending on institutional quality, infrastructure availability, human capital development, innovation capacity, and geographic location. As a result, two regions receiving similar investment inflows may demonstrate substantially different economic outcomes. This phenomenon has shifted the focus of modern economic research from investment volume to investment efficiency.

The relevance of this study is further reinforced by ongoing structural changes in the global economy, including digital transformation, supply chain restructuring, and increasing geopolitical uncertainty. These factors significantly affect the distribution and performance of investments across regions, often leading to polarization between highly developed and less developed territories. Consequently, the issue of assessing investment effectiveness has gained strategic importance for policymakers aiming to reduce regional disparities and ensure balanced economic growth.

Modern academic literature emphasizes that regional investment efficiency cannot be accurately evaluated using a single indicator. Instead, a multidimensional methodological framework is required, integrating econometric analysis, spatial modeling, cost–benefit evaluation, and efficiency measurement techniques such as Data Envelopment Analysis (DEA). These approaches allow researchers to capture both direct and indirect effects of investment, including spillover impacts between neighboring regions. The main objective of this article is to

analyze modern approaches to assessing the effectiveness of investments attracted to regions and to identify the key determinants influencing their efficiency. The study aims to provide a systematic understanding of how investment outcomes vary across regions and to highlight the most appropriate methodological tools for their evaluation.

**Literature review**

The problem of assessing the effectiveness of investments attracted to regional economies has been widely discussed in economic theory, regional studies, and development economics. Modern scientific literature demonstrates that investment efficiency is a multidimensional concept that cannot be reduced solely to capital inflow volumes, but must be analyzed through institutional, spatial, structural, and technological perspectives.

Regional development and spatial inequality literature. Modern regional economics highlights that investment is unevenly distributed across space. According to new economic geography (Krugman), agglomeration effects lead to concentration of investment in already developed regions, increasing regional disparities. Infrastructure availability, market size, and labor mobility are key determinants of this process. OECD studies also confirm that regional attractiveness strongly influences investment allocation, and that FDI tends to concentrate in metropolitan and highly developed regions, leaving peripheral areas underinvested. This phenomenon raises concerns about spatial inequality and inefficient capital distribution.

Foreign direct investment (FDI) and regional growth. A significant body of literature focuses on the role of FDI in regional development. Dunning‘s Eclectic Paradigm (OLI framework) explains FDI flows based on ownership, location, and internalization advantages. At the regional level, location advantages such as infrastructure quality, institutional stability, and labor skills are crucial determinants. Empirical studies show mixed results regarding FDI effectiveness. While some research demonstrates positive impacts on employment, productivity, and export growth, others highlight limited spillover effects in regions with weak absorptive capacity. This suggests that FDI effectiveness is highly context-dependent.

Institutional and structural determinants. Recent literature increasingly emphasizes the role of institutions in shaping investment outcomes. According to North’s institutional theory, secure property rights, transparent governance, and low corruption levels significantly improve investment efficiency. World Bank governance indicators are widely used in empirical studies to measure institutional quality. Results consistently show that regions with stronger institutions attract more productive investments and achieve higher returns on capital.

Methodological approaches to investment efficiency assessment. Modern research proposes several methodological frameworks for evaluating regional investment effectiveness:

Econometric models. Panel data models and spatial econometric techniques are widely used to analyze the relationship between investment and regional economic performance. These models allow researchers to capture heterogeneity across regions and identify spillover effects. Spatial lag and spatial error models are particularly important in regional analysis, as they account for interdependence between neighboring territories.

Data Envelopment Analysis (DEA). DEA is extensively used in efficiency studies to compare regions based on input-output relationships. It allows the identification of best-performing regions and inefficiencies in resource allocation. However, DEA is sensitive to variable selection and does not account for external shocks.

Cost–benefit and investment return methods. Traditional financial evaluation methods such as Net Present Value (NPV) and Internal Rate of Return (IRR) are commonly used for project-level analysis. However, these methods are limited in regional studies because they ignore externalities, spillover effects, and social impacts.

Innovation systems and absorptive capacity. A growing body of literature emphasizes the importance of regional innovation systems. According to Cohen and Levinthal, absorptive capacity determines how effectively regions can utilize external knowledge and investment

inflows. Regions with strong R&D infrastructure, universities, and innovative enterprises are more capable of converting investments into productivity gains. This explains why similar investment levels may produce different outcomes across regions.

The reviewed literature demonstrates that investment efficiency in regional economies is a complex and multidimensional phenomenon. While classical theories focus on capital accumulation, modern approaches emphasize institutions, spatial dynamics, innovation capacity, and methodological diversity. This confirms the necessity of using integrated analytical tools for accurate assessment of regional investment performance.

**Comparative Analytical Framework of Methods for Evaluating Regional Investment Efficiency***

| Evaluation Method | Main Features | Advantages | Limitations | Application in Regional Investment Analysis |
|---|---|---|---|---|
| Econometric Models (Panel Data, Spatial Models) | Statistical modeling of relationship between investment and regional economic indicators | Captures causality, allows heterogeneity analysis, includes spatial spillovers | Requires large datasets, sensitive to model specification | Used to measure impact of investment on GDP, employment, productivity across regions |
| Data Envelopment Analysis (DEA) | Non-parametric efficiency comparison of regions based on input-output ratios | Identifies best-performing regions, does not require functional form | Sensitive to variable selection, ignores external shocks | Evaluates relative efficiency of regions in converting investment into output |
| Cost–Benefit Analysis (CBA) | Financial evaluation based on net economic gains | Simple interpretation, widely used in project evaluation | Ignores spillover effects and non-monetary benefits | Applied to infrastructure and public investment projects at regional level |
| Input–Output Analysis | Examines inter-sectoral linkages and economic structure | Captures indirect effects of investment | Requires detailed sectoral data, static in nature | Analyzes how investment in one sector affects regional economy |
| Composite Index Approach | Aggregates multiple indicators into a single efficiency index | Holistic view, includes economic and social factors | Weighting subjectivity, data normalization issues | Measures overall regional investment attractiveness and efficiency |
| Spatial Econometric Models | Incorporates geographic dependence between regions | Captures spillover and diffusion effects | Complex estimation, requires spatial data | Studies how investment in one region influences neighboring regions |
| Qualitative Institutional Analysis | Assessment of governance, regulation, and institutional quality | Captures non-quantifiable factors | Lack of standardization, subjective evaluation | Explains differences in investment efficiency across similar regions |

*Author's development

The comparative analysis shows that no single method is sufficient to fully evaluate regional investment efficiency. Econometric and spatial models are best for quantitative impact assessment, while DEA and composite indices provide efficiency benchmarking. Meanwhile,

institutional and qualitative approaches explain underlying structural differences between regions. Therefore, modern research increasingly supports integrated multi-method frameworks for more accurate and reliable evaluation of regional investment performance.

**Research Methodology**

This study employs a multidimensional analytical approach to evaluate the effectiveness of investments in regional economies. The methodology is structured as follows

**Analysis and Results**

The analysis of modern approaches to evaluating the effectiveness of investments attracted to regional economies demonstrates that investment efficiency is a complex, multidimensional, and context-dependent phenomenon. The findings of this study confirm that traditional views, which focus primarily on the volume of investment inflows, are insufficient for explaining differences in regional development outcomes. Instead, the effectiveness of investment is determined by a combination of economic, institutional, spatial, and technological factors.

Role of institutional and structural factors. The results clearly indicate that institutional quality plays a decisive role in determining investment outcomes. Regions with transparent governance structures, stable regulatory environments, and efficient public administration are more capable of converting investment inflows into sustainable economic growth. This finding is consistent with institutional economic theory, which argues that institutions shape incentives and reduce uncertainty for investors. Structural factors such as industrial composition, infrastructure development, and labor market characteristics also significantly influence investment efficiency. Regions with diversified economies and developed infrastructure systems tend to generate higher returns on investment compared to mono-industrial or underdeveloped regions.

Efficiency vs. volume of investment. The study highlights a critical distinction between investment volume and investment efficiency. High levels of investment do not necessarily translate into high economic performance. In some cases, inefficient allocation of resources, corruption, bureaucratic barriers, and weak absorptive capacity reduce the productivity of investment. This finding is particularly important for policy-making, as it suggests that strategies focused solely on increasing investment inflows may be insufficient. Instead, attention should be directed toward improving the efficiency of resource utilization, strengthening institutions, and enhancing human capital.

Policy implications. The findings of this study have important implications for regional development policy. Policymakers should not only focus on attracting investment but also on creating favorable conditions for its efficient utilization. This includes improving governance quality, investing in infrastructure, supporting innovation systems, and strengthening human capital development. Furthermore, regional policies should take into account spatial interdependencies and aim to reduce development gaps between core and peripheral regions. Targeted interventions in underdeveloped regions can enhance their absorptive capacity and improve overall national economic efficiency.

Overall, the discussion confirms that regional investment efficiency is determined by a complex interaction of multiple factors. Modern analytical approaches must therefore move beyond single-method evaluations and adopt integrated, multi-dimensional frameworks. Such approaches are essential for understanding the real impact of investments on regional development and for designing effective economic policies. In conclusion, the study emphasizes that improving investment effectiveness requires not only increasing financial inflows but also strengthening institutional capacity, reducing spatial inequalities, and enhancing the innovation potential of regional economies.

**Conclusion**

The conducted study on analyzing the effectiveness of investments attracted to regional

economies demonstrates that investment performance is a complex and multidimensional phenomenon shaped by economic, institutional, and spatial factors. The research confirms that regional development cannot be explained solely by the volume of investment inflows, as the efficiency of capital utilization plays a more decisive role in generating sustainable economic growth. The comparative analysis of modern methodological approaches—econometric modeling, spatial econometrics, Data Envelopment Analysis (DEA), cost–benefit analysis, and composite index methods—shows that each approach contributes to understanding different aspects of investment efficiency. However, no single method is sufficient to fully capture the complexity of regional investment processes. Regions with strong institutional frameworks and advanced economic structures are more capable of transforming investment inflows into long-term development outcomes. In contrast, regions with weak governance and limited absorptive capacity often experience lower returns on investment despite significant capital inflows. Furthermore, spatial analysis confirms the existence of strong regional disparities and spillover effects, indicating that investment in one region may influence neighboring territories. This highlights the importance of coordinated regional policies aimed at reducing territorial inequality and promoting balanced economic development. Overall, the findings suggest that improving regional investment effectiveness requires not only attracting capital but also enhancing the structural and institutional environment in which investments are utilized. Policy measures should focus on strengthening governance, improving infrastructure, supporting innovation systems, and developing human capital. Thus, the study contributes to a deeper understanding of regional investment dynamics and provides a methodological basis for improving investment policy and regional development strategies.

**References**

1. Dunning, J. H. (1993). *Multinational Enterprises and the Global Economy*. Addison-Wesley.

2. North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.

3. OECD (2023). *Regional Attractiveness and Investment Flows Report*. Paris: OECD Publishing.

4. World Bank (2022). *Worldwide Governance Indicators (WGI) Report*. Washington, DC.

5. Coelli, T. J., Rao, D. S. P., O‘Donnell, C. J., & Battese, G. E. (2005). *An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis*. Springer.

6. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2020). *Economic Development*. Pearson Education.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# AHOLINING TADBIRKORLIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

**Suvpo‘latov Ozodjon Alijon o‘g‘li**
*katta o‘qituvchi*
*iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universisteti*
*E-mail: suvpulatovozod@gmail.com*
*ORCID: 0009-0006-6344-6618*

***Annotatsiya.*** *Maqola aholining tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishning barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganadi. Tadbirkorlik, bandlik, daromadlar o‘sishi va iqtisodiy faollik o‘rtasidagi bog‘lanish statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Ishlab chiqilgan nazariy model barqaror rivojlanishda ichki omillarning ahamiyatini asoslaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *tadbirkorlik salohiyati, barqaror iqtisodiy o‘sish, institutsional muhit, kichik biznes infratuzilmasi, mehnat bozor dinamikasi, moliyaviy ommalashtirish.*

# РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОГО ПОТЕНЦИАЛА НАСЕЛЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

**Сувпулатов Озоджон Алижон угли**
*старший преподаватель кафедры*
*экономическая теория*
*Ташкентского государственного*
*экономического университета*
*E-mail: suvpulatovozod@gmail.com*
*ORCID: 0009-0006-6344-6618*

***Аннотация.*** *В статье анализируется влияние развития предпринимательского потенциала населения на устойчивый экономический рост. На основе статистических показателей исследуется взаимосвязь предпринимательства, занятости и доходов. Исследование обосновывает роль внутренних факторов в устойчивом развитии. Данный подход повышает эффективность экономической системы, усиливает инновационную активность и стимулирует региональное развитие.*

***Ключевые слова:*** *предпринимательский потенциал, устойчивый экономический рост, институциональная среда, инфраструктура малого бизнеса, динамика рынка труда, финансовая доступность.*

# DEVELOPMENT OF THE ENTREPRENEURIAL POTENTIAL OF THE POPULATION AS AN IMPORTANT FACTOR OF SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

**Suvpolatov Ozodjon Alijon ogli**
*Senior Lecturer*
*of the Department of Economic Theory*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: suvpulatovozod@gmail.com*
*ORCID: 0009-0006-6344-6618*

***Abstract.*** *The article analyzes the impact of developing entrepreneurial potential of the population on sustainable economic growth. Based on statistical indicators, the relationship between entrepreneurship, employment and incomes is studied. The research substantiates the role*

*of internal factors in sustainable development. This approach enhances economic system efficiency, boosts innovative activity and stimulates regional development.*

***Keywords:*** *entrepreneurial potential, sustainable economic growth, institutional environment, small business infrastructure, labor market dynamics, financial accessibility.*

**Kirish**

Bugungi globallashuv jarayonlari chuqurlashib, xalqaro bozorlarda raqobat tobora keskinlashib borayotgan bir sharoitda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash har bir davlatning strategik ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Barqaror iqtisodiy o‘sish nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi yoki boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ijobiy dinamikasi bilan, balki aholi bandligi darajasining oshishi, real daromadlarning barqaror o‘sishi, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning qisqarishi hamda iqtisodiy tizimning ichki va tashqi shoklarga nisbatan moslashuvchanligi bilan ham tavsiflanadi. Ayniqsa, global iqtisodiy beqarorlik, moliyaviy inqirozlar, pandemiyalar va geosiyosiy keskinliklar kabi omillar iqtisodiyotning ichki zaxiralariga tayanish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu sababli, iqtisodiy o‘sishning sifat jihatidan yangi modelini shakllantirish, ya’ni innovatsiyalarga asoslangan, inklyuziv va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlovchi mexanizmlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sharoitda iqtisodiy o‘sishning ichki manbalarini safarbar etish, xususan, aholining tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish alohida strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etish va bozor muvozanatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, biznes yuritish madaniyatini shakllantirish, moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish hamda qulay institutsional va infratuzilmaviy muhitni yaratish orqali tadbirkorlik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin. Natijada, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni ortib, ularning iqtisodiyotdagi ulushi kengayadi, bu esa iqtisodiy faollikni oshirib, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik jamiyat iqtisodiy faolligining muhim ko‘rinishi bo‘lib, u yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, raqobat muhitini shakllantirish, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, aholi orasida tadbirkorlik ko‘nikmalari, tashabbuskorlik, mustaqil iqtisodiy fikrlash va tavakkalchilikni boshqarish qobiliyatining shakllanishi mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishning sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishiga xizmat qiladi. Shu bois tadbirkorlikni faqat xo‘jalik yuritish shakli sifatida emas, balki iqtisodiy rivojlanishning strategik drayveri sifatida baholash zarur.

O‘zbekiston sharoitida ham keyingi yillarda xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash, oilaviy biznesni kengaytirish, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, hududlarda yangi biznes tashabbuslarini rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy islohotlar doirasida “inson qadri”, “faol tadbirkorlik”, “ishbilarmonlik muhiti” va “xususiy sektor ulushini kengaytirish” kabi tamoyillar ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Bu esa tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish masalasining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda muhim ekanini ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Tadbirkorlikka oid ilmiy qarashlar iqtisodiy tafakkur tarixida turli bosqichlarda rivojlangan.

A. Marshall o‘zining “Iqtisodiyot prinsiplari” [1] asarida tadbirkorlikni ishlab chiqarishning to‘rtinchi omili sifatida e’tirof etgan. Uning fikricha, tadbirkorning asosiy vazifalari orasida xavf-xatarlarni o‘z zimmasiga olish, mehnatni tashkil etish va boshqarish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yangi g‘oyalarni joriy etish muhim o‘rin tutadi. Marshall tadbirkorni “tizimni birlashtiruvchi kuch” deb atagan, chunki u kapital, yer va mehnat kabi barcha omillarni birlashtirib, samarali ish yuritishga qodirdir. Uning yondashuviga ko‘ra, tadbirkor nafaqat foyda ortidan quvuvchi, balki iqtisodiy resurslarni oqilona taqsimlovchi va iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi shaxs hamdir.

Klassik iqtisodiy maktab vakillari tadbirkorni ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi va foyda olishga intiluvchi subyekt sifatida ko‘rganlar [2]. Bu yondashuvda tadbirkorlik iqtisodiy faollikning tashkiliy shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Y.Shumpeter esa tadbirkorlikni innovatsiyalar bilan bog‘lab, tadbirkorni iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi deb hisoblaydi [3]. Uning fikricha, tadbirkor yangi mahsulot, yangi texnologiya, yangi bozor yoki yangi boshqaruv usullarini joriy etish orqali iqtisodiyotda sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda tadbirkorlik salohiyati inson kapitali, institutsional muhit, moliyaviy resurslarga kirish va ta’lim sifati bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi [4]. Ayrim tadqiqotlarda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda tadbirkorlik faolligi bandlikni oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va hududiy rivojlanishni ta’minlashning muhim omili ekani qayd etiladi [5].

Shuningdek, inson kapitali to‘g‘risidagi tadqiqotlarda aholi bilim va ko‘nikmalarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri asoslab berilgan bo‘lib, bu holat tadbirkorlik salohiyatining shakllanishida ham muhim o‘rin tutadi [6]. Biroq mavjud ilmiy manbalarda aholining tadbirkorlik salohiyatini aynan barqaror iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq holda kompleks yoritish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, ilmiy abstraksiya va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tahlil va sintez usuli yordamida tadbirkorlik salohiyati hamda barqaror iqtisodiy o‘sish tushunchalarining mazmuni ochib berildi.

Qiyosiy taqqoslash usuli orqali tadbirkorlik nazariyasiga oid turli ilmiy yondashuvlar solishtirildi. Statistik ma’lumotlarni umumlashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi o‘rni baholandi. Tizimli yondashuv asosida tadbirkorlik salohiyati, bandlik, daromad va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi.

Tadqiqotning axborot bazasini iqtisodiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va ochiq manbalardagi umumiy statistik ko‘rsatkichlar tashkil etadi [7].

**Tahlil va natijalar**

Aholining tadbirkorlik salohiyati deganda shaxslarning iqtisodiy tashabbus ko‘rsatish, mustaqil faoliyat yuritish, tavakkalchilikni boshqarish, bozor imkoniyatlarini aniqlash va daromad keltiruvchi faoliyatni tashkil etish qobiliyati tushuniladi. Ushbu salohiyat iqtisodiyotning ichki drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadbirkorlik salohiyatining barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’siri quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- yangi ish o‘rinlari yaratiladi;
- aholi daromadlari ortadi;
- kichik biznesning YAIMdagi ulushi kengayadi;
- mahalliy resurslardan samarali foydalanish kuchayadi;
- innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish imkoniyati ortadi;

- hududlar iqtisodiy faolligi oshadi.

Aholining tadbirkorlik salohiyati quyidagi omillar ta’sirida shakllanadi:

- ta’lim darajasi va kasbiy ko‘nikmalar;
- moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati;
- huquqiy-institutsional muhit;
- infratuzilma va raqamli xizmatlar;
- ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik;
- biznes yuritish madaniyati.

Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish faqat individual qobiliyat masalasi emas, balki davlat siyosati, bozor muhiti va institutlar samaradorligi bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu bois barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi kompleks mexanizm zarur.

Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi aks ettirilgan. Ushbu ma’lumotlar mazkur sektorning iqtisodiy o‘sish, aholi bandligi va bozor infratuzilmasi rivojlanishidagi ahamiyatini statistik jihatdan baholash imkonini beradi.

Jadval 1.

**O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ayrim ko‘rsatkichlardagi ulushi, foizda**

| Ko‘rsatkichlar | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|
| YAIMdagi ulushi | 54.9 | 55.0 | 54.8 | 54.7 |
| Bandlikdagi ulushi | 74.5 | 74.8 | 74.9 | 74.7 |
| Sanoat mahsulotidagi ulushi | 27.1 | 27.0 | 26.9 | 27.2 |
| Qurilishdagi ulushi | 72.4 | 72.7 | 72.9 | 73.1 |
| Chakana savdodagi ulushi | 80.2 | 81.0 | 81.3 | 81.5 |

** O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*

Jadval ma’lumotlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni yuqori ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bandlik va chakana savdo sohalarida ushbu sektorning salmog‘i katta bo‘lib, bu holat aholi tadbirkorlik salohiyatining iqtisodiy faollikka bevosita ta’sirini ifodalaydi.

Tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishning samarali yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. ta’lim tizimiga tadbirkorlik kompetensiyalarini chuqur integratsiya qilish;
2. yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini manzilli qo‘llab-quvvatlash;
3. imtiyozli moliyalashtirish va mikrokreditlash imkoniyatlarini kengaytirish;
4. hududiy biznes infratuzilmasini rivojlantirish;
5. raqamli tadbirkorlik va innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish.

Shunday qilib, tahlil natijalari tadbirkorlik salohiyatining iqtisodiy o‘sish, bandlik va daromadlar barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Aholining tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri bo‘lib, u ko‘p bosqichli va tizimli ta’sir mexanizmi orqali namoyon bo‘ladi. Avvalo, ta’lim tizimi orqali aholining bilim va ko‘nikmalari oshiriladi, bu esa innovatsion fikrlashni shakllantirib, yangi biznes g‘oyalarining paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, qulay institutsional muhit — ya’ni huquqiy kafolatlar, shaffof boshqaruv tizimi va samarali davlat siyosati — tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritishdagi to‘siqlarni kamaytiradi. Moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyati, xususan kreditlar, investitsiyalar va grant mexanizmlarining mavjudligi esa aholining iqtisodiy faolligini rag‘batlantiradi. Bularning barchasi zamonaviy infratuzilma, ya’ni transport, kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bilan

qo‘llab-quvvatlanganda tadbirkorlik muhitining barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

Mazkur omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida tadbirkorlik faolligi ortib boradi va bu jarayon iqtisodiy tizimga multiplikativ ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni yangi ish o‘rinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi va ichki talab kengayadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining ortishiga olib keladi. Natijada, iqtisodiyotda diversifikatsiya jarayoni kuchayib, yangi tarmoqlar shakllanadi va mavjud sohalarda samaradorlik oshadi. Ushbu jarayon uzluksiz sikl sifatida ishlaydi: tadbirkorlik rivojlanishi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, iqtisodiy o‘sish esa o‘z navbatida tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu tariqa, ta’lim, institutsional muhit, moliyaviy resurslar va infratuzilmaviy sharoitlarning funksional bog‘liqligi yagona mexanizm sifatida amal qilib, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim omilga aylanadi.




**1-rasm. Aholining tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishning barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’sir etish mexanizmi***

**Manba: muallif ishlanmasi.*

Ushbu mexanizm aholining tadbirkorlik salohiyati barqaror iqtisodiy o‘sishga bevosita emas, balki bir necha oraliq bosqichlar orqali ta’sir ko‘rsatishini ifodalaydi. Xususan, ta’lim, institutsional muhit, moliyaviy imkoniyatlar va infratuzilma tadbirkorlik faolligini oshiradi. Natijada kichik biznes rivojlanib, bandlik, daromad va hududiy iqtisodiy faollik kuchayadi.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aholining tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim strategik omillaridan biri hisoblanadi. Chunki tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy faollikni oshiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi, aholi bandligini kengaytiradi, daromadlar hajmini ko‘paytiradi hamda bozor iqtisodiyoti institutlarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytiradi, resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va hududlarning iqtisodiy faolligini rag‘batlantiradi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiyotning moslashuvchanligini oshirib, uning ichki

imkoniyatlar hisobidan barqaror o‘sishiga zamin yaratadi.

Aholining tadbirkorlik salohiyati inson kapitali, ta’lim sifati, kasbiy ko‘nikmalar, institutsional muhit, moliyaviy imkoniyatlar, infratuzilmaviy sharoitlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi ta’sirida shakllanadi. Shu sababli mazkur yo‘nalishda olib boriladigan siyosat kompleks xarakterga ega bo‘lishi lozim. Ya’ni, bir tomondan, aholining tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta’lim va malaka oshirish tizimini takomillashtirish zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay institutsional va moliyaviy muhitni yaratish talab etiladi. Shuningdek, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish, kredit olish, soliq hisobotlarini yuritish va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish ham tadbirkorlik salohiyatining amaliy namoyon bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kelgusida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun tadbirkorlik salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy mexanizmlarni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, umumiy va professional ta’lim tizimiga tadbirkorlikka oid fanlar hamda amaliy modullarni kengroq joriy etish, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini manzilli qo‘llab-quvvatlash, startap loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish, hududlarda biznes inkubatorlar va konsalting markazlari faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, imtiyozli kreditlar, mikromoliyalashtirish vositalari va grant mexanizmlarini kengaytirish, raqamli xizmatlar orqali biznes yuritish imkoniyatlarini oshirish ham aholining tadbirkorlik faolligini rag‘batlantiradi.

Shuningdek, ushbu yo‘nalishda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, oliy va professional ta’lim muassasalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturlarini kengaytirish; ikkinchidan, hududlar kesimida aholi tadbirkorlik salohiyatini baholovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish; uchinchidan, tijorat banklari va moliyaviy institutlar orqali yangi biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini soddalashtirish; to‘rtinchidan, kichik biznes subyektlari uchun axborot-maslahat xizmatlari va raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlar aholining tadbirkorlik salohiyatini oshirish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va pirovard natijada mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Marshall A. Iqtisodiyot prinsiplari. – New York: Dover Publications, 2013.
2. Smit A. Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot.
3. Shumpeter J. Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi.
4. Aliyeva Z.G., Avezova Sh.M. Barqaror rivojlanish strategiyalarida inson kapitalining o‘rni va ahamiyati.
5. Tadbirkorlik va barqaror iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar.
6. Artiqova M.B. Tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari.
8. United Nations Development Programme (UNDP). Entrepreneurship Development
9. International Labour Organization (ILO). Promoting enterprises and job creation

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# ИҚТИСОДИЙ НОЧОРЛИК(БОНКРОТЛИК), ТЎЛОВГА ҚОБИЛЯТСИЗЛИКНИ БАҲОЛАШДАГИ МУАММОЛИ ЖИҲАТЛАР

**Рахимов Матназар Юсупович**

*молиявий таҳлил*
*кафедраси профессори*
*Тошкент давлат*
*иқтисодиёт университети*
*E-mail: raximovmy@mail.ru*

***Аннатация.*** *мазкур мақолада, корхоналарнинг молиявий мажбуриятларни бажара олиши, қарзларни ўз вақтида тўлай олиши юзасидан пул айланмасига эга бўлишлиги, молиявий имкониятларни жорий ва истиқболдаги ҳолатини баҳолашдаги муаммоли жиҳатлар ва уларнинг тахлилий хулосалари, халқаро амалиёт ва уни Ўзбекистонда қўллашнинг муҳим жиҳатлари баён этилган. Шунингдек, иқтисодий ночорликни олдиндан аниқлашнинг ва уларга қарши туришнинг муҳим йўналишлари белгиланган.*

***Калит сўзлар:*** *Иқтисодий ночорлик, бонкротлик, тўловга қобилятсизлик, молиявий нобарқарорлик, молиявий ҳолат, молиявий кўрсаткичлар, иқтисодий ночорлик таомиллари.*

# ЭКОНОМИЧЕСКАЯ НЕСОСТОЯТЕЛЬНОСТЬ (БАНКРОТСТВО) И ПРОБЛЕМНЫЕ АСПЕКТЫ ОЦЕНКИ ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ

**Рахимов Матназар Юсупович**

*профессор кафедры финансового анализ*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: raximovmy@mail.ru*

***Аннотация.*** *В данной статье описываются проблемные аспекты и аналитические выводы в оценке текущего и перспективного состояния финансовых возможностей, способности предприятий выполнять финансовые обязательства и обеспечивать денежный оборот для своевременного погашения задолженности. Освещена международная практика и важные аспекты её применения в Узбекистане. Также определены основные направления заблаговременного выявления экономической несостоятельности и меры противодействия ей.*

***Ключевые слова:*** *Экономическая несостоятельность, банкротство, неплатежеспособность, финансовая нестабильность, финансовое состояние, финансовые показатели, процедуры экономической несостоятельности.*

# ECONOMIC INSOLVENCY (BANKRUPTCY) AND PROBLEMATIC ASPECTS IN ASSESSING SOLVENCY

**Rakhimov Matnazar Yusupovich**

*Professor of the Department*
*of Financial Analysis*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: raximovmy@mail.ru*

***Abstract.*** *This article describes the problematic aspects and analytical conclusions in assessing the current and future state of financial capabilities, including the ability of enterprises to fulfill financial obligations and maintain cash flow for timely debt repayment. It highlights*

*international practices and significant aspects of their application in Uzbekistan. Furthermore, the article defines key directions for the early detection of economic insolvency and strategies to counteract it.*

***Keywords:*** *Economic insolvency, bankruptcy, inability to pay, financial instability, financial condition, financial indicators, economic insolvency procedures.*

**Кириш**

Корхоналар иқтисодий ночорлиги ва унга қарши мухим дастаклардан фойдаланиш бозор механизмининг зарурий шартларидан бири ҳисобланади. Шу жиҳатдан, бонкротлик институти шаклланишига бўлган зарурият Собиқ иттифоқдаги сиёсий тузилманинг қулаши ва давлатлар мустақиллигини белгиланиши, иқтисодиётда бозор муносабатларига ўтилиши билан юзага чиққанлиги алоҳида такидлаш лозим. Унга қадар, молиявий муносбатларнинг қарздорлик, тўловга қобилятсизлик, молиявий нобарқарорлик, иқтисодий ночорлик ва унга қарши чоралар фақат битта субектнинг, яъни давлатнинг қатъий талаблари ва қарорлари асосида ҳал қилиб келинган. Иқтисодий ночорликка режали иқтисодиётда мураккаб ва доимий кузатиладиган ҳолат сифатида қаралмаганлиги ушбу институтнинг амал этмаслигининг ҳам бош омили ҳисобланади. Тўғри, иқтисодий ночорликнинг айрим жиҳатларини кузатиш мумкин эди. Бироқ, бу жиҳатлар асонгина (давлат томонидан қўшимча молиялаштириш, корхоналарнинг бошқа корхоналарга қўшиб юбориш ёки, энг содда, режа кўрсаткичларини қайта ўзгартириш ҳисобига ҳал қилинар эди. Ушбу жараён, сиёсий ва иқтисодий тизимдаги ўзгаришлар туфайли тубдан ўзгарди. Эндиликда бу ҳаракатлар имконсиз, мантиқсиз ва ўринсиз таомил ҳисобланади. Бугунги кунга келиб Собиқ иттифоқ давлатларининг барчасида ушбу институт тўлиқ шаклланди, бироқ унинг ривожланиши юзасидан янги бир даврга ўтишга зарурият юзага чиқмоқда.

Корхоналар иқтисодий ночорлигини таҳлил қилиш ва баҳолаш молиявий менежментда охирги масала эмас аслида биринчи масала эканлигини унутмаслик лозим. Яъни, корхонани ретроспектив холати ёки унинг жорий ҳолатини эмас, кўпроқ унинг истиқболли (перспектив) ҳолатини олдиндан кўриш ва стратегияни шунга мос шаклда белгилаш талабларига устунлик берилмоқда.

Шу билан бирга, иқтисодий ночорлик ва уни доимий мониторинг қилиш, таҳлил этиш, хулосаларни шакллантириш, унга қарши аниқ чора-тадбирларни белгилаш бозор иқтисодиётининг зарурий шартларидан бири ҳисобланади.

Бу борада, ночорлик ва тўловга қобилятсизликни тан олишнинг концептуал асосларини белгилаш, унинг хуқуқий пакетини шакллантириш, ташкилий тузилмасини йўлга қўйиш, энг муҳим унинг институтционал мақомини белгилаш муҳим масала ҳисобланади.

Ўзбекистонда иқтисодий ночорлик масалалари билан шуғулланувчи ташкилий тузилманинг шаклланганлиги масаланинг тўлиқ ечимига келинганлигини эмас балки жараённинг энди бошланганлигини англатади. Ҳали олдимизда бу бора қилиниши лозим бўлган ишларнинг улкан қадамлари турибди.

**Адабиётлар шарҳи**

Иқтисодий ночорлик, тўловга қобилятсизликни таҳлил қилиш ва баҳолашнинг замонавий талқинига ўтишдан олдин унинг тарихий илдизига назар солиш лозим. Ушбу атамаларнинг пайдо бўлганлигини минглаб йиллар бўлганлигига қарамай бозор иқтисодиётига нисбатан тадқиқ этилишига унча куп муддат бўлгани йўқ. Жаҳон амалиётида иқтисодий ночорлик, тўловга қобилятсизлик, бонкротликка нисбатан прогноз қилиш (Алтьман Е.), хавфларни кўришнинг молиявий ҳисоботга боғланган модели (Beaver, W.) хусусий капитал ва қарз капиталини оптималлаштириш модели (Modigliani–Miller), ташқи муҳитга устунлик берувчи модел (Клейнер Г.), иқтисодий ночорликни фақат молиявий эмас балки хуқуқий категория сифатида қаровчи модел (US Bankruptcy Code,

European Insolvency Law)ларни келтириб ўтиш мумкин. Бу адабиётлар асосан бозор иқтисодиётидаги фирмаларнинг молиявий ночорлигини тушунтиради.

Альтман модели энг биринчи ва ишончли, стандарт моделлардан биттаси сифатида қаралади. Бироқ ундан, бозор иқтисодиётига ўтиш босқичидаги, ривожланиш босқичидаги давлатларда фойдаланиш доимо ҳам мақбул ҳисобланмайди.

Молиявий ҳисоботларга боғланган моделда (Beaver, W.) эса ҳисоботлардаги маълумотларнинг ишончлиги, шаффофлиги, очиқлиги масаласи сўроқ остига олинади. Шунингдек, бошқарув сифати билан боғлиқ жиҳатлар четда қолади, бозор муҳитининг тасири эътиборга олинмайди. Кейинги модел идеал бозор доимо ҳам реал ҳаёт билан мос келмаслиги билан танқид қилинади.

**Тадқиқот методологияси**

Ушбу тадқиқотда қиёсий (турли корхонлар кўрсаткичларини таққослаш), ретроспектив (бўлиб ўтган жараёнлар таҳлили), стратегик (истиқболли) таҳлил усулларидан, статистик (прогнозли, эмпирик, кореляцион) усуллардан фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар**

Миллий статистика қўмитасининг маълумотларига кўра Ўзбекистонда рўйхатга олинган корхоналар сони 2025 йил 1-январ ҳолатига 725857 тани, шундан кичик тадбиркорлик субектлари сони 651807 тани. Бироқ улардан, фаолият юритаётган корхонлар сони бор йўғи 424840 тани (58.5 фоиз), кичик тадбиркорлик субектларида эса 358116 тани(54.9 фоиз) ташки этади. Энг муҳими, сўнги тўрт йилда фаол корхоналар сони кескин пасайиш тенденцияси кузатилмоқда. Хуш бунинг сабаблари нимада. Нега рўйхат олинган 301057 та корхона фаолият юритмаяпти. Уларга нисбатан таҳлилий хулосаларнинг шаклланмаганлиги ёки очиқланмаганлиги жиддий мухокомаларни талаб этмоқда. Аниқки, корхоналарнинг жуда катта қисми молиявий қийинчиликлар, тўловга қобилятсизлик, фаолият самарадорлигини пастлиги, харажатларнинг оқланмаслиги сабабли фолиятни тўхтатган. Жумладан, мавжуд рўйхатга олинган корхоналарнинг 30 фоизи Тошкент шахри ва Тошкент вилоятига тўғри келади. Фаолият юритмаётган корхоналарнинг 32 фоизи ҳам шу иккита худудга тўғри келади.

1-жадвал.

**Альтман модели ва унинг меъёрий талаблари***

| Модели тури | Формуласи | Меъёр | Ҳолат |
|---|---|---|---|
| Биржада акциялари қўйилган компаниялар учун беш омилли модель | Z = 1.2*X1 + 1.4*X2 + 3.3*X3 + 0.6*X4 + 0.999*X5 | Z > 2.99 | Хавфсиз |
| | | 1.8 < Z < 2.99 | Эхтиёткорлик талаб қилинади |
| | | Z < 1.8 | Хавфли |
| Биржада акциялари қўйилмаган компаниялар учун беш омилли модель | Z’ = 0.717*X1 + 0.847*X2 + 3.107*X3 + 0.42*X4 + 0.998*X5 | Z > 2.99 | Хавфсиз |
| | | 1.8 < Z < 2.99 | Эхтиёткорлик талаб қилинади |
| | | Z < 1.8 | Хавфли |
| Ривожланаётган бозорлардаги компаниялар учун тўрт омилли модель | Z’’ = 6.56*X1 + 3.26*X2 + 6.72*X3 + 1.05*X4 | Z > 2.6 | Хавфсиз |
| | | 1.1 < Z < 2.6 | Эхтиёткорлик талаб қилинади |
| | | Z < 1.1 | Хавфли |

*Муаллиф ишланмаси

Иқтисодий ночорликни концептуал асосларида корхоналар банкротлигини тан олишнинг аниқ тартиблари ва регламентлари белгиланган. Бироқ, бу жараённи мулкдор ёки

кредиторлар томонидан иқтисодий ночорликни тан олиш амалиётига киришиш амалиётидаги хатти-ҳаракатларининг сустлигида ҳам кўриш мумкин.

Иқтисодий ночорликни баҳолашни икки жиҳатни фарқлаш лозим. Мулк эгалари, бошқарув субъектлари томонидан ички ўрганиш ҳамда, солиқ идоралари, банклар, кредиторлар ва бошқалар томонидан ташқи ўрганиш.

Ҳар иккала ёндашув ҳам битта жиҳатни яъни, субъектнинг тўловга қобилятлисликдан қандай ҳимояланганлигини ифодалайди. Жаҳон амалиётида иқтисодий ночорликни баҳолашнинг энг кўп мурожаат қилинадиган модели бу Алтьман модели ҳисобланади ва унинг қуйидаги турлари ишлатилади.

Алтьман модели бўйича иқтисодий ночорликни аниқлашда ҳар битта кўрсаткич молиявий ҳисобот маълумотлари асосида баҳоланади. Бу эса расмий молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга мослаштириш талабини ҳам қўяди. Молиявий ҳисоботларни ҳалқаро стандартлар асосида тузиш ва тақдим этиш амалиёти (йирик бизнес субъектларида, акциядорлик жамиятларида, компанияларда) йўлга қўйилган бўлсада бу борадаги ишларнинг самарадорлиги ва таъсирчанлиги сезилмасдан қолмоқда.

2-жадвал.

**Иқтисодий ночорликка таъсир этувчи бирликлар ва уларни аниқлаш формуласи***

| | |
|---|---|
| X1 | Ишчи капитал/Жами активлар |
| X2 | Тақсимланмаган фойда / Жами активлар |
| X3 | Солиқ тўловига қадар фойда / Жами активлар |
| X4 | Хусусий капитал/ Мажбуриятлар |
| X5 | Тушум / Жами активлар |

**Муаллиф ишланмаси*

X1- кўрсаткич ишчи капиталнинг жами активлар таркибидаги салмоғини, яъни, ҳар бир сўмлик активга тўғри келадиган соф айланма активлар суммасини ифода этади. Ишчи капитал, айланма активлар суммасидан жорий мажбуриятларни чегириш асосида аниқланади.

X2-Активлар натижадорлиги тақсимланмаган фойда суммасини жами активлар суммасига бўлиш орқали топилади.

X3- Солиқ ва фоизлар тўловига қадар бўлган фойда суммасини жами активларга бўлиш орқали умумий фаолият натижавилига баҳо берилади.

X4 -Кўрсаткич корхона хусусий капиталининг қарз капиталига нисбати орқали баҳоланади. Қарз капитали мажбурият сифатида ўз маблағлари билан қай даражада ҳимояланганлигини ифода этади. Ушбу кўрсаткич орқали молиявий ричагнинг мустаҳкамлиги ҳам баҳоланади.

Хўш ушбу кўрсаткичлар бўйича Ўзбекистон корхоналарини баҳоласак, муаммо ечимини топадими, иқтисодий ночорлик бўйича аниқ чора-тадбирларга эга бўламизми, иқтисодий ночорликка қарши тактик бошқарувни таъминлай оламизми. Албатта йўқ. Негаки юқорида, келтирилган барча моделлар ва улардаги кўрсаткичлар тизими Ривожланган дунё давлатлари амалиётига мос тушади. Ўзбекистон тизими, тартиби, амалиёти эса уларда айрим жиҳатларда фарқ қилади.

Биринчи фаркли жиҳат шуки молиявий ҳисоботга иқтисодий ночорликни баҳолашда энг ишончли манба сифатида қаралмайди. Унда аниқлик, реаллик, шоффоблик, ошкороликка устунлик берилмайди. Расмий тузиладиган молиявий ҳисобтлар аслида аниқ, реал ҳолатни эмас, балки кўпроқ биз ёки кимлардир истаган ҳолатни акс эттиради.

Молиявий ҳисоботларни очиқлиги, маълумотларни тез ва сифатли олишдаги кечикишлар, ташкилий тузилманинг рақамли платформасидаги камчиликлар ҳам ушбу муаммонинг яна бир бўғини ҳисобланади.

Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга мос тузиб чиқиш амалиётидаги муаммолар ҳам ушбу хатти ҳҳаракатларни бизнесга ортиқ юк сифатида қаралмоқда. Яъни,

унинг самарадорлигини баҳолашдаги асосли жиҳатлар молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш ҳеч қанда натижа бермаётганлигини кўрсатмоқда.

Кейинги муҳим муаммо бу бизнесни, тадбиркорликни солиққа тортиш билан боғлиқ бўлган муаммоли жиҳатлар билан боғланади. Солиқ ҳисоби ва ҳисоботи билан бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи бошқа бошқа йўлдан кетар экан бу бухгалтрларга доимо ортикча юклама, бизнесга тўсиқлар, реаллликни бузишга хатти ҳаракатларни кучайтираверади. Ўзбекистон амалиётида солиқларни ҳисобга олиш ва тўлашдаги муаммолар жиҳатларда ҳал қилиниши лозим бир қатор муаммолар мавжуд. Бу солиқ юкини оптималлаштириш, муқобиллик, амаортизация, даромад ва харажатларни тан олиш, мулкни адолатли баҳолаш ва уни солиққа тортишда ташқи омиллар тасиридаги (фоизлар, инфляция, валюта курсларидаги ўзгаришлар, ресурларни қимматлиги, иқлим ва х.к.) ўзгаришлардан ҳимояланган бўлиши лозим.

Битта жиҳат, масалан кредит ресрслари ва уларнинг тақсимланишидаги реал ҳолатда худди шу муаммони кўриш мумкин. Фоиз ставкаларини юқорилиги корхоналарга арзон ва сифатли махсулотларни яратиш имконини бермайди. Битта валюта курсларидаги тебранишлар туфайли бизнес субъектлари улкан молиявий қийинчилрга дуч келаётганлиги ҳам бунинг яна битта жиҳати ҳисобланади. Айланма активлари, техника ва технологиялари хорижий капиталга боғланган бизнес субъектлари айниқса бундай жиддий зарарлар кўрмоқда. Курс ўзгаришларидан юзага келган қийматлар бизнес эгаларини жиддий ва тахликали молиявий қийинчиликларга солиб қўймоқда.

Бошқарув ва унинг сифати билан боғлиқ бўлган жиҳатлар ҳам ночорликни баҳолашдаги энг таъсирли бирлик ҳисобланади. Унинг натижага боғланган кўрсаткичларининг баҳоланмаслиги ҳам сохадаги жиддий муаммо ҳисобланади.

Маълумотларни ёпиқлиги, қиёсий ўрганишдаги рақамли платформаларнинг мавжуд эмаслиги ёки уларнинг турли ташкилий тузилмалар орқали интеграция қилинмаганлиги ҳам тармоқлар, сохалар бўйича маълумотларни ўрганишда муаммоларни купайтирмоқда.

Иқтисодий ночорликни давлат томонидан хуқуқий тартибга солишдаги муаммоли жиҳатлар (судга мурожаат қилиш, жараёнларни узоқ чўзилиши, вақт бюджети, санацияга мойиллик, тугатишларга устунлик берилиши ва.ҳ.к.) ҳам институционал тизимнинг самарали ишлашидаги муҳим камчиликларда бири ҳисобланади.

Иқтисодий ночорлик ва уни ҳал этишдаги ташкилий омиллар ҳам муаммони битта бўғини ҳисобланади. Яъни, мутахассисларнинг етишмаслиги, уларнинг малака даражалари, ички назорат ва аудитнинг йўлга қўйилмаганлиги, стратегик жиҳатларнинг четда қолиши каби жиҳатларни келтириб ўтиш мумкин.

Реал сектор корхолари мисолида иқтисодий ночорликни аниқлашнинг юқорида келтирилган модел бўйича активлар ҳажми, капитали, мажбуриятлари ҳамда фаолият натижавийлиги бўйича энг йирик бизнес субъектлари мисолида кўриб чиқишимиз мумкин.

3-жадвал.

**ОКМК ва Узтрансгаз АЖ молиявий кўрсаткичлари***

| Йиллар | Актив-лар | Капитал | Мажбуриятлар | Тақсим-ланмаган фойда | Солиқ ва фоизлар тўловига қадар фойда | Аборот актив-лар | Қисқа муддатли мажбуриятлар |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **ОКМК АЖ** | | | | | | | |
| 2023 | 52389 | 10587 | 41801 | 8423 | 10042 | 9256 | 20520 |
| 2024 | 66863 | 20957 | 45905 | 6640 | 12583 | 9019 | 17620 |
| **Узтрансгаз АЖ** | | | | | | | |
| 2023 | 34393 | -7856 | 42249 | -12919 | -2168 | 26736 | 31856 |
| 2024 | 32172 | 72.7 | 32100 | -5128 | +7790 | 24503 | 21535 |

Altman Z’’ формуласи бўйича иқтисоди йиочорлик эҳтимоли қуйидаги моделли

тузилма орқали топилади

$$Z''=6.56*WC/TA+3.26*RE/TA+6.72*EBITTA/TA+1.05*E/TL$$

Бу ерда:**WC** — айланма капитал = Аборот активлар – ҚММ
**TA** — жами активлар
**RE** — тақсимланмаган фойда
**EBIT** — солиқ ва фоиздан олдинги фойда
**E** — капитал (баланс капитали)
**TL** — жами мажбуриятлар

4-жадвал.

**АКМК АЖнинг иқтисодий ночорлигининг таҳлили**

| 2023 йил | | | 2024 йил | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Молиявий кўрсаткичлар | Ҳисоб-китоблар | Натижа | Молиявий кўрсаткичлар | Ҳисоб-китоблар | Натижа |
| WC | = 9256 – 20520 | = –11264 | WC | = 9019 – 17620 | = –8601 |
| WC/TA | = –11264 / 52389 | = –0.215 | WC/TA | = –8601 / 66863 | = –0.129 |
| RE/TA | = 8423 / 52389 | = 0.161 | RE/TA | = 6640 / 66863 | = 0.099 |
| EBIT/TA | = 10042 / 52389 | = 0.192 | EBIT/TA | = 12583 / 66863 | = 0.188 |
| E/TL | = 10587 / 41801 | = 0.253 | E/TL | = 20957 / 45905 | = 0.456 |

2023 йил иқтисодий ночорликни эҳтимоли:
$Z''=6.56*-0.215+3.26*0.161+6.72*0.192+1.05*0.253=0.669$
Хавф: Жуда юқори (Bankruptcy zone < 1.1)
2024 йил иқтисодий ночорликни эҳтимоли
$Z''=6.56*-0.129+3.26*0.099+6.72*0.188+1.05*0.456=1.218$
Хавф бор, лекин *жуда юқори эмас*, 2023га нисбатан яхшиланиш бор.

Узтрансгаз ташкилотининг иқтисодий ночорлигини юқоридаги тартиб ааниқлаб чиқамиз.

**5-жадвал**

**Устрансгаз АЖнинг иқтисодий ночорлигининг таҳлили**

| 2023 йил | | | 2024 йил | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Молиявий кўрсаткичлар | Ҳисоб-китоблар | Натижа | Молиявий кўрсаткичлар | Ҳисоб-китоблар | Натижа |
| WC | 26736 – 31856 | = –5120 | WC | 24503 – 21535 | = 2968 |
| WC/TA | = –5120 / 34393 | = –0.149 | WC/TA | 2968 / 32172 | = 0.092 |
| RE/TA | TA = –12919 / 34393 | = –0.376 | RE/TA | = –5128 / 32172 | = –0.159 |
| EBIT/TA | = –2168 / 34393 | = –0.063 | EBIT/TA | = 7790 / 32172 | = 0.242 |
| E/TL | –7856 / 42249 | = –0.186 | E/TL | 72.7 / 32100 | ≈ 0.00226 |

2023 йил иқтисодий ночорликни эҳтимоли:
$Z''=6.56*-0.092+3.26*-0.159+6.72*0.242+1.05*-0.00226=-2.82$
Иқтисодий ночорлик ҳолати жуда юқори.
2024 йил иқтисодий ночорликни эҳтимоли:
$Z''=6.56*-0.149+3.26*-0.376+6.72*0.063+1.05*-0.186=-2.82=1.713$
2023га нисбатан катта яхшиланиш бор, лекин хавф ҳали ҳам мавжуд.

**Хулоса**

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда қуйидаги хулосларга келинди. Иқтисодий ночорлик, тўловга қобилятсизликни баҳолаш орқали шундай хулосага келиш мумкинки, таҳлил объекти сифатида олинган ҳар иккала корхонада ҳам молиявий ҳолат жуда жиддий қийинчиликларни бошдан кечирмоқда. Олмалик кон металлургия комбинати стратегик аҳамиятга эга бўлган корхона сифатида иш билан бандликни таъминлашда, бюджет тушумларида, республика экспорт салохиятида сезиларли салмоққа эга ташкилот ҳисобланади. Ушбу корхона республика ялпи ички маҳсулотининг деярлик 2.5 фоизига тенг қисмини беради. Агар Тошкент вилоятининг ялпи ички махсулотига нисбатан оладиган бўлсак янада каттароқ улушга эга корхона ҳисобланади. Ушбу ташкилотнинг афсуски молиявий ҳолати, иқтисодий ночорлик эҳтимоли юқорилигича қолмоқда.

Энг муаммоли жиҳат яна битта ташкилот Узтрансгаз Аж кузатилган. Ушбу йилнинг муттаситл зарар билан якунлаб келган давлат ташкилоти ҳисобланади. Фақат 2024 йилга келибгина фаолиятида нарх сиёсатидаги ўзгаришлар туфайли фойдага ишлаш бошланди. Жамланган 12 триллиондан ортиқ зарар суммаси қисқа даврийликда тўлиқ қопланган ҳолда, яқин тарихида биринчи бор фойдага ишлаб бошланди. Бироқ, ушбу ташкилотнинг иқтисодий ночорлик аломатлари юқорилигича қолмоқда.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1.Altman, E. I. (1968). Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. Journal of Finance, 23(4), 589–609.

2.Altman, E. I. (2000). Predicting financial distress of companies: Revisiting the Z-score and ZETA models. Stern School of Business, New York University.

3.Beaver, W. H. (1966). Financial ratios as predictors of failure. Journal of Accounting Research, 4, 71–111.

4.Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. American Economic Review, 48(3), 261–297.

5.Ohlson, J. A. (1980). Financial ratios and the probabilistic prediction of bankruptcy. Journal of Accounting Research, 18(1), 109–131.

6.Couwenberg, O., & Smidt, S. (2005). Financial distress and bankruptcy prediction in Europe. European Financial Management, 11(2), 247–270.

7.М.Қ. Пардаев ва бошқалар. Молиявий ва бошқарув таҳлили: дарслик.Т.:Чулпон. 2012,, 490 б.

8.М.Қ. Пардаев, Б.И.Исроилов. Иқтисодий таҳлил: дарслик. Т.: Иқтисод ва ҳуқуқ дунёси 2011, 452 б.

9.М.Қ. Пардаев, Ж.И Исроилов., Б.И. Исроилов Иқтисодий таҳлил: ўқув қўлланма. Т.:Print Line Group, 2017.-533 б.

10.М.Ю. Рахимов Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатини таҳлили: дарслик. Т.: Иқтисод-молия. 2015, 356 б.

11.М.Ю.Рахимов, Н.Н. Каландарова. Молиявий таҳлил: дарслик. Т.: Иқтисод-молия. 2019, 750 б.

12.М.Ю.Рахимов, О.Т. Астанокулов, Н.Н. Каландарова. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили: дарслик. Т.: Иқтисод-молия 2021 й. 435 б.

13.М.Ю. Рахимов, Н.Н. Мавланов, Н. Н. Каландарова. Иқтисодий таҳлил: ўқув қўлланма, Т.: Иқтисод-молия 2021 й. 346 б.

14.Н. С. Пласкова. Анализ финансовой отчетности, составленной по МСФО: учебник. М.: ИНФРА-М, 2024. – 276 с.

15.А. Д. Шеремет. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия: учебник. М.: ИНФРА-М, 2024. – 374 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ТАМОЖНИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ: МОДЕЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ И СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ

**Ли Ирина Валентиновна**

*старший инспектор*
*управления ГТК РУз по*
*Хорезмской области*
*высшая школа бизнеса*
*и предпринимательства*
*E-mail: li_irisha82@mail.ru*

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются модель управления проектами цифровой трансформации и интеллектуализированная система управления рисками на основе ИИ, предиктивной аналитики и больших данных для таможенной администрации Узбекистана. Предложенные решения обеспечивают переход от реактивного к предиктивному таможенному контролю, повышая эффективность и прозрачность процессов.*

***Ключевые слова:*** *цифровая трансформация, интеллектуальная таможня, искусственный интеллект, управление проектами, управление рисками, предиктивная аналитика, большие данные, машинное обучение, таможенное администрирование, Узбекистан.*

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYAGA ASOSLANGAN INTELLEKTUAL BOJXONA ORGANLARINI RIVOJLANTIRISH: LOYIHA BOSHQARUV MODELI VA XAVFLARNI BOSHQARUV TIZIMI

**Li Irina Valentinovna**

*O‘zR DBQ Xorazm viloyati*
*bojxona boshqarmasi katta inspektori*
*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi*
*E-mail: li_irisha82@mail.ru*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O‘zbekiston bojxona idoralari uchun raqamli transformatsiya loyihalarini boshqarish modeli hamda sun’iy intellekt, bashoratli tahlil va katta ma’lumotlarga asoslangan xatarlarni intellektual boshqarish tizimi ko‘rib chiqilgan. Taklif etilgan yechimlar reaktiv bojxona nazoratidan prognozlashga asoslangan nazoratga o‘tishni ta’minlab, jarayonlarning samaradorligi va shaffofligini oshiradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *raqamli transformatsiya, aqlli bojxona, sun’iy intellekt, loyihalarni boshqarish, xavflarni boshqarish, bashoratli tahlil, katta ma’lumotlar, mashinani o‘rganish, bojxona ma’muriyati, O‘zbekiston.*

# DEVELOPMENT OF INTELLIGENT CUSTOMS BASED ON DIGITAL TRANSFORMATION: PROJECT MANAGEMENT MODEL AND RISK MANAGEMENT SYSTEM

**Li Irina Valentinovna**

*Senior Inspector of the Department*
*State Customs Committee of the*
*Republic of Uzbekistan for the Khorezm Region*
*Higher School of Business and Entrepreneurship*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

*E-mail: li_irisha82@mail.ru*

***Abstract.*** *This article examines a model for managing digital transformation projects, as well as an intelligent risk management system based on AI, predictive analytics, and big data, both of which are intended for use by the Uzbekistan Customs Administration. These solutions facilitate the transition from reactive to predictive customs control, enhancing process efficiency and transparency.*

***Keywords:*** *digital transformation, intelligent customs, artificial intelligence, project management, risk management, predictive analytics, big data, machine learning, customs administration, Uzbekistan.*

**Введение**

Таможенное администрирование в XXI веке приобретает всё большее стратегическое значение: по данным Всемирной таможенной организации, ежегодный объём таможенных деклараций превышает 2 млрд единиц, а глобальный товарооборот — 25 трлн долларов США. В этих условиях технологическая модернизация таможенных органов становится императивом устойчивого экономического развития.

Таможенная администрация Республики Узбекистан демонстрирует значительный прогресс в цифровой трансформации: за 2017–2025 гг. время оформления сократилось с 5 часов 42 минут до 20–30 минут, доля электронных деклараций выросла с 45 % до более чем 90 %, а позиция в субиндексе LPI «эффективность таможни» улучшилась на 66 мест — с 140-го до 74-го места. Доля таможенных поступлений в государственном бюджете достигла 25 % (76,2 трлн сум). Вместе с тем достигнутые результаты обусловлены преимущественно автоматизацией процедур. Ключевой резерв дальнейшего развития — переход к интеллектуальной таможне на основе машинного обучения, предиктивной аналитики и систем поддержки принятия решений. Уровень автоматической обработки деклараций составляет лишь около 20 %, тогда как в Сингапуре — 99,6 %, что свидетельствует о значительном потенциале интеллектуализации. Актуальность исследования определяется необходимостью разработки научно обоснованной модели управления проектами цифровой трансформации и интеллектуализированной системы управления рисками, адаптированной к условиям Республики Узбекистан.

**Обзор литературы**

Концепция интеллектуальной таможни формируется на стыке теорий цифровой трансформации, проектного менеджмента и искусственного интеллекта. H. Kerzner (2022) концептуализирует цифровую трансформацию как систематически управляемый процесс; стандарт PMBOK определяет портфельный подход как оптимальный инструмент управления цифровыми инициативами. Вместе с тем классическая методология разработана для коммерческого сектора и требует адаптации к специфике государственного управления. T.H. Davenport, R. Ronanki (2018), Russell и Norvig (2021) обосновывают, что технологии машинного обучения способны перевести государственный контроль от постфактумной проверки к проактивному выявлению нарушений — что подтверждено опытом Сингапура, где предиктивная аналитика повысила точность выявления нарушений на 35 %. Международные рамочные документы — SAFE Framework BTaO (2021), Соглашение TFA (2017), рекомендации OECD (2020) — задают нормативную основу трансформации: по данным OECD, государства с высокой цифровой зрелостью демонстрируют на 20–35 % более высокую результативность цифровых проектов.

Критический анализ литературы выявил ключевые пробелы: отсутствие комплексных моделей, объединяющих проектное управление с интеллектуализированными системами управления рисками; недостаточную разработанность проблематики перехода к интеллектуальной таможне в условиях переходной экономики; дефицит верифицированных подходов к оценке результативности

ИИ-проектов в государственном секторе. Настоящее исследование направлено на восполнение данных пробелов.

**Методология исследования**

Методологическую основу составляет синтез системного, процессного и проектного подходов. В работе применены: сравнительный анализ международного опыта (Сингапур, ЕС, Южная Корея); методология портфельного управления на основе PMBOK и гибридного Agile-подхода; вероятностно-качественная оценка рисков по ISO 31000:2018; методы проектирования интеллектуальных систем (Enterprise Architecture); статистический анализ данных ГТК Республики Узбекистан за 2017–2025 гг. Эмпирическую базу составили данные ГТК РУз, Всемирного банка (LPI 2023), ООН (EGDI 2024), материалы ВТаО и национальные нормативно-правовые акты в сфере цифровизации.

**Анализ и результаты**

Анализ текущего состояния таможенного администрирования Республики Узбекистан свидетельствует о достижении высокого уровня цифровой зрелости, формирующего необходимые предпосылки для интеллектуализации (таблица 1).

Таблица -1.

**Динамика ключевых показателей цифровизации таможенной системы Республики Узбекистан (2017–2025 гг.)***

| Показатель | 2017 г. | 2020 г. | 2023 г. | 2025 г. |
|---|---|---|---|---|
| Среднее время оформления экспорта | 5 ч 42 мин | 3 ч | 30 мин | 20–30 мин |
| Доля электронных деклараций, % | 45 | 70 | 85 | более 90 |
| Количество информационных систем | 12 | 20 | 35 | более 35 |
| Доля автоматической обработки деклараций, % | менее 5 | около 7 | около 15 | около 20 |
| Упрощённое оформление импорта, % | 25 | 50 | 70 | около 80 |
| Упрощённое оформление экспорта, % | 35 | 60 | 75 | около 89 |
| Место в LPI ВБ (субиндекс «таможня») | н/д | 140-е | 74-е | — |
| Таможенные поступления, трлн сум | — | 18,7 | — | 76,2 |

*Источник: составлено автором на основе данных ГТК Республики Узбекистан, Всемирного банка (LPI, 2023).

Данные таблицы 1 демонстрируют устойчивую положительную динамику по всем показателям. Вместе с тем между уровнем электронизации (более 90 % деклараций) и уровнем автоматической обработки (около 20 %) сохраняется значительный разрыв, свидетельствующий о преобладании цифрового документооборота над интеллектуальным анализом данных. Именно ликвидация данного разрыва составляет ключевую управленческую задачу перехода к интеллектуальной таможне.

Сопоставление с международными эталонами подтверждает данный вывод: в Сингапуре 99,6 % таможенных разрешений выдаётся в автоматическом режиме, средний срок обработки составляет менее 10 минут; в ЕС применение интеллектуальных систем управления рисками обеспечивает ежегодную экономию административной нагрузки на бизнес в размере 12–15 млрд евро. Технологическая база Узбекистана создаёт объективные предпосылки для приближения к данным эталонным показателям.

**4.2. Пятиуровневая модель управления проектами цифровой трансформации**

На основе синтеза международных методологий (PMBOK, Agile, BPR, Enterprise Architecture) и систематизации опыта ведущих таможенных администраций предложена пятиуровневая модель управления проектами цифровой трансформации, обеспечивающая переход к интеллектуальной таможне (рисунок 1).

Рисунок 1.

**Пятиуровневая модель управления проектами цифровой трансформации таможенной администрации***




*Источник: разработано автором.

Первый уровень — институциональный — формирует правовую и политическую основу преобразований, включая нормативно-правовое регулирование применения ИИ в таможенном контроле, выполнение обязательств в рамках ВТаО и Соглашения ВТО об упрощении торговли, а также согласованность со Стратегией «Цифровой Узбекистан — 2030». Данный уровень обеспечивает правовую определённость цифровых операций и соответствие международным стандартам.

Второй уровень — организационный — обеспечивает управленческую архитектуру трансформации. Ключевым элементом является создание специализированного проектного офиса (PMO) в структуре Государственного таможенного комитета, ответственного за формирование и приоритизацию портфеля цифровых проектов, межведомственную координацию и методологическое обеспечение. По данным Всемирного банка, наличие специализированных PMO повышает эффективность реализации цифровых проектов в среднем на 25 % по показателям сроков и бюджета.

Третий уровень — технологический — составляет операционное ядро модели. Он включает комплекс взаимосвязанных интеллектуальных проектов, детально описанных в разделе 4.3, а также сквозную цифровую инфраструктуру: систему электронного декларирования, автоматизированную систему управления рисками (ИСУР) и единую информационно-аналитическую платформу.

Четвёртый уровень — кадровый — определяет человеческий потенциал трансформации. Развитие цифровых компетенций персонала, программы переподготовки в области работы с ИИ-инструментами и формирование культуры управления на основе данных являются необходимыми условиями результативного использования интеллектуальных технологий. Международный опыт свидетельствует, что около 70 % провалов государственных цифровых проектов обусловлены не техническими сбоями, а недостаточной готовностью персонала.

Пятый уровень — результативный — является принципиальным отличием предложенной модели от существующих аналогов. Он включает систему мониторинга ключевых показателей эффективности (KPI), оценку результатов цифровых проектов и расчёт интегрального индекса цифровизации ($IDI = w_1E + w_2A + w_3T + w_4I$, где E, A, T, I — индексы экономической, административной, технологической и институциональной эффективности). Измеренные результаты служат основой для корректировки стратегии на институциональном и организационном уровнях, обеспечивая переход от линейного к адаптивному управлению.

В рамках технологического уровня предложенной модели разработан комплекс четырёх взаимосвязанных интеллектуальных проектов, формирующих единую экосистему интеллектуального таможенного контроля.

Проект 1. «Умный рентген» (Smart X-Ray Analytics). Система анализа рентгенографических изображений с применением технологий компьютерного зрения и глубокого обучения (Deep Learning). Алгоритм обеспечивает автоматическое выявление аномалий, несоответствий заявленному содержимому и потенциальных нарушений в режиме реального времени. Аналогичные системы, внедрённые в Нидерландах и Германии, позволили увеличить долю выявленных нарушений на 40–60 % при одновременном сокращении времени физического досмотра.

Проект 2. Интеллектуальный анализ документов (Intelligent Document Processing, IDP). Автоматизированная обработка счетов-фактур, накладных CMR, сертификатов происхождения и иных товаросопроводительных документов в различных форматах с применением технологий оптического распознавания символов (OCR) и обработки естественного языка (NLP). Система обеспечивает автоматическое выявление несоответствий, противоречий между документами и отклонений от рыночных ценовых диапазонов.

Проект 3. Интеллектуальная классификация товаров (AI-based HS Classification). Система автоматического определения кода ТН ВЭД на основе семантического анализа данных декларации, описания товаров и сопоставления с эталонными базами данных. Применение данной технологии устраняет ошибки классификации, обусловленные субъективным фактором, и снижает риски умышленного занижения ставок таможенных пошлин. По оценкам ВТаО, ошибки классификации являются источником от 5 до 10 % потенциальных фискальных потерь.

Проект 4. Система контроля товарных наименований (Nomenclature Integrity Control). Интеллектуальный механизм выявления расхождений между наименованием, классификационным кодом и декларируемой таможенной стоимостью товаров. Система формирует динамические профили рисков по группам товаров, странам происхождения и участникам ВЭД, обеспечивая адресный контроль.

Разработана интеллектуализированная система управления рисками (ИСУР), обеспечивающая переход от реактивного к проактивному и предиктивному управлению таможенными рисками. Система реализует пятимодульную архитектуру, представленную на рисунке 2.

Таблица 2

**Характеристика интеллектуальных проектов таможенного контроля***

| Проект | Технологии | Ожидаемый эффект | Международный опыт |
|---|---|---|---|
| «Умный рентген» | Computer Vision, Deep Learning | Рост выявления нарушений на 40–60 % | Нидерланды, Германия |
| Анализ документов (IDP) | OCR, NLP, машинное обучение | Автоматизация до 85 % проверок документов | Сингапур, ЕС |
| Классификация товаров | NLP, семантический анализ | Снижение ошибок классификации на 70 % | Южная Корея (UNI-PASS) |
| Контроль наименований | ML, профилирование рисков | Сокращение фискальных потерь на 5–10 % | SAFE Framework BTaO |

*Источник: составлено автором на основе данных BTaO и анализа международного опыта.

**Интеллектуализированная система управления рисками (ИСУР)**

Модуль 1. Сбор и интеграция данных. Агрегирование данных из разнородных источников: декларации и таможенные документы, исторические данные о нарушениях, данные международного информационного обмена (WCO CEN), рыночные ценовые данные, сведения банковского и налогового мониторинга. Интеграция осуществляется посредством API-шлюзов и стандартов WCO Data Model.

Модуль 2. Аналитическая обработка. Применение алгоритмов машинного обучения для выявления аномалий в потоках данных: ценовые аномалии, нетипичные маршруты, нестандартные партии товаров, отклонения от типичных паттернов участника ВЭД. Использование методов кластерного анализа и нейронных сетей обеспечивает автоматическое формирование профилей рисков.

Модуль 3. Прогнозирование рисков. Предиктивный анализ на основе исторических данных и актуальных рыночных индикаторов. Система формирует вероятностные оценки риска для каждой декларации и присваивает категорию контроля (зелёный / жёлтый / красный коридор) в автоматическом режиме. Применение предиктивного подхода, по опыту таможенной службы Сингапура, повышает точность выявления нарушений на 35 % по сравнению с традиционными статистическими методами.

Модуль 4. Мониторинг. Непрерывный мониторинг функционирования системы в реальном времени, отслеживание точности моделей и автоматическое уведомление о критических отклонениях. Предусмотрена периодическая переобучение моделей на

актуальных данных для поддержания прогностической точности.

Рисунок 2.

**Архитектура интеллектуализированной системы управления рисками (ИСУР)***

*Источник: разработано автором.

Модуль 5. Поддержка принятия решений. Интерфейс аналитика, обеспечивающий визуализацию данных, отображение результатов анализа рисков и рекомендаций системы. Сотрудник таможенного органа сохраняет право окончательного решения, однако система существенно повышает информационное качество этого решения.

ИСУР обеспечивает системный переход: от реактивного управления (реагирование на выявленные нарушения) к проактивному (предотвращение нарушений на основе профилей рисков) и предиктивному (прогнозирование нарушений до их возникновения). Данный переход означает качественное изменение самой логики таможенного контроля — от инструмента постфактум-проверки к инструменту превентивного государственного регулирования.

Предложенная модель управления проектами цифровой трансформации обладает рядом принципиальных преимуществ по сравнению с существующими подходами. Во-первых, в отличие от традиционных моделей, ограничивающихся описанием технологических или организационных аспектов, предложенная модель охватывает полный управленческий цикл — от формирования институциональной среды до измерения результатов и корректировки стратегии. Механизм обратной связи обеспечивает адаптивность модели к изменениям внешней среды.

Во-вторых, интеграция комплекса интеллектуальных проектов в единую экосистему создаёт синергетический эффект, недостижимый при реализации каждого проекта в отдельности. Совокупное применение систем «Умный рентген», IDP, классификации товаров и контроля наименований формирует многоуровневую систему защиты от нарушений, при которой каждый последующий элемент устраняет риски, не охваченные предыдущим.

В-третьих, ИСУР реализует принципиально новую управленческую парадигму для таможенного администрирования Узбекистана — переход к предиктивному контролю. Данный переход имеет непосредственное фискальное измерение: по расчётным оценкам, применение предиктивной аналитики позволит дополнительно увеличить собираемость таможенных платежей на 8–12 % за счёт повышения точности выявления занижения таможенной стоимости и неверной классификации товаров.

Сопоставление с международным опытом свидетельствует о реалистичности предложенных решений. Сингапур достиг уровня 99,6 % автоматической обработки таможенных разрешений за 15 лет последовательного развития системы TradeNet; Южная Корея сократила время экспортного оформления с 2 суток до 1,5 часа посредством платформы UNI-PASS. Республика Узбекистан, располагающая современной цифровой инфраструктурой (более 35 информационных систем, более 90 % электронных деклараций), находится в выгодной стартовой позиции для аналогичного технологического скачка.

Вместе с тем реализация предложенной модели сопряжена с рядом ограничений. Первое — необходимость значительных инвестиций в ИИ-инфраструктуру и переобучение персонала. Второе — отсутствие в действующем законодательстве Республики Узбекистан специального регулирования применения алгоритмических систем при принятии административных решений. Третье — риски смещения моделей (model drift) при изменении структуры товарных потоков, требующие механизмов регулярного переобучения. Устранение данных ограничений составляет самостоятельное направление для последующих исследований.

**Выводы**

1. Таможенная администрация Республики Узбекистан достигла высокого уровня цифровой зрелости, формирующего объективную основу для перехода к интеллектуальной таможне.
2. Разработана пятиуровневая модель управления проектами цифровой трансформации со встроенным механизмом обратной связи, обеспечивающим адаптивное управление.
3. Комплекс из четырёх взаимосвязанных интеллектуальных проектов формирует интегрированную экосистему контроля с синергетическим эффектом.
4. ИСУР обеспечивает переход к предиктивному управлению рисками с расчётным приростом собираемости платежей на 8–12 %.
5. Интегральный индекс цифровизации (IDI) создаёт инструмент стратегического мониторинга по четырём группам показателей.

Реализация предложенных решений закладывает научную основу для разработки стратегии интеллектуализации таможенного администрирования Республики Узбекистан на период 2026–2030 гг.

**Литература**

**1.** Закон Республики Узбекистан «О таможенном регулировании» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. — URL: https://lex.uz

**2.** Указ Президента РУз от 05.10.2020 № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030»». — URL: https://lex.uz/docs/5031048

**3.** Указ Президента РУз от 05.06.2020 № УП-6005 «О реформировании таможенного администрирования». — URL: https://president.uz/ru/lists/view/3631

**4.** Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан. — URL: https://customs.uz

**5.** World Customs Organization. WCO Data Model. — Brussels: WCO, 2023.

**6.** World Customs Organization. Smart Customs Project Report. — Brussels: WCO, 2022.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

**7.** World Bank. Logistics Performance Index 2023: Connecting to Compete. — Washington: World Bank, 2023.

**8.** World Bank. Digital Transformation of Trade Facilitation. — Washington: World Bank, 2021.

**9.** Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. — Wiley, 2022.

**10.** Давыдов Р.В. Управление процессом модернизации таможенного администрирования в условиях цифровой трансформации: дис. канд. экон. наук. — Москва, 2023.

**11.** Ходжиев Б.А. Рақамли иқтисодиёт ва давлат бошқаруви самарадорлиги. — Тошкент, 2020.

**12.** Тошев Х.А. Электрон божхона тизимларини жорий этишнинг бошқарув механизми. — Тошкент, 2021.

**13.** Рахимов Ж.А. Божхона органларида инновацион ва рақамли бошқарув. — Тошкент, 2022.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# IQTISODIYOTGA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI

**Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich**

*iqtisodiyot va kompyuter injiniring kafedrasi dotsenti*
*International school of finance texnology and science instituti*
*E-mail: dy212440gmail.com*
*ORCID:0009-0004-5256-7217*

**Nuriddinova Nilufar**

*iqtisodiyot va kompyuter injiniring kafedrasi o‘qituvchisi*
*International school of finance texnology and science instituti*
*ORCID:0009-0005-6792-0869*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada iqtisodiyotga raqamli iqtisodiyotni joriy etishning nazariy asoslari, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari tahlil qilingan. Xalqaro va milliy statistik ma’lumotlar asosida raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, internet qamrovi, elektron tijorat rivoji hamda bandlikka ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri bo‘lib, uning samarali rivojlanishi infratuzilma, inson kapitali va institutsional muhit bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlangan. Shuningdek, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, elektron tijorat, AKT, iqtisodiy o‘sish, internet infratuzilmasi, raqamli transformatsiya, fintech, innovatsiya, e-government.*

# ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ЭКОНОМИКУ

**Янгибоев Дилшод Гуломович**

*доцент кафедры экономики и компьютерного инжиниринга института «International school of finance technology and science»*
*E-mail: dy212440gmail.com*
*ORCID:0009-0004-5256-7217*

**Нуриддинова Нилуфар**

*преподаватель кафедры экономики и компьютерного инжиниринга института «International school of finance technology and science»*
*ORCID:0009-0005-6792-0869*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются теоретические основы, тенденции развития и перспективы внедрения цифровой экономики в национальную экономику. На основе международных и национальных статистических данных проанализированы доля цифровой экономики в ВВП, уровень интернет-покрытия, развитие электронной коммерции и влияние на занятость. Результаты исследования показывают, что цифровая экономика является важным драйвером экономического роста, а её эффективное развитие зависит от уровня инфраструктуры, человеческого*

*капитала и институциональной среды. Также разработаны практические рекомендации по развитию цифровой экономики в Узбекистане.*

***Ключевые слова:*** *цифровая экономика, цифровизация, электронная коммерция, ИКТ, экономический рост, интернет-инфраструктура, цифровая трансформация, финтех, инновации, электронное правительство.*

## PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE ECONOMY

**Yangiboev Dilshod Gulomovich**

*Associate professor of the department of economics and computer engineering International school of finance technology and science institute*
*E-mail: dy212440gmail.com*
*ORCID:0009-0004-5256-7217*

**Nuriddinova Nilufar**

*Lecturer of the Department of Economics and Computer Engineering International school of finance technology and science institute*
*ORCID:0009-0005-6792-0869*

***Abstract.*** *This article examines the theoretical foundations, development trends, and prospects of implementing the digital economy in the national economy. Based on international and national statistical data, the study analyzes the share of the digital economy in GDP, internet penetration, e-commerce development, and its impact on employment. The results indicate that the digital economy is a key driver of economic growth, and its effective development depends on infrastructure, human capital, and the institutional environment. Additionally, practical recommendations for the development of the digital economy in Uzbekistan are proposed.*

***Keywords:*** *digital economy, digitalization, e-commerce, ICT, economic growth, internet infrastructure, digital transformation, fintech, innovation, e-government.*

### Kirish

Ma’lumki, zamonaviy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotni joriy etish orqali raqobatbordoshlikni hamda mehnat samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shadi. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini transformatsiya qilib, sanoat tuzilmasini yangilash va ma’lumotlar almashuvini kamaytirish mexanizmlari orqali yuqori sifatli iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash kabi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Iqtisodiyotga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli infratuzilma rivojlantirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etish [1] belgilangan. Shu boisdan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatni ifodalaydi, u elektron tijorat, IT-xizmatlar va blokcheyn kabi sohalarni qamrab oladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, sanoat tuzilmasini modernizatsiya qiladi va bandlikni qayta tashkil etadi.

Raqamli iqtisodiyotni iqtisodiyotga qo‘llashning O‘zbekiston sharoitidagi istiqbollarini ilmiy asosda tahlil qilish orqali siyosiy qarorlar va strategik rejalashtirishda uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, uni iqtisodiyot sohasida keng qo‘llash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va raqamli platformalarga asoslangan holda iqtisodiy jarayonlarni transformatsiya qiladi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning iqtisodiy o‘sishga ta’siri hamda joriy etish istiqbollarini keng yoritib beradi.

Birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyot tushunchasi va uning mohiyati bo‘yicha tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. N. Negroponte raqamli iqtisodiyotning asoschisi sifatida iqtisodiy faoliyatning atomlardan bitlarga o‘tishini ta’kidlaydi [2]. Keyinchalik T. Tapscott o‘zining “The Digital Economy” asarida raqamli texnologiyalar iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirayotganini asoslab bergan [3]. Ushbu ilmiy qarashlar raqamli iqtisodiyotning nazariy poydevorini shakllantiradi.

Raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy o‘sishga ta’siri ko‘plab xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Jahon banki (World Bank) hisobotlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, yangi ish o‘rinlarini yaratishi va iqtisodiy inklyuziyani kengaytirishi ta’kidlanadi [4]. Shuningdek, OECD tadqiqotlarida raqamli transformatsiya iqtisodiyotning barcha sektorlarida innovatsion rivojlanishni tezlashtiruvchi omil sifatida baholanadi [5].

Ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etish istiqbollari quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali yoritiladi:

Birinchidan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. M. Castells o‘zining “Network Society” nazariyasida axborot tarmoqlari iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylanganini ta’kidlaydi [6]. Bu esa internet tezligi, ma’lumotlar markazlari va bulutli texnologiyalarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, inson kapitali va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida yuqori malakali IT mutaxassislariga talab keskin oshadi [7]. Shu sababli ta’lim tizimini modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, raqamli platformalar va elektron tijoratni rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi. UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, elektron tijorat global savdoning muhim segmentiga aylanib, rivojlanayotgan davlatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda [8].

To‘rtinchidan, raqamli boshqaruv (e-government) tizimlarini joriy etish davlat xizmatlarining samaradorligini oshiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, elektron hukumat tizimi korrupsiyani kamaytirish, shaffoflikni oshirish va davlat xizmatlarini tezlashtirish imkonini beradi [9].

O‘zbekiston misolida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha bir qator ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, IT infratuzilmani rivojlantirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [10]. Mahalliy olimlar, jumladan, iqtisodchi olimlar raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sirini asoslab bermoqda [11].

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyotga o‘tishda yuzaga keladigan muammolar ham ko‘rsatib o‘tiladi. Ular qatoriga kiberxavfsizlik tahdidlari, raqamli tafovut (digital divide), investitsiya yetishmasligi va normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi kiradi [12]. Ushbu muammolarni bartaraf etish raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotni joriy etish iqtisodiy o‘sishning yangi manbai bo‘lib, u samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va global raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, uning muvaffaqiyatli joriy etilishi kompleks yondashuvni, ya’ni infratuzilma, inson kapitali va institutsional muhitni uyg‘un rivojlantirishni talab etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyotni milliy iqtisodiyotga joriy etish istiqbollarini aniqlash, uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholash hamda samarali rivojlanish yo‘nalishlarini ishlab chiqish maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, nazariy tahlil usullari qo‘llanildi. Ushbu yondashuv orqali raqamli iqtisodiyotning mohiyati, uning asosiy komponentlari va rivojlanish bosqichlari xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganildi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy tizimga ta’siri konseptual jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning muhim qismi sifatida statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, milliy va xalqaro statistik ma’lumotlar (YaIM, internet qamrovi, elektron tijorat hajmi, AKT sektori ulushi va boshqalar) asosida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasi baholandi. Statistik ma’lumotlar asosida trend tahlili va dinamik qatorlar usuli qo‘llanildi.

Bundan tashqari, qiyosiy tahlil (comparative analysis) usuli yordamida O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Bu usul orqali ilg‘or xalqaro tajribalar aniqlanib, ularni milliy iqtisodiyotga moslashtirish imkoniyatlari o‘rganildi.

**Tahlil va natijalar**

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasini baholash uchun xalqaro va milliy statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil amalga oshirildi. Tahlilda asosiy e’tibor AKT sektori ulushi, internet foydalanuvchilari soni, elektron tijorat hajmi hamda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga qaratildi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Quyidagi jadvalda ayrim davlatlarda raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi keltirilgan.

1-jadval.

**Raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi (%)**

| Davlatlar | 2018 | 2020 | 2022 | 2024 |
|---|---|---|---|---|
| **AQSh** | 10.2 | 11.5 | 12.8 | 13.5 |
| **Xitoy** | 7.5 | 8.9 | 10.5 | 11.8 |
| **Yevropa Ittifoqi** | 8.3 | 9.6 | 10.9 | 11.7 |
| **O‘zbekiston** | 2.2 | 2.8 | 3.6 | 4.4 |

Manba: World Bank (2023), OECD Digital Outlook (2024), O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Mazkur jadval asosida 2018–2024 yillar oralig‘ida raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi dinamikasi qiyosiy tahlil qilindi.

Avvalo, umumiy tendensiyaga e’tibor qaratilsa, barcha davlatlar kesimida raqamli iqtisodiyot ulushi izchil o‘sib borgan. Bu global miqyosda raqamlashtirish jarayonlari jadallashganini va iqtisodiy tizimlarda raqamli texnologiyalarning roli ortib borayotganini ko‘rsatadi.

AQSh misolida, ko‘rsatkich 2018-yildagi 10,2 % dan 2024-yilda 13,5 % ga yetgan. Ya’ni 6 yil davomida +3,3 foiz punktga o‘sish kuzatilgan. Bu barqaror va yuqori darajadagi o‘sish bo‘lib, AQShda raqamli platformalar, sun’iy intellekt va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilgani bilan izohlanadi. AQSh hali ham ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha yetakchi o‘rinda qolmoqda.

Xitoyda esa yanada tezroq o‘sish sur’ati kuzatiladi: 7,5 % dan 11,8 % ga (+4,3 foiz punkt). Bu jadvaldagi eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichidir. Xitoyning bunday natijaga erishishi davlat

tomonidan raqamli iqtisodiyotga katta investitsiyalar kiritilishi, elektron tijorat va fintech sektorining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq.

Yevropa Ittifoqida ko‘rsatkich 8,3 % dan 11,7 % ga oshgan (+3,4 foiz punkt). O‘sish barqaror bo‘lsa-da, AQSh va Xitoyga nisbatan biroz sekinroq. Bu Yevropa mamlakatlarida raqamlashtirish siyosati ko‘proq tartibga solish va muvozanatli rivojlanishga qaratilgani bilan izohlanadi.

O‘zbekistonda esa ko‘rsatkich 2,2 % dan 4,4 % ga yetgan bo‘lib, +2,2 foiz punkt o‘sish qayd etilgan. Nisbatan past bazadan boshlangani hisobga olinsa, bu sezilarli o‘sish hisoblanadi (deyarli 2 baravar). Bu mamlakatda so‘nggi yillarda raqamli infratuzilma, internet qamrovi va elektron xizmatlarning kengayishi natijasidir.

Raqamli iqtisodiyotda electron tijorat alohida o‘rin tutadi. Xususan, elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biridir (2-jadval).

2-jadval.

**Elektron tijorat hajmi (mlrd AQSh dollari)***

| Hududlar | 2019 | 2021 | 2023 | 2025* |
|---|---|---|---|---|
| Xitoy | 1.9 | 2.8 | 3.5 | 4.1 |
| AQSh | 0.6 | 0.9 | 1.1 | 1.3 |
| O‘zbekiston | 0.3 | 0.6 | 1.1 | 1.8 |

*Manba: UNCTAD (2023), Statista (2024), O‘zbekiston AKT vazirligi ma’lumotlari.*

2019–2025 yillar prognoziga ko‘ra, elektron tijorat barcha hududlarda barqaror va tez sur’atlarda o‘sib bormoqda, bu esa global iqtisodiyotning raqamli transformatsiyaga chuqur kirib borayotganini ko‘rsatadi.

Jahon miqyosida elektron tijorat hajmi deyarli 2 baravar oshib, 7,2 trln dollarga yetishi kutilmoqda. Bu onlayn savdoga bo‘lgan global talabning kuchayganidan dalolat beradi.

Xitoy eng tez va eng katta mutlaq o‘sishga ega bo‘lib, global elektron tijoratning asosiy yetakchisiga aylanmoqda. Uning ulushi 55% dan oshishi kutilayotgani raqamli platformalar va logistika tizimlarining yuqori darajada rivojlanganini bildiradi.

**Xulosa**

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot ijobiy rivojlanish dinamikasiga ega bo‘lsa-da, uning salohiyatidan to‘liq foydalanish uchun kompleks choralar zarur. Shu nuqtai nazardan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Raqamli infratuzilmani jadal rivojlantirish;
- Raqamli iqtisodiyot ulushini oshirishga qaratilgan davlat dasturlarini kuchaytirish;
- Inson kapitali va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- Elektron tijorat va raqamli biznesni qo‘llab-quvvatlash;
- Raqamli moliya va fintech xizmatlarini rivojlantirish;
- Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- Innovatsiyalar va startap ekotizimini rivojlantirish;
- Davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
- Hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish.

Taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish hamda global raqobatbardoshlikni ta’minlash mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adaboyotlar**

1. https://lex.uz/ru/docs/-5030957. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 6079-son Farmoni.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

2. Negroponte, N. Being Digital. – New York: Knopf, 1995.
3. Tapscott, D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – McGraw-Hill, 1996.
4. World Bank. World Development Report: Digital Dividends. – Washington DC, 2016.
5. OECD. Digital Economy Outlook. – Paris, 2020.
6. Castells, M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996.
7. Brynjolfsson, E., McAfee, A. The Second Machine Age. – W.W. Norton, 2014.
8. UNCTAD. Digital Economy Report. – Geneva, 2021.
9. United Nations. E-Government Survey. – New York, 2022.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – 2020.
11. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent, 2021.
12. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva, 2016.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FERMER XO‘JALIKLARIDA QO‘SHILGAN QIYMAT ZANJIRI SAMARADORLIGINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Murodov Jahongir Choriyevich**

*iqtisodiy statistika kafedrasi*
*katta o‘qituvchisi, PhD*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail:jmurodov2019@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi fermer xo‘jaliklarida qo‘shilgan qiymat zanjiri samaradorligini statistik baholashning mavjud usullari tahlil qilinadi hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari asoslab beriladi. Tadqiqot davomida qo‘shilgan qiymat zanjiri elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, resurslardan foydalanish samaradorligi va yakuniy iqtisodiy natijalarga ta’siri statistik ko‘rsatkichlar asosida baholanadi. Shuningdek, fermer xo‘jaliklari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari agrar sohada boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar.*** *qo‘shilgan qiymat zanjiri, fermer xo‘jaligi, statistik baholash, samaradorlik, agrar sektor, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, integratsiyalashgan yondashuv, resurslardan foydalanish.*

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ СТАТИСТИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЦЕПОЧКИ ДОБАВЛЕННОЙ СТОИМОСТИ В ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Муродов Жахонгир Чориевич**

*старший преподаватель кафедры*
*экономическая статистика, PhD*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail:jmurodov2019@gmail.com*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются существующие методы статистической оценки эффективности цепочки добавленной стоимости в фермерских хозяйствах Республики Узбекистан и обосновываются направления их совершенствования. В ходе исследования оценивается взаимосвязь элементов цепочки добавленной стоимости, эффективность использования ресурсов и их влияние на конечные экономические результаты на основе статистических показателей. Также предлагается система интегрированных показателей, направленная на повышение эффективности деятельности фермерских хозяйств. Результаты исследования имеют важное значение для принятия управленческих решений в аграрном секторе.*

***Ключевые слова.*** *цепочка добавленной стоимости, фермерское хозяйство, статистическая оценка, эффективность, аграрный сектор, экономические показатели, интегрированный подход, использование ресурсов.*

# IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY FOR STATISTICAL ASSESSMENT OF VALUE CHAIN EFFICIENCY IN FARMER ENTERPRISES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Murodov Jahongir Choriyevich**

*Senior Lecturer,*

*Department of Economic Statistics, PhD*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: jmurodov2019@gmail.com*

***Abstract.*** *This article analyzes existing methods for the statistical assessment of value chain efficiency in farmer enterprises of the Republic of Uzbekistan and substantiates directions for their improvement. The study evaluates the interrelationships between the elements of the value chain, the efficiency of resource utilization, and their impact on final economic outcomes based on statistical indicators. In addition, a system of integrated indicators aimed at improving the performance of farmer enterprises is proposed. The results of the research are significant for managerial decision-making in the agricultural sector.*

***Keywords:*** *value chain, farmer enterprise, statistical assessment, efficiency, agricultural sector, economic indicators, integrated approach, resource utilization.*

**Kirish**

Bugungi kunda agrar sektor iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bandlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yetakchi subyektlardan biri hisoblanadi. Shu bois, ularning faoliyat samaradorligini oshirish, ayniqsa qo‘shilgan qiymat zanjiri doirasida baholash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat zanjiri fermer xo‘jaliklaridan boshlab mahsulotni qayta ishlash, saqlash, logistika va yakuniy iste’molchiga yetkazib berish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur zanjirda samaradorlikni oshirish uchun uni statistik jihatdan to‘g‘ri baholash va mavjud metodologiyalarni takomillashtirish zarur. Hozirgi amaliyotda qo‘llanilayotgan baholash usullari ko‘pincha fragmentar xarakterga ega bo‘lib, zanjirning barcha bosqichlarini kompleks qamrab olmaydi.

“Kelgusi yili iqtisodiyotda 6,6 foiz o‘sishni ta’minlab, yalpi ichki mahsulotni 167 milliard dollarga yetkazish prognoz qilinmoqda. Agar mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi va tannarx bo‘yicha qattiq ishlansa, bu ko‘rsatkichni yanada oshirish uchun barcha imkoniyatlar bor”[1]

Shu sababli, “Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta’minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi”[2]

Mazkur maqolaning maqsadi — O‘zbekiston Respublikasi fermer xo‘jaliklarida qo‘shilgan qiymat zanjiri samaradorligini statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi agrar sektorida olib borilayotgan islohotlar natijasida fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda ichki bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, qo‘shilgan qiymat zanjiri (QQZ) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u mahsulot yetishtirishdan tortib uni iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda yaratiladigan qiymatni o‘z ichiga oladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, fermer xo‘jaliklarida qo‘shilgan qiymat zanjiri samaradorligini baholashda mavjud statistik metodologiyalar yetarli darajada mukammal emas. Ayniqsa, qiymat yaratish bosqichlari, xarajatlar tuzilmasi va foyda taqsimotini kompleks tahlil qilish imkonini beruvchi yondashuvlar yetishmaydi. Shu sababli, mazkur maqolada fermer xo‘jaliklarida qo‘shilgan qiymat zanjiri samaradorligini statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

**Adabiyotlar sharhi**

Mamlakatning agrar sohasida fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini statistik

baholash iqtisodchi olimlarning ilmiy adabiyotlarida ilmiy jihatdan statistik tadqiq qilinib, amaliyotda foydalanish uchun tatbiq etila boshlandi.

“Bog‘liqliklar to‘plamidan iqtisodiy jarayoni xarakteriga muvofiqroq keladigan ishlab chiqarish funksiyasini tanlashga modellashtirilayotgan obyektning texnologik, fizik-biologik va agrotexnik xarakteristikalarini o‘rganish asosida erishiladi”. [7, 51 bet].

“Agar tuzilgan model real tizimni to‘g‘ri tavsiflasa, bu holda u bir tomondan modellashtirilayotgan obyekt ko‘rsatkichlar miqdor xarakteristikasini, ular dinamikasining o‘zgarishini aniqlaydi, ikkinchi tomondan, jarayonni maqsadga muvofiq boshqarish imkonini beradi.”[10, 22 bet].

“Ko‘p omilli regressiya tenglamalarini tuzishda omillarning multikollinearlik muammosi yuzaga kelishi mumkin, ya’ni omillarning o‘zaro chiziqli bog‘lanish darajasi yuqori bo‘lishi holatlari. Bunday holatlarda ko‘p omilli regressiya natijalari tuzilgan modelni ishonchli emasligiga olib keladi” [8, 58 bet],

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil va iqtisodiy taqqoslash usullari, regressiya va indeks tahlili, qo‘shilgan qiymat zanjiri komponentlarini tizimli tahlil qilish, samaradorlik ko‘rsatkichlarini kompleks baholash usullari kabi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

Taklif etilayotgan metodologiya quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Qo‘shilgan qiymat zanjiri tarkibini aniqlash- Fermer xo‘jaliklarida QQZ quyidagi resurslar bilan ta’minlash (urug‘, o‘g‘it, texnika), ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va saqlash, realizatsiya kabi bosqichlarga ajratiladi.

2. Asosiy ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish- QQZ samaradorligini baholash uchun yalpi qo‘shilgan qiymat (YQQ), sof foyda darajasi, xarajatlar rentabelligi, mehnat unumdorligi, eksport ulushi ko‘rsatkichlari taklif etildi.

**Tahlil va natijalari**

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, “2025 yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 538 919,7 mlrd so‘mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 518 822,7 mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 15 081,5 mlrd so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 5 015,5 mlrd so‘mni tashkil qildi”[123].

1-rasm.

**O‘zbekiston Respublikasida 2025 yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati[124]**




Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining 2024 yilga nisbatan o‘sish sur’ati tahlil qilinganda, yuqori o‘sish sur’atlari Sirdaryo (106,9 %), Farg‘ona

[123] www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy saytining ma’lumotlari.
[124] www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy saytining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

(105,6 %), Xorazm (104,9 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (104,9 %), Andijon (104,7 %) va Navoiy (104,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Samarqand (103,3 %), Surxondaryo (103,8 %), Toshkent (104,2 %) va Qashqadaryo (104,3 %) viloyatlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.(1-rasm)

2-rasm.

**2025 yilda O‘zbekiston Respublikasida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi[125]**




O‘zbekiston Respublikasida 2025 yilda **x**o‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 62,3 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 29,4 %i fermer xo‘jaliklariga, 8,3 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda. (2-rasm)

3-rasm.

**2025 yilda O‘zbekiston Respublikasida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi[126]**




O‘zbekiston Respublikasida 2025 yilda yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **75,7 %**i fermer xo‘jaliklari hissasiga, **12,7 %**i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **11,6 %**i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.( 3- rasm)

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, takomillashtirilgan metodologiya quyidagi ustunliklarni ta’minladi:

1. Qo‘shilgan qiymat zanjiri bosqichlari kesimida samaradorlikni aniqlash imkoniyati oshdi.
2. Fermer xo‘jaliklarida foyda shakllanishining aniq manbalari belgilandi.
3. Resurslardan foydalanish samaradorligi yuqori aniqlikda baholandi.
4. Hududlar kesimida taqqoslash imkoniyati kengaydi.

[125] www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy saytining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[126] www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy saytining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Amaliy hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, qayta ishlash va logistika bosqichlarida samaradorlik pastligi umumiy QQZ samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yuqori texnologiyalardan foydalanayotgan fermer xo‘jaliklarida integral indeks o‘rtacha 15–20 foizga yuqori bo‘lgan.

**Xulosa**

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, qo‘shilgan qiymat zanjirini kompleks yondashuv asosida baholash fermer xo‘jaliklari faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Mavjud metodologiyalardan farqli ravishda, taklif etilayotgan yondashuv QQZning barcha bosqichlarini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham mavjud:

- statistik ma’lumotlar yetishmasligi;
- ayrim ko‘rsatkichlarni aniqlashdagi subyektivlik;
- hududlar o‘rtasidagi infratuzilma tafovutlari.

Kelgusida metodologiyani yanada takomillashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- raqamli monitoring tizimlarini joriy etish;
- katta ma’lumotlar (Big Data) asosida tahlillarni kengaytirish;
- fermer xo‘jaliklari darajasida real vaqt rejimida statistik kuzatuvlarni yo‘lga qo‘yish.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi fermer xo‘jaliklarida qo‘shilgan qiymat zanjiri samaradorligini statistik baholash metodologiyasi takomillashtirildi. Taklif etilgan yondashuv QQZ samaradorligini kompleks, tizimli va aniq baholash imkonini beradi. Ushbu metodologiya agrar siyosatni shakllantirishda, investitsiya qarorlarini qabul qilishda va fermer xo‘jaliklari faoliyatini optimallashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – 26.12.2025 y. // President.uz.. – URL: https://president.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” gi O‘RQ - 707 – sonli qonuni. 2021 yil. 11 avgust. . www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2004 yil 26 avgust.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qishloq xo‘jaligi statistik to‘plami. — Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi, 2023–2025 yillar.

5. Rasulov A., Xudoyberdiyev S. Qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymatni oshirishning iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. — №4. — B. 45–53.

6. Abdukarimov B. A. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

7. С. Худойбердиев, Б. Ашуров, О. Тоғаев. Эконометрика асослари фанидан маъруза матни. Самарқанд, СамИСИ, 2019 й

8. И.Ҳабибуллаев., А.Жумаев Эконометрика. Амалий машғулот учун ўқув қўлланма. -Т.: «ИҚТИСОД-МОЛИЯ » нашрёти, 2019, 173 бет.

9. Shodmonov S. Sh. Fermer xo‘jaliklari faoliyatining samaradorligini baholash metodologiyasi. — Toshkent: Fan, 2020.

10. Алимов Р.Х., Болтаева Л.Р., Ишназаров А.И. Эконометрика-2 // Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2012. –115 б.

11. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy sayt.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ФИНАНСОВОГО СЕКТОРА: ГЛОБАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

**Гулямова Асия Нурутдинова**

*преподаватель*
*кафедры экономическая теория*
*Ташкентский филиал Российского*
*экономического университета*
*им. Г.В. Плеханова*
*E-mail: gulyamova.asiya@mail.ru*

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются ключевые направления цифровой трансформации финансового сектора в условиях глобальных технологических изменений с акцентом на национальные особенности Республики Узбекистан. Проанализированы стратегические инициативы государства, включая реализацию программы цифрового развития, внедрение концепции «умных городов» и цифровизацию приоритетных отраслей экономики. Особое внимание уделено трансформации здравоохранения, аграрного сектора и инфраструктурных систем на основе современных цифровых решений. Также исследована роль налогово-тарифной политики и международных соглашений в формировании благоприятной среды для развития цифровой экономики и внешнеэкономической деятельности.*

***Ключевые слова:*** *цифровая трансформация, финансовый сектор, цифровая экономика, умный город, электронное правительство, инвестиции, инновации, устойчивое развитие.*

# MOLIYAVIY SEKTORNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: GLOBAL TRENDLAR VA MILLIY XUSUSIYATLAR

**Gulyamova Asiya Nurutdinovna**

*iqtisodiy nazariya kafedrasi o‘qituvchisi*
*G.V. Plexanov nomidagi Rossiya*
*iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali,*
*E-mail: gulyamova.asiya@mail.ru*

***Annotatsiya.*** *Maqolada global texnologik o‘zgarishlar sharoitida moliyaviy sektorning raqamli transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasining milliy xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Davlatning strategik tashabbuslari, jumladan raqamli rivojlanish dasturi, “aqlli shaharlar” konsepsiyasini joriy etish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini raqamlashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Sog‘liqni saqlash, agrar sektor va infratuzilma tizimlarining zamonaviy raqamli yechimlar asosida transformatsiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, soliq-tarif siyosati va xalqaro bitimlarning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyat uchun qulay muhit yaratishdagi roli o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *raqamli transformatsiya, moliyaviy sektor, raqamli iqtisodiyot, aqlli shahar, elektron hukumat, investitsiyalar, innovatsiyalar, barqaror rivojlanish.*

# DIGITAL TRANSFORMATION OF THE FINANCIAL SECTOR: GLOBAL TRENDS AND NATIONAL FEATURES

**Gulyamova Asiya Nurutdinovna**

*Lecturer*
*Department of Economic Theory*

*Tashkent Branch of the Plekhanov Russian University of Economics, Tashkent, Republic of Uzbekista*
*E-mail: gulyamova.asiya@mail.ru*

***Abstract.*** *The article examines the key directions of digital transformation in the financial sector in the context of global technological changes, with a focus on the national characteristics of the Republic of Uzbekistan. The study analyzes strategic state initiatives, including the implementation of digital development programs, the introduction of the “smart city” concept, and the digitalization of priority sectors of the economy. Particular attention is paid to the transformation of healthcare, the agricultural sector, and infrastructure systems based on modern digital solutions. The role of tax and tariff policy, as well as international agreements, in creating a favorable environment for the development of the digital economy and foreign economic activity is also explored*

***Keywords:*** *digital transformation, financial sector, digital economy, smart city, e-government, investments, innovations, sustainable development.*

**Введение**

В условиях стремительного развития цифровых технологий и усиления глобальной конкуренции трансформация финансового сектора приобретает стратегическое значение для обеспечения устойчивого экономического роста. Цифровизация финансовых услуг, внедрение финтех-решений и развитие цифровой инфраструктуры способствуют повышению эффективности функционирования финансовых систем, расширению доступа к услугам и усилению их прозрачности. В этом контексте особый интерес представляет опыт Республики Узбекистан, где цифровая трансформация рассматривается как приоритетное направление государственной политики и реализуется в рамках масштабных программ, направленных на формирование современной цифровой экономики.

**Обзор литературы**

Вопросы цифровой трансформации финансового сектора широко освещаются в современной научной литературе как зарубежными, так и отечественными исследователями. В условиях формирования цифровой экономики особое внимание уделяется внедрению финансовых технологий, развитию цифровой инфраструктуры и институциональным аспектам трансформации.

Так, в работах российских исследователей подчёркивается, что цифровизация финансового сектора является неотъемлемой частью четвёртой промышленной революции. По мнению Е.Б.Стародубцева, цифровые технологии способствуют формированию новых бизнес-моделей в финансовой сфере и повышают доступность финансовых услуг [1]. Аналогичной позиции придерживается С. Ю. Глазьев, который отмечает, что развитие цифровых платформ и финтех-решений усиливает конкурентоспособность национальных экономик и трансформирует денежно-кредитные отношения [2]. Значительный вклад в исследование цифровизации банковского сектора внесли О. И. Лаврушин и И.Т. Балабанов, рассматривающие цифровую трансформацию как фактор повышения эффективности банковской деятельности и качества обслуживания клиентов [3]. В их работах акцентируется внимание на развитии дистанционного банковского обслуживания, электронных платежных систем и цифровых каналов взаимодействия с клиентами. Среди узбекских исследователей проблемы цифровой экономики и финансового сектора активно изучаются. Так, А. В. Вахабов рассматривает цифровизацию как ключевой драйвер структурных преобразований экономики Узбекистана, подчеркивая необходимость развития институциональной среды и повышения инвестиционной привлекательности страны [4]. Н.Х. Ходжаев отмечает, что внедрение цифровых технологий в государственное управление и финансовую систему способствует повышению прозрачности и снижению

транзакционных издержек [5]. Вопросы развития электронного правительства и цифровых сервисов подробно освещены в работах Ш. Ш. Шодмонова, который указывает на важность интеграции информационных систем и создания единой цифровой платформы государственного управления [6]. В свою очередь, Т.Н. Маматходжаева анализирует особенности внедрения инновационных технологий в экономике Узбекистана, акцентируя внимание на развитии финтех-сектора и цифровых экосистем [7]. Отдельное внимание в научных исследованиях уделяется вопросам цифровизации отраслей социальной сферы. В частности, М.К. Парпиев рассматривает цифровую трансформацию здравоохранения как важный элемент повышения качества жизни населения, отмечая роль телемедицины и электронных медицинских систем [8]. В аграрной сфере Б. Б. Бердиев подчеркивает значимость внедрения геоинформационных технологий и цифровых платформ для повышения эффективности сельскохозяйственного производства [9].

**Методология исследования**

В работе использованы метод анализа нормативно-правовых документов для изучения стратегических инициатив Республики Узбекистан, также применялся метод контент-анализа научной литературы, что позволило обобщить существующие теоретические подходы к исследуемой проблеме. Эмпирическую базу исследования составляют результаты реализации цифровых проектов в сферах здравоохранения, сельского хозяйства и городской инфраструктуры, это обеспечило достоверность и обоснованность полученных результатов.

**Анализ и результаты**

В целом результаты исследования свидетельствуют о том, что цифровая трансформация в Узбекистане носит комплексный характер и охватывает ключевые сферы экономики. При этом дальнейшее развитие требует усиления координации между государственными органами, повышения уровня цифровой грамотности населения и расширения внедрения инновационных технологий.

Цифровая трансформация финансового сектора является одним из ключевых факторов развития современной экономики. В условиях глобализации и ускоренного внедрения технологий государства стремятся модернизировать финансовые системы, повышая их эффективность, доступность и устойчивость.

На современном этапе Республика Узбекистан демонстрирует устойчивую динамику внедрения цифровых технологий в ключевые сферы социально-экономической системы. Государство последовательно формирует условия для перехода к цифровой модели развития, что отражается в активной модернизации инфраструктуры, управленческих процессов и отраслевых решений.

Цифровизация определена в качестве одного из стратегических приоритетов национальной политики. Базовым документом, определяющим вектор трансформации, выступает программа Цифровой Узбекистан – 2030. Данная стратегия направлена на формирование цифровой экономики за счёт масштабного внедрения инновационных технологий, развития электронного правительства, повышения уровня кибербезопасности и инвестирования в человеческий капитал.

Одним из приоритетных направлений цифровизации является внедрение концепции «умных городов», реализуемой с 2019 года. Основная цель инициативы — формирование современной городской среды с использованием цифровых технологий. Данная инициатива ориентирована на формирование современной инженерной и коммуникационной инфраструктуры городов, повышение качества жизни населения, создание комфортной и безопасной городской среды, а также развитие благоприятных условий для предпринимательской активности. Концепция «умного города» активно внедряется не только в столице, но и в таких крупных туристических центрах Узбекистана, как

Самарканд, Бухара и Хива. В этих городах реализуются инициативы, направленные на повышение уровня безопасности и развитие цифровой туристической инфраструктуры, включая проекты «Безопасный регион» и «Безопасный туризм».

Таблица -1.

**К числу ключевых направлений реализации стратегии «Умные города» Узбекистана относятся***

| № | Название элементов концепций | Особенности концепций |
|---|---|---|
| 1 | «Умный транспорт» [2] | «Умный транспорт» — это цифровая система управления движением, мониторинга и сервисов для участников дорожного движения. В Ташкенте её дополняют проекты Visiology и ГИС «ГРАФИТ» с данными о транспорте, ДТП и городской мобильности. |
| 2 | «Умное образование» | ИИ-платформы обеспечивают тестирование и цифровое обучение. Они объединяют онлайн и офлайн с адаптивными технологиями. |
| 3 | «Умная медицина» | Платформа объединяет медицинские данные пациентов, обеспечивая электронные карты и телемедицину. Она поддерживает дистанционную диагностику, мониторинг и оплату по результатам лечения. |
| 4 | «Умная энергетическая система» | Интеллектуальные технологии снижают потери и повышают надежность энергосистемы. Они оптимизируют затраты и баланс энергии. |
| 5 | «Умное водоснабжение и водоотведение» | Цифровизация водоснабжения формирует «умную» инфраструктуру для эффективного управления ресурсами. Она снижает потери и повышает надежность сетей. |
| 6 | «Умное жилищно-коммунальное хозяйство» | Это современная модель ЖКХ с цифровым управлением ресурсами и ориентацией на устойчивость. Процессы услуг координируются интеллектуальными технологиями с учетом потребителей. |
| 7 | «Умное строительство» | Это повышает эффективность управления проектами, снижает сроки и затраты, улучшая качество и устойчивость объектов. |
| 8 | «Умный дом» | Концепция обеспечивает безопасность и комфорт через сигнализацию, контроль доступа и мониторинг аварий. Автоматизация управления энергией повышает энергоэффективность. |
| 9 | «Умный хокимият» | Система обеспечивает связь жителей с властью и прозрачность управления. Предоставляет цифровые сервисы, документы и оплату налогов. |
| 10 | «Умная махалля» | Онлайн-сервисы такси, зарядная инфраструктура и каршеринг улучшают мобильность. Открытые данные и участие жителей повышают занятость и экологический контроль. |

*Авторская разработка

В перспективе планируется объединение этих объектов с различными электронными платформами и сервисами, что позволит создать единую цифровую экосистему — своего рода «интернет туристических локаций», обеспечивающий удобство и безопасность для путешественников.

В сфере здравоохранения в Республике Узбекистан реализуется комплексная программа цифровой трансформации системы здравоохранения на 2021–2025 годы.

Основной задачей данной стратегии является внедрение современных информационных решений, совершенствование цифровых сервисов, а также развитие телекоммуникационной и технологической инфраструктуры медицинской отрасли [3].

В рамках цифровизации здравоохранения в стране активно внедряются различные проекты и информационные системы. Так, система «Электронный рецепт» направлена на повышение безопасности и эффективности медикаментозного лечения, а также формирование централизованной базы данных медицинских специалистов.

Информационные платформы «Электронная поликлиника» и «Электронная больница» способствуют повышению качества медицинского обслуживания за счёт автоматизации процессов и создания современной цифровой среды в лечебных учреждениях.

Система «Лаборатория» обеспечивает формирование единого электронного архива результатов анализов, диагностических данных и медицинских изображений, что значительно упрощает доступ к информации и её обработку. Особое значение имеет функционирование единой телемедицинской сети, которая позволяет предоставлять медицинские услуги дистанционно. Благодаря этому пациенты могут получать квалифицированную помощь вне зависимости от места проживания, включая отдалённые и сельские регионы. [4]

Аграрный сектор в Узбекистане занимает стратегически важное место в структуре национальной экономики, выступая одним из ключевых драйверов её роста. Внедряются цифровые платформы, обеспечивающие автоматизацию процессов льготного кредитования сельскохозяйственных производителей, а также повышение прозрачности оказания услуг в аграрной сфере. Формируется единая информационная база субъектов сельского хозяйства, предусматривающая создание электронных профилей землепользователей с присвоением уникальных идентификационных номеров. Существенную роль играет внедрение геоинформационных систем и технологий дистанционного зондирования Земли, позволяющих осуществлять мониторинг сельскохозяйственных угодий, анализировать состояние посевов и своевременно выявлять потенциальные риски. Использование спутниковых данных и аналитических инструментов способствует выработке обоснованных рекомендаций, направленных на повышение урожайности.

Цифровизация сельского хозяйства в Узбекистан формирует основу для повышения конкурентоспособности аграрного сектора, оптимизации производственных процессов и перехода к инновационной модели развития. [5]

Вместе с тем, достижение устойчивых экономических результатов невозможно без учета институциональных условий функционирования рынка. В этой связи особое значение приобретает анализ налогово-тарифной среды, оказывающей непосредственное влияние на формирование ценовой политики и эффективности внешнеэкономической деятельности. Важным элементом институциональной среды выступают международные соглашения об избежании двойного налогообложения, заключённые Узбекистаном с рядом государств, обеспечивающие снижение налоговой нагрузки на трансграничные доходы, включая дивиденды, а также регулируют порядок взаимодействия налоговых органов и обмена информацией. [6]

Таким образом, налогово-правовая среда страны формирует благоприятные условия для привлечения инвестиций и развития экспортной деятельности, одновременно требуя от компаний глубокого понимания действующих регуляторных механизмов.

**Заключение**

Цифровая трансформация выступает системообразующим фактором модернизации экономики Узбекистан. Реализация масштабных государственных программ, направленных на развитие цифровой инфраструктуры, внедрение инновационных технологий и повышение уровня цифровой грамотности населения, способствует

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

формированию устойчивой и конкурентоспособной экономической системы. Важным результатом является активное внедрение цифровых решений в ключевые отрасли, включая здравоохранение, сельское хозяйство, энергетику и городскую инфраструктуру. Это обеспечивает повышение эффективности управления ресурсами, улучшение качества предоставляемых услуг и рост производительности. Одновременно значимую роль играет совершенствование налогово-правовой среды, направленной на стимулирование инвестиционной активности и развитие внешнеэкономических связей. Международные соглашения и налоговые механизмы создают дополнительные условия для интеграции страны в мировую экономику. В целом цифровая трансформация в Узбекистан носит комплексный и поступательный характер, формируя основу для долгосрочного экономического роста, инновационного развития и повышения уровня жизни населения.

**Литературы**

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18.01.2019 №48 «Об утверждении Концепции внедрения технологий «Умный город» в Республике Узбекистан» https://lex.uz/docs/4171074

2. Хабр Карьера статья «Умный город Ташкент: как Visiology BI и Геоинтеллект помогли создать современный ситуационный центр» от 20апреля 2022 года https://habr.com/ru/companies/visiology/articles/662019/

3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5124 от 01.05.2023 «О дополнительных мерах по комплексному развитию сферы здравоохранения» https://lex.uz/docs/5434367

4. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-140 от 23.02.2021 «О дополнительных мерах по цифровизации системы здравоохранения» https://lex.uz/docs/6450186

5. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-257 от 02.08.2023 «О мерах по внедрению передовых цифровых технологий в сферу сельского хозяйства» https://lex.uz/ru/docs/6553998

6. Правительственный портал Республики Узбекистан, правовые основы международного сотрудничества https://gov.uz/ru/soliq/sections/xalqaro-hamkorlikning-huquqiy-asoslari

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# RISK KOMPONENTLARI: UMUMIYLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

**Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich**
*iqtisod fanlari nomzodi, professor.*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: bay_tur58@mail.ru.*
*ORCID:0000-0002-1386-4364*

***Annotatsiya.*** *Iqtisodiy globallashuv jarayoni dunyoning uzluksiz rivojlanish qonuniyatiga mos tarzda va tabiiy ravishda, shu jumladan, xalqaro sug‘urta bozori, xususan, milliy sug‘urta bozorlarining son va sifat xususiyatlariga bevosita bosimli ta’sir o‘tkazmoqda. Shu nuqtai nazardan, muallif tomonidan qator iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ilgari surilgan risk komponentlarining umumiy va o‘ziga xos jihatlari tizimli tarzda umumlashtirganligi e’tiborga molikdir. Maqolada ta’kidlanishicha, iqtisodiyot subyektlari, xususan sug‘urta kompaniyalari risklarining tasnifi, shuningdek, risklarni minimallashtirishning funksional konsepsiyasi doirasida shakllantirilgan qoidalar va universal mezonlarga mos tavsifli yondashuvlarni yaxlit tarzda tizimlashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.*

***Kalit so‘zlar:*** *sug‘urta, sug‘urta riski, sug‘urta riski oqimi, sug‘urta kompaniyasi, sug‘urta kompaniyasi risklari, sug‘urta kompaniyasi risklari tasnifi, risk komponentlari, umumiy risklar, maxsus risklar, risk konsentratsiyasi, riskni minimallashtirish, risk diversifikatsiyasi, baholash riski, likvidlik riski, prognoz riski, anderrayting riski, tasodifiy xavf riski, risk anitiseleksiyasi.*

# КОМПОНЕНТЫ РИСКА: ОБЩЕЕ И ОСОБЕННОЕ

**Баймуратов Турсунбай Махкамбаевич**
*кандидат экономических наук, профессор.*
*Ташкентский государственнқй*
*экономический университет*
*E-mail: bay_tur58@mail.ru.*
*ORCID:0000-0002-1386-4364*

***Аннотация.*** *Процесс глобализации экономики является неразрывно закономерным для мирового развития, и естественным образом влияет на качественные и количественные характеристики как мирового страхового рынка вообще, так и национальных страховых рынков в частности. Автор проанализировал основных компонентов рисков в зависимости от уровня взаимосвязи и обобщил на основе синтеза типологии рисков, предложенные в научных разработках ряда ученых. В статье констатируется, что из-за отсутствия в рамках существующих нормативно-правовых актов на микроуровне принятой классификации страховых рисков компаний, а также регламентов саморегулируемых организаций, систематизации подходов, описывающих риски страховой компании и их комплненты по универсальным признакам, исследование по данной теме является актуальной.*

***Ключевые слова:*** *страхование, страховая компания, страховой риск, риски страховой компании, классификация рисков страховой компании, движение страхового риска, компоненты риска, общие риски, специфические риски, риск концентрации, риск редукции, риск диверсификации, риск оценки, риск ликвидности, риск прогноза, андеррайтерский риск, риск случайной опасности, антиселекция риска.*

# RISK COMPONENTS: GENERAL AND SPECIAL

**Bamuratov Tursunbay Makhkambaevich**
*candidate of economics sciences, professor*

*Tashkent State the University of Economics*
*E-mail: bay_tur58@mail.ru.*
*ORCID:0000-0002-1386-4364*

***Annotation.*** *The process of economic globalization is inextricably consistent with global development, and naturally affects the qualitative and quantitative characteristics of both the global insurance market in general and national insurance markets in particular. The author analyzed the main components of risks depending on the level of interconnection and summarized, based on the synthesis, the risk typologies proposed in the scientific research of a number of scientists. The article states that due to the lack of an accepted classification of insurance risks of companies at the micro level within the framework of existing regulatory legal acts, as well as regulations of self-regulating organizations, systematization of approaches describing the risks of an insurance company and their components according to universal criteria, research on this topic is relevant.*

***Keywords****: insurance, insurance company, insurance risk, insurance company risks, classification of insurance company risks, insurance risk movement, risk components, general risks, specific risks, concentration risk, reduction risk, diversification risk, assessment risk, liquidity risk, forecast risk, underwriting risk, the risk accidental danger, risk antiselection.*

**Kirish.**

XXI asrning uchinchi o‘n yilliklarida risklarning salmog‘i va intensivligi tabora bormoqda. Zamonaviy jamiyat asta-sekin yuqori riskli jamiyatga aylanmoqda. Bugungi kunda tabora jadal kechayotgan globallashuv jarayoni tabiiy ravishda nafaqat xalqaro moliya, balki makro sug‘urta bozori, o‘z navbatida milliy sug‘urta bozorlarining ham sifat va miqdor xususiyatlariga ham bevosita ta’siri kuzatilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bu jarayonda xalqaro sug‘urta bozorining globallashuvi, tizimli tarzda kapital (pul) oqimi yana-da erkinlashuvi, iqtisodiyot subyektlari faoliyatida, shu jumladan, jismoniy shaxslar hayotida risk ko‘lami ortib borishiga mos nisbatda, kafolatli sug‘urta xizmatlari bilan qamrovni ham oshirish zamirida sug‘urta biznesi haqiqiy raqobatbardosh tarmoqqa aylanmoqda.

Shu bois, bu o‘rinda iqtisodiy munosabatlar ochiq tizim hisoblanishi nuqtai nazaridan, mazkur munosabatlarning ajralmas jabhasi hisoblanadigan milliy moliya bozorining mohiyatiga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Ilmiy adabiyotlarda “...moliya bozorining mohiyati quyidagi yondashuvlarga muvofiq:

- moliya bozori kapital bozori sifatida qaralishi nuqtai nazaridan, uning ishlab chiqarish(xizmat ko‘rsatish)dagi rolini;

- moliya bozori mohiyatan moliya sohasi bilan bevosita o‘zaro bog‘liqlikda barcha segmentlarda ko‘rsatilayotgan xizmatlarni anglatadi” [1].

“Moliya bozori hajm jihatidan jamlama termin hisoblanadi”[2]. Shuni alohida keltirib o‘tish o‘rinliki, mazkur bozorda, odatda moliya sohasining barcha segmentlarini tizimli tarzda qamrab olgan xizmatlar jamlamasi tushiniladi.

Ushbu mavzu doirasidagi tadqiqotning tizimli instrumentariysi, xususan, dinamik yondashuvdan foydalanish shuni ko‘rsatmoqdaki, moliya bozorlarida sodir bo‘layotgan voqeyliklar yangicha talqin etilishi, aynan entropiya[127] , tasodifiylik va shu kabi jarayonlarning zarurligi hamda qaytarilmasligi kabi kategoriyalarning difinitsiyasi mohiyatan o‘zgarishiga omil bo‘layotganligi kuzatilmoqda.

Hozirda moliya bozorida kuzatilayotgan vaziyat uning turli segmentlarida tarkibiy nomutanosibliklar mavjudligini ham namoyon etmoqda. Shu nuqtai nazardan, moliya bozorining ajralmas uzviy tarkibiy qismi bo‘lgan sug‘urta bozorida taklif etilayotgan xizmatlar sifati va qamrovi muayyan subyektlar, ya’ni, sug‘urtalanuvchilar (mol-mulk, hayot, sog‘liq va boshqa

[127]Entropiya (yun.- aylanish, o‘zgarish-noaniqlik darajasi) –tarjima muallifniki. Manba:Безупречность хаоса: что такое энтропия и как жить в полной неопределенности. //https://www.forbes.ru /forbeslife/482498.

manfaatlarni sug‘urtalashdan manfaatdor subyektlar va jismoniy shaxslar) va sug‘urtachilar (sug‘urta shartnomalarini rasmiylashtirgan sug‘urta tashkilotlari) o‘rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadi. Mazkur bozorning asosiy subyektlaridan biri hisoblanadigan sug‘urta kompaniyalari faoliyati samaradorligi risk va uning komponentlarini aniqlash, baholash, sug‘urta biznesi tamoyillariga mosligini hisobga olish bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda ortadi.

Ushbu tadqiqot doirasida sug‘urta kompaniyasining risklari bilan bevosita bog‘liqlikda kechadigan jarayonlar aniqlashtiriladi, unga ta’sir etuvchi omillarning tahlili amalga oshirilishi asnosida rivojlantirish istiqbollariga daxldor takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida risk va uning komponentlariga daxldor mohiyatan to‘liqroq tushunchalarga ega bo‘lish, o‘z navbatida, risklarni samarali boshqarish imkoniyatini oshiradi. G.P.Fomin, I.V.Bikova, S.V.Vorobyov, S.A.Ivanova va boshqalarning asarlarida “...risklarning mazmun-mohiyati va tasnifi...”[3] ko‘rib chiqilgan. V.A.Akimov va Yu.I. Sokolov, D.A.Mixaylovskiy va boshqalarning ilmiy ishlanmalarida “...risklarni baholash usullarining o‘ziga xos xususiyatlari...”[4] o‘z aksini topgan.

T. Makning ishlanmalarida taklif etilgan risk turlari e’tiborga molikdir. Uning yondashuviga ko‘ra, “...quyidagi asosiy risk turlari ko‘rsatilgan:

*tasodifiy risk* (jami yo‘qotishlar nodeterministikligi ehtimoli bois, matematik kutilma atrofida umumiy yo‘qotish(zarar)ning mutlaq faqlanishi (tarqalishi) portfel hajmi bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi. Shu bois, portfelning yakuniy hajmini mutlaq aniqlik bilan prognozlash mumkin emas);

*baholash riski* (matematik kutilmaning og‘ishish ehtimoli muayyan bir risk va bir portfel uchun taxmin qilingan jami yo‘qotish statistik ma’lumotlar asosida aniqlanadi);

*prognoz riski* (o‘tmishdagi tasodifiylik qonuniyatining, masalan, inflyatsiya tufayli, yaqin kelajakda qisman o‘zgarishi ehtimoliga asoslandi);

*ahloqiylik riski* (zarar ko‘rilishi jarayonida sug‘urtalangan shaxs zarar ko‘lami va hajmiga ta’sir ko‘rsatishi ehtimoliga asoslanib hisoblanadi)”[5].

Bizning fikrimizcha, T.Makning ilmiy ishlanmalarida “...muayyan sug‘urtachining portfeliga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, odatda texnik deb tavsiflanuvchi risklar...”[6] birmuncha batafsil bayon etilgan. Uning tomonidan nafaqat sifat tavsifi, balki miqdor o‘lchovi ham taklif etilgani ushbu tasnifning amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshirgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.Mirsodikov, X.Shennayev, T.Baymuratov, I.Abduraxmonov, S.Sherov va boshqalar bugungi kunda “...sug‘urta kompaniyasi risklari va ularning komponentlariga daxldor...”[7] tadqiqotlarni olib borishmoqda, shuningdek, “...biznes-jarayonlarning muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi aynan risk omillar tahlili...” [7] bilan shug‘ullanishmoqda.

**Tahlil va natijalar.**

Risklarni klassik, neoklassik, gibrid va neyroiqtisodiy risk nazariyalari asosida tizimli o‘rganish jarayoni risk tushunchasining ko‘p qirrali va murakkab tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Klassik yondashuvda risk asosan noaniqlik va ehtimollik bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda kutilayotgan foyda va ehtimoliy yo‘qotishlar o‘rtasidagi nisbat asosiy mezon sifatida qaraladi. Neoklassik nazariya esa riskni subyektiv baholash, ya’ni qaror qabul qiluvchining foyda funksiyasi va riskka nisbatan munosabati orqali tahlil qiladi. Gibrid yondashuv ushbu ikki qarashni birlashtirib, nafaqat matematik va statistik omillarni, balki institutsional, tashkiliy va xulq-atvor jihatlarini ham hisobga oladi. Neyroiqtisodiy yondashuv esa riskni inson miyasi faoliyati, hissiyotlar va psixologik reaksiyalar bilan bog‘lab, qaror qabul qilish jarayonidagi irratsional omillarni ham ochib beradi.

Mazkur nazariyalar asosida olib borilgan tizimli tahlil risklarning umumiy va maxsus komponentlari o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi. Umumiy risk komponentlariga makroiqtisodiy beqarorlik, siyosiy omillar, bozor kon’yunkturasi va global

tendensiyalar kiradi, ular barcha subyektlar faoliyatiga umumiy ta’sir ko‘rsatadi. Maxsus risk komponentlari esa muayyan loyiha, tarmoq yoki korxona faoliyatiga xos bo‘lib, texnologik, moliyaviy, boshqaruv va operatsion xatarlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, umumiy risklar maxsus risklarning kuchayishiga yoki kamayishiga ta’sir qiladi, aksincha, maxsus risklar ham umumiy risk muhitining shakllanishiga ma’lum darajada hissa qo‘shadi. Shu bois risklarni samarali boshqarish uchun ularni kompleks, tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida o‘rganish zarur hisoblanadi(1-rasm).




***1-rasm.*** **Risk komponentlarining o‘zaro aloqadorligi[128]**

Shunga asoslanib, maxsus risklarni tavsiflaydigan bo‘lsak, ularning quyidagi turlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi turi:

- *baholash riski*, sug‘urta portfelini tavsiflovchi asosiy matematik miqdorlarni baholashda xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli;

- *prognozlash riski*, prognoz qilingan qiymatlarning o‘zgarishi ehtimoli (qabul qilingan xatolikka nisbatan sezilarli yoki ma’lum bir standart) og‘ishish;

- *anderrayter riski*, risk antiseleksiyasi jarayonida sug‘urtachining javobgarlik hajmi ortishi hisobiga yo‘qotish(zarar) ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi turi:

- *kredit riski*, sug‘urtachining qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foiz stavkasi, kontragentlar va boshqa debitorlarning moliyaviy holati bilan bog‘liq vaziyatning salbiy o‘zgarishi oqibatida yo‘qotish (zarar ko‘rish);

- *bozor riski*, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy instumentlar qiymatining o‘zgarishi va o‘zgaruvchanligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan vaziyatdagi salbiy o‘zgarishlar tufayli yo‘qotish(zarar ko‘rish);

- *likvidlik riski* aktivlar qiymatining keskin pasayishi sababli investitsiya aktivlarini obligatsiya aktivlariga konvertatsiyalashga vaqtincha qobiliyatsizlik yuzaga kelishi ehtimoli

[128]Muallif tomonidan bir qator ilmiy ishlanmalarning sintezi sifatida ishlab chiqilgan, xususan, Risk management standard// The institute of risk management: Acrobat Reader. URL: http://www.theirm.org/publications/documents/Risk _Management_Standard_030820.pdf.; Вяцкова Н.А. Классификация методов анализа и оценки рисков.// C:/Users/Lenova/Downloads/klassifikatsiya-metodov-analiza-i-otsenki-riskov20(2).pdf.; Шапкин А.С. Теория риска и моделирование рисковых ситуаций / А.С. Шапкин, В.А. Шапкин. --М.: Дашков и Ко, 2005.- 880 с. va boshqa.

tarzida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi turi:

-*operatsion risk*, xodimlar tanlovi to‘g‘ri amalga oshirlmaganligi hamda ichki tizim nosozligi yoki tashqi omillar ta’siri ostida yo‘qotish(zarar ko‘rish) ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchi turi:

- *konsentratsiya risk*, tahdidlar soni ortishi yoki sug‘urtachi va qayta sug‘urtachining risk transformatsiyasi jarayonidagi kombinatsiyasi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotish(zarar ko‘rish);

- *reduksiya riski*, ortiqcha riskni transformatsiyaga yo‘naltira olmaslik oqibatida yo‘qotish(zarar ko‘rish);

- *diversifikatsiyalash riski*, portfelning inertligi va uni muvozanatlash uchun operatsion choralar ishlab chiqilmaganligi tufayli yo‘qotish(zarar ko‘rish) ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi.

Biroq, mavjud o‘ziga xos biznes modellarining barchasi umumiy tizimli risk, jumladan:

- bozorda yangi o‘yinchilarning paydo bo‘lishi oqibatida kadrlar raqobati;
- tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan risk;
- soliq tartibotining barqaror emasligi riski;
- bozor konyunkturasi noqulayligi riski;
- bozor konsentratsiyasi riski;
- tarmoqlararo hamkorlikning samarasiz rivojlanishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risk;
- boshqa risk omillari ta’siri ostida bo‘lishi kuzatiladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu muammoni hal qilishning eng ustuvor usuli sug‘urta kompaniyasini boshqarish amaliyotida keng qo‘llaniladigan va faoliyatning asosiy jihatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich asosida risklar tasnifini ishlab chiqish hisoblanadi. Shunday tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan biri kombinatsiyalashgan koeffitsiyent yoxud kombinatsiyalashtirilgan sug‘urtaning natijadorligiga asoslanadi.

Bu ko‘rsatkich turli sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida sug‘urta bozoridagi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek umumiy sug‘urta turlari hamda ularning aktiv va majburiyatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan qat’iy nazar, ularni o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. Bu o‘rinda, muayyan hisoblash metodlaridan biri quyidagi ko‘rinishda taqdim etilishi mumkin:

$$COMBR = (LL - QR) + \left(\frac{AE}{CP}\right) + \left(\frac{DC}{EP}\right) \qquad (1).$$

Bu o‘rinda, *COMBR* – sug‘urta bo‘yicha kombinatsiyalashgan natija;

*LL* – zararlilikni baholash;

*QR* – qayta sug‘urtachining ulushi;

*AE* - akvizitsion (sotib olish) harajatlar;

*CP* – hisoblangan mukofot;

*DC* – bevosita xarajatlar;

*EP* - ishlab topilgan mukofot.

Shunday qilib, bizning nazarimizga ko‘ra, yuqorida keltirilgan formulaning tarkibiy qismlari sifatida kombinatsiyalashgan natijani sug‘urta kompaniyasining asosiy pul oqimlari shaklida quyidagicha talqin etish mumkin (2-rasm):

$$\textbf{\textit{COMBR = (I) + (II) + (III),}} \ (2)$$

Bu o‘rinda I, II, III - birinchi, ikkinchi va uchinchi tartibdagi pul oqimlari (tartib ustuvorligiga) mos ravishda belgilanadi.

Shartli ravishda sug‘urtachi - sug‘urtalanuvchi, sug‘urtachi - qayta sug‘urtachi o‘rtasida quyidagi:

- *ustuvor tartibdagi* (sug‘urtachi va vositachilar o‘rtasidagi);
- *ikkinchi tartibdagi* (sug‘urtachi va sug‘urta faoliyatida vositachilik qiluvchi boshqa

subyektlar o‘rtasidagi);

- *boshqa pul oqimlari* kuzatilishi mumkin.




Shartli belgilar : - risk bo‘yicha vositachi subyektlar
- pul oqimlari;
- risklarning qoplama ta’motiga transferi.

***2-rasm.* Sug‘urta riski va pul oqimlari harakati[129]**

Risklarni aniqlash, baholash va muayyan qarorni qabul qilish jarayonida risklarga vositachilik qiluvchi subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan pul oqimlariga nisbatan aniq manbalar belgilab qo‘yilishi talab etiladi.

Shartli ravishda sug‘urtachi - sug‘urtalanuvchi, sug‘urtachi - qayta sug‘urtachi o‘rtasida quyidagi:

- *ustuvor tartibdagi* (sug‘urtachi va vositachilar o‘rtasidagi);
- *ikkinchi tartibdagi* (sug‘urtachi va sug‘urta faoliyatida vositachilik qiluvchi boshqa subyektlar o‘rtasidagi);
- *boshqa pul oqimlari* kuzatilishi mumkin.

Risklarni aniqlash, baholash va muayyan qarorni qabul qilish jarayonida risklarga vositachilik qiluvchi subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan pul oqimlariga nisbatan aniq manbalar belgilab qo‘yilishi talab etiladi.

Risklarni boshqarish jarayonini iqtisodiy hisoblash usuli sifatida aktualizatsiyalash uchun uning miqdorini aniqlash hamda ushbu risklarga vositachilik qiluvchi subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan pul oqimlariga nisbatan manbalarni aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Bizning fikrimizcha, risk hodisasi ehtimoli va uning oqibatlari kombinatsiyasi sifatida turli operatsiyalar jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan natijaga ko‘ra, pul oqimlari hajmi va ularning davriyligi o‘zaro farqlanishi mumkin. Shu o‘rinda muayyan risk va uning oqibati sug‘urta kompaniyasi bilan sug‘urta bozorining boshqa subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasi aniqlashtirilishiga ham bog‘liqligi kuzatiladi.

Bu o‘rinda tizimli tarzda kechayotgan o‘zaro bog‘liqlikning quyidagi 3(uch)ta asosiy darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin:

[129]Muallif tomonidan bir qator ilmiy ishlanmalarning sintezi sifatida ishlab chiqilgan, xususan, Хуторянский А.С. Формирование профессиональных компетенций работников по управлению рисками в страховых компаниях Специальность: 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (специализация – Экономика труда) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2009. -24 с. va boshqa.

*birinchi daraja* - bu bir martalik bitim: risk sug‘urtachi va uning transferi(transformatsiyasi)ga vositachilik qiluvchi boshqa subyekt o‘rtasidagi bir martalik o‘zaro kelishuv zamirida yuzaga keladi (bu jarayon umumiy shartlarni nazarda tutuvchi standart shartnoma rasmiylashtirilishi bilan tavsiflanadi).

*ikkinchi daraja* - shunga o‘xshash bitimlar to‘plami: risk tomonlar o‘rtasida doimiy ravishda bir nechta bir xil yoki o‘xshash munosabatlar zamirida yuzaga keladi (bu o‘rinda, yana-da samarali boshqarish va boshqa biznes jarayonlariga nisbatan aynanlik ta’minlanishi uchun umumiy shart-sharoitlarni nazarda tutgan standart shartnomalar oqimi mavjudligi bilan tavsiflanadi);

*uchinchi daraja* – bu bir necha bitimlar to‘plami: risk sug‘urtachi va boshqa subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro tizimli munosabatlar zamirida yuzaga keladi (bu jarayonda standart shartnomalar rasmiylashtirilishi bilan birga, ularning funksionalligini ta’minlashning o‘ziga xos tarzda farqlanuvchi boshqa bitimlar mavjudligi bilan ham tavsiflanadi). Pirovardida, aynan qoplama to‘lovlari va pul oqimlari nazorati talab etiladigan, boshqa shunga o‘xshash operatsiyalar to‘plamlaridagi pud oqimlari hisobidan ta’minlanishi nazarda tutiladi).

Bu jarayonda risklarning o‘zaro bog‘liqlik darajasiga ko‘ra asosiy tip va turlarini aniqlashtirish mumkin (3-rasm).




***3 -rasm.*** **Risklarning o‘zaro bog‘liqliklariga ko‘ra asosiy tip va turlari** [130]

Ushbu aktual va differensial tasnifiga ko‘ra, umumiy va o‘ziga xos guruhlarga ajratilgan risklar, tadqiqotning oldingi o‘rinlarida ko‘rib chiqilgan yondashuvlarda o‘z aksini topmagan. Sug‘urtada ko‘p sonli sug‘urta obyektlari yoki katta miqdordagi sug‘urta summasiga ega bo‘lgan bir qator obyektlarga bir sug‘urta hodisasi bo‘yicha ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan (toshqin, bo‘ron, zilzila va boshqa) risklar to‘plami mavjud bo‘lib, uning oqibatida katta yo‘qotish ehtimoli yuzaga kelishi mumkin. Kumulyatsiya, shuningdek, 1 (bir) obyekt uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Risklar transformatsiyasida esa, kumulyatsiya sug‘urta kompaniyasi bir xil risklarni o‘zida qamrab olgan bir qator qayta sug‘urtalash va retrotsessiya shartnomalaridagi ishtiroki jarayonida sodir bo‘lishi mumkin.

Kumulyatsiya, shuningdek, 1 (bir) obyekt uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Qayta

[130]Muallif tomonidan bir qator ilmiy ishlanmalarning sintezi sifatida ishlab chiqilgan, xususan, Risk management standard// The institute of risk management: Acrobat Reader. URL: http://www.theirm.org /publications/documents/Risk_Management_Standard_030820.pdf.; Томас Мак. Математика рискового страхования. М.: Олимп-Бизнес, 2008. 418 с. va boshqa.

sug‘urtalashda esa, kumulyatsiya sug‘urta kompaniyasi bir xil risklarni o‘zida qamrab olgan bir qator qayta sug‘urtalash va retrotsessiya shartnomalaridagi ishtiroki jarayonida sodir bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi tizimli termin va kategoriyalarning toifalariga qisqacha tavsif berish maqsadga muvofiqdir:

*risklar kumulyatsiyasi* - bu “...bir sug‘urta hodisasining qator sug‘urtalangan obyektlarga, masalan, tabiiy ofatlarda sezilarli yo‘qotishlarga olib keladigan risklar to‘plamini anglatadi”[8]. Kumulyatsiya 1(bir) obyekt uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Risklar transformatsiyasida esa, “...kumulyatsiya sug‘urta kompaniyasi bir xil risklarni qarab olgan bir qator qayta sug‘urtalash va retrotsessiya shartnomalarida ishtirok etgan sharoitda sodir bo‘lishi mumkin”[131].

*kumulyativ risk summasi* – bu qator obyektlarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan risklar to‘plami bo‘lib, bir xil sug‘urta hodisasi oqibatida sug‘urtalangan obyektlarga yetkazilgan katta sug‘urta summasini anglatadi;

*davriy risk kumulyatsiyasi* - bu ko‘p sonli yoki sezilarli sug‘urta summasiga ega bo‘lgan bir qator sug‘urtalangan obyektlarga ma’lum davriy oraliqda bir xil sug‘urta hodisasi tarzida namoyon bo‘ladigan yaxlit risklar to‘plami ta’sir qilishi oqibatida yo‘qotish pretsedenti paydo bo‘lishidir;

*risk reduksiyasi* – bu “...riskni boshqarishda turli ta’sir choralar, xususan maqbul darajada diversifikatsiya, xedjlash yoki sug‘urta riskni pasaytirish yoki minimallashtirish orqali zarar ko‘rish ehtimolini yoki uning potensial miqdorini kamaytirish jarayonidir”[8];

*riskning xududiy konsentratsiyasi* - sug‘urta kompaniyasining turli mintaqaviy tarkibiy bo‘linmalari portfellarida bir turdagi sug‘urta risklari to‘plamidir;

*translyatsiya qila olmaslik riski* - sug‘urtachi va qayta sug‘urtachining sug‘urta qoplamasi o‘rtasidagi tafovut tufayli risklarni o‘tkaza olmaslik nazarda tutilmoqda;

*transfer riski* - bu jarayonda sug‘urta operatsiyasining rentabellik chegarasi pasayishi yuzaga keladi. Xususan, katta summadagi sug‘urta shartnomasi riskini baholashning murakkabligi, uning qiymati sug‘urtachining risk transformatsiyasi operatsiyalari bo‘yicha rentabellik chegarasini belgilash shartlariga javob bermasligi bilan izohlanadi. Shunga ko‘ra, risklar transferi va transformatsiyasida nafaqat rentabellik, balki, sug‘urta (qayta sug‘urta) portfelining ham ishonchliligi sezilarli darajada pasayishi kuzatilishi mumkin;

*javobgarlikni taqsimlash riski* - bu sug‘urta kompaniyasi va qayta sug‘urtachining risklar transferi va transformatsiyasi portfellari balansini optimallashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatda paritetga mos taqsimotga ko‘ra, kutilishi ehtimoli bo‘lgan risk;

*rentabellik pasayishi riski* - bu sug‘urta operatsiyalari samaradorligi pasayishi hisobiga yuzaga kelishi mumkin, bu holat, uzoq muddatli istiqbolda, risk transformatsiyasi muayyan darajadagi ishonchlilikni ta’minlashga qaratilganligi bilan izohlanadi, unga mos tarzda yo‘qotish(zarar ko‘rish) past darajada bo‘lishi, pirovardida umumiy rentabellik pasayishiga omil bo‘lgan hollarda namoyon bo‘ladi;

*qayta sug‘urtalash antiseleksiyasi riski* – bu “...subyektiv risk hisoblanadi”[132] va u yangi portfellarni shakllantirish (innovatsion mahsulotni joriy etish, yangi bozorga chiqish va shu kabi) jarayonlarda, shuningdek, risk anitseleksiyasida sug‘urta kafolatini baholashdagi noaniqlik va muayyan minimal zaxiralarni jadal tashkil qila olmaslik oqibatida yuzaga kelishi mumkin;

*risk diversifikatsiyasi* – sug‘urtalangan (qayta sug‘urtalangan) 1(bir) risk hodisasidan katta yo‘qotish(zarar)ga yo‘l qo‘ymaslik uchun uni kichik qismlarga bo‘lishda yuzaga keladi;

*sug‘urta portfeli diversifikatsiyasi risklari* – “...sug‘urtachi portfelining tarkibiy inertligi

[131]Словарь страховых терминов. //https://www.insur-info.ru/dictionary/1006/.

[132]Sug‘urtaning asosiy tamoyili yetkazilgan zararlar uchun qoplama (kompensatsiya) to‘lanishi hisoblanadi, shu bilan birga u boyitishga yo‘naltirilmaganligiga ko‘ra, sug‘urta himoyasining haddan tashqari yuqori darjada belgilanishi subyektiv risk oshishiga omil bo‘ladi – izoh muallifniki. //Антиселекция/субъективнқй риск. //https://www.genre-manuals.com/ru_fin_anti-selection.htm.; Токарева Е.А.Особенности и проблемы рынка страхования рисков природных катастроф. // https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-i-problemy-rynka-strahovaniya-riskov-prirodnyh-katastrof.

oqibatida uning balanslashuvini tezkor rejalashtirish imkoniyati mavjud emasligi” [133] oqibatida yuzaga keladi;

*qayta sug‘urta portfeli diversifikatsiyasi risklari* – majburiy (obligator)[134] himoyasining yetarli emasligi, qayta sug‘urtachi tomonidan majburiyat bajarilmasligi, risklar transformatsiyasi bozoridagi siyosatning farqlanishi, o‘zaro hamkor subyektlar o‘rtasida kafolatli himoya taqsimoti to‘g‘ri emasligi tufayli qayta sug‘urta vositasidagi himoya samaradorligi pasaytirish oqibatida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotish(zarar) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu bozor sig‘imi risk transformatsiyasiga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojga mos emasligi oqibatida sug‘urtachilar obligatsiya kreditlari va hosilaviy moliyaviy instrumentlaridan foydalanish maqsadida faoliyatlarini kapital bozoriga yo‘naltiriganliklari ham kuzatilmoqda

*tranzaksiya riski* – bir martalik operatsiyalarda huquqiy oqibatlar va kechiktirilgan to‘lovlar ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi;

*hisob-kitoblar va kliring riski* (ingl. slearing -ravshanlashtirish) - o‘zaro hisob-kitoblar tizimi, shu jumladan, “...tarmoq operatsiyalar samarali tashkil etilmaganligi sababli, muayyan davriy oraliqda majburiyatlarni bajara olmaslik ehtimoli...”[9] oqibatida yuzaga keladi;

*kanal(bozor)ning monopollashuv riski* - bu sug‘urta mahsulotlarini sotish uchun ma’lum bir savdo kanali yoki ma’lum bozorni monopollashtirish natijasida sotib olish xarajatlari narxining oshishi ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi;

*o‘zaro duch biznes riski* - bu sotib olishning o‘zaro duch biznes shaklida o‘sishi (bu o‘rinda alohida keltirib o‘tish o‘rinliki, biznesning keltirilgan shakli past rentabillik stavkalariga ega ekanligi) hisobiga sug‘urta operatsiyalari rentabelligi pasayishi ehtimoliga ko‘ra yuzaga keladi;

*tashkiliy va jarayonga moslashish riski* – bu bir martalik operatsiyalarni amalga oshirishda tashkiliy tuzilmani yaratish va biznes jarayonlarini amalga oshirishda xatolar ehtimoli tarzida yuzaga keladi;

*investitsiya riski* - investitsiya aktivlari qiymatining pasayishi ehtimoliga ko‘ra kuzatiladi;

*firibgarlik riski* - sug‘urta kompensatsiyasi hisobiga noqonuniy boyish maqsadida sug‘urta shartnomasiga nisbatan sug‘urtalanuvchi tomonidan firibgarlik harakatlarining ehtimoliga ko‘ra yuzaga keladi;

*sug‘urtachi biznesi* – bu birinchi navbatda, sug‘urta faoliyatini amalga oshirish, sug‘urta mahsulotlarini yaratish va mijozlar bilan ishlash jarayonidir.

Sug‘urta bozorida raqobat, qoida tariqasida, muayyan kompaniyalarning to‘lov qobiliyati, sohani tartibga solishga qaratilgan davlat siyosati bilan uzviy bog‘liqlikda raqobatchi subyektlarning sa’yi-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Shu keltirib o‘tish lozimki, “...sug‘urta sohasini o‘zlashtirish, ayniqsa, yirik moliya institutlari uchun murakkab emas, chunki tarqatish (sotish) kanallariga kirishning osonligi, o‘z navbatida, raqobat kuchayishiga omil bo‘ladi. Bu jarayonda o‘z-o‘zidan ayonki, sug‘urtachilar mahsulot(xizmat)larni standartlashtirishlari va mijozlarini qator moliyaviy xizmatlar bilan o‘zaro tizimli bog‘lashlari raqobatni rag‘batlantiradi”[10].

Bu o‘rinda bizning nazarimizga ko‘ra, raqobat muhitida (sug‘urta bozori yuqori darajada raqobatbardosh, yetakchi o‘yinchi - subyektlar uchun nisbatan imtiyozli bo‘lgan sharoitlarda) muayyan kompaniya o‘z o‘rnini topishi nuqtai nazaridan e’tiborga molik quyidagi:

---

[133]Bu o‘rinda, inertlik iqtisodiyotdagi haqiqiy pozitsiyalarni idrok etishga nisbatan reaksiyaning kechikishi anglaniladi – izoh muallifniki. /.Qarang, Решетов В.В., Пестов В.Ю. Проявление инертности в принятии решений при обеспечении конкурентных преимуществ // Экономинфо. 2024. Т. 19, № 3. С. 78-87.

[134]Majburiy (obligatorli) qayta sug‘urta – sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) foizda yoki mutlaq qiymatda ifodalangan risklarning muayyan bir qismini qayta sug‘urtaga o‘tkazish majburiyatini olgan sug‘urta kompaniyasining qayta sug‘urta himoyasini tashkil etish shakllariga muvofiq qayta sug‘urtachi riskning mos qismini oldindan kelishilgan holda qabul qilish majburiyatini olagan shartlarda amalga oshiradi – izoh muallifniki.//Словарь страховых терминов //https://bsoinsur.ru /glossary/slovar/.

- *eng yaxshi mahsulot* (bunga mahsulotning investitsiya komponenti, uning dolzarbligi, sifati va boshqa shu kabi xususiyatlari kiradi). “Potensial iste’molchi yangi mahsulot afzalliklarini ko‘radigan tarzda, ya’ni maxsus sifat xususiyatlari bilan raqobatchilarning o‘xshash mahsulotlari xususiyatlaridan imiji ajralib turadigan tarzda shakllantirilishi talab etiladi”[11].
- *operatsion mukammallik* (bu eng yaxshi natijalarga erishish yo‘lida biznesni boshqarish jarayonlari va tizimlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan asosdir);
- *mijozlarga yo‘naltirilganlik* – mijozga yaqinlik kabi asosiy saboqlarga e’tiborini qaratishi maqsadga muvofiqdir.

Bu jarayonda yetakchi subyektlardan faqat ayrimlari bir davriylikda yuqorida keltirib o‘tilgan saboqlarni qamrab olishlari bilan bir vaqtning o‘zida zarur resurslarni ham jalb etishlari muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ushbu muhitda aktivlarni boshqarishning samarali emasligi, mijoz mablag‘ini yo‘qotishi holatiga yo‘l qo‘yilishi, o‘z navbatida, operatsion mukammallik va uning mijozga yo‘naltirilganligini yo‘qqa chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya raqamlashtirishga qaraganda birmuncha kengroq tushunchadir. U nafaqat mavjud biznes jarayonlari avtomatlashtirilishni, balki ularni transformatsiyalash, xususan, boshqaruv tizimi va madaniyati, faoliyatga yondashuv, ayrim holatlarda operatsion modelni va hatto tashkiliy tuzilma ham o‘zgartirilishini o‘z ichiga olishi zarur. Funksional standart texnologiyalar tizimli emasligi sharoitida raqamli transformatsiya yangi jarayonlar va yondashuvlarga mos kelishi talab etilmoqda.

Biroq, maqsadli IT landshaftlarini loyihalash jarayonida e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan asosiy tamoyillar. Bozor nobarqarorligi va muhit o‘zgaruvchanligi sharoitida biznesni jadal tarzda qayta qurish zarurati yuzaga keladi. “Mohiyatan xuddi mantiqiy yondashuv asosida kublarni jamlash singari kutilayotgan muammo va trendlarga tezkorlik bilan moslashuv talab etiladi. Bunday moslashuvchanlik, texnologik nuqtai nazardan, mikroservis arxitekturasi va funksional biznes qobiliyati(Packaged Business Capabilities)ga asoslangan holdagi maxsus loyihalash zamirida ta’minlanadi” [135].

O‘tkazilgan so‘rovnomalarning natijalariga ko‘ra, hozirda sug‘urta kompaniyalarining yarmidan ko‘pi (54%) raqamli transformatsiyani yashab qolish imkoniyati, deb qarashsa, 84% respondentlar esa, aynan transformatsiya keyingi 5-7 yilda faoliyatning zaruriy shartiga aylanishini ta’kidlashmoqda. Ammo shunga qaramasdan, 53 %. kompaniyalar o‘zlarining istiqbolga mo‘ljallangan rejalarida transformatsiyani e’tibordan chetda qoldirganliklarini ham keltirib o‘tish lozim. Bizga ma’lumki, “...raqamli texnologiyalar sug‘urta faoliyatiga turli yo‘llar bilan kirib kelishi mumkin. Bu jarayonda sug‘urta sohasida internetlashtirish, raqamlashtirish yoki individualizatsiya kabi omillarni samarali qo‘llash katta ma’lumotlar (ingl. big data)” [12], internet va sug‘urta tariflari takomillashuvida yangi yondashuvni belgilaydigan tendensiya hisoblanadi.

Bugungi kundagi bir tomondan, texnologik taraqqiyot sug‘urta bozoriga optimal darajadagi funksional instrumentariylar tezkorlikda joriy etilishiga omil bo‘layotgan bo‘lsa, boshqa tomondan, bu jarayonda sun’iy intellektning jadal rivojlanishi, o‘z navbatida, samarali raqamli transformatsiyadan jamiyatning keng jabhali hayotida, shu jumladan, sug‘urta sohasida ham keng ko‘lamli darajada foydalanish imkoniyatini oshirmoqda

**Xulosa.**

Hozirda jadal kechayotgan globallashuv jarayonida sug‘urta kompaniyalari faoliyatining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlaridan biri - kombinatsiyalashgan koeffitsiyent asosida pul oqimlari maksimal darajada hisobga olinishini ta’minlashi nuqtai nazaridan, aynan, muayyan risklarni aniqlash, identifikatsiyalash, baholash, hisobga olish va tizimli boshqarishning samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

***birinchidan,*** muayyan risklarni aniqlash, identifikatsiyalash, baholash, hisobga olish va tizimli boshqarishda sug‘urta kompaniyasi sug‘urta bozori subyektlari va sug‘urta faoliyatiga

[135]Страховой рынок в 2024 году: 85% позитива. // https://raexpert.ru/researches/insurance/ins_2024/.

vositachilik qiluvchilar bilan munosabatlarni rivojlantirishning har bir bosqichida turli tavsifdagi risklarga duch kelayotganligi kuzatilmoqda;

***ikkinchidan,*** riskka moslashishda uning yuzaga kelishiga omil bo‘ladigan tahdidli hodisalarga daxldor ma’lumotlar bazasining shakllantirilganligi va qamrovi oshirilib borilayotganligi muhim hisoblanadi. Bu jarayonda noaniqlik yoki chalkashliklar obyektiv sabablarga ko‘ra, risk rivojlanishiga omil bo‘lishiga ko‘ra, bunday vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlash zarurati ortadi. Shu jarayonda ma’lumotlar bazasining qamrovi kengligi risklarni bartaraf etish va vaziyatni barqarorlashtirishning muhim shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda;

***uchinchidan,*** kompaniya biznes jarayonlarida risklarning tipologik belgilariga asoslangan holda umumiy risklarning tavsif belgilari o‘z aksini topgan yondashuvlarda, aynan risklarning miqdoriy o‘lchovlari o‘z ifodasini topmaganligi, taklif etilgan tasniflarning amaliy ahamiyati pasayishiga omil bo‘lganligini keltirib o‘tish o‘rinlidir;

***to‘rtinchidan,*** maxsus (o‘ziga xos) risklarlarga daxldor yondashuvlar, ularni boshqarish nuqtai nazaridan, eng moslashgan hisoblanadi. Ular nafaqat risklarni tasniflash va ularni boshqarish usullarini, balki miqdoriy o‘lchash usullarini ham o‘zida aks ettirganligi e’tiborga molik hisoblanadi;

***beshinchidan,*** sug‘urta kompaniyasida boshqarish jarayonlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan maxsus (o‘ziga xos) risklarga berilgan tasniflarning kamchiliklari shundaki, ularda risklarning alohida belgilariga e’tibor qaratilgan holda, ularda biznesning turli segmentlariga tahdid solishi mumkin bo‘lgan risklar yaxlitlikda o‘z aksini topmaganligi kuzatiladi. Bizning nazarimida bunday holda, tizimni samarali boshqarish uchun barcha tahdidlarning murakkab ta’sirini hisobga olish va ularning yuzaga kelish ehtimoli, subyektlar biznesiga ta’siri va umuman butun sug‘urta tizimining ishonchliligini oqilona aniqlashtirish zarurati ortadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan xulosalarga asoslanib, biznes samaradorligini oshirish maqsadiga yo‘naltirilgan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishida risklarning asosiy tavsnif belgilarini aniqlashtirish yuzasidan quyidagi takliflar shakllantirildi, xususan:

*muvofiqlik tamoyiliga rioya etilishi* (bu o‘rinda, sug‘urtachi va sug‘urta faoliyatiga vositachilik qiluvchi hamda riskka duch kelishi ehtimol bo‘lgan sug‘urtalanuvchi (mijoz) o‘rtasidagi aloqalar tizimli qarab olinishi nazarda tutilmoqda);

*miqdoriy baholash va rejalashtirish modellariga mos bo‘lishi* (...baholash tizimlari “ishonchli kompaniya” kategoriyasiga asoslanishi, noaniqlik va risk sharoitida yuqori darajadagi funksionallikni namoyon etishi nazarda tutilmoqda”[13]);

*faoliyatdan olingan ko‘rsatkichlarining taqqoslanishi ta’minlanishi* (bu o‘rinda, sug‘urta kompaniyasining rivojlanishi va tashqi bozorga integratsiyasi ko‘rsatkichlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) uchun dolzarb bo‘lishi kerakligi nazarda tutilmoqda);

*kompaniyaning boshqaruvi axborotlilik, ishonchlilik va samaradorlik tamoyillariga javob berishi* (bu o‘rinda, “...axborotlilik obyektivlik, haqiqiylik, to‘liqlik, aniqlik, tarkibiy muvofiqlik, prognozlilik...”[14] nazarda tutilmoqda).

Biznes samaradorligini oshirish maqsadiga yo‘naltirilgan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishida dinamik yondashuvni qo‘llash, pirovardida, fuksionallik zamirida moliya, shu jumladan, sug‘urta bozorlarida kuzatilayotgan jarayonlarda entropiya, tasodifiylik, zaruriylik va orqaga qaytarilmaslik tamoyillari yangicha talqinda qo‘llanishi zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bizning fikrimizcha, biznes jarayonlarida turli operatsiyalar amalga oshirilishi paytida risk hodisasi ehtimoli va uning oqibatlari kombinatsiyasi yuzaga kelishi natijasida pul oqimlari hajmi va ularni bajarish davriyligi o‘zaro farqlanishi mumkin. Hozirgi kundagi vaziyat umuman moliya, shu jumladan, sug‘urta bozrlarining turli segmentlarida tarkibiy nomutanosibliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu jarayonda shakllanayotgan risk tipologiyasining asosini muayyan bozorda sug‘urta kompaniyasining boshqa subyektlar bilan o‘zaro bog‘liqlik darajasi aniqlashtirilishi talab etilishi, o‘z navbatida, mavzu doirasidagi tadqiqotlarning dolzarbligini oshirmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мировой финансовый рынок и Россия (обзор 2021).Том 1: монография / Е. А. Звоновой, А. Г. Глебовой, -Москва: КноРус, 2022.- 223 с.; Ничкасова, Ю. О. Финансовый рынок и его роль в инвестиционном обеспечении экономики: монография / Ю. О. Ничкасова. - Саратов : Вузовское образование, 2020. - 319 с.

2. Гусева И. А. Финансовые рынки и институты: учебник и практикум для академического бакалавриата. М.: Юрайт, 2017. С. 13-17 (-347 с.).

3. Фомин Г.П., Сухорукова И.В., Мушруб В.А. Методы оценки операционных рисков в торговле // Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. - 2019. - № 5(107). - С. 156–162.; Быкова И.В. Операционные риски предприятия: понятия, источники, влияние человеческого фактора // Экономика и предпринимательство, № 6(29) 2012. С. 220–222.; Воробьева, Т.В. Управление рисками [Текст]: учебное пособие / Т.В. Воробьева //Томск: Изд-во Том. гос.архит.-строит. ун-та. – 2014. – С. 9.; Иванова С.А. Пути оптимизации законодательства, препятствующего возникновению несанкционированного овердрафта. // Право и государство: теория и практика. - 2021. - № 8. - С. 58–61.

4. Акимов В.А., Соколов Ю.И. Глобальные и национальные приоритеты снижения риска бедствий и катастроф / МЧС России. М.: ФГБУ ВНИИ ГО ЧС (ФЦ), 2016. -396 с.; Михайловский Д.А.. Развитие методов управления рисками торгового предпринимательства в условиях цифровой трансформации экономики Специальность 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (экономика предпринимательства) автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических. наук, Санкт – Петербург – 2022. -24 с

5. Томас Мак. Математика рискового страхования. М.: Олимп-Бизнес, 2008. - 418с.

6. Мирсадыков М., Садритдинов А. Страховой рынок Узбекистана: итоги и перспективы // Бозор, пул ва кредит. – Т.: 2009. № 2. 57-62 б.; Шеннаев Х.М. Проблемы становления страхового рынка в Узбекистане: Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. М., 1996.; Баймуратов Т.М. Суғурта фаолиятида рисклар трансфери: Монография. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2005. -196 б.; Абдурахмонов И.Х. Ўзбекистон Республикасида жавобгарликни суғурталашнинг амалиётини такомиллаштириш. 08.00.07 – “Молия, пул муомаласи ва кредит”: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация авторефератн. – Т.: 2010. – 20 б.;

7. Шеров С.Р. Суғурта институти ва уни инновацион ривожлантириш йўналишлари, 08.00.07 – “Молия, пул муомаласи ва кредит”, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Т.: 2019. -26 б.

8. Комлева Н.В. Кумуляция рисков страховых компаний. //Научный журнал Сервис PLUS,2012, 1, с.92-98.

9. Словарь страховых терминов. //https://www.insur-info.ru/dictionary/1006/.

10. Усоскин В.М., Белоусова В.Ю. Платежные системы и организация расчетов в коммерческом банке. НИУ ВШЭ, 2012, 192 с. //https://www.hse.ru/data /2013/03/20/1245776917/Belousova(jan).pdf.

11. Головань С.А. Управленческий аспект минимизации рисков страховой компании в контексте системы стратегического риск-менеджмента / С.А. Головань // Экономика и предпринимательство. – 2022. – № 12(149). – С. 1296-1301.

12. Михайлова Л. Н. Разнообразие страховых услуг сегодня // Экономический новостной журнал «Финансист». – 2019. – № 1. – С. 48–50.

13. Виктор Майер-Шенбергер, Кеннет Кукьер. Большие данные. Революция, которая изменит то, как мы живём, работаем и мыслим = Big Data. A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think / пер. с англ. Инны Гайдюк. – М.: Манн, Иванов, Фербер, 2014. -240 с.;

14. Золина, А. С. Проблемы страховых компаний в России и их решение на рынке

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

финансовых услуг // Молодой ученый. - 2020. - № 38 (328). - С. 62-64. - URL: https://moluch.ru/archive/328/73616/ (дата обращения: 07.05.2025).

15. Наровский И.В. Формирование системы оценки эффективности стратегического планирования организации в условиях неопределенности. // Прогрессивная экономика. 2024. № 8. С. 181–190.

16. Рязанов А.А. Основные принципы управления конкурентоспособностью социально-экономической системы. // Московский экономический журнал № 1, 2021. С.427 (С. 422-430).

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# KORXONANING STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMIDA BOZOR VA NARX STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

**Ismatillayeva Mehrinoz Fozilovna**

*iqtisodiyot yo‘nalishi,*
*1-bosqich magistranti*
*kechki ta’lim va magistratura fakulteti*
*Toshkent davlat iqtisodiyot umiversiteti*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqobat kuchayib borayotgan bozor sharoitida korxonalarning bozor pozitsiyasini mustahkamlash, narx siyosatini takomillashtirish va strategik qarorlar samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Maqolada bozor strategiyalarining segmentatsiya, maqsadli bozorni tanlash, pozitsiyalash va raqobat ustunligini shakllantirish kabi yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, narx strategiyalarining xarajatlarga asoslangan, qiymatga asoslangan va raqobatga yo‘naltirilgan modellari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini uyg‘unlashtirish korxona rentabelligini oshirish, bozor ulushini kengaytirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim omili ekanligi asoslab berilgan. Korxonalar faoliyatida strategiyalar samaradorligini baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlar tizimi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *strategik boshqaruv, bozor strategiyasi, narx strategiyasi, raqobat ustunligi, rentabellik, bozor ulushi, segmentatsiya, baholash samaradorligi*

# ФОРМИРОВАНИЕ РЫНОЧНЫХ И ЦЕНОВЫХ СТРАТЕГИЙ В СИСТЕМЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ И ОЦЕНКА ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ

**Исматиллаева Мехриноз Фозиловна**

*экономика*
*студент 1-го курса магистратуры*
*вечерний факультет и магистратура*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*

***Аннотация.*** *В данной статье комплексно анализируются теоретические и практические аспекты формирования рыночных и ценовых стратегий в системе стратегического управления предприятием. Основной целью исследования является определение путей укрепления рыночных позиций предприятий, совершенствования ценовой политики и повышения эффективности стратегических решений в условиях усиливающейся конкуренции. В статье раскрываются направления рыночных стратегий, включая сегментацию рынка, выбор целевого рынка, позиционирование и формирование конкурентных преимуществ. Также проанализированы ценовые стратегии, основанные на затратном, ценностном и конкурентно-ориентированном подходах. Результаты исследования показывают, что интеграция рыночных и ценовых стратегий в систему стратегического управления является важным фактором повышения рентабельности, расширения рыночной доли и обеспечения долгосрочного устойчивого развития предприятия. Разработана система ключевых показателей и практические рекомендации по оценке эффективности стратегий.*

***Ключевые слова:*** *стратегическое управление, рыночная стратегия, ценовая стратегия, конкурентное преимущество, рентабельность, доля рынка, сегментация, оценка эффективности.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# FORMATION OF MARKET AND PRICING STRATEGIES IN THE ENTERPRISE’S STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM AND EVALUATION OF THEIR EFFECTIVENESS

**Ismatillayeva Mehrinoz Fozilovna**

*Economics,*
*1st year master’s student*
*Faculty of evening education*
*and master’s degree*
*Tashkent State University of Economics*

***Abstract.*** *This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of forming market and pricing strategies within the strategic management system of an enterprise. The main purpose of the study is to identify ways to strengthen the market position of enterprises, improve pricing policy, and increase the effectiveness of strategic decisions under conditions of growing competition. The article examines key directions of market strategies, including market segmentation, target market selection, positioning, and the formation of competitive advantages. In addition, pricing strategies based on cost-oriented, value-based, and competition-oriented models are analyzed. The results of the study prove that integrating market and pricing strategies into the strategic management system is an important factor in increasing profitability, expanding market share, and ensuring long-term sustainable development of enterprises. A system of key performance indicators and practical recommendations for evaluating strategic effectiveness has also been developed.*

***Keywords:*** *strategic management, market strategy, pricing strategy, competitive advantage, profitability, market share, segmentation, performance evaluation.*

## Kirish

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida globallashuv, raqamlashtirish, elektron savdo platformalarining kengayishi hamda iste’molchilar talabining tez o‘zgarishi korxonalar faoliyatida strategik boshqaruvning ahamiyatini keskin oshirmoqda. Kuchli raqobat muhiti sharoitida korxonaning bozordagi barqaror mavqei faqat ishlab chiqarish hajmi yoki resurs salohiyati bilan emas, balki bozor talabini chuqur tahlil qilish, narx siyosatini to‘g‘ri shakllantirish va strategik qarorlarni samarali amalga oshirish darajasi bilan ham belgilanad[1]. Shu sababli korxona boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini ishlab chiqish zamonaviy menejmentning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Bozor strategiyasi korxonaning maqsadli segmentlarni tanlash, raqobatchilar holatini baholash, iste’molchi ehtiyojlarini aniqlash hamda bozorda uzoq muddatli ustunlikka erishish bo‘yicha qarorlar tizimini ifodalaydi. Narx strategiyasi esa mahsulot yoki xizmat qiymatini belgilash, foyda marjasini boshqarish, talab elastikligini hisobga olish va bozordagi raqobat sharoitiga moslashishning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvi korxonaning daromadliligi, bozor ulushi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[2]. Shu bois strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq mexanizm sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli kompaniyalar bozor kon’yunkturasini muntazam monitoring qilish, moslashuvchan narx belgilash, differensial yondashuv va mijozga yo‘naltirilgan strategiyalar orqali yuqori natijalarga erishmoqda. Jumladan, marketing strategiyasi bo‘yicha tadqiqotlarda bozor segmentatsiyasi va iste’molchi xulq-atvorini tahlil qilish korxona rentabelligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi (Kotler & Keller, 2016). Strategik raqobat nazariyasida esa narx siyosati bozor ustunligini shakllantiruvchi muhim instrumentlardan biri sifatida baholanadi (Porter, 1985)[3]. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda dinamik narxlash, qiymat asosida narx belgilash va raqamli analitika asosidagi pricing-modellar samarali vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish va korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada korxonalar oldida mahsulotni bozorga moslashtirish, narx siyosatini mustaqil yuritish, xaridor talabini o‘rganish va ichki hamda tashqi bozorlarda samarali raqobatlashish kabi yangi vazifalar paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, sanoat, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida narx shakllanishining bozor tamoyillariga o‘tishi korxonalar strategik boshqaruvini takomillashtirishni talab etmoqda[4].

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim korxonalarda bozor tahlilining yetarli emasligi, narx belgilashda xarajat usuliga haddan tashqari tayanish, marketing axborot tizimlarining sustligi hamda strategik rejalashtirish mexanizmlarining to‘liq shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Bunday holat foyda darajasining pasayishi, bozor ulushining qisqarishi va investitsion jozibadorlikning susayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli bozor va narx strategiyalarining samaradorligini ilmiy asosda baholash hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[5].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini baholash hamda O‘zbekiston korxonalari sharoitida qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Adabiyotlar sharhi**

Korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini shakllantirish masalasi menejment, marketing, mikroiqtisodiyot hamda korporativ boshqaruv yo‘nalishlarida keng o‘rganilgan ilmiy mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda bozor strategiyasi korxonaning maqsadli segmentni tanlash, raqobat ustunligini shakllantirish va mijozlar ehtiyojini qondirish mexanizmi sifatida talqin etilsa, narx strategiyasi foyda, talab hajmi, xarajatlar va raqobat muhitini muvozanatlashtiruvchi boshqaruv instrumenti sifatida baholanadi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur ikki strategiyaning uyg‘unlashuvi korxona samaradorligini oshirish, bozor ulushini kengaytirish hamda uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlashning muhim sharti sifatida ko‘riladi[6].

Strategik boshqaruv nazariyasining klassik vakillaridan biri bo‘lgan **Michael Eugene Porter** o‘zining *Competitive Strategy* (1980) hamda *Competitive Advantage* (1985) asarlarida korxonaning bozordagi muvaffaqiyati raqobat kuchlarini to‘g‘ri baholash va aniq strategik pozitsiyani tanlashga bog‘liqligini asoslab beradi[7]. Muallif xarajatlar bo‘yicha yetakchilik, differensiallashuv va fokuslash strategiyalarini ilgari surib, narx siyosati hamda bozor strategiyasi korxonaning raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Porterning yondashuvi bugungi kunda ham korxonalarda strategik rejalashtirishning nazariy asosi sifatida keng qo‘llaniladi.

Marketing boshqaruvi bo‘yicha yetakchi olimlardan **Philip Kotler** va **Kevin Lane Keller** o‘zlarining *Marketing Management* (2016) asarida bozor segmentatsiyasi, iste’molchilar xulq-atvori, qiymat yaratish hamda narx belgilash mexanizmlarini chuqur tahlil qiladilar. Ularning fikricha, narx faqat moliyaviy ko‘rsatkich emas, balki bozorda mahsulot qiymatini ifodalovchi strategik signal hisoblanadi. Mualliflar talab elastikligi, psixologik narxlash, differensial narxlash va dinamik pricing usullarining korxona rentabelligiga sezilarli ta’sirini ilmiy asoslaydi.

Narx strategiyasi nazariyasining rivojlanishida **Thomas T. Nagle** va **Georg Müller**ning *The Strategy and Tactics of Pricing* (2018) asari alohida ahamiyatga ega[8]. Mazkur tadqiqotda narx belgilashda xarajat usulidan ko‘ra qiymatga asoslangan yondashuv samaraliroq ekani ko‘rsatiladi. Mualliflar iste’molchi mahsulotga qancha qiymat bersa, narx ham shunga mos shakllanishi lozimligini ta’kidlaydilar. Bu yondashuv ayniqsa yuqori raqobatli bozorlarda foyda marjasini oshirishga xizmat qiladi.

Strategik menejmentning resurslarga asoslangan nazariyasida **Jay Barney** o‘zining “Firm Resources and Sustained Competitive Advantage” (1991) maqolasida korxonaning ichki resurslari

va kompetensiyalari bozor strategiyasining asosiy manbai ekanligini ko‘rsatadi[9]. Muallifning fikricha, noyob va takrorlanmas resurslarga ega korxonalar bozorda ustun narx siyosatini yuritish hamda barqaror foyda olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu yondashuv bozor strategiyasini faqat tashqi omillar emas, balki ichki salohiyat bilan ham bog‘laydi.

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida narx strategiyalarining transformatsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar kuchaygan. Xususan, **Robert Dolan** va **Hermann Simon** tomonidan olib borilgan izlanishlarda sun’iy intellekt, Big Data va real vaqt monitoringiga asoslangan dinamik narxlash tizimlari savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida samaradorlikni oshirishi qayd etilgan[10]. Elektron tijorat platformalarida narxlarni talab va taklifga mos ravishda tezkor o‘zgartirish korxona daromadlarini ko‘paytiruvchi muhim vosita sifatida baholanadi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham korxonalarda strategik boshqaruv, marketing va narx siyosati masalalari keng o‘rganilgan. Xususan, **B. Xodiyev**ning iqtisodiyot va menejmentga oid ilmiy ishlarida korxonalarda strategik rejalashtirishning milliy iqtisodiyot rivojidagi o‘rni yoritilgan. **Sh. Shodmonov** va **U. G‘afurov**larning iqtisodiyot nazariyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida bozor mexanizmi, talab-taklif muvozanati hamda narx shakllanishining nazariy asoslari tahlil qilingan[11]. Ayrim mahalliy maqolalarda esa O‘zbekiston korxonalarida marketing strategiyasini takomillashtirish, eksport bozorlariga chiqishda moslashuvchan narx siyosatini yuritish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. U nafaqat marketing yoki moliyaviy boshqaruv masalasi, balki raqobat strategiyasi, innovatsion rivojlanish, raqamli texnologiyalar va iste’molchi xulq-atvori bilan chambarchas bog‘liq jarayondir[12]. Shu bois zamonaviy korxonalar faoliyatida bozor va narx strategiyalarini samarali shakllantirish korxona barqarorligi hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini shakllantirish hamda ularning samaradorligini baholash masalalarini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy iqtisodiy tadqiqot usullarining uyg‘unlashgan tizimi qo‘llanildi. Tadqiqot metodologik asosini tizimli yondashuv, strategik tahlil usullari, iqtisodiy-statistik tahlil, solishtirma tahlil, iqtisodiy-matematik baholash hamda ekspert baholash usullari tashkil etadi[13]. Ushbu yondashuvlar korxona faoliyatida bozor strategiyasi va narx siyosatini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Tizimli yondashuv asosida korxonaning strategik boshqaruv tizimi yagona iqtisodiy mexanizm sifatida o‘rganildi[14]. Bunda korxonaning ichki resurslari, ishlab chiqarish quvvati, marketing salohiyati, moliyaviy imkoniyatlari, tashqi raqobat muhiti hamda iste’molchilar talabi o‘zaro bog‘liq omillar sifatida ko‘rib chiqildi. Mazkur yondashuv strategik qarorlar qabul qilishda bozor va narx strategiyalarining korxona umumiy rivojlanishiga ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Strategik tahlil usullaridan foydalanilgan holda korxona faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar baholandi[15]. Jumladan, SWOT-tahlil asosida korxonaning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari hamda tashqi xavflari aniqlashtirildi. PEST-tahlil yordamida esa siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va texnologik omillarning bozor strategiyasiga ta’siri baholandi. Mazkur usullar bozor muhitining o‘zgaruvchan sharoitida korxona strategiyasini moslashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi.

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil usuli orqali korxonalarning sotuv hajmi, bozor ulushi, mahsulot tannarxi, foyda marjasi, rentabellik darajasi hamda narx o‘zgarishlari dinamikasi o‘rganildi. Statistik ma’lumotlar asosida narx siyosati bilan sotuv hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik, narx o‘zgarishlarining talab elastikligiga ta’siri va foyda ko‘rsatkichlariga ta’siri tahlil qilindi. Bu esa narx strategiyasining iqtisodiy samaradorligini miqdoriy jihatdan baholash imkonini yaratdi.

Solishtirma tahlil usuli yordamida mahalliy korxonalar tajribasi xorijiy kompaniyalar amaliyoti bilan qiyosiy o‘rganildi. Xususan, yetakchi xalqaro kompaniyalarda qo‘llanilayotgan differensial narxlash, segmentlash, premium narx belgilash, penetratsion narx siyosati hamda dinamik narxlash mexanizmlarining afzalliklari tahlil qilindi. Ushbu tajribalar asosida ularni milliy korxonalar faoliyatiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Iqtisodiy-matematik baholash usullari orqali narx va talab o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik, foyda maksimallashuvi hamda narx elastikligi ko‘rsatkichlari hisoblandi. Shuningdek, turli narx stsenariylari bo‘yicha prognoz baholash ishlari amalga oshirildi. Bu usul strategik narx qarorlarini qabul qilishda eng maqbul variantlarni tanlash imkonini beradi.

Ekspert baholash usuli asosida marketing mutaxassislari, korxona rahbarlari va iqtisodchi olimlarning fikrlari umumlashtirildi. Ularning mulohazalari asosida bozor strategiyasini shakllantirishda iste’molchi xulqi, raqobatchilar reaksiyasi, brend qadri hamda bozordagi noaniqlik darajasi muhim omillar sifatida baholandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi rasmiy statistika ma’lumotlari, korxonalar moliyaviy hisobotlari, marketing tadqiqotlari natijalari, xalqaro tashkilotlar materiallari hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etdi[17]. Olingan ma’lumotlarning ishonchliligi ularning rasmiy va ochiq manbalarga asoslanganligi bilan ta’minlandi.

Qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini shakllantirish, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda amaliy takliflar ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratdi.

**Tahlil va natijalar**

Korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini samarali shakllantirish zamonaviy raqobat muhitida barqaror faoliyat yuritishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bozor kon’yunkturasining tez o‘zgarishi, iste’molchilar talabining diversifikatsiyalashuvi hamda raqobatchilar sonining ortib borishi korxonalardan moslashuvchan va ilmiy asoslangan strategik qarorlar qabul qilishni talab etmoqda. Shu sababli bozor segmentatsiyasi, narx siyosati va strategik rejalashtirish masalalari korxona boshqaruvida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bozor strategiyasini to‘g‘ri tanlagan korxonalarda sotuv hajmi, mijozlar sodiqligi va bozor ulushi yuqoriroq bo‘ladi. Xususan, iste’molchilar ehtiyojini chuqur o‘rgangan hamda mahsulotni aniq segmentlarga yo‘naltirgan korxonalar umumiy bozorda raqobat ustunligiga ega bo‘ladi. Segmentatsiya asosida faoliyat yurituvchi korxonalarda marketing xarajatlari nisbatan maqsadli yo‘naltiriladi va reklama samaradorligi ortadi[18]. Natijada yangi mijozlarni jalb etish xarajatlari kamayadi hamda sotuv rentabelligi oshadi.

Narx strategiyasining korxona samaradorligiga ta’siri ham muhim natijalarni namoyon etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, narxni bozordagi talab elastikligi, iste’molchi daromadi va raqobatchilar narxiga mos ravishda belgilagan korxonalarda daromad ko‘rsatkichlari barqarorroq shakllanadi[19]. Aksincha, xarajatlarni hisobga olmagan holda yoki bozor talabini tahlil qilmasdan belgilangan narx siyosati sotuv hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yuqori raqobatli bozorlarda narxning 5–10 foizga noto‘g‘ri belgilanishi mijozlar oqimining kamayishiga sabab bo‘ladi.

Korxonalarda qo‘llanilayotgan narx strategiyalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, turli yondashuvlar turli bozor sharoitlarida samarali natija beradi. Jumladan, bozorga yangi kirayotgan korxonalar uchun penetratsion narx strategiyasi, ya’ni boshlang‘ich past narx belgilash usuli mijozlar bazasini tez shakllantirish imkonini beradi. Yuqori sifatli va brend qiymatiga ega mahsulotlarda esa premium narx strategiyasi yuqori foyda marjasini ta’minlaydi. Mavsumiy talab mavjud bo‘lgan tarmoqlarda dinamik narxlash usuli korxona daromadlarini optimallashtirishga xizmat qiladi[20].

O‘zbekiston korxonalari faoliyati misolida olib borilgan tahlillar ko‘rsatishicha, ko‘plab korxonalarda narx siyosati hali ham asosan tannarxga ustama qo‘shish tamoyili asosida

shakllantirilmoqda. Bunda bozor talabi, iste’molchi qadriyati va raqobatchilar xatti-harakati yetarli darajada hisobga olinmaydi[21]. Natijada ayrim korxonalarda mahsulot narxi bozor imkoniyatlariga mos kelmaydi, bu esa sotuv hajmi va foyda darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, marketing tahlili va raqamli analitika vositalaridan foydalanuvchi korxonalarda narx siyosati samaraliroq ekani kuzatiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, strategik boshqaruv tizimiga bozor monitoringi va narx tahlili mexanizmlarini integratsiya qilgan korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘ladi. Bunday korxonalar bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashadi, mahsulot assortimentini yangilaydi va narx siyosatini real vaqt rejimida optimallashtiradi. Natijada foyda hajmi, pul oqimi barqarorligi hamda bozor ulushi oshadi[22].

Shuningdek, SWOT tahlil natijalari korxonalarda kuchli tomonlar sifatida ishlab chiqarish tajribasi, mahalliy resurs bazasi va ichki bozor sig‘imi mavjudligini ko‘rsatdi. Zaif tomonlar sifatida esa marketing tadqiqotlarining sustligi, narx belgilash tizimining eskirganligi va raqamli boshqaruv vositalarining yetarli emasligi qayd etildi. Imkoniyatlar qatoriga eksport bozorlari kengayishi, elektron savdo rivojlanishi va yangi iste’mol segmentlarining shakllanishi kiradi[23]. Tahdidlar esa import raqobati, xomashyo narxlarining o‘zgaruvchanligi va inflyatsion bosim bilan izohlanadi.

Umumiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini ilmiy asosda shakllantirish daromadlilikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, narx siyosatini marketing strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish, raqamli tahlil vositalaridan foydalanish va bozor segmentatsiyasini chuqurlashtirish korxona samaradorligini sezilarli oshirish imkonini beradi.

**Xulosa**

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini shakllantirish hamda ularning samaradorligini baholash zamonaviy boshqaruvning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqobat kuchayib borayotgan, iste’molchilar talabi tez o‘zgarayotgan va bozor kon’yunkturasi beqaror bo‘lgan sharoitda korxonalar narx siyosatini aniq strategik yondashuv asosida yuritishi zarur. Narxni noto‘g‘ri belgilash foyda darajasining pasayishiga, bozor ulushining qisqarishiga yoki iste’molchilar ishonchining susayishiga olib kelishi mumkin.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, bozor strategiyasi va narx strategiyasi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni alohida holda emas, yagona boshqaruv tizimi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bozor segmentatsiyasi, maqsadli auditoriyani aniqlash, raqobatchilar faoliyatini o‘rganish hamda iste’molchi xulq-atvorini tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan narx siyosati korxonaning moliyaviy natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ayniqsa, qiymatga asoslangan narxlash, moslashuvchan narx belgilash va differensial narx siyosati yuqori samaradorlik beruvchi instrumentlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari narx strategiyasining samaradorligi uni muntazam monitoring qilish va baholab borishga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Rentabellik darajasi, sotuv hajmi, bozor ulushi, mijozlar sodiqligi va talab elastikligi kabi ko‘rsatkichlar asosida baholash tizimini yo‘lga qo‘yish strategik qarorlar sifatini oshiradi. Raqamli texnologiyalar va analitik platformalardan foydalanish esa narx o‘zgarishlariga bozorning real vaqt rejimidagi reaksiyasini kuzatish imkonini beradi.

Korxonalarda strategik boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida bozor tadqiqotlarini muntazam ravishda amalga oshirish, iste’molchilar ehtiyojlari va raqobatchilar strategiyalarini chuqur tahlil qilish zarur. Bu korxonaning bozor imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlash va narx siyosatini moslashtirishga xizmat qiladi.

Narx belgilash jarayonida xarajatlarga asoslangan yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, iste’molchi qabul qilayotgan qiymat, brend mavqei va bozor talabini ham inobatga olish tavsiya

etiladi. Bu korxonaga yuqori foyda olish bilan birga uzoq muddatli mijozlar bazasini shakllantirish imkonini beradi.

Korxonalarda dinamik narxlash elementlarini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Mavsumiy talab, hududiy xususiyatlar, xarid hajmi yoki mijoz segmentiga qarab narxlarni moslashtirish sotuv hajmini oshirish va bozor ulushini kengaytirishga yordam beradi.

Samaradorlikni baholash tizimida KPI ko‘rsatkichlari, moliyaviy indikatorlar va marketing natijadorligi mezonlaridan kompleks foydalanish zarur. Bu strategik qarorlarning real natijasini aniqlash va kelgusidagi rejalarni takomillashtirish imkonini yaratadi.

Raqamli boshqaruv tizimlari, CRM platformalari, sun’iy intellekt asosidagi talab prognozlash vositalari hamda Big Data tahlilidan foydalanish narx strategiyalarini ilmiy asosda ishlab chiqish va tezkor yangilab borishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, korxonaning strategik boshqaruv tizimida bozor va narx strategiyalarini samarali shakllantirish korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi, foyda hajmini ko‘paytiradi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni таъминlaydi. Shu bois mazkur yo‘nalishni takomillashtirish zamonaviy korxonalar boshqaruvida ustuvor strategik vazifa sifatida qaralishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kotler, P., Keller, K. L. (2016). Marketing Management. Pearson Education.
2. Nagle, T. T., Müller, G. (2018). The Strategy and Tactics of Pricing. Routledge.
3. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
4. World Bank (2022). Uzbekistan Digital Economy Development Report. Washington, D.C.: World Bank Group.
5. OECD (2023). OECD Digital Economy Outlook. Paris: OECD Publishing
6. Kotler, P., Keller, K. L. (2016). Marketing Management. Pearson Education.
7. Porter, M. E. (1980). Competitive Strategy. Free Press.
8. Porter, M. E. (1980). Competitive Strategy. Free Press.
9. Barney, J. (1991). Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management, 17(1).
10. Dolan, R., Simon, H. (1996). Power Pricing. Free Press.
11. Shodmonov, Sh., G‘afurov, U. (2010). Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent.
12. Xodiyev, B. (turli yillar). Menejment va iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha ilmiy ishlari
13. Saunders, M., Lewis, P., Thornhill, A. (2019). Research Methods for Business Students. Pearson.
14. Checkland, P. (1999). Systems Thinking, Systems Practice. Wiley
15. Bryson, J. M. (2018). Strategic Planning for Public and Nonprofit Organizations. Wiley.
16. Gujarati, D. N., Porter, D. C. (2009). Basic Econometrics. McGraw-Hill.
17. Yin, R. K. (2018). Case Study Research and Applications. Sage Publications.
18. Kotler, P., Keller, K. L. (2016). Marketing Management. Pearson Education.
19. Nagle, T. T., Müller, G. (2018). The Strategy and Tactics of Pricing. Routledge.
20. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage. Free Press.
21. Xodiyev, B. (turli yillar). Menejment va iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy ishlari.
22. Dolan, R., Simon, H. (1996). Power Pricing. Free Press.
23. Wheelen, T. L., Hunger, J. D. (2017). Strategic Management and Business Policy. Pearson

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# XALQARO AUDIT STANDARTLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH JARAYONLARINING KOMPLEKS METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Saidova Sevaraxon Abdumo‘min qizi**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universitet*
*Mustaqil tadqiqotchisi*
*E-mail: sevarayus96@mail.ru*
*ORCID: 0009-0006-2683-9332*

***Annotatsiya***. *Ushbu maqolada xalqaro audit standartlari asosida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks metodika ishlab chiqilgan. Tadqiqot doirasida auditorlik tekshiruvining umumiy strategiyasi va audit rejasini tizimli shakllantirish, moliyaviy hisobotda muhimlik darajasini aniqlashning takomillashtirilgan yondashuvi, auditorlik riskini baholashning samarali uslubiyati hamda auditorlik shartnomasi asosida dastlabki rejalashtirish jarayonlarini tashkil etish masalalari kompleks tarzda o‘rganilgan. Natijada auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning integratsiyalashgan modeli taklif etilib, u audit jarayonlarining sifatini oshirish, vaqt va xarajatlarni optimallashtirish hamda auditorlik xulosasining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari amaliyotda audit faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

***Kalit so‘zlar***. *Xalqaro audit standartlari, auditni rejalashtirish, audit strategiyasi, audit rejasi, muhimlik darajasi, auditorlik riski, risk zonalari, ichki nazorat tizimi, auditorlik shartnomasi, kelishuv xati, kompleks metodika.*

# IMPROVING THE COMPREHENSIVE METHODOLOGY FOR PLANNING AUDIT PROCESSES BASED ON INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS

**Saidova Sevaraxon Abdumumin kizi**
*Tashkent State University of Economics*
*Independent researcher*
*E-mail: sevarayus96@mail.ru*
*ORCID: 0009-0006-2683-9332*

***Abstract.*** *This article develops a comprehensive methodology aimed at improving the planning processes of audit engagements based on International Auditing Standards. Within the framework of the study, a systematic approach to forming the overall audit strategy and audit plan, an improved approach to determining materiality in financial statements, an effective methodology for assessing audit risk, as well as the organization of preliminary planning processes based on the audit engagement contract were comprehensively examined. As a result, an integrated model for planning audit engagements is proposed, which contributes to improving the quality of audit processes, optimizing time and costs, and ensuring the reliability of the auditor’s opinion. The findings of the study can serve as an important scientific and methodological basis for the effective organization of audit activities in practice.*

***Keywords***. *International Auditing Standards, audit planning, audit strategy, audit plan, materiality, audit risk, risk areas, internal control system, audit engagement contract, engagement letter, comprehensive methodology.*

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОМПЛЕКСНОЙ МЕТОДИКИ ПЛАНИРОВАНИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОВЕРОК НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ АУДИТА

**Саидова Севарахон Абдумумин кизи**
*Ташкентский государственный*

*экономический университет*
*Независимый исследователь*
*E-mail: sevarayus96@mail.ru*
*ORCID: 0009-0006-2683-9332*

***Аннотация.*** *В данной статье разработана комплексная методика, направленная на совершенствование процессов планирования аудиторских проверок на основе международных стандартов аудита. В рамках исследования комплексно рассмотрены вопросы системного формирования общей стратегии аудита и плана аудита, усовершенствованный подход к определению уровня существенности в финансовой отчетности, эффективная методика оценки аудиторского риска, а также организация процессов предварительного планирования на основе аудиторского договора. В результате предложена интегрированная модель планирования аудиторской проверки, которая способствует повышению качества аудиторских процессов, оптимизации времени и затрат, а также обеспечению надежности аудиторского заключения. Результаты исследования могут служить важной научно-методической основой для эффективной организации аудиторской деятельности на практике.*

***Ключевые слова.*** *международные стандарты аудита, планирование аудита, стратегия аудита, план аудита, уровень существенности, аудиторский риск, зоны риска, система внутреннего контроля, аудиторский договор, письмо-соглашение, комплексная методика.*

**Kirish**

Zamonaviy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va investitsiya jozibadorligini oshirish sharoitida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda auditorlik faoliyati iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlovchi muhim institut sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish va uni xalqaro talablarga moslashtirish maqsadida qabul qilingan 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-sonli “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun auditorlik tekshiruvlarini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamladi [1].

Auditorlik tekshiruvining samaradorligi ko‘p jihatdan uni to‘g‘ri rejalashtirishga bog‘liq bo‘lib, rejalashtirish jarayoni auditning barcha keyingi bosqichlari uchun asos yaratadi. Xalqaro audit standartlarida, xususan ISA 300 standartida, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish auditning umumiy strategiyasini ishlab chiqish va audit rejasini shakllantirish orqali amalga oshirilishi belgilangan [2]. Shu sababli rejalashtirish bosqichi auditorlik tekshiruvining sifatini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Biroq, amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarida bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, auditning umumiy strategiyasi va audit rejasini shakllantirishda yagona metodik yondashuvning yetishmasligi, muhimlik darajasini aniqlashda faqat miqdoriy ko‘rsatkichlarga tayanilishi, auditorlik riskini baholashda sub’ektning ichki nazorat tizimi va faoliyat muhitining yetarli darajada hisobga olinmasligi, shuningdek auditorlik shartnomasi asosida dastlabki rejalashtirish jarayonlarining yetarlicha rivojlanmaganligi kuzatilmoqda [3].

Mazkur holatlar auditorlik tekshiruvining samaradorligini pasaytiradi, audit jarayonlarida resurslardan foydalanish samaradorligini kamaytiradi hamda auditorlik xulosasining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini xalqaro audit standartlari asosida tizimli va kompleks tarzda takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks metodikani ishlab chiqishdan iborat. Mazkur metodika auditning umumiy strategiyasi va audit rejasini shakllantirish, muhimlik darajasini aniqlash, auditorlik riskini baholash hamda auditorlik shartnomasi asosida dastlabki rejalashtirish

jarayonlarini yagona tizimga integratsiyalashni nazarda tutadi.

**Adabiyotlar tahlili**

Auditorlik faoliyatining nazariy va metodologik asoslari iqtisodiyot fanida keng o‘rganilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, A.A. Karimov tomonidan yozilgan “Xalqaro audit” darsligida auditorlik tekshiruvini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, audit strategiyasi va rejalashtirish jarayonlarini shakllantirish masalalari tizimli yoritilgan [4]. Muallif auditni rejalashtirishda standartlarga muvofiqlikni ta’minlash muhimligini asoslab bergan.

B.A. Xasanov tomonidan audit nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda auditorlik tekshiruvining metodologik asoslari, xususan ichki nazorat tizimining audit jarayonidagi o‘rni alohida ta’kidlangan [5]. Muallif ichki nazorat tizimining samaradorligi auditorlik riskini baholashda hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ko‘rsatib o‘tgan.

M.M. Tulaxodjayeva va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda auditorlik faoliyatining iqtisodiy mohiyati, audit natijalarining xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatiga ta’siri hamda auditning amaliy jihatlari keng yoritilgan [6]. Ushbu tadqiqotlarda audit samaradorligini oshirishda rejalashtirish bosqichining ahamiyati qayd etilgan.

Xalqaro miqyosda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi asosiy institut — IAASB tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro audit standartlari auditorlik tekshiruvining barcha bosqichlarini, jumladan rejalashtirish jarayonini tartibga soladi. Xususan, ISA 300 standarti auditni rejalashtirishning umumiy tamoyillarini belgilasa [2], ISA 315 standarti auditorlardan sub’ektning faoliyati va ichki nazorat tizimini chuqur o‘rganish orqali muhim xatoliklar riskini aniqlashni talab etadi [7]. Shu bilan birga, ISA 320 va ISA 450 standartlari muhimlik darajasini belgilash va aniqlangan xatoliklarni baholash jarayonlarini tartibga soladi [8; 9].

Xorijiy olimlar A. Arens va J. Lobbek tomonidan auditorlik risklari va muhimlik darajasi o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik ilmiy asoslab berilgan bo‘lib, ular audit jarayonida riskni kamaytirish orqali muhimlik chegaralarini aniqlash zarurligini ta’kidlaydi [10].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini kompleks yondashuv asosida — ya’ni audit strategiyasi, muhimlik darajasi, auditorlik riski va auditorlik shartnomasi asosidagi dastlabki rejalashtirish elementlarini o‘zaro integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqish yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, ushbu elementlarni yagona metodik tizimga birlashtirish masalasi hozirgi kungacha yetarlicha ilmiy asoslanmagan.

Mazkur holat auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini kompleks metodika asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi hamda ushbu maqolada ilgari surilayotgan yondashuvning ilmiy yangiligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks metodikani ishlab chiqishda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida auditorlik faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish hamda mavjud muammolarni aniqlash maqsadida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi.

Xususan, tadqiqotda *tizimli tahlil usuli* orqali auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning asosiy elementlari — audit strategiyasi, audit rejasi, muhimlik darajasi, auditorlik riski va auditorlik shartnomasi asosidagi dastlabki rejalashtirish jarayonlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Ushbu yondashuv mazkur elementlarni yagona kompleks metodika doirasida integratsiyalash imkonini berdi.

*Qiyosiy tahlil usuli* yordamida xalqaro audit standartlari (ISA 300, ISA 315, ISA 320, ISA 450) talablari hamda milliy auditorlik amaliyoti o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilindi. Natijada auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarida mavjud metodik kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari aniqlandi [2; 7; 8; 9].

Shuningdek, *statistik va analitik tahlil usullari* orqali auditorlik amaliyotida uchraydigan xatoliklar, risk darajalari va muhimlik ko‘rsatkichlari o‘rganilib, ularning auditorlik xulosasiga ta’siri baholandi. Bu esa muhimlik darajasini tabaqalashtirish hamda auditorlik riskini zonalar bo‘yicha baholash metodikasini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotda *ekspert baholash usuli*dan ham foydalanilib, auditorlik amaliyotida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning fikrlari asosida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlaridagi amaliy muammolar va ularning yechimlari aniqlashtirildi.

Mazkur tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlari, xalqaro audit standartlari hamda Saidova S.A. tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot materiallari tashkil etadi [1; 3].

Natijada yuqoridagi metodologik yondashuvlar asosida auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning kompleks metodikasi ishlab chiqilib, u audit strategiyasi va rejasini shakllantirish, muhimlik darajasini aniqlash, auditorlik riskini baholash hamda auditorlik shartnomasi asosida dastlabki rejalashtirish jarayonlarini integratsiyalashgan holda amalga oshirishni nazarda tutadi.

**Tahlil va natijalar**

Auditorlik tekshiruvini samarali tashkil etish ko‘p jihatdan uning rejalashtirish bosqichiga bog‘liq bo‘lib, mazkur bosqich audit jarayonining sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarida tizimli yondashuvning yetishmasligi, metodik asoslarning bir xilda shakllanmaganligi hamda asosiy elementlarning o‘zaro integratsiyasining sustligi audit samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xususan, auditning umumiy strategiyasi va audit rejasini ishlab chiqishda yagona metodik shaklning mavjud emasligi, muhimlik darajasini aniqlashda sub’ektning individual xususiyatlari yetarli darajada inobatga olinmasligi, auditorlik riskini baholashda tizimli yondashuvning yetishmasligi hamda auditorlik shartnomasi asosida dastlabki rejalashtirish jarayonlarining formal xarakterga ega bo‘lishi kabi muammolar kuzatilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida tadqiqot doirasida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan asosiy ilmiy yangiliklar ishlab chiqildi. Ushbu yangiliklar auditorlik faoliyatining muhim elementlarini qamrab olib, ularni yagona kompleks metodika asosida integratsiyalashni nazarda tutadi.(1-jadval)

**1-jadval.**

**Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar**

| № | Ilmiy yangilik mazmuni | Metodik mazmuni | Kutilayotgan samara |
|---|---|---|---|
| **1** | Auditning umumiy strategiyasi va audit rejasining takomillashgan shaklini ishlab chiqish | Audit strategiyasini kirish va asosiy qismlarga ajratgan holda namunaviy shakl ishlab chiqildi | Audit jarayonlarini tizimlashtirish va vaqt sarfini 10–15% ga qisqartirish |
| **2** | Muhimlik darajasini tabaqalashtirilgan holda aniqlash metodikasi | Risk darajasiga qarab 5%, 6% va 7,5% foiz ko‘rsatkichlarini qo‘llash | Auditorlik xulosasining ishonchliligini oshirish |
| **3** | Auditorlik riskini “risk zonalari” asosida baholash metodikasi | Risklarni operatsion, moliyaviy va investitsion zonalar kesimida baholash | Audit resurslarini yuqori riskli yo‘nalishlarga yo‘naltirish |
| **4** | Auditorlik shartnomasi asosida dastlabki rejalashtirishni takomillashtirish | Kelishuv xati va shartnoma rekvizitlarini kengaytirish va aniqlashtirish | Huquqiy aniqlikni oshirish va audit sifatini yaxshilash |

***Manba:*** *Saidova S.A. dissertatsiyasi asosida tuzildi – 9–11, 37–49, 62–72, 120–133-betlar*

*1. Auditning umumiy strategiyasi va audit rejasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.* Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaldagi auditorlik amaliyotida audit

strategiyasi va audit rejasi turli yondashuvlar asosida ishlab chiqilib, ularning yagona metodik shakli mavjud emas. Bu esa auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarining tartibsiz va samarasiz tashkil etilishiga olib kelmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida audit strategiyasi va audit rejasining takomillashgan namunaviy shakli ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan metodikaga ko‘ra, auditning umumiy strategiyasi ikki asosiy qismdan iborat bo‘lishi lozim: kirish qismi va asosiy qism. Kirish qismida audit buyurtmachisi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, auditorlik guruhi tarkibi, vaqt parametrlari, muhimlik darajasi hamda auditorlik riski aks ettiriladi. Asosiy qismda esa moliyaviy hisobot elementlari bo‘yicha audit amallarining ketma-ketligi, ichki nazorat tizimini baholash, testlash va dalillarni yig‘ish jarayonlari batafsil yoritiladi.

Mazkur yondashuv auditorlik tekshiruvini tizimli tashkil etish, audit jarayonlarini oldindan aniqlashtirish hamda vaqt va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada audit jarayonlariga sarflanadigan vaqtni o‘rtacha 10–15 foizga qisqartirishga erishiladi [11].

*2. Muhimlik darajasini aniqlashning takomillashtirilgan yondashuvi*. Audit amaliyotida muhimlik darajasini aniqlash ko‘pincha yagona yondashuv asosida amalga oshirilmaydi, bu esa auditorlik xulosasining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqot natijasida muhimlik darajasini aniqlashda sub’ektning risk darajasi, ichki nazorat tizimi samaradorligi va faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuv taklif etildi.

Mazkur metodikaga muvofiq, muhimlik darajasining nisbiy ko‘rsatkichlari risk darajasiga qarab 5 %, 6 % va 7,5 % miqdorlarda belgilanishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, muhimlikni aniqlashda faqat miqdoriy emas, balki sifat omillari — mulkchilik tuzilmasi, qarzdorlik darajasi, ichki nazorat tizimi va bozor muhiti ham inobatga olinishi zarurligi asoslab berildi.

Ushbu yondashuv auditorlik tekshiruvining aniqligini oshirish, muhim ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri tanlash hamda auditorlik xulosasining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi [12].

*3. Auditorlik riskini “risk zonalari” asosida baholash metodikasi*. Auditorlik riskini baholash audit rejalashtirishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, amaliyotda auditorlik riskini baholash yetarli darajada tizimlashtirilmagan hamda ko‘pincha umumiy yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida auditorlik riskini “risk zonalari” asosida baholash metodikasi taklif etildi. Unga ko‘ra, auditorlik tekshiruvlarida risklar operatsion, moliyaviy va investitsion faoliyat zonalari kesimida o‘rganiladi. Har bir zona bo‘yicha ajralmas risk va nazorat riski alohida baholanadi hamda audit resurslarini yuqori riskli yo‘nalishlarga yo‘naltirish tavsiya etiladi.

Mazkur metodika auditorlik tekshiruvini riskga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, muhim xatoliklar ehtimolini kamaytirish hamda auditorlik dalillarining ishonchliligini oshirish imkonini beradi [13].

*4. Auditorlik shartnomasi asosida dastlabki rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirish*. Tadqiqot natijalari auditorlik tekshiruvini samarali tashkil etishda dastlabki rejalashtirish bosqichi yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatdi. Xususan, auditorlik shartnomasi va kelishuv xatini tuzish jarayonlari ko‘pincha formal xarakterga ega bo‘lib, unda muhim rekvizitlar to‘liq aks ettirilmaydi.

Shu munosabat bilan auditorlik shartnomasini tuzishdan oldin kelishuv xati asosida dastlabki rejalashtirishni amalga oshirish zarurligi asoslab berildi. Taklif etilgan metodikaga ko‘ra, kelishuv xatida auditor va buyurtmachining huquq va majburiyatlari, auditning maqsadi va qamrovi, moliyaviy hisobot standartlari, maxfiylik talablari hamda javobgarlik chegaralari aniq belgilanishi lozim.

Mazkur yondashuv audit jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni kamaytirish, tomonlar o‘rtasidagi mas’uliyatni aniq belgilash hamda auditorlik faoliyati sifatini oshirishga xizmat qiladi [14].

Yuqoridagi ilmiy yangiliklar o‘zaro integratsiyalashgan holda auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning kompleks metodikasini shakllantiradi. Mazkur metodika audit jarayonlarini

tizimlashtirish, muhimlik va riskni aniq baholash, resurslardan samarali foydalanish hamda auditorlik xulosasining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar**

Mazkur tadqiqot natijalari auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini xalqaro audit standartlari asosida takomillashtirish zarurligini asoslab berdi. Tadqiqot davomida auditorlik faoliyatining muhim bosqichi hisoblangan rejalashtirish jarayonida mavjud metodik kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks yondashuv ishlab chiqildi.

Xususan, auditning umumiy strategiyasi va audit rejasini shakllantirishning takomillashgan metodikasi auditorlik tekshiruvini tizimli tashkil etish, audit jarayonlarini oldindan aniqlashtirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini berishi asoslandi. Muhimlik darajasini aniqlashda tabaqalashtirilgan yondashuvni qo‘llash orqali auditorlik xulosasining ishonchliligini oshirish, muhim ko‘rsatkichlarni aniq belgilash hamda xatoliklarni to‘g‘ri baholash imkoniyati kengaytirildi.

Shuningdek, auditorlik riskini “risk zonalari” asosida baholash metodikasini joriy etish audit jarayonini riskga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, muhim xatoliklar ehtimolini kamaytirish hamda auditorlik dalillarining ishonchliligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Auditorlik shartnomasi asosida dastlabki rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirish esa audit jarayonida huquqiy aniqlikni ta’minlash, tomonlar o‘rtasidagi mas’uliyatni aniq belgilash hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida taklif etilgan auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning kompleks metodikasi audit strategiyasi, muhimlik darajasi, auditorlik riski va dastlabki rejalashtirish elementlarini yagona tizimga integratsiyalash orqali auditorlik faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu metodikani amaliyotga joriy etish auditorlik tekshiruvlari sifatini oshirish, vaqt va xarajatlarni optimallashtirish hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashga sezilarli hissa qo‘shadi.

Kelgusida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida mazkur metodikani raqamli audit texnologiyalari bilan integratsiyalash, sun’iy intellekt asosida risklarni aniqlash tizimlarini joriy etish hamda auditorlik jarayonlarini avtomatlashtirish yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”*gi* Qonun (O‘RQ-677-son, 25.02.2021). – Toshkent.

2. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 300: Planning an Audit of Financial Statements. – New York: IFAC, 2018.

3. Saidova S.A. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2026. – 9–11-betlar

4. Karimov A.A. va boshq. Xalqaro audit. – T.: Iqtisod-Moliya, 2020. – 120–145-betlar.

5. Xasanov B.A. Audit. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 85–102-betlar.

6. Tulaxodjayeva M.M. va boshq. Audit. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 150–172-betlar.

7. IAASB. ISA 315 (Revised): Identifying and Assessing Risks. – IFAC, 2019.

8. IAASB. ISA 320: Materiality in Planning and Performing an Audit. – IFAC.

9. IAASB. ISA 450: Evaluation of Misstatements. – IFAC.

10. Arens A., Loebbecke J. Auditing: An Integrated Approach. – Pearson.

11. Saidova S.A. “Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirish”. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2026. – B. 9–10, 75–102, 137, 160–165.

12. Saidova S.A. O‘sha manba. – B. 10, 49–62, 137, 155–160.

13. Saidova S.A. O‘sha manba. – B. 10–11, 62–72, 138, 153–154.

14. Saidova S.A. O‘sha manba. – B. 11, 37–49, 120–133, 137–138

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ILMIY TADQIQOT LOYIHALARI VA TIJORATLASHTIRISH FAOLIYATI BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI AUDITINING NAZARIY MASALALARI

**Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g‘li**
*budjet hisobi va g‘aznachilik kafedrasi katta o‘qituvchisi*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail:inoyatovmardonbek@gmail.com*
*ORCID: 0009-0007-6518-871X*

***Annotatsiya.*** *Maqolada oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlarni hamda tijoratlashtirish faoliyatini samaradorlikka ta’siri va uning tamoyillari keltirib o‘tilgan.*

*Ushbu tadqiqot ilmiy moliyalashtirishning kuzatilgan ta’sirlarini o‘rganishga qaratilgan izlanishlarga hissa qo‘shadi.*

***Kalit so‘zlar****: oliy ta’lim, muassasa, ilmiy tadqiqot, loyiha, ish-xizmatlar, sarmoya, tijoratlashtirish, tadqiqotni moliyalashtirish, ilmiy samaradorlik, dinamik baholash.*

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ПРОЕКТАХ И КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ.

**Иноятов Мардонбек Мумин оглы**
*старший преподаватель кафедры бюджетного учета и казначейства*
*Ташкентский государственный экономический университет*
*E-mail:inoyatovmardonbek@gmail.com*
*ORCID: 0009-0007-6518-871X*

***Аннотация.*** *В статье рассматривается влияние научно-исследовательской и коммерциализированной деятельности на эффективность работы высших учебных заведений и их принципы.*

*Данное исследование вносит вклад в изучение наблюдаемых эффектов финансирования научных исследований.*

***Ключевые слова:*** *высшее образование, учреждение, научное исследование, проект, работы-услуги, инвестиции, коммерциализация, финансирование исследований, научная эффективность, динамическая оценка.*

# THEORETICAL ISSUES OF ACCOUNTING AND INTERNAL AUDITING OF SCIENTIFIC RESEARCH PROJECTS AND COMMERCIALIZATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

**Inoyatov Mardonbek Mumin ogli**
*senior teacher of budget accounting and treasury department*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail:inoyatovmardonbek@gmail.com*
*ORCID: 0009-0007-6518-871X*

***Abstract.*** *The article examines the impact of scientific research and commercialization activities in higher education institutions on efficiency, as well as the principles underlying these processes.*

*This study contributes to the existing body of research aimed at analyzing the observed effects of scientific funding.*

***Keywords:*** *higher education, institution, scientific research, project, work-services, investment, commercialization, research funding, scientific efficiency, dynamic assessment.*

**Kirish**

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarda ta’lim sifatini oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, qirqta davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik, tashkiliy boshqaruv, moliyaviy mustaqillik berildi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu oliy ta’lim muassasalariga qator vakolatlar, hususan, “oliy ta’lim muassasasining o‘rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish” yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qilish belgilandi. Shuningdek, davlat oliy ta’lim muassasalarida smetalar ijrosi hisobi va hisobotini takomillashtirish samarali tashkil qilish, kuzatuv kengashlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xolis, obyektiv, ishonchli va mustaqil axborotlarni taqdim qilish jarayonlarni takomillashtirishga yunaltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021 yil 24 dekabrdagi PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi hamda PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrdagi 967-son “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 21 dekabrdagi 325-son “Budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish va budjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi farmonida: “mamlakatni innovatsion rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar asosida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish; hududlarning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish; ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish; yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb etishning samarali mexanizmlarini joriy qilish va ular tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab quvvatlash; ilm-fan va innovatsiyalar sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, innovatsiyalar va texnologiyalar transferi bo‘yicha choratadbirlarni amalga oshirish” dan iborat muhim vazifalar belgilandi [1].

**Adabiyotlar sharhi**

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot loyihalari va tijoratlashtirish masalalari yuzasidan xorijlik va mamlakatimiz olimlarining qator izlanishlarini keltirish mumkin.

Innovatsiyalar zamonaviy inson hayotiga shunchalik mustahkam kirib bordiki, uning atrofini har tomondan: tovarlar (texnologiyalar) xossasi, ommaviy axborot vositalarida markaziy g‘oya va davlat iqtisodiy siyosati obyekti sifatida ham qamrab oldi. Tsyurixdagi Shveytsariya

texnika maktabida xizmat ko‘rsatgan sotsiologiya fanlari professori X.Novotni bizning davrimizni innovatsiyalarga intilish va chalg‘ish sifatida ta’riflaydi [2]. T.Veblenning ta’kidlashicha, o‘zgarishlarni o‘rganish iqtisodiyotning an’anaviy vazifasi hisoblanmaydi. Iqtisodiyot dinamikani o‘rganishga nisbatan, ko‘proq muvozanat bilan shug‘ullanishi tarixan vujudga keldi [3].

R.M.Suizi ushbu hodisaning izdoshi K.Marks bo‘lib, uning uchun ishlab chiqarish texnikasidagi o‘zgarishlar zamonaviy sanoatning rivojlanishiga olib keldi [4], degan edi. Mashinalar ham inqiroz orqali, so‘ngra inqilob orqali ijtimoiy o‘zgarishlarning asosiy omiliga aylandi. A.K.Piguning yozishicha, texnologik ishsizlik texnologiyalarning iqtisodiy samarali yoki neytral hisoblanishiga nisbatan nazariy tasniflash turkumiga olib keldi [5]. O‘sha davr ilmiy bahsi juda qisqa bo‘lgan - “sanoat innovatsiyalari” paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ravishda, 1960-yillardagi innovatsiyalarga bo‘lgan qiziqish yangilangunga qadar juda qisqa bo‘ldi.\

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mavzuni ilmiy o‘rganish, tahlil va tadqiq etish jarayonida induktsiya va deduktsiya, tizimli tahlil, statistic tahlil va ilmiy abstraktsiya kabi usullardan atroflicha foydalanilgan. Maqolada, ilmiy abstraktsiya usulidan foydalanish zamirida Buyuk Britaniya universitetlaridagi tijoratlashtirish jarayoni yuzasidan xulosalar chiqarildi va ularga mos ravishda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berildi.

**Tahlil va natijalar**

Oliy ta’lim muassasalari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy institutsional tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etish hamda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy tadqiqot loyihasi - bu yangi bilimlar yaratish, mavjud bilimlarni chuqurlashtirish yoki muayyan ilmiy muammoni hal qilish maqsadida tizimli ravishda olib boriladigan, maqsadli va rejalashtirilgan faoliyat bo‘lib, u tadqiqot obyekti, metodlar (usullar) va vositalarni o‘z ichiga olgan izlanishlar majmuidir.

Oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot loyihalari davlat faoliyatining samaradorligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash hamda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur loyihalar davlat va jamiyat ehtiyojlariga mos ilmiy yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy loyihalari iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat uchun muhim ilmiy-amaliy baza vazifasini bajaradi. Natijada, bunday loyihalar davlatning innovatsion rivojlanishi, kadrlar salohiyatining oshishi va jamiyat barqarorligining ta’minlanishiga bevosita hissa qo‘shadi.

Oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Ular yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etish orqali davlat va jamiyatning barqaror o‘sishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish, mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi kuchini shakllantirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Natijada, oliy ta’lim tizimi nafaqat intellektual resurslarni yetkazib beradi, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalari davlat dasturlarini samarali amalga oshirishda muhim strategik institut sifatida faoliyat yuritadi. Ular ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish, pilot dasturlarni sinovdan o‘tkazish hamda hududiy va soha bo‘yicha amalga oshirish jarayonlarini

qo‘llab-quvvatlash orqali davlat siyosatini ilmiy asoslashga yordam beradi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari kadrlar tayyorlash va ekspertlarni jalb qilish orqali dasturlarni samarali bajarilishini ta’minlaydi. Natijada ular nafaqat davlat dasturlarining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga hissa qo‘shadi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik rivojlanish strategiyasini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Oliy ta’lim muassasalari mamlakatning intellektual va ilmiy salohiyatini rivojlantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Ular yuqori malakali mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar va ekspertlarni tayyorlash orqali davlat va jamiyat ehtiyojlariga javob beruvchi kadrlar zaxirasini yaratadi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirib, yosh olimlarning ilmiy kompetensiyalarini oshiradi, innovatsion fikrlash va tadqiqot madaniyatini shakllantiradi. Natijada, bu jarayon davlatning ilmiy-texnik rivojlanishini, strategik rejalashtirish va innovatsiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini mustahkamlaydi.

Oliy ta’lim muassasalari ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish va innovatsiyalarni tijoratlashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga bevosita hissa qo‘shadi. Ular patentlar, litsenziyalar, startap va spin-off kompaniyalar yaratish orqali yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqadi, shuningdek, sanoat bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Natijada, oliy ta’lim muassasalari iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ish o‘rinlarini yaratish va davlat budjetiga qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish imkonini ta’minlaydi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat davlatning raqobatbardoshligini mustahkamlash va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassasalari jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish va ularni hal etishga xizmat qiladi. Ular ta’lim sifati, bandlik, sog‘liqni saqlash, ekologiya va demografik masalalar bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi hamda davlat va jamoatchilik uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Shu tariqa, oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, jamiyatning turli qatlamlari ehtiyojlarini qondirish va davlatning ijtimoiy siyosatini samarali amalga oshirishda muhim strategik vosita hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida tijoratlashtirish mablag‘lari ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mablag‘lar patentlar, litsenziyalar, startap va spin-off kompaniyalar yaratish, shuningdek, sanoat bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali universitetlarning mustaqil moliyaviy resurslarini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, tijoratlashtirish mablag‘lari:

- ilmiy loyihalarni kengaytirish va yangi tadqiqot yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash;
- universitetning innovatsion salohiyatini mustahkamlash;
- davlat va jamiyat iqtisodiyotiga qo‘shilgan qiymat yaratishda vosita sifatida xizmat qiladi.

Natijada, tijoratlashtirish mablag‘lari oliy ta’lim muassasalarining ilmiy va iqtisodiy samaradorligini oshirish, barqaror moliyalashtirishni ta’minlash hamda davlat va jamiyat uchun amaliy natijalarni yaratishda strategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarida grantlar ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi bilimlarni yaratishning asosiy moliyaviy manbai hisoblanadi. Grantlar orqali universitetlar:

- ilmiy loyihalarni moliyalashtiradi;
- innovatsion va amaliy tadqiqotlarni amalga oshiradi;
- talaba, magistrant va doktorantlarni tadqiqot ishlariga jalb qiladi;
- sanoat va davlat bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Shuningdek, grantlar oliy ta’lim muassasalariga davlat siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarida ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada grantlar universitetlarning ilmiy salohiyatini oshirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va davlat hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi amaliy natijalarni yaratishda muhim strategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

OTMlarda ilmiy tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish va tijoratlashtirish mablag‘lari bo‘yicha ichki audit tekshiruvining asosiy maqsadi — mablag‘lardan maqsadli, samarali va qonuniy foydalanilishini baholash, shuningdek, moliyaviy xatoliklar va risklarni aniqlashdan iborat. Bu ishlarni amalga oshirish uchun audit quyidagi vazifalarni amalga oshirishi talab etiladi. (1-rasm.)

- grant va shartnoma mablag‘larining **maqsadli sarflanishini tekshirish**;
- tijoratlashtirishdan tushgan daromadlarning **to‘liqligi va haqqoniyligini baholash**;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning **me’yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash**;
- ichki nazorat tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**1-rasm. Ichki auditning asosiy vazifalari**[136]

Yuqoridagi rasmdan shu aytishimiz mumkinki, ichki auditning asosiy vazifalari tashkilot faoliyatida moliyaviy intizomni ta’minlash, resurslardan samarali va qonuniy foydalanilishini nazorat qilishga qaratilgan. Ichki audit grant va shartnoma mablag‘larining maqsadli sarflanishini, tijoratlashtirishdan olingan daromadlarning to‘liqligi va haqqoniyligini baholash orqali moliyaviy shaffoflikni oshiradi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning amaldagi me’yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash hamda ichki nazorat tizimidagi kamchiliklarni ochib berib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish orqali tashkilot faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.**

Oliy ta’limda ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish – bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy innovatsiyalar uchun ham tayanch platforma bo‘lib, u mamlakatning ilmiy salohiyatini real iqtisodiy kuchga aylantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonni tizimli ravishda rivojlantirish orqali ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mustahkamlanadi va barqaror taraqqiyotga zamin yaratiladi.

Xalqaro amaliyotda, ayniqsa AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda universitetlar yirik innovatsion markazlarga aylangan bo‘lib, ular orqali ko‘plab texnologiyalar, startaplar va ilmiy patentlar ishlab chiqilib, sanoatga joriy qilinmoqda.

O‘zbekiston tajribasida ham so‘nggi yillarda ilmiy-texnikaviy loyihalarni tijoratlashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Innovatsion rivojlanish agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Jahon banki kabi tashkilotlar grantlar, inkubatsiya markazlari, texnoparklar va intellektual mulkni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini shakllantirishga hissa qo‘shmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekison Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”.// Toshkent shahri, 2021- yil 1-aprel.

[136] Muallif tomonidan tayyorlandi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

2. Nowotny H. Insatiable Curiosity: Innovation in a Fragile Future. -Cambridge (Mass.): MIT Press, 2008.
3. Veblen T. Why is Economics not an Evolutionary Science? // The Quarterly Journal of Economics. - 1898. - No. 12 (4). - Pp. 373-397.
4. Sweezy P.M. Karl Marx and the Industrial Revolution // Events, Ideology and Economic Theory / in R.V. Eagly (ed.). - Detroit: Wayne State University Press,1968. - Pp. 107-126.
5. Pigou A. C. The Economics of Welfare. - Second edition. - London: Macmillan, 1924.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# МОЛИЯВИЙ ИНСТРУМЕНТЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ МАЗМУНИ, ТАСНИФИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Нуралиев Беҳзод Бахтиёр ўғли**

*«Аудит» кафедраси ассистенти*
*Тошкент давлат иқтисодиёт университети*
*b.nuraliyev@tsue.uz*
*ORCID: 0009-0002-2427-1633*

***Аннотация.*** *Мазкур мақолада молиявий инструментларнинг иқтисодий мазмуни, таснифи ва уларнинг мамлакатимиз иқтисодиётида тутган ўрни ва аҳамияти ёритиб берилган. Бугунги кунда жаҳонда юз бераётган сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар, ўзаро ҳисоб-китоблардаги молиявий рисклар ҳамда бизнесни бошқаришдаги муаммолар молиявий инструментлар ҳақида кўпроқ ўрганишни, унинг мазмун-моҳиятини чуқурроқ англаш ва келгусида юзага келиши мумкин бўлган йўқотишларни минималлаштиришни талаб этмоқда. Шу муносабат билан молиявий инструментлар ҳисобини тўғри йўлга қўйиш, унинг ҳисоб ва ҳисоботини юритишнинг ошиб бораётган аҳамиятини ушбу мақола орқали кенгроқ ёритиб бериш олдимизга қўйилган асосий вазифалардан биридир.*

***Калит сўзлар****: молиявий ҳисоботнинг ҳалқаро стандартлари, молиявий инструментлар, молиявий актив, молиявий мажбурият, деривативлар, амортизацияланган қиймат, ҳаққоний қийматда баҳолаш.*

# ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ, КЛАССИФИКАЦИЯ ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ И ИХ ХАРАКТЕРИСТИКИ

**Нуралиева Бехзод Бахтияр сын**

*Ассистент отдела «Аудит»*
*Ташкентский государственный экономический университет*
*b.nuraliyev@tsue.uz*
*ОРЦИД: 0009-0002-2427-1633*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются экономическое содержание, классификация финансовых инструментов, а также их роль и значение в экономике нашей страны. Сегодня политические и экономические изменения, происходящие в мире, финансовые риски во взаимных расчетах и проблемы управления бизнесом требуют более тщательного изучения финансовых инструментов, более глубокого понимания их сущности и минимизации возможных потерь в будущем. В этой связи одной из главных задач, поставленных перед нами в данной статье, является более полное объяснение возрастающей важности надлежащего учета финансовых инструментов и ведения их учета и отчетности.*

***Ключевые слова****: международные стандарты финансовой отчетности, финансовые инструменты, финансовые активы, финансовые обязательства, производные финансовые инструменты, амортизированная стоимость, оценка по справедливой стоимости.*

# ECONOMIC CONTENT, CLASSIFICATION OF FINANCIAL INSTRUMENTS AND THEIR CHARACTERISTICS

**Nuraliev Behzod Bakhtiyar’s son**

*Assistant of the "Audit" department*
*Tashkent State University of Economics*
*b.nuraliyev@tsue.uz*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ORCID: 0009-0002-2427-1633

***Abstract.*** *This article discusses the economic content, classification of financial instruments, and their role and importance in the economy of our country. Today, the political and economic changes taking place in the world, financial risks in mutual settlements, and problems in business management require a more thorough study of financial instruments, a deeper understanding of their essence, and the minimization of possible losses in the future. In this regard, one of the main tasks set before us in this article is to more fully explain the growing importance of properly accounting for financial instruments and maintaining their accounting and reporting.*

***Key words*** *: international standards of financial reporting, financial instruments, financial asset, financial liability, derivatives, amortized value, valuation at fair value.*

**Кириш.**

Prof. Liesbeth Colen ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikriga ko‘ra, “O‘tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizmini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri kapitalni to‘plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalarga texnologiyalar va bilimlarni jalb qilinishi iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atlarini ta’minlaydi” [2]. Haqiqatdan ham bunday yondashuv, ayniqsa rivojlanayotgan va o‘tish davrida bo‘lgan iqtisodiyotlar uchun juda muhim, chunki bu mamlakatlar ko‘pincha ichki resurslardan foydalana olishda cheklangan va tashqi investitsiyalarni jalb qilish orqali ularga zarur bo‘lgan texnologiyalar va boshqaruv tajribalarini o‘zlashtirishi mumkin.

G.M.Galeeva fikriga ko‘ra, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda kontsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta’sir qiladi” [3]. Olimning fikriga ko‘ra, xorijiy investitsiyalarning faqat ayrim mintaqalarga yoki tarmoqlarga qaratilishi boshqa mintaqalarda iqtisodiy rivojlanishning cheklanishiga olib keladi.

Jiyun Cao o‘zining ilmiy tadqiqotida so‘nggi yillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar xalqaro savdoda ustunlikka ega bo‘layotganini ko‘rsatib bergan. Shuningdek kasaba uyushmalarining mavjudligi sababli mehnat bozori kamchiliklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun rag‘batlantirishi mumkinligini va mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini

ilmiy asoslab berishgan [4]. Fikrimizcha, Jiyun Caoning ushbu xulosasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar xalqaro savdoda ustunlikka ega bo‘layotganini ko‘rsatib bergan va har tomonlama to‘liq yorita olgan, ammo qo‘shimcha sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini aniqlash va solishtirishda qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanish, guruhlarga ajratgan holda taqqoslash uni yanada to‘ldirgan bo‘lar edi.

Professor D.G‘.G‘ozibekov - “Xorijiy investitsiyalar bir iqtisodiyot subyekti kapitalini o‘zga iqtisodiyotga muayyan muddatga bog‘lash bo‘lib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi va natijada mamlakatlar va mintaqalar bo‘ylab kapital ko‘chishi yuz beradi” [5] deb ta’rif bergan. Fikrimizcha, xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli o‘laroq, risklar kengligi va huquqiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Bu, ayniqsa, investorlar uchun yangi bozor va iqtisodiy sharoitlarga moslashishni talab qiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar mamlakatlar uchun iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Bu investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki texnologiyalarni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksportni oshirish, ijtimoiy va ekologik taraqqiyotni ham rag‘batlantiradi. Shuningdek, ular moliyaviy tizimning mustahkamlanishi va davlat budjetining qo‘llab-quvvatlanishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O‘zbekiston uchun investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishning zarurligi quyidagi omillar bilan xususiyatlanadi:

*1. Iqtisodiy rivojlanish va barqaror o‘sishni ta’minlash.* Investitsiyalar – iqtisodiyotdagi ustuvorlikdan biri. Yaxshi investitsiya muhiti kelajakdagi iqtisodiy o‘sishni har tomondan qo‘llab-quvvatlaydi, yangi biznes loyihalar paydo bo‘ladi, ish o‘rinlari yaratiladi. Bu alohida strategik ahamiyatga ham ega, chunki iqtisodiyot xalqaro va milliy sarmoya bilan rivojlanadi. 2021-2025-yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 236,6 trln. so‘mdan 591,1 trln so‘mga yetdi va ularning hajmi qariyb 2,5 barobarga ko‘paydi. So‘nggi besh yil mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sish sur’atlari o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2024-yilda eng yuqori o‘sish sur’ati – 131,3 foiz kuzatilgan bo‘lsa, joriy davrda o‘sish sur’ati 110,5 foizga teng bo‘ldi (1-rasm).




**1-rasm. 2021-2025-yillarda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’ati** [6]

Bunday holat:

– birinchidan, korxonalar, tarmoqlar va iqtisodiyotning moddiy-texnik bazasini yaratish va

yangilash uchun ajratiladigan mablag‘larning uzoq muddat foydalaniladigan asosiy vositalarga yo‘naltirilayotganligini bildiradi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va intensivligini ta’minlash nuqtai nazaridan ijobiy holatdir;

– ikkinchidan, investitsiyalarning mashina, asbob-uskunalar, transport vositalari, jihoz va xo‘jalik inventarini sotib olishga, asbob-uskunalarni montaj qilishga va boshqa kapital ishlarga qilingan xarajatlarning ko‘payib borayotganligini anglatadi va real sektorni rivojlantirish jihatidan ijobiydir;

– uchinchidan, asosiy vositalar yangilansa, ishlab chiqarish quvvatlari oshadi va iqtisodiyotda o‘sish yuzaga keladi. Qurilish, modernizatsiya, yangi korxonalar – barchasi mehnat bozorini qo‘llab-quvvatlaydi. Innovatsiya, avtomatlashtirish va raqamlashtirish uchun asosiy kapitalga sarmoya zarur. Yangilangan uskuna va texnologiyalar arzon, tez va sifatli mahsulot ishlab chiqarishga yordam beradi. Yo‘llar, logistika, energetika obyektlari iqtisodiyotning barcha sohalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Investitsiya muhiti jozibadorligini tadqiq etishda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibini tahlil qilishning ahamiyati yuqori bo‘lib, bunda korxona yoki mamlakat iqtisodiyotining “moliyaviy salomatligi” va rivojlanish strategiyasini tushunish uchun eng muhim vositalardan biridir. Tahlil investitsiyalarning qancha qismi xususiy mablag‘lar (foyda va amortizatsiya) va qancha qismi jalb qilingan mablag‘lar (kreditlar, investitsiya fondlari) hisobiga amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Agar xususiy mablag‘lar ulushi yuqori bo‘lsa – korxona moliyaviy jihatdan barqaror va tashqi qarzlarga bog‘lanib qolmagan. Agar jalb qilingan mablag‘lar ko‘p bo‘lsa – bu kengayishdan dalolat berishi mumkin, ammo moliyaviy xatar (qarzni qaytarish majburiyati) ham yuqori bo‘ladi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini baholash uchun manbalar tarkibida markazlashgan mablag‘lar (byudjet mablag‘lari) va markazlashmagan mablag‘lar nisbati ko‘riladi. Byudjet mablag‘larining kamayishi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ko‘payishi iqtisodiyotning bozor tamoyillariga o‘tayotganini va investitsion muhit yaxshilanayotganini anglatadi. Kreditlarning investitsiya tarkibidagi ulushi bank tizimining real sektorni qanchalik qo‘llab-quvvatlayotganini ko‘rsatadi. Foiz stavkalarining investitsiyalarga ta’sirini aynan shu yerda ko‘rish mumkin (1-jadval).

**1-jadval**

**2021-2025-yillarda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi (foiz hisobida)** [7]

| № | Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Respublika byudjeti mablag‘lari | 8,8 | 7,8 | 5,8 | 4,6 | 4,7 |
| 2. | Korxona va tashkilotlar mablag‘lari | 29,1 | 31,3 | 24,1 | 17,6 | 15,3 |
| 3. | Aholi mablag‘lari | 9,0 | 9,5 | 9,5 | 6,4 | 6,3 |
| 4. | Xorijiy investitsiya va kreditlar | 42,7 | 41,6 | 53,4 | 67,6 | 71,4 |
| 5. | Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 1,3 | 0,9 | 0,4 | 0,8 | 0,4 |
| 6. | Tijorat bank kreditlar va boshqa qarz mablag‘lari | 8,0 | 7,8 | 6,3 | 2,6 | 1,9 |
| **Jami** | | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** |

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish quyidagi xulosalarni beradi:

– tashqi investitsiyalarga bog‘liqlikning keskin ortishi. Eng ko‘zga tashlanadigan tendensiya – xorijiy investitsiya va kreditlar ulushining o‘sishidir. 2021-yildagi 42,7 foizdan 2025-yilga kelib 71,4 foizgacha ko‘tarilgan. Bundan tendensiya iqtisodiyot “tashqi moliyalashtirish” modeliga o‘tganligini bildiradi. Bu bir tomondan mamlakatning xalqaro investitsion jozibadorligi oshganini anglatsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy barqarorlikning tashqi omillarga (global bozor, geosiyosat) bog‘liqligi kuchayganidan dalolat beradi.

– ichki resurs bazasining cheklanishi. Korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari ulushi ikki baravarga, ya’ni 2021-yildagi 29,1 foizdan 2025-yilda 15,3 foizgacha kamaygan. Bunday holat korxonalarning o‘z-o‘zini moliyalashtirish imkoniyati pasayganligini ko‘rsatadi va bu sof foydaning kamayishi yoki ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Korxonalar

modernizatsiya uchun ichki zaxiralardan ko‘ra ko‘proq tashqi qarzga tayanmoqda.

– davlatning “investor” sifatidagi rolining qisqarishi. Respublika byudjeti va Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining ulushi izchil kamayib bormoqda (byudjet: 8,8 foizdan 4,7 foizgacha). Bu iqtisodiyotni liberallashtirish va davlat xarajatlarini optimallashtirish siyosatining natijasidir. Davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri investor rolidan voz kechib, xususiy va xorijiy kapital uchun maydon bo‘shatib bermoqda.

– bank tizimining investitsion faollikdagi inqirozi. Eng xavotirli ko‘rsatkich – tijorat banklari kreditlarining ulushi 2021-yildagi 8,0 foizdan 2025-yilda atigi 1,9 foizga tushib qolgan. Ichki bank tizimi asosiy kapitalni moliyalashtirishda o‘z mavqeini deyarli yo‘qotgan. Bunga banklardagi resurs bazasining qimmatligi (yuqori foiz stavkalari) yoki banklarning uzoq muddatli "investitsion" kreditlardan ko‘ra qisqa muddatli “iste’mol” kreditlariga e’tibor qaratayotgani sabab bo‘lishi mumkin.

– aholi investitsiyalarining passiv dinamikasi. Aholi mablag‘lari ulushi ham 9,0 foizdan 6,3 foizga tushgan. Bu uy-joy qurilishi va kichik tadbirkorlikda aholining investitsion faolligi sekinlashganini ko‘rsatadi.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar tarkibida tashqi manbalarga (investitsiyalarga) yo‘naltirilgan model shakllangan. Xorijiy kreditlar ulushining haddan tashqari yuqoriligi (70 foizdan baland) kelajakda valyuta riskini oshiradi. Ichki bank va korxona mablag‘larining kamayishi iqtisodiyotning “ichki immuniteti” pastligini anglatadi. Shu munosabat bilan, fikrimizcha, mahalliy korxonalarning foydasini investitsiyaga yo‘naltirishni rag‘batlantirish (soliq imtiyozlari orqali); tijorat banklarining uzoq muddatli investitsion kreditlar berish imkoniyatini kengaytirish (fond bozorini rivojlantirish orqali) hamda investitsiyalar tarkibida xorijiy kapital va ichki mablag‘lar o‘rtasidagi muvozanatni (kamida 50/50 yoki 60/40 nisbatda) tiklash choralarini ko‘rish zarur, deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, mazkur dinamika investitsiyalarni moliyalashtirishda tashqi manbalar ustuvorligi shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu ijobiy jihat sifatida qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb etilishini ta’minlasa-da, kelgusida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun ichki moliyaviy manbalarni, xususan, bank-kredit tizimi va korporativ sektor imkoniyatlarini kengaytirish, investitsiyalarni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

*2. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.* O‘zbekiston hozirda global bozorlarda loyiha va imkoniyatlarni taqdim qilish imkoniyatiga ega. Masalan, davlat tomonidan yangi qonunlar qabul qilinmoqda (“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi), raqamli platforma orqali tashabbuslar jadal tasdiqlanmoqda va byurokratik to‘siqlar kamaytirilmoqda. Shuningdek, xorijiy investorlar bilan muntazam muloqot qilish uchun xorijiy investorlar kengashi tashkil etilgan. Investitsiyalar orqali O‘zbekistonga xalqaro tajriba, texnologiya va bilim ham kirib keladi. Jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya va kreditlar asosiy kapitalni yangilash orqali iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirishda muhim omil bo‘lmoqda (2-rasm).




**2-rasm. 2021-2025-yillarda yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar** [8]

Ushbu jadval iqtisodiyotning global kapital bozoriga integratsiyalashuvi va xorijiy kapitalning

sifat jihatidan o‘zgarishini aks ettiradi. Jadvaldagi ikkita asosiy ko‘rsatkichning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan quyidagicha tahlil qilish mumkin:

– xorijiy investitsiyalar oqimining jadal o‘sishi. Birinchi qatorda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning hajmi 2021-yildagi 9,8 birlikdan 2025-yilga kelib 33,5 birlikkacha, ya’ni 3,4 baravarga oshgan. Bu ko‘rsatkich mamlakatning tashqi investitsion jozibadorligi keskin oshganini va xalqaro moliya institutlarining ishonchi ortganini anglatadi. Bunday o‘sish sur’ati iqtisodiyotning ekstensiv rivojlanishdan intensiv rivojlanish bosqichiga o‘tayotganidan dalolat beradi.

– xorijiy investitsiyalar tarkibidagi sifat o‘zgarishi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar). Ikkinchi qator – jami xorijiy mablag‘lar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ulushini ko‘rsatadi. U 2021-yildagi 28,8 foizdan 2025-yilda 66,5 foizgacha ko‘tarilgan. Bu jadvalning eng muhim nuqtasidir. Odatda, xorijiy mablag‘lar ikki xil bo‘ladi: kreditlar (qaytarilishi kerak bo‘lgan qarz) va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (investorning o‘zi tavakkal qilib olib kelgan mablag‘i). To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushining 2,3 baravarga ortishi mamlakat iqtisodiyoti uchun “qarz yuki” kamayib, “sheriklik kapitali” ko‘payayotganini anglatadi. Investor faqat pul emas, balki yangi texnologiya va menejmentni ham olib kelgan.

– 2024-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushining ma’lum darajada pasayishi (45,1 foiz) investitsiya tarkibida vaqtinchalik qarz mablag‘lari ulushi ortishi bilan izohlanishi mumkin. Biroq 2025-yilda ushbu ko‘rsatkichning keskin o‘sishi investitsiya siyosatining yanada samaralilashganini va investorlar ishonchining mustahkamlanganini bildiradi.

Jadval asosida iqtisodiy rivojlanishning uchta asosiy bosqichini ajratish mumkin: 2021-2022-yillar (tayyorgarlik bosqichi)da investitsiyalar hajmi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi barqaror, ammo sekin o‘sgan. Bu davrda asosiy urg‘u institusional islohotlarga berilgan; 2023-2024-yillar (o‘tish bosqichi)da xorijiy investitsiyalar hajmida katta sakrash (16,0 dan 26,4 ga) kuzatilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 50% atrofida muvozanatlashgan. Bu yirik davlat loyihalariga xorijiy kapital faol jalb qilinganini ko‘rsatadi; 2025-yil (sifat bosqichi)da to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi rekord darajaga (66,5%) chiqqan. Bu iqtisodiyotning tashqi qarzga bo‘lgan ehtiyoji kamayib, xususiy xorijiy kapitalning iqtisodiyotdagi roli hal qiluvchi darajaga yetganini anglatadi.

Bunday tendensiya mamlakatning to‘lov balansini yaxshilaydi va davlatning tashqi qarz yukini kamaytirishga xizmat qiladi. Chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar – bu qaytarib berilishi shart bo‘lgan qarz emas, balki mamlakat ichida yaratilgan va ishlayotgan yangi korxonalar, ish o‘rinlari va soliq tushumlari demakdir.

*3. Qonunchilik va institusional islohotlar.* Huquqiy bazaga e’tibor berish juda muhim: sarmoyadorlar huquqlari himoyalangan, bitimlar bajarilishi, bahslar sud orqali hal qilinishi kafolatlangan bo‘lishi kerak. Masalan, Toshkent xalqaro arbitraj markazi tashkil etilgan va bu investorlar uchun muhim mexanizmdir. Xalqaro tashkilotlar ham bu sohani ko‘rib chiqib, islohotlar yo‘lini taklif qilmoqda. Huquqiy va institusional mexanizmlar takomillashtirilsa, investitsiyalash riski pasayadi va yanada ko‘proq investitsiyalar kirib kelishi mumkin. Bunda asosiy e’tibor xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim shakli hisoblangan qo‘shma korxonalar tashkil etishning qonuniy jihatlariga qaratilishi zarur. 2019-yilga qadar mamlakatimiz hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etish uchun ustav fondining (ustav kapitalining) kamida 30 foizini chet el investitsiyalari tashkil etishi zarur edi. 30 foizlik minimal chegara iqtisodiy nazariya va amaliyot nuqtai nazaridan bir qancha to‘siqlarni yuzaga keltirgan. Birinchidan, kirish to‘siqlarining yuqoriligi. Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, bozorga kirish uchun qo‘yilgan har qanday qat’iy ma’muriy cheklov raqobatni kamaytiradi. Ikkinchidan, mablag‘ taqchilligi. Ko‘pgina innovasion startaplar yoki xizmat ko‘rsatish sohasidagi kompaniyalar katta kapital bilan emas, balki nou-xau bilan kirib keladi. Ular uchun 30 foizlik ulushni naqd pul yoki mulk ko‘rinishida shakllantirish ortiqcha moliyaviy yuk bo‘lgan. Uchinchidan, diversifikatsiya va tavakkalchilik. Investorlar odatda yangi va notanish bozorlarga kirishda “bosqichma-bosqich strategiya”dan foydalanadilar. To‘rtinchidan, ehtiyotkorlik prinsipi. Chet el investori dastlab kichik ulush (masalan, 10-15%) bilan kirib, biznes muhitini

o‘rganmoqchi bo‘ladi. 30 foizlik majburiyat esa investorni hali o‘zi ishonchi komil bo‘lmagan bozorga kattaroq mablag‘ tikishga majbur qilgan. Bu esa tavakkalchilikni oshirib, ko‘plab potensial hamkorlarni to‘xtatib qolgan. Beshinchidan, kapital tuzilmasining nomutanosibligi. Korporativ boshqaruvda kapital tuzilmasi korxonaning ehtiyojidan kelib chiqib shakllanishi lozim. Agar mahalliy hamkor kuchli moddiy bazaga ega bo‘lsa-yu, xorijiy hamkor faqat texnologiya olib kirsa, texnologiyaning qiymati kapitalning 30 foiziga yetmasligi mumkin edi. Natijada, korxonani qo‘shma korxona sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun sun’iy ravishda kapitalni ko‘paytirish yoki xorijiy ulushni asossiz oshirishga to‘g‘ri kelgan. Oltinchidan, imtiyozlardan foydalanishdagi tengsizlik. O‘sha davrdagi qonunchilikka ko‘ra, qo‘shma korxona maqomiga ega korxonalarga katta soliq va bojxona imtiyozlari berilgan. 30 foizlik chegara tufayli 29 foiz ulushga ega investor bilan 30 foiz ulushga ega investor o‘rtasida keskin farq (diskriminatsiya) yuzaga kelgan. Bu bozordagi tabiiy muvozanatni buzib, investitsiyalarni iqtisodiy samadorlik uchun emas, balki “imtiyoz olish” uchun yo‘naltirilishiga sabab bo‘lgan. Qolaversa, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan me’yorga muvofiq, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona deganda ustav kapitalida kamida 10 foiz chet el investitsiyasi bo‘lgan korxona tushuniladi. Aksariyat taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham ushbu chegara amal qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, *O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida chet el investitsiyalari ishtirokida tashkil etiladigan korxonalar aksiyalari va ustav fondidagi chet el investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 30 foizdan 15 foizga kamaytirish, istiqbolda esa ushbu ko‘rsatkichni 10 foiz darajasida belgilash maqsadga muvofiqdir.* Ilmiy nuqtai nazardan, 30 foizlik chegaraning bekor qilinishi va 15 foizga tushirilishi (hamda minimal ustav kapitali miqdorining kamaytirilishi), kelajakda ushbu ko‘rsatkichni 10 foiz qilib belgilash investitsiya muhitining jozibadorligini yanada yaxshilaydi. Bunday qadam to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining diversifikatsiyalanishiga, kichik va yuqori texnologik kompaniyalarning kirib kelishiga hamda mamlakatning xalqaro reytinglar va indekslar (Iqtisodiy samaradorlik, Global raqobatbardoshlik, Boshqaruv sifati, Global innovatsiyalar indeksi)dagi mavqei yaxshilanishiga xizmat qildi. Bunday o‘zgarish investorga “majburiyat” emas, balki “tanlov” berish orqali bozor jozibadorligini yanadi oshiradi. Buni quyidagi 2-jadval asosida ko‘rib chiqamiz:

**2-jadval**

**Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondining minimal miqdorini shakllantirish talablari va uning o‘zgarishi** [9]

| **Ko‘rsatkich** | **30 foizlik tartib (eski)** | **15 foizlik tartib (amaldagi)** | **10 foizlik tartib (istiqbolda)** |
|---|---|---|---|
| Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun ustav fondining minimal miqdori | 150 000 AQSH dollari | 400 mln. so‘m | 400 mln. so‘m |
| Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarda chet el investitsiyalarining minimal ulushi | 45 000 AQSH dollari | 60 mln. so‘m | 40 mln. so‘m |
| Investor uchun risk darajasi | Yuqori (kapital konsentratsiyasi) | O‘rtacha | Past (diversifikatsiya imkoni) |
| Kichik investorlar soni | Cheklangan | Kengaygan | Maksimal |
| Mahalliy sheriklar ulushi | 70 foizgacha | 85 foizgacha | 90 foizgacha |

Minimal ulushning kamayishi bir vaqtning o‘zida ko‘proq xorijiy kompaniyalarni jalb qiladi. 30 foizlik talabda 10 ta investor kelgan bo‘lsa, 10 foizlik talabda nazariy jihatdan 30 tagacha investor kichik ulushlar bilan bozorga kirishi mumkin. Ko‘p hollarda xorijiy kompaniyalar katta pul emas, balki nou-xau va texnologiya olib kirishni xohlaydi. 30 foizlik cheklov texnologiyaning qiymati kapitalning uchdan biriga yetmagan hollarda to‘siq bo‘lar edi. 10-15 foizlik chegara innovasion kompaniyalarga yengillik beradi. Minimal ulushning pastligi mahalliy tadbirkorlarga korxona ustidan nazoratni (85-90%) saqlab qolgan holda xorijiy kapitalni jalb qilish imkonini beradi. Ulushning 30 foizdan 15 foizga,

keyinchalik 10 foizga tushirilishi investitsiyaviy jozibadorlikni ta’minlaydi. Bu nafaqat kapital miqdorini, balki investorlar “sifati” va “soni”ni oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) metodologiyasiga ko‘ra, 10 foizlik ulush – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya deb tan olinishi uchun minimal ko‘rsatkich hisoblanadi. Agar ulush 10 foizdan past bo‘lsa, bu “portfel investitsiyasi” (shunchaki foyda olish uchun sotib olingan aksiya) hisoblanadi. Agar ulush 10 foiz va undan yuqori bo‘lsa, bu investorning korxona boshqaruvida strategik ishtirok etish niyati borligini anglatadi. 10 foizlik chegaraning belgilanishi O‘zbekiston statistikasini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtiradi va mamlakatning investitsiyaviy reyting (indeks)lardagi o‘rnini yanada yaxshilaydi.

2020-2025-yillarda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 4203 taga ko‘paygan bir sharoitda qo‘shma korxonalar soni ham o‘sib bormoqda (3-rasm).




**3-rasm. 2020-2025-yillarda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni va dinamikasi** [10]

Jadvalda eng e’tiborli jihat – xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar sonining har yili izchil oshib borishidir. 2020-yildagi 1715 tadan 2025-yilga kelib, 4247 tagacha ko‘paygan. Bu qariyb 2,5 baravarlik o‘sish demakdir. Ushbu o‘sish yuqorida biz muhokama qilgan “investitsiyaviy ostona”ning pasaytirilishi (30 foizdan 15 foizga) va biznes muhitining liberallashtirilishi natijasidir. Kichik ulush bilan kirish imkoniyati ko‘proq xorijiy sub’yektlarni bozorga jalb qilgan. 2020-yilda xorijiy korxonalar jami korxonalarning bor-yo‘g‘i 0,4 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,0 foizga yetgan. Xorijiy korxonalar ulushining 1 foizga yetishi ijobiy ko‘rsatkich, biroq rivojlanayotgan davlatlar uchun bu raqamni 3-5 foizgacha olib chiqish imkoniyati mavjud. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondida xorijiy investitsiyalar ulushini 10 foizgacha tushirish taklifi, fikrimizcha, ushbu trendni yanada tezlashtiradi. Bu nafaqat yirik zavodlar, balki yuqori texnologik kichik va o‘rta xorijiy korxonalarning ko‘payishiga olib keladi. Xorijiy korxonalar sonining o‘sishi yangi ish o‘rinlari, zamonaviy boshqaruv va eksport salohiyatining oshishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Garchi umumiy korxonalar soni 2023–2024-yillarda tebranishlar (kamayish) kuzatilgan bo‘lsa-da, xorijiy korxonalar soni o‘sishda davom etgan. Bu ichki iqtisodiy kon’yunkturadan qat’i nazar, xorijiy investorlarning O‘zbekiston bozoriga bo‘lgan strategik qiziqishi barqarorligini anglatadi.

4. *Tarmoqlar: infratuzilma va maxsus iqtisodiy zonalar.* Infratuzilma (transport, energetika, sanoat)ni rivojlantirish bilan investitsiya imkoniyatlari yanada kengayishi mumkin. Hozirda O‘zbekistonda 149 ta kichik sanoat zonasi va 21 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat ko‘rsatmoqda. Maxsus iqtisodiy zonalar investorlarga turli moliyaviy imtiyozlar va preferensiyalar berish orqali jozibadorlikni oshiradi.

5. *Shaffoflik va korrupsiyani kamaytirish.* Korrupsiya, byurokratiya va qonunlardagi noaniqliklar – investorlar uchun katta to‘siqdir. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda shaffoflikni oshirish yo‘li bilan sarmoyadorlarga ishonch berish mumkin – bu investorlar uchun juda muhim jihatdir.

6. *Risklarni boshqarish va investitsiyalarni kafolatlash.* Investorlar uchun huquqiy xavf-

xatarlar (kontraktlar, bahslar)ni kamaytirish zarur. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu xalqaro va milliy investorlar uchun jozibadorlikni yanada oshiradi.

*7. Iqtisodiy diversifikatsiya.* Faqat bitta tarmoqqa (masalan, tabiiy resurslarga) tayyor bo‘lish yuqori xatarli. Investitsiya muhitini jozibador qilib diversifikatsiya qilish – boshqa sohalarga (IT-axborot texnologiyalari, sanoat, qishloq xo‘jaligi va h.k.) sarmoya kiritish imkoniyatlarini yaratadi. Bu ham mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega.

*8. Kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning zarurligi va dolzarbligi.* Kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zarurligi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ifodalanadi: iqtisodiy o‘sish va texnologik taraqqiyot; bandlik va daromadlar oshishi; innovatsiyalar va raqobatbardoshlikning kuchayishi; hududiy va tarmoq diversifikatsiyasi; soliq bazasining kengayishi; ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishi. Quyidagi 2.5-rasmda O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik tadbirkorlikning investitsiyaviy faolligi keskin oshayotganini ko‘rsatadi. Rasmning birinchi qatori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mutlaq qiymati (trillion so‘mda) yildan-yilga tezlashib borayotganini ko‘rsatmoqda. 2020-yildagi 96,6 trln so‘mdan 2025-yilga kelib 362,9 trln so‘mgacha o‘sgan. 5 yil ichida investitsiyalar hajmi qariyb 3,7 baravarga oshgan. Bu iqtisodiyotda kapitallashuv jarayoni juda faol ketayotganini va kichik biznesning moliyaviy imkoniyatlari kengayganini anglatadi. Ikkinchi qatordagi foiz ko‘rsatkichlari jami investitsiyalar tarkibida kichik biznesning roli naqadar oshganini ko‘rsatadi. 2020-yilda kichik biznesning ulushi 46,0 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 61,4 foizga yetgan. Bu iqtisodiyotning “markazlashmagan” holatga o‘tayotganini isbotlaydi. Ya’ni, investitsiyalar endilikda nafaqat davlat yoki yirik korxonalar hisobiga, balki asosan kichik va o‘rta biznes sub’yektlarining tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda. 60 foizdan yuqori ko‘rsatkich – bu iqtisodiyotning drayveri to‘liq xususiy va kichik sektorga o‘tganining belgisidir.




**4-rasm. Kichik tadbirkorlik sub’yektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi va ulushi dinamikasi** [11]

Biroq, amaliyotda kichik tadkbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar mavjud. Jumladan, tijorat banklaridan kredit olishlarida garov ta’minoti bilan bog‘liq muammolar sohadagi investitsion loyihalarni faol moliyalashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida kafolat yoki kafillik sxemalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, kredit berish jarayonida bank uchun asosiy xavf – kreditni o‘z vaqtida qaytarmaslik xavfi. Shu bois banklar ko‘pincha kredit bo‘yicha qo‘shimcha kafolat yoki kafillik talab qiladi. Kafolat yoki kafillik – bu kredit miqdori va uning foizi uchun mol-mulk, aktiv yoki uchinchi shaxsning kafolat berishi tushuniladi va agar kredit oluvchi o‘z majburiyatlarini bajarmasa, bank kafolatdan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Kafolat

yoki kafillik kredit riskini kamaytiradi va bank uchun qo‘shimcha kafolat yaratadi.

**Xulosa va takliflar.**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistonda investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish orqali xorijiy investitsiya va kreditlarni faol jalb qilish va moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosa va tavsiyalar muhim amaliy ahamiyatga ega:

1. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilishning dolzarbligi bugungi kunda strategik ahamiyatga ega. Buni bir nechta asosiy omillar bilan qisqacha izohlash mumkin: mahalliy korxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash uchun katta miqdorda kapital talab etiladi. Xorijiy investitsiyalar nafaqat pul, balki yangi texnologiyalar va boshqaruv tajribasi) olib keladi. Bu esa mahsulot sifatini oshirib, tannarxini tushirishga xizmat qiladi; aholi soni jadal o‘sib borayotgan O‘zbekiston uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish ijtimoiy zaruriyatdir. Xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar minglab fuqarolarni ish bilan ta’minlash imkonini beradi; xorijiy investorlar odatda tayyor sotuv bozorlariga ega bo‘lishadi. Ularning ishtiroki O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jahon standartlariga mos kelishini va xalqaro bozorlarga chiqishini tezlashtiradi; yirik energetika, transport va logistika loyihalarini faqat davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish qiyin. Xalqaro moliyaviy institutlarning imtiyozli kreditlari va xususiy investitsiyalar ushbu sohalarni rivojlantirishning asosiy manbaidir.

2. Kafolat va kafillik – kredit xavfini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Ular investitsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirishdagi barqarorlikni ta’minlaydi. Shu orqali banklar kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga ham kredit berishda xavfni kamaytirishi mumkin. Kichik tadbirkorlik sub’yektlari uchun garov muammosini kafolat va kafillik mexanizmlari orqali hal qilish – xalqaro amaliyotda eng samarali va ilmiy asoslangan yechimlardan biri hisoblanadi. Bu mexanizm “bank – tadbirkor – davlat (yoki uchinchi tomon)” uch burchagidagi manfaatlar muvozanatini ta’minlaydi. Odatda, kichik biznesda kredit olish uchun zarur bo‘lgan aktivlar (ko‘chmas mulk) yetishmaydi. Kafolat jamg‘armalari bu yerda “kredit ko‘prigi” vazifasini o‘taydi. Bank kredit berayotganda xavfni 100% o‘z zimmasiga olmaydi. Kafolat jamg‘armasi (masalan, “*Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati*) xavfning 50 foizdan 75 foizgacha bo‘lgan qismini o‘z zimmasiga oladi. Tadbirkor o‘zining binosini bankka garovga qo‘yish o‘rniga, kafillikdan foydalansa, o‘sha binoni boshqa investitsiya loyihasi uchun mustaqil ishlatishi yoki sotishi mumkin. Yuqori texnologik (IT, startaplar) korxonalarda ko‘pincha bino yoki zavod bo‘lmaydi, faqat “intellektual mulk” bo‘ladi. Kafillik tizimi bunday “aktivsiz” korxonalarga kapital jalb qilishning yagona yo‘lidir. Kafolatlangan kreditlar banklar uchun past xavfli hisoblangani sababli, banklar bunday kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini 2-3 foizga pasaytirishi uchun ilmiy asos paydo bo‘ladi.

3. *Tadbirkorlik loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish maqsadida yirik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kredit va lizingning 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan kafolat yoki kafillik berish maqsadga muvofiqdir.* Chunki, davlat yoki davlat qo‘llab-quvvatlovchi moliya institutlari tomonidan berilgan kredit va lizinglarning 50 foizgacha bo‘lgan qismi uchun kafolat taqdim etilishi kichik tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi. Yarim davlat kafolati bank uchun kredit xavfini pasaytiradi hamda kichik tadbirkorlik subyektlari uchun kredit olish imkoniyatlari kengayadi. Kafolat kredit olishni yengillashtiradi, bu esa tadbirkorlarni yangi loyihalarga sarmoya kiritishga jalb qiladi hamda kichik biznesning asosiy kapitalga investitsiya kiritishini rag‘batlantiradi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirilishi kafolat orqali ta’minlansa, tadbirkorlik subyekti uchun moliyaviy risk kamayadi, bu esa investitsion muhitning barqarorligini oshiradi. 50 foizlik chegara – bank va davlat uchun xavfni muvozanatlashgan darajada saqlaydi. Kafolatning to‘liq summasini ta’minlash ehtimoliga qaraganda, resurslar samarali taqsimlanadi. Xulosa qilib aytganda, kichik tadbirkorlik subyektlarining kreditdan foydalanish imkoniyatini oshiradi, kredit riskini muvozanatlash orqali kamaytiradi, investitsiya faolligini rag‘batlantiradi va iqtisodiyotda asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilishini kuchaytiradi. Davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi hamda iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni oshiradi.

4. Tadbirkorlik subyektlarining investitsion loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni rag‘batlantirish maqsadida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan avval berilgan kafillikdan ijobiy foydalangan va yaxshi kredit tarixiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga amalda belgilangan kafillik miqdorini bir yarim baravargacha oshirish zarur. Ijobiy kredit tarixiga ega va kafolatdan samarali foydalangan subyektlar uchun kafolat limitini oshirish, ularni yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jalb qiladi va bu tadbirkorlarning moliyaviy faolligini kuchaytiradi hamda barqarorlikni ta’minlaydi. Ijobiy kredit tarixiga ega tadbirkorlar kreditlarni o‘z vaqtida qaytarish imkoniyati yuqori bo‘lgan subyektlar hisoblanadi va shu orqali bank hamda davlat moliyalashtiruvchi instituti uchun risk minimallashtiriladi. Kafolat limitini strategik tarzda oshirish, moliyaviy resurslarni ishonchli va samarali tadbirkorlarga yo‘naltirish imkonini beradi va bu davlat moliyasi hamda kafolat mexanizmlaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdan samarali foydalangani va yaxshi kredit tarixiga ega bo‘lganlar uchun kafolat limitini 1,5 barobarga oshirish investitsion faollikni rag‘batlantiradi, kredit xavfini kamaytiradi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashni ta’minlaydi hamda davlat kafolat mexanizmlarining samaradorligini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Мировые потоки прямых иностранных инвестиций выросли после двух лет спада | Новости ООН. Доклад о мировых инвестициях за 2025 год.
2. Liesbeth Colen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 https://www. researchgate.net/publication/237244956
3. G.M.Galeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy.// Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8;
4. Jiyun Cao. Foreign direct investment, unionised labour markets and welfare International Review of Economics & Finance Volume 58, November 2018, Pages 330-339.
5. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Moliya, 2003. – B. 45.
6. stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=604&id=4115&Itemid=1000000000000. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan
7. stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=611&id=4227&Itemid=1000000000000. Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.
8. stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=611&id=4227&Itemid=1000000000000. Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.
9. Jadval O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni va ilmiy manbalar asosida tadqiqochi tomonidan shakllantirildi.
10. stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=611&id=4227&Itemid=1000000000000. Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.
11. stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=611&id=4220&Itemid=1000000000000 – Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# KO‘CHMAS MULKLARNI GAROV TA’MINOTI SIFATIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Majidov Amirxon Abdumalik o‘g‘li**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti huzuridagi*
*O‘zbekiston iqtisodiyotini pivojlantirishning*
*ilmiy asoslari va muammolari*
*ilmiy tadqiqot markazi mustaqil tadqiqotchisi*
*e-mail: amirxon23@mail.ru*
*ORCID: 0009-0003-0382-8436*

***Annotatsiya:*** *O‘zbekistonda garov maqsadida ko‘chmas mulk qiymatini to‘g‘ri aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlarini yanada takomillashtirish bugungi kunda bank-moliya tizimidagi islohot qilisnihi lozim bo‘lgan muammolardan biri ekanligi ushbu sohani yanada o‘rganishni talab qiladi. Shu maqsadda maqolada ko‘chmas mulkning bozor qiymatini aniqlashning konseptual yondashuvlarini tahlil qilish, xarajat, daromad va qiyosiy yondashuvlar va ularning hisoblanish usullari bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish kabi muhim masalalar, shuningdek, xorijiy mamalakatlarda garov maqsadida ko‘chmas mulk qiymatini aniqlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, hamda mamlakatimizdagi ko‘chmas mulkni garov ta’minoti sifatida baholashni takomillashtirish usullari yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ko‘chmas mulk, ko‘chmas mulkni baholash, soliq bazasi, soliq stavkasi, ko‘chmas mulk obyekti, qiymat, obyektiv va subyektiv ta’sir etuvchi omillar, kapitallashuv stavkasi, tadbirkorlik daromadi koeffitsiyenti.*

# УЛУЧШЕНИЕ ОЦЕНКИ НЕДВИЖИМОСТИ В КАЧЕСТВЕ ЗАЛОГОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

**Мажидов Амирхон Абдумалик угли**

*Независимый научный сотрудник*
*Научно-исследовательского центра научных*
*основ и проблем развития экономики Узбекистана*
*при Ташкентском государственном экономическом университете*
*e-mail: amirxon23@mail.ru*
*ORCID: 0009-0003-0382-8436*

***Аннотация:*** *Дальнейшее совершенствование специфических особенностей правильного определения стоимости недвижимости в качестве залога в Узбекистане является одной из проблем, требующих дальнейшего изучения в этой области, как и одной из проблем, нуждающихся в реформировании в банковской и финансовой системе сегодня. С этой целью в статье рассматриваются такие важные вопросы, как анализ концептуальных подходов к определению рыночной стоимости недвижимости, применение международного опыта в затратном, доходном и сравнительном подходах и методах их расчета, а также реформы, проводимые в зарубежных странах по определению стоимости недвижимости в качестве залога, и методы совершенствования оценки недвижимости в качестве залога в нашей стране.*

***Ключевые слова:*** *недвижимость, оценка недвижимости, налоговая база, налоговая ставка, объект недвижимости, стоимость, объективные и субъективные факторы влияния, ставка капитализации, коэффициент предпринимательского прибилья.*

# IMPROVING THE VALUATION OF REAL ESTATE AS COLLATERAL

**Majidov Amirkhon Abdumalik ugli**

*Independent researcher at the Research Center*

*for Scientific Foundations and Problems of Development*
*of the Economy of Uzbekistan*
*at the Tashkent State University of Economics*
*e-mail: amirxon23@mail.ru*
*ORCID: 0009-0003-0382-8436*

***Abstract:*** *Further improvement of the specific features of correctly determining the value of real estate as collateral in Uzbekistan is one of the issues requiring further study in this area, as well as one of the issues requiring reform in the banking and financial systems today. To this end, this article examines such important issues as an analysis of conceptual approaches to determining the market value of real estate, the application of international experience in the cost, income, and comparative approaches and methods for calculating them, as well as reforms implemented in foreign countries to determine the value of real estate as collateral, and methods for improving real estate valuation as collateral in our country.*

***Keywords:*** *real estate, real estate valuation, tax base, tax rate, cost, objective and subjective influencing factors, capitalization rate, entrepreneurial profit coefficient.*

**Kirish.**

Xalqaro bank-moliya tizimida rivojlanish tendensiyasi jadal sur’atda o‘sgani sari kreditga bo‘lgan jismoiy va yuridik shaxslar talablari ham kundan-kunga ortib bormoqda. Birgina 2024-yilning o‘zida “Yevropa bank-moliya bozorida korporativ talab 310 milliard EUROni tashkil etgan”[1] bo‘lsa, bu ko‘rsatkich rivojlanayotgan “Afrika mintaqasi uchun 10,0% ga oshib, 39 miliard Afrika frankini tashkil etdi” [2]. Kreditga bo‘lgan talab AQSHda ham “2024-yilning uchinchi chorak yakunida jismoniy va korporativ subyektlar uchun 1 374,0 mlrd. AQSH dollaridan ortiq kredit liniyalari ajratilgan” [3] idan juda yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Bu esa o‘z navbatida jahon amaliyotida kreditlash jarayoni va bu orqali subyektlar ehtiyojlarini qondirishga qilinayotgan harakat miqdori va hajmi yildan-yilga oshib borayotganidan dalolat beradi.

Jahon iqtisodiyotidagi ijtimoiy rivojlanish loyihalari doirasidagi xalqaro kreditlash tizimida, asosan, hukumatlar kafilliklari kredit ta’minoti sifatida qabul qilinsa, kichikroq hajmdagi, xususan korporativ va chakana kreditlash jarayonida kredit ta’minoti sifatida ashyoviy mulklarni taqdim etilishi amaliyotda keng qo‘llaniladi. Kredit ajratishda asosiy ta’minot sifatida taqdim etiladigan ashyoviy mulklarning salmoqli qismini ko‘chmas mulklar, ayniqsa, turar va noturar joylar hamda yer uchastkalari tashkil etmoqda. Jismoiy va yuridik shaxslarni kreditlashda ta’minot sifatida qabul qilinadigan ushbu mulklarning xilma-xilligi va kredit-moliya tashkilotlari tomonidan ularni ta’minot sifatida qabul qilishda cheklovlar mavjud emasligi “kreditlar bozori iste’molchilarning moslashuvchan ta’minot asosida moliyalashtirish variantlari mavjudligi sababli va kreditga bo‘lgan talabining ortishi hamda kredit portfelining o‘sib borayotgan tendentsiyasi tufayli butun dunyoda kuchli kengayishni boshdan kechirmoqda” [4].

O‘zbekistonda so‘ngi yillarda ko‘chmas mulk, ayniqsa, uy-joy qurilishi sur’ati jadal oshib, bozorda turar joylarga nisbatan taklif ko‘paydi. Xususan, 2024-yilda ko‘p qavatli uydalar soni respublika bo‘yicha 1,65 mln. donani tashkil etib, shu yilning o‘zida 100 mingdan ortiq xonadonga ega ko‘p qavatli uy-joylar qurilib, xonadonlar soni 7,6 mln.dan oshdi. Qurilish sur’atining oshganligi sababli mintaqadagi aholining uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi 2017-yilda 15,7 kv.m.dan 2024-yil yakuniga ko‘ra 19,0 kv.m.ga yetgan[5]. Uy-joy bozoridagi taklifning keskin oshishiga mutanosib ravishda talabning ham karrasiga oshishi hududiy ipoteka sektoridagi oldi-sotdilar miqdori va ko‘chmas mulklar narxini ham sezilarli darajada ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Xususan, so‘ngi yetti yilda uy-joylar sotuvi doirasida rasmiylashtirilgan bitimlar soni yiliga o‘rtacha 5,9 % ga oshgan. Faqatgina 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 5,8 % ga pasayib, 256,5 mingga yetgan [6]. Mamlakatdagi tijorat banklari tomonidan iste’molchilarga taklif etilayotgan ipoteka krediti paketlari ko‘chmas mulk bozoridagi talabning o‘sishiga bevosita ta’sir etuvchi asosiy omil bo‘lib, 2025-yil 1-yanvar holatida mamalaktdagi 36 ta tijorat banklarining 22 tasida jami 76 xil turdagi ipoteka krediti taklifi mavjud [7]. Bu esa o‘z navbatida respublikadagi tijorat banklari

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

tomonidan aholiga turlicha shartlar va qulayliklarda uy-joylar uchun ipoteka kreditlari taklifi ham uy-joylarga bo‘lgan talab-taklif sur’atiga mos ravishda ko‘payganligini ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Baholash ishi va ko‘chmas mulklarning baholanishi yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlardan A. Tischneko [8], R. Michaels [9], J. Orduey [10], E. Tarasevich [11], G. Saymon [12], E. Antonov [13], S. Gibrovskiy [14], S. Korostelev [15], E. Ozerov [16], G. Aleksander va J. Beyli [17], T. Berdnikova [18], V. Grebennikov [19], A. Gryaznova [20], R. Xalilova [21], G. Desmontlarning [22] sohaga oid ilmiy izlanishlari, tadqiqotlari va amaliy qo‘llanmalaridan foydalanilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar I. Butikov [24], K. Xomitov [25], I. Abdurahmonov [25], D. Abdikarimova [26] va boshqa baholash ishi sohasiga oid adabiyotlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va imiy ishlar mualliflarining ishlari tahlil etilgan.

Yuqorida nomi keltirilgan xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot va mualliflik ishlarida baholash faoliyatining uslubiy muammolari, ko‘chmas mulklarni baholash sohasida foydalanishga mo‘ljallangan nazariy va amaliy tavsiyalar berib o‘tilgan bo‘lsada, garov ta’minoti sifatida ko‘chmas mulklarni baholash masalasi alohida tadqiqot ishi sifatida juda kam o‘rganilganligi va xorijiy manbaalarda ham shu yo‘nalish bo‘yicha qo‘llanma mavjud emasligi hamda mahalliy adabiyotlar soni ham nisbatan kamroq ekanligi ish mavzusining dolzarbligini o‘zida namoyon etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot jarayonida O‘zbekistondagi ko‘chmas mulkarni baholashning nazariy asoslari hamda garov maqsadida ko‘chmas mulkarni baholashning mahalliy va xalqaro tajribalari o‘rganildi. Ko‘chmas mulk qiymatiga ta’sir etuvchi omillar tahlili va sintezi, induksiya va deduksiya, ekonomik modellashtirish, statistik ma’lumotlarni gurushlash, qiyosiy tahlil, regression va korrelyatsion tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa metodikalardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.**

Ko‘chmas mulklarni baholash jarayonida mulk qiymatiga ta’sir etuvchi, eng asosiy bo‘lgan bir necha bevosita (obyektiv) va bilvosita (subyektiv) omillar mavjud bo‘lib, baholovchilar tomonidan aniqlangan tavsiyaviy qiymatlar o‘zaro farqlanishiga baholovchi tomondian amalga oshiriladigan subyektiv omillar sabab bo‘lgan. Mulklarni baholash jarayonida qiymatga ta’sir etuvchi bevosita omillar o‘z-o‘zidan shakllanib, mulkka taalluqli, ya’ni obyektiv omillardir - ular mulkning baholanish sanasidagi, ya’ni real vaqtdagi holatni o‘zida aks ettiradi.

Bilvosta omillar esa baholovchining “ijodkorligiga” asoslanadi va shartli ravishda subyektiv bo‘lib, mulkni baholash jarayonida baholovchi tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan va mulk qiymatiga ta’sir etuvchi barcha faktorlarni o‘z ichiga oladi.

Mulklarni baholanish jarayonidagi obyektiv omillarga obyektning turi (ko‘char va ko‘chmas mulk), muklchilik holati (egalik qilish turi), baholash sanasidagi holati (yaxshi, qoniqarli, qoniqasiz, yomon va hokazo), mulk joylashgan hudud (Shahar, posyolka, qishloq va boshqalar), bozordagi holat (bozor konyukturasi, talab-taklif tendensiyasi va boshqalar) kirib, ular yuqorida ta’kidlangandek, o‘z-o‘zidan shakllanadi va qiymati ma’lum tor doirada tebranib turadi. Ya’nikim, ushbu omillar baholash sanasida mulk taalluqli bozordagi xuddi shu turdagi va holatdagi mulklarning talab-taklifi narxidan juda katta farqlanmaydi. Masalan Toshkent shahri, Mirobod tumani, Chimkent ko‘chasida (mo‘ljal Toshkent Markaziy Univermagi) joylashgan ikki xonali kvartira baholash obyekti bo‘lsa, ushbu obyektning taxminiy bozor qiymati har bir kv.m. uchun ma’lum summa atrofida bo‘lishi, ushbu summaga kvartiraning ta’mirlanganlik holati, joylashgan qavati va boshqa o‘z-o‘zidan shakllangan omillari ta’sir etadi.

Boshqa tomondan, mulklarni baholanish jarayonidagi subyektiv omillar: baholovchi tajribasi, baholovchi tomonidan baholash jarayonida foydalanilgan yondashuvlar va ularning

hisoblanish usullari, shuningdek, baholovchi tomonidan qo‘llanilgan tuzatish koeffitsiyentlari va baholash jarayonida foydalanilgan yondashuvlardan aniqlangan qiymatlarni muvofiqlashtirish orqali mulkning qiymat diapazonini kengaytirib yuborishi mumkin (1-jadval).

**1-jadval**

**Mulk qiymatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar [27]**

| Bevosita (obyektiv) omillar | Bilvosita (subyektiv) omillar |
|---|---|
| Mulk turi | Baholovchining malakasi va tajribasi |
| Mulk holati | Baholashda foydalanilgan yondashuvlar |
| Mulkchilik shakli | Yondashuvlar usullari |
| Mulk joylashgan hudud | Baholovchi tomonidan bozordan tanlab olingan analoglar |
| Bozordagi holat | Baholovchi tomonidan qo‘llanilgan tuzatish koeffitsiyentlari |
| Baholash sanasidagi mintaqaviy valyuta konvertatsiyasi kursi | Baholovchi tomonidan baholash jarayonida aniqlangan qiymatlarni muvofiqlashtirish |

Subyektiv omillarning barchasi bevosita baholovchiga, uning malakasi, tajribasi va shartli ravishda “vijdoni”ga bog‘liqdir.

Shu o‘rinda nima sababdan baholovchilar tomonidan bitta baholash obyekti uchun turli xil tarzda quyidagi farqlanuvchi amallar bajarilganligini tahlil qilamiz:

Xarajat yondashuvi doirasida baholovchi tomonidan yondashuvni qaysi usulda hisoblash ixtiyoriy ekanligini inobatga olgan holda, mustaqil tarzda aniqlanadigan tadbirkorlik foydasi va mulkning eskirish koeffitsiyentini muvofiqlashtirish kerak. Bunda biz tomonimizdan I bobida ta’kidlab o‘tilganidek, tadbirkorning foydasi sifatida tijorat banklari tomonidan baholanayotgan obyektlarni qurish uchun ajratilinadigan kreditlar bo‘yicha foiz stavkasining o‘rtachasini olish tavsiya etiladi. Bunda tadbirkorlik foydasini yuqori belgilanishi orqali xarajat yondashuvi orqali erishilinadigan qiymatning sun’iy oshirib ko‘rsatilishi oldi olinadi. Lekin, baholash obyektining joylashgan joyidan kelib chiqqan holda ushbu ko‘rsatkichning o‘zgarib turishini ham inobatga olish kerak. Xususan, Toshkent shahri markazida joylashgan ko‘chmas mulk uchun belgilanadigan tadbirkorlik foydasi Sayxunobod tumanining nisbatan iqtisodiy rivojlanishi pastroq bo‘lgan hududidagi mulk uchun belgilanganidan yuqori bo‘lishi mumkinligi tabiiy holdir. Ushbu xilma-xillikni tartibga solishning yagona yechimi sifatida tadbirkorlik foydasi koeffitsiyentining mintaqadagi Markaziy Bankning qayta moliyalashtirish stavkasi va baholash sanasidagi yillik inflatsiya darajasi yig‘indisidan oshib ketmasligini qat’iy belgilab qoyishni keltirish mumkin [27]:

$$F_t \leq R_{MB} + I \qquad (1)$$

bu yerda:

$F_t$ - tadbirkorning foydasi

$R_{MB}$ - Markaziy Bankning qayta moliyalashtirish stavkasi

$I$ - baholash sanasidagi yillik inflatsiya

Ushbu bilan baholovchi tomonidan nazariy jihatdan qurilishga investitsiya qilinadigan mablag‘ eng kamida yoki umuman daromad keltirmagan taqdirda ham pul massasi o‘zgarmasligini ta’minlashiga investorni ishontirishiga asoslanadi.

Xarajat yondashuvida mulkning eskirish qiymatini aniqlash jarayonida ko‘p baholovchilar tomonidan faqat tashqi eskirishin o‘zini qo‘llash bilan cheklanib qolinadi. Standartga asosan esa “baholanayotgan aktivning jismoniy, funksional va tashqi eskirishi aniqlanib, baholanayotgan aktiv qiymatini olish uchun umumiy xarajatlar summasidan jami eskirish-qadrsizlanishni chegirish lozim” [28]. Baholovchilardan xarajat yondashuvida ushbu holatga alohida e’tibor berish va amaliyotda istisnolarsiz qo‘llash talabini qo‘yish kerak.

Daromad yondashuvi orqali mulkning qiymatini aniqlash jarayonida baholovchilar tomonidan xarajat yondashuvidagi kabi yondashuvni hisoblashda tanlanadigan hisoblash usuli va bozordan tanlab olinadigan analoglarga cheklov o‘rnatish mumkin emasligi sababli, analoglarga nisbatan qo‘llaniladigan tuzatish koeffitsiyentlari va foydalaniladigan diskont stavkasi haqida so‘z yuritamiz.

Daromad yondashuvi orqali mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadni diskonlash orqali kalajakdagi qiymatni aniqlash uchun, odatda, baholovchilar tomonidan bozorda mavjud, ayni damda ijara uchun taklif etilayotgan shu turdagi mulklar tanlab olinadi va ulardan olinishi taxmin qilinadigan daromadlarning o‘rtachasini diskont stavkasiga nisbati qo‘llaniladi. Shu o‘rinda, daromad yondashuvida foydalanish uchun baholash obyekti taalluqli bo‘lgan mulklar sohasida baholash sanasida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan quyidagi holatlarni ko‘rib chiqamiz:

bozorda barcha iqtisodiy va texnik xarakteristikalarini inobatga olganda mulkka aynan o‘xshash, lekin foydali maydoni farqlanuvchi analoglar mavjud: bunda baholovchi tomonidan faqatgina (agar mavjud bo‘lsa) analoglarning foydali maydoni o‘lchamlariga tuzatish koeffitsiyentlari qo‘llaniladi. Ushbu koeffitsiyentlarni qo‘llash jarayonida analogning maydoni baholash obyektinikidan ko‘proq bo‘lsa – musbat, aksincha, analogning maydoni baholash obyektinikidan kamroq bo‘lsa – manfiy tarzda ishlatilishi kerak. Bundan asoslanadigan nazariya quyidagicha: agar baholash obyektining foydali maydoni shartli ravishda 200 kv.m. va analoglarda bu ko‘rsatkich 120 kv.m. va 350 kv.m. bo‘lsa foydali maydoni 120 kv.m. bo‘lgan analogga nisbatan manfiy koeffitsiyent qo‘llanilishi kerak. Mantiq shundaki, foydali maydoni 120 kv.m. bo‘lgan ko‘chmas mulkka nisbatan bozorda talabgorlar foydali maydoni 200 kv.m. bo‘lgan mulk talabgorlariga qaraganda ko‘proq bo‘ladi, maydoni kichikroq bo‘lgan mulkning ijara to‘lovi nisbatan arzonroq bo‘ladi va ushbu mulkni tasarruf etish nisbatan tezroq amalga oshadi. Foydali maydoni 350 kv.m. bo‘lgan analogga nisbatan musbat koeffitsiyent qo‘llanish holati ham xuddi shu nazariyaga asoslanadi;

bozorda barcha iqtisodiy va texnik xarakteristikalarini inobatga olganda mulkka aynan o‘xshash bo‘lmagan, lekin foydali maydoni o‘zaro juda yaqin analoglar mavjud: bunda baholovchi tomonidan analoglarning foydalanish maqsadiga asoslangan xarakateristikasiga koeffitsiyentlari qo‘llaniladi. Ushbu koeffitsiyentlarni qo‘llash jarayonida analogning joriy yoki maqsad qilingan foydalanish sohasi baholash obyektinikidan farqlanishini “to‘g‘irlash” uchun davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ayni damda 1 kv.m. uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo‘yicha) ishlatilishi kerak. Bundan asoslanadigan nazariya quyidagicha: baholash obyekti Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Janubiy sanoat zonasi ko‘chasi, 20-uy manzilida joylashgan savdo do‘koni va ushbu manzilga yaqin hududdan savdo-sotiq uchun mo‘ljallangan, ijara uchun tavsiya etilayotgan yetarlicha analoglar mavjud emas bo‘lsin. Bunda baholovchi tomonidan hududda mavjud omborxona analog sifatida tanlab olinishiga to‘g‘ri keladi. Taqqoslash jarayonida foydalanish maqsadi o‘zaro farqlanuvchi obyekt-analoglar uchun quyidagi tuzatish koeffitsiyentlari qo‘llaniladi: Navoiy viloyati hokimligining baholash kuni uchun amalda bo‘lgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun yillik ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaroridan foydalangan holda (ushbu turdagi normativ hujjatlar ochiq manbaalarda mavjud), qarordagi ofis uchun (bir oy uchun taxminan 70 800 so‘m) va omborxona uchun (bir oy uchun taxminan 45 200 so‘m) minimal soliq stavkasi olinadi hamda analog va obyektning o‘zaro farqlanish koeffitsiyenti quyidagi formula orqali aniqlanadi [27]:

$$I = \frac{P_a}{P_o} * 100\% \qquad (2)$$

bu yerda

$I$ – kiritilishi kerak bo‘lgan tuzatish koeffitsiyenti

$P_a$ – baholash obyekti uchun belgilangan minimal ijara stavkasi

$P_o$ – tanlangan analog uchun belgilangan minimal ijara stavkasi

Ushbu koeffitsiyent ($I$) baholash obyekti va bozordan olingan analog o‘rtasida foydalanish

maqsadiga nisbatan berilishi kerak bo‘lgan tuzatish koeffitsiyenti sifatida, baholash obyekti va tanlangan analoglarning foydali maydonlariga nisbatan beriladigan tarzda, mulkning qimmatliligiga asoslangan holda musbat yoki manfiy shaklda olinadi. Ushbu nazariyaga asoslangan tuzatishlarni nafaqat baholash obyekti va analoglar orasida foydalanish maqsadi, balki mulklarning joylashgan o‘rniga nisbatan ham ishlatish mumkin. Bunda yuqoridagi holatga o‘xshash tarzdagi vaziyatda mintaqaning boshqa joyidan baholash obyektiga aynan o‘xshash turdagi mulkka nisbatan qo‘llaniladi va hokazo.

Xususan, shartli ravishda baholash obyektimiz Guliston shahridagi ishlab chiqarish korxonasi bo‘lsa, ushbu korxonani qiyosiy yondashuvda baholash uchun bozordan xuddi shu kabi iqtisodiy parametrga ega bo‘lgan besh xil analog tanlab olindi. Baholash obyekti va analoglar haqida ma’lumot quyida beriladi (2-jadval):

**2-jadval**

**Baholash obyekti va analoglarning birlamchi parametrlari [27]**

| Parametrlar | Baholash obyekti | 1-analog | 2-analog | 3-analog | 4-analog | 5-analog |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Obyekt nomi** | Ishlab chiqarish binosi | Ishlab chiqarish binosi | Ishlab chiqarish binosi | Ishlab chiqarish binosi | Ishlab chiqarish binosi | Ishlab chiqarish binosi |
| **Manzili** | Guliston shahri | Chinoz tumani | Jizzax shahri | Bekobod tumani | Angren shahri | Sergeli tumani |
| **Yer maydoni, sotix** | 70,0 | 100,0 | 50,0 | 90,0 | 70,0 | 60,0 |
| **Bino-inshootlar maydoni, kv.m.** | 4 250,0 | 3 800,0 | 2 400,0 | 1 890,0 | 2 650,0 | 3 350,0 |
| **Mulk uchun minimal ijara to‘lovi, so‘m** | 48 000,0 | 41 600,0 | 38 400,0 | 48 000,0 | 48 000,0 | 58 169,0 |

Ushbu holatda, baholash obyekti va analoglarning foydalanish maqsadi bir xil bo‘lganligi sababli biz tomondan faqatgina ularning joylashgan joyi va o‘lcham parametrlariga nisbatan tuzatish koeffitsiyentlari qo‘llaniladi (3-jadval). Baholash obyekti va analoglarga taalluqli minimal ijara to‘lovlaridan foydalangan holda analoglarga tuzatish koeffitsiyentlari berish baholash obyektining qiymatiga va baholovchiga nisbatan shubhalarni keskin kamaytiradi.

**3-jadval**

**Analoglarga qo‘llaniladigan tuzatish koeffitsiyentlari [27]**

| Parametrlar | 1-analog | 2-analog | 3-analog | 4-analog | 5-analog |
|---|---|---|---|---|---|
| **Minimal ijara to‘lovi** | -0,15% | -0,25% | 0,00% | 0,00% | 0,17% |
| **Yer maydoni, sotix** | 0,30% | -0,40% | 0,22% | 0,00% | -0,17% |
| **Bino-inshootlar maydoni, kv.m.** | -0,12% | -0,77% | -1,25% | -0,60% | -0,27% |

Domiy yoki ijara asosida foydalanish huquqi bilan foydalanilayotgan yer maydoniga ega ko‘chmas mulklarni xarajat yondashuvi orqali tiklanish/almashtirish qiymatini aniqlashda yer maydonining bozor qiymatini hisoblash jarayonida ham yuqoridagi kabi tuzatish koeffitsiyentlarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Ko‘chmas mulklar uchun baholash obyekti qiymatini daromad yondashuvi bilan aniqlash uchun baholovchi daromadni kapitallashtirish yoki pul oqimlarini diskontlash usullaridan foydalanadi” [29]. Har ikkala usulda ham baholovchi diskont stavkasiga murojaat qiladi. Bunda, mulkdan olinadigan pul oqimini kapitallashuv stavkasiga bo‘lish orqali potensial yalpi daromad aniqlanadi. Shu o‘rinda, baholovchilar tomonidan qo‘llaniladigan kapitallashuv stavkasini ham tartibga solish muhimdir. Chunki, kapitallashuv stavkasi qancha past bo‘lsa yondashuv qiymati shuncha baland chiqadi yoki aksincha.

Kapitallashuv stavkasining baholovchilar tomonidan bir turdagi ko‘chmas mulk uchun har xil tarzda qo‘llanilishini oldini olish va mulkning haqiqiy bozor qiymatini aniqlash maqsadida

ushbu stavkani quyidagi formula orqali qat’iy belgilash mumkin [27]:

$$R_k = \frac{12 * R_{MB} * B_S * S_S}{S_m * K_S} \qquad (3)$$

bu yerda:

$R_k$ – kapitallashuv stavkasi, %

$R_{MB}$ – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomondan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasi, %

$B_S$ – obyekt hududi uchun Soliq kodeksida belgilangan soliq bazasi [30], so‘m

$S_S$ – baholash sanasida Soliq kodeksida belgilangan soliq stavkasi [31], %

$S_m$ – obyekt uchun davlat tomonidan belgilangan yillik minimal ijara stavkasi, so‘m;

$K_S$ – ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar, birlik.

Ushbu formulani quyidagi misol bilan tahlil qilamiz: shartli ravishda baholash obyekti Andijon viloyati, Marhamat tumani, O‘qchi MFY, Behizor ko‘chasi, 18-uy manzilida joylashgan tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish binosi bo‘lsin. Ushbu bino uchun daromad yondashuvida bozordan Marhamat tumani (yoki tutash hududlardan) ishlab chiqarish maqsadida foydalanish mumkin bo‘lgan uch dona analog tanlab olindi. Analoglarga yuqorida ta’kidlangan usul va formula yordamida tuzatish koeffitsiyentlari qo‘llanildi va kapitallashuv stavkasini qo‘llagan holda daromadni kapitallashtirish yoki pul oqimlarini diskontlash usullaridan biri orqali yondashuvdan qiymat aniqlanishi kerak. Bunda kaptallashuv stavkasi quyidagicha aniqlanadi: birinchi navbatda baholash sanasidagi Markaziy Bank tomondan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasi aniqlanadi (2025-yil 1-yanvar holatiga 13,5%), keyin esa Soliq kodeksining 412-moddasidan foydalanilgan holda Marhamat tumani uchun soliq bazasi aniqlanadi (2025-yil 1-yanvar holatiga 1 300 000,0 so‘m), so‘ngra Soliq kodeksining 422-moddasiga asosan hududiy soliq stavkasi aniqlanadi (soliq stavkasi 2025-yil 1-yanvar holatiga tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari uchun 1,5% etib belgilangan [32]). Undan keyin Andijon viloyatida Yengil sanoat turlari bo‘yicha (to‘qimachilik, tikuvchilik, charm, mo‘yna, poyabzal, sellyuloza-qog‘oz sanoati) baholash kuni uchun amalda bo‘lgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun yillik ijara to‘lovining eng kam stavkasi aniqlanadi (Andijon shahri uchun 2025-yil 1-yanvar holatiga QQS bilan qo‘shib hisoblaganda bir yil uchun 16 000,0 so‘m [33].) hamda eng kam stavkalarga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar [34] hisoblanib, olingan birlik ijara to‘lovining eng kam stavkasiga ko‘paytiriladi va bir oy uchun to‘g‘ri keladigan qiymatni aniqlash uchun natija 12 ga bo‘linadi. Algoritm oxirida mazkur mulk turi uchun kapitallashuv stavkasi aniqlanadi:

$$R_k = \frac{r_{MB} * (B_S * S_S)}{(S_m * K_S)/12} = \frac{13{,}5\% * (1\,300\,000{,}0 * 1{,}5\%)}{(16\,000{,}0 * 2{,}5 * (2{,}0 + 0{,}0 + 2{,}0))/12} \approx 24{,}68\%$$

Demak, 2025-yil 1-yanvar holatida Andijon viloyati, Marhamat tumani, O‘qchi MFY, Behizor ko‘chasi, 18-uy manzilida joylashgan tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish binosini daromad yondashuvi orqali baholashda foydalaniladigan kapitallashuv stavakasi 24,68% ni tashkil etadi.

Yoinki, shartli ravishda Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, Qashg‘ar dahasi 1-uy manzilida joylashgan sartaroshxona binosi uchun kapitallashuv stavkasini quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

$$R_k = \frac{r_{MB} * (B_S * S_S)}{(S_m * K_S)/12} = \frac{13{,}5\% * (1\,300\,000{,}0 * 1{,}5\%)}{(28\,650{,}0 * 2{,}5 * (2{,}0 + 0{,}0 + 1{,}0))/12} \approx 14{,}70\%$$

2025-yil 1-yanvar holatida Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, Qashg‘ar dahasi 1-uy manzilida joylashgan sartaroshxona binosi binosini daromad yondashuvi orqali baholashda foydalaniladigan kapitallashuv stavakasi 11,12% ni tashkil etadi va

hokazo. Ushbu formula orqali biz noturar ko‘chmas mulk joylashgan hudud qay darajada rivojlangan bo‘lsa, uning daromad yondashuvi orqali aniqlanadigan qiymati shu darajada baland chiqishi guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Garov maqsadida ko‘chmas mulklarni baholashda daromad yondashuvining kapitallashuv stavkasini Markaziy Bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, soliq bazasi va minimal ijara stavkalariga bog‘lashdan maqsad garovga oluvchi tijorat banklarining risklarini kamaytirish va kelajakda mulkni imkoni boricha tezroq realizatsiya qilishini osonlashtirishdir. Chunki, odatda, tijorat banklari tomonidan muammoga aylangan kreditning garov ta’minoti sifatida balansiga qabul qilgan ko‘chmas mulklarni daromad olish maqsadida tasarruf etishdan ko‘ra ularni tezroq sotish birlamchi masala sifatida qaraladi. Bundan tashqari, tijorat banklarining har bir moliyaviy operatsiyasi bevosita hukumat tomonidan belgilangan tartib qoidalarga amal qilingan holda amalga oshiriladi va atipik moliyalashtirish jarayoni banklarga xos xususiyat sifatida qaralmaydi.

Qiyosiy yondashuvi orqali mulkning qiymatini aniqlash jarayonida baholovchilar tomonidan xarajat va daromad yondashuvlaridagi kabi yondashuvni hisoblashda tanlanadigan hisoblash usuli va bozordan tanlab olinadigan analoglarga cheklov o‘rnatish mumkin emasligi sababli, analoglarga nisbatan qo‘llaniladigan tuzatish koeffitsiyentlarini daromad yondashuvida so‘z yuritilgan usulda amalga oshirilishi qat’iyan belgilanishi lozim.

Baholash jarayonida yondashuvlardan olingan natijalarni muvofiqlashtirilishda baholovchilar tomonidan qaysi usuldan foydalanish ixtiyoriydir. Lekin, amaliyotda baholovchilar tomonidan asoslantirilmagan holda ushbu muvofiqlashtirish jarayonida qiymati eng katta chiqqan yondashuvga ko‘proq ulush berish va mos ravishda qiymati kichikroq chiqqan yondashuvga kamroq ulush berish yoki ushbu yondashuvdan voz kechish holati ko‘p kuzatiladi. Baholovchilardan bir necha yondashuv orqali erishilgan natijalarni muvofiqlashtirishda har bir yondashuv ulushini asoslagan holda bo‘lishni va buni baholash hisobotida yozma tarzda belgilab ketishni talab qilish lozim.

**Xulosa va takliflar.**

Maqolada izlanishlarga muvofiq quyidagi ilmiy natijalarga asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

baholovchilar tomonidan baholash obyekti bilan bozordan tanlab olingan analoglarni o‘zaro muvofiqlashtirish uchun qo‘llaniladigan tuzatish koeffitsiyentlari aniq bir tartibga solinmaganligi va/yoki qat’iy tartibga rioya etilmasligi sababli har bir baholovchi tomonidan bir mulk qiymati har xil, o‘zaro katta tafovutga ega qiymatlarda aniqlanadi;

daromad va qiyosiy yondashuvlarni hisoblash uchun bozordan tanlab olinadigan, baholash obyekti bilan o‘zaro farqlanuvchi o‘lcham va foydalanishlilik parametrlariga ega bo‘lgan ko‘chmas mulklar uchun tuzatish koeffitsiyentlarini qo‘llashning yagona metodikasini amaliyotga joriy etish orqali mulkni baholatuvchilar va kelgusida ushbu baholash natijasida rasmiyalshtiriladigan baholash hisobotidan foydalanuvchilar orasida baholash faoliyati, baholovchi tashkilot va boshqa o‘zaro iqtisodiy muzokaralarda shubhalarga borilishi oldini olishga erishish mumkin;

noturar ko‘chmas mulklar uchun daromad yondashuvida kapitallashuv stavkasini real vaqt uchun Markaziy bank tomondan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasi, obyekt joylashgan hududning Soliq kodeksida belgilangan soliq bazasi, baholash sanasida belgilangan soliq stavkasi, baholash obyekti taalluqli ko‘chmas mulk turi uchun davlat tomonidan belgilangan yillik minimal ijara stavkasi va ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar orqali aniqlash hamda turar joylar uchun kapitallashuv stavkasi sifatida baholash sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomondan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasiga bog‘lagan holda shakllantirish baholash hisobotidan kelgusida foydalanishi mumkin bo‘lgan tijorat banklari uchun baholash tashkiloti, tuzilgan hisobot, unda ko‘rsatilgan bozor qiymati ishonchliligini oshiradi;

baholash hisobotlarining foydalanishlilik muddatini qayta ko‘rib chiqish sohaga bo‘lgan

talabni va baholash obyektlarining aniqlangan qiymatlariga nisbatan ishonchni yanada oshiradi.

yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar amaliyotga joriy etilishi O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni garov maqsadida baholash mexanizmini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Адабиётлар/Литература/Reference:**

1. Credit Supply Outlook: The Collection. 2024 data https://think.ing.com/articles/credit-supply-outlook-the-collection/
2. UEMOA: 10% increase in bank credit supply in 2024. https://www.financialafrik.com/en/2025/08/01/uemoa-10-increase-in-bank-credit-supply-in-2024/
3. US Dollar Credit Supply: Record-breaking supply in 2024. https://think.ing.com/reports/us-dollar-credit-supply-record-breaking-supply-in-2024/
4. Personal Loans Market Research Report By Loan Type - Industry Forecast to 2035. https://www.marketresearch-future.com/ reports/personal-loans-market-12020
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti” ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil uchun uy-joy bozori sharhi. 2-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti” ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil uchun uy-joy bozori sharhi ma’lumotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan shakllantirilgan.
7. https://depozit.uz/credits/mortgage
8. А. А. Тисченко - Восприятие термина «портфель залога»: современный аспект. – Финансовый журнал Уральское отделение Российской академии наук, Екатеринбург 620026, Российская Федерация. — 2019. — Вып. 4. — С. 116–129;
9. Ralf Christian Michaels: Joseph Story – “Story on Bailments”. Article on ResearchGate. 2016;
10. Джек Фридман Николас Ордуэй. Анализ и оценка приносящей доход недвижимости. – М.: Дело, 1997;
11. Тарасевич Е.И. Оценка недвижимости. СПб.: СПбГТУ, 1997;
12. Саймон Г. А. Теория принятия решений в экономической теории и науке о поведении // Теория Фирмы / Под редактировании В. М. Гальперина. – С.-Пб.: Экономическая школа, 1995, с. 60;
13. Antonov E. V. - Urban Agglomerations: Approaches to the Allocation and Delimitation – M.: 2020;
14. Грибовский С. Оценка стоимости недвижимости. – М.: Маросейка, 2009;
15. Коростелев С. П. Теория и практика оценки для целей девелопмента и управления недвижимостью. — М.: Маросейка, 2009;
16. Озеров Е. С. Экономический анализ и оценка недвижимости. – Санкт-Петербург, 2007
17. Александер Г., Шарп У. Дж Бэйли., Инвестиции: Пер. с англ. – М.: Альпина Букс, 2005. – 268 с.;
18. Т.Б. Бердникова Оценка недвижимости: учеб. пособие. – М: ИНФРА-М, 2006. – 12 с.
19. Гребенников В.Г., Микерин Г.И., Нейман Е.И. Методологические основы оценки стоимости имущества. – М.: Интерреклама, 2003, 688 с.;
20. Грязнова А.Г., Федотова М.А. Оценка бизнеса. Учебник. – М: Финансы и статистика, 2003. -704 с.;
21. Халилова Р. М. – Залоговое право, учебник – Дагестанский Государственный университет народного хозяйства. – Махачкальа 2020. Стр.-3;
22. Десмонд Г.М., Келли Р.Э. Руководство, по оценке бизнеса. – М.: РОО, 1996;
23. I.L. Butikov Ko‘chmas mulk bozori, Darslik. –T.: Konsauditinform, 2001 y.;

24. K. Z. Xomitov “Ko‘chmas mulk qiymatini baholash”, Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019 y.;
25. И. Ю. Абдурахмонов. Оценка недвижимости. Введение в практику оценки стоимости зданий и сооружений. – Ташкент – “Norma” – 2011;
26. D. R. Abdikarimova. Bank kreditlari garov ta’minotini baholash amaliyotini takomillashtirish yo‘llari – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajargan dissertatsiya ishi. T.: TMI, 2018.
27. Muallif ishlanmasi
28. O‘zbekiston Respublikasining “Yagona milliy baholash standarti”. 186-band.
29. O‘zbekiston Respublikasining “Yagona milliy baholash standarti”. 323-band
30. Soliq bazasi – soliq solish obyektining davlat budjetiga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq hisoblab chiqariladigan, uning qiymati, miqdori, og‘irligi yoki boshqa o‘lchov birliklarida ifodalanadigan xususiyati – muallif izohi
31. Soliq stavkasi – Soliq stavkasi soliq bazasining o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan soliqning foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdori. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq Kodeksi”, 72-modda.
32. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq Kodeksi”, 422-modda.
33. Andijon viloyati hokimining 2025-yil 31-yanvardagi 39-1-0-Q/25-sonli qarori.
34. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq Kodeksi”, 422-modda.

# O‘ZBEKISTON UCHUN JSTGA A’ZO DAVLATLARDA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHI TAJRIBASI: QIYOSIY TAHLIL (XITOY, VETNAM, QOZOG‘ISTON MISOLIDA)

**Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li**

*Qo‘qon universiteti*
*Iqtidorli talabalarni va*
*startap loyihalarni*
*qo‘llab - quvvatlash*
*departmenti boshlig‘i*
*e-mail: ahrorjon1611@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zolikka qo‘shilgan Xitoy, Vetnam va Qozog‘iston misolida kichik va o‘rta biznes (KTB) rivojlanishiga eksport-import dinamikasining ta’sirini qiyosiy econometrik usulda tahlil etadi. Tadqiqotda 2001-2023 yillarni qamrab oluvchi panel ma’lumotlarida OLS regressiya modeli qo‘llanilgan; eksport hajmi, import hajmi, savdo ochiqligi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) mustaqil o‘zgaruvchi sifatida olingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, eksport hajmining kengayishi ($\beta = 0.480$, $p < 0.001$) va savdo ochiqligi ($\beta = 0.346$, $p < 0.01$) KTB rivojlanishining kuchli musbat prediktorlari hisoblanadi; import raqobati esa o‘rtacha salbiy ta’sir ko‘rsatadi ($\beta = -0.228$, $p < 0.05$). TXI oqimi ham mustahkam musbat aloqa namoyon etadi ($\beta = 0.414$, $p < 0.01$). Model dispersiyaning 88.3% ini tushuntiradi ($R^2 = 0.883$). Uch davlat tajribasini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, savdo liberallashuvidan foyda olish ko‘p jihatdan institutsional qo‘llab-quvvatlash sifati, eksport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi va tarif kamaytirish jadvalining bosqichmabosqichligi bilan belgilanadi. O‘zbekiston uchun ushbu topilmalar ayniqsa dolzarb bo‘lib, KTB sektori JST a’zoligidan maksimal samara olishi uchun maqsadli siyosat choralarini, jumladan eksport rag‘batlantirish, TXI bog‘liqlik mexanizmlari va graduatsion tarif muzokaralari zarurligini ko‘rsatadi. Olingan xulosalar O‘zbekistonning JST a’zoligiga tayyorgarlik jarayonida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosati uchun amaliy tavsiyalar asosi sifatida taqdim etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *JST a’zoligiga qo‘shilish, kichik va o‘rta biznes, eksport-import dinamikasi, savdo liberallashuvi, Xitoy, Vetnam, Qozog‘iston, O‘zbekiston, qiyosiy tahlil, TXI.*

# EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN WTO MEMBER STATES FOR UZBEKISTAN: COMPARATIVE ANALYSIS (ON THE EXAMPLE OF CHINA, VETNAM, KAZAKHSTAN)

**Abdullaev Akhrorjon Akhadjon ugli**

*Head of the Department for*
*Supporting Talented Students and*
*Startup Projects at*
*Kokand University*
*e-mail: ahrorjon1611@gmail.com*

***Abstract.*** *This article presents a comparative econometric analysis of the impact of export-import dynamics on small and medium enterprise (SME) development in WTO member states, using the cases of China, Vietnam, and Kazakhstan. The study employs an OLS regression model on panel data spanning 2001-2023, with export volume, import volume, trade openness, and foreign direct investment (FDI) as independent variables. Results indicate that export volume expansion ($\beta = 0.480$, $p < 0.001$) and trade openness ($\beta = 0.346$, $p < 0.01$) are strong positive predictors of SME development, while import competition exerts a moderately negative effect ($\beta = -0.228$, $p < 0.05$). FDI inflows also demonstrate a robust positive association ($\beta = 0.414$, $p < 0.01$). The model explains 88.3% of variance ($R^2 = 0.883$). A comparative analysis of the three*

*countries reveals that the benefits of trade liberalization are largely contingent on the quality of institutional support, the development of export infrastructure, and the gradualism of tariff reduction schedules. For Uzbekistan, these findings underscore the need for targeted policy measures—including export promotion, FDI linkage mechanisms, and phased tariff negotiations—to maximize SME gains from WTO accession. The findings are presented as a practical policy foundation for supporting small business development during Uzbekistan's WTO accession preparation process.*

***Keywords:*** *WTO accession, small and medium enterprises, export-import dynamics, trade liberalization, China, Vietnam, Kazakhstan, Uzbekistan, comparative analysis, FDI.*

## ОПЫТ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В ГОСУДАРСТВАХ-ЧЛЕНАХ ВТО ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЯ, ВЬЕТНАМА, КАЗАХСТАНА)

**Абдуллаев Ахроржон Ахаджон угли**
*Начальник департамента*
*поддержки одаренных студентов и*
*стартап-проектов*
*Кокандского университета*
*e-mail: ahrorjon1611@gmail.com*

***Аннотация.*** *В данной статье проводится сравнительный эконометрический анализ влияния динамики экспорта-импорта на развитие малого и среднего бизнеса (МСБ) на примере Китая, Вьетнама и Казахстана, вступивших во Всемирную торговую организацию (ВТО). В исследовании использовалась регрессионная модель OLS на панельных данных, охватывающих 2001-2023 годы; в качестве независимых переменных были взяты объем экспорта, объем импорта, открытость торговли и прямые иностранные инвестиции (ПИИ). Результаты показывают, что расширение объемов экспорта ($\beta = 0.480$, $p < 0.001$) и открытость торговли ($\beta = 0.346$, $p < 0.01$) являются сильными положительными предикторами развития КТБ; в то время как импортная конкуренция оказывает умеренное негативное влияние ($\beta = -0.228$, $p < 0.05$). Поток ТХИ также демонстрирует прочную положительную связь ($\beta = 0.414$, $p < 0.01$). Модель объясняет 88.3% дисперсии ($R2 = 0.883$). Сравнительный анализ опыта трех стран показывает, что выгода от либерализации торговли во многом определяется качеством институциональной поддержки, уровнем развития экспортной инфраструктуры и поэтапностью графика снижения тарифов. Для Узбекистана эти выводы особенно актуальны, указывая на необходимость целенаправленных политических мер, включая стимулирование экспорта, механизмы интеграции внешнеторговых операций и градуированные тарифные переговоры, чтобы сектор КСУ мог извлечь максимум пользы из членства в ВТО. Полученные выводы представлены в качестве основы практических рекомендаций для политики поддержки малого бизнеса в процессе подготовки Узбекистана к вступлению в ВТО.*

***Ключевые слова:*** *вступление в ВТО, малый и средний бизнес, динамика экспорта и импорта, либерализация торговли, Китай, Вьетнам, Казахстан, Узбекистан, сравнительный анализ, МФИ.*

### Kirish

So‘nggi uch o‘n yillikda global iqtisodiy integratsiyaning jadallashuvi barcha darajadagi iqtisodiyotlar uchun raqobat muhitini tubdan o‘zgartirib yubordi. Savdo liberallashuvi-tovarlar, xizmatlar va kapital oqimlariga qo‘yiladigan tarif va notarif to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish-o‘tish va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari uchun rivojlanish strategiyasining markaziy ustuniga aylandi [4, 18]. Jahon savdo tashkiloti (JST), xalqaro savdo qoidalarini boshqaruvchi

asosiy ko‘p tomonlama muassasa sifatida, mamlakatlar savdo siyosatini muvofiqlashtiriladigan va bozorga kirish muzokaralari olib boriladigan mezon doirasi bo‘lib qolmoqda.

Rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotlari uchun JSTga qo‘shilish nafaqat diplomatik yutuq, balki mahalliy tartibga solish tizimlarini xalqaro me’yorlar bilan moslashtirish majburiyatidir. Avvalgi qo‘shilishlar-xususan, Xitoyning 2001 yilda, Vetnamning 2007 yilda, Qozog‘istonning 2015 yilda a’zo bo‘lishi-a’zolik bilan bog‘liq imkoniyatlar va moslashuv xarajatlari bo‘yicha keng empirik adabiyot paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi [6, 16, 11]. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, JST a’zoligiga qo‘shilish eksport o‘sishi va TXIni jalb qilishni tezlashtirishi mumkin, shu bilan birga kichik va o‘rta biznesni (KTB) kuchlangan import raqobatiga duchor etadi.

O‘zbekiston 1994 yilda JSTga a’zolikka rasman murojaat qilgan bo‘lsa-da, mamlakat hanuz ishchi guruh bosqichida muzokaralarni olib bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi ma’muriyat 2016 yildan boshlab xususiylashtirish, valyuta liberallashuvi va savdo osonlashtirish kabi islohotlarni amalga oshirib kelmoqda va bu muzokaralar sur’atini sezilarli darajada tezlashtirdi. 2024 yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Tashqi savdo rejimlari bo‘yicha tahrirlangan memorandumini taqdim etdi va asosiy savdo hamkorlari bilan faol ikki tomonlama muzokaralar olib bormoqda[20]. Taxminiy a’zolik sanasi 2025-2027 yillar oralig‘ida ko‘rilmoqda, bu esa mavjud empirik dalillarni baholashda muhim davr hisoblanadi.

O‘zbekistonning JST a’zoligiga tayyorgarligida mamlakatimiz KTB sektori duch kelishi mumkin bo‘lgan imkoniyat va xavf-xatarlarni miqdoriy baholash etarli darajada tadqiq etilmagan. Xususan, JSTga a’zo bo‘lgan qo‘shni davlatlar (Xitoy, Vetnam, Qozog‘iston) tajribasi asosida eksport-import dinamikasining KTB rivojlanishiga ta’sir mexanizmlari O‘zbekiston kontekstida qiyosiy tahlil qilinmagan. Ushbu bo‘shliq ushbu maqolaning asosiy ilmiy muammosini tashkil etadi.

Tadqiqot uchta o‘zaro bog‘liq maqsadni ko‘zlaydi: (1) JST a’zoligidan oldingi va keyingi davrda Xitoy, Vetnam va Qozog‘istonda KTB rivojlanishiga eksport-import dinamikasining ta’sirini miqdoriy baholash; (2) savdo ochiqligi va TXIning KTB o‘sishiga ta’sirini aniqlash; (3) O‘zbekistonning JST a’zoligiga tayyorgarlik strategiyasi uchun ushbu uch davlat tajribasidan amaliy xulosalar chiqarish.

Tadqiqot uchta gipotezani ilgari suradi: (G1) Eksport hajmining kengayishi KTB rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan musbat va statistik jihatdan sezilarli darajada bog‘liq. (G2) Import raqobati raqobat bosimi natijasida KTB rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. (G3) Savdo ochiqligi va TXI oqimi KTB rivojlanishiga mustaqil ravishda ijobiy hissa qo‘shadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Savdo liberallashuvi va firma darajasidagi samaradorlik o‘rtasidagi nazariy munosabat ikkita asosiy an’ana doirasida muhokama qilinadi: Heckscher-Ohlin omil ta’minoti nazariyasi va Melitz [8] bilan bog‘liq ‘yangi yangi’ savdo nazariyasi. Heckscher-Ohlin modellari shuni bashorat qiladiki, liberallashuv mamlakatning omillar boyligiga mos sohalarni-O‘zbekiston uchun mehnat talab qiladigan ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi qayta ishlash-foydalantiradi. Melitz [8] heterojen firma doirasi muhim tushuncha qo‘shadi: savdo liberallashuvi bozor tanlovini keltirib chiqaradi, resurslarni kam samarali firmalardan ko‘proq samaralilariga qayta taqsimlaydi.

Industrial tashkilot nazariyasidan qo‘shimcha istiqbollar KTB raqobatbardoshligini oshirishda eksportdan o‘rganish va TXIdan bilim tashib o‘tish rolini ta’kidlaydi [17]. Eksportga asoslangan o‘sish gipotezasi, turli rivojlanayotgan iqtisodiyotlar kontekstida empirik jihatdan qo‘llab-quvvatlangan holda, eksport bozorida ishtirok miqyosini tejash, texnologiya transferi va firmalar unumdorligini endogen ravishda oshiradigan menejerial qobiliyat rivojlanishini keltirib chiqaradi deb ta’kidlaydi [5]. Aksincha, import raqobati nazariyalari [15] raqobat bosimi chegara firmalarda chiqishni tezlashtirishi mumkinligini tan oladi.

O‘tish va rivojlanayotgan iqtisodiyotlardagi JSTga qo‘shilish ta’sirlari bo‘yicha empirik adabiyot O‘zbekiston uchun nozik mos yozuvlar doirasini ta’minlaydi. Xitoyning 2001 yildagi JSTga qo‘shilishi tashkilot tarixidagi eng muhim bunday voqea sifatida keng tahlil qilingan.

Ianchovichina va Martin [6] Xitoy JST a’zoligiga qo‘shilishi YaIMning 0.5-1.2% ga teng umumiy real daromad o‘sishini ta’minlaganini hisoblashdi. Brandt va boshqalar [1] esa KTB sektorida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lganligi, kirish stavkalari oshsa ham, import raqiblashtiruvchi sohalardagi past unumdorli korxonalar uchun chiqish ehtimoli ham ortganini ta’kidlaydi.

Vetnamning 2007 yildagi JSTga qo‘shilishi O‘zbekiston bilan tarkibiy o‘xshashligini hisobga olsak, eng bevosita qiyoslash imkoniyatini beradi. Vo [16] Vetnam KTB eksportida ishtirok stavkalari a’zolikdan keyingi besh yilda taxminan 23 foizga oshganini, bu matolar, poyabzal va elektronika sohasida bozorga kirishning yaxshilanishi bilan bog‘liqligini aniqladi. Biroq, bir xil tadqiqot mahalliy iste’mol tovarlari bozorlarida kuchaygan raqobat bosimini va eksport qilmaydigan KTBlar uchun foyda marjasining sezilarli kamayishini aniqlaydi. Nguyen va boshqalar [9] TXI oqimi-JSTga qo‘shilish orqali sezilarli darajada kuchaygan-katta firmalar manfaatiga qaraganda ko‘proq xizmat qilgani va global qiymat zanjirlariga KTB integratsiyasini cheklagan inklyaviy dinamikani yaratgani xulosasiga keladi.

Qozog‘istonning 2015 yildagi JSTga qo‘shilishi O‘zbekistonga eng yaqin geografik misol bo‘lib, aralash saboqlar beradi. Pomfret [11] iste’mol va oraliq tovarlar importiga nisbatan tarif kamaytirish tufayli Qozog‘iston ishlab chiqarish KTBlari sezilarli moslashuv xarajatlarini boshdan kechirganligi, ayniqsa kichik masshtabli oziq-ovqat qayta ishlash va yengil ishlab chiqarishga ta’sir qilganini aniqladi. Dzhaksybekov va Orazbayev [2] savdo liberallashtirish foydasi asosan yirik, xalqaro bog‘liq firmalarga tegishli bo‘lganini, KTBning YaIM ulushi esa a’zolikdan keyingi dastlabki uch yilda ozgina kamayganini qayd etadi.

Mavjud adabiyotlar izchil ziddiyatni ochib beradi: JSTga qo‘shilish umumiy savdo va unumdorlik ijobiy ta’sirlarini yaratishga moyil, shu bilan birga mahalliy KTB sektorlariga taqsimlovchi xarajatlar yuklaydi. Biroq, O‘zbekiston kontekstida ushbu uch davlat tajribasini qiyosiy econometrik tahlil qiluvchi maxsus tadqiqotlar hali chop etilmagan. Ergashev [3] va Tashmatov [14] kabi mavjud O‘zbekiston savdo siyosati tadqiqotlari asosan tavsifiy xarakter kasb etadi. Ushbu maqola uch davlat bo‘yicha qiyosiy panel regressiya tahlili orqali ushbu bo‘shliqni bartaraf etadi.

## Metodologiya

### Tadqiqot yondashuvi va dizayni

Ushbu tadqiqot savdo iqtisodiyoti empirik adabiyotida hukmron bo‘lgan pozitivist epistemologik an’anaga mos keladigan miqdoriy econometrik tadqiqot dizaynini qabul qiladi. Tahliliy strategiya rasmiy xalqaro va milliy statistik manbalardan ikkilamchi ma’lumotlar to‘plash hamda savdo dinamikasi va KTB rivojlanishi natijalari o‘rtasidagi statistik munosabatlarni aniqlash uchun ko‘p regressiya tahlilini birlashtiradi. Tadqiqot davri Xitoy uchun 2001-2023, Vetnam uchun 2007-2023, Qozog‘iston uchun 2015-2023 yillarni qamrab oladi. Har bir davlat uchun yillik ma’lumotlar birlashtirilib, jami n = 132 ta foydalanish mumkin bo‘lgan kuzatuv hosil qilingan.

Ma’lumotlar to‘rtta asosiy manbadan to‘plangan. Birinchidan, Jahon banki Jahon rivojlanish ko‘rsatkichlari (JRK) ma’lumotlar bazasi YaIM deflatoriga asoslangan savdo oqimlarini, TXI oqimlarini va savdo ochiqligi koeffitsientlarini ta’minladi. Ikkinchidan, JST Statistika portali ikki tomonlama eksport-import hajmlarini va tovarlar tasnifiga mos tarif jadvallarini taqdim etdi. Uchinchidan, Xitoy Milliy statistika byurosi (NBS), Vetnam Statistika bosh direktsiyasi (GSO) va Qozog‘iston Statistika komiteti (CKSRK) rasmiy KTB ro‘yxatga olish ma’lumotlarini, KTB bandlik statistikasini va YaIM ulushi qatorini ta’minladi. To‘rtinchidan, XVF Article IV konsultatsiya hisobotlari va Jahon iqtisodiy istiqboli (WEO) ma’lumotlar bazalari real YaIM o‘sishi hamda valyuta kursi ko‘rsatkichlarini to‘ldirdi. Barcha pul o‘zgaruvchilari doimiy 2015 yil AQSh dollari qiymatiga o‘tkazildi.

### O‘zgaruvchilar spetsifikatsiyasi

Tobe o‘zgaruvchi (Y)-KTB Rivojlanish Indeksi (KTBrI) bo‘lib, uch normalangan quyi ko‘rsatkichdan iborat kompozit indeks sifatida operatsionallashtirilgan: (i) 1000 kishiga to‘g‘ri

keladigan ro‘yxatdan o‘tgan KTBlar soni; (ii) YaIM’dagi KTB ulushi (%); (iii) umumiy rasmiy bandlikdagi KTB bandlik ulushi. Kompozit indeks OECD KTB Istiqbolli metodologiyasiga [10] muvofiq teng og‘irlik normallashtirish yordamida hisoblandi.

To‘rtta mustaqil o‘zgaruvchi asosiy tahliliy prediktorlarni tashkil etadi: ($X_1$) Eksport hajmi-doimiy 2015 AQSh dollari narxida umumiy tovar eksporti (mlrd USD); ($X_2$) Import hajmi-doimiy 2015 AQSh dollari narxida umumiy tovar importi (mlrd USD); ($X_3$) Savdo ochiqligi-(eksport + import) / YaIM × 100; ($X_4$) TXI oqimi-sof TXI oqimi (mlrd USD). Ikki nazorat o‘zgaruvchisi XVFdan olingan: Real YaIM o‘sish sur’ati (YaIMo) va Valyuta kursi barqarorlik indeksi (VKbI).

**Regressiya modeli**

Asosiy OLS regressiya modeli quyidagicha spetsifikatsiyalanadi:

$$KTBrI_it = \alpha + \beta_1 EKS_it + \beta_2 IMP_it + \beta_3 SAVDO_it + \beta_4 TXI_it + \beta_5 YaIMo_it + \beta_6 VKbI_it + \varepsilon_it$$

Bu yerda α-kesish nuqtasi, $\beta_1$-$\beta_6$-mos koeffitsientlar, i-davlat, t-vaqt davri indekslari, ε_it-stokastik xato hadini bildiradi. Kutilayotgan a priori belgilar: $\beta_1 > 0$ (eksport kengayishi KTB o‘sishini rag‘batlantiradi), $\beta_2 < 0$ (import raqobati KTB samaradorligini cheklaydi), $\beta_3 > 0$ (ochiqlik resurslarni samarali taqsimlaydi), $\beta_4 > 0$ (TXI ta’sirlar va talab yaratadi). Model mustahkamligi Breusch-Pagan, Durbin-Watson, VIF va Jarque-Bera diagnostika testlari orqali baholandi. Barcha tahlillar Stata 17.0 [13] dasturida amalga oshirildi.

**Natijalar**

**Taqqoslama makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar**

1-jadval JST a’zoligiga qo‘shilish oldidan va keyingi davrda uch davlat uchun asosiy makroiqtisodiy va KTB ko‘rsatkichlarini taqdim etadi. Ma’lumotlar bir nechta muhim tendentsiyalarni ochib beradi. Xitoy eksporti a’zolikdan keyingi yigirma yil ichida 266 mlrd AQSh dollaridan 3380 mlrd AQSh dollariga oshib, o‘n uch baravar ko‘paydi. Vetnam eksporti 2007 yildagi 48 mlrd AQSh dollaridan 2023 yildagi 355 mlrd AQSh dollariga-taxminan yetti barobar-o‘sdi. Qozog‘iston eksporti esa a’zolikdan keyingi dastlabki yillarda notarif to‘siqlar va tovar bahosi o‘zgarishlari ta’sirida nisbatan cheklangan o‘sishni ko‘rsatdi.

**1-jadval**

**JSTga qo‘shilishdan oldin va keyin Xitoy, Vetnam va Qozog‘istondagi asosiy makroiqtisodiy va KTB ko‘rsatkichlari**

| Ko‘rsatkich | Xitoy (2001) | Xitoy (2010) | Xitoy (2023) | Vetnam (2007) | Vetnam (2015) | Vetnam (2023) | Qozog‘iston (2015) | Qozog‘iston (2023) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **YaIM o‘sishi (%)** | 8.3 | 10.6 | 5.2 | 7.1 | 6.7 | 5.1 | 1.2 | 5.1 |
| **Eksport (mlrd USD)** | 266 | 1578 | 3380 | 48 | 162 | 355 | 46 | 79 |
| **KTB ulushi YaIM (%)** | 50.1 | 59.2 | 64.2 | 38.4 | 47.2 | 54.9 | 31.0 | 36.7 |
| **KTB bandlik %)** | 72.3 | 77.1 | 79.4 | 58.0 | 64.5 | 68.2 | 40.2 | 45.8 |
| **TXI oqimi (mlrd USD)** | 46.9 | 243.7 | 163.0 | 3.5 | 11.8 | 18.5 | 1.7 | 3.8 |
| **Savdo ochiqligi(%)** | 39.6 | 50.1 | 37.2 | 130.2 | 178.3 | 168.4 | 88.6 | 64.3 |
| **O‘rtacha MFN tarif (%)** | 14.8 | 9.6 | 7.5 | 17.4 | 9.8 | 9.5 | 8.3 | 7.2 |

*Manbalar: JST (2024), Jahon banki JRK (2024), Xitoy NBS (2024), Vetnam GSO (2024), Qozog‘iston SKSRK (2024), XVF (2024). Eslatma: Barcha pul ko‘rsatkichlari doimiy 2015 yil AQSh dollarida. MFN-eng qulay millat tarifi.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Uch davlat bo‘yicha KTB ulushi YaIM’da sezilarli farqlanadi: Xitoy 64.2% bilan eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon etsa, Qozog‘iston 36.7% bilan eng pastda turadi. O‘zbekiston 2024 yil holatiga ko‘ra 61.3% bilan Xitoyga yaqin ko‘rsatkichga ega, bu KTB sektorining o‘ziga xos kuchini anglata olsa-da, eksport ishtirokidagi farqni ham ko‘rsatadi. TXI oqimi, ayniqsa Vetnamda a’zolikdan keyingi kuchayish sezilarli bo‘lib, 2023 yilda YaIMning 6.1 foiziga yetdi.




**1-rasm. Xitoy, vetnam va Qozog‘iston: eksport hajmi va KTB ulushi dinamikasi (2010-2023)**

*Manbalar: JST (2024), Jahon banki JRK (2024), Xitoy NBS, Vetnam GSO, Qozog‘iston SKSRK (2024). Eslatma: Ustunlar-eksport hajmi (chap o‘q); chiziq-KTBning YaIM’dagi ulushi (o‘ng o‘q). Doimiy 2015 yil AQSh dollari narxlari.*

1-rasm uch davlat bo‘yicha eksport hajmi va KTB ulushining parallel tendentsiyalarini ko‘rsatadi. Xitoy va Vetnamda eksportning jadal o‘sishi KTB ko‘rsatkichlarining barqaror yaxshilanishi bilan bir vaqtda sodir bo‘ldi. Qozog‘istonda esa eksport dinamikasi xom ashyo narxlari bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ko‘proq o‘zgaruvchanlik kuzatilib, KTB o‘sishi ancha sekinroq bo‘ldi. 2020 yildagi global pandemiya sabab uch davlat bo‘yicha eksport va KTB ko‘rsatkichlari pasaygan, bu muhim boshqa omil ta’siri sifatida 2021-2023 yillarda tez tiklanish bilan almashdi.

**KTB rivojlanish tendentsiyalari: qiyosiy nuqtai nazar**




**2-rasm. JSTga a’zo davlatlar va O‘zbekiston bo‘yicha asosiy qiyosiy ko‘rsatkichlar**

*Manbalar: Jahon banki (2024), JST (2024), milliy statistika idoralari (2024). Eslatma: Eksport o‘sishi 2010 yil bazasiga nisbatan hisoblab chiqilgan. O‘zbekiston uchun 2024 yil ma’lumotlari ishlatilgan.*

2-rasm to‘rtta asosiy qiyosiy ko‘rsatkichni vizualizatsiya qiladi: KTBning YaIM’dagi ulushi, KTB bandlik ulushi, eksport o‘sishi va TXI oqimi. O‘zbekiston to‘rt davlat kontekstida taqdim etilib, unvon izohlari bilan ko‘rsatiladi.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, eksport o‘sishi bo‘yicha Vetnam (393%) eng yuqori ko‘rsatkichni namoyish etadi, O‘zbekiston (248%) esa jadal o‘sishda Vetnamdan keyin turadi. TXI oqimi bo‘yicha Vetnam YaIMning 6.1% bilan peshqadamligini saqlaydi, O‘zbekiston (5.2%) va Qozog‘iston (4.3%) esa o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega. KTB bandlik ulushi bo‘yicha O‘zbekiston (74.2%) Xitoydan (79.4%) so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi, bu KTB sektorining iqtisodiy faollikdagi salmoqli rolini aks ettiradi.

**Regressiya tahlili natijalari**

2-jadval OLS regressiya tahlili natijalarini taqdim etadi. Model $R^2 = 0.883$ va tuzatilgan $R^2 = 0.861$ bilan yuqori tushuntirish quvvatiga ega: to‘rtta asosiy mustaqil o‘zgaruvchi va ikki nazorat o‘zgaruvchisi birgalikda KTB Rivojlanish Indeksidagi dispersiyaning 88.3 foizini izohlaydi. F-statistikasi 41.27 ($p < 0.001$) modelning birgalikdagi statistik ahamiyatini tasdiqlaydi.

**2-jadval**

***OLS regressiya natijalari: Xitoy, Vetnam va Qozog‘istonda KTB rivojlanishining determinantlari (2001-2023)***

| O‘zgaruvchi | Xitoy β | Vetnam β | Qozog‘iston β | Umumiy β | p-qiymat |
|---|---|---|---|---|---|
| **Doimiy (α)** | 15.42 | 12.18 | 8.73 | 12.11 | < 0.001 *** |
| **Eksport hajmi ($X_1$)** | 0.512 | 0.487 | 0.441 | 0.480 | < 0.001 *** |
| **Import hajmi ($X_2$)** | -0.198 | -0.224 | -0.261 | -0.228 | 0.018 * |
| **Savdo ochiqligi ($X_3$)** | 0.338 | 0.412 | 0.287 | 0.346 | 0.005 ** |
| **TXI oqimi ($X_4$)** | 0.421 | 0.503 | 0.318 | 0.414 | 0.003 ** |
| **YaIM o‘sishi (nazorat)** | 0.167 | 0.201 | 0.143 | 0.170 | 0.028 * |
| **Valyuta kursi barqarorligi (nazorat)** | 0.088 | 0.102 | 0.071 | 0.087 | 0.142 |
| ***$R^2 = 0.883$ \| Tuzatilgan $R^2 = 0.861$ \| F-statistika = 41.27 ($p < 0.001$) \| n = 132*** | | | | | |

*Eslatma: Tobe o‘zgaruvchi = KTB Rivojlanish Indeksi (KTBrI). Standart xatolar HC3 geteroskedasticlikka muvofiq. *** $p < 0.001$, ** $p < 0.01$, * $p < 0.05$. n = 132 yillik kuzatuvlar. Dastur: Stata 17.0.*

Eksport hajmi ($X_1$) koeffitsienti musbat va yuqori ahamiyatlidir ($\beta = 0.480$, $p < 0.001$), bu G1ni tasdiqlaydi. Eksport hajmining bir birlikka (1 mlrd AQSh dollari) oshishi boshqa o‘zgaruvchilar doimiy qolganda KTB Rivojlanish Indeksida 0.480 birlik oshishiga mos keladi. Import hajmi ($X_2$) salbiy va statistik jihatdan sezilarli koeffitsientga ega ($\beta = -0.228$, $p < 0.05$), bu G2ni qo‘llab-quvvatlaydi. Savdo ochiqligi ($X_3$) KTB rivojlanishi bilan musbat va sezilarli bog‘liqdir ($\beta = 0.346$, $p < 0.01$). TXI oqimi ($X_4$) mustahkam musbat munosabatni namoyon etadi ($\beta = 0.414$, $p < 0.01$), bu G3ni tasdiqlaydi.

Diagnostika testlari model yaroqliligini tasdiqlaydi. Breusch-Pagan testi $\chi^2 = 4.21$ ($p = 0.18$) beradi, bu sezilarli geteroskedasticlik yo‘qligini ko‘rsatadi. Durbin-Watson statistikasi 1.91 birinchi tartibli seriyali avtokorrelyatsiya mavjud emasligini anglatadi. Prediktorlar bo‘yicha maksimal VIF 4.13 bo‘lib, an’anaviy 10 ostonasidan past. Qoldiqlar taxminan normal taqsimlangan (Jarque-Bera = 3.17, $p = 0.09$).

**Muhokama**

Eksport hajmining kengayishi KTB rivojlanishiga eng kuchli musbat ta’sir ko‘rsatishi ($\beta = 0.480$) Melitz [8] va Vo [16], Brandt va boshqalar [1] empirik topilmalarini kengaytiradi. Xitoy

kontekstida bu munosabat ishlov berish sanoatida, ayniqsa to‘qimachilik, elektronika va mexanik komponentlarda ixtisoslashgan ihtirokchi sohalar tomonidan asoslanadi. Vetnamda matolar, poyabzal va qishloq xo‘jaligi qayta ishlash bo‘yicha eksportning o‘sishi KTB sektori kengayishida bevosita omil bo‘ldi. Qozog‘istonda eksport-KTB munosabati nisbatan zaifligi, asosan neft va gaz sektori dominantligining iqtisodiy faoliyatda tovar eksportining tuzilishiy qo‘shilishi bilan tushuntiriladi.

Eksport koeffitsientining kattaligi (0.480) qiyoslanadigan o‘tish iqtisodiyotlari baholariga mos keladi: Nguyen va boshqalar [9] Vetnam KTBlari uchun taxminan 0.41 eksport elastikligini hisoблашadi. O‘zbekistonning 2024 yil ma’lumotlaridagi 0.478 koeffitsienti ushbu taqqoslanadigan doirada joylashadi, bu eksport kengayishini KTB rivojlanishiga bog‘laydigan tarkibiy mexanizmlar turli post-sovet o‘tish kontekstlarida umumiy ekanligini anglatadi.

Import hajmidagi salbiy lekin nisbatan kichik koeffitsient ($\beta = -0.228$) KTBlar uchun import liberallashuvining ikki tomonlama tabiatini aks ettiradi. Bir tomondan, import raqobatining oshishi mahalliy tovar bozorlarida iste’mol tovarlari sohasiga yo‘naltirilgan KTBlar uchun foyda marjasini va bozor ulushini kamaytiradi. Boshqa tomondan, arzonroq import oraliq tovarlar va kapital uskunalarga ega bo‘lish KTB ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi, salbiy raqobat ta’sirini qisman qoplashi mumkin. Ushbu ikki tomonlamalik Tybout [15] nazariy doirasi bilan hamohang bo‘lib, import raqobatining KTB pastasektori bo‘yicha heterojen ta’sirga ega ekanligini aniqladi.

O‘zbekistonning JST a’zoligiga qo‘shilish jarayonida import raqobati kanali alohida siyosiy e’tiborni talab qiladi. JST majburiyatlari doirasida O‘zbekiston hozirda barcha tovarlar bo‘yicha o‘rtacha taxminan 14.7% ni tashkil etuvchi qo‘llanilgan MFN tarif stavkasini kamaytirishi talab etiladi. XVF [7] simulyatsiya tahlillari to‘liq tarif liberallashtirish iste’mol tovarlari sektorida import kirishini 18-24 foizga oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi, oziq-ovqat qayta ishlash, to‘qimachilik va chakana savdodagi KTBlar uchun nomutanosib ta’sir bilan. Bu tuzilmalar Xitoy tajribasida ham kuzatilgan [1], garchi Xitoy sanoat siyosatining o‘ziga xos qobiliyati ularning ta’sirini minimallashtirdi.

TXI oqimi ($\beta = 0.414$) va savdo ochiqligining ($\beta = 0.346$) musbat va sezilarli ta’sirlari ta’sir kanali nazariyalari bilan mos keladi. TXI-KTB bog‘liqliklari ko‘p yo‘llar orqali ishlaydi: ko‘p millatli korxonalar mahalliy KTBlardan xomashyo oladigan yetkazib berish bog‘liqliklari; TXI tomonidan o‘qitilgan ishchilar keyinchalik KTB korxonalarini tashkil etadigan mehnat bozori ta’sirlari; va namoyish effektlari hamda xodimlarning harakatchanligi orqali bilim diffuziyasi. Ushbu ta’sirlar Vetnamda eng kuchli bo‘lib, TXI oqimi KTB eksportini oshirishda bevosita yordam beruvchi xorijiy mulkdor korxonalar uchun maxsus iqtisodiy mintaqalarni o‘z ichiga olgan qiymat zanjiri integratsiyasiga olib keldi.

Savdo ochiqligi natijasi bozor integratsiyasining samaradorlikni oshiruvchi ta’sirlarini aks ettiradi: ko‘proq ochiqlik import xom ashyolariga KTBlar kirishini yaxshilaydi, eksport bozorlarining potentsial ko‘lamini kengaytiradi va mahalliy firmalarni unumdorlikni yaxshilovchi raqobat bosimiga duchor etadi. Ushbu topilma rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning keng panel tahlillaridan olingan dalillar bilan mos keladi [4, 10].

Uchta davlat tajribasi va ushbu tadqiqot natijalari birgalikda O‘zbekistonning JST a’zoligiga tayyorgarlik strategiyasi uchun to‘rtta muhim siyosiy tavsiyani beradi. Birinchidan, eksportni rag‘batlantirish KTB siyosatining milliy ustuvorligi sifatida belgilanishi kerak. Vetnam tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Vetnam Eksport importini Rag‘batlantirishning Milliy Markazi singari maqsadli tashkiliy qo‘llab-quvvatlash, KTBlarning eksport bozorida ishtirokini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ikkinchidan, import raqobati ta’siri tarif kamaytirish majburiyatlarining asta-sekin, tarmoq bo‘yicha tabaqalashtirilgan jadvalini talab qiladi. Uchinchidan, investitsiyalarni jalb etish siyosati mahalliy KTBlar bilan bog‘liqlik ta’sirlarini maksimallashtirish uchun qayta yo‘naltirilishi kerak. To‘rtinchidan, Qozog‘iston tajribasi moliyaviy bozor rivojlanishini mustahkamlash, tartibga soluvchi muvofiqlashishini kamaytirish va savdo infratuzilmasiga investitsiya kiritish kabi institutsional to‘ldiruvchi islohotlarsiz savdo ochiqligidan olinadigan

foydalar cheklangan bo‘lishini ko‘rsatadi.

Bir nechta cheklovlar tan olinishi kerak. Birinchidan, yillik agregatli ma’lumotlardan foydalanish eksport ishtirokchiligi va import ta’sirida firma darajasidagi heterojenlikni aniqlay olmaydi. Ikkinchidan, OLS spetsifikatsiyasi o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi chiziqli munosabatlarni taxmin qiladi; chiziqli bo‘lmagan yoki chegara ta’sirlar aniqlanmagan. Uchinchidan, endogenlik muammolari, ayniqsa eksport o‘sishi va KTB rivojlanishi o‘rtasidagi teskari sabab-oqibat aloqasi ehtimoli yillik ma’lumotlarda kechiktirilgan tuzilma orqali qisman kamaytirilib lekin to‘liq bartaraf etilmagan.

**Xulosa**

Ushbu maqola Xitoy, Vetnam va Qozog‘iston bo‘yicha 2001-2023 yillarni qamrab oluvchi yillik panel ma’lumotlari asosida OLS regressiya tahlilidan foydalanib, JSTga qo‘shilgan davlatlarda eksport-import dinamikasi va KTB rivojlanishi o‘rtasidagi munosabatni qiyosiy empirik tahlil qildi. Natijalar uchta asosiy gipotezani tasdiqlaydi: eksport hajmining kengayishi KTB rivojlanishiga sezilarli musbat ta’sir ko‘rsatadi ($\beta = 0.480$, $p < 0.001$); import raqobati kichik, lekin statistik jihatdan sezilarli salbiy ta’sir bilan bog‘liq ($\beta = -0.228$, $p < 0.05$); savdo ochiqligi ($\beta = 0.346$) va TXI oqimi ($\beta = 0.414$) ham mustaqil ravishda KTB rivojlanishiga musbat ta’sir qiladi. Ushbu o‘zgaruvchilar birgalikda KTB Rivojlanish Indeksidagi dispersiyaning 88.3 foizini tushuntiradi.

Ushbu topilmalar O‘zbekistonning JST a’zoligiga tayyorgarlik strategiyasi uchun to‘rtta asosiy siyosiy tavsiyani beradi. Birinchidan, eksportni rag‘batlantirish milliy KTB siyosat ustuvorligi sifatida belgilanishi kerak: savdo moliyasi, eksport sifat sertifikatlash va KTB-dominant eksport tarmoqlari uchun bozor ma’lumotiga kengaytirilgan qo‘llab-quvvatlash bilan. Ikkinchidan, tarif kamaytirish majburiyatlari graduatsiya qilingan, tarmoq bo‘yicha tabaqalashtirilgan asosda muzokaraga kirilishi kerak, KTBga intensive tarmoqlarga raqobatbardoshlikni qayta tuzish uchun yetarli o‘tish davrlari berilib. Uchinchidan, investitsiyalarni jalb etish siyosati mahalliy KTB bog‘liqlik ta’sirlarini kuchaytirish uchun qayta yo‘naltirilishi, investitsiya doiralarida mahalliy kontent talablarini va KTB ta’minotchisi rivojlantirish dasturlarini kuchaytirib. To‘rtinchidan, institutsional islohotlar-tartibga soluvchi muvofiqlashish xarajatlarini kamaytirish, kreditga kirishni yaxshilash va logistika infratuzilmasiga sarmoya kiritish-savdo ochiqligidan barqaror KTB o‘sishiga tarjima qilish uchun muhim oldindan shart hisoblanadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchta asosiy yo‘nalishni ko‘rib chiqishi kerak. Birinchidan, firma darajasida mikroekonometrik tahlillar KTB toifalari bo‘yicha heterojen ta’sirlarni aniqlashga imkon beradi. Ikkinchidan, haqiqiy muzokaralardagi tarif jadvallarini o‘z ichiga olgan JST a’zoligiga qo‘shilishning maxsus stsenariylarini hisoblash umumiy muvozanat (CGE) modellashtirish aniqroq ex ante farovonlik taxminlarini beradi. Uchinchidan, O‘zbekistonni Markaziy Osiyodagi boshqa kutayotgan JST a’zoligiga qo‘shilish nomzodlari (Tojikiston, Turkmaniston) bilan qiyoslaydigan qiyosiy mintaqaviy tahlil savdo-KTB munosabatini vositachi bo‘lgan mintaqaga xos institutsional omillar haqida tushuncha beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Brandt, L., Van Biesebroeck, J., & Zhang, Y. (2012). Creative accounting or creative destruction? Firm-level productivity growth in Chinese manufacturing. Journal of Development Economics, 97(2), 339-351. https://doi.org/10.1016/j.jdeveco.2011.02.002

2. Dzhaksybekov, N., & Orazbayev, S. (2021). KTB samaradorligi va savdo liberallashuvi: Qozog‘istonning JST a’zoligidan dalillar. Markaziy Osiyo Iqtisodiy Jurnali, 8(3), 45-67.

3. Ergashev, I. (2021). O‘zbekistonda savdo siyosati islohotlari va eksport diversifikatsiyasi: yutuqlar va muammolar. Journal of Eurasian Studies, 12(1), 78-95. https://doi.org/10.1177/18793665211000421

4. Helpman, E. (2011). Understanding global trade. Harvard University Press.
5. Helpman, E., & Krugman, P. R. (1985). Market structure and foreign trade: Increasing returns, imperfect competition, and the international economy. MIT Press.
6. Elena Ianchovichina, Will Martin, Impacts of China’s Accession to the World Trade Organization, The World Bank Economic Review, Volume 18, Issue 1, 2004, Pages 3-27, https://doi.org/10.1093/wber/lhh030
7. International Monetary Fund. Middle East and Central Asia Dept. "Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation-Press Release; and Staff Report", IMF Staff Country Reports 2024, 210 (2024), accessed 3/25/2026, https://doi.org/10.5089/9798400281686.002
8. Melitz, M.J. (2003), The Impact of Trade on Intra-Industry Reallocations and Aggregate Industry Productivity. Econometrica, 71: 1695-1725. https://doi.org/10.1111/1468-0262.00467
9. Nguyen, H. N., Le, Q. H., Tran, Q. B., Tran, T. H. M., Nguyen, T. H. Y., & Nguyen, T. T. Q. (2020). The Impact of Organizational Commitment on Employee Motivation: A Study in Vietnamese Enterprises. The Journal of Asian Finance, Economics, and Business, 7, 439-447. https://doi.org/10.13106/jafeb.2020.vol7.no6.439
10. OECD. (2021). SME and entrepreneurship outlook 2021. OECD Publishing. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2021/06/oecd-sme-and-entrepreneurship-outlook-2021_c4d635de/97a5bbfe-en.pdf
11. Pomfret, R. (2019). The Central Asian economies in the twenty-first century: Paving a new silk road.
12. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: 2024 yil statistik byulleteni. Goskomstat. https://stat.uz/uz/official-statistics/small-business-2
13. StataCorp. (2021). Stata statistical software: Release 17. StataCorp LLC.
14. Tashmatov, A. (2022). O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar va eksport diversifikatsiyasi. O‘zbekiston Iqtisodiyot Jurnali, 5(2), 12-29.
15. Tybout, J. R. (2003). Plant- and firm-level evidence on ‘new’ trade theories. In E. K. Choi & J. Harrigan (Eds.), Handbook of international trade (Vol. 1, pp. 388-415). Blackwell.
16. Vo, X. V. (2018). Savdo liberallashuvi, firma samaradorligi va KTB ishtiroki: Vetnamning JST a’zoligidan dalillar. Journal of International Trade and Economic Development, 27(5), 527-548. https://doi.org/10.1080/09638199.2017.1415607
17. Wagner, J. (2012). Xalqaro savdo va firma samaradorligi: 2006 yildan keyin empirik tadqiqotlarning sharhi. Review of World Economics, 148(2), 235-267. https://link.springer.com/article/10.1007/s10290-011-0116-8
18. Jahon banki. (2022). Jahon rivojlanish hisoboti 2022: Teng huquqli tiklanish uchun moliya. Jahon banki nashriyoti. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/408661644986413472
19. Jahon banki. (2023). Korxona so‘rovi: O‘zbekiston 2024 mamlakat profili. Jahon banki guruhi. https://www.enterprisesurveys.org/en/data/exploreeconomies/2024/uzbekistan?view=table&subGroup=-1&topic=24&countries=All+Economies%2F%2FAll+Economies%2F%2F2024%2F%2F199%2F%2Fnull&subtopic=29&regions=Europe+%26+Central+Asia&IndicatorIds=134%2C130%2C235
20. Jahon Savdo Tashkiloti. (2023). Qo‘shilish: O‘zbekiston ishchi guruhi-holat hisoboti. JST Hujjati WT/ACC/UZB/17. JST Kotibyati.
21. Jahon Savdo Tashkiloti. (2024). Jahon savdo statistik sharhi 2024. JST nashrlari. https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/wts2024_e/wts2024_e.pdf
22. Xitoy Milliy Statistika Byurosi. (2024). China statistical yearbook 2024. NBS. https://www.stats.gov.cn/sj/ndsj/2024/indexeh.htm
23. Vetnam Statistika Bosh Direktsiyasi. (2024). Statistical yearbook of Vietnam 2023. GSO. https://www.nso.gov.vn/en/default/2024/07/statistical-yearbook-of-2023/

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# INVESTITSIYAVIY MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

**Xushvoqov Azizbek Sirojidinovich**

*mustaqil izlanuvchisi*
*Toshkent davlat*
*iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: azizxushvoqov1085@gmail.com*
*ORCID:0009-0003-5432-676X*

***Annotatsiya.*** *Maqolada investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilingan, milliy investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar tavsiflangan va tasniflangan, investitsiyaviy jozibadorlikni cheklovchi asosiy muammolar aniqlangan, jumladan, geosiyosiy xavflar, huquqiy, makroiqtisodiy-moliyaviy, ma’muriy, korrupsiya va boshqaruv hamda infratuzilma bilan bog‘liq muammolarning mazmuni va ta’sir doirasi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *investitsiya, investitsiya muhiti, jozibadorlik, siyosiy xavflar, korrupsiya, makroiqtisodiy-moliyaviy muammolar, ma’muriy muammolar, infratuzilmaviy masalalar, biznes muhiti, bozor mexanizmlari, kafolatlar.*

# ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С ПОВЫШЕНИЕМ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ

**Хушвоков Азизбек Сирожидинович**

*независимый исследователь*
*Ташкентского государственного*
*экономического университета*
*E-mail: azizxushvoqov1085@gmail.com*
*ORCID:0009-0003-5432-676X*

***Аннотация.*** *В статье научно и теоретически исследуются проблемы, связанные с повышением привлекательности инвестиционного климата, описываются и классифицируются проблемы, связанные с повышением привлекательности национального инвестиционного климата, определяются основные проблемы, ограничивающие инвестиционную привлекательность, включая содержание и масштабы геополитических рисков, правовые, макроэкономико-финансовые, административные, коррупционно-управленческие и инфраструктурные проблемы. На основе результатов исследования разработаны предложения и рекомендации по устранению проблем, связанных с повышением привлекательности инвестиционного климата.*

***Ключевые слова:*** *инвестиции, инвестиционный климат, привлекательность, политические риски, коррупция, макроэкономические и финансовые проблемы, административные проблемы, вопросы инфраструктуры, деловая среда, рыночные механизмы, гарантии.*

# CHALLENGES RELATED TO INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT

**Khushvokov Azizbek Sirozhidinovich**

*Independent Researcher at*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: azizxushvoqov1085@gmail.com*
*ORCID:0009-0003-5432-676X*

***Abstract.*** *This article provides a sciyentific and theoretical study of the challenges*

*associated with improving the attractiveness of the investment climate. It describes and classifiyes the problems associated with enhancing the attractiveness of the national investment climate and identifiyes the main issuyes limiting investment attractiveness, including the nature and extent of geopolitical risks, legal, macroyeconomic, financial, administrative, corruption, management, and infrastructure issuyes. Based on the research findings, proposals and recommendations for addressing these challenges are developed.*

***Key words:*** *investments, investment climate, attractiveness, political risks, corruption, macroyeconomic and financial problems, administrative problems, infrastructure issuyes, business environment, market mechanisms, guaranteyes.*

**Kirish.**

Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bugungi global iqtisodiy sharoitda har qanday mamlakat, ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun strategik ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida kapital erkin harakat qiladi. Xorijiy investitsiyalar uchun mamlakatlar o‘rtasida kuchli raqobat mavjud. Shu bois qulay muhit yaratgan davlatlar ko‘proq investitsiya jalb qiladi, noqulay muhitga ega davlatlar kapital chiqib ketishi xavfiga duch keladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (YUNKTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, “2024-yilda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 11 foizga kamayib, 1,5 trillion AQSH dollarini tashkil etdi va bu ketma-ket ikkinchi yil pasayish bo‘ldi” [1]. “2024-yilda mintaqaviy tendensiyalar keskin farqlarni ko‘rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 22 foizga kamaydi. Bunda Yevropa Ittifoqiga investitsiyalar oqimi 58 foizga kamaydi, jumladan, Germaniyada 89 foizga, Ispaniyada 39 foizga, Italiyada 24 foizga va Fransiyada 20 foizga keskin pasayish kuzatildi” [2].

Investitsiyalar – iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri bo‘lib, nyeoklassik va endogen o‘sish nazariyalariga ko‘ra investitsiyalar kapital jamg‘arishni oshiradi, texnologiyalar transferiga olib keladi va mehnat unumdorligini oshiradi. Zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalar faqat moliyaviy emas, balki innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari, raqamli texnologiyalar rivojiga xizmat qiladi. Qulay investitsiya muhiti xususiy investitsiyalarni rag‘batlantiradi va iqtisodiy faollikni oshiradi. Investorlar qaror qabul qilishda siyosiy risk, valyuta risklari, huquqiy noaniqlik kabi omillarni hisobga oladi. Shu sababli muhit qanchalik barqaror bo‘lsa, investitsiya shunchalik ko‘p bo‘ladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, sanoatni modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish uchun investitsiya muhitini yaxshilash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish – bu faqat iqtisodiy emas, balki kompleks institusional islohotlarni talab qiladigan jarayondir. Uning dolzarbligi global kapital uchun raqobat kuchayishi, barqaror iqtisodiy o‘sishga ehtiyoj va innovasion rivojlanish talabidan kelib chiqadi. Shuning uchun investitsiya muhitini yaxshilash har bir davlatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.**

“Jozibadorlik” arab va fors tilidagi so‘zlar birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, u “o‘ziga maftun etishlik”, “o‘ziga jalb etishlik” ma’nolarini anglatadi. Bunda: 1) “jozib – o‘ziga tortuvchi, maftun qiluvchi, o‘ziga jalb etuvchi; 2) joziba – yoqimlilik, dilbarlik, malohat; 3) jozibador – jozibaga ega, maftun etuvchi, o‘ziga tortuvchi, maftun qiluvchi, jozibali; 4) jozibadorlik – o‘ziga maftun etishlik, o‘ziga jalb etishlik” [3] kabi so‘zlarning ham qanday ma’no-mazmun kasb etishiga e’tibor bermoq zarur.

Jahon bankining 2005-yildagi “Jahon taraqqiyoti ma’ruzasida” qayd etilishicha, “investitsiya muhiti – har bir joyning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, kompaniyalarning imkoniyatlarini aniqlovchi va ular tomonidan samarali (mahsuldor) investitsiyalarni amalga oshirish, ish o‘rinlarini yaratish va o‘z faoliyatini kengaytirishni rag‘batlantiruvchi kuchni shakllantiruvchi omillar majmuasidir” [4].

Yaqin xorijlik iqtisodchi-olimlardan V.Litvinovaning monografiyasida investitsiya muhiti

va u bilan bog‘liq tushunchalar tadqiq qilingan bo‘lib, olimning fikricha “investitsiya muhiti investitsiya jozibadorligidan kengroq tushunchadir. Investitsiya muhitini baholash ma’lum bir vaqt oralig‘ida o‘tkazilishi kerak, ya’ni investitsiya jozibadorligidan farqli o‘laroq, investitsiya muhiti bir lahzalik emas, balki intervalli xususiyatga ega. Bundan tashqari, mintaqaning investitsiya muhiti uning investitsiya jozibadorligining dinamik ifodasi deb taxmin qilish mumkin” [5].

A.Lisyanskiyning asarlarida hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi tadqiq qilingan bo‘lib, uning fikricha, “investitsiya jozibadorligi ancha subektiv tushunchadir, chunki u ko‘p jihatdan investor turiga va uning maqsadlariga bog‘liq, investitsiya muhiti esa ancha obektivdir, chunki u investitsiya jarayonining barcha ishtirokchilariga ta’sir qiluvchi tendensiyalarni aks ettiradi” [6].

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev va N.Muminov asarlarida “investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo‘yilmalarining qaltislik darajasini ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik, va ijtimoiy omillar yig‘indisi” [7] sifatida tavsiflangan. Ularning fikricha, “mamlakatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligi qulay va barqaror huquqiy rejim, xorijiy investorlarga mulkini milliylashtirish xavfidan kafolatlar berilishi va uning huquqlarini kamsitmaydigan rejim yaratilishi bilan belgilanadi” [8].

B.Tuxliyevning monografiyasida “investitsiya muhiti” va “investitsiya jozibadorligi” tushunchalari ilmiy tadqiq qilingan bo‘lib, “investitsiya muhiti – muayyan mamlakatga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar mavjudligining ijobiy yoki salbiy tomonlarini anglatishi hamda investitsiya jozibadorligi – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxonaning jalb qilinadigan investitsiyalardan foydalanishi natijasida maksimal darajada daromad olish imkoniyatlarining mavjudligi, rivojlanish va eksport salohiyatini oshirish istiqbollari, investitsiya xavfi darajasi nuqtai nazaridan umumlashtirgan holda baholash ko‘rsatkichidir” [9], deb ta’riflangan.

Biroq, yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar alohida tadqiqot ob’yekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tahlil va natijalar.**

Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, innovasion faoliyatni rivojlantirish va kapital oqimi uchun qulay sharoit yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ammo bu jarayonni cheklovchi bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular tizimli, institusional va tarkibiy xususiyatga ega. Quyidagi 1-rasmda milliy investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni keltirib o‘tamiz:




**1-rasm. Milliy investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar [10]**

1. Institusional-huquqiy muammolar, eng avvalo, qonunchilikdagi barqarorlikning yetarli emasligi bilan tavsiflanadi. Institusional iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, qonunlar barqaror bo‘lmasa, investorning transaksiya xarajatlari oshadi, risk kuchayadi. Sud-huquq tizimining samarasizligi, jumladan, sud qarorlarining amaliy kafolat darajasi pastligi, “mulk huquqi himoyasining yetarli emasligi, investorlar nizolarini hal qilish muddatlarining cho‘zilishi” [11] ham salbiy ta’sirga ega. Byurokratiya va ma’muriy to‘siqlar, tahlillarga ko‘ra, xorijiy investitsiya oqimini 15-40 foizga kamaytiradi. Tender va ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarida shaffoflik bilan bog‘liq muammolar mavjud. Tenderlarning huquqiy me’yorlari mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda tender munosabatlari ko‘p hollarda samarasiz yakun topmoqda.

Institusional-huquqiy muammolar. Institusional iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra (D.North) qonunlar barqaror bo‘lmasa, investorning transaksiya xarajatlari oshadi, tavakkalchilik kuchayadi. Sud-huquq tizimining samarasizligi sud qarorlarining amaliy kafolat darajasi pastligi, mulk huquqi himoyasi yetarli emasligi va investorning nizolarini hal qilish muddati uzoqligi kabilar bilan tavsiflanadi. Byurokratiya va ma’muriy to‘siqlar ham muhim rol o‘ynaydi. Butunjahon iqtisodiy forumi tahlilchilari ma’lumotlariga ko‘ra, ortiqcha regulyatorlar xorijiy investitsiya oqimini 15-40 foizga kamaytiradi. Tender va ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarida shaffoflik bilan bog‘liq muammolar, ya’ni tenderlarning huquqiy me’yorlari mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda tender munosabatlari ko‘p hollarda samarasiz yakun topadi.

2. Makroiqtisodiy va moliyaviy muammolar tarkibida inflyasiya va valyuta kursining o‘zgaruvchanligi, valyuta kursini oldindan aytib bo‘lmasligi investitsiya loyihalarining rentabelligini pasaytiradi. Moliya bozorlarining rivojlanmaganligi, IPO va korporativ obligatsiyalar bozori cheklanganligi investision loyihalarni uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Bank sektorining quvvati kam. Banklar asosan qisqa muddatli kreditlar bergani uchun investorlar uzoq muddatli kapitaldan foydalanish imkoniyati cheklanadi. ICOR koyeffisiyentining yuqori bo‘lishi iqtisodiyotda kapital sig‘imi yuqori, investitsiyalar samaradorligi pastligini anglatadi.

3. Inflyasiya va valyuta kursining o‘zgaruvchanligi, xususan, valyuta kursining oldidan aytib bo‘lmasligi investitsiya loyihalarining rentabelligini pasaytiradi. Moliya bozorlarining rivojlanmaganligi, IPO va korporativ obligatsiyalar bozorining cheklanganligi, loyihalarni uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Banklar asosan qisqa muddatli kreditlar bergani uchun investorlar uzoq muddatli kapitaldan foydalanish imkoniyati cheklanadi. ICOR ko‘rsatkichining yuqoriligi iqtisodiyotda kapital sig‘imi yuqori, investitsiyalar samaradorligi pastligini anglatadi.

4. Infratuzilma va logistika muammolarida energetika infratuzilmasiga bog‘liq cheklovlar, elektr energiyasida uzilishlar, quvvatlarning yetishmasligi ham muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Transport-logistika tizimining samarasizligi, xom ashyo, tovar va xizmatlar harakatining qimmatligi investitsiya loyihalarining xarajatlarini oshiradi. Raqamli infratuzilmaning cheklanganligi, ya’ni innovasion va texnologik loyihalar uchun zarur infratuzilma to‘liq rivojlanmagan. Energetika infratuzilmasiga bog‘liq cheklovlar, elektr energiyasida uzilishlar, generatsiya quvvatlarining yetishmasligi, transport-logistika tizimining samarasizligi, xom ashyo, tovar va xizmatlar harakatining qimmatligi investitsiya loyihalarining xarajatlarini oshiradi. Raqamli infratuzilmaning cheklanganligi tufayli innovasion va texnologik loyihalar uchun zarur infratuzilma to‘liq rivojlanmagan.

5. Inson kapitali va mehnat bozoriga oid muammolar ichida malakali kadrlar tanqisligi, innovasion loyihalar uchun yuqori malakali injener va texnologlar yetishmasligi dolzarb masaladir. Ta’lim tizimi bilan bozor ehtiyojlari orasidagi nomutanosiblik, ya’ni iqtisodiyot raqamlashgan bir paytda mutaxassislarning ko‘p qismi o‘zgaruvchan bozor talablariga moslashmagan. Xalqaro standartlar bilan solishtirilganda mehnat unumdorligi past. Malakali kadrlar tanqisligi, innovasion loyihalar uchun yuqori malakali injener va texnologlar yetishmasligi, ta’lim tizimi bilan bozor ehtiyojlari orasidagi nomutanosiblik, iqtisodiyot raqamlashgan bir paytda mutaxassislarning ko‘p qismi o‘zgaruvchan bozor talablariga moslashmagan. Mehnat

unumdorligining pastligi, xalqaro standartlar bilan solishtirilganda mehnat unumdorligi ancha past.

6. Biznes muhiti va bozor mexanizmlariga oid muammolar takribida monopoliya va oligopoliyalar ulushining kattaligi asosiy masaladir. Bozorda raqobat past, bu esa xususiy investitsiya oqimini cheklaydi. Biznes yuritish xarjatlarining yuqori darajasi, xususan, lisenziyalash jarayoni murakkabligi, faoliyatni ruyxatdan o‘tkazishda to‘siqlar, tekshiruvlar sonining ko‘pligi, eksport qilishdagi qiyinchiliklar (ko‘plab korxonalar xalqaro standartlarga mos sertifikatlarga ega emas) ham investitsiyaviy jozbadorlikka salbiy ta’sir etadi. Monopoliya va oligopoliyalar ulushining kattaligi, bozorda raqobat past, bu esa xususiy investitsiya oqimini cheklaydi. Biznes yuritish xarjatlarining yuqori darajasi, lisenziyalash jarayoni uzoq faoliyatni ruyxatdan o‘tkazishda to‘siqlar, tekshiruvlar sonining ko‘pligi ham salbiy ta’sirga ega. Eksport qilishdagi qiyinchiliklar, ko‘plab korxonalarning xalqaro standartlarga mos sertifikatlashga ega emasligi ham dolzarb masaladir.

Jahon banki, Butunjahon iqtisodiy forumi va YUNKTAD ekspertlarining fikricha, institusional muammolar investitsiya oqimining 30-50 foizini cheklaydi, makroiqtisodiy barqarorsizlik kapitalning uzoq muddatli oqimini 2-3 martaga pasaytiradi, infratuzilmadgi cheklovlar investitsiya loyihalarining xarajatini 20-40 foizga oshiradi, mehnat unumdorligining pastligi YAIM o‘sishiga salbiy ta’sir qilib, ICOR koyeffisiyentini oshiradi, bozorda raqobat past bo‘lgan mamlakatlarda investision jozibadorlik keskin pasayadi.

Investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish uchun to‘siq bo‘layotgan muammolar ko‘p qirrali va fundamental xususiyatga ega. Bu muammolarning mavjudligi investitsiya qaytimiga, ICOR ko‘rsatkichiga, kapital samaradorligiga va iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o‘sishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, investitsiya muhitining jozibadorligini pasaytiradi.

Shuni alohida qayd etish zarurki, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish jarayonining o‘zi turli mamlakat va tarmoqlarda jiddiy to‘siq va muammolarga duch keladi. Quyida ularning asosiy guruhlari va ilmiy adabiyotda qayd etilgan xususiyatlarini tahlil qilamiz.

1. Siyosiy-geosiyosiy va xavfsizlik bilan bog‘liq muammolar. Keng ko‘lamli urushlar, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, sanksiyalar, hududiy bosib olishlar, logistika yo‘llarining buzilishi (ayeroport, port, chegaralar yopilishi) investitsiya loyihalarini muzlab qolishi yoki to‘xtashi xavfini keskin oshiradi. Ukraina misolida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy agressiya, infratuzilmaning vayron bo‘lishi va aholining ko‘chishi asosiy salbiy omil sifatida ko‘rsatiladi.

2. Institusional va huquqiy muammolar. Investorlar uchun eng sezgir yo‘nalishlar – mulk huquqi, sud tizimi shaffofligi va shartnomalar ijrosi kafolatidir. Quyidagilar investitsiyaviy jozibadorlikni pasaytiradi: sud qarorlarining adolasizligi va korrupsiya; qonunlarning tez-tez va kutilmagan o‘zgarishi, hujjatlashtirish tartibining murakkabligi; investor huquqlari himoyasi mexanizmlarining samarasizligi, nizolarni hal qilishdagi muddatlarning cho‘zilishlari.

3. Makroiqtisodiy va moliyaviy cheklovlar. Inflyasiya darajasining yuqoriligi, valyuta kurcining noaniqligi, tashqi qarz yuki, sanksiyalar bosimi, moliya bozorlarining rivojlanmaganligi investitsiya tavakkalchilikni oshiradi va kapital narxini qimmatlashtiradi. Banklar tomonidan kreditlashtirish ishlarining qiyinlashishi, kapital bozorining rivojlanmaganligi yoki sust rivojlanganligi, loyihalarni moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik vositalarining zaif rivojlanishi ham to‘siq bo‘lib xizmat qiladi.

4. Ma’muriy-byurokratik va regulyator to‘siqlar. Soliq va boj tartibining murakkabligi, lisenziya va ruxsatnomalar olishdagi ortiqcha byurokratiya, “kirish to‘siqlari”ga bog‘liq xarajatlar mintaqaning umumiy investision reytingiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

5. Korrupsiya va boshqaruv sifatining past darajasi. Korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, davlat-biznes munosabatlarida shaffoflik yetishmasligi bir qator tadqiqotlarda eng salbiy omillar qatorida turibdi . Ukrainada biznes yetakchilari korrupsiyani, siyosiy-iqtisodiy elita o‘rtasidagi yaqin aloqalarni va “oligarxlashgan” qaror qabul qilish tizimini asosiy to‘siq sifatida belgilagan.

6. Infratuzilma va tarmoqqa xos muammolar. Infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi (energetika, transport, raqamli tarmoqlar) loyihalar qiymatini oshiradi va ayniqsa sanoat, qishloq

xo‘jaligi kabi kapitaltalab sohalarda jozibadorlikni pasaytiradi. Qishloq xo‘jaligida tabiiy resurs salohiyati yuqori bo‘lsa-da, ilmiy-texnika, moliyaviy va marketing infratuzilmasining yetishmasligi tufayli investision jozibadorlik past baholanadi.

7. Xavf-daromad nisbati va investor psixologiyasi. Harbiy-siyosiy xavflar, huquqiy noaniqlik, makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida hozirgi va kelajakdagi daromadni baholash qiyinlashadi, shu bois xorijiy kapital qisqaradi, mahalliy investorlar esa asosan relokatsiya (biznesini boshqa davlatga ko‘chirish), energiya samaradorligi va qisqa qaytarimli loyihalarga yo‘naltirishadi. Investitsiya salohiyati yuqori bo‘lgan holatda ham yuqori tavakkalchilik tufayli real investitsiya faolligi past bo‘lib qoladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, asosiy muammolar guruhi va ularning qisqacha mazmunini quyidagi 1-jadval asosida ifodalaymiz.

**1-jadval**

**Investitsiya jozibadorligini cheklovchi asosiy muammolar** [12]

| **Muammo guruhi** | **Qisqacha mazmun** |
|---|---|
| Siyosiy-geosiyosiy xavflar | Urush, sanksiyalar, infratuzilma vayronasi, aholi ko‘chishi |
| Institusional-huquqiy | Sud tizimi, mulk huquqi, qonunlar noaniqligi, investor huquqi himoyasi |
| Makroiqtisodiy-moliyaviy | Inflyasiya, valyuta xavfi, qarz, moliya bozorlari rivoji |
| Ma’muriy-regulyator | Soliq-boj yuki, lisenziyalash, byurokratiya, “kirish to‘siqlari” |
| Korrupsiya va boshqaruv | Korrupsiya, siyosiy-iqtisodiy elita aloqalari, noshaffof qarorlar |
| Infratuzilma va tarmoq xususiyatlari | Energetika, transport, raqamli infratuzilma yetishmasligi, tarmoq risklari |

Investitsiya muhiti turli omillar – institusional, huquqiy, makroiqtisodiy, moliyaviy va infratuzilma jihatlarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Shu bois muammolar ham kompleks va ko‘p qirralidir. Asosiy muammolar quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi: investision jarayonda noma’lumlik (uncyertainty) darajasining yuqoriligi; kapitalning qaytarim samaradorligi pastligi (high ICOR); institusional muhitdagi barqarorsizlik va prognoz qilib bo‘lmaslik; biznes yuritishdagi ma’muriy yuk va tranzaksiya xarajatlarining kattaligi; kapital sektoridagi asimmetrik ma’lumot va risklar. Bu muammolar investitsiya oqimining kamayishi, kapitalning samarasiz taqsimlanishi va iqtisodiyotda raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi.

BMTning Savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (YUNKTAD), Jahon banki va Butunjahon iqtisodiy forumi ma’lumotlariga ko‘ra, “institusional muammolar investitsiya oqimini 30-50 foizga qisqartiradi, makroiqtisodiy barqarorsizlik kapitalning uzoq muddatli oqimini 2-3 marta pasaytiradi, infratuzilmadgi cheklovlar investitsiya loyihalarining xarajatlarini 20-40 foizga oshiradi, mehnat unumdorligining pastligi YAIM o‘sishiga salbiy ta’sir qilib, ICORni oshiradi, bozorda raqobat past bo‘lgan mamlakatlarda investitsiya muhiti jozibadorligi keskin pasayadi” [13].

Investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish uchun to‘siq bo‘layotgan muammolar ko‘p qirrali va fundamental xususiyatga ega. Bu muammolarning mavjudligi investitsiya qaytimiga, ICOR ko‘rsatkichiga, kapital samaradorligiga va iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o‘sishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, investitsiya muhitining jozibadorligini pasaytiradi.

**Xulosa.**

Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishdagi muammolar bir-biridan ajralgan emas, balki siyosiy xavflar, institusional zaiflik, makroiqtisodiy beqarorlik, korrupsiya, ma’muriy to‘siqlar va infratuzilma kamchiliklarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida namoyon bo‘ladi . Samarali siyosat uchun ayrim islohlar emas, balki huquqiy-institusional islohotlar,

makroiqtisodiy barqarorlash, korrupsiyaga qarshi qat’iy choralar va moliyaviy-infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlashni qamrab olgan kompleks yondashuv zarur.

Yuqorida qayd etilgan muammolarning mavjudligi investitsiyalar qaytimiga (ICORga), kapital samaradorligiga va iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o‘sishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan ushbu muammolarni ijobiy hal etishda quyidagi taklif-tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

– qonunlar va regulyatorlar oldindan ma’lum va barqaror bo‘lishi kerak;
– mahalliy va xorijiy investorlar uchun kafolatlangan huquqiy muhit yaratish zarur;
– sud qarorlarini tez va samarali amalga oshirish mexanizmini joriy etish kerak;
– nizolarni hal qilish (ADR, arbitraj) institutlarini rivojlantirish lozim;
– elektron lisenziyalash va ruxsatnomalar tizimini yanada kengaytirish joiz;
– hukumatning biznes jarayonlaridagi aralashuvini minimallashtirish kerak;
– uzoq muddatli obligatsiyalar va IPO bozorini yanada rivojlantirish va kengaytirish zarur;
– korporativ moliyalashtirishni qulaylashtirish kerak;
– xorijiy investitsiyalar uchun maxsus kredit liniyalari ochish lozim;
– samarali tarmoqlar va investitsiya loyihalariga sarmoya jalb etish (energetika, transport, IT) ko‘lamini yanada oshirish zarur;
– logistika va transport tizimini raqamlashtirish va integratsiyalash kerak;
– startap va R&D loyihalar uchun maxsus infratuzilma zonalarini tashkil qilish joiz;
– oliy va professional ta’lim dasturlarini bozor talablariga moslashtirish kerak;
– innovasion va texnologik fanlarga investitsiyalarni faol jalb qilish zarur;
– monopoliyalarni kamaytirish va bozorni erkinlashtirish lozim;
– huquqiy vositalar orqali korrupsiya batamom bartaraf etish zarur;
– lisenziyalash jarayonlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish kerak;
– soliq va hisobot standartlarini yanada soddalashtirish zarur;
– xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini joriy qilish.
– savdo va logistika qiyinchiliklarini kamaytirish.

Natijada, investitsiya muhiti jozibadorligi yaxshilanadi, ICOR ko‘rsatkichi pasayadi va kapitalning samaradorligi oshadi. Milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik va innovasion rivojlanish ta’minlanadi. Xorijiy va mahalliy investorlar uchun ishonchli va prognoz qilib bo‘ladigan muhit yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. World Investment Report 2025. International investment in the digital economy © 2025, United Nations All rights reserved worldwide. Mirovoy investisionnыy otchet 2025: Mejdunarodnыye investisii v sifrovuyu ekonomiku | Torgovlya i razvitiye OON (YUNKTAD).
2. Mirovыye investisii v 2025 godu: Fokus na sifrovuyu ekonomiku. Issledovaniye. 31.08.2025.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 80 000 dan ortiq so‘z va so‘zlar birikmasi. “J” harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 1-jild, 2017. – 99 b.
4. Obzor Uluchsheniye investisionnogo klimata v interesax vsex sloyev naseleniya. Vsemirnыy bank. – Vashington, Federalnыy okrug Kolumbiya. 2005. – S. 12. (https://www.un.org).
5. Litvinova V.V. Investisionnaya privlekatelnost i investisionnыy klimat regiona. Monografiya. – M.: Finansovыy universitet, 2013. – S.17.
6. Lisyanskiy A.B. Investisionnaya privlekatelnost regiona: uchebnoye posobiye. – Samara: Izdatelstvo Samarskogo universiteta, 2020. – S. 15.
7. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2010. 153-b.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

8. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2010. 159-b.

9. Tuxliyev B.K. Investitsiyalar va ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. 54, 56-b.

10. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

11. Sobirov O.Sh. Povьisheniye investisionnoy privlekatelnosti i sozdaniye blagopriyatnogo investisionnogo klimata // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil. – S. 86. 11_Sabirov_O.pdf.

12. Ma’lumotlar shu mavzuga oid ilmiy maqollarlarni tahlil qilish asosida shakllantirildi (pardmkuajournal,+8.pdf.; 43873.pdf; -----.pdf; 10.pdf; pardmkuajournal,+8 (1).pdf).

13. World Investment Report 2025 International investment in the digital economy 2025, United Nations. United Nations publication issuyed by the United Nations Conferencye on Trade and Development UNCTAD/WIR/2025 (Advancye copy) All rights reserved worldwide; UNCTAD - World Investment Report 2025.pdf - Google Drive; IMF Annual Report 2023 English. WYeF_Annual_Report_2024_2025.pdf.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# DAVLAT AUDITI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ISLOH QILISH: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI

**Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li**

*budjet hisobi va g‘aznachilik kafedrasi magistranti*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: auditorstudy@gmail.com*
*ORCID: 0009-0004-6217-6957*

**Bababekova Zebo Baxtiyor qizi**

*budjet hisobi va g‘aznachilik kafedrasi magistranti*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: misszebobababekova@gmail.com*
*ORCID: 0009-0000-7696-439X*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat auditi tizimini raqamlashtirish va xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tadqiq etilgan. Hisob palatasining 2021-2023 yillardagi faoliyati statistikasi, qonunbuzilish holatlari tahlili, raqamlashtirish dasturlari samaradorligi va xalqaro hamkorlik natijalari asosida davlat moliyaviy nazoratining hozirgi holati, muammolari va istiqbollari baholangan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston davlat auditi tizimida raqamlashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalari va INTOSAI/ISSAI standartlarini joriy etish orqali nazorat samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligini isbotlaydi. Maqolada shuningdek PF-252 (2025) farmoniga muvofiq yangi islohot yo‘nalishlari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *davlat auditi, raqamlashtirish, INTOSAI, ISSAI, moliyaviy nazorat, Hisob palatasi, sun’iy intellekt, budjet nazorati.*

# ЦИФРОВИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО АУДИТА И ЕЁ РЕФОРМИРОВАНИЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЗБЕКИСТАНА

**Исмоилов Асадбек Абдусамат угли**

*магистрант кафедры бюджетного учета и казначейства Ташкентского государственного экономического университета*
*E-mail: auditorstudy@gmail.com*
*ORCID: 0009-0004-6217-6957*

**Бабабекова Зебо Бахтиёр кизи**

*магистрант кафедры бюджетного учета и казначейства Ташкентского государственного экономического университета*
*E-mail: misszebobababekova@gmail.com*
*ORCID: 0009-0000-7696-439X*

***Аннотация.*** *В данной статье проведено научно-теоретическое и эмпирическое исследование вопросов цифровизации системы государственного аудита и её совершенствования на основе международных стандартов в Республике Узбекистан. На*

*основе статистики деятельности Счётной палаты за 2021-2023 годы, анализа нарушений, эффективности программ цифровизации и результатов международного сотрудничества оценены текущее состояние, проблемы и перспективы государственного финансового контроля. Результаты исследования доказывают, что эффективность надзора в системе государственного аудита Узбекистана может быть значительно повышена путём внедрения цифровизации, технологий искусственного интеллекта и стандартов ИНТОСАИ/ИССАИ. В статье также анализируются новые направления реформ в соответствии с Указом Президента ПФ-252 (2025).*

***Ключевые слова:*** *государственный аудит, цифровизация, ИНТОСАИ, ИССАИ, финансовый контроль, Счётная палата, искусственный интеллект, бюджетный контроль.*

## DIGITALIZATION OF THE STATE AUDIT SYSTEM AND ITS REFORM BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS: UZBEKISTAN’S EXPERIENCE AND PROSPECTS

**Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li**
*Master’s student of the Department of Budget Accounting and Treasury*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: auditorstudy@gmail.com*
*ORCID: 0009-0004-6217-6957*

**Bababekova Zebo Baxtiyor qizi**
*Master’s student of the Department of Budget Accounting and Treasury*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: misszebobababekova@gmail.com*
*ORCID: 0009-0000-7696-439X*

***Abstract.*** *This article provides a scientific-theoretical and empirical investigation of the digitalization of the state audit system and its reform based on international standards in the Republic of Uzbekistan. Based on the statistical analysis of the Chamber of Accounts’ activities for 2021-2023, analysis of financial violations, the effectiveness of digitalization programs, and results of international cooperation, the current state, challenges, and prospects of state financial control are assessed. The research findings demonstrate that the effectiveness of oversight in Uzbekistan’s state audit system can be significantly improved through digitalization, artificial intelligence technologies, and the implementation of INTOSAI/ISSAI standards. The article also analyzes new directions of reforms in accordance with Presidential Decree PF-252 (2025).*

***Keywords:*** *state audit, digitalization, INTOSAI, ISSAI, financial control, Chamber of Accounts, artificial intelligence, budget oversight.*

### Kirish

Zamonaviy davlat boshqaruvida moliyaviy resurslarning samarali va maqsadli sarflanishini ta’minlash muammosi global ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyotida tezlashib borayotgan raqamlashtirish jarayonlari, budjet shaffofligiga bo‘lgan talablarning kuchayishi va koruptsiyaga qarshi kurash strategiyalari davlat auditini tub islohotlarini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida davlat auditi tizimi ham tubdan yangilanmoqda. Mamlakat Prezidenti tomonidan 2021-yilda imzolangan PF-6300-son, 2025-yilda esa PF-252-son Farmonlari[139] davlat

[139] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son va 2025-yil 18-dekabrdagi PF-252-son Farmonlari. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

moliyaviy nazoratini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va raqamlashtirish yo‘lida muhim islohotlarni belgilab berdi.

Hisob palatasi 2023-yilda jami 130 ta nazorat tadbirlari va tahlillarni amalga oshirdi, natijada budjet tizimida 4 583,6 mlrd so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlandi, davlat budjetiga esa 1 339,2 mlrd so‘mlik mablag‘lar qaytarilishi ta’minlandi.[140] Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston davlat auditi tizimining rivojlanib borishi bilan birga yanada kuchli islohot zaruratini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — O‘zbekistonda davlat auditi tizimini raqamlashtirish va xalqaro standartlar (INTOSAI/ISSAI) asosida takomillashtirish borasidagi sa’y-harakatlarni kompleks tahlil qilish, muammo va imkoniyatlarni aniqlash, hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy savollarga javob izlanadi:

O‘zbekistonda davlat auditi tizimining joriy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari qanday?

Raqamlashtirish va AI texnologiyalarini joriy etish davlat moliyaviy nazoratiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

Xalqaro standartlarni joriy etish jarayonida qanday muammolar mavjud va ular qanday hal etilishi mumkin?

**Adabiyotlar sharhi**

Davlat auditi nazariyasi va amaliyoti xalqaro akademik doiralarda keng tadqiq etilgan. Ushbu bo‘limda soha bo‘yicha yetakchi tadqiqotlar va ularning O‘zbekiston kontekstiga tatbiq etilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Power (1997)[141] o‘zining "The Audit Society" asarida audit institutining zamonaviy davlat boshqaruvida tobora kuchayib borayotgan rolini ko‘rsatib berdi. Muallif "audit portlashi" fenomenini tahlil qilib, bu hodisaning iqtisodiy samaradorlikdan tashqari ijtimoiy-siyosiy o‘lchovlarini ochib berdi. Ushbu nazariy asos O‘zbekistonda Hisob palatasi vakolatlarining kengayishi kontekstida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pollitt va Summa (1997)[142] INTOSAI a’zo davlatlarida yuqori audit organlarining qiyosiy tahlilini o‘tkazib, milliy audit tizimlarining xalqaro standartlarga moslashtirilishi nafaqat nazorat sifatini oshirishini, balki mamlakat investitsion muhitiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini empirik jihatdan isbotladi. Ushbu xulosalar O‘zbekiston uchun ham muhimdir, zira davlat tashqi qarzi 2024-yil boshiga 29,6 mlrd dollarga yetgan.

Raaum va Morgan (2009)[143] samaradorlik auditi (performance audit) metodologiyasini ishlab chiqib, an’anaviy moliyaviy auditdan farqli o‘laroq, bu yo‘nalish davlat dasturlari natijalarini baholashga yo‘naltirilganligini asoslab berdi. O‘zbekistonda 2022-yildan boshlab joriy etilgan samaradorlik auditi aynan ushbu ilmiy asosga mos keladi.

Cordery va Hay (2019)[144] rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyalarning davlat auditiga ta’sirini o‘rganib, Big Data va sun’iy intellektdan foydalanish qonunbuzilishlarni erta aniqlash imkonini 3-4 barobar oshirishini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda "Masofaviy audit" markazi tashkil etilishi ushbu xalqaro tendentsiyaga mos holda amalga oshirilmoqda.

Janvrin va Watson (2017)[145] audit amaliyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish tendentsiyalarini tahlil qilib, raqamli audit vositalaridan foydalanish xodimlar ish

[140] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. 2023-yildagi faoliyati to'g'risida Hisobot. — Toshkent, 2024. — 60 b.
[141] Power, M. (1997). The Audit Society: Rituals of Verification. Oxford University Press. ISBN 978-0-19-829306-2.
[142] Pollitt, C., & Summa, H. (1997). Comparative and International Administration. Public Administration, 75(2), 313–336.
[143] Raaum, R. B., & Morgan, S. L. (2009). Performance Auditing: A Measurement Approach (2nd ed.). The Institute of Internal Auditors Research Foundation.
[144] Cordery, C., & Hay, D. (2019). Supreme Audit Institutions and Public Value: Demonstrating Relevance. Financial Accountability & Management, 35(2), 128–142.
[145] Janvrin, D. J., & Watson, M. W. (2017). "Big data": A new twist to accounting. Journal of Accounting Education, 38, 3–8.

unumdorligini 40-60%ga oshirishini aniqlab berdi. Bu holat O‘zbekistonda "Davlat auditi" dasturiy kompleksini joriy etishning iqtisodiy asosini mustahkamlaydi.

O‘zbekistonlik olimlar O.Yunusov, M.Tursunov va B.Shodiyev (2020)[146] o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston davlat moliyaviy nazorat tizimidagi muammolarni tahlil qilib, xalqaro standartlarga o‘tish va raqamlashtirish zarurligini ilmiy asoslab berishdi. Ularning xulosalari 2021-yilgi PF-6300 Farmonining qabul qilinishiga nazariy zamin yaratdi.

IMF va OECD tomonidan chop etilgan "Fiscal Transparency Handbook" (2018)[147] va "PEFA Framework" hujjatlari davlat moliyaviy boshqaruvi va auditining xalqaro standartlarini belgilab, mamlakatlarga o‘z tizimlarini baholash va takomillashtirish uchun metodologik asos beradi. O‘zbekiston ushbu mezonlarga keng yo‘nalish berishni taqozo etadi.

INTOSAI tomonidan ishlab chiqilgan ISSAI standartlari (xususan, ISSAI 100, 200, 300, 400)[148] moliyaviy, muvofiqlik va samaradorlik auditlarining metodologik asoslarini belgilaydi. O‘zbekistonda 2021-yildan boshlab ushbu standartlarga asoslanib audit o‘tkazish joriy etilmoqda.

Shunday qilib, xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat auditini raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish — bu sohadagi global tendentsiya bo‘lib, O‘zbekistonda joriy etilayotgan islohotlar ushbu yo‘nalishda amalga oshirilmoqda. Biroq, milliy kontekstning o‘ziga xosliklari: iqtisodiyotning o‘tish bosqichida bo‘lishi, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi va institutsional imkoniyatlar — bu jarayonning o‘ziga xos muammolarini yuzaga keltiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot quyidagi metodologik asoslar va ma’lumot manbalariga tayanadi:

Mazkur ish aralash (mixed-methods) tadqiqot dizayniga asoslangan bo‘lib, kammikeysy tahlil (case study) metodologiyasi qo‘llanilgan. Tadqiqot O‘zbekistonda 2021-2025-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan davlat auditi islohotlarini to‘liq qamrab oladi.

**Ma’lumot manbalari**

Birlamchi ma’lumotlar: O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan rasmiy tarzda chop etilgan 2021, 2022, 2023-yillardagi yillik faoliyat hisobotlari; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari (PF-252, PF-6300, PQ-128); Vazirlar Mahkamasi qarorlari (416-son), Moliya vazirining buyrug‘i (3406-son).

Ikkilamchi ma’lumotlar: INTOSAI, IMF, Jahon banki va OECD nashriyotlari; xalqaro ilmiy jurnallar va monografiyalar; O‘zbekiston va MDH mamlakatlarida davlat auditi bo‘yicha dissertatsiya va ilmiy maqolalar.

**Tahlil usullari**

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

miqdoriy tahlil — 2021-2023-yillar davomidagi nazorat tizimining asosiy ko‘rsatkichlari tahlili;

sifatli tahlil — normativ-huquqiy hujjatlar va siyosiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish;

qiyosiy tahlil — O‘zbekiston auditini MDH va xalqaro yuqori audit organlari bilan solishtirish;

tendentsiya tahlili — 2021-2023-yillar ma’lumotlari asosida trendlarni aniqlash.

**Tadqiqot cheklovlari**

[146] Yunusov, O., Tursunov, M., & Shodiyev, B. (2020). Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish muammolari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 1, 45–58.
[147] International Monetary Fund. (2018). Fiscal Transparency Handbook. IMF Publication Services.
[148] INTOSAI. (2022). ISSAI 100: Fundamental Principles of Public Sector Auditing. International Standards of Supreme Audit Institutions.

Tadqiqot quyidagi cheklovlarga ega: O‘zbekiston Hisob palatasi faoliyatiga doir batafsil mikro-ma’lumotlarga kirish imkoni cheklangan; raqamlashtirish loyihalarining uzoq muddatli ta’sirini baholash uchun vaqt yetarli emas; ayrim ko‘rsatkichlarning xalqaro taqqoslanuvchanligi muammolari mavjud.

**Tahlil va natijalar**

Hisob palatasining 2021-2023-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari tahlili tizimning dinamik rivojlanib borayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Quyidagi 1-jadval ushbu ko‘rsatkichlarni aks ettiradi:

1-jadval.

**Hisob palatasining asosiy ko‘rsatkichlari (2021-2023)[149]**

| Ko‘rsatkichlar | 2021 | 2022 | 2023 | O‘zgarish (2021-2023) |
|---|---|---|---|---|
| Jami nazorat tadbirlari va tahlillar | 85 | 111 | 130 | +52,9% |
| Nazorat tadbirlari (jami) | 61 | 74 | 77 | +26,2% |
| — moliyaviy audit | 61 | 54 | 62 | +1,6% |
| — muvofiqlik auditi | - | 5 | 4 | Yangi yo‘nalish |
| — samaradorlik auditi | - | 15 | 11 | Yangi yo‘nalish |
| Tematik tahlillar va amaliy yordamlar | 24 | 37 | 53 | +120,8% |
| Aniqlangan moliyaviy xato (mlrd so‘m) | 740,8 | 3 958,6 | 4 583,6 | +518,7% |
| Davlat budjetiga qaytarilgan mablag‘lar (mlrd so‘m) | 395,1 | 745,0 | 1 339,2 | +238,9% |
| Yuborilgan ko‘rsatmalar soni | 108 | 154 | 279 | +158,3% |
| Huquqni muhofaza organlariga yuborilgan materiallar | 41 | 37 | 52 | +26,8% |

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2021-yildan 2023-yilga kelib nazorat tadbirlari hajmi 52,9%ga oshgan. Muhim jihat — yangi audit turlarining joriy etilishi: 2022-yildan boshlab muvofiqlik va samaradorlik auditi boshlandi.[150] Biroq, e’tiborli holat — 2023-yilda aniqlangan moliyaviy xatolar 2021-yilga nisbatan 5 barobardan ziyod oshib ketganligi (740,8 mlrd dan 4 583,6 mlrd so‘mga). Bu ko‘rsatkich nazorat tizimining kuchayishi va yangi metodologiyalarning joriy etilishi natijasida ko‘proq qonunbuzilishlarni aniqlash imkoni paydo bo‘lganligidan dalolat beradi.

Hisob palatasi tomonidan 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan nazorat tadbirlari davlat xaridlari sohasidagi jiddiy muammolarni aniqladi. 2-jadvalda bu sohadagi asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan:

2-jadval.

**Davlat xaridlari sohasidagi nazorat natijalari (2022-2023)[151]**

| Xarid turi | Shartnomalar soni (ming ta) | Qiymati (trln so‘m) | Ulushi (%) |
|---|---|---|---|
| Elektron do‘kon orqali | 1 700 | 25,3 | 5,5% |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan | 887,4 | 253,6 | 55,0% |
| Tanlov (eng yaxshi taklif) | 148,8 | 62,1 | 14,0% |
| Elektron auktsion | 114,5 | 3,9 | 1,0% |
| Elektron kooperatsiya portali | 92,6 | 26,0 | 6,0% |
| Birja savdolari | 33,3 | 34,0 | 7,0% |

[149] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.
[150] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son Farmoni. 1-band.
[151] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti.

| | | | |
|---|---|---|---|
| Tender | 28,9 | 53,1 | 12,0% |
| **JAMI** | **3 000** | **457,9** | **100%** |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2022-2023-yillarda davlat xaridlarining 55%i to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnamalar orqali amalga oshirilgan.[152] Bu holat raqobatni cheklashi va narxlarning sun’iy oshirilishi xavfini keltirib chiqaradi. Aniqlangan 7,9 trln so‘mlik qonunbuzilishlarning eng katta qismi (3,3 trln so‘m) ekspertizasiz tuzilgan shartnomalar, 2,2 trln so‘mi esa qonunchilikka zid ravishda o‘tkazilgan xarid jarayonlariga to‘g‘ri keladi.

Masofaviy risq tahlillar orqali 1 116 ta holatda 24,6 mlrd so‘mlik xarid tartiblarini buzish xavflari aniqlandi[153] — bu esa profilaktik nazoratning xarid tartibidagi qonunbuzilishlarni oldindan aniqlashdagi rolini tasdiqlaydi.

2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonning davlat tashqi qarzi 29,6 mlrd dollarni tashkil etib, YaIMga nisbati 32,6%ni tashkil etdi.[154] Bu ko‘rsatkich xalqaro mezonlarga ko‘ra maqbul darajada bo‘lsa-da, Hisob palatasi 2023-yilda 15 ta investitsiya loyihasini auditdan o‘tkazib, jami 607 mlrd so‘m va 102,3 mln dollarllik moliyaviy xato va kamchiliklarni aniqladi.

3-jadval.

**Davlat tashqi qarzining asosiy ko‘rsatkichlari (2024-yil 1-yanvar holati)[155]**

| Kreditor tashkilot | Qarz qoldig‘i (mlrd doll.) | Ulushi (%) |
|---|---|---|
| Jahon banki | 6,57 | 22,2% |
| Osiyo taraqqiyot banki | 6,44 | 21,8% |
| Xorij hukumati moliya tashkilotlari | 9,6 | 32,4% |
| Osiyo infratuzilmaviy inv. banki | 1,4 | 4,7% |
| Islom taraqqiyot banki | 0,9 | 3,0% |
| Boshqa xalqaro moliya institutlari | 4,69 | 15,9% |
| **JAMI** | **29,6** | **100%** |

Hisob palatasining 2023-yildagi muhim yutuqlaridan biri "Masofaviy audit" markazining tashkil etilishidir. Ushbu markazning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagicha:

- 28 ta davlat idoralarining 115 turdagi ma’lumotlar bazasiga real vaqt rejimida kirish tizimi yo‘lga qo‘yildi;
- 36 ta yo‘nalishda budjet intizomi bo‘yicha qonunbuzilish xavflari onlayn tahlil qilinmoqda;
- 34 ta nazorat obyektida 101 mlrd so‘mlik xavflar aniqlandi;
- 12 ta holatda 7,4 mlrd so‘mlik moliyaviy xatolar bartaraf etildi.

"Davlat auditi" dasturiy kompleksi orqali 33 ta vazirlik va idoralarning ichki audit tizimi muvofiqlashtirilib, 284 ta takroriy va asossiz tekshiruvlarning oldi olindi.[156] Dastlabki 4 ta funksiya yaratilgan bo‘lsa, 2023-yilda dastur 16 ta yo‘nalishda ma’lumotlarni qayta ishlashga kengaytirildi.

Raqamli texnologiyalar samaradorligini baholash uchun quyidagi natijalar muhim ahamiyat kasb etadi: 3 ta moliyaviy nazorat va 5 ta ichki faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha

[152] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti. 3.3-bo'lim.
[153] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti.
[154] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti. V-bo'lim.
[155] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti
[156] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti. X-bo'lim.

dasturiy komplekslar ishga tushirildi.[157] Ushbu ko‘rsatkichlar raqamlashtirish jarayonining kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi PF-252-son Farmoni davlat auditi tizimini yanada takomillashtirishning muhim yo‘nalishlarini belgilab berdi:

4-jadval.

**PF-252 Farmoni bo‘yicha asosiy islohotlar yo‘nalishlari[158]**

| Yo‘nalish | Asosiy mazmun | Amalga oshirish muddati |
|---|---|---|
| Xalqaro hamkorlik | INTOSAI metodologiyasi asosida 5 yilda bir marta tashqi baholash | 2026-yil 1-yanvardan |
| Raqamlashtirish | Infratuzilma loyihalarini 2027-yildan to‘liq raqamlashtirish | 2027-yil 1-yanvar |
| Kosmik monitoring | Avtomobil yo‘llari qurilishida kosmik tasvirlar va dronlar | 2026-yil 1-iyuldan |
| Bosh inspektorlar | 24 ta davlat organi va tashkilotida bosh inspektorlar instituti | 2026-yil 1-apreldan |
| Ta’lim tizimi | Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida Davlat auditi oliy maktabi | 2026/2027 o‘quv yili |
| Sun’iy intellekt | AI va Big Data texnologiyalarini audit jarayoniga joriy etish | 2027-yil iyun |
| Xitoy hamkorligi | Nanjin audit universiteti bilan qo‘shma akademik dasturlar | 2026-yil yanvar-mart |

Farmonning eng muhim jihatlaridan biri — 24 ta davlat organi va tashkilotida Hisob palatasi vakili sifatida bosh inspektor lavozimini joriy etish.[159] Bu институт nazoratni real vaqt rejimida kuchaytirib, profilaktik funksiyani kengaytiradi. Bosh inspektorlar faqat Hisob palatasi oldida hisobot berishi ularning mustaqilligini ta’minlaydi.

2022-yilda qabul qilingan PQ-128 qaror, 416-son Vazirlar Mahkamasi qarori va Moliya vazirining 63-son buyrug‘i O‘zbekistonda ichki audit tizimini tubdan qayta qurishning huquqiy asosini yaratdi.

Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to‘g‘risidagi Namunaviy nizom (416-son)[160] ichki audit xizmatlarining tashkil etilishi, vazifalari va funksiyalari, xodimlar malaka talablari va hisobdorlik tartibini belgiladi. 2024-yil 1-apreldan boshlab ichki audit bo‘yicha milliy malaka sertifikatiga ega bo‘lmagan shaxslarni bu lavozimga qabul qilish taqiqlandi — bu mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan muhim qadam.

Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish Qo‘llanmasi (3406-son buyruq)[161] esa audit jarayonining barcha bosqichlarini — rejalashtirishdan to monitoring va hisobot berishgacha — tartibga soldi. Xavf-tahlil asosida nazorat obyektlarini belgilash metodologiyasi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi xalqaro arenada ham faol ishtirok etmoqda. 2023-yilda bir qator muhim voqealar yuz berdi:

- Hindistonning Lakxnau shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo mamlakatlar yuqori audit organlari rahbarlarining VI yig‘ilishida O‘zbekiston delegatsiyasi audit jarayonlariga yangi texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha hisobot taqdim etdi;
- MDH a’zo mamlakatlar yuqori audit organlari rahbarlari Kengashining XX sessiyasida 2025-yil sentabrdan O‘zbekiston Hisob palatasi Kengashga raisligi vakolati topshirildi;
- Ernst & Young xalqaro audit kompaniyasi bilan uzoq muddatli hamkorlik o‘rnatildi;
- ECOSAI jurnalida "Davlat auditi" dasturiy kompleksi to‘g‘risida maqola chop etildi.

[157] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti.
[158] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi PF-252-son Farmoni asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.
[159] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi PF-252-son Farmoni. 9-band va 2-ilova.
[160] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori. 10-modda.
[161] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 22-noyabrdagi 63-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3406).

PF-252 Farmoni yanada kuchli xalqaro hamkorlikni belgilab berdi: Xitoy va Turk yuqori audit organlari bilan qo‘shma audit o‘tkazish, xalqaro tashkilotlar tanlovlarida ishtirok etish va 2026-yil dekabriga qadar xalqaro konferentsiya o‘tkazish rejalashtirildi.

2023-yilda davlat budjetining umumiy xarajatlari 281,1 trln so‘mni tashkil etib, shundan 135,2 trln so‘mi (48%) ijtimoiy xarajatlarga sarflandi. Ushbu ko‘rsatkich 2021-yildagi 49% dan biroz pasaydi, ammo mutlaq hajmda sezilarli o‘sish kuzatildi.

5-jadval.

**Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan budjet mablag‘lari (mlrd so‘m)[162]**

| Sohalar | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil |
|---|---|---|---|
| JAMI | 22 936,9 | 22 128,5 | 16 621,6 |
| Ijtimoiy sohalar | 7 729,7 | 6 825,8 | 5 950,6 |
| Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari | 2 408,2 | 2 722,0 | 2 723,7 |
| Yo‘l-transport infratuzilmasi | 4 639,4 | 3 746,1 | 3 107,8 |
| Irrigatsiya va melioratsiya | 1 316,2 | 1 405,3 | 1 314,3 |
| Ma’muriy-hudud. va muh.-infratuzilma obj. | 4 189,6 | 3 300,5 | 1 788,8 |
| Boshqa yo‘nalishlar | 2 693,8 | 4 128,8 | 1 736,4 |

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasiga sarflanadigan budjet mablag‘lari 2021-yildagi 22 936,9 mlrd so‘mdan 2023-yilda 16 621,6 mlrd so‘mga kamaydi. Bu mablag‘larning samarali sarflanishi masalasi ayniqsa muhimdir.[163] Hisob palatasi aniqlagan 84 mlrd so‘mlik xato va kamchiliklar, shu jumladan 14 mlrd so‘mlik mablag‘lar budjetga qaytarib olinishi bu sohadagi nazorat zaruratini tasdiqlaydi.

2023-yilda 139 ta davlat boshqaruvi organlari, hokimliklar, muassasa va tashkilotlarda ichki nazorat tizimining joriy etilishi va ularning faoliyati natijalari monitoringdan o‘tkazildi.[164] 67 ta davlat tashkiloti "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" bo‘yicha ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatiga ega bo‘ldi.

Ushbu tashkilotlarning ichki nazorat tizimi tuzilmalari tomonidan 953,4 mlrd so‘mlik mablag‘larning noqonuniy sarf etilishi oldi olindi, 372 mlrd so‘mlik mablag‘lar qaytarilishi ta’minlanib, 2 451 nafar xodimlar intizomiy javobgarlikka tortildi.

Biroq, monitoring shuni ko‘rsatdiki: 52 ta davlat tashkilotida birorta ham nazorat tadbirini o‘tkazilmagan, 20 ta tashkilotda ichki nazorat tizimiga oid ichki idoraviy hujjatlar umuman qabul qilinmagan. Bu holat tizimning hali to‘la qaror topmaganligidan dalolat beradi.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari asosida va xalqaro ilmiy adabiyotlar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchi. AI va Big Data texnologiyalarini kengaytirish. Hisob palatasining "Masofaviy audit" markazi mavjud 28 ta bazadan 115 tarmoqqa kengaytirilishi kerak. Cordery va Hay (2019) tadqiqotlari ko‘rsatganidek, bu yondashuv qonunbuzilishlarni aniqlash imkonini 3-4 barobar oshiradi. PF-252 Farmonida belgilangan 2027-yilgacha infratuzilma loyihalarini to‘liq raqamlashtirish bu jarayonni tezlashtiradi.

Ikkinchi. Kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish. 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab ochilishi rejalashtirilgan Davlat auditi oliy maktabi CIPFA va INTOSAI standartlarini o‘quv dasturlariga to‘liq kiritishi lozim. Janvrin va Watson (2017) asosida axborot texnologiyalari auditi bo‘yicha maxsus kurslar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

[162] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti. 3.4-bo'lim.
[163] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti. 3.4-bo'lim.
[164] O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi 2023-yil hisoboti. VIII-bo'lim.

Uchinchi. Xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich tatbiq etish. ISSAI 100, 200, 300, 400 standartlarini to‘la joriy etish bo‘yicha aniq yo‘l xaritasi ishlab chiqilishi kerak. Pollitt va Summa (1997) ta’kidlaganidek, bu mamlakat investitsion muhitini ham yaxshilaydi.

To‘rtinchi. Ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini kuchaytirish. Hisob palatasining veb-saytida barcha nazorat natijalari real vaqt rejimida e’lon qilinishi lozim. PF-252 Farmoni bu yo‘nalishdagi bir qator innovatsion yondashuvlarni belgilab berdi.

Beshinchi. Davlat xaridlari tizimida raqobatni kuchaytirish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnamalar ulushini hozirgi 55%dan 20%gacha kamaytirish bo‘yicha qat’iy maqsadlar belgilanishi kerak. Buning uchun elektron xarid tizimini takomillashtirish va manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini avtomatik aniqlash tizimini joriy etish zarur.

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda davlat auditi tizimini raqamlashtirish va xalqaro standartlar asosida isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarni keng qamrovli tahlil qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Hisob palatasi 2021-2023-yillar davomida sezilarli rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Nazorat tadbirlari soni 52,9%ga oshdi, yangi audit turlari (samaradorlik va muvofiqlik auditi) joriy etildi, "Masofaviy audit" markazi va "Davlat auditi" dasturiy kompleksi orqali nazorat samaradorligi oshirildi. 2023-yilda budjetga qaytarilgan mablag‘lar 1 339,2 mlrd so‘mga yetdi — bu 2021-yilga nisbatan 238,9%ga ko‘pdir.

Biroq, bir qator muammolar hali ham mavjud: davlat xaridlarining 55%i raqobatsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnamalar orqali amalga oshirilmoqda; malakali auditchilar tanqisdir; ISSAI standartlarini to‘la joriy etish jarayoni tugallanmagan; davlat tashqi qarzining samarali o‘zlashtirilishi muammolari qolmoqda.

PF-252 (2025) Farmoni yangi islohotlar davri eshigini ochdi: sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, kosmik monitoring, bosh inspektorlar instituti, Davlat auditi oliy maktabi va xalqaro hamkorlikni kengaytirish — bular kelajak auditi tizimining poydevoridir.

Xalqaro ilmiy adabiyotlar va maqolada olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: O‘zbekistonda davlat auditi tizimini raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish nafaqat moliyaviy nazorat sifatini, balki umuman davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning strategik vositasi hisoblanadi. Bu yo‘nalishda 2025-yilgi Farmon bilan belgilangan islohotlarni izchil amalga oshirish mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi "Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" PF-252-son Farmoni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.12.2025.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PF-6300-son Farmoni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida" PQ-128-son Qarori. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.02.2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 416-son Qarori. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.08.2022.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 22-noyabrdagi "Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasini tasdiqlash to‘g‘risida" 63-son Buyrug‘i (Ro‘yxat raqami 3406). — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.12.2022.

6. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. 2023-yildagi faoliyati to‘g‘risida Hisobot. — Toshkent: Hisob palatasi, 2024. — 60 b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. 2022-yildagi faoliyati to‘g‘risida Hisobot. — Toshkent: Hisob palatasi, 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. 2021-yildagi faoliyati to‘g‘risida Hisobot. — Toshkent: Hisob palatasi, 2022.
9. O‘zbekiston davlat tashqi qarzining umumiy jadvali. [Elektron resurs]. — URL: https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval (murojaat sanasi: 2025-yil 10-dekabr).

## MODERN MECHANISMS FOR ENHANCING THE METHODOLOGY OF MONITORING THE EFFECTIVENESS OF COOPERATION WITH INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS

**Yovkochev Sherzod Shukhratovich**

*PhD, Associate Professor*
*Kimyo International University in Tashkent,*
*Orcid: 0009-0001-1484-6512*

***Abstract.*** *This paper examines modern mechanisms for enhancing the methodology of monitoring the effectiveness of cooperation with international financial institutions (IFIs) in Uzbekistan. Effective utilization of financial resources, transparency, and timely evaluation of project outcomes are essential for maximizing socio-economic impact. Current monitoring practices in Uzbekistan rely heavily on reporting-based systems, which inadequately capture the institutional, social, and technological dimensions of project outcomes. The study proposes an integrated, technology-driven monitoring model based on Big Data, artificial intelligence (AI), Smart Monitoring, Blockchain, and Results-Based Management (RBM). This model aligns with international standards, including OECD DAC, IMF DSA, and World Bank RMS, and aims to improve decision-making, enhance transparency, and strengthen strategic cooperation with IFIs.*

***Keywords:*** *International financial institutions, monitoring system, Big Data, artificial intelligence, Blockchain, Smart Monitoring, Results-Based Management, Uzbekistan, project effectiveness, digital transformation.*

## СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ МОНИТОРИНГА ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ИНСТИТУТАМИ

**Ёвкочева Шерзода Шухратовича**

*PhD, доцент*
*Ташкентский Международный*
*Университет Кимё*
*Orcid: 0009-0001-1484-6512*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются современные механизмы совершенствования методологии мониторинга эффективности сотрудничества с международными финансовыми институтами (МФИ) в Узбекистане. Для максимизации социально-экономического воздействия важно эффективное использование финансовых ресурсов, прозрачность и своевременная оценка результатов проекта. Текущая практика мониторинга в Узбекистане в основном опирается на системы, основанные на отчетности, что недостаточно отражает институциональные, социальные и технологические аспекты результатов проекта. Исследование предлагает интегрированную, основанную на технологиях модель мониторинга, основанную на Big Data, искусственном интеллекте (ИИ), интеллектуальном мониторинге, блокчейне и управлении на основе результатов (RBM). Данная модель соответствует международным*

*стандартам, включая DAC ОЭСР, DSA МВФ и RMS Всемирного банка, и направлена на улучшение процесса принятия решений, повышение прозрачности и взаимодействия с МФИ.*

*Ключевые слова: Международные финансовые институты, система мониторинга, Big Data, искусственный интеллект, блокчейн, умный мониторинг, управление на основе результатов, Узбекистан, эффективность проектов, цифровая трансформация.*

# XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIK SAMARADORLIGINI MONITORING QILISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

**Yovqochev Sherzod Shuhratovich**

*PhD, dotsent*
*Toshkent xalqaro kimyo universiteti*
*Orcid: 0009-0001-1484-6512*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O‘zbekistonda xalqaro moliya institutlari (XMI) bilan hamkorlik samaradorligini monitoring qilish metodologiyasini takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirni maksimal darajada oshirish uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, loyiha natijalarining shaffofligi va o‘z vaqtida baholanishi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistondagi hozirgi monitoring amaliyoti asosan hisobotga asoslangan tizimlarga tayanadi, bu esa loyiha natijalarining institutsional, ijtimoiy va texnologik jihatlarini yetarli darajada aks ettirmaydi. Tadqiqot Big Data, sun’iy intellekt (AI), Smart monitoring, blokcheyn va natijalarga asoslangan boshqaruv (RBM) ga asoslangan integratsiyalashgan, texnologiyaga asoslangan monitoring modelini taklif etadi. Ushbu model xalqaro standartlarga, jumladan, OECD DAC, XVF DSA va Jahon bankining RMS standartlariga mos keladi hamda qaror qabul qilishni takomillashtirish, shaffoflikni oshirish va XMI bilan strategik hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Xalqaro moliya institutlari, monitoring tizimi, Big Data, sun’iy intellekt, blokcheyn, aqlli monitoring, natijalarga asoslangan boshqaruv, O‘zbekiston, loyihalar samaradorligi, raqamli transformatsiya.*

## Introduction

International financial institutions play a critical role as strategic partners in Uzbekistan’s economic modernization, providing financial resources, technical assistance, and institutional expertise to develop infrastructure, energy, transport, and social sectors. The effectiveness of this cooperation is a priority for national economic policy. However, current monitoring systems in Uzbekistan are primarily reporting-based, focusing on budget execution and financial reporting, which limits the assessment of outcomes in terms of socio-economic impact, sustainability, and institutional change. Emerging global trends indicate that advanced technological approaches, such as AI, Big Data, Blockchain, and Smart Monitoring, are critical to improving the effectiveness of financial cooperation. Implementing these approaches in Uzbekistan is necessary for developing results-oriented management systems that comply with international standards.

## Methodology

This study develops an integrated model for monitoring Uzbekistan’s financial resources in cooperation with international financial institutions, addressing the limitations of the current reporting-based system. The methodology combines four stages: statistical and analytical analysis using Big Data and AI to forecast project outcomes and identify risks; real-time management and monitoring through Smart Monitoring systems; active portfolio management with Blockchain to ensure transparency and reduce human error; and an integrated digital platform consolidating financial, operational, and public monitoring. The framework is underpinned by Results-Based Management (RBM) standards, aligning with OECD DAC, IMF DSA, and World Bank RMS

guidelines. This approach enables a results-oriented, transparent, and technologically advanced monitoring system that enhances resource efficiency, accountability, and strategic decision-making.

**Literature Review**

The activities of international financial institutions, their role in the allocation of financial resources, and the improvement of monitoring systems have been widely discussed in the global academic literature. In the works of D. Rodrik and J. Stiglitz, the effectiveness of international financial organizations is analyzed as being dependent not only on the volume of financial assistance but also on their institutional impact and the degree of integration with national policies.[3] Their research also emphasizes the necessity of reforming monitoring systems to ensure that international financial assistance is results-oriented. The Results-Based Monitoring and Evaluation (RBM&E) model, developed by Kusek and R. Rist, has been recognized internationally as one of the most effective approaches.[4] It is emphasized that, in evaluating project outcomes, it is important to integrate not only financial indicators but also social, economic, and environmental metrics. M. Bachtler and P. Wren, analyzing the experience of the European Structural Funds, identified key aspects of Results-Oriented Management (ROM) as an essential component of results-based management systems.[5] Their analyses justify that effective monitoring mechanisms should be based on political independence, institutional flexibility, and open data systems. E. Babbington and M. Woolcock emphasize in their research the necessity of examining the role of social innovations and institutional changes within the monitoring systems of international financial institutions.[6]. Their scholarly analyses argue that, in assessing effectiveness, not only financial flows but also the adaptive capacity of local institutions, knowledge transfer, and contributions to sustainable development should serve as key indicators.

**Main Part**

In the context of Central Asian countries, scholarly research highlights the necessity of implementing digital monitoring systems and Big Data analytical mechanisms in Uzbekistan and neighboring states to enhance the effectiveness of international financial cooperation.[7]

In the experiences of Kazakhstan and Georgia, the real-time utilization of donor funds is monitored through “open data dashboards” platforms, which enhances transparency and accountability.[8] From this perspective, it is a pressing task for Uzbekistan to develop a results-oriented and digitally transformed monitoring methodology, adapted to national conditions based on international experience. Currently, the cooperation of the Republic of Uzbekistan with international financial institutions is primarily focused on mobilizing financial resources, efficiently allocating them within network and regional projects, and establishing systems for assessing their effectiveness. In coordinating these processes, the Ministry of Economy and Finance, the Ministry of Investments, Industry and Trade, as well as project offices under the Ministry of Finance, play a key role.[9] Under the current regulations, the effectiveness of utilizing international financial resources is primarily assessed based on budget execution and financial reports, which does not sufficiently reflect performance indicators.[10]

A key characteristic of the current monitoring system is that it is reporting-based. Project implementers submit quarterly or annual financial reports to international financial institutions; however, these reports do not provide a comprehensive assessment of socio-economic impact, sustainability, or institutional outcomes.[11] As a result, the assessment of project success is often limited to financial expenditures or physical outputs (e.g., the number of constructed facilities). According to the World Bank’s Project Performance Assessment Report (2023), 64% of projects in Uzbekistan were classified as “partially effective.”[12]

Another important issue is the low level of institutional coordination. Data exchange between different ministries and agencies is limited, and a unified, integrated database does not exist. As a result, discrepancies arise between the information provided by international financial

institutions and national statistics. This reduces accuracy and effectiveness in strategic decision-making.

Additionally, the two-tier information flow in the monitoring process (donor → implementer → government agency) does not function effectively, as data are often delayed or fragmented. From a technological perspective, the current monitoring system has not yet undergone full digital transformation. Project results are frequently submitted in PDF or Excel formats, which limits the possibilities for automated analysis.

In international practice, however, projects are monitored in real time through platforms such as the Asian Development Bank’s e-Monitoring System (Philippines, Vietnam) or the World Bank’s Operations Portal.[13] In the context of Uzbekistan, the absence of such systems makes it difficult to accurately analyze the linkages between financial flows, implementation timelines, and project outcomes. Another problem of the current system is the ambiguity of evaluation indicators and the lack of their transformation into measurable performance metrics. At present, there is no unified system of indicators for international financial cooperation projects, resulting in each project applying its own independent assessment mechanism. Therefore, there is a pressing need to transition to a Results-Based Management system in line with international standards, which involves establishing clear “input–output–outcome–impact” indicators for each project.

In the contemporary context, advanced approaches such as digital technologies, artificial intelligence (AI), Big Data, and Blockchain play a key role in enhancing the effectiveness of financial resources provided by international financial institutions. These technologies enable not only project monitoring but also real-time assessment of their performance. In particular, Smart Monitoring systems allow for real-time analysis of project implementation, the allocation of financial resources, and the outcomes achieved.[14]

Analytical models developed on the basis of Big Data enable the forecasting of the economic and social effectiveness of projects. Artificial intelligence (AI) is widely used to assess project risk levels, propose alternative financing sources, and automate decision-making. Blockchain technology, in turn, ensures transparency in financial operations and helps prevent corruption and inaccurate reporting.[15].

One of the modern approaches, the Results-Based Management (RBM) system, envisages the evaluation of projects based on their final outcomes and social impact. This model is being integrated with OECD DAC (Development Assistance Committee), IMF Debt Sustainability Analysis (DSA), and World Bank Results Measurement System (RMS) standards.

For Uzbekistan, there is also a need to develop a new system of indicators. These should include comprehensive metrics measuring economic, social, institutional, and technological effectiveness. Such indicators are crucial for determining the efficiency of financial resource utilization, evaluating project outcomes, and establishing a reporting system in line with international standards.

A concept for improving the monitoring system of financial resources in cooperation with international financial institutions has been developed in the country. Modern technological approaches play a crucial role in improving the monitoring system of Uzbekistan’s financial resources in cooperation with international financial institutions.

To enhance the effectiveness of the existing monitoring system, the above conceptual model is proposed. This model consists of four main stages and a results-oriented management block, each enriched with advanced technologies applied in international practice.

First stage – Statistical and Analytical Stage. At this stage, financial flows, debt obligations, and project investment forecast models provided by international financial institutions are thoroughly analyzed using Big Data technologies and artificial intelligence (AI) algorithms. This process helps to determine debt dynamics, identify risk factors at an early stage, and provide an analytical basis for decision-making.

Second stage – Management and Monitoring Stage. In this stage, Smart Monitoring systems and real-time tracking mechanisms are implemented to automate project implementation

processes. These systems enable real-time monitoring of project progress, financial discipline, and the transparency of budget expenditures.

Third stage – Active Portfolio Management Stage. At this stage, mechanisms are developed to ensure transparent transactions based on Blockchain technology, reduce human intervention in fund utilization, and minimize risks. As a result, trust among international donors, the government, and the private sector is strengthened.

Fourth stage – Integrated Monitoring System. In this stage, financial, operational, and public monitoring activities are unified on a single digital platform. This platform establishes standards for information exchange among government agencies, donor organizations, and the private sector, while providing the public with access to project results through an open data system.

Final Stage – Results-Based Management (RBM). This block evaluates the overall effectiveness of all monitoring stages. RBM is developed based on internationally recognized standards, including OECD DAC, IMF Debt Sustainability Analysis (DSA), and World Bank Results Measurement System (RMS). The system ensures results-oriented management, measures the efficiency of financial resource utilization, and provides an analytical basis for shaping subsequent policies.

The proposed model for improving the monitoring of cooperation with international financial institutions introduces the spirit of digital transformation into Uzbekistan’s financial management practices. The suggested mechanisms — Big Data, artificial intelligence (AI), Smart Monitoring, Blockchain, and Results-Based Management — address the key shortcomings of the existing system. This new approach transforms monitoring from a formal process based solely on financial reporting into a results-oriented, analytical, and transparent management system.

Moreover, financial, operational, and public monitoring are integrated through a unified digital platform. This enables the creation of an open data repository accessible not only to government agencies but also to donor organizations and civil society representatives. Consequently, the efficiency of using international financial resources is enhanced, risks are reduced, and the confidence of international partners is strengthened.

Overall, the proposed conceptual model serves to deepen strategic cooperation between Uzbekistan and international financial institutions, ensure the stability of the national financial system, and enhance the country’s competitiveness in global financial markets. Efficient utilization of resources by major international financial institutions, targeting critical sectors of the economy, achieving high performance, and increasing the added value of ongoing projects provides a strong foundation for the sustainable development of Uzbekistan.

## Conclusion

The study proposes a modern, integrated monitoring system for Uzbekistan’s cooperation with international financial institutions, addressing key limitations of the existing reporting-based approach. By incorporating Big Data, AI, Smart Monitoring, Blockchain, and Results-Based Management, the system enables real-time monitoring, transparency, and evaluation of financial, operational, and social outcomes. The proposed model aligns with international standards and supports informed policy-making, risk reduction, and strengthened trust among donors, government agencies, and civil society. Overall, the adoption of this technology-driven monitoring framework enhances the strategic partnership between Uzbekistan and IFIs, ensures sustainable utilization of financial resources, and contributes to the country’s economic modernization and competitiveness in global financial markets.

## References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On the Effective Organization of Cooperation with International Financial Institutions,” PQ–95. February 25, 2022.
2. World Bank. Digital Monitoring and Smart Data Use in Development Projects.

Washington, D.C., 2023.

3. Asian Infrastructure Investment Bank. Impact Assessment and Performance Measurement Framework. Beijing, 2022.

4. Rodrik, D. Straight Talk on Trade: Ideas for a Sane World Economy. Princeton University Press, 2018; Stiglitz, J. Globalization and Its Discontents Revisited: Anti-Globalization in the Era of Trump. W.W. Norton & Company, 2019.

5. Kusek, J.Z., & Rist, R.C. Ten Steps to a Results-Based Monitoring and Evaluation System. Washington, D.C.: World Bank, 2020.

6. Bachtler, J., & Wren, C. European Cohesion Policy and Regional Development. Routledge, 2021.

7. Bebbington, A., & Woolcock, M. “Learning from Institutional Change in Development Aid.” World Development, Vol. 121, 2019.

8. Center for Economic Research and Reforms (CERR). Assessment of IFI Cooperation Efficiency in Uzbekistan. Tashkent, 2023; Asian Development Bank. Digital Monitoring in Central Asia Regional Projects. Manila, 2022.

9. OECD Eurasia. Transparency and Data Management in Development Finance. Paris, 2022.

10. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. Institutional Mechanisms of Cooperation with International Financial Institutions. Tashkent, 2024.

11. Center for Economic Research and Reforms (CERR). IFI Project Effectiveness Review for Uzbekistan. Tashkent, 2023.

12. World Bank. Country Partnership Framework for Uzbekistan (FY2022–2026). Washington, D.C., 2022.

13. World Bank. Project Performance Assessment Report (Uzbekistan Portfolio). Washington, D.C., 2023.

14. World Bank. Operations Portal and Real-Time Monitoring Systems. Washington, D.C., 2023.

15. OECD. Digital Transformation and Development Cooperation: Integrating Big Data and AI in Monitoring Frameworks. Paris: OECD Publishing, 2023. – 82 p.

16. World Bank. Results-Based Management and Performance Measurement Frameworks. Washington, D.C.: World Bank Publications, 2022. – 104 p.

17. UNDP. Blockchain for Transparency in Public Finance. New York: United Nations Development Programme, 2020. – 68 p.

18. IMF. Debt Sustainability Analysis and Modern Monitoring Systems. Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2021. – 90 p.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШНИНГ МОЛИЯВИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

**Умаралиев Санжар Султоналиевич**
*PhD., Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси*
*E-mail: umaraliyev_s@gmail.com*
*ORCID: 0000-0004-1107-2216*

***Аннотация:*** *Мақолада иқтисодиётга хорижий инвестицияларни самарали жалб этишнинг молиявий механизмлари: хорижий инвестицияларни самарали жалб қилишнинг усуллари, шакллари, бошқариш воситалари ва молиявий инструментлари мазмун-моҳияти очиб берилган, изланишлар натижасида хорижий инвестицияларни жалб этишнинг молиявий механизми бўйича муаллиф хулосаси шакллантирилган, хулоса ва тавсиялар берилган.*

***Асосий тушунчалар:*** *хорижий инвестиция, облигация, кредит, депозит, солиқ сиёсати, пул-кредит сиёсати, фонд бозори, портфель инвестициялар.*

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ МЕХАНИЗМОВ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ

**Умаралиев Санджар Султанальевич**
*Кандидат наук,*
*Независимый соискатель*
*Ташкентского государственного*
*экономического университета*
*E-mail: umaraliyev_s@gmail.com*
*ORCID: 0000-0004-1107-2216*

***Аннотация:*** *В статье раскрываются финансовые механизмы эффективного привлечения иностранных инвестиций в экономику: методы, формы, инструменты управления и финансовые инструменты эффективного привлечения иностранных инвестиций, в результате проведенного исследования сформирован авторский вывод о финансовом механизме привлечения иностранных инвестиций, даны выводы и рекомендации.*

***Основные понятия:*** *иностранные инвестиции, облигации, кредит, депозит, налоговая политика, денежно-кредитная политика, фондовый рынок, портфельные инвестиции.*

# THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF FINANCIAL MECHANISMS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT

**Umaraliev Sanjar Sultanalievich**
*Ph.D., Independent student of*
*Tashkent State University of Economics*
*E-mail: umaraliyev_s@gmail.com*
*ORCID: 0000-0004-1107-2216*

***Annotation:*** *The article reveals the financial mechanisms for effectively attracting foreign investment into the economy: methods, forms, management tools and financial instruments for effectively attracting foreign investment. As a result of the research, the author's conclusion on the financial mechanism for attracting foreign investment is formed, conclusions and recommendations are given.*

***Key concepts:*** *foreign investments, bonds, credit, deposit, tax policy, monetary policy, stock market, portfolio investments.*

**Кириш.**

Инвестицион фаолият жаҳон иқтисодиётининг муваффақиятли ривожланишининг асосини белгилайди, шунингдек, дунёнинг турли мамлакатлари иқтисодиётини модернизация қилиш ва диверсификация қилиш истиқболларини аниқлашга ёрдам беради. Хорижий инвестицияларнинг аҳамияти капиталнинг халқаро бўлинишига, шунингдек инвесторнинг мамлакатига қараганда чет элда тадбиркорлик фаолиятидан фойда олишнинг янада фойдали усулларини излашга имкон яратади.

Сўнгги йилларда инвестицияларни жалб қилиш муаммоси ҳукуматнинг доимий диққат марказида бўлиб келмоқда, бу жуда кўп қиррали масаланинг турли томонлари маҳаллий ва хорижий олимлар ва мутахассислар томонидан олиб борилган кенг кўламли тадқиқотларда ўз аксини топди, асосан бундай тадқиқотлар саноат даражасида ўтказилди ва ўтказилмоқда. Замонавий шароитда инвестициялар ҳажми технологик ўсишни таъминлайди, ишлаб чиқариш сифати ва миқдорини яхшилайди. Бу нафақат инвестицияларни жалб қилиш, балки улардан тўғри фойдаланиш учун ҳам муҳимдир, бунинг натижасида иқтисодий самарадорлик ошади. Инвестицион фаоллик даражаси ва инвестиция фаолияти доираси тадбиркорлик субъектларининг узоқ муддатли фаолиятига, уларнинг ривожланиши ва рақобатбардошлигига сезиларли таъсир кўрсатади. Қулай инвестиция муҳитини шакллантириш ички ва ташқи инвесторларнинг инвестицион имкониятларини оширишга, уларнинг стратегик ва операцион инвестиция қарорларини қабул қилишига шароит яратади.

Президент Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Бизнинг асосий мақсадимиз – Ўзбекистонни хорижий инвесторлар учун ишончли ва узоқ муддатли ҳамкорга айлантиришдир. Давлатимиз бозор муносабатларини ривожлантиришни, инвесторлар ҳуқуқлари ишончли ҳимоя қилинишини, қулай инвестиция ва ишбилармонлик муҳитини янада такомиллаштиришни, ҳалол рақобат учун янада кенг шарт-шароитлар яратишни, хусусий мулк дахлсизлиги ва суд тизимининг мустақиллиги таъминланишини ўз зиммасига олмоқда”.

Ушбу мавзунинг долзарблиги шундан иборатки, мамлакатда қулай инвестиция муҳитини яратиш, хорижий инвестицияларни самарали жалб қилишнинг молиявий механизмларини янада такомиллаштириш, бу борада хориж тажрибасини ўрганиш ва натижада ташқи инвестиция манбаларини жалб қилишга олиб келади. Шу билан бирга, мамлакатга иқтисодиётнинг устувор йўналишлари ва тармоқларига йўналтирилган инвестициялар ҳажмининг ошишида ижобий самарага эришилади, бу эса ўз навбатида мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг стратегик мақсадларига эришишга ёрдам беради. Мамлакат инвестиция муҳити жозибадорлигини ошириш, хорижий инвестицияларни бошқариш воситалари:оптимал солиқ ва пул-кредит сиёсатини ишлаб чиқиш ҳамда фонд бозорининг ривожлантириш каби муаммоларни чуқур ўрганишни талаб қилади.

**Адабиётлар таҳлили.**

Ҳар қандай давлатда молиявий механизм - молиявий сиёсатни муваффақиятли амалга ошириш учун муҳим бошқарув элементи ва иқтисодий муносабатларни тартибга солувчи сифатида қўлланилади. Бу иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш учун қулай шарт-шароитларни таъминлаш мақсадида жамият томонидан қўлланиладиган молиявий муносабатларни ташкил этиш усуллари тўпламидир.

Илмий адабиётларда глобал миқиёсда молиявий механизмнинг мазмунини ифодалайдиган иккита концептуал ёндашувни келтириш мумкин. Биринчи ёндашув шундан иборатки, молиявий механизм деганда корхоналарнинг ўз молиявий фаолияти тушунилади.

Молиявий муносабатларнинг моддий акси пул оқимидир. Ушбу оқимларни ташкил қилиш, уларни амалга ошириш тартиби молиявий “техника”ни тавсифловчи муайян қоидаларга, муайян йўналишларга мувофиқ амалга оширилади. Молиявий механизмни аниқлашга бундай ёндашув корхоналар молиявий фаолиятининг ички ташкил этилишини акс эттиради. “Молиявий механизм” тушунчасини кўриб чиқишга иккинчи ёндашув шундан иборатки, у иқтисодиётнинг ҳолати ва ривожланишига таъсир қилиш усуллари ва шакллари, йўллари ва воситалари мажмуаси сифатида тушунилади. Ушбу ёндашув молия муносабатларининг ташқи таъсирини акс эттиради, молияни хўжалик юритувчи субъектларнинг бошқарув аппарати иқтисодий ҳолатига таъсирининг ҳал қилувчи омили сифатида тавсифлайди.

Ҳозирги вақтда қуйидаги масалалар мунозарали бўлиб қолмоқда: молиявий механизмнинг мазмуни ва функцияларини иқтисодиёт нуқтаи назаридан очиб бериш; молиявий механизмнинг ички тузилиши; молиявий механизмнинг хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ресурсларни бошқариш тизимига нисбатан жойлашиши; молиявий механизмни корхонанинг молиявий бошқаруви ва корхонанинг молиявий ресурсларини бошқариш тизимида уларнинг функцияларини фарқлаш билан боғлиқ ҳолда жойлаштириш; алоҳида молиявий механизмларнинг мавжудлиги (давлат, минтақа ва хўжалик юритувчи субъектлар даражасида). Шундан келиб чиқиб, қуйидаги жадвалда турли иқтисодчи олимларнинг молиявий механизм тушунчасига берган таърифларини кўриб чиқамиз (1-жадвал).

**1-жадвал**

**Молиявий механизм моҳиятига берилган таърифлар**

| Т/р | Муаллиф ва манба | Молиявий механизмга берилган таъриф |
|---|---|---|
| 1. | Романовский М.В., Белоглазова Г.И. Финансы и кредит: учебник. - М.: Высшее образование, 2006. - С. 575. | Молиявий механизм - бу молиявий муносабатларни ташкил этиш турлари, шакллари, молиявий ресурсларни шакллантириш ва улардан фойдаланишнинг ўзига хос усуллари ва уларни миқдорий аниқлаш усуллари мажмуасидир. |
| 2. | Ковалев В.В. Финансовый анализ / В.В. Ковалев. – М.: Финансы и статистика, 2000. 336 с. | Молиявий механизм - молиявий ресурсларни ташкил этиш, режалаштириш ва улардан фойдаланиш тизимидир. |
| 3. | Финансы: учебник Пол ред. Г.Б. Поляка. — 3-е изд., — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. 703 с. | Молиявий механизм - бу давлат томонидан ўрнатилган молиявий муносабатларни ташкил этиш шакллари, турлари ва усуллари тизими |
| 4. | Иваницкий В.П. Механизм инвестирования сбережений населения: [монография] / В.П. Иваницкий, Е.И. Мельникова. – Челябинск: ЮУрГУ, 2002. 254 с. | Молиявий механизм - тадбиркорлик субъектлари томонидан ўз функцияларини таъминлаш учун қонуний пул маблағларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш шакллари ва усуллари мажмуасидир. |
| 5. | Kees van Dijk, Herman Savenije, Volume 21 of Forest policy and institutions working paper, University of Minnesota, FAO 2009. | Молиялаштириш механизми молия ресурсларини етказиб берувчи ва бенефициар ўртасида ўтказилишини таъминловчи институционал механизм сифатида белгиланади. |
| 6. | http:www.businessdictionary.com/definition/financialmechnism.html | Молиявий механизм молиялаштириш таъминланадиган усул ёки манба сифатида қаралади, масалан, банк кредитлари, облигациялар ёки акциялар чиқариш, захиралар ёки жамғармалар ва сотишдан тушган даромад |

Юқоридаги олимларнинг фикрларидан ва олиб борилган изланишлар натижасида муаллиф хулосаси шуки, *хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг молиявий механизмлари бу хорижий инвестицияларни самарали жалб қилишнинг усуллари, шакллари, бошқариш воситалари ва молиявий инструментлари мажмуидир*.

**Тадқиқот методологияси.**

Мазкур мавзуни ёритишда умумиқтисодий усуллар билан бир қаторда маълумотларни тизимлаш бўйича махсус ёндашувлар, яъни таққослаш, назарий ва амалий материалларни жамлаш ҳамда тизимли таҳлил, абстракт-мантиқий фикрлаш, умумлаштириш, каби усуллардан фойдаланилган.

**Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.**

Молиявий механизм молиявий муносабатларни ташкил этиш шакллари, жамиятнинг иқтисодий ва ижтимоий ривожланиши учун қулай шарт-шароитларни яратиш мақсадида давлат томонидан фойдаланиладиган хорижий инвестицияларни жалб қилиш ва улардан фойдаланиш усуллари мажмуи сифатида кўриб чиқилиши мумкин (1-расм). Молиявий механизмни кўриб чиқишда унинг функционал алоқаларини аниқлаш керак: хорижий инвестицияларни жалб қилиш, уни қонунчилик, солиқ таътиллари ва инвестицияга оид солиқ кредитлари орқали рағбатлантириш.




**1-расм. Хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг молиявий механизми**

Молиявий механизмнинг ҳар бир бўғини бир бутуннинг ажралмас қисмидир. Молиявий механизм таркибига мобил элементлар блоки киради: солиқ ставкалари, солиқ имтиёзлари, амортизация ставкалари ва қайта молиялаш чегирма ставкаси. Ушбу элементлар иқтисодий муносабатлар субъектларининг манфаатларини ҳисобга олган ҳолда тузатилиши керак. Молиявий механизм элементларининг комбинацияси: молиявий муносабатларни ташкил этиш шакллари, турлари ва усуллари ҳар бир элемент учун миқдорий параметрларни белгилаш орқали ҳаракатга келтириладиган молиявий механизмнинг “умумий тузилишини” ташкил этади. Молиявий механизмни шакллантириш орқали давлат ўзининг мақсад ва вазифаларини тўлиқ амалга оширишнинг калити бўлган молиявий ва инвестиция сиёсати талабларига тўлиқ мувофиқлигини таъминлашга интилади.

Хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг шаклларига: тўғридан-тўғри (реал) хорижий инвестициялар, портфель (молиявий) инвестициялар ва бошқа инвестицияларни (ўрта ва узоқ муддатли ҳалқаро кредитлар ва ссуда қарзлари) мисол келтириш мумкин.

Илмий доираларда молиявий воситаларни молиявий механизмнинг элементлари

сифатида тан олиш тенденцияси кенг тарқалганига қарамай, ушбу концепцияни талқин қилишда маълум бир эволюцион йўл олинган бўлса-да, молиявий воситаларнинг моҳиятига ягона қараш ҳали ишлаб чиқилмаган. Шундай қилиб, дастлаб анча соддалаштирилган таъриф тақсимланди, унга кўра молиявий воситаларнинг учта асосий тоифаси ажратилди: нақд пуллар, кредит воситалари (облигациялар, кредитлар, депозитлар) ва устав капиталида иштирок этиш усуллари (акциялар, пайлар).

Жаҳон амалиётида хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг турли усуллари мавжуд бўлиб, энг оммабоп усуллари сифатида: мол-мулк юз фоиз хорижий инвесторларга тегишли бўлган хорижий корхоналарни ташкил этиш; молиявий активларни сотиш ва сотиб олишни ташкил этиш; махсус иқтисодий ҳудудлар ташкил этиш; консорциум, концессия ташкил этиш; улуш қўшиб қатнашиш орқали қўшма корхоналарни ташкил этиш, шунингдек, йирик хорижий компания ва фирмаларнинг шўъба корхоналари ва филиалларини ташкил этиш, тендерлар эълон қилиш ва ҳ.к.

Maqolada 2020-2024-yillar bo‘yicha berilgan tahliliy ko‘rsatkichlar asosida soliq imtiyozlari va ma’muriy yengilliklarning iqtisodiy natijalari baholandi. Bunda tejab qolingan mablag‘larning investitsiyaga qayta yo‘naltirilishi, innovatsion faol korxonalar ulushi, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, yangi ish o‘rinlari, loyihalarning amalga oshirish sur’ati va infratuzilmaga qo‘shimcha investitsiyalar kabi mezonlar asosiy indikator sifatida qabul qilindi.

Konseptual yondashuv va baholash mezonlari. Korxona investitsion va innovatsion faoliyati samaradorligini baholashda faqat kapital qo‘yilmalar hajmini hisobga olish yetarli emas. Investitsiyaning iqtisodiy mazmuni uning ishlab chiqarish quvvati, mehnat unumdorligi, texnologik yangilanish va bozordagi raqobat ustunligiga ta’siri bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur maqolada samaradorlik moliyaviy, institutsional va ijtimoiy ko‘rsatkichlar uyg‘unligida qaraladi.

Fiskal rag‘batlarning birinchi mezoni - korxona ixtiyorida qoladigan resurslar hajmining ortishi. Soliq yuki kamayganda yoki soliq qaytarish tezlashganda korxonada investitsiya uchun zarur bo‘lgan erkin pul oqimlari shakllanadi. Biroq bunday resurslar o‘z-o‘zidan innovatsion natija bermaydi; ularni asosiy kapital, texnologiya, kadrlar va infratuzilmaga maqsadli yo‘naltirish talab etiladi.

Ikkinchi mezon - imtiyozlarning natijaga bog‘langanligi. Ish o‘rinlari, ish haqi, investitsiya hajmi, yerdan maqsadli foydalanish yoki infratuzilma qurilishi bo‘yicha aniq shartlar mavjud bo‘lsa, soliq rag‘batlari iqtisodiy samara bilan bog‘lanadi. Bu davlatning fiskal xarajatlarini asoslash va imtiyozlarning samaradorligini baholash imkonini beradi.

Uchinchi mezon - mexanizmlarning hududiy va tarmoq xususiyatlariga moslashuvchanligi.

Og‘ir sharoitli hududlarda soliq stavkalarini pasaytirish, investitsiya miqdoriga qarab yer ajratish va infratuzilma xarajatlarini bo‘lib-bo‘lib moliyalashtirish korxonalar faoliyatida real to‘siqlarni kamaytirishga qaratilgan. Bunday yondashuv soliq siyosatini umumiy imtiyozlar tizimidan maqsadli rivojlanish instrumentiga aylantiradi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Korxonalar investitsion va innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishda fiskal mexanizmlarning ta’siri bir necha bosqichda namoyon bo‘ladi. Birinchi bosqichda soliq imtiyozlari yoki to‘lov yengilliklari korxona ixtiyorida qoladigan likvid resurslarni oshiradi. Ikkinchi bosqichda ushbu resurslar asosiy kapital, aylanma mablag‘lar, texnologiya, infratuzilma yoki tadqiqot ishlariga yo‘naltiriladi. Uchinchi bosqichda investitsiya va innovatsiya natijalari ish o‘rinlari, ishlab chiqarish hajmi, hududiy faollik va budjet bazasining kengayishi orqali iqtisodiy samaraga aylanadi. Quyidagi ilmiy yangiliklar va tahliliy ma’lumotlar mazkur konseptual yondashuvning iqtisodiy mazmunini empirik dalillar orqali asoslab beradi.

1. Xorijiy va mahalliy investorlar ishtirokida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar asosida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida kamida 51 ta yangi ish o‘rni yaratgan, ushbu xodimlarni kamida bir yil davomida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan ish haqi bilan ta’minlagan hamda ular ulushi jami xodimlar sonining kamida 20 foizini tashkil etgan korxonalarga mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berish tartibi ishlab chiqildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar asosida amalga oshiriladigan loyihalarda kamida 51 ta yangi ish o‘rni tashkil etgan, ularga kamida bir yil davomida belgilangan eng kam ish haqidan past bo‘lmagan to‘lovni ta’minlagan va yangi xodimlar ulushini jami xodimlar sonining kamida 20 foizi darajasida shakllantirgan korxonalar uchun mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha maqsadli imtiyozlar qo‘llash mexanizmi asoslandi.

Ushbu yangilikning mazmuni investitsiya rag‘batini bandlik natijalari bilan bevosita bog‘lashdan iborat. Soliq imtiyozi korxonaga avtomatik ravishda emas, balki aniq ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar bajarilganida beriladi. Bu yondashuv bir vaqtning o‘zida uchta vazifani hal qiladi: investitsiya loyihasining ijtimoiy natijasini kuchaytiradi, mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishni rag‘batlantiradi va soliq imtiyozlaridan maqsadsiz foydalanish xavfini kamaytiradi.

**1-jadval**

**Bandlik mezonlariga bog‘langan soliq imtiyozlarining investitsiya faolligiga ta’siri[189]**

| t/r | Ko‘rsatkichlar | O‘lchov birligi | Yillar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| 1. | Respublika bo‘yicha xorijiy va mahalliy investitsiya loyihalari soni | ta | 2 314 | 2 458 | 2 621 | 2 984 | 3 247 |
| 2. | 51 ta va undan ortiq ish o‘rni yaratgan korxonalar soni | ta | 186 | 201 | 219 | 274 | 318 |
| 3. | Shu jumladan, soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalar | ta | – | – | – | 168 | 214 |
| 4. | Imtiyoz olgan korxonalarda yaratilgan yangi ish o‘rinlari | ming ta | 11,2 | 12,1 | 13,4 | 17,6 | 21,3 |
| 5. | MHEMdan kam bo‘lmagan ish haqi bilan ta’minlangan xodimlar ulushi | % | 18,6 | 19,4 | 20,1 | 23,8 | 26,7 |
| 6. | Soliq imtiyozlari natijasida tejab qolingan mablag‘lar | mlrd so‘m | – | – | – | 286,4 | 352,8 |
| 7. | Tejab qolingan mablag‘lar hisobidan investitsiyaga yo‘naltirilgan resurslar | mlrd so‘m | – | – | – | 181,9 | 226,5 |
| 8. | Imtiyoz olgan korxonalarda asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sishi | % | 7,8 | 8,3 | 9,1 | 12,6 | 14,9 |

[189] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2023-2024-yillarda imtiyozdan foydalangan korxonalar soni 168 tadan 214 taga yetgan. Bu davrda ushbu korxonalarda yaratilgan ish o‘rinlari 17,6 mingtadan 21,3 mingtaga oshgan. Eng muhim jihat - tejab qolingan mablag‘larning katta qismi investitsiyaga qaytarilgan: 2024-yilda 352,8 mlrd so‘mlik iqtisod qilingan resursning 226,5 mlrd so‘mi asosiy kapital va loyiha xarajatlariga yo‘naltirilgan.

Demak, ish o‘rinlari, ish haqi va xodimlar ulushi bo‘yicha aniq talablar soliq imtiyozlarini ijtimoiy mas’uliyatli investitsiya modeliga aylantiradi. Bu mexanizm qisqa muddatda korxona xarajatlarini optimallashtirsa, o‘rta muddatda mehnat bozorida barqarorlik, aholi daromadlari o‘sishi va soliq bazasining kengayishiga xizmat qiladi.

2. Investitsiya loyihalari ishtirokchisi bo‘lgan korxonalar uchun moliyaviy oqimlarni uzluksiz ta’minlash mexanizmi doirasida qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini o‘rnini qoplash (qaytarish), shuningdek, barcha soliq turlari bo‘yicha mavjud ortiqcha to‘lov summalarini bir kunlik muddatda tezlashtirilgan tartibda qaytarish tartibi belgilandi.

Mazkur ilmiy taklif tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini barpo etishni o‘z ichiga olgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida korxonalarning moliyaviy yuklamasini me’yoriy tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, soliq va bojxona to‘lovlarini foizsiz hamda belgilangan muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu tartibning qo‘llanilishi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda likvidlikni saqlash, infratuzilmaviy xarajatlarni o‘z vaqtida amalga oshirish hamda investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

**2-jadval**

**Investitsiya loyihalarida tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishda soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmining iqtisodiy samaradorligi[190]**

| t/r | Ko‘rsatkichlar | O‘lchov birligi | Yillar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| 1. | Tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qamrab olgan investitsiya loyihalari soni | ta | 1 146 | 1 213 | 1 298 | 1 524 | 1 768 |
| 2. | Soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqidan foydalangan korxonalar | ta | – | – | – | 462 | 598 |
| 3. | Bo‘lib-bo‘lib to‘langan soliq va bojxona to‘lovlari hajmi | mlrd. so‘m | – | – | – | 1 284,6 | 1 612,9 |
| 4. | To‘lovlar kechiktirilishi natijasida korxonalarda qolgan likvid mablag‘lar | mlrd. so‘m | – | – | – | 812,3 | 1 026,7 |
| 5. | Likvid mablag‘lar hisobiga infratuzilmaga qo‘shimcha yo‘naltirilgan investitsiyalar | mlrd. so‘m | – | – | – | 536,8 | 684,2 |
| 6. | Infratuzilma qurilishi muddatining qisqarishi | oy | – | – | – | 3,4 | 3,7 |
| 7. | Investitsiya loyihalarini amalga oshirish sur’atining oshishi | % | 6,8 | 7,4 | 8,1 | 11,9 | 13,6 |
| 8. | Mazkur mexanizm orqali yaratilgan qo‘shimcha ish o‘rinlari | ming ta | 24,6 | 26,1 | 28,4 | 35,9 | 43,2 |

Jadval ma’lumotlari tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qamrab olgan investitsiya loyihalarida soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmi korxonalarning moliyaviy barqarorligi, infratuzilma investitsiyalarini jadallashtirish hamda

[190] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan.

loyihalarni amalga oshirish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ifodalaydi. Xususan, 2020–2024-yillarda tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qamrab olgan investitsiya loyihalari soni 1 146 tadan 1 768 tagacha oshgan. Bu ko‘rsatkich tahlil davrida 622 taga yoki 54,3 foizga o‘sgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda infratuzilmaviy investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj va amaliy faollik ortib borayotganini ko‘rsatadi.

2023–2024-yillarda soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqidan foydalangan korxonalar soni 462 tadan 598 taga yetgan. Bu 29,4 foizlik o‘sishni tashkil etib, mexanizmning tadbirkorlik subyektlari uchun amaliy ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu davrda bo‘lib-bo‘lib to‘langan soliq va bojxona to‘lovlari hajmi 1 284,6 mlrd. so‘mdan 1 612,9 mlrd. so‘mgacha ko‘paygan. Demak, korxonalar to‘lov majburiyatlarini bir vaqtning o‘zida to‘liq bajarish o‘rniga ularni belgilangan muddatlarga taqsimlash orqali aylanma mablag‘lariga tushadigan bosimni yumshatish imkoniga ega bo‘lgan.

To‘lovlarni kechiktirish natijasida korxonalar ixtiyorida qolgan likvid mablag‘lar hajmi 2023-yilda 812,3 mlrd. so‘mni, 2024-yilda esa 1 026,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu likvid mablag‘larning muhim qismi infratuzilmaga qo‘shimcha investitsiya sifatida yo‘naltirilgan: 2023-yilda 536,8 mlrd. so‘m, 2024-yilda esa 684,2 mlrd. so‘m. Bu shundan dalolat beradiki, bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmi faqat soliq yukini vaqtincha yengillashtiruvchi vosita emas, balki korxonalarning ichki moliyaviy resurslarini infratuzilma qurilishi va modernizatsiyasiga qayta yo‘naltirishga xizmat qiluvchi fiskal-moliyaviy instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Jadvalda infratuzilma qurilishi muddatining qisqarishi ham alohida ahamiyatga ega. 2023-yilda mazkur mexanizm natijasida qurilish muddati o‘rtacha 3,4 oyga, 2024-yilda esa 3,7 oyga qisqargan. Bu investitsiya loyihalarida moliyaviy oqimlarning uzluksiz ta’minlanishi qurilish-montaj ishlari, tashqi tarmoqlarga ulanish, energiya, suv, gaz va transport-kommunikatsiya infratuzilmasini barpo etish jarayonlaridagi kechikishlarni kamaytirganini anglatadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish sur’ati 2020-yilda 6,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 13,6 foizga yetgan. Bu ko‘rsatkichning ikki barobarga yaqin oshishi soliq-bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash tartibi investitsiya jarayonlarida moliyaviy resurslar yetishmasligi bilan bog‘liq cheklovlarni kamaytirganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur mexanizm orqali yaratilgan qo‘shimcha ish o‘rinlari soni 2020-yildagi 24,6 mingtadan 2024-yilda 43,2 mingtagacha oshgan. Demak, infratuzilmaviy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash nafaqat ishlab chiqarish va muhandislik tizimlarini rivojlantirishga, balki mehnat bozorida bandlikni kengaytirishga ham xizmat qilgan.

Jadval ma’lumotlari soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmi tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan bog‘liq investitsiya loyihalarida uchta muhim natija berganini ko‘rsatadi: birinchidan, korxonalarning likvidlik darajasi saqlab qolingan; ikkinchidan, infratuzilmaga qo‘shimcha investitsiyalar yo‘naltirish imkoniyati kengaygan; uchinchidan, loyihalarni amalga oshirish muddatlari qisqarib, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish sur’ati oshgan. Shu jihatdan mazkur mexanizm investitsion faoliyatni rag‘batlantirish, infratuzilmaviy cheklovlarni yumshatish va hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan samarali fiskal instrument sifatida baholanadi.

3. Mamlakatimiz og‘ir sharoitli hududlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarning investitsion va innovatsion faoliyatini rivojlantirish maqsadida foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha stavkalarni 50 foizga kamaytirish orqali investitsiya resurslarini faol ishlab chiqarish va innovatsiyalarga yo‘naltirishga xizmat qiluvchi tartib ishlab chiqildi.

Og‘ir sharoitli hududlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarda investitsiya va innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i va yer solig‘i stavkalarini 50 foizga kamaytirish orqali ichki moliyalashtirish manbalarini kengaytirish tartibi asoslandi.

Hududiy rivojlanishda soliq siyosati differensial yondashuvga ega bo‘lishi lozim. Tabiiy-iqlimiy sharoiti og‘ir, infratuzilma xarajatlari yuqori yoki bozorlarga chiqish imkoniyatlari

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

cheklangan hududlarda korxonalarning investitsiya tavakkalchiligi yuqori bo‘ladi. Shuning uchun umumiy soliq rejimi bunday hududlarda investitsiya faolligini yetarli darajada rag‘batlantirmasligi mumkin. 50 foizlik soliq yengilligi ana shu hududiy tavakkalchiliklarni iqtisodiy jihatdan kompensatsiya qiladi.

Ushbu ilmiy yangilik hududiy soliq siyosatini investitsiya va innovatsiyalarni maqsadli joylashtirish vositasi sifatida talqin qiladi. Soliq stavkalarini pasaytirish natijasida korxonalarning to‘lov qobiliyati yaxshilanadi, ichki resurslar ulushi ortadi, investitsiya loyihalarining rentabelligi oshadi va og‘ir sharoitli hududlarda iqtisodiy faollik kuchayadi.

4. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda yer munosabatlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish maqsadida investitsiya hajmi Nukus shahrida 1 million AQSh dollari va undan ortiq, boshqa hududlarda esa 300 ming AQSh dollari va undan ortiq ekvivalentda belgilangan loyiha tashabbuskorlariga yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish tartibini joriy etishni nazarda tutuvchi normativ mexanizm taklif etilgan.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda yer munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirish uchun Nukus shahrida 1 million AQSh dollari va undan ortiq, boshqa hududlarda 300 ming AQSh dollari va undan ortiq investitsiya majburiyatiga ega tashabbuskorlarga yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish mexanizmi taklif etildi.

Yer resurslariga kirish investitsiya loyihasining dastlabki va eng muhim institutsional shartlaridan biridir. Yer ajratish jarayonidagi noaniqlik, ortiqcha byurokratik bosqichlar yoki muddatlarning cho‘zilishi loyiha xarajatlarini oshiradi. Investitsiya hajmiga bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijara mexanizmi yer resurslarini iqtisodiy natija bilan bog‘laydi va loyihani amaliy bosqichga tezroq olib chiqishga xizmat qiladi.

2024-yilda yer to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berilgan loyihalar 817 tani tashkil etgan, ushbu mexanizm orqali jalb etilgan investitsiyalar hajmi 10,48 mlrd. AQSh dollariga yetgan. Yerga kirish jarayonining soddalashishi investitsiya sikllarining qisqarishiga, loyihalarning amaliy bosqichga tezroq o‘tishiga va hududlarda ishlab chiqarish obyektlarini maqsadli joylashtirishga sharoit yaratadi.

Mazkur yangilikning konseptual ahamiyati yer munosabatlarini ma’muriy taqsimotdan natijaga yo‘naltirilgan investitsion boshqaruvga o‘tkazishida namoyon bo‘ladi. Investitsiya poroglarining hududlar kesimida farqlanishi mahalliy sharoitlarni inobatga oladi va kapital oqimlarini nisbatan kam rivojlangan hududlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

5. Tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qurish ishlarini o‘z ichiga olgan investitsiya loyihalari doirasida faoliyat yuritayotgan korxonalarga barcha turdagi soliqlar va bojxona to‘lovlarini garov va kafolat talab etmasdan, foizsiz hamda bir yilgacha muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqini berish tartibi joriy etildi.

Tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qurishni qamrab olgan investitsiya loyihalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarga barcha turdagi soliqlar va bojxona to‘lovlarini garov yoki kafolatsiz, foizsiz hamda bir yilgacha bo‘lgan muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqini berish tartibi ishlab chiqildi.

Infratuzilma xarajatlari investitsiya loyihalarining dastlabki bosqichida moliyaviy bosimni kuchaytiradi. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, tashqi elektr, gaz, suv, yo‘l va aloqa infratuzilmasini qurish bilan bog‘liq xarajatlar loyiha qiymatida sezilarli ulushni tashkil qiladi. Soliq va bojxona to‘lovlarini foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmi korxonaning dastlabki likvidlik muammolarini yumshatadi.

2024-yilda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqidan foydalangan korxonalar soni 598 taga yetgan. To‘lov yengilliklari hisobiga korxonalarda 1 026,7 mlrd so‘mlik likvid mablag‘ saqlanib qolgan va uning 684,2 mlrd so‘mi infratuzilmaga qo‘shimcha investitsiya sifatida yo‘naltirilgan. Bu soliq-bojxona tartiblari investitsiya loyihasining moliyaviy arxitekturasiga bevosita ta’sir etishini ko‘rsatadi.

Garov va kafolat talab etilmasligi kapital yetarliligi cheklangan korxonalar uchun kirish to‘siqlarini pasaytiradi. Foizsiz to‘lov tartibi esa loyihaning umumiy qiymatini oshirmasdan,

moliyaviy majburiyatlarni vaqt bo‘yicha taqsimlash imkonini beradi. Natijada infratuzilma obyektlarini o‘z vaqtida ishga tushirish, yangi ishlab chiqarish maydonlarini o‘zlashtirish va hududiy iqtisodiy faollikni kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratiladi.

Tahlil qilingan ilmiy yangiliklar mazmunan bir-birini to‘ldiruvchi fiskal-institutsional tizimni shakllantiradi. Ushbu mexanizmlarning umumiy samarasi korxona moliyaviy tizimida resurslar harakatini ratsionallashtirish bilan izohlanadi. Soliq yukining maqsadli pasaytirilishi, mablag‘larni tezkor qaytarish yoki to‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish korxonada erkin pul oqimlarini oshiradi. Erkin pul oqimlari esa asosiy kapitalga investitsiya, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish, infratuzilma qurilishi va yangi ish o‘rinlari yaratishga yo‘naltiriladi.

Mazkur yondashuvda davlat soliq siyosati fiskal vazifa bilan cheklanmaydi. U investitsiyalarni tanlab rag‘batlantiruvchi, ijtimoiy natijalarni nazorat qiluvchi, hududiy nomutanosibliklarni yumshatuvchi va texnologik yangilanishni qo‘llab-quvvatlovchi institutga aylanadi. Shu bilan birga, imtiyozlarning aniq mezonlarga bog‘lanishi budjet intizomini saqlash va imtiyozlar samaradorligini monitoring qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Korxonalar nuqtai nazaridan mazkur mexanizmlar investitsiya loyihalarining ichki rentabellik darajasini yaxshilaydi, aylanma mablag‘lar tanqisligini pasaytiradi, loyihalarni amalga oshirish muddatlarini qisqartiradi va texnologik yangilanishga moliyaviy asos yaratadi. Davlat nuqtai nazaridan esa qisqa muddatli fiskal yo‘qotishlar o‘rta va uzoq muddatda ishlab chiqarish kengayishi, bandlik o‘sishi va soliq bazasi barqarorlashuvi orqali kompensatsiya qilinadi.

**Xulosa va takliflar.**

Olib borilgan tadqiqot natijalari korxonalar investitsion va innovatsion faoliyati samaradorligini oshirishda fiskal-institutsional mexanizmlarni kompleks qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi. Soliq imtiyozlari, tezkor soliq qaytarish, hududiy stavkalarni pasaytirish, yer resurslarini investitsiya majburiyatlari bilan bog‘lash va infratuzilma to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish alohida instrumentlar bo‘lsa-da, ular birgalikda korxonalarda investitsiya va innovatsiya uchun resurs yaratadigan yagona tizimni shakllantiradi.

*Birinchidan,* ish o‘rinlari yaratishga bog‘langan mol-mulk va yer solig‘i imtiyozlari investitsiya loyihalarining ijtimoiy samarasini oshiradi. Bunday yondashuv soliq rag‘batini faqat kapital qo‘yilmaga emas, balki barqaror bandlik va rasmiy mehnat munosabatlariga ham yo‘naltiradi.

*Ikkinchidan,* QQS va ortiqcha soliq to‘lovlarini bir kunlik muddatda qaytarish korxonalarning likvidligini saqlab, investitsiya loyihalarida moliyaviy uzilishlarni kamaytiradi. Bu tartib soliq ma’muriyatchiligining investitsiyaga yo‘naltirilgan modelini shakllantiradi.

*Uchinchidan,* og‘ir sharoitli hududlarda soliq stavkalarini 50 foizga pasaytirish hududiy investitsiya tavakkalchiliklarini kompensatsiya qiladi va innovatsion faol korxonalar ulushini oshirishga xizmat qiladi. Bu mexanizm hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

*To‘rtinchidan,* investitsiya hajmiga bog‘langan yerni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish tartibi yer munosabatlarida huquqiy aniqlik, tezkorlik va iqtisodiy maqsadlilikni ta’minlaydi. Yer resursi investitsiya natijalari bilan bog‘langan holda boshqarilganda loyihalarning amaliy bosqichga o‘tish muddatlari qisqaradi.

*Beshinchidan,* infratuzilma qurilishi bilan bog‘liq loyihalarda soliq va bojxona to‘lovlarini garovsiz, kafolatsiz, foizsiz va bir yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash korxonalarning dastlabki moliyaviy yuklamasini kamaytiradi. Bu infratuzilmaviy investitsiyalarning iqtisodiy jozibadorligini oshiradi.

Amaliyot uchun taklif sifatida mazkur mexanizmlar bo‘yicha yagona monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Unda imtiyozdan foydalangan korxonalarning investitsiya hajmi, yaratilgan ish o‘rinlari, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish, infratuzilmaga yo‘naltirilgan mablag‘lar va budjetga qayta ta’sir ko‘rsatkichlari baholanishi lozim. Bu soliq rag‘batlarini natijaga yo‘naltirilgan tarzda boshqarish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Aghion P., Akcigit U., Fernández-Villaverde J. Optimal capital versus labor taxation with innovation-led growth. – National Bureau of Economic Research, 2013. – №. w19086. URL: https://www.nber.org/papers/w19086?utm

2. North D. C. Economic performance through time //The American economic review. – 1994. – №. 3. – P. 359-368. URL: https://www.jstor.org/stable/2118057

3. Professor Michael E. Porter - Harvard Business School How Business Can Lead a Health Care Revolution. G100 - New York City, June 3rd, 2005. URL: https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=46809

4. Stiglitz J. E. Information and the Change in the Paradigm in Economics //American economic review. – 2002. – T. 92. – №. 3. – P. 460-501. URL: https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/00028280260136363

5. Mazzucato M. Mission-oriented innovation policies: challenges and opportunities //Industrial and corporate change. – 2018. – T. 27. – №. 5. – P. 803-815. URL: https://www.ucl.ac.uk/bartlett/public-purpose/people/institute-director-mariana-mazzucato

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# IPAKCHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

**Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna**
*“Savdo ishi” kafedra dotsenti*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*Email: loko-74@inbox.ru.*
*ORCID:0009-0001-3320-9981*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan. Sohada innovatsion jarayonlarni tashkil etish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish hamda innovatsion loyihalarni samarali boshqarish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *innovatsiya, innovatsion faoliyat, ipakchilik tarmog‘i, iqtisodiy mexanizm, investitsiya, innovatsion boshqaruv.*

# УЛУЧШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ШЕЛКОВОДЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ

**Алиева Надирахан Абдумаликовна**
*Доцент кафедры Торговое дело*
*Ташкентский государственный экономический университет*
*Email: loko-74@inbox.ru.*
*ORCID:0009-0001-3320-9981*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования экономических механизмов управления инновационной деятельностью на шелководческих предприятиях. Анализируются механизмы организации инновационных процессов в отрасли, финансовой поддержки, привлечения инвестиций и эффективного управления инновационными проектами. На основе результатов исследования разработаны научные предложения и рекомендации по совершенствованию экономических механизмов управления инновационной деятельностью на шелководческих предприятиях.*

***Ключевые слова:*** *инновации, инновационная деятельность, шелководческая промышленность, экономический механизм, инвестиции, управление инновациями.*

# IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR MANAGING INNOVATION ACTIVITIES AT SILK INDUSTRY ENTERPRISES

**Alieva Nadirakhan Abdumalikovna**
*Associate Professor of the Department of*
Trading business
*Tashkent State Economic University*
*Email: loko-74@inbox.ru.*
*ORCID:0009-0001-3320-9981*

***Abstract:*** *This article examines the improvement of economic mechanisms for managing innovation in sericulture enterprises. It analyzes the mechanisms for organizing innovation processes in the industry, providing financial support, attracting investment, and effectively managing innovation projects. Based on the research results, scientific proposals and*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

*recommendations for improving economic mechanisms for managing innovation in sericulture enterprises have been developed.*

***Keywords:*** *innovation, innovation activity, sericulture industry, economic mechanism, investment, innovation management.*

**Kirish**

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni ta'minlashda innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, agrar-sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ipakchilik tarmog‘i ham yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega strategik sohalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ipakchilik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, pillachilik klasterlarini tashkil etish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq sohada innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari yetarli darajada takomillashmaganligi kuzatilmoqda. Shu sababli ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Korxonalarni innovatsion faoliyatni boshqarish masalalari bo‘yicha ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, R.Rosvell [1], Akio Morita, Fumio Kodama [2] kabi olimlar innovatsion jarayonlar modellarini taklif etib, ushbu model asosida faoliyatni boshqarish zaruriyati haqida takliflar ishlab chiqqanlar. MDH mamlakatlari olimlaridan R.A.Fatxutdinov, V.L. Popov [3], P.N.Zavlinlar [4] tomonidan innovatsion boshqarishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari tadqiq etilgan. Innovatsion faoliyatini boshqaruv tizimini o‘rganish bo‘yicha N.Q.Yo‘ldoshev [5], G.A. Xamdamova [6], S.R.Xalikov, A.J.Toshboev [7] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik usullar va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ipakchilik korxonalari faoliyatini tahlil qilish asosida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

**Natijalar va muhokama**

Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligi ko‘p jihatdan iqtisodiy mexanizmlarning qay darajada shakllanganligiga bog‘liq. Innovatsion jarayonlar faqatgina yangi texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni moliyaviy, tashkiliy va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ipakchilik tarmog‘ida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishda quyidagi muammolar mavjud:

- innovatsion loyihalar uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi;
- yuqori texnologiyalarni joriy etishda infratuzilmaning rivojlanmaganligi;
- kadrlar salohiyatining pastligi;
- innovatsion risklarni baholash tizimining yo‘qligi;
- ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliyotga kam joriy etilishi.

Bu muammolar iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish jarayonida shu aniqlandiki, ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda investitsiya resurslarining yetarli darajada jalb etilmasligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ko‘p hollarda korxonalar innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslarga ega emas. Bu esa innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish sur'atini sekinlashtiradi. Shuning uchun innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, bank kreditlari va xususiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish zarur.

Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim manbai hisoblanadi. Bu masalaga ilmiy asos solgan iqtisodchi olimlardan biri Joseph Schumpeter bo‘lib, u innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'riflagan. Uning ta'kidlashicha, iqtisodiy tizimda yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar va yangi bozorlarning paydo bo‘lishi iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Bu g‘oyalar ipakchilik tarmog‘i uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun klaster yondashuvidan foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi. Klaster tizimi ilmiy-tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa innovatsion g‘oyalarning amaliyotga tezroq joriy etilishiga va yangi mahsulotlar yaratilishiga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, muhokama jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyati ham alohida ta'kidlandi. Zamonaviy raqamli boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarini samarali nazorat qilish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli monitoring qilish orqali pilla yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarining samaradorligini oshirish mumkin.

1-jadval

**Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari[7]**

| № | Iqtisodiy mexanizm | Mazmuni | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|
| 1 | Innovatsion investitsiyalar | Yangi texnologiyalar va uskunalarga sarmoya kiritish | Ishlab chiqarish samaradorligi oshadi |
| 2 | Davlat qo‘llab-quvvatlashi | Soliq imtiyozlari va subsidiyalar | Innovatsion faoliyat faollashadi |
| 3 | Klaster tizimi | Korxonalar va ilmiy muassasalar hamkorligi | Yangi texnologiyalar joriy etiladi |
| 4 | Venchur moliyalashtirish | Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish | Yangi mahsulotlar yaratiladi |
| 5 | Innovatsiyalarni tijoratlashtirish | Ilmiy ishlanmalarni bozorga chiqarish | Daromad oshadi |

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish ipakchilik korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga va mahsulot sifati yaxshilanishiga olib keladi. Bu esa korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari kompleks tarzda amalga oshirilganda korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, ipakchilik tarmoq korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini shakllantirish;
- ilmiy-tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida hamkorlikni

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

kuchaytirish;

- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish;
- raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Shu bilan birga, ipakchilik tarmog‘ida innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun kadrlar salohiyatini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy innovatsion boshqaruvni amalga oshirish uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish zarur.

Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish uchun integral innovatsion boshqaruv modeli ishlab chiqilishi mumkin. Ushbu model quyidagi asosiy bloklardan iborat:

- Innovatsion strategiyani belgilash – korxonaning innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari va maqsadlari aniqlanadi.
- Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish– yuqori hosildor tut va pilla turlarini yaratish, yangi texnologiyalar ishlab chiqish.
- Moliyalashtirish mexanizmi – innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat subsidiyalari, venchur investitsiyalar va bank kreditlari tizimi joriy etiladi.
- Texnologiyalarni joriy etish va avtomatlashtirish – raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish jarayonlari nazorat qilinadi, unumdorlik oshiriladi.
- Tijoratlashtirish va bozorga chiqarish – innovatsion mahsulotlar bozorga chiqariladi, eksport salohiyati oshiriladi.
- Samaradorlik monitoringi – ishlab chiqarish natijalari va investitsiya samaradorligi tahlil qilinadi, KPI orqali baholanadi.

Bu model korxonalarga innovatsion jarayonlarni barqaror tarzda boshqarish va moliyaviy xavflarni minimallashtirish imkonini beradi.

Integral model innovatsion boshqaruvning barcha asosiy elementlarini birlashtirib, korxona uchun aniq yo‘nalishlar va mexanizmlar belgilaydi. Ushbu model pillachilik korxonalarida innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va texnologiyalarni tezroq joriy etish uchun asos hisoblanadi.

Ipakchilik korxonasida innovatsion boshqaruvning integral modeli quyidagi asosiy bloklardan iborat:

1.Innovatsion strategiyani belgilash. Korxonaning uzoq muddatli maqsadlari, innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari va resurslar taqsimoti aniqlanadi. Strategiyada o‘simlik navlari, texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonlari va bozor imkoniyatlari hisobga olinadi. Bu blok korxonaning innovatsion loyihalarini muvofiqlashtirish va moliyaviy investitsiyalarni optimal taqsimlash uchun asosiy vazifani bajaradi.

2. Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish. Yangi tut va pilla turlarini yaratish, yuqori hosildor seleksion navlarni rivojlantirish. Ipakchilikda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va raqamlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish. Ilmiy ishlar natijalari asosida innovatsion texnologiyalar va mahsulotlar ishlab chiqiladi.

3.Moliyalashtirish mexanizmi. Innovatsion loyihalar uchun moliyalashtirishning kompleks tizimi yaratiladi, ya'ni, davlat subsidiyalari va imtiyozlari, bank kreditlari, xususiy va venchur investitsiyalar. Maqsad – innovatsion loyihalarni moliyaviy xavfsizlik va samaradorlik bilan amalga oshirish.

4. Texnologiyalarni joriy etish va avtomatlashtirish. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish jarayoniga tezroq va samarali joriy etiladi. Raqamli monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv orqali ishlab chiqarish unumdorligi oshiriladi. Bu blok mehnat xarajatlarini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot sifati oshishiga xizmat qiladi.

5. Tijoratlashtirish va bozorga chiqarish. Ilmiy va texnologiyaviy yangiliklar natijasida

ishlab chiqilgan mahsulot bozorga chiqariladi. Eksport salohiyati va bozor raqobatbardoshligi oshiriladi.

6. Samaradorlik monitoringi. Innovatsion loyihalarning samaradorligi va iqtisodiy natijalari KPI orqali baholanadi. KPI qiymatlari asosida korxona rahbariyati strategiyani optimallashtirish va kelgusi loyihalarni rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Integral innovatsion boshqaruv modeli barcha bloklarni o‘zaro bog‘laydi. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida yaratilgan texnologiyalar moliyaviy mexanizmlar orqali joriy qilinadi. Joriy qilingan texnologiyalar samaradorligi monitoring tizimi orqali baholanadi. Samaradorlik natijalari strategik rejalar va investitsiya strategiyalarini optimallashtirishda qo‘llaniladi. Bu integratsiya modullar o‘rtasida hamkorlikni ta'minlaydi va innovatsion faoliyatning barqarorligini oshiradi.

Ipakchilik korxonalarida innovatsion boshqaruvning integral modeli – innovatsion strategiya, tadqiqot, moliyalashtirish, texnologiya joriy etish, tijoratlashtirish va samaradorlik monitoringi kabi barcha muhim elementlarni birlashtiruvchi tizim. Ushbu model korxonalarda innovatsion faoliyatni kompleks ravishda boshqarish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi. Integral modelni joriy etish pillachilik tarmog‘i uchun barqaror innovatsion rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi va davlatning qo‘llab-quvvatlash siyosatlari bilan muvofiqlashtirilganda yuqori samara beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalarini muhokama qilish shuni ko‘rsatadiki, ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish tarmoqning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va mahsulot raqobatbardoshligining kuchayishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida milliy iqtisodiyotda ipakchilik tarmog‘ining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish imkonini beradi.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

- Innovatsion faoliyat ipakchilik korxonalarida yuqori qo‘shimcha qiymat yaratishning asosiy manbai hisoblanadi.
- Amaldagi iqtisodiy mexanizmlar samaradorligi yetarli darajada emas va ularni takomillashtirish talab etiladi.
- Innovatsion klasterlar, raqamlashtirish va moliyalashtirishning yangi shakllari innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi.
- Integral iqtisodiy model asosida korxona samaradorligini kompleks baholash imkoniyati mavjud.
- Kadrlar salohiyati va ilmiy-tadqiqotlar bilan integratsiya innovatsion rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Natijada, taklif etilgan iqtisodiy mexanizmlar ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va milliy iqtisodiyot rivojiga hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

Demak, ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish tarmoqning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish uchun innovatsion investitsiyalar, davlat qo‘llab-quvvatlashi, klaster tizimi va innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini kuchaytirish imkonini beradi. Umuman olganda, ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish tarmoqning iqtisodiy salohiyatini oshirish va uning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Rothwell R. Towards the fifth-generation innovation process // International Marketing

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Review. – 1994. – Vol.11. – No.1. – Pp.7-31

2.Kodama F. Emerging patterns of innovation sources of Japan’s technological edge. - Harvard Business School, Boston, 1995. – 297 p.

3.Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. – Спб.: Питер, 2004. – С. 19.

4.Попов В.Л. Управление инновационными проектами. Учебное пособие. – С.: ИНФРА-М, 2009. – С.11.(С. 337).

5.Yo‘ldashev N.K. va boshqalar. “Innovatsion menejment” Darslik.T.: TDIU, 2012

6.Xamdamova G.A.va boshqarlar. Innovatsion menejment. O‘quv qo‘llanma . “Iqtisod-moliya”, 2018 yil, -362b.

7.Ergashev R.X., Xalikov S.R., Toshboev A.J.”Innovatsion iqtisodiyot”Darslik-T.: “Istisod-Moliya”,2019.-396b.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING JORIY HOLATI VA O‘ZGARISH TENDENSIYALARI TAHLILI

**Tilakov Navruz Maxmudovich**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*mustaqil izlanuvchisi*
*E-mail: navruz001@gmail.com*
*ORCID:0009-0002-8586-4456*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishning joriy holati hamda uning o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kichik biznesni moliyalashtirish manbalari, investitsiyalar hajmi, bank kreditlari, davlat dasturlari va xorijiy investitsiyalar dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, investitsion faoliyatni moliyalashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy omillar, moliyaviy infratuzilma va institutsional mexanizmlarning ahamiyati yoritilgan. Tahlillar natijasida kichik biznes subyektlarining investitsion faolligi iqtisodiy o‘sish, bandlikni ta’minlash va innovatsion rivojlanishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, investitsion faoliyatni moliyalashtirish tizimida mavjud muammolar, xususan, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, moliyaviy risklarning yuqoriligi va investitsion muhit bilan bog‘liq muammolar aniqlangan. Tadqiqot yakunida kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *kichik biznes, investitsion faoliyat, moliyalashtirish, investitsiyalar dinamikasi, bank kreditlari, moliyaviy resurslar, investitsion faollik, iqtisodiy o‘sish, innovatsion rivojlanish, davlat qo‘llab-quvvatlashi, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, statistik tahlil, iqtisodiy tendensiyalar, moliyaviy infratuzilma.*

# ANALYSIS OF THE CURRENT STATUS AND CHANGE TRENDS OF FINANCING THE INVESTMENT ACTIVITIES OF SMALL BUSINESSES

**Tilakov Navruz Maxmudovich**
*Tashkent State University of Economics*
*independent researcher*
*E-mail: navruz001@gmail.com*
*ORCID:0009-0002-8586-4456*

***Abstract.*** *This article analyzes the current state of financing the investment activities of small businesses and its trends. During the study, the dynamics of small business financing sources, investment volumes, bank loans, government programs and foreign investments were studied based on statistical data. The importance of macroeconomic factors, financial infrastructure and institutional mechanisms affecting the process of financing investment activities was also highlighted. As a result of the analysis, it was substantiated that the investment activity of small businesses is an important factor in economic growth, employment and innovative development. At the same time, existing problems in the system of financing investment activities were identified, in particular, limited access to credit resources, high financial risks and problems related to the investment environment. At the end of the study, scientific and practical recommendations were developed to improve the system of financing the investment activities of small businesses.*

***Keywords:*** *small business, investment activity, financing, investment dynamics, bank loans, financial resources, investment activity, economic growth, innovative development, state support, foreign investments, investment environment, statistical analysis, economic trends, financial infrastructure.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ТЕНДЕНЦИЙ ИЗМЕНЕНИЯ В ФИНАНСИРОВАНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

**Тилаков Навруз Махмудович**
*Ташкентский государственный экономический университет*
*самостоятельный исследователь*
*E-mail: navruz001@gmail.com*
*ORCID: 0009-0002-8586-4456*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется текущее состояние финансирования инвестиционной деятельности малого бизнеса и его тенденции. В ходе исследования на основе статистических данных изучена динамика источников финансирования малого бизнеса, объемов инвестиций, банковских кредитов, государственных программ и иностранных инвестиций. Также подчеркнута важность макроэкономических факторов, финансовой инфраструктуры и институциональных механизмов, влияющих на процесс финансирования инвестиционной деятельности. В результате анализа обосновано, что инвестиционная деятельность малого бизнеса является важным фактором экономического роста, занятости и инновационного развития. Одновременно выявлены существующие проблемы в системе финансирования инвестиционной деятельности, в частности, ограниченный доступ к кредитным ресурсам, высокие финансовые риски и проблемы, связанные с инвестиционной средой. По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию системы финансирования инвестиционной деятельности малого бизнеса.*

***Ключевые слова:*** *малый бизнес, инвестиционная деятельность, финансирование, динамика инвестиций, банковские кредиты, финансовые ресурсы, инвестиционная деятельность, экономический рост, инновационное развитие, государственная поддержка, иностранные инвестиции, инвестиционная среда, статистический анализ, экономические тенденции, финансовая инфраструктура.*

## Kirish.

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda investitsion faollikning ortib borishi sharoitida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy tizimdagi o‘rni tobora kuchayib bormoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlari yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlarini ko‘paytirish, hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish hamda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ushbu subyektlarning investitsion faoliyatini samarali moliyalashtirish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyati ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta’minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biroq mazkur subyektlarning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoji yuqori bo‘lishiga qaramasdan, ularni moliyalashtirish mexanizmlarida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, uzoq muddatli kredit resurslarining yetishmasligi, yuqori foiz stavkalari, garov ta’minoti bilan bog‘liq talablarning murakkabligi, investitsion risklarning yuqoriligi hamda muqobil moliyalashtirish instrumentlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kichik biznes investitsion faoliyatining kengayishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha keng

ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, imtiyozli kreditlash tizimini kengaytirish, davlat kafolatlari mexanizmlarini joriy etish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari faoliyatini takomillashtirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha qator normativ-huquqiy choralar qabul qilindi. Natijada kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi, investitsion faolligi va eksport salohiyati sezilarli darajada oshib bormoqda.

Shu bilan birga, global iqtisodiy beqarorlik, inflyatsion bosimlar, xalqaro moliya bozorlaridagi o‘zgarishlar hamda pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatiga yangi talab va yondashuvlarni shakllantirmoqda. Mazkur holat investitsion faoliyatni moliyalashtirishning joriy holatini chuqur tahlil qilish, mavjud tendensiyalarni aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

**Adabiyotlar sharhi**.

A.Smit “Tadbirkorlikni ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishi maqsadida biznes tavakkalchiligi asosida pirovard maqsadi foyda olish bo‘lgan mulk egasi deb tavsiflaydi. Uning o‘zi ishlab chiqarishni tashkil qiladi, rejalashtiradi, iste’molchilarga yetkazib beradi va uning natijalariga egalik qiladi”[1]. Fikrimizcha, mazkur yondashuv tadbirkorni faqat individual foyda oluvchi subyekt sifatida talqin qilsa-da, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning funksional doirasi ancha kengaygan. Hozirgi bosqichda tadbirkorlik nafaqat foyda olish, balki innovatsiyalarni joriy etish, ish o‘rinlarini yaratish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi tizimli institut sifatida qaralmoqda. Shu bois, tadbirkorlikni faqat mulk egasining shaxsiy faoliyati sifatida emas, balki bozor iqtisodiyotining muhim institutsional elementi sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv uning jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini yanada kengroq ochib beradi.

J.Sey esa o‘z tadqiqotlarida tadbirkorlikni kengroq hamda tushunarliroq ta’riflab bergan. Seyning ta’kidlashicha “Tadbirkor eng ko‘p daromad olish maqsadida ishlab chiqarish omillarini bir-biriga uyg‘unlashtirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy agent - deya e’tirof etadi”[2]. Fikrimizcha, J.Seyning ushbu konsepsiyasi tadbirkorlikning zamonaviy talqiniga yaqinroq bo‘lib, u bozor iqtisodiyotida resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan tadbirkor nafaqat ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi subyekt, balki iqtisodiy muvozanatni shakllantirishda faol ishtirok etuvchi institutsional agent sifatida ham qaralishi lozim. Bu esa tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi rolini yanada kengroq va chuqurroq anglash imkonini beradi.

Avstriya maktabi namoyondalari I.Shumpeter va F.Xayek ilmiy ishlanishlarida “Tadbirkor xo‘jalik yurituvchining o‘ziga xos ijtimoiy psixologik tipi shakli sifatida ta’riflanib, tadbirkor uchun asosiysi turli xildagi bozor imkoniyat hamda talablarini tadqiq qilish, foydalanish, novatorlik g‘oyalarini amaliyotga joriy qilishdan iborat”[3] deb hisoblaydi. Fikrimizcha, I.Shumpeter va F.Xayek tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv tadbirkorlikning zamonaviy innovatsion mohiyatini chuqur ochib beradi. Ushbu konsepsiyada tadbirkor faqat resurslarni birlashtiruvchi yoki foyda oluvchi subyekt sifatida emas, balki bozor tizimida o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi, yangi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi novator sifatida talqin qilinadi.

A.G.Anganbegyan ilmiy tadqiqot ishida, kichik biznes subyektlari – bu iqtisodiyotning moddiy mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, nomoddiy boylikni yaratuvchi va xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlaridir[4]. Fikrimizcha, A.G. Aganbegyan tomonidan berilgan ushbu ta’rif kichik biznes subyektlarining iqtisodiy mazmunini keng qamrovli va funksional yondashuv asosida yoritadi. Unda kichik biznes nafaqat moddiy mahsulot ishlab chiqaruvchi, balki nomoddiy boyliklar yaratish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yurituvchi ko‘p tarmoqli xo‘jalik subyektlari sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv kichik biznesning iqtisodiyotdagi universalligi va diversifikatsiyalashgan xususiyatini ifodalaydi. Shuningdek, mazkur ta’rif kichik biznesning real sektor va xizmatlar sohasi o‘rtasidagi integratsion bog‘liqligini ham aks ettiradi. Fikrimizcha, Aganbegyan qarashlari kichik biznesni iqtisodiy tizimning muhim, moslashuvchan va ko‘p funksiyali

instituti sifatida baholashga imkon beradi hamda uning milliy iqtisodiyotdagi rolini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Akademik iqtisodiyot fanlari doktori, professor S.S.G‘ulomov fikriga ko’ra, “Kichik biznes va xususiy tadbipkoplik har qanday sharoitda iqtisodiy tushkunlikda ham, inflyatsiya davrida ham, kreditlar foizi o‘ta yuqori bo‘lganda ham, zarur infratuzilmasiz kelajagi noma’lum hollarda ham, xavf-xatar qanchalik yuqori bo‘lishiga qaramay yashayveradi[5] deya ta’kidlab o‘tgan. Fikrimizcha, akademik S.S.G‘ulomov tomonidan ilgari surilgan ushbu ilmiy qarash kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi eng muhim xususiyatlaridan biri — yuqori darajadagi moslashuvchanlik va barqarorlikni chuqur ifodalaydi. Kichik biznesning turli makroiqtisodiy noaniqliklar, jumladan iqtisodiy tushkunlik, inflyatsiya yoki kredit resurslari qimmatlashuvi sharoitida ham faoliyatini davom ettira olishi uning institutsional chidamliligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.O‘lmasov “Kichik biznes – kishilar (mulkchilik) sub’ektlari tasarrufida bo‘lgan moddiy va moliyaviy resurslarni (mablag‘larini) amalda tadbipkoplik sub’ektlari aylanmasiga, daromad topishga mo‘ljallangandir”[6] deb ta’kidlagan. Fikrimizcha, A.O‘lmasov tomonidan berilgan mazkur ta’rif kichik biznesning iqtisodiy mazmunini mulkchilik va resurslardan foydalanish nuqtayi nazaridan asosli ravishda yoritadi. Unda kichik biznes subyektlari ixtiyoridagi moddiy va moliyaviy resurslarning tadbirkorlik faoliyati aylanishiga jalb etilishi hamda asosiy maqsad sifatida daromad olish ko‘zlanishi ta’kidlanadi. Bu yondashuv kichik biznesni iqtisodiy jarayonda resurslarni kapitalga aylantiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi.

U.G‘afurov tadqiqotlarida “kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida qaraladi va u quyidagi 3 ta asosiy qsmdan iborat: davlat tartibga solish mexanizmi; moliyaviy resurslarga foydalana olish imkoniyati; raqobat va samaradorlik muhiti”[7]. Fikrimizcha, U. G‘afurov tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimini kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida talqin etishi bilan ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Unda mazkur tizim uch asosiy tarkibiy qismdan iborat ekani asoslab beriladi: davlatning tartibga solish mexanizmi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari hamda raqobat va samaradorlik muhiti.

**Tahlil va natijalar.**

Joriy holatda kichik biznesni moliyalashtirishda asosiy muammolar sifatida kredit resurslariga kirishning cheklanganligi, garov ta’minoti yetishmasligi, foiz stavkalarining yuqoriligi hamda moliyaviy hisobotlarning yetarli darajada shaffof emasligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga, ko‘plab mamlakatlarda davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va kafolat mexanizmlari joriy etilgan bo‘lib, bu investitsion faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda moliyalashtirish tizimida muhim o‘zgarish tendensiyalari kuzatilmoqda. Jumladan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida FinTech yechimlari, onlayn kreditlash platformalari va sun’iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimlari keng qo‘llanila boshladi. Shuningdek, ESG tamoyillariga asoslangan “yashil moliyalashtirish” va barqaror investitsiyalar ulushi ortib bormoqda.

Shu bois, kichik biznesni moliyalashtirishning joriy holatini tahlil qilish va uning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy iqtisodiy siyosatni shakllantirish nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo‘lovchi aylanmasi hajmi transport xizmatlari bozorining rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biridir. Ushbu ko‘rsatkich hududlar kesimida aholining harakatchanligi, xizmatlar diversifikatsiyasi va xususiy sektor faolligini baholash imkonini beradi. 2016–2025-yillar davomida mazkur sohada kuzatilgan o‘zgarishlar iqtisodiy islohotlar, pandemiya ta’siri hamda infratuzilma rivoji bilan

bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarining transport xizmatlaridagi ulushi ortib borishi bozor mexanizmlarining chuqurlashayotganidan dalolat beradi.

**1-jadval**

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo‘lovchi aylanmasi hajmi, mln yo‘lovchi-km[191]**

| Klassifikator | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 107789,7 | 111435 | 115335,2 | 117412,7 | 107766,7 | 120964,7 | 124433,9 | 127801,9 | 134248,5 | 134248,4 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 3437 | 3531,6 | 3632,3 | 3699,5 | 3468,7 | 3847,6 | 4056,5 | 4235,2 | 4557,4 | 4557,3 |
| Andijon viloyati | 10844,9 | 11267 | 11754,6 | 11928,7 | 10930,3 | 11957,1 | 12411,8 | 12522,7 | 13140,8 | 13140,8 |
| Buxoro viloyati | 9021,4 | 9372,1 | 9716,6 | 9740,5 | 8802,7 | 9613,5 | 9781,7 | 9939,2 | 10241 | 10241 |
| Jizzax viloyati | 2155,7 | 2220 | 2273,6 | 2414,2 | 2274,7 | 2655,2 | 2510 | 2547,2 | 2647,8 | 2647,8 |
| Qashqadaryo viloyati | 7966,5 | 8306,6 | 8562,4 | 8812,3 | 8380,4 | 9344,3 | 9862,8 | 10148,2 | 10446,1 | 10446,1 |
| Navoiy viloyati | 3123,6 | 3238,6 | 3376,8 | 3666,5 | 3450,5 | 3683,4 | 3733,4 | 3711,9 | 3892,7 | 3892,7 |
| Namangan viloyati | 7749,6 | 8161,5 | 8424 | 8501,5 | 7594,2 | 8241,6 | 8415,1 | 8981 | 9774,1 | 9774,1 |
| Samarqand viloyati | 13019,2 | 13530,9 | 14210 | 14446,6 | 12965,6 | 13577,9 | 13668,9 | 14587 | 15752,5 | 15752,5 |
| Surxondaryo viloyati | 5190,2 | 5398,6 | 5620,3 | 5423,5 | 4945,1 | 5999,9 | 6337,5 | 6611,8 | 6923,4 | 6923,4 |
| Sirdaryo viloyati | 2117,6 | 2197 | 2239,2 | 2311,3 | 2165,9 | 2532,6 | 2557,8 | 2655,6 | 2772,6 | 2772,6 |
| Toshkent viloyati | 15338 | 15822,7 | 16274,4 | 16714,4 | 14960,4 | 17666,4 | 18306,9 | 18714,7 | 19547,6 | 19547,6 |
| Farg‘ona viloyati | 12631,6 | 13022,1 | 13346 | 13454 | 12514 | 14760,7 | 15044,8 | 15529,2 | 15808,3 | 15808,3 |
| Xorazm viloyati | 6648,1 | 6839,4 | 7057,6 | 7236,6 | 6803,5 | 7772,7 | 8094,3 | 8336,9 | 8684,2 | 8684,2 |
| Toshkent shahri | 8546,5 | 8526,9 | 8847,3 | 9063,1 | 8510,8 | 9311,8 | 9652,4 | 9281,3 | 10060 | 10060 |

Tahlil qilinayotgan davrda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yo‘lovchi aylanmasi hajmi 2016-yildagi 107 789,7 mln yo‘lovchi-kmdan 2024-yilda 134 248,5 mln yo‘lovchi-kmga yetib, barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. 2020-yilda pandemiya sabab keskin pasayish (107 766,7 mln yo‘lovchi-km) kuzatilgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda tiklanish va o‘sish qayd etildi.

Hududlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent viloyati (19 547,6), Samarqand viloyati (15 752,5) va Farg‘ona viloyatida (15 808,3) kuzatilmoqda. Bu hududlarda aholining zichligi, iqtisodiy faollik va transport infratuzilmasining rivojlanganligi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Nisbatan past ko‘rsatkichlar esa Sirdaryo (2 772,6) va Jizzax (2 647,8) viloyatlarida qayd etilgan bo‘lib, bu hududlarda iqtisodiy faollik va transport xizmatlari hajmi cheklanganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Toshkent shahrida 2023-yilda biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2024–2025-yillarda yana o‘sish tendensiyasi tiklangan. Umuman olganda, barcha hududlarda 2021-yildan keyin tiklanish jarayoni kuzatiladi, bu esa transport xizmatlari bozorining moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining yo‘lovchi tashishdagi roli yildan-yilga ortib bormoqda. Hududlar o‘rtasidagi tafovutlar iqtisodiy rivojlanish darajasi va infratuzilma bilan izohlanadi. Pandemiya davridagi qisqarishdan so‘ng tezkor tiklanish sektorning barqarorligini tasdiqlaydi. Kelgusida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, raqamlashtirish va hududiy nomutanosiblikni kamaytirish orqali yo‘lovchi aylanmasini yanada oshirish mumkin.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi iqtisodiyotda logistika tizimining rivojlanganlik darajasi va bozor infratuzilmasining samaradorligini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkichdir. Mazkur indikator ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi bog‘liqlikni, hududlararo iqtisodiy integratsiyani hamda transport xizmatlarining bozor mexanizmlariga moslashuv darajasini ifodalaydi. 2016–2025-yillar kesimida ushbu ko‘rsatkichning dinamikasi mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, pandemiya sharoitidagi o‘zgarishlar hamda logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yuk tashish hajmi 2016-yildagi 538,6 mln tonna-kmdan 2019-yilda 641 mln tonna-kmga qadar o‘sib, ijobiy tendensiyani namoyon etgan. Biroq 2020–

[191] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2021-yillarda pandemiya va iqtisodiy faollikning pasayishi natijasida 550,1 mln tonna-kmgacha qisqarish kuzatilgan. Shundan so‘ng 2022-yildan boshlab tiklanish jarayoni yuzaga kelib, 2024-yilda 701,5 mln tonna-kmga yetgan va tarixiy maksimumga chiqdi.

**2-jadval**

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi, mln tonna-kilometr**[192]

| Klassifikator | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 538,6 | 548,8 | 611,7 | 641 | 638,9 | 550,1 | 608,2 | 664,9 | 701,5 | 701,6 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 19,2 | 20,3 | 24,2 | 26,9 | 28,1 | 30,8 | 33,4 | 35,1 | 37,6 | 37,7 |
| Andijon viloyati | 41 | 37,8 | 38,4 | 37,8 | 39 | 41,2 | 46,6 | 48,4 | 52,4 | 52,4 |
| Buxoro viloyati | 57,5 | 59,3 | 67,1 | 64,6 | 58,2 | 57,6 | 61,2 | 61,4 | 65,6 | 65,6 |
| Jizzax viloyati | 26,1 | 29,3 | 32,2 | 37,2 | 34,2 | 31,8 | 34,3 | 33,8 | 36,4 | 36,4 |
| Qashqadaryo viloyati | 35,4 | 34,5 | 36,2 | 36 | 38,7 | 36,7 | 39,9 | 42,5 | 46,1 | 46,1 |
| Navoiy viloyati | 21,4 | 24,4 | 30,4 | 31 | 31,7 | 32,7 | 32,8 | 33,6 | 36,9 | 36,9 |
| Namangan viloyati | 18,6 | 19,1 | 26,1 | 24,1 | 24,4 | 27,4 | 29 | 30,8 | 32,3 | 32,3 |
| Samarqand viloyati | 39,4 | 40,5 | 46,1 | 49,7 | 49,6 | 47,8 | 51,9 | 53,8 | 56,8 | 56,8 |
| Surxondaryo viloyati | 39,1 | 44 | 47,7 | 51,5 | 52,8 | 54 | 60,2 | 76,4 | 73 | 73 |
| Sirdaryo viloyati | 11,2 | 13 | 14,5 | 17,1 | 18,4 | 17,4 | 17,9 | 18,5 | 18,9 | 18,9 |
| Toshkent viloyati | 47,3 | 47,4 | 51,4 | 60 | 61,7 | 51,4 | 62,4 | 79 | 81,1 | 81,1 |
| Farg‘ona viloyati | 57,6 | 57,3 | 61,4 | 60,6 | 55,5 | 48,5 | 52,1 | 58 | 66,7 | 66,7 |
| Xorazm viloyati | 31,6 | 31,8 | 34,4 | 36,5 | 34,5 | 33,5 | 36,2 | 36,4 | 38,4 | 38,4 |
| Toshkent shahri | 93,2 | 90 | 101,7 | 108 | 112,1 | 39,3 | 50,3 | 57,2 | 59,3 | 59,3 |

Hududlar kesimida yetakchi o‘rinlarni Toshkent viloyati (81,1 mln tonna-km), Farg‘ona (66,7 mln tonna-km), Buxoro (65,6 mln tonna-km) hamda Toshkent shahri (59,3 mln tonna-km) egallaydi. Bu hududlarda sanoat ishlab chiqarishi, logistika markazlari va transport infratuzilmasining yuqori darajada rivojlanganligi yuk tashish hajmini oshiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Alohida e’tiborli jihat shundaki, Surxondaryo viloyatida 2023-yilda keskin sakrash (76,4 mln tonna-km) kuzatilgan bo‘lib, bu hududda tranzit yuk oqimlari va tashqi savdo faoliyatining faollashganidan dalolat beradi. Nisbatan past ko‘rsatkichlar Sirdaryo (18,9 mln tonna-km) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (37,7 mln tonna-km) qayd etilgan. Bu hududlarda sanoatlashuv darajasi va logistika infratuzilmasi nisbatan pastligi asosiy cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Toshkent shahrida 2021-yilda keskin pasayish (39,3 mln tonna-km) kuzatilgan bo‘lib, bu pandemiya davrida xizmatlar sektorining qisqarishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu transport-logistika tizimining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi. Hududlar o‘rtasidagi tafovutlar iqtisodiy rivojlanish darajasi va infratuzilma bilan belgilanadi. Pandemiyadan keyingi tiklanish jarayoni sektorning moslashuvchanligini tasdiqladi. Kelgusida logistika markazlarini rivojlantirish, transport xizmatlarini raqamlashtirish va hududlararo integratsiyani kuchaytirish orqali yuk tashish hajmini yanada oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirish mumkin.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi iqtisodiyotda logistika tizimining samaradorligi, tovarlar harakati intensivligi va hududlararo iqtisodiy aloqalarning rivojlanganlik darajasini ifodalovchi muhim indikator hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich yuk tashish jarayonida bajarilgan umumiy ish hajmini aks ettirib, transport tizimining ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi bog‘lovchi rolini ochib beradi. 2016–2025-yillar davomida mazkur ko‘rsatkich

[192] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

dinamikasini tahlil qilish orqali mamlakatda kichik biznesning logistika sektoridagi o‘rni va uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yuk aylanmasi hajmi 2016-yildagi 10 072,4 mln tonnadan 2025-yilda 18 935,3 mln tonnaga yetib, qariyb 1,9 baravar o‘sishni namoyon etdi. Ayniqsa, 2021-yildan keyingi davrda keskin o‘sish kuzatilib, bu iqtisodiy tiklanish va logistika infratuzilmasining kengayishi bilan izohlanadi. Hududlar kesimida yetakchi o‘rinlarni Toshkent shahri (2 374,7 mln tonna), Buxoro (2 208,6 mln tonna) va Farg‘ona viloyati (2 133 mln tonna) egallaydi. Bu hududlarda sanoat ishlab chiqarishining yuqori darajasi, ichki va tashqi savdo operatsiyalarining kengligi hamda transport infratuzilmasining rivojlanganligi yuk aylanmasining yuqori bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

**3-jadval**

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi, mln tonna[193]**

| Klassifikator | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 10072,4 | 10444,4 | 11657,7 | 12152,3 | 12304,6 | 13803,2 | 14843,8 | 16394,3 | 18935,2 | 18935,3 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 468,4 | 489,7 | 528,8 | 572,1 | 665,3 | 784,6 | 795,5 | 810,4 | 881,3 | 881,3 |
| Andijon viloyati | 577,9 | 556,5 | 563 | 572,4 | 586,5 | 700,1 | 802,6 | 829,7 | 870,3 | 870,3 |
| Buxoro viloyati | 1253,6 | 1322,9 | 1439,8 | 1532,9 | 1530,5 | 1668,4 | 1750,2 | 2023,8 | 2208,6 | 2208,6 |
| Jizzax viloyati | 725,3 | 758,9 | 803,5 | 852,4 | 961,7 | 1002,3 | 1079,6 | 1076,5 | 1127,9 | 1127,9 |
| Qashqadaryo viloyati | 914,1 | 913,2 | 939,4 | 975,5 | 1012,5 | 1085,6 | 1151,2 | 1120,4 | 1366,5 | 1366,5 |
| Navoiy viloyati | 599,7 | 636,5 | 699,4 | 732 | 743,4 | 791,2 | 813,4 | 815,2 | 861,2 | 861,2 |
| Namangan viloyati | 330,9 | 355,1 | 445,6 | 519,1 | 539,7 | 631,5 | 728,7 | 1261 | 1477,9 | 1477,9 |
| Samarqand viloyati | 915,4 | 936 | 1023,7 | 1066 | 994,6 | 1181,5 | 1326,9 | 1433,9 | 1522,8 | 1522,9 |
| Surxondaryo viloyati | 609,7 | 653,8 | 739,1 | 749,3 | 788,3 | 1000,8 | 1017,4 | 1164,4 | 1365,6 | 1365,6 |
| Sirdaryo viloyati | 192,2 | 208 | 223,2 | 249,7 | 255,4 | 267,9 | 283,9 | 298,6 | 366,9 | 366,9 |
| Toshkent viloyati | 768,5 | 786,2 | 852,9 | 988,7 | 989,8 | 1031,5 | 1109,2 | 1124,3 | 1341,3 | 1341,3 |
| Farg‘ona viloyati | 1082,7 | 1137,1 | 1278,9 | 1382,6 | 1412,5 | 1592,2 | 1757,1 | 1868,2 | 2133 | 2133 |
| Xorazm viloyati | 534,2 | 573,1 | 643,5 | 678,2 | 643,3 | 833,8 | 908,7 | 879,5 | 1037,2 | 1037,2 |
| Toshkent shahri | 1099,7 | 1117,4 | 1477,1 | 1281,4 | 1181,1 | 1231,8 | 1319,4 | 1688,4 | 2374,7 | 2374,7 |

Namangan viloyatida 2022–2023-yillarda keskin sakrash (728,7 dan 1261 mln tonnagacha) kuzatilgan bo‘lib, bu hududda ishlab chiqarish hajmi va logistika xizmatlarining kengayganidan dalolat beradi. Shuningdek, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ham barqaror o‘sish tendensiyasi qayd etilgan. Nisbatan past ko‘rsatkichlar Sirdaryo (366,9 mln tonna) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (881,3 mln tonna) kuzatilgan. Bu hududlarda transport-logistika infratuzilmasining cheklanganligi va sanoat bazasining nisbatan pastligi asosiy omillar hisoblanadi. Umuman olganda, barcha hududlarda o‘sish tendensiyasi saqlanib qolgan bo‘lib, bu kichik tadbirkorlikning logistika tizimidagi rolini oshib borayotganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi izchil o‘sib bormoqda va bu iqtisodiy faollikning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Hududlar o‘rtasidagi tafovutlar infratuzilma va sanoat rivoji bilan belgilanadi. Kelgusida logistika markazlarini rivojlantirish, transport tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish orqali yuk aylanmasini yanada oshirish mumkin. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, eksport salohiyati va milliy iqtisodiyotning global bozorlarga integratsiyalashuv darajasini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biridir. Ushbu indikator kichik biznesning xalqaro savdodagi ishtirokini, raqobatbardoshligini hamda eksport tarkibining diversifikatsiyalashuv darajasini baholash imkonini beradi. 2016–2025-yillar kesimida eksport hajmining dinamikasi iqtisodiy islohotlar, tashqi savdo liberallashuvi va pandemiya omillarining ta’siri ostida shakllangan.

[193] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

**4-jadval**

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot(ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi, mln AQSh dollari[194]**

| Klassifikator | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 3139,2 | 2759,3 | 3810,8 | 4714,8 | 3100,9 | 3335,2 | 6157,5 | 6938,3 | 9302,5 | 12382,6 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 32,5 | 40 | 46,8 | 88,4 | 78,2 | 84,6 | 57,7 | 79,3 | 110,4 | 191,5 |
| Andijon viloyati | 191,7 | 223,7 | 268,7 | 288,7 | 252,5 | 357,6 | 465,7 | 340,1 | 451,9 | 637,2 |
| Buxoro viloyati | 68,5 | 84,3 | 96,7 | 182,2 | 101 | 120,8 | 167,2 | 137,3 | 182,7 | 215,5 |
| Jizzax viloyati | 74,4 | 88,2 | 68,8 | 80,7 | 76,5 | 90,6 | 98,4 | 76 | 135,4 | 215 |
| Qashqadaryo viloyati | 61,9 | 86,5 | 103 | 145,3 | 110,7 | 139,1 | 118,3 | 96 | 106,7 | 188,8 |
| Navoiy viloyati | 76,7 | 60,4 | 103,4 | 95,2 | 50,3 | 59,2 | 50,7 | 60,3 | 91,7 | 75,3 |
| Namangan viloyati | 139,1 | 177 | 209 | 291,2 | 197,8 | 246,8 | 259,6 | 244,7 | 315,2 | 390,3 |
| Samarqand viloyati | 213,6 | 214,8 | 251,1 | 305,5 | 191,8 | 243 | 323,5 | 315,2 | 409,5 | 516,5 |
| Surxondaryo viloyati | 54,7 | 109 | 168,5 | 176,9 | 134,8 | 141 | 145,6 | 157,4 | 237,4 | 348,4 |
| Sirdaryo viloyati | 72,4 | 103,9 | 96,4 | 105 | 143,6 | 178,5 | 226,7 | 212 | 180,7 | 198,5 |
| Toshkent viloyati | 316,4 | 280,6 | 405,6 | 530,1 | 501,9 | 469,8 | 609,2 | 613,4 | 678,6 | 991,7 |
| Farg‘ona viloyati | 142,5 | 227,4 | 221,5 | 306,5 | 319 | 393 | 428 | 466,1 | 514,7 | 703,8 |
| Xorazm viloyati | 36,5 | 61,6 | 76,9 | 131,1 | 119 | 119,7 | 143,8 | 193 | 286,9 | 352,1 |
| Toshkent shahri | 469 | 526 | 725,1 | 734,2 | 578,1 | 685,5 | 1020,2 | 1155,7 | 1588,8 | 1495,5 |

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari eksport hajmi 2016-yildagi 3139,2 mln AQSh dollaridan 2025-yilda 12 382,6 mln dollarga yetib, qariyb 4 baravar o‘sishni ko‘rsatdi. 2020-yilda pandemiya sabab keskin pasayish (3100,9 mln dollar) kuzatilgan bo‘lsa-da, 2021-yildan boshlab eksport hajmi tez sur’atlarda tiklanib, ayniqsa 2022–2025-yillarda keskin o‘sish bosqichiga o‘tgan. Hududlar kesimida Toshkent shahri (1495,5 mln dollar), Toshkent viloyati (991,7 mln dollar) va Farg‘ona viloyati (703,8 mln dollar) yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bu hududlarda sanoat ishlab chiqarishining yuqori darajasi, eksportga yo‘naltirilgan korxonalar sonining ko‘pligi hamda logistika infratuzilmasining rivojlanganligi asosiy omillar hisoblanadi.

Shuningdek, Andijon (637,2 mln dollar), Samarqand (516,5 mln dollar) va Namangan viloyatlarida (390,3 mln dollar) ham barqaror o‘sish kuzatilgan. Bu hududlarda to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va qayta ishlash sanoatining eksport salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Navoiy viloyatida eksport hajmining nisbatan o‘zgaruvchanligi (75,3 mln dollar 2025-yilda) kuzatilib, bu hududning eksport tarkibi tor ixtisoslashganligi bilan izohlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatlarida ham eksport hajmi past darajada qolmoqda. Umuman olganda, eksport hajmining hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi iqtisodiy rivojlanish darajasi va ishlab chiqarish diversifikatsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati jadal rivojlanib, mamlakat tashqi savdosida muhim o‘rin egallamoqda. Pandemiyadan keyingi tiklanish jarayoni sektorning moslashuvchanligini va eksport salohiyatining yuqoriligini tasdiqladi. Kelgusida eksportni yanada oshirish uchun mahsulotlarni diversifikatsiyalash, logistika xarajatlarini kamaytirish va xalqaro bozorlarga chiqish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu esa milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va global raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi iqtisodiyotning xizmatlar sektoridagi tarkibiy o‘zgarishlar, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va aholi farovonligining oshish darajasini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Ushbu indikator xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikni ta’minlashdagi roli hamda iqtisodiyotning postindustrial rivojlanish bosqichiga o‘tish jarayonini baholash

[194] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

imkonini beradi. 2016–2025-yillar davomida xizmatlar hajmining dinamikasi iqtisodiy liberallashuv, raqamlashtirish va ichki talabning kengayishi bilan izohlanadi.

**5-jadval**

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mln so‘m[195]**

| Klassifikator | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 61346,2 | 69212,7 | 84433,4 | 103106,6 | 114052,7 | 147061,6 | 181245 | 369378,4 | 469257,7 | 595090,5 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 1943,6 | 2195,7 | 2616,4 | 3037,8 | 3402,9 | 4418,3 | 5291,9 | 16389,4 | 20850 | 26040,2 |
| Andijon viloyati | 4408,1 | 4928,1 | 5716,1 | 6766,9 | 7732 | 9658,4 | 11756 | 25304,3 | 31793,8 | 39288,4 |
| Buxoro viloyati | 3690,2 | 4042,8 | 4829,5 | 5898,9 | 6571,8 | 8287,1 | 9785,4 | 19285,6 | 23538,7 | 30280,3 |
| Jizzax viloyati | 1643,8 | 1857,7 | 2250,7 | 2742,1 | 3095,8 | 3980,1 | 4829,4 | 11911,5 | 14577,5 | 17932,2 |
| Qashqadaryo viloyati | 3853,3 | 4228 | 4993,2 | 6265,4 | 7308 | 8999,2 | 10831,6 | 26417,9 | 32556 | 40582,1 |
| Navoiy viloyati | 1821,1 | 2041,3 | 2489,3 | 3105,2 | 3438,9 | 4382,7 | 5431,7 | 9333,9 | 11779,7 | 14918,4 |
| Namangan viloyati | 3358,5 | 3647,2 | 4218,7 | 5176,4 | 5925 | 7882,8 | 9742,4 | 25783,8 | 32696,5 | 42242,9 |
| Samarqand viloyati | 5712,1 | 6343,9 | 7421,8 | 9035,6 | 9703 | 12607,9 | 15511,7 | 30906,6 | 39234,9 | 50911,8 |
| Surxondaryo viloyati | 3015,2 | 3431,7 | 4563,9 | 4879,9 | 5331,3 | 6938,4 | 8279,3 | 17200,7 | 21459,2 | 26675,3 |
| Sirdaryo viloyati | 952,3 | 1056,3 | 1310,8 | 1642,9 | 1842,4 | 2227,9 | 2621,2 | 6154,5 | 7888,4 | 9802,5 |
| Toshkent viloyati | 6395,4 | 7102,4 | 8225,2 | 10354 | 11721,6 | 15117,3 | 17944,7 | 33254,9 | 41261,9 | 52427,6 |
| Farg‘ona viloyati | 5163,8 | 5742,5 | 6891,4 | 8439,6 | 9758,6 | 12186,4 | 14564,9 | 33587,8 | 42175,6 | 54265,8 |
| Xorazm viloyati | 2317,5 | 2596,8 | 3149,6 | 3783,6 | 4127,2 | 5390,3 | 6500,1 | 16268,6 | 20911,4 | 27110,9 |
| Toshkent shahri | 17071,3 | 19998,3 | 25756,8 | 31978,3 | 34094,2 | 44984,8 | 58154,7 | 97579 | 126608,3 | 162612,1 |

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2016-yildagi 61 346,2 mlrd so‘mdan 2025-yilda 595 090,5 mlrd so‘mga yetib, qariyb 9,7 baravar o‘sishni ko‘rsatdi. Ayniqsa, 2022–2023-yillarda keskin sakrash (181 245 mlrd so‘mdan 369 378,4 mlrd so‘mga) kuzatilib, bu xizmatlar sektorining jadal kengayganligini anglatadi. Hududlar kesimida Toshkent shahri yetakchi o‘rinni egallab, 2025-yilda 162 612,1 mlrd so‘mga yetgan. Bu holat poytaxtda moliyaviy, savdo, IT va biznes xizmatlarining yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Farg‘ona (54 265,8 mlrd so‘m), Toshkent viloyati (52 427,6 mlrd so‘m) va Samarqand viloyatlarida (50 911,8 mlrd so‘m) ham yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan.

Namangan, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida ham xizmatlar hajmining tez sur’atlarda o‘sishi kuzatilmoqda, bu hududlarda kichik biznesning xizmatlar bozoridagi ulushi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Nisbatan past ko‘rsatkichlar Sirdaryo (9 802,5 mlrd so‘m) va Jizzax (17 932,2 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etilgan bo‘lib, bu hududlarda xizmatlar infratuzilmasi va bozor sig‘imi nisbatan cheklangan. Umuman olganda, barcha hududlarda xizmatlar hajmi keskin o‘sib, iqtisodiyotda xizmatlar sektorining ustuvorligi kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar ko‘rsatish hajmi izchil va yuqori sur’atlarda o‘sib, milliy iqtisodiyotda muhim drayverga aylangan. Hududlar o‘rtasidagi tafovutlar infratuzilma va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Kelgusida xizmatlar sektorini rivojlantirish, ayniqsa raqamli xizmatlar va innovatsion biznes yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘sishni yanada jadallashtirish mumkin. Bu esa iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.**

Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish iqtisodiyotni

[195] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

barqaror rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsion faoliyatni kengaytirish hamda mamlakatning investitsion salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi ushbu sektorning iqtisodiyotdagi ulushi va investitsion faolligining ortishiga xizmat qilgan. Tahlillar davomida kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibida tijorat banklari kreditlari asosiy o‘rinni egallashi aniqlandi. Shu bilan birga, davlat tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, kafillik mexanizmlari hamda xalqaro moliya institutlari mablag‘lari investitsion loyihalarni amalga oshirishda muhim moliyaviy resurs manbasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Natijada ishlab chiqarish quvvatlari kengayib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va eksport faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari oshmoqda. Biroq kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish tizimida ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, uzoq muddatli moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kredit foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi, garov ta’minoti bilan bog‘liq talablarning murakkabligi hamda muqobil moliyalashtirish instrumentlarining sust rivojlanganligi investitsion faollikni cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, hududlar kesimida moliyaviy resurslardan foydalanish darajasidagi tafovutlar kichik biznes rivojlanishida nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Пер.с англ. М.: 1962 г.-408с. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/smit/05.php.
2. Сэй Ж.-Б. Трактат по политической экономии. М., 1996. [Электронный ресурс] // URL: http://geum.ru/next/art-317992.php.
3. Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982. [Электронный ресурс] // URL: http://socioline.ru/book/j-shumpeter-teoriyaekonomicheskogo-razvitiya#attachments.
4. Аганбегян А.Г. Модернизация реального сектора экономики // Деньги и кредит. 2010. № 3. С.
5. G‘ulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes.-T.: «Sharq», 2002-9 b.
6. O‘lmasov A, Sharifxo‘jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik.-T.: «Mehnat», 1999- 243 b.
7. Гафуров, У.В. (2016). Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Монография. Т.: Молия, 208.
8. Gurov L. Kichik tadbirkorlikning yangi imkoniyatlari.// Bozor, pul va kredit. – T.: 1999. – №7. –. 32 b.
9. G‘ulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes.-T.: «Sharq», 2002-9 b.
10. O‘lmasov A, Sharifxo‘jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik.-T.: «Mexnat», 1999- 243 b.
11. Yo.Abdullaev va boshkalar.Tadbirkor yon daftari: kichik biznes va tadbirkorlik.T: “Mehnat”, 1999-12 b.
12. Sh.A. Toshmatov. Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish asoslari . Monografiya. –T.: “Moliya”, 2012. –22 b.
13. Yunusov R.M. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarini moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘llari. I.f.n. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: “TDIU”, 2008. – B. 7.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN KORXONALARDA VALYUTA RISKLARINI XEDJERLASH (SUG‘URTALASH) MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Fozilchayev Shuhratjon Qobiljon o‘g‘li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya va moliyaviy texnoligiyalar" kafedrasi dotsenti*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada global iqtisodiy noaniqliklar va valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi sharoitida eksportga yo'naltirilgan korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muammolari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi milliy eksportyor korxonalarda valyuta risklarini samarali xedjerlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada tizimli tahlil, qiyosiy iqtisodiy baholash va moliyaviy modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijasida valyuta derivativlari (forvard va svop shartnomalari) yordamida eksport tushumlarini sug‘urtalashning optimallashtirilgan modeli taklif etilgan. Mazkur model korxonalarning valyuta yo'qotishlarini kamaytirish va sof foyda ko'rsatkichlarini barqarorlashtirish imkonini beradi. Taklif etilayotgan tavsiyalar O'zbekistonning eksport salohiyatiga ega bo'lgan real sektor korxonalarida risk-menejment tizimini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:*** *valyuta riski, xedjerlash, eksportga yo'naltirilgan korxonalar, derivativlar, forvard shartnomasi, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment.*

# IMPROVING CURRENCY RISK HEDGING (INSURANCE) MECHANISMS IN EXPORT-ORIENTED ENTERPRISES

**Shuhratjon Qobiljon ugli Fozilchayev**

*Associate Professor of the Department of “Finance and Financial Technologies” of Tashkent State University of Economics*

***Abstract.*** *This article examines the problems of ensuring the financial stability of export-oriented enterprises in the context of global economic uncertainties and exchange rate volatility. The study aims to develop scientific and practical proposals for improving the mechanisms of effective exchange rate risk hedging in national exporting enterprises. Methods of systemic analysis, comparative economic evaluation, and financial modeling were applied in the paper. As a result of the research, an optimized model for insuring export revenues using currency derivatives (forward and swap contracts) was proposed. This model enables enterprises to minimize foreign exchange losses and stabilize net profit indicators. The proposed recommendations hold practical significance for developing risk management systems in real-sector enterprises of Uzbekistan with significant export potential.*

***Keywords:*** *exchange rate risk, hedging, export-oriented enterprises, derivatives, forward contract, financial stability, risk management.*

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ХЕДЖИРОВАНИЯ (СТРАХОВАНИЯ) ВАЛЮТНЫХ РИСКОВ НА ЭКСПОРТООРИЕНТИРОВАННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

**Фозилчаев Шухратжон Кобилжон угли**

*Доцент кафедры "Финансы и финансовые технологии" Ташкентского государственного*

***Аннотация.*** *В данной статье исследованы проблемы обеспечения финансовой*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

*устойчивости экспортно-ориентированных предприятий в условиях глобальной экономической неопределенности и волатильности валютных курсов. Целью исследования является разработка научно-практических предложений по совершенствованию механизмов эффективного хеджирования валютных рисков на национальных предприятиях-экспортерах. В статье использованы методы системного анализа, сравнительной экономической оценки и финансового моделирования. В результате исследования предложена оптимизированная модель страхования экспортной выручки с использованием валютных деривативов (форвардных и своп-контрактов). Данная модель позволяет минимизировать валютные потери предприятий и стабилизировать показатели чистой прибыли. Предлагаемые рекомендации имеют практическое значение для развития системы риск-менеджмента на предприятиях реального сектора Узбекистана, обладающих экспортным потенциалом.*

***Ключевые слова:*** *валютный риск, хеджирование, экспортно-ориентированные предприятия, деривативы, форвардный контракт, финансовая устойчивость, риск-менеджмент.*

**Kirish**

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar globallashuvi va geosiyosiy noaniqliklar sharoitida valyuta bozorlaridagi yuqori o‘zgaruvchanlik (volatillik) eksportga yo‘naltirilgan korxonalarning moliyaviy barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotining real sektori tarkibida eksport salohiyatini oshirish va tashqi savdoni liberallashtirish strategik vazifa etib belgilangan. Biroq, milliy valyuta – so‘mning xorijiy valyutalarga (aynan AQSh dollari va Rossiya rubliga) nisbatan almashuv kursining tebranishi eksportyor korxonalarning pul oqimlari (cash flows) prognozliligini pasaytirib, kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlarga (valyuta risklariga) olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport hajmining o‘sish sur’atlari barqaror bo‘lsada, uning rentabelligi tashqi valyuta kon’yukturasiga yuqori darajada bog‘liq bo‘lib qolmoqda [8]. Ayniqsa, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar eksport qiluvchi to‘qimachilik, kimyo va metallurgiya sanoati korxonalari shartnoma imzolangan sana bilan to‘lov kelib tushgan sana o‘rtasidagi vaqtinchalik uzilishlar (lag) sababli valyuta kursining salbiy tebranishlaridan katta moliyaviy zarar ko‘rmoqda. Soliq qo‘mitasining yirik soliq to‘lovchilar hisoboti tahlillari shuni ko‘rsatadiki, valyuta kursidagi tafovutlar tufayli yuzaga keladigan va soliq solish bazasidan chegiriladigan salbiy kurs farqlari korxonalarning sof foydasini kamaytirib, yakunda davlat byudjetiga tushadigan soliq tushumlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda [9].

Shu sababli, milliy eksportyor korxonalarda moliyaviy injiniring instrumentlari, xususan, valyuta derivativlari (forvard, fyuches, svop va opsionlar) orqali valyuta risklarini xedjerlash (sug‘urtalash) mexanizmlarini amaliyotga joriy etish masalasi g‘oyat dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Valyuta risklarini boshqarish va xedjerlash mexanizmlarining nazariy-uslubiy asoslari xalqaro moliya maktabi vakillari tomonidan keng tadqiq etilgan. Zamonaviy portfolio nazariyasi va risklarni derivativlar orqali boshqarish poydevori F.Black va M.Scholes [1] hamda R.Merton [2] tomonidan ishlab chiqilgan opsionlarni baholash modellari bilan uzviy bog‘liqdir. Korporativ moliya va xedjerlashning korxona qiymatiga ta’sirini tahlil qilgan olimlar D.Duffie [3] va P.Hull [4] derivativlar bozori transaksiya xarajatlarini kamaytirish va likvidlik riskini minimallashtirish orqali korxonaning defolt ehtimolini pasaytirishini isbotlashgan.

MDH davlatlari olimlaridan L.N.Krasavina va V.A.Slepovlar o‘z tadqiqotlarida rivojlanayotgan bozorlar (emerging markets) sharoitida milliy valyuta volatilligining eksport tarkibiga ta’sirini va moliya bozorlarining chuqurlik darajasi pastligi sababli xedjerlash instrumentlarining cheklanganligini ko‘rsatib o‘tishgan [5].

O‘zbekistonda moliya-kredit tizimi, pul-kredit siyosati va korxonalarning moliyaviy barqarorligi muammolari iqtisodchi olimlar Sh.Z.Abdullayeva, T.S.Malikov, O.M.Nazarov va A.V.Vaxabovlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Sh.Z.Abdullayeva o‘zining ilmiy ishlarida tijorat banklarining valyuta operatsiyalaridagi risklarni baholagan bo‘lsa [6], real sektor korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatidagi valyuta-moliya munosabatlari va ularni tartibga solish muammolari O.M.Nazarov tadqiqotlarida aks etgan [7].

Biroq, mahalliy adabiyotlarda eksportga yo‘naltirilgan korxonalarning moliyaviy munosabatlarida valyuta derivativlaridan amaliy foydalanish, Markaziy bankning pul-kredit instrumentlari va tijorat banklarining forvard operatsiyalari orqali eksportyorlar riskini sug‘urtalashning yaxlit mexanizmi yetarlicha ochib berilmagan. Bu tizimdagi ilmiy va amaliy bo‘shliq (research gap) ushbu tadqiqotning yo‘nalishini belgilaydi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – O‘zbekiston Respublikasida valyuta bozorining rivojlanish tendensiyalari va eksportyor korxonalarning moliyaviy holati tahlili asosida, eksportga yo‘naltirilgan korxonalarda valyuta risklarini xedjerlash (sug‘urtalash)ning samarali moliya-kredit mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotning uslubiy asosi sifatida tizimli yondashuv, moliya-iqtisodiy model shakllantirish, ekonometrik baholash va valyuta bozorini risk-menejment nuqtai nazaridan modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Real sektor eksportyor korxonalarida valyuta riskini miqdoriy jihatdan baholash va moliya bozori instrumentlari yordamida xedjerlash mexanizmini yaratish uchun quyidagi uslubiy bosqichlar qo‘llanilgan:

Tadqiqotning empirik asosi va ma’lumotlar bazasini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (cbu.uz) 2021–2026-yillardagi AQSh dollari ($ / UZS) va Rossiya rubli (RUB / UZS) valyuta kurslarining kunlik va oylik rasmiy tebranishlar dinamikasi o‘rganildi [10]. Shuningdek, Statistika agentligi (stat.uz) hamda Soliq qo‘mitasining (soliq.uz) yirik eksportyor sanoat korxonalari (tekstil, kimyo sanoati va metallurgiya) bo‘yicha taqdim etgan agregatlashgan oylik eksport hajmlari hamda salbiy kurs tafovutlaridan ko‘rilgan moliyaviy yo‘qotishlar statistikasi tahlil ob’ekti sifatida tanlab olindi.

Eksportyor korxonalarning ochiq valyuta pozitsiyasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan maksimal moliyaviy yo‘qotishlarni aniqlash uchun xalqaro moliya amaliyotida keng qo‘llaniladigan **Value at Risk (VaR)** metodologiyasining parametrik (variatsiya-kovariatsiya) usuli qo‘llanilgan [11].

Muayyan vaqt oralig‘i (δt) va ishonchlilik darajasi (α= 95%) uchun korxonaning valyuta riski ostidagi summasi quyidagi formula yordamida baholandi:

$$VaR = V \times Z_\alpha \times \sigma\sqrt{\Delta t}$$

Bu yerda:

– V – korxonaning ochiq valyuta pozitsiyasi hajmi (eksport shartnomasi bo‘yicha kutilayotgan tushum summasi);

– $Z_\alpha$– berilgan ishonchlilik darajasiga mos keluvchi standart normal taqsimot kvantili (α= 95% bo‘lganda, $Z_\alpha$ = 1.645);

– σ – milliy valyuta almashuv kursining o‘zgaruvchanligi (standart og‘ishi — volatility);

– δt – eksport shartnomasi imzolangan vaqtdan to‘lov kelib tushadigan vaqtgacha bo‘lgan muddat (kunlar soni).

**Tahlil va natijalar.**

Statistika agentligining dastlabki rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining jami eksport hajmi 33,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 24,0 foizga oshgan [8]. Shuningdek, 2026-yilning yanvar-fevral oylari tahlili shuni

ko‘rsatadiki, maxsus eksportni (oltin) hisobga olmaganda, real sektor tovarlari eksporti barqaror o‘sib, 2 097,7 mln. AQSh dollarini (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 24,0% o‘sish) tashkil etdi [8].

Biroq, eksport oqimlarining qariyb 35-40 foizi AQSh dollari va Rossiya rubli ulushiga to‘g‘ri kelayotgan bir sharoitda, Markaziy bankning valyuta kurslari volatiligi tahlili eksportyorlar duch kelayotgan kuchli valyuta risklarini ochib beradi. 2025-2026-yillar oralig‘ida UZS/USD va UZS/RUB valyuta juftliklarining kunlik tebranish koeffitsiyenti (volatillik, σ) mos ravishda 4,2% va 11,8% ni tashkil etdi.

Soliq qo‘mitasining yirik soliq to‘lovchi eksportyor korxonalar moliyaviy hisobotlari bo‘yicha olingan agregatlangan ma’lumotlariga asosan, valyuta kursidagi tafovutlar sababli yuzaga kelgan salbiy kurs farqlarining dinamikasi 1-jadvalda jamlandi.

**1-jadval**

**Valyuta kursidagi tafovutlar sababli yuzaga kelgan salbiy kurs farqlarining dinamikasi [8, 9].**

| Ko‘rsatkichlar | 2023-y. | 2024-y. | 2025-y. | 2026-y. (I chorak) |
|---|---|---|---|---|
| Jami tayyor mahsulotlar eksporti (mln. USD) | 16 112,5 | 25 558,3 | 33 800,0 | 3 546,8 |
| Ochiq valyuta pozitsiyasiga ega korxonalar soni | 412 | 518 | 610 | 585 |
| **Hisoblangan salbiy kurs farqi zarari (mlrd. so‘m)** | **1 840,4** | **2 910,2** | **3 450,6** | **920,4** |
| Salbiy kurs farqining sof foydaga nisbatan ulushi (%) | 6,8% | 8,4% | 9,1% | 10,2% |

1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, eksport hajmi oshishi bilan korxonalarning xedjerlanmagan ochiq valyuta pozitsiyalari kengayib, valyuta yo‘qotishlari 2023-yildagi 1 840,4 mlrd. so‘mdan 2025-yilda 3 450,6 mlrd. so‘mga yetgan hamda korxonalar sof foydasining qariyb 9,1–10,2 foizini “yutib yuborgan”.

Agar korxona xedjerlash mexanizmini qo‘llamasdan, 90 kundan keyin valyuta kursi devalvatsiya o‘rniga kutilmaganda revalvatsiya bo‘lib, spot kursi 12 900 UZS/USD ga tushgan ssenariyda (salbiy kurs farqi riski ostida) va forvard shartnomasi bilan xedjerlangandagi moliyaviy natijalar qiyoslandi (2-jadval).

**2-jadval**

**Korxonaning forvard shartnomasi bilan xedjerlangandagi moliyaviy natijalari [4]**

| Moliyaviy komponentlar | Xedjerlanmagan strategiya (Ochiq Spot pozitsiyasi) | Xedjerlangan strategiya (Taklif etilayotgan Forvard modeli) | Strategiyalar o‘rtasidagi farq (Samaradorlik) |
|---|---|---|---|
| 90 kundan keyingi real valyuta kursi (UZS/USD) | 12 900 UZS | 13 378 UZS (Muhrlangan) | + 478 UZS |
| Korxonaga kelib tushadigan jami milliy valyuta tushumi | 12 900 000 000 so‘m | 13 378 000 000 so‘m | + 478 000 000 so‘m |
| Valyuta riskidan ko‘rilgan moliyaviy zarar (Salbiy kurs farqi) | - 200 000 000 so‘m | 0 so‘m (To‘liq sug‘urtalangan) | + 200 000 000 so‘m |
| **Xedjerlashning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti (HE)** | 0.00 | **0.942 (94.2%)** | **+ 94.2% xavfsizlik** |

2-jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, taklif etilayotgan forvard narxlash mexanizmini

qo‘llash orqali eksportyor korxona nafaqat valyuta bozoridagi kutilmagan salbiy kurs farqi zararlaridan (200 mln. so‘m) o‘zini to‘liq himoya qiladi, balki moliya bozoridagi foizlar differensiali (pariteti) hisobiga qo‘shimcha 478 mln. so‘mlik moliyaviy daromadlilikni kafolatlaydi.

Xedjerlashning samaradorlik koeffitsiyenti HE = 0.942 (94.2%) ni tashkil etdi, bu esa pul oqimlari volatiligi va noaniqligining 94% gacha qisqarganligini anglatadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, eksportga yo‘naltirilgan real sektor korxonalarida valyuta risklarini xedjerlash mexanizmlarini joriy etish orqali pul oqimlari o‘zgaruvchanligini qariyb 94,2 foizgacha kamaytirish imkoniyati mavjud. Bu xalqaro moliya maktabi vakillari P. Hull [3] va G. Bekaert [12] tomonidan ilgari surilgan “derivativlar bozori korporativ risklarni transformatsiya qilish orqali korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi” degan nazariy konseptual qarashlarni iqtisodiyotimiz sharoitida amaliy jihatdan to‘liq tasdiqlaydi.

Biroq, O‘zbekiston moliya bozorining bugungi holati va Markaziy bank tahlillari real amaliyotda bunday instrumentlardan foydalanish darajasi juda pastligini ko‘rsatmoqda. MDH davlatlari tajribasi bilan solishtirganda, masalan Rossiya va Qozog‘istonda eksportyorlarning valyuta shartnomalari birja va birjadan tashqari derivativlar (forvard, opsion) orqali tizimli ravishda sug‘urtalangan bo‘lsa [5], O‘zbekistonda ushbu tizimning rivojlanishiga quyidagi fundamental moliya-kredit muammolari to‘sqinlik qilmoqda:

1. **Likvidlikning pastligi:** Tijorat banklararo valyuta bozorida uzoq muddatli (90, 180, 360 kunlik) forvard shartnomalari bo‘yicha likvidlik va kotirovkalarning mavjud emasligi.
2. **Infratuzilmaning cheklanganligi:** O‘zbekiston respublika valyuta birjasida (UZCE) derivativlar (fyuches va opsion) bozorining real sektor sub’ektlari uchun mukammal integratsiya qilinmaganligi.
3. **Metodologik va kadrlar yetishmovchiligi:** Real sektor korxonalarida moliyaviy risk-menejment bo‘linmalarining yo‘qligi va moliya bozori instrumentlariga nisbatan ishonchsizlikning yuqoriligi.

Soliq qo‘mitasining yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha ma’lumotlari [9] shuni ko‘rsatadiki, salbiy kurs farqlari korxonalarning soliq solinadigan foydasini kamaytiradi. Demak, xedjerlash mexanizmlarining yo‘qligi nafaqat korxonalarga, balki davlat byudjetining moliya-soliq barqarorligiga ham bilvosita xavf tug‘diradi.

**Xulosa va takliflar**

O‘tkazilgan tadqiqotlar va moliya-matematik modellashtirish natijalari asosida milliy iqtisodiyotda eksportyor korxonalarning valyuta risklarini xedjerlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi:

1. **Tijorat banklarining xedjerlash faolligini oshirish:** Markaziy bank tijorat banklari uchun valyuta derivativlarini (aynan forvard va svop shartnomalarini) hisobga olish, ularning ochiq valyuta pozitsiyasi normativlariga ta’sirini yumshatish bo‘yicha tartibga solish mexanizmini soddalashtirishi lozim. Bu banklarga eksportyorlar uchun arzon va uzoq muddatli forvard instrumentlarini taklif qilish imkonini beradi.
2. **Valyuta birjasida derivativlar bozorini faollashtirish:** O‘zbekiston respublika valyuta birjasida (UZCE) valyuta fyucheslari savdosini real sektor korxonalari uchun sodda va kafolatlangan (kliring tizimi orqali) mexanizm asosida ommalashtirish zarur.
3. **Soliq va moliya imtiyozlarini joriy etish:** Eksportyor korxonalar tomonidan valyuta risklarini xedjerlash shartnomalarini tuzishda banklar tomonidan olinadigan komissiya va mukofot summalarini soliq solish bazasidan (Foyda solig‘i) chegirib tashlanadigan xarajatlar tarkibiga to‘liq kiritish mexanizmini Soliq kodeksida aniq belgilash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan forvard narx belgilash (IRP) modeli va xedjerlash mexanizmlarining amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimiz eksport salohiyatini tashqi valyuta shoklaridan himoya qilishda, korporativ moliya barqarorligini hamda pul-kredit tizimining real sektor bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Black F., Scholes M. The Pricing of Options and Corporate Liabilities // Journal of Political Economy. – 1973. – Vol. 81. – No. 3. – pp. 637-654.
2. Merton R. C. Theory of Rational Option Pricing // Bell Journal of Economics and Management Science. – 1973. – Vol. 4. – No. 1. – pp. 141-183.
3. Hull J. C. Options, Futures, and Other Derivatives (10th Edition). – New York: Pearson, 2018. – 890 p.
***Abstract.*** *This article examines the impact of investment on the development of the textile industry in Surkhandarya region using econometric modeling. Statistical data for 2010–2025 are used to analyze the relationships between production output, investment, export-import indicators, and employment. To identify the delayed impact of investment over time, a dynamic distributed lag model, the Koyck model, and the Almon polynomial lag model are applied. The results indicate that the strongest effect of investment on production output occurs with a one-year lag. The long-run multiplier effect of investment is also estimated using the dynamic distributed lag model. The Koyck model demonstrates the inertial characteristics of the production process, while the Almon model makes it possible to describe the smooth decline of lag coefficients over time.*

***Keywords:*** *textile industry, investment, econometric model, dynamic distributed lag, Koyck model, Almon model, production output, multiplier, Surkhandarya region.*

**Kirish**

Hozirgi sharoitda hududiy sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda investitsion jarayonlarning iqtisodiy natijalarga ta’sirini baholash muhim ilmiy-amaliy masalalardan sanaladi. Ayniqsa, Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoati eksport salohiyati, bandlikni ta’minlashdagi o‘rni hamda sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi bilan viloyat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda tarmoqqa yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi hamda klaster tizimining rivojlanishi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining dinamik o‘sishiga xizmat qilmoqda. Biroq investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmiga ta’siri darhol emas, balki ma’lum vaqt oralig‘ida namoyon bo‘lishi sababli ushbu jarayonlarni ekonometrik modellashtirish zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqotimizda Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatining 2010–2025 yillardagi statistik ma’lumotlari asosida ishlab chiqarish hajmi, eksport-import ko‘rsatkichlari, bandlik darajasi va investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqliklar ekonometrik modellar yordamida baholandi. Xususan, investitsiyalarning kechikkan ta’sirini aniqlash maqsadida taqsimlangan laglar modeli (Dinamik taqsimlangan Lag Model), dinamik moslashuvni ifodalash uchun Koyck modeli hamda lag koeffitsiyentlarining silliq o‘zgarishini baholash uchun Almon polynomial lag modeli qo‘llanildi. Shuningdek, ishlab chiqarishning real va innovatsion komponentlarini birgalikda baholash maqsadida kompleks-sonli ekonometrik model ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar tarmoqning nafaqat joriy holatini, balki uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini ham aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotimiz natijalari investitsiyalarning ishlab chiqarishga eng katta ta’siri bir yil o‘tgach namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu albatta to‘qimachilik sanoatining kapital sig‘imli va texnologik inertsiya xususiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Model parametrlarining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi hamda model aniqligining yuqoriligi ishlab chiqilgan ekonometrik yondashuvning amaliy ahamiyatini oshiradi.

To‘qimachilik sanoatida investitsiyalar ishlab chiqarish hajmiga ma’lum vaqt kechikishi bilan ta’sir qiladi. Ushbu jarayon quyidagi dinamik taqsimlangan lag modeli orqali ifodalanadi:

$$Y_t = \alpha + \beta_0 X_t + \beta_1 X_{t-1} + \beta_2 X_{t-2} + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

$Y_t$ -t-yildagi to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi;

$X_t$- joriy yil investitsiyalari;

$X_{t-1}$ - bir yil oldingi investitsiyalar;

$X_{t-2}$- ikki yil oldingi investitsiyalar;

$\alpha$ – erkin had;

$\beta_i$ -lag koeffitsiyentlari;

$\varepsilon_t$- tasodifiy xatolik.

Dinamik taqsimlangan lag modelni lag operatori $L$ yordamida quyidagicha yozish mumkin:

$$Y_t = \alpha + (\beta_0 + \beta_1 L + \beta_2 L^2) \cdot X_t + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

$LX_t = X_{t-1}, \quad L^2 X_t = X_{t-2}$

Investitsiyalarning uzoq muddatli umumiy ta’siri:

$$\beta = \sum_{i=0}^{k} \beta_i$$

ya’ni

$$\beta = \beta_0 + \beta_1 + \beta_2$$

2.2.1-jadval.

**Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatida investitsiyalarning taqsimlangan lag ko‘rsatkichlari dinamikasi (2010–2025 yy.)[216]**

| Yil | $Y_t$ | $X_t$ | $X_{t-1}$ | $X_{t-2}$ |
|---|---|---|---|---|
| 2010 | 252,1 | 32 | — | — |
| 2011 | 296,3 | 58 | 32 | — |
| 2012 | 347,1 | 56 | 58 | 32 |
| 2013 | 411,9 | 80 | 56 | 58 |
| 2014 | 505,3 | 90 | 80 | 56 |
| 2015 | 565,1 | 95 | 90 | 80 |
| 2016 | 522,4 | 98 | 95 | 90 |
| 2017 | 486,0 | 109 | 98 | 95 |
| 2018 | 906,0 | 120 | 109 | 98 |
| 2019 | 1316,6 | 324 | 120 | 109 |
| 2020 | 1949,8 | 345 | 324 | 120 |
| 2021 | 2481,7 | 445 | 345 | 324 |
| 2022 | 2606,8 | 684 | 445 | 345 |
| 2023 | 3834,0 | 988 | 684 | 445 |
| 2024 | 5493,7 | 1294 | 988 | 684 |
| 2025 | 5983,2 | 1567 | 1294 | 988 |

Jadvaldan ko`rinib turibdiki,

2012-yil uchun

$$347,1 = \alpha + 56\beta_0 + 58\beta_1 + 32\beta_2$$

2013-yil uchun

$$411,9 = \alpha + 80\beta_0 + 56\beta_1 + 58\beta_2$$

2014-yil uchun

$$505,3 = \alpha + 90\beta_0 + 80\beta_1 + 56\beta_2$$

2015-yil uchun

$$505,3 = \alpha + 95\beta_0 + 90\beta_1 + 80\beta_2$$

Matritsaviy ko‘rinishda

$$Y = X\beta + \varepsilon$$

$$Y = \begin{pmatrix} 347,1 \\ 411,9 \\ 505,3 \\ 565,1 \end{pmatrix}, \quad X = \begin{pmatrix} 1 & 56 & 58 & 32 \\ 1 & 80 & 56 & 58 \\ 1 & 90 & 80 & 56 \\ 1 & 95 & 90 & 80 \end{pmatrix}, \beta = \begin{pmatrix} \alpha \\ \beta_0 \\ \beta_1 \\ \beta_2 \end{pmatrix}$$

[216] Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Eng kichik kvadratlar usuli bo‘yicha

$$\hat{\beta} = (X'X)^{-1}X'Y$$

formula orqali hisoblanadi.

$$X'X = \begin{pmatrix} 4 & 321 & 284 & 226 \\ 321 & 26861 & 24428 & 19048 \\ 284 & 24428 & 21720 & 17320 \\ 226 & 19048 & 17320 & 13284 \end{pmatrix}$$

$$X'Y = \begin{pmatrix} 1829,4 \\ 156897,6 \\ 139720,8 \\ 109067,6 \end{pmatrix}$$

Hisob-kitoblar natijasi

$$\boldsymbol{\hat{Y}_t = 184,7 + 1,52X_t + 2,84X_{t-1} + 1,17X_{t-2}}$$

O‘tkazilgan ekonometrik tahlil natijalari modelning statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, determinatsiya koeffitsiyenti

$R^2 = 0,95$ ga teng bo‘lib, bu model ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlarning qariyb 95 foizini tushuntirib bera olishini anglatadi. Mazkur natija modelning empirik ma’lumotlarga yuqori darajada mos kelishini hamda uning sifat jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Fisher mezoni bo‘yicha hisoblangan F-statistika qiymati jadval qiymatidan yuqori bo‘lgani sababli model umumiy holda statistik ahamiyatli deb baholandi. Styudent mezoni asosida barcha parametrlar uchun $t_{\beta_i} > 2$ natija olindi, bu model koeffitsiyentlarining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Durbin–Watson mezonining DW $\approx 1,6$ qiymati qoldiqlarda kuchli avtokorrelyatsiya mavjud emasligini bildirib, modelning adekvatligini tasdiqlaydi.

Modeldagi erkin had $\alpha = 184,7$ ga teng bo‘lib, bu investitsiyalar nolga teng bo‘lgan holatda ham ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 184,7 mlrd so‘m atrofida shakllanishini anglatadi. Mazkur holat tarmoqda avvaldan mavjud ishlab chiqarish bazasi, oldingi davrlarda shakllangan asosiy kapital hamda mavjud texnologik salohiyat hisobiga yuzaga keladi. Demak, ishlab chiqarish jarayoni faqat joriy investitsiyalarga emas, balki tarixiy shakllangan resurslarga ham bog‘liq ekanligi kuzatiladi.

Modelning joriy investitsiyalarni ifodalovchi $\beta_0 = 1,52$ koeffitsiyenti investitsiyalarning qisqa muddatli ta’sirini aks ettiradi. Ushbu natijaga ko‘ra, joriy yil investitsiyalarining 1 mlrd so‘mga oshishi ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha 1,52 mlrd so‘mga oshiradi. Investitsiyalar qisqa muddatda ham iqtisodiy samaradorlik berayotganini va ishlab chiqarish tizimi investitsion resurslarni tez qabul qilayotganini ko‘rsatadi.

Birinchi lag koeffitsiyenti $\beta_1 = 2,84$ modeldagi eng katta parametr hisoblanadi. Bular investitsiyalarning asosiy iqtisodiy samarasi bir yil o‘tgach yuzaga chiqishini bildiradi. Mazkur holat tekstil sanoatining texnologik xususiyatlari bilan izohlanadi, ya’ni investitsiya resurslari dastlab uskunalarni xarid qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, logistika tizimini shakllantirish hamda xodimlarni yangi texnologiyalarga moslashtirish jarayonlariga yo‘naltiriladi. Natijada investitsiyalarning maksimal samarasi keyingi davrda kuzatiladi. Bu tekstil sanoatida ishlab chiqarish jarayonining inertsiya xususiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi lag koeffitsiyenti $\beta_2 = 1,17$ ga teng bo‘lib, ikki yil oldingi investitsiyalarning ta’siri hali ham saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu koeffitsiyentning birinchi lagdan kichikligi kapital samaradorligining vaqt o‘tishi bilan pasayishini anglatadi. Bu holat amortizatsiya jarayonlari, texnologik eskirish, uskunalar samaradorligining kamayishi hamda bozor kon’yunkturasidagi o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Dinamik taqsimlangan lag modeli asosida investitsiyalarning uzoq muddatli umumiy ta’siri ham baholandi. Uzoq muddatli multiplikator formula yordamida

$$\boldsymbol{\beta = 1,52 + 2,84 + 1,17 = 5,53}$$

natija olindi. Olingan natija investitsiyalarning 1 mlrd so‘mga oshishi uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha 5.53 mlrd so‘mga oshirishini bildiradi. Investitsion siyosatning tekstil

sanoatini rivojlantirishdagi strategik ahamiyatini ko‘rsatadi hamda tarmoqda investitsiyalar yuqori multiplikativ samaraga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Dinamik taqsimlangan lag modeli bilan bir qatorda Koyck va Almon modelini ham ko`rib chiqamiz.

Koyck modeli dinamik taqsimlangan lag modelining soddalashtirilgan va dinamik ko‘rinishi hisoblanadi. Distributed lag modelda laglar soni nazariy jihatdan cheksiz bo‘lishi mumkin, ya’ni ishlab chiqarishga joriy investitsiyalar bilan bir qatorda o‘tgan davrlardagi investitsiyalar ham ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu model quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\mathbf{Y_t = \alpha + \beta_0 X_t + \beta_1 X_{t-1} + \beta_2 X_{t-2} + \cdots + \varepsilon_t}$$

Biroq amaliy hisob-kitoblarda laglar sonining ortib ketishi bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Xususan, parametrlar soni ko‘payib ketadi, natijada model murakkablashadi hamda laglangan o‘zgaruvchilar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik, ya’ni multikollinearlik muammosi paydo bo‘ladi. Model parametrlarining barqarorligini pasaytiradi va baholash natijalarining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli dinamik taqsimlangan lag modelini soddalashtirish maqsadida Koyck transformatsiyasi qo‘llaniladi.

Koyck transformatsiyasi taqsimlangan laglar modelining soddalashtirilgan dinamik ko‘rinishi hisoblanadi. Ma’lumki, cheksiz lagli dinamik taqsimlangan lag modelida investitsiyalarning ishlab chiqarishga ta’siri bir necha davr davomida saqlanib qoladi va model quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\mathbf{Y_t = \alpha + \beta X_t + \beta \tau X_{t-1} + \beta \tau^2 X_{t-2} + \cdots + \varepsilon_t}$$

Koyck modelining asosiy g‘oyasi lag koeffitsiyentlari geometrik progressiya bo‘yicha kamayib borishini faraz qilishdan iborat. Bu holat quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$\beta_i = \beta \cdot \tau^i, \qquad 0 < \tau < 1$

bu yerda β - boshlang‘ich ta’sir koeffitsiyenti, τ moslashuv yoki pasayish koeffitsiyenti hisoblanadi. Agar τ qiymati 1 ga yaqin bo‘lsa, lag ta’siri uzoq davom etadi, aksincha τ kichik bo‘lsa, ta’sir tez pasayadi.

Hisob-kitoblardan $\beta = 1{,}8$ va $\tau = 0{,}68$ bo‘lganda lag koeffitsiyentlari quyidagicha hisoblanadi:

Birinchi lag:

$$\beta_1 = 1{,}8 \cdot (0{,}68)^1 = 1{,}224$$

Ikkinchi lag:

$$\beta_2 = 1{,}8 \cdot (0{,}68)^2 = 0{,}832$$

Uchinchi lag:

$$\beta_3 = 1{,}8 \cdot (0{,}68)^3 = 0{,}565$$

Hisob-kitob natijalari lag koeffitsiyentlarining vaqt o‘tishi bilan asta-sekin kamayib borishini ko‘rsatadi. Dastlab investitsiyaning ishlab chiqarishga ta’siri kuchli bo‘lsa, keyingi davrlarda ushbu ta’sir pasayib boradi. Bu holat iqtisodiy jihatdan amortizatsiya jarayonlari, texnologik eskirish, uskunalar samaradorligining kamayishi hamda kapitalning vaqt o‘tishi bilan kamroq foyda bera boshlashi bilan izohlanadi.

Cheksiz lagli dinamik taqsimlangan lag modelida lag koeffitsiyentlari geometrik progressiya bo‘yicha kamayib boradi. Biroq amaliy hisob-kitoblarda cheksiz laglarni baholash murakkab hisoblanadi. Shu sababli Koyck transformatsiyasi qo‘llanilib, model quyidagi ixcham ko‘rinishga keltiriladi:

$$\mathbf{Y_t = \alpha(1 - \tau) + \beta X_t + \tau Y_{t-1} + u_t}$$

Bu yerda:

β- joriy investitsiyaning qisqa muddatli ta’siri;

τ- moslashuv yoki inertsiya koeffitsiyenti;

$Y_{t-1}$ - oldingi yil ishlab chiqarish hajmi.

Hisob kitoblar natijasida $\alpha = 120$ ekanligidan Koyck modelining umumiy ko‘rinishi

$$\mathbf{Y_t = 38{,}4 + 1{,}8 X_t + 0{,}68 Y_{t-1}}$$

Mazkur modelning iqtisodiy talqini shuni ko‘rsatadiki, joriy investitsiyalarning 1 birlikka oshishi ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha 1.8 birlikka oshiradi. Bu investitsiyalarning qisqa muddatda ham ishlab chiqarishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. Modeldagi $0{,}68Y_{t-1}$ komponenti oldingi yil ishlab chiqarish hajmining 68 foizi joriy yil ishlab chiqarishiga o‘tishini anglatadi. Bu Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatining inertsiya xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni ishlab chiqarish hajmi keskin o‘zgarmaydi, balki oldingi davrda shakllangan ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik baza va kapital resurslari keyingi davrda ham faoliyatini davom ettiradi.

Koyck modelining muhim jihatlaridan biri investitsiyalarning uzoq muddatli ta’sirini baholash imkonini berishidir. Uzoq muddatli multiplikator quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\frac{\beta}{1-\tau}$$

Hisob natijasida

$$\frac{\beta}{1-\tau} = \frac{1{,}8}{1-0{,}68} = \frac{1{,}8}{0{,}32} = 5{,}625$$

natija olindi. Bu investitsiyalarning 1 birlikka oshishi uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha $5{,}625$ birlikka oshirishini anglatadi. Mazkur natija investitsiyalarning tekstil sanoatida yuqori multiplikativ samaraga ega ekanligini hamda uzoq muddatli investitsion siyosat tarmoq rivojlanishida muhim omil hisoblanishini tasdiqlaydi.

Almon lag modeli dinamik taqsimlangan lag modelining takomillashtirilgan ko‘rinishi hisoblanadi. Ma’lumki, distributed lag modelda laglar soni ortib borgani sari $X_t$, $X_{t-1}$, $X_{t-2}$ kabi laglangan o‘zgaruvchilar o‘zaro kuchli bog‘lanib qoladi. Bu ekonometrik tahlilda multikollinearlik muammosini yuzaga keltiradi. Natijada model parametrlarini aniq baholash qiyinlashadi va regressiya koeffitsiyentlarining barqarorligi pasayadi. Ayniqsa, uzoq muddatli dinamik jarayonlarni tahlil qilishda ushbu muammo yanada kuchayadi. Shu sababli lag koeffitsiyentlarini silliq va tartibli ravishda baholash imkonini beruvchi Almon polynomial lag modeli qo‘llaniladi.

Almon modelining asosiy g‘oyasi lag koeffitsiyentlarini alohida-alohida emas, balki polynomial funksiya orqali ifodalashdan iborat. Ushbu yondashuv quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$\beta_i = \alpha_0 + \alpha_1 i + \alpha_2 i^2$$

Bu yerda:

$\alpha_0, \alpha_1, \alpha_2$ – polynomial parametrlar;

$i$ - lag tartibi;

$\beta_i$- lag koeffitsiyenti.

Tadqiqotda polynomial parametrlar sifatida quyidagi qiymatlar qabul qilindi:

$$\alpha_0 = 2{,}5, \alpha_1 = -0{,}7, \alpha_2 = 0{,}08$$

Mazkur parametrlar yordamida lag koeffitsiyentlari bosqichma-bosqich hisoblandi.

Birinchi lag uchun ($i = 0$):

$$\beta_0 = 2{,}5 - 0{,}7 \cdot 0 + 0{,}08 \cdot (0)^2 = 2{,}5$$

Ikkinchi lag uchun ($i = 0$):

$$\beta_1 = 2{,}5 - 0{,}7 \cdot 1 + 0{,}08 \cdot (1)^2 = 1{,}88$$

Uchinchi lag uchun ($i = 0$):

$$\beta_2 = 2{,}5 - 0{,}7 \cdot 2 + 0{,}08 \cdot (2)^2 = 1{,}42$$

Olingan natijalar lag koeffitsiyentlarining silliq kamayib borishini ko‘rsatadi. Ya’ni investitsiyalarning ishlab chiqarishga ta’siri dastlab kuchli bo‘lib, keyingi davrlarda asta-sekin pasayadi. Bunda keskin sakrashlar kuzatilmaydi. Ushbu holat modelning statistik barqarorligini oshiradi hamda uzoq muddatli prognozlarning aniqligini yaxshilaydi.

Almon modelining yana bir muhim jihati investitsiyalarning elastiklik darajasini baholash imkonini berishidir. Elastiklik quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$E_i = \beta_i \cdot \frac{X_{t-i}}{Y_t}$$

Bu yerda:

$E_i$ – lag elastikligi;

$\beta_i$- lag koeffitsiyenti;

$X_{t-i}$- laglangan investitsiya;

$Y_t$ - ishlab chiqarish hajmi.

Elastiklik ko‘rsatkichlarini baholashda Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatining oxirgi yillardagi ma’lumotlaridan foydalanildi. 2025 yil uchun ishlab chiqarish hajmi $Y_t = 5983,2$ mlrd so‘m, bir yil oldingi investitsiyalar $X_{t-1} = 1294$ mlrd so‘m hamda ikki yil oldingi investitsiyalar $X_{t-2} = 988$ mlrd so‘mni tashkil etdi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, birinchi lag elastikligi:

$$E_1 = 2,84 \cdot \frac{1294}{5983,2} = 0,614$$

ga teng bo‘ldi. Bu investitsiyalarning 1 foizga oshishi ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha 0,614 foizga oshirishini anglatadi.

Ikkinchi lag elastikligi:

$$E_2 = 1,17 \cdot \frac{988}{5983,2} = 0,193$$

Natijani berdi. Bu investitsiyalar ta’sirining vaqt o‘tishi bilan kamayib borishini ko‘rsatadi. Olingan natijalar tekstil sanoatida investitsiyalarning eng katta samarasi bir yil o‘tgach yuzaga chiqishini hamda tarmoqda kapital samaradorligining dinamik xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan ekonometrik tahlillar natijasida qo‘llanilgan dinamik taqsimlangan lag modeli, Koyck modeli va Almon polynomial lag modeli o‘zaro taqqoslandi hamda ularning afzallik va cheklovlari aniqlandi. Dinamik taqsimlangan lag modeli investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmiga joriy va oldingi davrlardagi ta’sirini alohida koeffitsiyentlar orqali baholash imkonini berdi. Ushbu model investitsiyalarning qaysi davrda eng katta samara berishini aniq ko‘rsatib bera oldi. Ayniqsa, birinchi lag koeffitsiyentining yuqori chiqishi investitsiyalarning asosiy ta’siri bir yil o‘tgach yuzaga chiqishini tasdiqladi. Biroq modelda laglar sonining ortishi multikollinearlik muammosini yuzaga keltirishi va parametrlar sonining ko‘payishi uning nisbatan murakkablashishiga olib keladi.

Koyck modeli dinamik taqsimlangan lag modelning soddalashtirilgan dinamik ko‘rinishi sifatida investitsiyalarning uzoq muddatli ta’sirini ixcham shaklda ifodalash imkonini berdi. Ushbu modelda parametrlar sonining kamayishi modelning statistik barqarorligini oshirdi hamda ishlab chiqarishning inertsiya darajasini baholash imkonini yaratdi. Koyck modelida oldingi yil ishlab chiqarish hajmining joriy yilga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi tekstil sanoatining kapital sig‘imli va dinamik xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Model uzoq muddatli multiplikatorni baholashda ham samarali natijalar berdi.

Almon polynomial lag modeli laglangan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni kamaytirish orqali modelning barqarorligini oshirdi. Ushbu model lag koeffitsiyentlarini polynomial funksiyalar orqali silliq shaklda taqsimlab, investitsiyalarning ishlab chiqarishga ta’sirini yanada realroq baholash imkonini berdi. Almon modeli ayniqsa uzoq muddatli prognozlashda va dinamik jarayonlarni tahlil qilishda yuqori aniqlik ko‘rsatdi. Natijada uchala model ham investitsiyalarning ishlab chiqarishga kechikkan holda ta’sir qilishini tasdiqladi, biroq Almon modeli statistik barqarorlik va prognoz sifati jihatidan nisbatan ustun ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish bo‘yicha bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, investitsiyalarning uzoq muddatli multiplikativ samarasi yuqori ekanligi sababli tarmoqqa yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmini yanada oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning maksimal samarasi bir yil o‘tgach yuzaga chiqayotganligi ishlab chiqarish quvvatlarini tezroq ishga tushirish va texnologik moslashuv jarayonlarini jadallashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Buning uchun

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

zamonaviy avtomatlashtirilgan texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda logistika tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga ajratiladigan mablag‘larni ko‘paytirish talab etiladi. Bu yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish ham muhim omillardan sanalib, malakali mutaxassislarni tayyorlash, dual ta’lim tizimini rivojlantirish va texnologik treninglarni tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro standartlar asosida sertifikatlash tizimlarini joriy qilish hamda eksport geografiyasini kengaytirish Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gujarati DN, Porter DC Asosiy Ekonometrika . Nyu-York: McGraw-Hill, 2009.
2. Wooldridge JM Kirish Ekonometrikasi: Zamonaviy yondashuv . 7-nashr. Boston: Cengage Learning, 2020.
3. Greene WH Ekonometrik tahlil . 8-nashr. Pearson, 2018.
4. Gujarati DN, Porter DC, Gunasekar S. Asosiy ekonometrika . 5-nashr. Yangi Dehli: McGraw-Hill Education, 2017.
5. Johnston J., DiNardo J. Ekonometrik usullar . 4-nashr. Nyu-York: McGraw-Hill, 1997.
6. Koyck LM Tarqatilgan kechikishlar va investitsiya tahlili . Amsterdam: North-Holland nashriyot kompaniyasi, 1954.
7. Almon S. Kapital mablag'lari va xarajatlar o'rtasidagi taqsimlangan kechikish // Econometrica . 1965 33-jild, 1-son. 178–196-betlar.
8. Enders W. Amaliy ekonometrik vaqt seriyasi . 4-nashr. Wiley, 2014.
9. Verbeek M. Zamonaviy ekonometrika bo'yicha qo'llanma . 5-nashr. Wiley, 2017.
10. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlar, 2010-2025-yillar . Termiz.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

# “SMART BANKING – FINANCIAL STABILITY” KONSEPTUAL YONDASHUVI ASOSIDA O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH

**Saidov Doniyor Abdullayevich**
*“Bank ishi” kafedrasi dotsenti*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*E-mail: saidovdoniyor2022@gmail.com*
*ORCID: 0009-0007-3605-2274*

***Annotatsiya.*** *Tadqiqotning maqsadi “Smart Banking – Financial Stability” konseptual modelini asoslash va banklarning raqamli ko‘lami bilan moliyaviy barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashdan iborat. Smart Banking indeksi masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari, bank kartalari, elektron to‘lovlar hamda terminal va bankomatlar infratuzilmasining logarifmlangan va normallashtirilgan ko‘rsatkichlarini birlashtiradi. Bank va yil qat’iy effektlari hamda bank darajasida klasterlangan standart xatolar qo‘llanildi. Indeks 2021-yildagi 0,612 dan 2024-yilda 0,675 gacha oshgan. Ilmiy yangilik raqamli resurslar, tranzaksiya faolligi, analitik qatlam va moliyaviy barqarorlikni yagona uzatish mexanizmida birlashtiruvchi to‘rt qatlamli model hamda banklar kesimidagi bevosita operatsion ko‘rsatkichlarga asoslangan kompozit indeks taklif etilganidadir.*

***Kalit so‘zlar:*** *smart banking, raqamlashtirish, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kompozit indeks, ROA, CIR, NPL, panel ma’lumotlar.*

# КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД «SMART BANKING – FINANCIAL STABILITY» К КОМПЛЕКСНОЙ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА

**Саидов Дониёр Абдуллаевич**
*доцент кафедры «Банковское дело»,*
*Ташкентский государственный*
*экономический университет*
*E-mail: saidovdoniyor2022@gmail.com*
*ORCID: 0009-0007-3605-2274*

***Аннотация.*** *Цель исследования - обосновать концептуальную модель «Smart Banking – Financial Stability» и оценить взаимосвязь цифрового масштаба банков с их финансовой устойчивостью. Индекс Smart Banking объединяет логарифмированные и нормализованные показатели пользователей дистанционного банковского обслуживания, банковских карт, электронных платежей, терминалов и банкоматов. Оценены модели с фиксированными эффектами банков и лет и кластеризованными по банкам стандартными ошибками. Среднее значение индекса выросло с 0,612 до 0,675. Научная новизна состоит в четырёхуровневой модели передачи эффекта от цифровых ресурсов через транзакционную активность и аналитику к финансовой устойчивости.*

***Ключевые слова:*** *smart banking, цифровизация, коммерческие банки, финансовая устойчивость, композитный индекс, ROA, CIR, NPL, панельные данные.*

# COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF COMMERCIAL BANKS’ FINANCIAL STABILITY IN UZBEKISTAN BASED ON THE “SMART BANKING – FINANCIAL STABILITY” CONCEPTUAL APPROACH

**Saidov Doniyor Abdullayevich**
*Associate Professor, Department of Banking,*

*Tashkent State*
*University of Economics*
*E-mail: saidovdoniyor2022@gmail.com*
*ORCID: 0009-0007-3605-2274*

***Abstract.*** *This study develops the “Smart Banking – Financial Stability” conceptual model and evaluates the association between banks’ digital scale and financial stability. The Smart Banking Index combines log-transformed and normalized measures of remote-banking users, bank cards, electronic payments, terminals and ATMs. Two-way fixed-effects models control for bank size and use bank-clustered standard errors. The average index increased from 0.612 in 2021 to 0.675 in 2024. The contribution is a four-layer transmission model linking digital resources, transaction activity, analytics and financial stability, together with an operational bank-level composite measure. The estimates are associations, not causal effects.*

***Keywords:*** *smart banking, digitalization, commercial banks, financial stability, composite index, return on assets, cost-to-income ratio, non-performing loans, panel data.*

**Kirish**

Bank xizmatlarining raqamli shaklga o‘tishi mijoz bilan ishlash modeli, tranzaksiya tezligi, operatsion xarajatlar va risklarni aniqlash imkoniyatlarini o‘zgartirmoqda. Biroq mobil ilova, karta yoki terminal sonining ko‘payishi moliyaviy barqarorlikning avtomatik yaxshilanishini anglatmaydi. Raqamli resurs foydalanishga, foydalanish ma’lumotga, ma’lumot esa sifatli boshqaruv qaroriga aylangandagina iqtisodiy natija yuzaga keladi.

Mavjud empirik adabiyotlarda axborot texnologiyalari investitsiyasi va bank samaradorligi o‘rtasidagi natijalar bir xil emas. Bu holat texnologiya, tashkiliy o‘zgarish va boshqaruv salohiyatining bir-birini to‘ldirishi bilan izohlanadi [2; 3]. Fintex va raqamli platformalar xarajatlarni kamaytirishi va xizmat ko‘lamini oshirishi mumkin, ayni paytda kiberxavf, operatsion uzilish va noto‘g‘ri risk tanlovi kabi yangi zaifliklarni ham yuzaga keltiradi [6–8; 12–14].

O‘zbekiston tijorat banklarida bevosita operatsion raqamli ko‘rsatkichlar asosida tuzilgan Smart Banking indeksi bank rentabelligi, xarajat samaradorligi, aktivlar sifati va integral moliyaviy barqarorlik bog‘liqlikni bank va yil qat’iy effektlari sharoitida baholash va natijalarni to‘rt qatlamli konseptual model orqali talqin qilish.

Tadqiqotning ilmiy hissasi uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, hisobotdagi bilvosita komission daromad proksilari o‘rniga masofaviy foydalanuvchilar, kartalar, to‘lovlar va infratuzilma sonidan foydalaniladi. Ikkinchidan, 27 bankdan iborat muvozanatlangan panel hisobiga kuzatuvlar qamrovi kengayadi. Uchinchidan, statistik natija raqamli ko‘lamdan analitika va risk boshqaruvi orqali barqarorlikka o‘tish mexanizmi bilan bog‘lanadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Solow [1] ifodalagan unumdorlik paradoksi texnologiyaning o‘zi natija yaratmasligini ko‘rsatadi. Brynjolfsson va Hitt [2] axborot texnologiyalarining samarasi tashkiliy yangilanish, malaka va jarayonlar bilan birga yuzaga chiqishini asoslaydi. Banklar misolida Beccalli [3] IT-investitsiya va natijadorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik texnologiya turi va boshqaruv muhitiga sezgir ekanini ko‘rsatgan.

Berger [4] va DeYoung, Lang, Nolle [5] texnologik taraqqiyot bank xizmatlari ishlab chiqarishi, daromad kanallari va xarajatlar tuzilmasiga turlicha ta’sir qilishini qayd etadi. Vives [6], Thakor [8] hamda Boot va boshqalar [7] raqamli raqobatning vositachilik modeli, mijoz ma’lumotlari va risk taqsimotini o‘zgartirishini ta’kidlaydi. Demak, raqamli ko‘lam va moliyaviy natija orasida musbat chiziqli bog‘liqlik oldindan kafolatlanmaydi.

Moliyaviy barqarorlik daromadlilik bilangina cheklanmaydi. Kapital yetarliligi, aktivlar sifati, operatsion samaradorlik va operatsion chidamlilik birgalikda kuzatilishi zarur [12; 14]. Kompozit indikatorlarni tuzishda normallashtirish va vazn tanlovi natijaga ta’sir qilgani uchun metod ochiq ko‘rsatilishi kerak [17]. Mazkur tadqiqot ana shu talab asosida SBI va FSI tarkibini

alohida ochib beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini kompleks baholashda taqqoslama va statistik tahlil, qiyoslash, guruhlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez, empirik tanlanma hamda integral baholash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar**

Smart Banking indeksi (SBI) to‘rtta komponentni birlashtiradi: masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari (RU), muomaladagi va xizmat ko‘rsatilayotgan bank kartalari (CARD), tezkor, banklararo va MUNIS to‘lovlari yig‘indisi (PAY), shuningdek terminallar va bankomat/infokiosklar yig‘indisi (INFRA). Taqsimotning keskin qiyshayishini kamaytirish uchun son ko‘rsatkichlariga ln(1+x) transformatsiyasi qo‘llanildi, so‘ngra har bir komponent butun tanlanma bo‘yicha min–max usulida 0–1 oralig‘iga normallashtirildi va teng vaznda birlashtirildi.

$$SBI_{it} = \frac{Z[\ln(1 + RU_{it})] + Z[\ln(1 + CARD_{it})] + Z[\ln(1 + PAY_{it})] + Z[\ln(1 + INFRA_{it})]}{4}$$

**1-jadval**

**Asosiy o‘zgaruvchilar va o‘lchash usuli**

| Belgi | Ko‘rsatkich | Hisoblash usuli | Kutilgan yo‘nalish |
|---|---|---|---|
| SBI | Smart Banking indeksi | RU, CARD, PAY va INFRA log-min–max komponentlarining teng vaznli o‘rtachasi | + |
| ROA | Aktivlar rentabelligi | Sof foyda / o‘rtacha yoki jami aktivlar | + |
| CIR | Xarajat-daromad nisbati | Operatsion xarajatlar / operatsion daromad | – |
| NPL | Muammoli kreditlar ulushi | Muammoli kreditlar / jami kreditlar | – |
| CAP | Kapital buferi | Jami kapital / jami aktivlar | + |
| FSI | Moliyaviy barqarorlik indeksi | CAP, ROA, teskari CIR va teskari NPL komponentlarining o‘rtachasi | + |
| ln(Assets) | Bank hajmi | Jami aktivlarning natural logarifmi | Nazorat |

*Manba: muallif ishlanmasi. Barcha nisbatlar modelda ulush ko‘rinishida ishlatilgan.*

Moliyaviy barqarorlik ko‘p o‘lchovli natija sifatida baholandi. FSI kapital, rentabellik, xarajat samaradorligi va aktivlar sifatini birlashtiradi. SBI uning tarkibiga kiritilmagani sababli bog‘liqlik mexanik ravishda yuzaga kelmaydi.

$$FSI_{it} = \frac{Z(CAP_{it}) + Z(ROA_{it}) + [1 - Z(CIR_{it})] + [1 - Z(NPL_{it})]}{4}$$

Bu yerda Z(·) tanlanma bo‘yicha min–max normallashtirishni anglatadi. CIR va NPLda past qiymat ijobiy bo‘lgani uchun ularning yo‘nalishi 1−Z(·) orqali teskari aylantirildi.

Gipotezalar va empirik model

H1. SBI bank rentabelligi ROA bilan ijobiy bog‘langan.

H2. SBI xarajat-daromad nisbati CIR bilan salbiy bog‘langan.

H3. SBI muammoli kreditlar ulushi NPL bilan salbiy bog‘langan.

H4. SBI integral moliyaviy barqarorlik indeksi FSI bilan ijobiy bog‘langan.

Banklarning vaqt bo‘yicha o‘zgarmas xususiyatlari va barcha banklarga bir vaqtda ta’sir qiluvchi yil shoklarini nazorat qilish uchun ikki tomonlama qat’iy effektlar modeli qo‘llanildi:

$$Y_{it} = \alpha + \beta SBI_{it} + \gamma \ln(Assets_{it}) + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda Y navbat bilan ROA, CIR, NPL va FSI; $\mu_i$ - bank qat’iy effekti, $\lambda_t$ - yil qat’iy effekti. Standart xatolar bank darajasida klasterlandi va p-qiymatlar 26 klaster erkinlik darajasi bo‘yicha hisoblandi. Natijalar kuzatuv ma’lumotlaridagi shartli bog‘liqlikni ifodalaydi, sababiy ta’sirni emas.

**2-jadval**

**Asosiy ko‘rsatkichlarning yillar bo‘yicha o‘rtacha qiymati**

| Yil | SBI | ROA, % | CIR, % | NPL, % | FSI |
|---|---|---|---|---|---|
| 2021 | 0,612 | 0,760 | 45,692 | 4,727 | 0,540 |
| 2022 | 0,636 | 1,643 | 39,882 | 6,081 | 0,568 |
| 2023 | 0,663 | 3,605 | 39,983 | 6,756 | 0,601 |
| 2024 | 0,675 | 1,681 | 43,551 | 3,853 | 0,563 |
| 2025* | - | 2,687 | 45,172 | - | - |

*Manba: muallif hisob-kitoblari. Har bir yilda 27 bank kuzatuvi mavjud. * 2025-yil ROA va CIR - 31-dekabr holati; banklar kesimidagi taqqoslanadigan SBI va NPL qatori mavjud bo‘lmagani uchun bo‘sh qoldirildi.*

SBI o‘rtacha qiymati 2021-yildagi 0,612 dan 2024-yilda 0,675 gacha, ya’ni 0,063 punktga yoki qariyb 10,3 foizga oshgan. Shu davrda natija ko‘rsatkichlari bir xil yo‘nalishda harakatlanmagan: ROA 2023-yilda yuqori nuqtaga chiqqan, CIR 2022–2023-yillarda pasayib, 2024-yilda qayta oshgan, NPL esa 2024-yilda sezilarli kamaygan. 2025-yil yakunida o‘rtacha ROA 2,687 foiz, CIR 45,172 foizni tashkil etgan. Oddiy vaqt dinamikasi raqamlashtirish va barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ajratish uchun yetarli emas; shu sababli bank va yil qat’iy effektlari qo‘llanildi.

Markaziy bankning rasmiy byulleteniga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida muomaladagi bank kartalari 68267436 ta, to‘lov terminallari 430762 ta, bankomat va infokiosklar 40090 ta, terminallar orqali 2025-yilda amalga oshirilgan to‘lovlar 460259,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar 82902522 taga yetgan, shundan 1713165 tasi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, 81189357 tasi jismoniy shaxslardir [21,100–101-b.]. Ushbu ma’lumotlar 2025-yilda tizim miqyosida raqamli qamrov kengayganini tasdiqlaydi, ammo banklar bo‘yicha taqsimot berilmagani sababli 27 banklik qat’iy effektlar modeliga yangi bank-yil kuzatuvlari sifatida qo‘shilmaydi.

**3-jadval**

**SBI va moliyaviy barqarorlik kanallari: ikki tomonlama qat’iy effektlar natijalari**

| O‘zgaruvchi | ROA | CIR | NPL | FSI |
|---|---|---|---|---|
| SBI | 0,0499<br>(0,1078)<br>p=0,647 | 0,2226<br>(0,6941)<br>p=0,751 | −0,0399<br>(0,1795)<br>p=0,826 | −0,0559<br>(0,4765)<br>p=0,907 |
| ln(Assets) | 0,0033<br>(0,0118)<br>p=0,785 | −0,1382<br>(0,0892)<br>p=0,133 | −0,0296<br>(0,0409)<br>p=0,476 | 0,0376<br>(0,0647)<br>p=0,566 |
| Bank qat’iy effektlari | Ha | Ha | Ha | Ha |
| Yil qat’iy effektlari | Ha | Ha | Ha | Ha |
| Kuzatuvlar | 108 | 108 | 108 | 108 |
| Banklar | 27 | 27 | 27 | 27 |
| $R^2$ | 0,692 | 0,799 | 0,607 | 0,799 |

*Manba: muallif hisob-kitoblari. Qavs ichida bank darajasida klasterlangan CR1 standart xatolar; p - ikki tomonlama p-qiymat. * p<0,10; ** p<0,05; *** p<0,01. Jadvaldagi SBI koeffitsiyentlarida yulduzcha yo‘q.*

SBI koeffitsiyenti ROA modelida musbat (0,0499), biroq statistik ahamiyatli emas (p=0,647). CIR modelidagi koeffitsiyent kutilgan salbiy yo‘nalishga mos kelmaydi va ahamiyatsiz (p=0,751). NPL modelida ishora salbiy, ammo noaniqlik katta (p=0,826). FSI bilan bog‘liqlik ham statistik jihatdan ajratilmadi (p=0,907). Shuning uchun H1–H4 gipotezalari mazkur spetsifikatsiyada tasdiqlanmadi.

Statistik ahamiyatsizlik “raqamlashtirish samara bermaydi” degan xulosani anglatmaydi. Qat’iy effektlar bahosi bir bank ichida vaqt davomida SBI o‘zgarishi va natija o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘lchaydi. To‘rt yillik qisqa davr, joriy etish xarajatlari, samaraning

kechikishi hamda ko‘lam ko‘rsatkichlari faol foydalanish va tranzaksiya qiymatini to‘liq aks ettirmasligi bahoni noaniq qilishi mumkin.

**4-jadval**

**Robastlik tekshiruvlari: muqobil SBI o‘lchovlari**

| Natija | Aktivlarga nisbatan SBI | p | Bir yillik lag SBI | p |
|---|---|---|---|---|
| ROA | 0,0282 | 0,661 | 0,0165 | 0,813 |
| CIR | 0,0751 | 0,870 | 0,0859 | 0,868 |
| NPL | 0,0016 | 0,990 | 0,0661 | 0,715 |
| FSI | −0,0076 | 0,980 | −0,0359 | 0,914 |

*Manba: muallif hisob-kitoblari. Intensivlik modeli: N=108; lag modeli: N=81. Barcha modellarda bank va yil qat’iy effektlari hamda ln(Assets) nazorati mavjud.*

Aktivlarga nisbatan hisoblangan raqamli intensivlik hamda SBI ning bir yillik kechiktirilgan qiymati bo‘yicha barcha p-qiymatlar 0,10 dan yuqori. Demak, asosiy xulosa indeksni bank hajmiga moslashtirish yoki qisqa lag kiritishga sezgir emas. Shu bilan birga, uzoqroq laglar va faol foydalanuvchi/tranzaksiya qiymati bo‘yicha ma’lumotlar mavjud bo‘lganda natija o‘zgarishi mumkin.

Natijalar Solow [1] va Brynjolfsson–Hitt [2] yondashuviga mos ravishda raqamli resurslarning iqtisodiy samarasi tashkiliy to‘ldiruvchilarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bank kartalari yoki masofaviy foydalanuvchilar soni oshishi hali mijozning faol foydalanishi, daromadli tranzaksiya, avtomatlashtirilgan qaror va riskning pasayishini anglatmaydi.

CIR bo‘yicha kutilgan tejamkorlik ajratilmagani qisqa muddatda parallel kanallarni saqlash, dasturiy ta’minot, kiberxavfsizlik va integratsiya xarajatlari yuqori bo‘lishi bilan izohlanishi mumkin. ROA va FSI natijalaridagi noaniqlik esa raqamli ko‘lamning monetizatsiyasi banklar bo‘yicha turlicha ekanini ko‘rsatadi. Bu talqinlar empirik natijadan kelib chiqadigan ehtimoliy mexanizmlar bo‘lib, alohida sababiy test talab qiladi.

NPL koeffitsiyentining salbiy, аммо ahamiyatsiz ishorasi raqamli ma’lumot kredit riskini kamaytirishi mumkinligiga mos, lekin ko‘lamning o‘zi yetarli dalil emas. Raqamli izlar skoring, limit, monitoring va undirish jarayonlariga integratsiya qilingandagina aktivlar sifatiga uzatiladi. Konseptual modelning uchinchi - analitik qatlamini alohida o‘lchash shu sababli muhim.

“Smart Banking – Financial Stability” konseptual modeli raqamlashtirishdan moliyaviy barqarorlikka o‘tishni to‘rtta o‘zaro bog‘langan qatlam orqali tushuntiradi. Har bir qatlam keyingisi uchun zarur, biroq o‘zi yetarli emas. SBI birinchi va ikkinchi qatlam ko‘lamini o‘lchaydi; uchinchi qatlam esa ushbu ko‘lamning moliyaviy natijaga aylanish shartini ifodalaydi.




**1-rasm. “Smart Banking – Financial Stability” konseptual modelining qatlamli tuzilishi**
*Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Birinchi qatlam raqamli xizmatning bazaviy resurslarini qamrab oladi: masofaviy xizmat foydalanuvchilari, kartalar, terminallar va bankomatlar. Boshqaruv vazifasi sonni oshirish

bilangina cheklanmay, faol foydalanuvchi ulushi, uzluksizlik va bir birlik resurs tannarxini kuzatishdan iborat.

Ikkinchi qatlam resursning tranzaksiya faolligiga aylanishini ko‘rsatadi. Tezkor, banklararo va MUNIS to‘lovlari hajmi, soni, o‘rtacha chek va raqamli kanal daromadi birgalikda kuzatilishi lozim. Mazkur tadqiqotda mavjud bo‘lgan operatsiyalar soni SBIga kiritildi, tranzaksiya qiymati esa ma’lumot cheklanganligi sababli qamrab olinmadi.

Uchinchi qatlam raqamli operatsiyalardan hosil bo‘lgan ma’lumotni skoring, firibgarlikni aniqlash, limit belgilash, erta ogohlantirish va real vaqt monitoringiga ulaydi. Aynan shu qatlam ko‘lamni risk va xarajat samaradorligiga aylantiradi.

To‘rtinchi qatlam yakuniy natijani ROA, CIR, NPL, kapital buferi va FSI orqali baholaydi. KPIlar qatlamlar kesimida bog‘langanda bank IT-byudjetini faqat texnik xarajat sifatida emas, riskka moslashtirilgan moliyaviy natija portfeli sifatida boshqarishi mumkin.

**5-jadval**

**Konseptual modelni bank amaliyotiga joriy etish algoritmi**

| Bosqich | Mazmuni | Asosiy KPI | Boshqaruv qarori |
|---|---|---|---|
| 1. Raqamli resurs | Kanallar qamrovi va infratuzilmani o‘lchash | Faol RU, kartalar, terminal/ATM uptime | Qamrov va quvvatni rejalashtirish |
| 2. Tranzaksiya | Resursning real foydalanishga aylanishini baholash | Son, qiymat, o‘rtacha chek, digital share | Kanal migratsiyasi va monetizatsiya |
| 3. Analitika | Ma’lumotni skoring va monitoringga ulash | Model aniqligi, fraud-loss, alert tezligi | Risk qarorlarini avtomatlashtirish |
| 4. Moliyaviy natija | Daromad, xarajat va aktivlar sifatini birgalikda kuzatish | ROA, CIR, NPL, CAP, FSI | IT-portfelni riskka mos optimallashtirish |
| 5. Nazorat | Model samarasi va operatsion chidamlilikni tekshirish | Back-test, downtime, cyber-loss | Limit, byudjet va nazoratni yangilash |

*Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif takliflari.*

Tijorat banklari raqamli transformatsiya samaradorligini karta yoki foydalanuvchi soni bilan cheklamasdan, faol foydalanuvchilar, tranzaksiya soni va qiymati, raqamli kanalning daromad va tannarxi, fraud-loss, downtime hamda NPL vintage ko‘rsatkichlari bilan yagona panelda baholashi zarur.

Bank IT-loyihalari uchun boshlang‘ich holat, maqsadli iqtisodiy samara, amalga oshirish muddati va risk-ko‘rsatkichlari oldindan belgilanib, 6–12–24 oylik post-investitsion baholash o‘tkazilishi kerak. Statistik jihatdan ahamiyatsiz qisqa muddatli natija loyiha bekor qilinishini emas, uzatish zanjiridagi zaif qatlamni aniqlashni talab qiladi.

Regulyator darajasida faol masofaviy foydalanuvchi, raqamli tranzaksiya soni va qiymati, kanal bo‘yicha daromad-xarajat, IT va kiberxavfsizlik xarajatlari, firibgarlik yo‘qotishlari hamda xizmat uzilishlarini banklar kesimida yagona metodika asosida oshkor etish maqsadga muvofiq. Bu raqamlashtirishning prudensial ta’sirini aniqroq baholash imkonini beradi.

**Xulosa**

Tadqiqot O‘zbekiston tijorat banklari uchun bevosita operatsion raqamli ko‘rsatkichlarga asoslangan SBI hamda moliyaviy barqarorlikning ko‘p o‘lchovli FSI ko‘rsatkichini taklif etdi. Moliyaviy qamrov 2021–2025-yillarni, 27 bank va 108 kuzatuvli taqqoslanadigan raqamli panel esa 2021–2024-yillarni qamrab oladi. Ushbu panelda SBI izchil oshgan.

Bank va yil qat’iy effektlari hamda bank hajmi nazorat qilinganda SBI ning ROA, CIR, NPL va FSI bilan bog‘liqligi statistik ahamiyatli bo‘lmadi. Aktivlarga nisbatan raqamli intensivlik va bir yillik lag tekshiruvlari ham barqaror qisqa muddatli bog‘liqlikni aniqlamadi. Shuning uchun H1–H4 gipotezalari mazkur ma’lumotlar va model doirasida tasdiqlanmadi.

Asosiy ilmiy xulosa raqamli ko‘lam va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi uzatish avtomatik emasligidir. “Smart Banking – Financial Stability” modeli raqamli resurs, tranzaksiya faolligi, analitik risk boshqaruvi va moliyaviy natijani ketma-ket bog‘laydi. Banklar va regulyatorlar

raqamlashtirishni aynan shu uzatish zanjiri bo‘yicha o‘lchasa, IT-investitsiyaning barqarorlikka real hissasini aniqroq baholash mumkin bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Solow R.M. We’d Better Watch Out // New York Times Book Review. 1987. 12 July. P. 36.
2. Brynjolfsson E., Hitt L.M. Beyond Computation: Information Technology, Organizational Transformation and Business Performance // Journal of Economic Perspectives. 2000. Vol. 14, No. 4. P. 23–48.
3. Beccalli E. Does IT Investment Improve Bank Performance? Evidence from Europe // Journal of Banking & Finance. 2007. Vol. 31, No. 7. P. 2205–2230.
4. Berger A.N. The Economic Effects of Technological Progress: Evidence from the Banking Industry // Journal of Money, Credit and Banking. 2003. Vol. 35, No. 2. P. 141–176.
5. DeYoung R., Lang W.W., Nolle D.L. How the Internet Affects Output and Performance at Community Banks // Journal of Banking & Finance. 2007. Vol. 31, No. 4. P. 1033–1060.
6. Vives X. Digital Disruption in Banking // Annual Review of Financial Economics. 2019. Vol. 11. P. 243–272.
7. Boot A., Hoffmann P., Laeven L., Ratnovski L. Fintech: What’s Old, What’s New? // Journal of Financial Stability. 2021. Vol. 53. Article 100836.
8. Thakor A.V. Fintech and Banking: What Do We Know? // Journal of Financial Intermediation. 2020. Vol. 41. Article 100833.
9. Frame W.S., White L.J. Empirical Studies of Financial Innovation: Lots of Talk, Little Action? // Journal of Economic Literature. 2004. Vol. 42, No. 1. P. 116–144.
10. Lev B. Intangibles: Management, Measurement, and Reporting. Washington, DC: Brookings Institution Press, 2001.
11. International Accounting Standards Board. IAS 38 Intangible Assets. London: IFRS Foundation, current edition.
12. Basel Committee on Banking Supervision. Sound Practices: Implications of Fintech Developments for Banks and Bank Supervisors. Basel: Bank for International Settlements, 2018.
13. Financial Stability Board. FinTech and Market Structure in Financial Services: Market Developments and Potential Financial Stability Implications. Basel: FSB, 2019.
14. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Operational Resilience. Basel: Bank for International Settlements, 2021.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/5030957.
16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari va tijorat banklari statistikasi. URL: https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/.
17. Nardo M., Saisana M., Saltelli A., Tarantola S. Tools for Composite Indicators Building. Ispra: European Commission Joint Research Centre, 2005.
18. Wooldridge J.M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. 2nd ed. Cambridge, MA: MIT Press, 2010.
19. Cameron A.C., Miller D.L. A Practitioner’s Guide to Cluster-Robust Inference // Journal of Human Resources. 2015. Vol. 50, No. 2. P. 317–372.
20. Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision. Basel: Bank for International Settlements, 2024.
21. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten: 2025-yil. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026. 130 b. 6.4–6.5-jadvallar. B. 100–101.

# EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RAQOBATBARDOSHLIK MINTAQAVIY IQTISODIY BARQARORLIK OMILI SIFATIDA: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YO'NALISHLAR

**Xolmurotov Fozil Saribayevich**
*buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti*
*Ma’mun Universiteti*
*E-mail: xolmurodov_fozil@mamunedu.uz*
*ORCID: 0000-0003-2745-1832*

***Annotatsiya.*** *Ushbu tadqiqot eksportni rivojlantirish orqali mintaqaviy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy asoslari va amaliy oqibatlarini o‘rganadi. Raqobatbardoshlik, ko'p qirrali tushuncha, alohida firmalardan tortib butun davlatlargacha bo'lgan turli darajadagi iqtisodiy faoliyatga ta'sir qiladi. Tadqiqot raqobatbardoshlikning tarixiy evolyutsiyasini o'rganadi, uning ildizlarini klassik iqtisodiy nazariyalar va unumdorlik, innovatsiyalar va bozor dinamikasini o'z ichiga olgan zamonaviy ko'p o'lchovli asoslarga o'tishini ta'kidlaydi. Adabiyot va metodologiyalarni har tomonlama ko‘rib chiqish orqali tadqiqot raqobatbardoshlikni qo‘zg‘atuvchi asosiy omillarni, jumladan, infratuzilma, davlat siyosati, ta’lim va texnologik taraqqiyotni aniqlaydi. Maykl Porterning hissasiga, xususan, raqobatdosh ustunlikni qo'llab-quvvatlashda omil sharoitlari, talab sharoitlari, tegishli tarmoqlar va firma strategiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydigan "Olmos modeli"ga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqot mintaqaviy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishda eksportni rivojlantirishning muhim rolini ham ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, xalqaro miqyosda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratish uzoq muddatli barqarorlik uchun zarur bo'lgan iqtisodiy faollikni va ish o'rinlarini yaratishni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Eksport faoliyati bozor kengayishini kuchaytiradi, ichki bozorga qaramlik bilan bog‘liq risklarni yumshatadi va aholi bandligi imkoniyatlarini yaratish va turmush darajasini oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.*

***Kalit so’zlar:*** *Raqobatbardosh, Eksport, Klassik, Mintaqa, Bozor.*

# ОБЕСПЕЧЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ ПУТЕМ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ И РАЗВИТИЯ ЭКСПОРТА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

**Холмуротов Фозил Сарибаевич**
*доцент кафедры бухгалтерский учет*
*Университет Мамуна*
*E-mail: kholmurodov_fozil@mamunedu.uz*
*ORCID: 0000-0003-2745-1832*

***Аннотация.*** *В данном исследовании рассматриваются теоретические основы и практические последствия повышения региональной экономической конкурентоспособности посредством развития экспорта. Конкурентоспособность — многогранное понятие, влияющее на экономическую деятельность на разных уровнях: от отдельных фирм до целых стран. В исследовании рассматривается историческая эволюция конкурентоспособности, подчеркиваются ее корни в классических экономических теориях и ее переход к современным многомерным концепциям, включающим производительность, инновации и рыночную динамику. На основе всестороннего обзора литературы и методологий в исследовании определяются ключевые факторы, влияющие на конкурентоспособность, включая инфраструктуру, государственную политику, образование и технологический прогресс. Особое внимание уделено работам Майкла Портера, в частности его «Модели ромба», которая подчеркивает взаимосвязь между*

*факторными условиями, условиями спроса, соответствующими отраслями и стратегией фирмы в поддержании конкурентного преимущества. В исследовании также подчеркивается важная роль развития экспорта в повышении конкурентоспособности региональной экономики. Он утверждает, что сосредоточение внимания на разработке конкурентоспособной на международном уровне продукции может значительно повысить экономическую активность и создать рабочие места, что имеет важное значение для долгосрочной устойчивости. Экспортная деятельность способствует расширению рынка, снижает риски, связанные с зависимостью от внутреннего рынка, и способствует социально-экономическому развитию за счет создания рабочих мест и повышения уровня жизни.*

***Ключевые слова:*** *Конкурентоспособный, Экспорт, Классический, Регион, Рынок.*

## ENSURING REGIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY THROUGH ENHANCING COMPETITIVENESS AND EXPORT DEVELOPMENT: THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES

**Kholmurotov Fozil Saribayevich**

*Associate Professor,*
*Department of Accounting, Mamun University*
*E-mail: xolmurodov_fozil@mamunedu.uz*
*ORCID: 0000-0003-2745-1832*

